



O'ZBEKISTON TARIXIDAN UNIVERSAL QO'LLANMA




5-
nashr

O'ZBEKISTON TARIXIDAN UNIVERSAL QO'LLANMA

5-nashr

Toshkent
«Akadempnashr»
2019



UO'K: 94(575.1)(075)
KBK: 63.3(50')(ya7)
Sh 26

Sh 26 **Sharopov, Abdulla.**

O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma [Matn] 5-nashr/ A.Sharopov. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 496 b.

ISBN 978-9943-4823-5-7

UO'K: 94(575.1)(075)
KBK: 63.3(50')(ya7)

Ushbu qo'llanmada eng qadimgi davrlardan to shu vaqtgacha yurtimiz tarixida yuz bergan asosiy voqealar qamrab olingan. O'quvchiga qulaylik yaratish maqsadida muhim sanalar, joy va shaxs nomlari, e'tiborga molik nuqtalar ajratib ko'rsatilgan, yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan. Kitob tilining sodda va tushunarli bo'lishiga ahamiyat berilgan. Qo'llanma o'quvchilar, talabalar, abituriyentlar va O'zbekiston tarixiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

To'plab nashrga tayyorlovchilar:

Dilshodbek O'ROQOV, Abdulla SHAROPOV

Mas'ul muharrir:

K.TO'LAGANOV, tarix fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

R.SIDDIQOV, tarix fanlari nomzodi, dotsent,
A.XOLIQULOV, tarix fanlari nomzodi, dotsent

*O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha
muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-4823-5-7

© «Akademnashr», 2019

1-BOB. ENG QADIMGI TUZUMDAN SIVILIZATSIYA SARI

1.1. Qadimgi tarix – sivilizatsiyaning boshlanishi

Qadimgi tarixni o'rganish. Insoniyatning qadimgi tarixini turli ixtisosdagi olimlar o'rganadilar. *Arxeologlar* qadim zamonlarda odamlar yashagan manzilgohlarda qazishma ishlarini amalga oshiradilar.

Antropologlar qadimgi odamlarning qoldiqlarini (skelet va boshchanog'ini) sinchiklab tekshirib, ularning tashqi ko'rinishini tiklaydilar, ming yillar avvalgi kishilarning tashqi qiyofasida ro'y bergan o'zgarishlarni o'rganadilar.

Etnograflar qadimgi odamlarning ko'pgina udumlari, xo'jalik va madaniy an'analarini saqlab qolgan hozirda mavjud qabilalar va xalqlarni o'rganadilar.

Lingvistlar, ya'ni tilshunoslar u yoki bu zamonaviy tilning qanday shakllanganini bilish maqsadida qadimgi tillarni o'rganadilar.

Qadimgi tarix bo'yicha manbalar. O'lkamiz eng qadimgi tarixining keng o'rganilgan manbalari qadimshunoslar tomonidan topilgan *moddiy manbalardir*. Mehnat qurollari, sopol idishlar, qurol-aslahalar, zeb-ziyat buyumlari, xullas, qadimda inson qo'li bilan yaratilgan hamma narsalar shular jumlasiga kiradi.

Yozma manbalar topilishi bilan olimlarga qadimgi mingyilliklar tarixini tiklash osonlashdi. O'rta Osiyo tarixi bo'yicha eng qadimgi yozma manba zardushtiyalarning muqaddas kitobi «*Avesto*»dir. Unda yurtimizning qadimgi tarixiy viloyatlari – Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm aholisi madaniyati to'g'risida hikoya qilinadi.

Qadimgi davr tarixiga doir yana bir yozma manba *Behistun* qoyalariidagi yozuvlardir. Behistun qoyalari Erondagi *Kirmonshoh* shahri yaqinida joylashgan. Fors shohi Doro I buyrug'i bilan qoyaga o'yib yozilgan *qadimgi fors, elam va babil* tillaridagi yozuvlarda Doro I zabt etgan mamlakat va xalqlar, shu jumladan, Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya davlatlari sanab o'tiladi.

Mil. avv. V asrda qadimgi yunon tarixchisi *Gerodot* turli mamlakatlarga sayohat qilib, to'qqiz kitobdan iborat «*Tarix*» asarini yozdi. Unda o'lkamizning qadimgi aholisi to'g'risida ham ma'lumot beriladi.

Mil. avv. I asr oxirlarida qadimgi yunon tarixchisi va geografi *Strabon* «*Geografiya*» nomli asarida ko'plab mamlakatlar xalqlari madaniyati va tarixiy voqealari haqida ma'lumotlar keltiradi.

Mil. avv. II asr oxiri – I asr boshlarida qadimgi Xitoy tarixchisi *Sim Syan* «*Tarixiy yilnomalar*» nomli asar yozgan. U yurtimizning qadimgi aholisi to'g'risida ham ma'lumotlar bergan.

Milodiy I asrda qadimgi Rim tarixchisi *Kvint Kursiy Ruf* «*Makedoniyalik Aleksandr tarixi*» nomli asar yozgan. Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlarni milodiy II asrda yunon tarixchisi *Arrian* ham ancha to'ldiradi. U «*Aleksandrning harbiy yurishlari*» deb nomlangan asar yozgan.

O'zbekiston va jahon sivilizatsiyasi. Qadimgi davrlardan beri O'zbekiston hududlari geografik jihatdan *O'rta Osiyo* deb umumiy nom ostida birlashtirilgan hududlar tarkibiga kiradi. O'zbekiston ancha katta hududni egallaydi. Amudaryo va Sirdaryo oralig'i, Farg'ona, Zarafshon vodiylari va Surxondaryo vohasi o'zining serhosilligi va iliq iqlimi tufayli qadimdayoq obod bo'lgan. Qulay geografik joylashuvga ega bu zamin Sharq va G'arb mamlakatlarini bog'lab turgan. Bunda O'zbekistonning qadimgi shaharlari orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan. O'zbekiston kishilik madaniyati tarixining eng qadimgi maskanlaridan biridir.

Bu yerda mahalliy aholi qadimgi zamonlardan boshlab yashagan. Mil. avv. VI – V asrlarda yunonlar yurtimizning aholisi, viloyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lganlar. O'rta Osiyoning ikki yirik daryosi – Amudaryo va Sirdaryo Hindiqush, Pomir va Tyanshan tog'laridan boshlanuvchi tezoqar daryo suvlari bilan to'lib, dengiz tomon quyilgan. Daryolar vohalari bo'ylab muhim savdo yo'llari o'tgan.

Bundan 5 – 4 ming yillar avval O'rta Osiyoning qadimgi aholisi bilan Qadimgi Sharq elatlari o'rtasida keng madaniy aloqalar boshlangan. Ko'hna qadamjolarini qazish chog'ida arxeologlar Hindiston, Eron va Mesopotamiya hunarmandlari tomonidan tayyorlangan sopol va metall idishlar, zargarlik buyumlarini topishgan.

Mil. avv. 1-mingyillikda, Sharqda qadimgi yirik saltanatlar gullab-yashnagan davrda madaniy aloqalar yanada kuchaydi. Turli yozma va arxeologik manbalarda bu qadim xalqlarning hunarmandchiligi, me'morchiligi va qishloq xo'jaligi sohalarida namoyon bo'lganligi qayd etilgan.

Eng qadimgi tuzumni davrlashtirish. Jahondagi barcha xalqlarning tarixi ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlangan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat tarixining boshlang'ich davri bo'lib, bu paytda barcha mehnat qurollari umumiy bo'lgan va hamma birgalikda mehnat qilgan.

Insoniyat rivojidadagi birinchi bosqich kishilarning ibtidoiy to'daga birlashuvi bo'lib, bu to'da o'zida qadimgi odamlarning katta jamoasini mujassam etgan.

Ibtidoiy to' da bu – turmush va mehnat umumiyligi negizida birlashgan eng qadimgi odamlar jamoasi.

Ibtidoiy to' da asta-sekinlik bilan qarindoshlarning alohida uyushmasiga – *urug' jamoasiga* aylana bordi.

Urug' bu – birgalikda yashagan va mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yarog'larga ega bo'lgan qarindoshlar jamoasi.

Dastlabki urug' jamoalari ayol kishi, ya'ni ona tevaragida jipslasha boshlagan. Insoniyat tarixidagi bu bosqich ona urug'i davri – *matriarxat* deb ataladi.

Mehnat qurollari va xo'jalik yuritish shakllari takomillashgani sayin jamoada-gi yetakchilik mavqeyi asta-sekin erkak kishiga o'ta boshladi, endi u urug'ga sardor bo'lib qoldi. Olimlar insoniyat tarixidagi bu davrni *patriarxat* – ota urug'i deb atashadi. Patriarxat bilan eng qadimgi urug'chilik tuzumi ham yakunlanadi.

Eng qadimgi odamlar dastlabki mehnat qurollarini toshdan yasagani tufayli arxeologlar insoniyat tarixining boshlanishini «*tosh davri*» deb atashadi. Tosh davri ancha uzoq davom etgan, shuning uchun ham uni quyidagi bosqichlarga ajratishadi: qadimgi tosh davri – *paleolit* (yunoncha, «paleos» – «qadimgi» va «litos» – «tosh» so'zlaridan); o'rta tosh davri – *mezolit* («mezos» – «o'rta»); yangi tosh davri – *neolit* («neos» – «yangi»); mis-tosh davri – *eneolit* (lotincha, «eneus» – «mis» va yunoncha, «litos» – «tosh» so'zlaridan).

1.2. Eng qadimgi odamlar rivojining ilk bosqichlari

Eng qadimgi odamlar. Yer yuzidagi dastlabki odamlar qaddi-qomatini tik tutib yuradigan, mehnat qurollarini yasash va ularni ishlatishni biladigan odamlar bo'lib, ana shu xususiyatlari insonlarga hayvonot dunyosidan farqlanib turishga imkon bergan. O'ta sodda tosh mehnat qurollari yasashni biladigan eng qadimgi odam suyaklari qoldiqlarini olimlar turli mintaqalarda topib o'rgan-ganlar, jumladan, Janubiy Afrikadan *avstralopitek*, Sharqiy Afrikadagi Zinj vodiysidan *zinjantrop*, Yava orolidan (Indoneziya) *pitekantrop*, Xitoy hududidan *sinantrop*, shuningdek, Germaniyadan *neandertal* va Fransiyadagi Kromanyon g'oridan hozirgi qiyofadagi odam – *kromanyon* suyaklari topilgan.

Yer yuzida iqlim iliq bo'lgan davrlarda odamlar manzilgohlari kichik dar-yolar yoki buloqlar yaqinidagi tepaliklarda joylashgan. Ilk paleolitning oxirlariga kelib Buyuk muzlik davri boshlandi. Ibtidoiy odamlar o'ta qattiq sinov-ga duch keldi. Bu hol odamlarni yangicha turmush sharoitiga moslashishga undadi. Bunday paytda kuchlilargina yashab qolgan.

Eng qadimgi odamlarning mashg'ulatlari. Eng qadimgi odamlarning manzilgohlari Arika, Osiyo va Yevropaning ko'pgina hududlaridan topilgan. O'rta Osiyoda toshdan yasalgan qadimiy mehnat qurollari Farg'ona vodiysidagi

Selungur manzilgohidan va Toshkent vohasidagi *Ko'lbuloq* manzilgohidan ham topilgan. Bular qo'pol tosh qurollar bo'lib, ularning bir tomoni urib o'tkirlangan. Arxeologiya fanida bu tosh qurollar *chopperlar* deb nomlangan.

Mehnat qurollari odamlarga yegulik topish uchun kerak bo'lgan. Dastlabki mehnat qurollari sodda edi. Uchi o'tkirlangan tosh va tayoq bilan qurollangan odam hayvonlarni ovlagan, uchi o'tkir tayoq yordamida o'simliklarning iste'molga yaroqli ildizlari va ildizmevalarini kovlab olgan. Tabiat insonga nimani in'om etsa, odam shuni olgan, topgan yeguligi bilan qanoatlangan, shuning uchun ham kishilarning eng qadimiy mashg'uloti bo'lgan termachilik va ovchilik *o'zlashtiruvchi xo'jalik* deb ataladi.

A.P.Okladnikov tomonidan 1938-yilda Boysun tog'laridan topilgan *Teshiktosh* g'ori o'rta paleolit davri madaniyatining jahonga mashhur yodgorligi hisoblanadi. Teshiktosh g'oridan *uch mingga yaqin* tosh qurollar va ularning parchalari, tog' echkisi, kiyik, yovvoyi ot, qoplon, quyon, mayda kemiruvchilar, shuningdek, qushlarning suyaklari topilgan.

Teshiktosh g'orida topib tekshirilgan, tosh asriga mansub *8 – 9 yashar* neandertal bolaning suyak qoldiqlari eng mashhur topilmadir. Arxeologlar bunday neandertal odamning suyak qoldiqlariga kamdan kam hollarda duch keladilar.

Bola jasadi qabrga ko'milgan. Jasad atrofiga tog' echkisi shoxlari qadab chiqilgan. Murdaning dafn etilishi dastlabki diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan.

Diniy e'tiqodlarning vujudga kelishi. Mehnat faoliyati, tevarak olam haqida to'plangan bilimlar asta-sekin insonning fikrlash qobiliyati va tafakkurini o'zgartirib bordi.

Odamlar o'zlariga tushunarsiz bo'lgan hodisalar haqida o'ylay boshladilar: kun bilan tun, yil fasllari almashishi, vulqonlar otilishi, yer qimirlashi va boshqa tabiat hodisalari odam e'tiborini o'ziga tortgan.

Ana shu hodisalarning mazmunini to'liq tushunib yetmagan inson momaqaldiroq, yashin, shamol, yomg'ir kabi tabiat kuchlariga sig'ina boshladi.

Bora-bora eng qadimgi odamlarda inson vafot etganidan keyin yashashni davom ettiradigan o'zga bir olamga ketadi degan aqidaga ishonch paydo bo'ladi.

Yil fasllari almashinuvi, momaqaldiroq, bo'ronni qadimgi odamlar ruh mujassamlashgan tabiat kuchlarining harakati deb tushunganlar. Odamni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga e'tiqod fanda *animizm* nomini olgan.

Eng qadimgi odamlar u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo-qazoni bartaraf etishiga ham e'tiqod qilganlar. Bu e'tiqod *fetishizm* nomini olgan.

So'nggi paleolitga oid g'orlar devorlaridagi rasmlarning topilishi qadimgi odamlarda diniy e'tiqodlar bo'lgani to'g'risidagi isbotlardan biridir. Bunday rasmlardan eng qadimiylari Ispaniyadagi *Altamir*, Fransiyadagi *Lasko* va Boshqirdistondagi *Kapova* g'orlaridan topilgan.

Odamlar rasmlar bo'lajak ovda o'zlariga yordam beradi deya ishonishgan. Rasmlar qarshisida hayvonlar harakatlariga taqlid qilib raqsga tushishgan, ov manzaralarini tasavvurga keltirishgan, nayza uloqtirishni mashq qilishgan.

Qadimgi rasmlar qimmatli tarixiy manbalardir. Ular inson nimalar haqida o'ylagani, tevarak dunyoni qay yo'sinda tasavvur etgani, qaysi hayvonlarni ovlagani, qanday mehnat qurollari va qurol-yarog'dan foydalanganini bilib olish va tushunishga yordam beradi.

Odarning o'zini qurshab turgan tevarak dunyoni tushunishga intilishi eng qadimgi tasviriy san'at rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

1.3. Urug'chilik jamiyati

So'nggi paleolit davri. So'nggi paleolit davrida (mil. avv. 40 – 12-ming-yilliklarda) ko'pdan ko'p voqealar ro'y berdi. Bu davrda toshga ishlov berish texnikasi va mehnat qurollari yasash usullari o'zgardi. Odarning o'zi ham, tashqi qiyofasi ham o'zgarib bordi. Mazkur davrda hozirgi qiyofadagi odam – *kromanyon* odami yashagan.

So'nggi paleolit davri odami manzilgozlari *Samarqand shahri* hududidan, Toshkent viloyati Ohangaron daryosi vodiysidagi *Ko'lbuloq* manzilgozining yuqori madaniy qatlamlaridan, shuningdek, *Farg'ona vodiysidan* topilgan.

So'nggi paleolit davrida odamlar ancha takomillashgan kesuvchi, arralovchi va parmalovchi mehnat qurollari yasaydigan bo'lishgan. Inson endilikda taqinchoqlar – munchoqlar, tumorlar va uzuklar ham yasay boshladi.

Shunday qilib, so'nggi paleolitda insoniyat o'z rivojida yana bir pog'ona-ga yuksaldi. Odamlar qarindoshlardan tarkib topgan ixcham guruhlariga – *urug' jamoalariga* birlashdilar.

Urug' a'zolari bitta manzilgozda yashagan. Bir joyda yashab turgan bir qancha urug'lar *qabilani* tashkil etgan.

Turarjoylar qurilishi so'nggi paleolit davri odamlarining muhim ixtirosi bo'ldi. Kiyim-kechak tayyorlashda hayvonlar terisidan foydalanishgan. Inson bu davrda sun'iy tarzda (yog'ochni bir-biriga ishqalash, chaqmoqtoshni bir-biriga urish orqali) olov hosil qilishni ham o'rganib oldi.

Mezolit davri. Mezolit davri (o'rta tosh davri) mil. avv. 12 – 7-mingyilliklarni o'z ichiga oladi. Mezolit davri boshlanishi bilan Muzlik davri poyoniga yetdi, bu narsa iqlim ancha ilishiga va odamlar turmushida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Mezolit davrida inson *o'q-yoy* yasashni o'rganib oldi. O'q-yoy kashf etilishi bilan odam ixtiyorida chopqir hayvonlar va qushlarni ovlash imkoniyati vujudga keldi.

Mezolit davri oxirida inson hayvonlarni qo'lga o'rgata boshladi. Ovchilar itni qo'lga o'rgatdilar. Itlar bilan birga ov qilinganda o'lja oldingisiga qaraganda mo'l-ko'l bo'ldi. Tiriklayin tutib olingan hayvonlarni (qo'zichoqlar, uloqchalar, to'ng'izchalarni) endi odamlar o'ldirmasdan, yegulik zaxirasi sifatida saqlab qo'yadigan bo'ldilar.

Mezolit davri oxirida Old Osiyoda xo'jalikning yangi tarmoqlari – *ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik* vujudga keldi.

Muzlik chekinishi bilan urug' jamoalari nafaqat Osiyo va Afrika hududlarida, balki Yevropaning shimolida ham keng joylasha boshladilar.

Bugungi kunda O'rta Osiyoda mezolit davriga oid yuzdan ziyod manzilgohlar ochilgan. Farg'ona vodiysining tog'oldi va tog'li tumanlarida, Toshkent vohasida hamda O'zbekistonning janubida bunday manzilgohlar ko'plab uchraydi. *Obishir, Qo'shilish va Machay* manzilgohlari, shuningdek, *Zarautsoy* darasidagi qoyatosh rasmlari ancha mufassal o'rganilgan.

Amudaryo va Sirdaryo qirg'oqlari, O'zbekiston hududidagi ko'llar va daryolar sohili mezolit davri ovchilari va baliqchilari ko'chib kelib o'rnashgan maskanlarga aylangan.

Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi. Neolit davrida – yangi tosh asrida o'zlashtiruvchi xo'jalikda tub o'zgarish sodir bo'ldi. Avval tabiatdan barcha tayyor narsalarni olgan inson Qadimgi Sharqning turli viloyatlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalik – ziroatchilik va chorvachilikka o'ta boshladi. O'rta Osiyoda neolit davri mil. avv. 6 – 4-mingyilliklar bilan sanaladi. Arxeologlar neolit davri boshlanishini *sopol idishlar* yasashning kashf etilishi bilan belgilaydilar.

Mezolit va neolit davrida odam toshdan mayda mehnat qurollari – *mikrolitlar* yasashni, toshga ishlov berishning oldin ma'lum bo'lmagan usullarini: silliqlash, arralash, sirlash va teshikchalar parmalashni qo'llay boshladi.

Neolit davrida qabilalar o'troq turmush tarziga o'tib, doimiy turarjoylar qura boshlaganlar. Shu davrda paxsa imoratlar qurilishi vujudga kelgan. Asta-sekin urug' jamoalarining o'troq manzilgohlari shakllanib borgan. O'troq turmush tarzi va mehnat qurollarining yanada takomillashishi jamoalarning dehqonchilikka o'tib borishiga imkon yaratadi. O'troq turmush tarziga o'tilishi har xil buyumlar tayyorlash sohasi bo'lgan *hunarmandchilik* rivojiga zamin yaratdi.

Loydan ishlangan va olovda pishirilgan idishlar yasash sohasi – *kulolchilik*, tolalar va jundan kiyim-kechak tayyorlash tarmog'i – *to'quvchilik* hunarmandchiligi neolit davrining muhim kashfiyot va ixtirolaridir.

O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida aholi mil. avv. 6 – 5-mingyilliklar boshlarida ziroatchilikka o'tgan bo'lsa, mintaqaning markaziy va shimoliy o'lkalaridagi qabilalar ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

1.4. Eneolit va bronza asri ziroatchilari

Metall davrining asosiy xususiyatlari. Neolit davrining oxirida odamlar ixtiro va kashfiyotlar orasida eng buyuklaridan birini yaratishga muvassar bo'ldilar: misdan foydalanishga, undan mehnat qurollari yasashga o'tildi.

Misdan yasalgan mehnat qurollarining tosh qurollar bilan birgalikda ishlatilish davri eneolit – mis-tosh asri deb ataladi. Bu davr mil. avv. 4 – 3-mingyillikning o'rtalariga to'g'ri keladi.

Mis qurollar tosh qurollarga nisbatan afzalliklariga qaramasdan, unchalik keng tarqalmadi. Odamlar misni qalayi, qo'rg'oshin yoki rux bilan qo'shib, eritib bronza olishni o'rganganlaridan keyingina metall tosh qurollarni siqib chiqara boshladi. So'ngra misga nisbatan mustahkam sun'iy metall keng tarqaldi.

Metallurgiya rivoji kishilarning moddiy va ma'naviy madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Mil. avv. 4-mingyillikda Qadimgi Sharqda ilk shaharlar va davlatlar vujudga kela boshladi. O'rta Osiyo janubida sun'iy sugo'rishga asoslangan dehqonchilik vujudga keldi, xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurila boshlandi, idishlarni pishirish uchun kulolchilik xumdonlaridan foydalanishga kirishildi. Sopol idishlar hayvonlarning, qushlarning tasvirlari va o'simlik naqshlari (yaproqlar, gullar) bilan bezatila boshlandi.

Bronza misdan ko'ra ancha qattiqligi tufayli mil. avv. 3-mingyillik o'rtalaridan boshlab asta-sekin mehnat qurollari, qurol-yarog'lar va zeb-ziyatlar tayyorlashda ishlatiluvchi asosiy ashyoga aylanib qoldi.

Bronza mehnat qurollariga ega bo'lgan odamlar endi dalalarga ancha durust ishlov berish va ekin maydonlarini kengaytirish imkonini qo'lga kiritdi. Natijada ular ixtiyorida ortiqcha miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari vujudga keldi. Chorvachilik asta-sekin dehqonchilikdan ajralib chiqqa boshladi.

Patriarxatning boshlanishi. Tarixning ko'p davrlari davomida urug' jamoasidagi muhim ishlar ayollar zimmasida bo'lib (bolalarni tarbiyalash, ovqat tayyorlash, hayvon terilarini tozalash, kiyim-bosh tayyorlash), jamoada ularning, ayniqsa, yoshi katta ayollarning mavqeyi erkaklarnikiga nisbatan ancha baland bo'lgan. Omoch bilan yer haydab ziroatchilik qilish, chorvachilik, hunarmandchilikning vujudga kelishi natijasida urug'ni yetarli mahsulotlar bilan ta'minlash erkaklar qo'liga o'tdi. Uy xo'jaligi yumushlari ayollar zimmasida qoldi. Endi urug'chilik oilasida erkaklar muhim o'rin tuta boshladi. Qarindoshchilik erkak nomi bilan belgilanadigan bo'ldi va patriarxat davri boshlandi. Oila ota tomonidan yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlaridan tashkil topadigan bo'ldi.

Bronza davri dehqonlarining manzilgohlari. Dehqonlarning qadimgi manzilgohlaridan biri Zarafshon daryosi havzasidagi *Zamonbobo* ko'li yaqinidan topilgan. Xorazm hududidan ham qadimgi dehqonchilik manzilgohlari topilgan.

Arxeologlar Surxondaryo vohasidan qadimgi ziroatchilar manzilgohlaridan biri bo'lgan *Sopollitepani* topishdi. Qazishmalar davomida bu yerdan uy-joylar, maishiy va xo'jalik xonalardan tarkib topgan paxsa imoratlar, sopol buyumlar, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va zeb-ziynatlar yasalgan ustaxona qoldiqlari, shuningdek, yirik xumlarda saqlangan bug'doy va arpa doni topilgan.

Bundan uch yarim ming yil muqaddam Surxon vohasida, hozirgi Sheroboddan uncha uzoq bo'lmagan joyda *Jarqo'ton* manzilgohi vujudga kelgan. Jarqo'ton qurilishi tarixida ilk shahar alomatlari ko'zga tashlanadi. U ikki qismdan iborat bo'lgan: qal'a va uning atrofida jamoa a'zolari bo'lmish hunarmand, dehqonlarning uylari joylashgan. Qal'a ichidan ibodatxona qoldiqlari topilgan.

Bronza davri manzilgohlari aholisi har xil hunarmandchilik turlarida, to'quvchilik, kulolchilikda, zeb-ziynat buyumlari yasash, qurilish sohasida katta yutuqlarga erishgan. Bronza davrida odamlar kulolchilik charxi va g'il-dirakni kashf etdilar. Shu tariqa harakatlanish vositalari vujudga keldi.

1.5. Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi

Temirdan foydalanish. Odamlar mis va bronzadan mehnat qurollarini yasashni o'rgangan davrlardan beri oradan ko'p asrlar o'tdi. Faqat mil. avv. 1-mingyillik boshlaridagina temirdan mehnat qurollari yasash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu jarayon ancha sermashaqqat bo'lgan, negaki temir misdan ko'ra ancha yuqori haroratda (1500°C) eriydi. Ammo temir mis va bronzaga nisbatan olganda qulay bo'lgan: temir ulardan qattiqroq edi.

Temirdan birinchi bo'lib Kichik Osiyodagi *xettlar* (mil. avv. XIV – XIII asrlar), so'ngra qo'shni mintaqalardagi (Mesopotamiya, Eron, Kavkazorti) xalqlar foydalana boshlaganlar. Temir buyumlarning tarqalishi sekinlik bilan borgan. Temir kamyob va qimmatbaho metall bo'lgani uchun undan dastlab zeb-ziynat buyumlari yasashda foydalanishgan. Shunday bezaklar Mis fir'avni *Tutanxamon* maqbarasidan va Kavkazdagi *Maykop* qo'rg'oni yodgorligidan topilgan.

Mehnat qurollari yasash uchun temirdan foydalanilishi, eng avvalo, dehqonchilikning rivojiga ta'sir qildi. Temirdan ishlangan uchli omochlar va boltalar paydo bo'ldi. Bu mehnat qurollari katta maydonlarda ziroatchilikning rivojlanishiga imkon yaratib berdi. O'rta Osiyodan topilgan eng qadimgi temirdan yasalgan qurollar mil. avv. IX – VIII asrlarga oid bo'lsa-da, temir qurollarning ko'pchiligi mil. avv. VII – VI asrlarqa oid sanaladi.

Yevropadan farqli o'laroq, Sharqda dehqonchilik asosan sun'iy sug'orish asosida rivojlandi. Gulga burkangan bog'lar va serhosil dalalarni suv bilan ta'minlash uchun Sharqda anhorlar va ariqlarning keng tarmog'i ishlab chiqilgan.

Ittifoqiy tuzum. Temir qurollarning keng tarqalishi mehnat unumdorligini oshirdi. Bu esa ishlab chiqarishning yanada rivoj topgan usuliga o'tilishiga zamin yaratdi. Urug' jamoasi o'rnini *hududiy qo'shnichilik jamoasi* egallay boshladi.

Qabila-urug' oqsoqollarining ta'siri tobora kuchaya borgan. Doimiy harbiy to'qnashuvlar sharoitida *qabilalar ittifoqlari* paydo bo'ldi. Bu ittifoqlarga harbiy sardorlardan saylangan kishilar rahbarlik qilganlar, jamiyat esa *harbiy demokratiya* tamoyillari asosida yashay boshladi.

Mil. avv. 1-mingyillik boshlarida O'rta Osiyoda aholi to'rtta guruhga bo'ldi: *kohinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar.*

O'rta Osiyoda jamiyatning negizi «*nmana*» deb ataluvchi katta patriarxal oila bo'lganini «*Avesto*»dan bilib olamiz. Bir necha «*nmana*»lar urug' jamoasi – «*viss*»ni tashkil etgan. Hududiy qo'shnichilik jamoasi esa «*varzana*» deb nomlangan. Bunday jamoalar qabilaga – «*zantu*»ga birlashgan. O'z hududini himoya qilish uchun bir qancha qabilalar ittifoqqa – «*dax'yu*»ga uyushishgan. «*Avesto*»ga ko'ra, jamiyatni boshqarishning quyidagi tizimi mavjud bo'lgan: *oqsoqollar kengashi; xalq yig'ilishi; alohida tumanlar hukmdorlari; viloyatlarning hukmdorlari.*

Aholining urug' va qabila bo'yicha emas, balki hududiy taomilga ko'ra guruhlarga ajratilishi mil. avv. IX – VIII asrlarda O'rta Osiyoda vujudga kelayotgan ilk davlat birlashmalarining alomati edi.

2-BOB. QADIMGI O'RTA OSIYO

2.1. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar

Qadimgi aholining etnik tarkibi va hududiy joylashuvi. Yozma manbalarining guvohlik berishicha, mil. avv. VII – VI asrlarda O'zbekiston hududida so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massaget elatlari yashaganlar. Zarafshon va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Yozma manbalarda bu hudud *So'g'da* («*Avesto*»da), *So'g'uda* (Behistun yozuvlarida), Arrian, Strabon, Kvint Kursiy Ruf asarlarida *So'g'diyona* deb nomlangan. Bu hududda yashaydigan aholi so'g'diylar deb atalgan.

Amudaryoning quyi oqimida yashagan o'troq dehqon elatlari xorazmliklar bo'lgan. Ularning yurti *Xvarizam* («*Avesto*»da), *Xvarazmish* (Behistun yozuvlarida), *Xorasmiya* (Arrian, Strabon asarlarida) deyilgan.

So'g'diylarning eng yaqin qo'shnilari baqtriyaliklar bo'lib, ularning yurti Surxon vohasi, Afg'onistonning shimoliy, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan. Yozma manbalarda u *Baxdi* («*Avesto*»da), *Baqtrish* (Behistun

yozuvlarida) deb nomlangan. Yunon-rim mualliflari uni *Baqtriana* yoki *Baq-triya* deb ataganlar.

Cho'llar va Amudaryo bo'ylarida ko'chmanchi *massaget* qabilalari yashaganlar. O'rta Osiyoning tog'lik, dasht va cho'l yerlarida asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan *saklar* istiqomat qilishgan. Mil. avv. VI asrda ular o'z yerlarini boshqa qabilalar hujumidan himoya qilish uchun harbiy qabila ittifoqini tuzadilar.

Qadimgi yunon-rim tarixchilarining yozishicha, saklar uch guruhga bo'lingan. Ularning ko'pchilik qismi *saka-tigraxauda*, ya'ni o'tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar deb atalgan. Ular hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlarida yashaganlar.

Ikkinchi guruhi *saka-tlay-taradarayya*, ya'ni daryoning narigi tomonida yashovchi saklar deb atalgan. Ular Orol dengizi bo'ylarida, Sirdaryoning (bu daryoning qadimgi nomi Yaksart) quyi oqimida yashaganlar.

Pomirning tog'li tumanlarida va Farg'onada *sakaxaumovarka* deb ataluvchi saklar yashashgan.

Mil. avv. VII – VI asrlarda iqtisodiyot rivoji. Bu davrlarda Xorazm, So'g'diyona va Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bo'lgan. Jamiyat hayotida hunarmandchilik va savdoning ham o'rni katta bo'lgan. Manzilgohlardan yuqori sifatli kulolchilik idishlari, temir va bronza buyumlar topilgan.

Ko'chmanchi sak va massaget qabilalarining asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lib, ularning tuya, ot va qo'y-echkilardan iborat katta-katta podalari bo'lgan.

Ular hayvon terisidan poyabzal, kiyimlar, chodirlar tikib, g'alla va meva-ga ayirboshlaganlar. O'rta Osiyo xalqlari Sharq mamlakatlari bilan yaqindan madaniy aloqada bo'lganlar. Shu tariqa O'rta Osiyoning o'troq va ko'chmanchi aholisi o'rtasida o'zaro savdo ayirboshlash bo'lgan.

Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida mil. avv. VII – VI asrlarda qadimgi shaharlar rivojlangan. Ular mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo markazlari edi.

Mil. avv. VII – VI asrlarda shahar madaniyati. Qadimshunoslar *Afrosiyob* (Samarqand), *Yerqo'rg'on* va *Uzunqir* (Qashqadaryo vohasi), *Ko'zaliqir* (Xorazm), *Qiziltepa* (Surxondaryo vohasi) kabi qadimiy shaharlarni o'rganishgan.

Qadimgi shaharlarga xos umumiy belgi ularning mudofaa devorlari bilan o'ralganligidir. Shaharda hokim yashaydigan qal'a bo'lgan. Qal'ada xom g'ishtdan qurilgan katta saroy joylashgan. Shaharlarning bir guruhi savdo va hunarmandchilik markazlari bo'lsa, boshqalari alohida tuman va viloyatlar markazlari hisoblangan. Masalan, ilk Qiziltepa shahri mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralib, devor suv to'ldirilgan xandaq bilan ihotalan-

gan. Devorning burjlari va o'q otish uchun maxsus shinaklari ham bo'lgan. Shahar ichkarisida turarjoylar va hunarmandchilik ustaxonalari joylashgan.

Qadimgi davlatlar. Mil. avv. VII asrda tashkil topgan Qadimgi Baqtriya davlati O'rta Osiyo hududidagi qadimgi davlatlardan biri sanaladi.

Marg'iyona va So'g'diyona Baqtriyaning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun u qadimda bir-biriga qarindosh bo'lgan elatlarining davlat birlashmasi deyilgan. Mil. avv. VII – VI asrlarda Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vohalari va O'zbekistonga chegaradosh viloyatlar Qadimgi Baqtriya davlati ta'sirida bo'lgan. Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on va Afrosiyob o'rnida Baqtriya va So'g'dning markaziy shaharlari joylashgan. Bu shaharlar O'zbekiston hududidagi eng qadimgilari bo'lib, ularning yoshi 2700 yildan kam emas.

Yana bir qadimiy davlat Xorazm hududida tashkil topgan. Bu davlat Xorazmdan tashqarida bo'lgan yerlarni ham birlashtirgan. Qadimgi Xorazm markazlaridan biri Ko'zaliqir shahri bo'lgan. U qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Uning dehqonchilik bilan shug'ullangan aholisi turli xil uy-ko'rg'onlarda va qishloqlarda yashagan. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangan.

Mahalliy kulolchilik, qurolsozlik, zargarlik buyumlarining dovrug'i o'zga yurtlarga ham tarqalgan edi. Shaharlarda savdo-sotiq rivojlangan. Xorazmliklar mohir quruvchi va hunarmand bo'lganlar.

Shunday qilib, mil. avv. IX – VIII asrlarda O'zbekiston hududida ilk temir asriga o'tish boshlangan. Mil. avv. VII – VI asrlarda bu yerda qadimgi yirik davlatlar mavjud bo'lgan. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo taraqqiy etgan. Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqalar o'rnatilgan. Qadimgi davrda O'zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga asoslangan edi.

2.2. Zardushtiylik

Zardushtiylikning vujudga kelishi. Mil. avv. 1-mingyillikda O'rta Osiyoda zardushtiylik deb atalgan din keng tarqaladi. Bu din hali odamlar tabiatni ilohiy-lashtirgan kezlarda kurtak yoza boshlagan edi. Zardushtiyalar olov (Quyosh), tuproq, suv, oy, yulduzlarga sig'inishgan, ularni muqaddas hisoblashgan.

«Zardushtiylik» so'zi ham *Zardusht* (turli tillarda Zaratushtra, Zoroastr) ismidan kelib chiqqan. U mil. avv. 1-mingyillikning birinchi yarmida yashab o'tgan tarixiy shaxs.

Keyinroq Yunonistonda Zardushtning ismi «*Zoroastr*» shaklida jaranglaydi (yunoncha, «astron» – «yulduz»), negaki Yunonistonda uni birinchi galda do-

nishmand yulduzshunos, munajjim sifatida bilishgan. Zardushtning ismidan kelib chiqqan holda uning ta'limoti ham zardushtiylik dini deb yuritila boshlangan.

Zardushtiylik paydo bo'lishi haqida shunday bir afsona bor. Bir kuni erta tongda Zardusht suv olish uchun daryo bo'yiga boribdi. Zilol suvda u Ahuramazda elchilaridan birining siymosini ko'rib qolibdi, siymo nur bilan qaysi tomonga borishga yo'l ko'rsatibdi. Zardusht sehrli nur izidan ergashibdi, ko'p o'tmay oliy iloh Ahuramazda qarshisiga borib qolibdi. U esa Zardushtni xudo Ahuramazda va uning ezgu amallari haqidagi bilimlarni tarqatish uchun tanlaganini ma'lum qilibdi.

Shu tarzda Zardusht *30 yoshida* yangi diniy talimot payg'ambariga aylangan. «Payg'ambar» so'zining o'zi esa «ezgu amallar haqida xabar beruvchi» ma'nosini anglatadi.

«Avesto»ning ilk qismi mil. avv. IX – VIII asrlarda paydo bo'lgan. Zardusht va'zlari matnlarining hammasi mil. avv. III asrda *21 ta* kitobga jamlangan, bu kitoblar «Avesto» asosini tashkil etgan edi. «Avesto» matnlariga sharh esa «Zand» deb yuritiladi.

Zardushtiylikning tarqalishi. Zardushtiylik tarqala boshlagan paytlarda ibodatxonalar, odamlar duo matnlarini o'rganishi uchun maxsus kitoblar bo'lmagan. Diniy marosimlar ochiq osmon ostida, gulxan yonida yoki uydagi o'choq olovi atrofida o'tkazilgan.

Mil. avv. 1-mingyillik boshlarida turli qabilalarni istilochilarga qarshi kurashga birlashtirish zarurati tug'ildi. Shuning uchun ham Zardusht o'z da'vatlarida birlikka chorlagan.

Zardushtning so'nggi va'zlari din xizmatchilari – kohinlar tomonidan yozib olingan. Zardushtiylik kohinlari diniy matnlarni yod olib, dindorlarga o'qib berishgan. Zardushtning vafotidan keyin bir necha asrlar o'tgach barcha diniy marosimlar, madhiyalar va duolar zardushtiylik uchun muqaddas bo'lgan bir kitobga jamlandi. Bu kitobning nomi «Avesto» bo'lib, «*qat'iy belgilangan qonun-qoidalar*» degan ma'noni anglatadi.

Olimlarning izlanishlari tufayli bugungi kunda biz zardushtiylikning muqaddas kitobi – «Avesto» matnlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldik. Fransuz olimi *A.Dyuperron* ilk marotaba «Avesto»ning alohida qismlarini tarjima qilgan.

Zardushtiylik xudolari, ta'limoti va marosimlari. Zardushtiylikning ehtiromga sazovor xudolari Ahuramazda, Mitra va Anaxitadir. Ahuramazda zardushtiylikning ulug' va donishmand oliy xudosi hisoblanadi. Mitra Quyosh va yorug'lik xudosi, dehqonlar va chorvadorlarning hosildorlik, farovonlik va mol-davlat homiysidir. Mitra Ahuramazda va odamlar o'rtasida bosh vositachi bo'lgan. Mitra o'spirin jangchi qiyofasida tasvirlangan. O'tli chaqmoq-

lar yordamida u yovuzlik va o'lim xudosi bo'lmish Ahriman bilan jang qiladi. Zardushtilar yomg'irdan keyin hosil bo'ladigan kamalakka Mitraning o'q uzayotgan yoyi deb sig'inganlar. Anaxita zardushtiylikda hosildorlik va suv ilohasi hisoblangan. Zardushtiylik dini ta'limoti insoniyatning Ezgulik va Yovuzlik haqidagi qarashlari takomiliga katta ta'sir ko'rsatdi.

Zardushtiylik talimotiga ko'ra, butun Borliq va bizni qurshab turgan hamma narsa ikki ibtidodan, ya'ni Ezgulik va Yovuzlikdan tashkil topgan. Ezgulik va Yovuzlik o'rtasida doimiy kurash boradi. Masalan, yorug'lik zulmat bilan, hayot o'lim bilan, yaxshilik yomonlik bilan, haq-huquq esa adolatsizlik bilan kurashadi.

Zardushtiylar umrining tub ma'nosi ezgu amal, ezgu so'z va ezgu fikrdan iborat bo'lgan. Insonning asosiy burchi, eng avvalo, adolatli turmush tarzi hisoblangan. Yovuzlik bilan kurashda Ezgulikka yordam berish lozim: yolg'on so'zlamaslik, aldamaslik, va'daga vafo qilish, faqat ezgu ishlarni amalga oshirish.

Zardushtiylik talimotiga ko'ra, inson o'z yo'lini o'zi tanlaydi, kimning yonini olish, kimni himoya qilishni ham o'zi hal qiladi.

Olov, tuproq, suv va havoni zardushtiylar muqaddas hisoblashgan. Zardushtiylarda vafot etgan odamlarni dafn etish borasida alohida marosim yuzaga kelgan. Inson vafot etganida tuproqni bulg'amaslik uchun marhumning jasadini yerga ko'mish ham, olovda kuydirish ham, suvga tashlab yuborish ham mumkin bo'lmagan. Shuning uchun murdani qushlar va hayvonlar yeb ketishi uchun maxsus moslamada (qurilmada) qoldirishgan. Yomg'irlarda yuvilgan va oftob qoqlagan suyaklarni maxsus sopol tobutchalar – ossuariylarda (suyakdonlarda) dafn etishgan.

3-BOB. MIL. AVV. VI – MILODIY III ASRLARDA O'RTA OSIYO

3.1. O'rta Osiyoga ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari

Kir II va uning bosqinchilik yurishlari. Mil. avv. VI asrning o'rtalarida ahamoniylar sulolasidan bo'lgan qadimgi Fors shohlari jahonning barcha yirik mamlakatlari va shaharlarini o'z tarkibiga olgan saltanatni barpo etishga harakat qila boshladilar. Kir II O'rta Osiyo hududini bosib olishga harakat qilib ko'rgan dastlabki fors podshosi bo'lgan. Mil. avv. 545- va 540-yillar oralig'ida u Partiya, Marg'iyona va Baqtriyani bosib oldi. Mil. avv. 530-yili Kir II ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurishga otlandi.

Bu yurish to'g'risida «tarix otasi» Gerodot hikoya qilib bergan. Forslar massagetlar hududiga bostirib kirganlarida ularning malikasi To'maris bosqinchilarga tinch-omon qaytib ketishni taklif qiladi. Ammo Fors shohi bu taklifni rad etadi va Amudaryodan kechib o'tishni boshlash to'g'risida farmon beradi.

Gerodot massagetlarning asosiy kuchlari bilan forslarning jangi to'g'risida shunday hikoya qiladi: «*Bu jang... barcha janglardan ham dahshatlirog' edi. Avval har ikki dushman kuchlar bir-biriga qarshi jangovar saf tizishib, kamondan o'q yog'dirishdi. O'qlari tugagach, qo'llariga xanjar va nayzalar olib dushmanga qarshi tashlandilar. Jang uzoq davom etdi. Hech kim chekinishni xayoliga keltirmasdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlarning qo'li baland keldi. Fors qo'shinlarining ko'pchiligi qirildi. Jang maydonida Kir II ning o'zi ham halok bo'ldi.*»

Doro I ning saklarga qarshi yurishi. Mil. avv. 522-yili ahamoniylar sulolasi vakillaridan biri Doro I taxtga o'tirdi. U mil. avv. 522 – 486-yillarda hukmronlik qilgan.

Doro I hukmronligining birinchi yili Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi yirik xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Qo'zg'olonga *Frada* rahbarlik qiladi. Qo'zg'olonchilar bilan forslar qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang mil. avv. 522-yili bo'ladi. Fradaning o'zi asirlikka olinadi va mil. avv. 521-yili qatl etiladi. Bu voqea haqidagi ma'lumotlar Behistun qoyatosh yozuvlarida qayd etilgan.

Doro I hukmronligining uchinchi yilida (mil. avv. 519-yil) saklar ustiga yurish qiladi. Bu yurish haqida ham Behistun bitiklarida shunday deyilgan: «*Shoh Doro ayturki: keyin qo'shin bilan saklar mamlakatiga yurish qildim. Keyin uchi o'tkir kuloh kiyib yuruvchi saklar jangga kirdilar. Men daryodan o'tgach saklarni tamoman tor-mor keltirdim, qolgan qismini asirga oldim... Ularning Skunxa degan sardorini qo'lga tushirib, huzurimga keltirdilar. Shunda men ularga boshqa bir sardor tayinladim. Men shunday bo'lishini xohladim. So'ngra bu mamlakat menga tobe bo'ldi.*»

Ayni paytda, bu yurish haqida tarixchi *Poliyen* (mil. avv. II asr) keltirgan boshqa bir rivoyat ham mavjud. Saklar rivoyatiga asoslanib unda hikoya qilinishicha, forslarning qoshiga sak qabilasidan bo'lgan cho'pon Shiroq keldi, u fors qo'shinlarini o'zidan boshqa hech kim bilmaydigan so'qmoq bilan saklarning orqa tomoniga boshlab borishini aytadi. Suvsiz cho'l-biyobon bo'ylab yetti kun yo'l bosishgach, tashnalikdan do'zax azobini chekayotgan forslar o'zlarining aldanganliklarini sezib qoladilar. Forslar jasur cho'ponni o'ldiradilar, Doro I ning saklar ustiga yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi.

Ahamoniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruvi. Bosib olingan mamlakatlarni itoatda tutmoq uchun ahamoniylar butun boshli davlatni

alohida viloyat – satrapliklarga bo'lib tashladilar. Bu so'z forscha «*xshatra*» – «*viloyat*» so'zidan kelib chiqqan. Viloyat boshlig'i – satrapga cheklanmagan hokimiyat berilgan edi. Satraplarning ko'pchiligi ahamoniylar sulolasi vakillari bo'lgan.

O'rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari uch satraplikka bo'linadi. Har bir satraplik yillik soliq to'lagan. Bundan tashqari, qaram xalqlar saroy va ibodatxonalar qurilishiga ham safarbar etilgan. Soliqni kumush, chorva mollari (otlar, tuyalar, qo'ylar), hunarmandchilik buyumlari (sopol idishlar, qurol-ya-rog', zeb-ziyatlar), kiyim-kechak va hayvonlar terisi bilan to'lashgan.

Doro I va uning vorisi Kserks hukmronligi davrida (mil. avv. 486 – 465-yillar) bosib olingan viloyatlardagi O'rta Osiyo xalqlari yunon-fors urushlarida ham qatnashdilar. Mashhur Marafon jangida (mil. avv. 490-yil) fors qo'shinlari markazida bo'lgan saklar muvaffaqiyatli urushgan.

Gerodot Kserks boshchiligida yunonlar ustiga yurish qilgan o'rta osiyo-lik jangchilar qurol-yarog'larini mufassal tasvirlagan. Baqtriyaliklar kamon va nayzalar bilan, saklar xanjar va jangovar bo'talar bilan, xorazmiylar va so'g'diylar baqtriyaliklarniki kabi qurol-aslahalari bilan jangga kirishgan. Sak va baqtriyalik suvoriylar Kserks qo'shinidagi eng yaxshi jangchilardan hisoblangan.

Mashhur qadimgi yunon dramaturgi Esxil o'zining «Forslar» tragediyasida *Salamin* yonidagi dengiz jangida halok bo'lgan navqiron baqtriyalik jangchilarni tilga olgan.


O'rta Osiyo xalqlari ustidan ahamoniylar hukmronligi 200 yildan ko'proq davom etdi. Faqat mil. avv. IV asrda saklar, xorazmiylar va massagetlar Ahamoniylar davlati tarkibidan chiqib, mustaqil bo'ldilar.

Madaniyatning rivojlanishi. Mil. avv. VI – IV asrlarda madaniyatning rivojlanishi yozma va arxeologik manbalar asosida o'rganilgan. Ular O'rta Osiyo xalqlarining hunarmandchilik, zargarlik, tikuvchilik, kulolchilik va binokorlik sohalarida yuksak darajaga erishganlaridan dalolat beradi.

Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vohalari, shuningdek, Amudaryoning quyi oqimida Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Ko'zaliqir va boshqa yirik hunarmandchilik markazlari bo'lgan.

Manbalarda oltin, kumush, la'l, firuza ma'danlari qazib olingani, mis va temir eritilgani, kulolchilik rivojlangani, O'rta Osiyoning Sharq mamlakatlari bilan bog'langan qadimiy karvon yo'llarida olib borilgan savdo-sotiq ishlari to'g'risida xabar beriladi.

Mil. avv. V – IV asrlarda O'rta Osiyo hududida dastlabki tanga pullar tarqalgan. Zargarlik san'atining yuksak darajada rivoj topganiga bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanayotgan, 1877-yili Amudaryo xazinasidan topilgan oltin va kumush buyumlar yorqin misol bo'la oladi.



Har bir shahar markazida qal'a – arklar bo'lgan. Ularning atrofini egallagan dehqon xo'jaliklarida ota urug'iga mansub katta-katta oilalar kun kechirishgan. Dehqonlar qo'rg'onlari uy-joy va xo'jalik xonalaridan iborat bo'lgan.

Arxeologlar shahar va qo'rg'onlar atrofida dalalarga suv olib kelgan anhorlar va ariqlar izlarini topganlar.

3.2. O'rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi

Mil. avv. IV asrda Makedoniyaning yuksalishi. Aleksandr mil. avv. 336-yili Makedoniya podshosi bo'ladi. Shu yili u 20 yoshga to'lgan edi.

Makedoniyalik Aleksandr g'ayrioddiy kuch-g'ayrat va jasurlik sohibi bo'lgan, safdoshlari va qo'shinlari unga nihoyatda sadoqatli edi. Mil. avv. 334-yili u Sharqqa yurish boshladi, bu yurish 10 yil davom etdi. Ana shu yurish davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindistonda katta-katta hududlarni bosib oladi. Makedoniyalik Aleksandr ulkan hududda yunon madaniyati tarqalishiga imkon yaratish maqsadida bosib olingan shaharlarga yunonlarni joylashtirdi. Makedoniyalik Aleksandr yurishlarida qatnashgan yunon tarixchisi *Aristobul* bu yurishlar haqida hikoya qilgan.

O'rta Osiyo xalqlarining qurol-yarog'i va harbiy san'ati. Mil. avv. VII – IV asrlarda O'rta Osiyo jangchilari jangga sovut kiyib kirganlar, boshlarida dubulg'a bo'lgan. Xanjar va qilichlar bilan, jangovar oybolta va nayzalar bilan qurollanganlar. Kamon o'qi va chopqilar temir va jezdan yasalgan. Jangchilar otda ham, piyoda ham jang qila olganlar.

O'rta Osiyo xalqlari orasida xanjar «*akinak*», jangovar oybolta esa «*sagaris*» deb nomlangan. Uzoq masofadan turib jang qilish quroli sifatida kamondan foydalanilgan. Jangovar otlar ustiga va ko'kragiga temirdan to'qilgan *bargustvon* yopilgan.

Dushmanga qarshi hujumni suvoriylar boshlab berganlar. Ular ot chop-tirib kelayotib o'q-yoy, nayza yoki qilich bilan dushmanga hamla qilganlar. Suvoriylar boshqa bir harbiy usulni ham qo'llaganlar: suvoriylar yolg'ondan chekinishgan va keyin qaytadan boshqa tomondan hal qiluvchi zarba berganlar.

Qal'a va shaharlarni himoya qilishda o'q-yoy va palaxmondan foydalan-ganlar. Tosh irg'itganlar, qaynab turgan suvni sochganlar. Mudofaa maqsa-dida tosh va pishirilgan loy guvalalardan ham foydalanilgan.

Qiziltepa, Afrosiyob va Uzunqir singari shaharlar burjlar va shinaklari bo'lgan mustahkam devorlar bilan o'rab olingan edi. Devorlar tepasida ka-monchilar uchun yo'laklar qurilgan. Tashqi devorlar bo'ylab joylashgan du-

maloq burjlar ichida ham kamonchilar joylashganlar. Suv to'latilgan chuqur va keng xandaq qal'aga boradigan yo'lni to'sib turgan.

Makedoniyalik Aleksandrning istilochiligi. Mil. avv. 330-yili Makedoniyalik Aleksandr ahamoniylar sulolasidan bo'lgan oxirgi shoh Doro III ning qo'shinlarini tor-mor keltirdi. U Hindistonga yurish qilishdan oldin qo'shinlarning orqa tomonini xavfsizlantirish maqsadida Amudaryoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo'ysundirishga qaror qildi.

Birinchi bo'lib uning yo'lini to'sgan shahar Baqtriya poytaxti *Baqtra* (Zariaspa) bo'ldi. Bu vaqtda ahamoniylar sulolasining vakili *Bess* Baqtriyaning satrapi bo'lgan. U Baqtra shahrini dushmanga qoldirib Amudaryoning narigi tarafiga qochib ketadi.

So'g'diyona mustaqilligicha qolgan. Makedoniyalik Aleksandr o'z ustozini, qadimgi yunon faylasufi Aristotelning Amudaryodan ikki podsho – Kir II va Doro I kechib o'tgani, ikkalasi ham mag'lubiyatga uchrangani, shu bois u yurishga yaxshi tayyorgarlik ko'rishi lozimligi to'g'risidagi maslahatini yodda tutar edi.

Maroqandaning bosib olinishi. Mil. avv. 329-yili Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Oks – Amudaryodan o'ta boshladi. Aleksandrning jangchilari bu to'siqdan o'tib oldilar. Qo'shinlar yurishlari yo'nalishida esa *Nautaka* (Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi) va *Maroqanda* shahri (Samarqand) turar edi.

Mil. avv. 329-yili yunon-makedonlar Maroqandani egalladi. Aleksandr qo'shinlarning bir qismini shu yerda qoldirib, o'zi esa *Kurushkat* (Kiropolis) shahrini bosib olish uchun asosiy kuchlar bilan Sirdaryo qirg'oqlari sari yurdi. Rivoyatga ko'ra, bu shaharga fors shohi Kir II asos solgan.

So'g'diyona xalqi bosqinchilarga qarshi kurashga chiqadi. Tez orada so'g'diyolarga baqtriyaliklar va saklar qo'shiladilar. Qo'zg'olonga iste'dodli tashkilotchi va harbiy yo'l boshchi *Spitamen* boshchilik qiladi.

Ancha qo'shin to'plagan Spitamen Maroqandani qamal qildi. Aleksandr qamalda qolganlarga yordamga uch mingga yaqin jangchidan iborat qo'shin jo'natadi. Qadimda «*Politimet*» deb atalgan Zarafshon daryosi bo'yida makedonlarga pistirma qo'ygan Spitamen dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Shunda Aleksandrning o'zi qo'zg'olonni bostirishga otlanadi. Yunonlarning katta kuchlari yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan Spitamen qamalni to'xtatadi va o'z qo'shinlarini sahro sari boshlab ketadi.

Saklarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo'yida, Xo'jand yaqinida qal'a barpo etish to'g'risida buyruq beradi. Bu qal'a *Aleksandriya Exsata* (Chekka Aleksandriya) deb ataldi.

Aleksandr Maroqandada maxsus harbiy qo'shin qoldirib, asosiy qo'shinlari bilan qishlash uchun Zariaspga (Baqtraga) jo'nadi. O'sha yilning bahorida Aleksandr qo'zg'olonni bostirish chorasini ko'radi. O'z lashkarlarini uch

qismga bo'lib, So'g'diyonani u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholining 120 ming nafarini qirib tashlaydi.

Mil. avv. 328-yil kuzida Spitamenning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi bo'lib o'tadi. Kuchlar teng bo'lmaganidan Spitamen yengilib, tag'in cho'lga chekinadi. O'sha yerda ko'chmanchi qabilalar boshliqlari xoinlarcha uni o'ldiradilar.

Kurashning davomi. Spitamenning o'limi so'g'diylar va baqtriyaliklar irodasini buka olmadi.

Aleksandr So'g'd zodagonlari – Xoriyen va Oksiartning Hisor tog'larida joylashgan tog' qal'alarini qo'lga kiritib, Oksiartning qizi Ravshanakka uylanadi. Shunday qilib, Makedoniyalik Aleksandr e'tiborli so'g'd zodagonlaridan biri bilan qarindosh tutinadi.

O'rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr deyarli uch yil urindi, biroq uncha katta bo'lmagan hududni: Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona, hozirgi Bekobod va Xo'jand orasida Sirdaryo bo'ylarini bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Xorazm, Toshkent vohasi va Farg'ona mustaqilligicha qoldi.

Spitamen qo'zg'oloni bostirilishiga qaramay, yunon-makedon qo'shinlari birinchi bor mag'lubiyatga uchradilar.

Bosqin oqibatlari. Yunon-makedon qo'shinlarining bosqinchilik yurishlari O'rta Osiyo yerlarini xarobazorga aylantirdi, aholining katta qismi qirilib ketdi, ko'plab shaharlar vayron etildi.

Yunon tarixchilarining yozishicha, makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoda bir nechta shaharlar qurdirgan. Bu shaharlar uning nomi bilan Oksdagi Aleksandriya, Aleksandriya Esxata, Marg'iyona Aleksandriyasi va hokazo tarzida atalgan. Ularning ba'zilar vayron etilgan So'g'diyona va Baqtriya shaharlari o'rnida, boshqalari esa tayanch qal'alar sifatida yangidan qurilgan. Bu shaharlarda yunon-makedon piyoda va otliq askarlari joylashgan. Mil. avv. 324-yildan boshlab bu askarlarning siyraklashgan saflari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Baqtriya va So'g'diyona yoshlari hisobiga to'ldiriladi.

Bora-bora hunarmandchilik va savdo qayta tiklandi. Mahalliy va yunon madaniyatlari an'analarning qo'shilishi yuz berdi. Shu asosda Salavkiylar, Yunon-Baqtriya va Parfiya singari antik davlatlar taraqqiy etadi.

3.3. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi

O'rta Osiyo Salavkiylar davlati tarkibida. Mil. avv. 323-yil 13-iyunda Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi. U barpo etgan davlat uch qismga: Makedoniya, Misr va Suriyaga bo'linib ketdi. Bu davlatlar Aleksandrning eng yaqin lashkarboshilari tomonidan boshqarilgan.

Uzoq davom etgan o'zaro urushlardan keyin, mil. avv. 312-yili Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan biri Salavka Bobil (Suriya davlati) hukmdori bo'ldi. Salavka davlati tarkibiga *Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona* kirar edi.

Salavka o'z davlati tarkibiga kirgan O'rta Osiyoni alohida viloyatlar – satrapliklarga bo'ldi, ularning har biriga boshliq – satrap hukmronlik qilar edi. Davlat mudofaasi va qo'shinlarni tashkil etish bilan sobiq lashkarboshilardan tayinlangan *strateg* shug'ullanar edi.

Mil. avv. 293-yili Salavka o'z o'g'li *Antioxni* sharqiy viloyatlar – Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyonaga noib etib tayinladi. Mil. avv. 280-yili Salavkaning vafotidan so'ng Antiox ulkan davlat boshida turib, uni 20 yilga yaqin boshqardi.

Asta-sekinlik bilan So'g'diyona, Baqtriya va Marg'iyonada tinch hayot tiklana boshladi. Bu yerlarda yangi manzilgohlar, shaharlar bunyod etildi, savdo-sotiq, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlana boshladi. Baqtra, Maroqanda, Marg'iyona Antioxiyasi (Marv), Termiz yirik shahar va madaniyat markazlariga aylandi.

Yunon-makedon istilolaridan keyin O'rta Osiyo tarixida antik davri boshlandi. Bu yurishlar pirovardida G'arb va Sharq o'rtasida madaniy munosabatlar va almashinuv kengayishiga olib keldi. Baqtriyada yunon yozuvi, yunon og'irlik o'lchov birliklari, pul munosabatlari, hunarmandchilik va san'at buyumlari tarqaldi. O'z navbatida, yunonlar ham Baqtriyaning binokorlik va hunarmandchilik an'analarini o'zlashtirdilar.

Yunon-Baqtriya davlati. Mil. avv. 250-yili Yunon-Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi. Antik davr tarixchilarining xabar berishicha, mingta Baqtriya shahri hukmdori bo'lmish *Diodot* o'zini podsho deb e'lon qiladi. Shu voqeadan Yunon-Baqtriya davlati tarixi boshlanadi. Mil. avv. 250-yili Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan Parfiya Baqtriyaning raqibiga aylanadi. Baqtriyadan tashqari Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga So'g'diyona va Marg'iyona ham kirgan.

Diodotdan keyin Yunon-Baqtriyada hukmronlik davlat tarixida sezilarli iz qoldirmagan *Yevtidemga* o'tadi. Yevtidemning o'g'li *Demetriy* hukmronligi davrida (mil. avv. 199 – 167) Yunon-Baqtriya podsholigi eng katta sarhadlarga ega bo'ldi. Hindistonning bir qismi bu davlatga qo'shib olingan.

Parfiyada hokimiyat *Mitridat I* qo'liga o'tishi bilan u Baqtriyaga harbiy tazyiqni kuchaytiradi. Yunon-Baqtriya davlati tinimsiz urushlar olib borishga majbur bo'ladiki, bu hol uning kuchsizlanishiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan ko'chmanchi yuechji qabilalari mil. avv. 140 – 130-yillar oralig'ida Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar.

Madaniyatning rivojlanishi. Yunon-Baqtriya davlati 120 yil yashadi. Shu davr mobaynida uning iqtisodiyoti va madaniyati yuksaldi. Hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, ko'plab shaharlar barpo etildi. Baqtriya, So'g'diyona va Marg'iyona hunarmandlari yasagan buyumlar ko'pgina qo'shni shaharlar va davlatlarga ham tarqaldi.

Yunon-Baqtriya davlatida tangalar hukmdor tasviri bilan zarb etilgan. Dajla daryosi bo'yi Salavkiyadan Baqtriyagacha karvon yo'li qurib bitkazilgach, jahondagi ko'pgina davlatlar bilan xalqaro savdo-sotiq va madaniy aloqalar jonlandi. Baqtriya orqali Xitoydan Hindistonga boradigan karvon yo'li, shuningdek, Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmoqlari o'tgan edi.

3.4. Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlatlari

Qadimgi Xorazm. Mil. avv. IV asrda Xorazm Ahamoniylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr va salavkiylar hukmronligi davrida ham Xorazm davlati mustaqil edi. Bu o'lka aholisi xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil etgan.

Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi mil. avv. VII asrga borib taqaladi (Ko'zaliqir shahri xarobalari). Mil. avv. V – IV asrlarda bu yerda mahalliy hukmdorning qarorgohi bo'lgan ulkan qal'a bunyod etilgan edi (Qal'aliqir shahri xarobalari).

Mil. avv. III – II asrlarda Jonbosqal'a Xorazmning qadimgi shahri bo'lgan. Qo'yqirilganqal'a xarobalari ostidan aylana shaklda qurilgan mustahkam ibodatxona qoldiqlari topilgan.

Milodiy II – III asrlarda Tuproqqal'a shahrida bundan ham ulug'vor va muhtasham qurilish ishlari amalga oshirilgan edi. Shahar qudratli mudofaa devorlari bilan o'ralib, devor burchaklarida burjlar qurilgan. Markazdan o'tgan ko'cha shaharni ikki qismga bo'lgan, undan esa yon-atrofga ko'chalar ketgan, mahallalar bir-biridan ajralib turgan. Markaziy maydonda muhtasham saroy va ibodatxonalar joylashgan.

Qasrdagi saroy devorlari shohlar, lashkarlar, sozandalar, shuningdek, hayvonlar va qushlar tasviri bilan bezalgan. 20 dan ortiq bo'yalgan loy haykallar zallardan biridagi tokchalarda devor bo'ylab o'rnatilgan.

Xorazmda, ayniqsa, hunarmandchilik yuksak darajada rivoj topgan. Kulolchilik, temir, mis asboblar, qurollar, zargarlik buyumlariga talab katta bo'lgan. Xorazm aholisi So'g'diyona, Marg'iyona, Baqtriya va dasht ko'chmanchilari bilan yaqindan savdo munosabatlarini o'rnatgan. Bu o'lkadan muhim karvon yo'llari o'tgan. Mil. avv. I asrda va milodiy dastlabki asrlarda Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan.

O'рта Osiyodagi eng qadimgi yozuv Xorazm hududidan topilgan. Bular *Oybo'yirqa'a* (mil. avv. V – IV asrlar) yodgorligidan xum sirtiga chekilgan yozuv va *Qo'yqirilganqa'a* dan topilgan ayrim mahalliy yozuvlardir (mil. avv. III – II asrlar).

Milodiy I asrda Xorazmda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimdan xorazmliklar VIII asrga qadar foydalanishgan.

Qang' davlati. Xitoy manbalaridan bu davlatning Qang'yuy deb atalgani ma'lum. Mil. avv. III asrda unga saklar asos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi Qang'xa shahar xarobasi saklarning o'sha kezlardagi poytaxti Qang'dez bo'lib, unga mil. avv. III asrda asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaharni Bityan deb atashgan.

Qang' davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan edi.

Mil. avv. II asr oxirida Qang' qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. Uning hukmdorlari o'z nomidan tangalar zarb qildirganlar. Qang' davlatida ulkan istehkomlar, qal'a, shahar ibodatxonalari, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etiladi.

Davlatning madaniy markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o'troq ziroatchi va savdo-hunarmandchilik madaniyati vujudga kelgan.

Davlat iqtisodiyotining gullab-yashnashiga uning hududidan Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tganligi imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol Xitoy bilan urushlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu urushlarda qang'arlar (Qang' davlati aholisini shunday atashgan) ko'pincha g'olib chiqar edilar.

Milodiy III asrga kelib Qang' davlati parchalanib ketdi.

Dovon davlati. Dovon davlatining (Xitoy manbalarida bu o'lka shu nom bilan tilga olinadi, boshqa manbalarda Parkana deyilgan) tashkil topgan va inqirozga yuz tutish yillari aniqlanmagan. Bu davlat taxminan mil. avv. III asrdan to milodiy II asrgacha mavjud bo'lib, Farg'onada joylashgan.

Dovon davlati tarixi haqidagi batafsil ma'lumot Xitoy yilnomalarida uchraydi va ular milodiy I – II asrlarga oiddir. Xitoy tarixchisining yozishi-cha, bu davlat aholisi 70 dan ortiq shaharlarda istiqomat qilgan. Masalan, Dovonda bo'lgan xitoy sayyohi Chjan Syan bunday deb yozadi: «*Dovon diyorida 70 tacha katta-kichik shahar bor; aholisining soni bir necha yuz mingga yetadi. O'q-yoy va nayzalar bilan qurollanishgan. Xalqi ot choptirib o'q otishga mohir*». Boshqa bir xitoy solnomasida: «*An'si (Eron) shaharlari Dovondagiga o'xshashdir*», – deb yozilgan.

Xitoy tarixchilarining guvohlik berishicha, Dovon davlati hududlari hozirgi Toshkent vohasigacha borgan: «*Xan sulolasi zamonida Shi mulklari Dovon davlatining shimoliy tumanlarini tashkil etardi va shimolda Qang' davlatigacha, janubda esa yuechjilar davlatigacha borardi*».

Xitoy hukmdorlari bir necha bor bu davlatni bosib olmoqchi bo'ldilar, biroq ularning harakatlari behuda ketdi. Harbiy yurishlarning birida ular Dovon davlatining poytaxti Ershini qo'lga kiritdilar, biroq aholisining tovon to'lashi evaziga uni tashlab chiqishga majbur bo'ldilar.

Dovon davlati Xitoy va Sharqning boshqa mamlakatlari bilan bo'lgan xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan. Xitoy hukmdorlarini ko'proq Farg'onaning zotli otlari qiziqtirardi. Otlar naslining biriga hatto ular «*Samoviy*» deb nom berganlar. «*Samoviy otlar*» mukammal va go'zal ko'rinishga ega bo'lgan.

Qadimshunoslar topgan dalillar Xitoy solnomalaridagi ma'lumotlarni tasdiqladi. Ko'p sonli aholiga, yaxshi qurollangan va mashq ko'rgan qurolli kuchlariga ega bo'lgan Farg'ona mil. avv. II – I asrlarda yuksak taraqqiy etgan davlat bo'lgan. Farg'ona davlatining *Sho'rabashat*, *Uchqo'rg'on* singari va boshqa shaharlari atrofidagi aholi yerni ishlash, sholi va bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan.

Olimlarning aniqlashicha, milodiy II asrda Dovon davlati barham topgan.

3.5. Kushon podsholigi

Kushon davlatining tashkil topishi. Mil. avv. 140 – 130-yillar oralig'ida ko'chmanchi yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar. Yuechjilar Baqtriya yerlariga kelib o'rtnashadilar va milodiy I asrda *Guyshuan* (Kushon) xonadonining boshlig'i barcha yuechji mulklarini o'z hokimiyati ostida birlashtirib Kushon davlatiga asos soladi.

Birlashgan yuechji mulklarining birinchi hukmdori *Kudzula Kadfiz* bo'lgan.

Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida Afg'oniston va Kashmir Kushon davlatiga qo'shib olingan. Uning vorisi *Vima Kadfiz* hukmronligi davrida Kushon davlati hududi yanada kengaydi. Podsho *Kanishka* hukmronligi zamonida poytaxt Baqtriyadan Peshovarga (hozigi Afg'oniston) ko'chiriladi, Kushon davlati esa ulkan imperiyaga aylanadi. Uning hududiga Hindiston, Xo'tandan Afg'oniston va O'zbekistonning janubigacha bo'lgan yerlar kirgan. Rim, Parfiya, Xitoy davlatlari qatorida Kushon davlati ham ulkan imperiyalardan biriga aylangan. Milodiy III asrda to'xtovsiz urushlar oqibatida Kushon davlati inqirozga yuz tutdi va parchalanib ketdi.

Xo'jalikning rivojlanishi. Vima Kadfiz hukmronligi davridan Kushon podsholigida hukmdor nomi ko'rsatilgan tanga zarb qilish boshlandi. Hukmdor pul islohoti o'tkazadi, zarb qilingan tangalar qadri ortadi. Tangalar oltin, kumush va misdan zarb qilingan.

Milodiy I – II asrlarda Kanishka hukmronligi davrida (milodiy 78 – 123) Kushon podsholigi o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishadi. Yangi-yangi

shaharlar bunyod etildi, Hindiston, Xitoy, Rim imperiyasi bilan savdo va oʻlchilik munosabatlari yoʻlga qoʻyildi.

Hunarmandchilik ham yuksak darajada taraqqiy etgan. Kushon davlati yodgorliklari boʻlmish *Xolchayon*, *Dalvarzintepa*, *Ayritom*, *Zartepa*, *Qoratepa* va boshqalarni oʻrganish jarayonida aniqlangan topilmalar ham buni tasdiqlaydi.

Kushon davlati iqtisodiyotining asosini sugʻorma dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik tashkil qilgan.

Kushon davlati davrida suv tegirmoni, chigʻir turlaridan keng foydalanildi, yerga ishlov berish qurollari takomillashtirildi.

Kushon davlati yozuvi. Kushon davlatida yashagan xalqlarning oʻzaro madaniy va savdo-sotiq aloqalari tufayli Oʻrta Osiyoda qadimgi oromiy yozuvi keng tarqaladi. Bu yozuv Gʻarbiy Osiyoda paydo boʻlib, alifboga asoslangani tufayli oʻzlashtirish ancha oson boʻlgan.

Qadimgi Termiz yodgorliklarini oʻrganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtriya alifbosidagi yozuv namunalari topilgan.

Kushon mamlakatida yana bir xil yozuv – kushon shaklli yozuvi mavjud boʻlgan, bunda harflar burchakli, toʻrtburchak va aylana shaklida boʻlgan.

Kushon podshohligida yozuv qadimdan mavjudligini *Surxkoʻtal* (Afgʻonistondagi Qunduz shahri yaqinida) yodgorligidan topilgan yunon alifbosidagi kushon bitiklari ham tasdiqlaydi.

Amudaryoning quyi oqimida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida oromiy alifbosi asosidagi xorazmiy va soʻgʻdiy yozuvlar ham keng tarqalgan edi.

Yozuvning turli koʻrinishlariga oid topilmalar Kushon podshohligining jahondagi koʻplab davlatlar bilan keng koʻlamdagi aloqalaridan guvohlik beradi.

Diniy eʼtiqod. Kushon davlati tashkil topayotganida Baqtriya, Soʻgʻdiyoning asosiy aholisi zardushtiylik dinida edi. Kanishka hukmronligi davrida Hindistonning bir qismi qoʻshib olinib, yaqindan aloqalar oʻrnatilgach, Kushon davlati hududiga kirib kela boshlagan buddaviylik dini zardushtiylik bilan birga milodiy VIII asrgacha Oʻrta Osiyoda mavjud boʻldi.

Eski Termiz, Ayritom va Dalvarzintepada muhtasham buddaviylik ibodatxonalari boʻlgan. Aynan shu yerdan buddaviylik Oʻrta Osiyo boʻylab tarqala boshladi.

Meʼmorchilik va sanʼat. Kushonlar davrida hozirgi Oʻzbekiston hududida binokorlik va meʼmorchilik yuksak darajada taraqqiy etgan. Dalvarzintepa va Eski Termiz singari shaharlar xom gʻishtdan qurilgan mustahkam istehkom devorlari bilan oʻralgan edi. Mudofaa devorlari ortida esa hukmdor qarorgohi joylashgan. Shaharlarning oʻzi hunarmandlar mahallalariga va turarjoy mavzellariga ajratilgan.

Asosiy eʼtibor saroylar va ibodatxonalar qurilishiga qaratilgan. Xolchayondagi (Surxon vohasi) Kushon hukmdorlari saroyi, Eski Termiz (Qoratepa,

Fayoztepa) va Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxonalarida o'sha davr devoriy tasvirlari va haykaltaroshlikning yuksak san'atkorona namunalari saqlanib qolgan. Shahzodalar, saroy a'yonlari, jangchilar tasviri, Buddha haykali va Ayritomda topilgan do'mbirachi hamda ud cholg'u asbobini chalayotgan musiqachilar tasvirlari shular jumlasidandir.

Temir va suyak kandakorligi ham yuqori darajaga erishgan. Dalvarzintepadan fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan. Kushon san'atida mahalliy an'analar, Qadimgi Sharq va Qadimgi Yunoniston ellinistik san'ati uslublari muvofiqlashgan.

3.6. Buyuk ipak yo'li

Vujudga kelishi va tarmoqlari. Milodiy XVI asrga qadar Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan Buyuk ipak yo'li muhim o'rin tutgan edi. Bu yo'l mil. avv. II asrda vujudga kelgan va «*Buyuk meridional yo'l*» deb atalgan. Bu yo'lga «Ipak yo'li» degan nom 1877-yili nemis geografi *F.Rixtgofen* tomonidan berilgan.

Buyuk ipak yo'li tashkil topmasdan avval O'rta Osiyo va Qadimgi Sharq hududida savdo va madaniy ayirboshlash uchun turli-tuman yo'llar mavjud bo'lgan.

Eng qadimgi yo'llardan biri mil. avv. 3 – 2-mingyillikda vujudga kelgan «*La'l yo'li*»dir. U Pomir tog'laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo va Misr orqali o'tgan. Pomirdan olinadigan yarim nodir la'l toshi (lojuvard) Qadimgi Sharq mamlakatlari zargarlari tomonidan yuksak baholangan. Badaxshon la'li ishlatilgan buyumlar Misr fir'avnlari maqbaralaridan ham topilgan.

Boshqa bir karvon yo'li Eron aharoniyarlari sulolasining yo'li bo'lib, «*Shoh yo'li*» deb atalgan. U mil. avv. VI – IV asrlarda O'rta yer dengizi bo'yidagi Efes shahrini qadimgi Fors davlati poytaxtlari – Suza va Persepol bilan bog'lab turgan. Yana bir yo'l Eron, Baqtriya orqali So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududidan o'tib, Oltoygacha borgan.

Buyuk ipak yo'li 12 ming kilometrgacha uzunlikda bo'lgan. U Sariq dengiz sohilidan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rta yer dengizi sohillarigacha borgan. Bu yo'l da Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv va boshqa bir qancha qadimiy shaharlar joylashgan.

So'g'diyonadan Xitoyga jun gazlama, gilam, zeb-ziyat buyumlari va qimmatbaho toshlar olib borilgan; Baqtriyadan tuyalar, Farg'onadan zotli otlar, Badaxshondan la'l; Hindistondan O'rta Osiyo viloyatlariga ip-gazlama va paxta chigiti ortilgan karvonlar kelgan; Xitoydan guruch keltirilgan; O'rta

Osiyo viloyatlaridan Xitoyga uzum, yong'och, anor va boshqa dehqonchilik mahsulotlari tashilgan.

Buyuk ipak yo'li Chjan Syan tavsifida. Mil. avv. 138-yili Xitoy imperatori U-Di elchi Chjan Syanni ko'chmanchi xunn qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi va hamkorlar topish uchun jo'natadi. Xunnlar Xitoyning shimoliy tumanlarini talon-toroj qilar edilar. Elchi xunnlar qo'liga asir tushadi va o'n yilcha hibsda yotadi. U asirlikdan qochib, Markaziy Tyan-Shan dovonlari orqali Issiqko'lga chiqadi. Norin daryosi bo'ylab Farg'ona vodiysiga keladi. Bu yerda o'zi uchun vodiydagi shaharlarni kashf qiladi. Bu shaharlar Farg'ona davlatiga qarashli ekanligini bilib oladi. Tabiiyki, elchi Xitoyning xunnlarga qarshi kurashida Farg'ona hukmdoridan yordam so'raydi. Lekin Farg'ona hukmdori faqat savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish istagini bildiradi. Chjan Syan janub sari sayohatini davom ettiradi. Oloy vodiysidan o'tib, yana xunnlar qo'liga tushib qoladi va bir yildan keyin vataniga qaytadi. Elchi Xitoy imperatoriga ko'rgan-bilganlarini so'zlab beradi. U Xitoyga Farg'ona otlaridan birini va beda urug'idan olib kelgan edi. Bu otni xitoyliklar «samoviy» deb ataganlar. Imperator U-Di o'z saroyi yaqinida beda ektiradi. Keyinchalik u Xitoyning butun shimoli bo'ylab ekiladigan bo'ladi. Xitoyliklar anor, uzum, bodring va yong'och ekishni ham yo'lga qo'yadilar.

Chjan Syan yurgan yo'l bo'ylab mil. avv. II – I asrlarda Xitoy mamlakatini Markaziy va G'arbiy Osiyo bilan bog'lovchi jahon ahamiyatiga ega Buyuk ipak yo'li deb ataluvchi karvon yo'li o'tadigan bo'ldi. Farg'ona vodiysida ipak yo'li ikki tarmoqqa bo'lingan. Birinchisi O'zgandan Axsi shahri, Qamchiq dovoni orqali (yozda) Eloq vohasi va Toshkentga kelgan. Ikkinchisi janubiy tarmoq bo'lib, O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon, Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoro orqali o'tgan.

Buyuk ipak yo'lining ahamiyati. Buyuk ipak yo'lining tarixi Sharq va G'arb xalqlarining keng miqyosdagi madaniy aloqalari va savdo ayirboshlashi tarixidir. Bu tarix o'zaro hamkorlik va madaniyatlar boyitilishi tarixi bo'lib, tinchlik va taraqqiyot asosini tashkil etgan. Mamlakatimiz hududi bu yo'lining chorrahasida joylashgan.

O'rta Osiyo xalqlari Buyuk ipak yo'li tufayli Sharq va G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyati bilan oshno bo'lganlar. G'arb mamlakatlari xalqlari esa O'rta Osiyo xalqlarining yuqori darajada rivojlangan madaniyatini o'zlari uchun kashf qildilar. O'rta Osiyo aholisi Xitoy shoyisini qadrlasa, Xitoyda O'rta Osiyo gilamlari, jun gazlamalari, hunardmandchilik buyumlariga talab katta bo'lgan.

Buyuk ipak yo'li Sharq va G'arb mamlakatlari xalqlarini o'zaro madaniy aloqalaridan bahramand bo'lish imkonini berdi.

O'rta Osiyo bu yo'ning asosiy yo'nalishlari kesib o'tadigan markazida joylashgan. Bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va musiqachilar tashrif buyurur edilar.

Buyuk ipak yo'li sharofati bilan O'rta Osiyo xalqlari G'arb va Sharqning iqtisodiy va madaniy yutuqlari bilan tanishdilar.

4-BOB. O'RTA ASRLARDA YERGA EGALIK QILISH MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

4.1. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar

Qadimgi Turon diyorida zamonasining buyuk davlatlaridan Qang' davlati va Kushon podsholigi ravnaq topgan davrda yuksalish boshlangan edi. Bu siljishlar natijasida mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Shaharlarning soni ko'paydi va hududi kengaydi. Shahar ilk o'rta asrlardan boshlab hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi.

Vohalarda yirik sug'orish tarmoqlari qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chig'ir va charxpalak kabi suv inshootlari kashf etildi. Oqar suv sathidan birmuncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarib obod etildi. Ziroatchilikda g'allakorlik, sholikorlik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bog'dorchilik maydonlari kengaydi.

Ekin maydonlarini sug'orish va ishlov berishning takomillashuvi tufayli aholi dehqonchilikdan mo'l hosil oladigan bo'ldi.

Shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivoj topishi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Natijada mamlakatning iqtisodiy hayotida xomashyo yetkazuvchi qishloqlarning nufuzi ko'tarildi. Bir tomondan, yerga, ziroatkor maydonlarga bo'lgan munosabat, ularga egalik qilish shakli asta-sekin o'zgarib boshladi. Ikkinchi tomondan, o'troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o'rtasidagi aloqalar rivojlandi. Mamlakatning dasht va tog'oldi mintaqalarida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining o'troq hayot tarziga o'tishi kuchaydi. Dehqonchilik uchun yaroqli obikor yerlarga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib borishi natijasida qo'riq va bo'z yerlarga suv chiqarilib, katta-katta ekin maydonlari barpo etildi. Bunday obodonchilik ishlarini amalga oshirishda mamlakat ijtimoiy hayotida kattagina nufuzga ega bo'lgan mulkdor tabaqa vakillari, qishloq oqsoqollari hamda qabila boshliqlari sarkor-ishboshi sifatida faol qatnashadilar. Qo'riqlarda ochilgan yangi yer maydonlarining ma'lum

bir ulushi ularning qo'liga o'tadi va merosiy mulkiga aylanadi. Shu tariqa kattagina yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllanadi.

Dehqonlar va ular xo'jaligidagi hayot. Sarkorlar o'zlariga tegishli yer maydonlarini sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa, to'g'on boshi atrofidan ajratib oladilar. Bu yo'l bilan ular suvdan dehqonchilikda bema'lol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o'z ta'sirini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa ular ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. O'sha zamonda ular *dehqonlar* deb atalgan.

Dehqonlar shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do'kon-u rastalaridan iborat kattagina xo'jalikka ham ega edilar. Qishloqlarda esa ekinzor paykallardan tashqari ularning ko'shk va istehkomli qo'rg'onlari, objuvoz-u moyjuvoz hamda tegirmontlari bo'lardi. Qul, cho'rilardan iborat ko'pdan ko'p xizmatkorlar dehqonlarning xo'jaligida qishin-yozin mehnat qilganlar. Bundan tashqari, har bir katta yer egasining 30 – 40, 50 – 100, ba'zan undan ortiq maxsus askariy guruhi – *chokarlari* bo'lgan. Chokarlari baquvvat va abjir hamda o'z xojasiga sadoqatli o'spirinlardan tanlab olingan. Bunday sodiq va jangovar chokarlari bilan dehqonlar yov hujumi paytlarida dushmanga qarshi harbiy yurishlarda qatnashardi. Osoyishtalik zamonda esa chokarlarga suyanib qishloqning ziroatkor ahli ustidan hukmlarini o'tkazardi.

Qishloq jamoalarining tabaqalanishi. Avvalda o'z qaramog'idagi xizmatkorlari mehnatidan foydalanib kelgan dehqonlar keyinchalik turli yo'llar bilan qishloq jamoalari ustidan hukmronlik qiladigan, bora-bora ular kuchidan foydalanadigan bo'ladilar. Shunday qilib, mamlakatda yerga egalik qilish munosabatlarning shakllanishi bilan qishloq jamoalari ichida yirik yer egalari bo'lmish dehqonlar bilan bir qatorda *kadivarlar* tabaqasi ham paydo bo'ladi. Mamlakatda yer-suv mulkchiligining xususiyligi ortib borishi bilan kadivarlarning soni asta-sekin ko'payib, dehqonchilik xo'jaligining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlaridan biriga aylanadilar.

V asrning o'rtalariga kelib garchi ekin yerlarining ma'lum bir qismi mulkdor dehqonlar qo'l ostidagi mulklardan iborat bo'lsa ham, ammo ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi hali ham qishloq jamoalarining qaramog'ida edi.

Yer egaligining tarkib topishi natijasida mamlakatning ijtimoiy hayotida kashin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ushbu o'zgarishlar, ayniqsa, qishloqlarda sezilarli bo'ldi. Qishloq jamoalari yerli mulkdor dehqon va unga qaram bo'lgan yersiz va erksiz kadivarlarga ajralib bordi. Qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar tabaqasi *kashovarlar* deb atalardi. Ularning ma'lum bir qismi jamoa yerlaridan mahrum bo'lib, bora-bora kadivarlarga aylanib borganlar. Ayrim dehqon

qonchilik vohalarining katta yerlarga ega bo'lgan dehqonlari esa o'z viloyatlarida hatto mustaqil hokim bo'lib oladilar.

4.2. III o'rta asrlar davlatlari

Xorazm davlatining tashkil topishi. Zaiflashib borayotgan Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqadi. Uni mahalliy *afriq'iylar* sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshlaydi. III asr o'rtalarida Xorazm davlatining poytaxti dastlab hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida joylashgan *Tuproqqal'a* shahar xarobasining o'rnida bo'lgan.

Poytaxt mudofaa jihatidan nihoyatda mustahkam qurilgan. Shaharning mustahkam darvozaxonasi bo'lgan. Darvoza qarshisida shahar markazini kesib o'tgan ko'chaning har ikki tomoni bo'ylab shaharliklarning turarjoylari joylashgan. Shahar markazidan yuqoriroqda ibodatxona majmuasi, uning yonida esa balandligi *25 metr* bo'lgan uch minorali xorazmshohlar qasri qad ko'targan. Bu davrda Xorazmda atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralgan shaharlar, istehkomli qishloqlar juda ko'p bo'lgan.

Xorazm davlatining poytaxti dastlab hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida joylashgan qadimgi *Tuproqqal'a* shahar xarobasining o'rnida bo'lgan. Milodiy 305-yili Xorazmshoh *Afrig'* o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi *Kat* shahriga ko'chiradi. *Kat* qayta tiklanib, *Al-Fir* qasri ichida shoh o'ziga yangi saroy qurdiradi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Xorazmning *afriq'iy* shohlari oldi tarafiga shoh surati, orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarini mustahkam o'rnatib oladilar.

Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, xorazmshohlar unvoni dastlab *siyovushlar* sulolasi tomonidan qabul qilingan. Beruniy bu haqda: «*Siyovush ibn Kayxusravning Xorazmga kelishidan... tarix oldilar. Shu vaqtdan Kayxusrav... turk podsholari (ustidan) hukmronligini yurg'izgan edi*», – deb yozgan. O'sha zamonda *Kayxusrav*, *Saksafar*, *Farasman*, *Xusrav* kabi hukmdorlar «Xorazmshoh» unvoniga sazovor bo'lishgan.

Xorazmshoh Xorazm davlati hukmdorlarining unvoni. Beruniy asarlarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, dastlab Xorazmshoh unvoni bilan Xorazmni *Kayxusrav* idora etgan. Quyidagi 4 sulola: *afriq'iylar*; *ma'muniylar*; *oltintoshlar*; *anushteginiylar* hukmdorlari «Xorazmshoh» unvoniga ega bo'lganlar.

Moddiy-madaniy topilmalardan ayon bo'lishicha, III asrda Xorazm hududida iqtisodiy-siyosiy jihatdan mustaqil bir nechta sug'orma dehqonchilik vohalarni boshqargan mayda hokimliklar tarkib topgan. *Tuproqqal'adan* qo'lida burgut qo'ndirilgan tojkor hukmdor, *Anqaqal'a* yaqinidan esa qo'li-

da lochin tutgan tojkor kishi tasviri so'qilgan tanganing topilishi, shubhasiz, hukmronlik ramzidan dalolat beradi. Bu davrda Xorazmda sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq, ilm-fan, san'at, xususan, haykaltaroshlik yuqori darajada rivoj topgan. III asrdayoq Qang' davlatidan ajralib mustaqillikka erishgan Xorazm o'zaro kurashlarda g'olib chiqadi. Natijada afrig'iylar sulolasi hukmronligiga asos solinadi.

Xorazm xioniylar, kidariylar, eftallar hamda Turk xoqonligi davrida ham o'zining siyosiy mustaqilligini saqlab qoladi. Vizantiyalik tarixchi *Menandr* Xorazm VI asrning 60-yillarida Vizantiya va turklar bilan diplomatik aloqalar olib borganligi to'g'risida ayrim ma'lumotlarni qayd etgan.

Xioniylar davlati. IV asr o'rtalarida O'rta Osiyoga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan ko'chmanchi *xion* nomli qabilalarning hujumi boshlanadi.

Xioniylar 353-yili o'z hukmdori *Grumbat* boshchiligida So'g'dga bostirib kiradilar. So'ngra ular Eronda tashkil topgan va tobora kuchayib borayotgan Sosoniylar davlati bilan to'qnashadilar. Dastlabki janglardayoq sosoniylar shohi *Shopur II* (309 – 379) xioniylardan yengiladi. So'ngra ular o'rtasida tuzilgan sulh ittifoq orqali mustahkamlanadi. O'rtadagi ittifoq goh buzilib, goh tiklanib turadi. Nihoyat, IV asrning 70-yillarida O'rta Osiyoda xioniylar hukmronligi o'rnatildi. Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo havzasigacha cho'zilgan keng maydonda xioniylarning kuchli davlati qaror topadi. Bu davlat 120 yildan *oshiqroq* hukmdorlik qiladi.

Kidariylar davlati. V asrning 20-yillarida sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir ko'chmanchi chorvador aholi – *toxarlar* kirib keladi. Toxarlar kushonlarning avlodlaridan bo'lib, *Kidar* ismli hukmdor ularga yo'l boshchi edi. Shuning uchun ular kidariylar nomi bilan tilga olinadi. Tez orada kidariylar Amudaryo havzasi hamda G'arbiy va Janubiy So'g'd yerlarini ishg'ol etib, Xioniylar davlatining janubiy qismida o'z hukmronligini o'rnatganlar. *Balx* shahri bu yangi davlatning poytaxtiga aylantirilgan.

V asrning 30 – 50-yillarida kidariylar bilan sosoniylar o'rtasida ziddiyat tobora kuchayib, ular bir-biriga dushman bo'lib qolgan. Bu ikki davlat o'rtasida 456-yili bo'lib o'tgan navbatdagi to'qnashuvda sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchragan kidariylar o'zini qayta o'nglab ololmaydi. Buning ustiga, tez orada kidariylar shimoldan janubga tomon siljigan yana bir ko'chmanchi chorvador aholi – eftallar bilan to'qnashadilar. Natijada kidariylar O'rta Osiyoni tark etib, janubga, Shimoliy Hindistonga chekinadilar. U yerlarda 75 yil hukmronlik qiladilar.

Eftallar davlati. Eftallarning ilk ajdodlari Xitoyning shimoli-g'arbiy hududida (Xesi) yashagan turkiy xun qabilalari ittifoqi tarkibida bo'lgan. Ular

III asrda Turonning janubiy va Xarkon (Kaspiy) dengizining shimolida yastangan yaylovlarga o'rnashib boshqa turkiy elatlar bilan aralashib ketadi. Keyinchalik eftallar ko'payib, avval xioniylarni, so'ngra boshqalarni tobe etib davlat barpo qilganlar. V asrda ular Kidariylar davlatini mag'lub etib, Xurosonning talay qismini egallaganlar va sosoniylar bilan to'qnashganlar.

V asr o'rtalarida diyorumizga kirib kelgan eftallar yozma manbalarda *eftal*, *xaftal*, *xaytal* degan nomlar bilan tilga olinadi. «Eftal» degan nom ilk bor «*xeptal*» shaklida V asr arman manbalarida uchraydi. Bu nom, aslida, «*Eftalon*» deb yuritilgan shoh nomidan olingan. Uni *Vaxshunvar* deb ham ataganlar, u eftallar yurishiga boshchilik qilgan. Qisqa vaqt ichida Chag'oniyon, Toxariston va Badaxshon bo'ysundiriladi. Ular bir zarba bilan So'g'dda ham o'z hukmronligini o'rnatadilar. Eftallar davlati nihoyatda kuchayadi. Hatto ular o'zaro aloqa o'rnatish maqsadida 456-yili Xitoyga elchi yuboradilar. Eftallarning tobora kuchayib borayotgan tajovuzidan xavfsiragan sosoniylar ularga qarshi yurish qiladi. Ikki o'rtadagi jang-u jadallar, ayniqsa, sosoniylar shohi *Pero'z* hukmronlik qilgan davrda (459 – 484) avjiga chiqadi. Sosoniylar shohi eftallarga qarshi uch marta yurish qiladi. Dastlabki janglardayog u mag'lubiyatga uchrab, asir tushadi. Vizantiya imperatori *Zenon* tomonidan yuborilgan o'lpon evaziga u asirlikdan ozod etiladi. Biroz vaqt o'tgach ikkinchi marta eftallarga qarshi qo'shin tortadi. Ikkinchi yurish ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. Shohning *Kubod* ismli yosh o'g'li eftallar yurtiga garovga yuborilib, *Pero'z* tutqunlikdan ozod etiladi.

Pero'z 484-yili eftallarga qarshi uchinchi marta yurishga otlanadi. Bu galgi urush sosoniylar shohining halokati bilan tugaydi. Marv ishg'ol qilinib, Eron ustiga juda og'ir o'lpon yuklanadi. Ma'lum vaqt Eron eftallarga siyosiy jihatdan qaramlikka tushib qoldi. *Pero'z* vorislari *Kubod* (488 – 531), *Anushervon* (531 – 579) hukmronlik qilgan davrlarda eftallar bilan munosabatlar ancha yumshab, tinchlik tusini olgan. Sosoniylar kumush hisobida belgilangan bojni uzluksiz to'lab turadilar. Keyinchalik eftallar *Kobul*, *Panjob*, *Urumchi*, *Qorashar*, *Xo'tan*, *Qoshg'ar* shaharlarini ham o'z tasarrufiga kiritadilar.

Shu tariqa kuchli suvoriylardan (otliqlardan) iborat qo'shinga ega bo'lgan eftallar bir qancha yarim mustaqil mulkdorlarning uyushmasidan iborat ulkan davlatni barpo etdilar. Mazkur mulklar hukmdor – shoga (shohga) tobe sulolalar tomonidan boshqarilgan. Hatto ularning har biri o'zining kumush yoki mis tangasini zarb etgan.

V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning boshlarida O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlarini birlashtirgan, ilk o'rta asrlarning yangi qudratli davlati hisoblangan Eftallar davlati tashkil topadi.

4.3. Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

Xo'jalik hayoti. Eftallar davlatiga birlashgan aholining etnik tarkibi xilma-xil bo'lgan. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti esa biri ikkinchisidan keskin farq qilgan. Eftallar kelib chiqishiga ko'ra ko'chmanchi qabilalarga mansubligi tufayli chorvachilik bilan shug'ullanib, yaylovlarda o'tov qurib yashaganlar. Keyinchalik eftallar zabt etgan yerlarda savdo-sotiq rivojlandi. Yillar o'tishi bilan ular mahalliy aholi bilan qorishib ketadilar.

Toxariston va So'g'd dehqonchilik hamda bog'dorchilikning rivoj topgan markazi hisoblanardi. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilardi. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, V – VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida paxta ekilgan. Uning tolasidan oppoq va nihoyatda mayin mato to'qilgan. Xitoy bozorlarida bunday matoga talab katta bo'lgan. Chunki o'sha davrlarda Xitoyda paxta hali ekilmas edi.

Aholining dashtlarda yashovchi yarim ko'chmanchi qismi chorvachilik, xususan, qoramol va qo'y-echkilar boqish, tuyachilik, tog'li va tog'oldi mintaqalarida esa yilqichilik bilan shug'ullangan. Farg'ona vodiysi hamon zotli arg'umoblari bilan mashhur edi.

Yer egaligi. Ziroatkor yerlarning kattagina qismi hali ham qishloq jamoalari tasarrufida bo'lsa-da, ammo mamlakatdagi yer maydonlarining ma'lum bir qismi dehqonlar qo'lida va ibodatxonalar ixtiyorida bo'lgan. Buning natijasida qishloq jamoasining kashovarzi erkin qo'shchilari ma'lum darajada dehqonlarga tobe bo'lib, ularga qaram kadivarlarga aylana borgan.

Yaylovlarning asosiy qismi esa qabila va urug' jamoalari hamda ularning oqsoqollari – xvabulari tasarrufida edi. Hozirgi vaqtda ham Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlab turgan *Zog'ariq* (Zovariq) va *Bo'zsuv*, Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbai *Darg'om* kanali V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan hisoblanadi.

Xuddi shu davrda Chag'oniyon (Surxondaryo), Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naxshab (Qarshi) va Toshkent atroflari to'la o'zlashtirilib, alohida-alohida dehqonchilik vohalari shakllanadi. Keyinchalik bu vohalarda yer egasi bo'lgan dehqonlarning siyosiy mavqeyi oshib, ular yetakchilik qilgan kichik hududga ega voha hokimliklari vujudga keladi.

Savdo va pul muomalasi. Tashqi savdo bojidan manfaatdor bo'lgan eftallar Ipak yo'lini o'z nazoratlari ostida tutib turishga harakat qilishgan. Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan bo'lgan xalqaro savdoda faol qatnashishardi. Ipak yo'li savdosida sosoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan so'g'diylar vositachilik rolini o'ynardi.

Xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi bilan mamlakatda tanga pul muomalasi tartibga solinadi. Ichki va tashqi savdo munosabatlarida eftallar dastavval sosoniy hukmdorlarning kumush tangalaridan keng foydalanadilar. Bundan tashqari, Buxoro, Poykand, Vardona, Naxshab, Samarqand va Xorazmda mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa tangalar mamlakatning ichki savdosida keng muomalada bo'lgan. Bu mamlakat hayotida mahalliy voha hokimlari katta nufuzga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Eftallar davrida aholining tabaqalanishi, ya'ni mulkiy tengsizlik kuchayib borgan. Shu boisdan davlat boshqaruvida ma'lum qonun-qoidalar paydo bo'lgan. Davlat harbiy kuchga tayangan. Jinoyat uchun juda qattiq jazolar belgilangan.

Hayotiy o'zgarishlar. Ko'chmanchi qabilalarning dehqonchilik vohalari atrofiga kelib o'rtnashishi bilan ma'lum darajada dasht udumlari va e'tiqodiy tasavvurlari o'troq aholining hayotiga kirib bordi. Asriy madaniy an'analari kuchli bo'lgan Toxariston va Sharqiy So'g'd vohalarida ko'chmanchilar tez orada o'troqlashdilar. Samarqand, Buxoro, Naxshab va Choch (Toshkent) kabi dehqonchilik vohalarida baland poydevor ustiga bino qilingan ko'plab istehkomli qasrlar va qo'rg'onlar qad ko'tardi. Ularning ayrimlari hatto ikki qavatli bo'lib, yuqorisiga *pandus* (qiya ko'tarma yo'lak) orqali chiqilgan.

Til va madaniy aloqalar. O'rta Osiyo aholisi turli tillarda so'zlashgan. Chorvador aholi o'rtasida turkiy til muhiti hukmron edi. O'troq aholining bir qismi so'g'd tilida, ikkinchi qismi turkiy tilda so'zlashgan. Bu davrda so'g'd tili xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv va Farg'ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoy hududlarigacha yetib boradi. V – VI asrlarda so'g'd, xorazm va eftal yozuvlari tarqalgan edi. Eftallar xati Baqtriya yozuvi asosida paydo bo'ladi. Eftallar yozuvi 25 harfdan iborat bo'lgan. Xat chapdan o'ngga tomon ko'ndalangiga yozilgan.

Eftallar o't (olov) va quyoshga sig'inuvchi otashparast bo'lganlar. Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlar esa budda, nasroniy va zardushtiylik dinlariga e'tiqod qilishgan. Ularning so'nggi avlodlari o'zbek, turkman va turk elatlari tarkibiga singib ketgan. Zamonamizgacha turkman va anatoliyalik turklar tarkibida «*abdal*» nomli etnik guruh saqlangan. Shu tariqa turkiy dunyo kengayib kamol topgan va Yevrosiyoda muqim o'rin egallagan.

Bu davrda Xitoy, Hindiston va Eron bilan iqtisodiy hamda madaniy aloqalar kengayib boradi. V asrda o'rta osiyolik shishasozlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o'rgatadilar. O'rta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan. Xitoy imperatorlari o'z saroylarini bezashda O'rta Osiyodan keltirilgan rangli shishadan foydalanganlar. Shunday qilib, O'rta Osiyo aholisining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar, xususan, Hindiston va Eron tasviriy uslublari bilan uyg'unlashib, ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylangan.

4.4. O'rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida

Xoqonlikning tashkil topishi. VI asr o'rtalarida Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalarni birlashtirgan yangi davlat vujudga keldi. Bu davlat tarixga Turk xoqonligi nomi bilan kirgan. Uning asoschisi *Bumin* edi. 552-yili Bumin «xoqon» deb e'lon qilindi.

Oltoy xoqonlikning markazi qilib belgilanadi. Turklarning g'arbga tomon yurishlariga *Istami* boshchilik qiladi. Unga «Yab'g'u xoqon» degan unvon beriladi. Tez orada Yettisuv va Sharqiy Turkistonga tutashgan yurtlarda yashovchi turkiy qabilalar bo'ysundiriladi. 555-yiliyiq turklar Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarigacha cho'zilgan keng o'lkalarni egallaydilar. Xoqonlik chegarasi Eftallar davlati hududlariga tutashib ketgan.

558-yili turklar Yoyiq (Ural) va Itil (Volga) bo'ylarini zabt etadi. 575 – 576-yillarda Shimoliy Kavkazning bepoyon yerlarini egallab, Qrim yarim-oroliga kirib boradilar. Natijada eftallar davlatining shimoliy hududlari xavf ostida qoldi. Bunday qulay vaziyatdan foydalangan sosoniylar Toxariston va Chag'oniyonni eftallardan tortib oladilar.

Eftallar davlatining qulashi. Turk xoqonligining eftallar bilan to'qnashi-shi muqarrar edi. Bunday murakkab siyosiy vaziyat xoqonlikni Eron, so'ngra Vizantiya bilan yaqinlashtiradi. Uzoq vaqt eftallar tazyiqida yashagan sosoniylar bu davlatning tamomila barbod bo'lishidan manfaatdor edi. *Xusrav I Anushervon* (531 – 579) tashabbusi bilan yuzaga kelgan o'zaro harbiy ittifoq Eron shohining Istamiga kuyov bo'lishi orqali yanada mustahkamlanadi.

Eron askarlarining Balxga hujumi ko'magida turklar 563-yili Eftallar davlati yerlariga bostirib kiradilar. Parak (Chirchiq) vodiysi va uning markazi Choch shahri ishg'ol qilinadi. Sirdaryodan o'tib, Zarafshon vodiysiga kirib boradilar. Ular Samarqand, Kesh va Naxshabni egallab, Buxoroga yaqinlashadilar. Sakkiz kun davom etgan shiddatli jangda eftallar qo'shini yengiladi. Shunday qilib, janubdan Eron sosoniylaridan, shimoldan esa Turk xoqonligidan 563 – 567-yillarda zarbaga uchragan Eftallar davlati tamomila barbod bo'ladi. Natijada mag'lub davlatning merosi o'zaro bo'linib, Amudaryoning janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan viloyatlar Eron, uning o'ng sohillari bo'ylab Kaspiy dengizigacha cho'zilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga o'tadi.

Eftallar davlati qulagach, vaziyat tubdan o'zgaradi. Endilikda o'z chegarasini shimoli-sharqqa tomon kengaytirib olgan Eron Amudaryodan to Suriyaga qadar Ipak yo'li ustida haqiqiy sarbon bo'lib oladi. Uzoq Sharqdan Eron hududlarigacha karvon yo'li nazoratini o'z homiyligi ostiga olgan turklar esa Eron orqali Vizantiya bilan bevosita savdo qiladigan bo'ldi.

Turk xoqonligining boshqaruvi. Turk xoqonligi qanchalik katta bo'lmasin, chinakam markazlashgan davlat emas edi. Uning asosi turkiy tilda so'zlashuv-

chi qabilalar ittifoqidan iborat bo'lgan. Bu ittifoqni xoqon boshqargan. Hukmdorning hokimiyati urug'-aymoq udumlariga tayangan harbiy-ma'muriy boshqaruvga asoslangan. Mamlakat ko'chmanchi chorvador va o'troq dehqon aholiga bo'linardi. Ko'chmanchi chorvador aholi «budun» yoki «qora budun» nomlari bilan yuritilgan. Budun, o'z navbatida, qabilalar ittifoqi birlashmasin tashkil etardi. O'n o'q budun yoki elning hokimi «yabg'u» yoki «jabg'u» nomi bilan atalardi. Yabg'u darajasiga faqat xoqon urug'iga qon-qarindosh bo'lganlarga ko'tarilardi. O'n o'q el sardori bir tuman (ya'ni o'n ming) suvoriyni safga tortar edi. Bunday harbiy bo'linmaning tumanboshisi «shod» deb yuritilgan.

VI asrda Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida o'ndan ortiq voha hokimliklari mavjud edi. Ularning iqtisodiy va siyosiy boshqaruvi mahalliy sulola hukmdorlari qo'lida qoldirilib, turklar ulardan faqat boj va yasoq undirib olish bilan cheklanadilar.

Xoqonlikning bo'linishi. Katta-katta qabilalar yoki qabilalar ittifoqi markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka intilgan. Turk xoqonligi tasarrufida bo'lgan hududlardagi hokimlar mustaqil bo'lishni istar edilar. Bu omillar xoqonlikning mustahkam markazlashgan davlatga aylanishiga imkon bermagan.

Bo'ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqaruv tartibi xoqonlikni tobora zaiflashtira borgan. Buning ustiga, Vizantiya, Xitoy va Eron bilan doimiy raqobat xoqonlik ahvolini yanada og'irlashtirgan. Oqibatda Turk xoqonligi VI asrning 80-yillari oxirlarida ikkiga: Sharqiy turk xoqonligi va G'arbiy turk xoqonligiga bo'linib ketadi. Buyuk turk xoqonligi barpo etilgan el-yurt Oloy tog'lari sharqidan to Uzoq Sharqqacha bo'lgan hudud, ya'ni Janubiy Sibir, O'rxun havzasi (Mo'g'uliston), Shimoliy Xitoy Sharqiy xoqonlik tasarrufida bo'lgan. Mazkur xoqonlikning poytaxti *O'tukan vodiysida* (Mo'g'uliston) qaror topgan. Oloy tog'larining g'arbida joylashgan o'lkalar: Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Sirdaryo va Amudaryo havzalari hamda ularga tutashgan hudud G'arbiy xoqonlik tomonidan idora etilgan, qarorgohi *Yettisuvda* joylashgan. G'arbiy xoqonlik o'troq voha va viloyatlarni boshqarishda qator mavjud mahalliy sulolalarni saqlab qolgan. Muhim ahamiyatga molik ayrim o'lkalarda esa turkiy hokimiyatni tashkil etish maqsadida xoqon xonadoniga tegishli mansabdorlar tayinlangan.

4.5. G'arbiy turk xoqonligi

Xoqonlik hududlari va boshqaruv. G'arbiy turk xoqonligi tasarrufiga O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir qismi kirardi. Uning markazi Yettisuv edi. G'arbiy xoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan mutlaqo ajralib turardi. Sharqiy xoqonlik aholisining asosiy qismi chorvador

ko'chmanchilar edi. G'arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi esa o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lgan.

VII asrning birinchi choragida G'arbiy xoqonlik nihoyatda kuchayadi. Uning sharqiy chegarasi Oltoyga, janubda esa Sind (Hind) daryosi bo'ylariga borib taqaladi. Xoqon *To'ng yabg'u* (618 – 630) hukmronlik qilgan davrda boshqaruv tartiblari isloh qilinadi.

Viloyat hokimlarini xoqonlik ma'muriyati bilan bevosita bog'lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlar-ga xoqonlikning «yabg'u» unvoni beriladi. Natijada ular xoqonning noibiga (vakiliga) aylanadilar. Shu bilan birga, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytiriladi. Ular huzuriga xoqonlikning noiblari – *tudunlar* yuboriladi. Biroq ichki kurash oqibatida G'arbiy turk xoqonligi zaiflashib boradi.

Ijtimoiy hayot. Turk xoqonligiga birlashgan aholining hayoti ham, xo'jaligi ham turlicha edi. Ko'chmanchilarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan.

G'arbiy turk xoqonligiga birlashgan aholining o'troq qismi madaniy jihatdan ilg'or bo'lib, xoqonlikning ijtimoiy va iqtisodiy turmushida yetakchi rol ni o'ynagan.

Xoqonlikda shaharlar va qishloqlar ko'p bo'lgan. Aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanardi. Turk hunarmandlari yasagan zeb-ziynatlar va qurol-yarog'lar xilma-xilligi va nihoyatda puxtaligi bilan ajralib turardi. Farg'ona va So'g'dda oltin, mis, temir va simob, Eloqda qo'rg'oshin, kumush va oltin qazib olinardi.

Ichki va tashqi savdo-sotiq ishlari esa shahar aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri edi. Bu sohada, ayniqsa, So'g'd savdogarlarining mavqeyi baland bo'lgan.

VII asrning birinchi yarmida G'arbiy turk xoqonligi bilan Xitoy o'rtasida, ayniqsa, iqtisodiy aloqalar faollashdi. Bu davrda Xitoyga to'qqiz marotaba savdo elchiligi yuboriladi. Birgina 627-yilning o'zida Buxoro, Samarqand, Ishtixon va Ustrushonadan (Jizzax va O'ratepa viloyatlari) birlashgan juda katta savdo karvoni Xitoyga yetib boradi.

VI – VII asrlarda O'rta Osiyoda dehqonlar tomonidan yerlarni egallash jarayoni tobora avj olib, zulm kuchayadi. Yer va suvdan ajralib qashshoqlashib borayotgan ozod ziroatkor – kashovarlar mulkdor dehqonlar asoratiga tushib, qaram kadivarlarga aylanadi. Qashshoqlik, jabr-zulm va dehqonlar asoratiga qarshi aholi bosh ko'tarishga majbur bo'ladi. Shunday xalq qo'zg'olonlaridan biri 585 – 586-yillarda Buxoroda yuz beradi. Qo'zg'olonga xoqon xonadoniga mansub *Abruy* boshchilik qiladi. Qo'zg'olondan vahimaga tushgan mulkdor dehqonlar va boy savdogarlar Buxoro viloyatini tark etib, Turkiston va Taroz at-

rofiga borib o'rtnashadilar. Ular turk xoqoniga murojaat qilib, qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda yordam berishni so'rganlar. Turk xoqoni *Qoracho'rin* o'g'li *Sheri Kishvar* (El Arslon) boshliq qo'shin yuboradi. Abruy o'ldirilib, qo'zg'olon bostiriladi. Kadivar va xizmatkorlar o'z xo'jayinlari – dehqonlarga qaytariladi.

4.6. Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi

Mahalliy hokimliklar. V – VII asrlarda mamlakat bir qancha hokimliklarga bo'linib ketadi. Viloyat va uning yirik shaharlaridan iborat *15 dan ortiq* mustaqil hokimliklar tashkil topadi.

Bu viloyat hokimliklari avval eftallar, so'ngra Turk xoqonligiga bo'ysundirilgan bo'lsa-da, ammo eftallar ham, turk xoqonlari ham ularning ichki hayotiga deyarli aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to'lab turish bilan ular o'z mustaqilliklarini ma'lum darajada saqlab qoladilar.

So'g'd. Mustaqil hokimliklar orasida eng yirigi – So'g'd ixshidlari voha hukmdorlari edi. O'rta asr davlatlari birlashmasi ittifoqida So'g'd ixshidlari katta siyosiy nufuzga ega bo'lgan. Mazkur ittifoqda Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan Samarqand, Buxoro, Kesh vohalarining *o'n bitta* yirik mulklari birlashgandi. Ularning har biri o'z hokimi, harbiy chokarlari va mis pul birligiga ega edi. Samarqand ixshidi saroyida ajdodlar ruhi xotirasiga ibodatxona bino qilingan. Har yili unda o'tkaziladigan xotira marosimida viloyat hukmdorlarining barchasi ishtirok etardi. So'g'dda aholi gavjum yashardi. So'g'diyalar dehqonchilik va bog'dorchilik, ayniqsa, uzumchilikda nihoyatda sohibkor edilar. Chorvachilikda So'g'dning hisori qo'ylari va tulporlari juda mashhur edi.

So'g'd shaharlari bu davrda hunarmandchilikning markaziga aylanadi. 718-yili hadya tariqasida Samarqanddan yuborilgan dubulg'adan nusxa olib Xitoy qurolsozlari qo'shinni temir qalpoqlar (dubulg'alar) bilan ta'min etganlar. So'g'd tog'laridan oltin, jez, novshadil va tuz kovlab olinardi.

Toxariston. Nisbatan mustaqil hokimliklarning bir nechtasi Toxaristonda joylashgan edi. Ular *27 ta* tog' va tog'oldi viloyatlaridan iborat edi. *Balx* shahri Toxariston poytaxti bo'lgan.

Toxariston avval eftallar, so'ngra Turk xoqonligi tomonidan bo'ysundiriladi. Manbalarda ta'rif etilishicha, Toxariston aholisi budda diniga e'tiqod qilgan. Toxariston *25 harfli* yozuviga ega bo'lgan.

Toxariston aholisining asosiy qismi o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ayniqsa, qurolsozlik yuksalgan. Hozirgi Janubiy O'zbekiston va Tojikiston, Shimoliy Afg'onistonni o'z ichiga olgan bu tarixiy viloyat shimolda Hisor tog'lari, janubda Hindikush, g'arbda Murg'ob va Xerirud vodiysi, sharqda Pomir bilan chegaralangan. Toxariston nomi mil. avv. II asrda

Yunon-Baqtriya davlatini qulatgan chorvador qabila – yuechjilar nomidan olingan. Toxariston Hindiston, Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan savdo-madaniy aloqalar o'rnatgan, o'z chaqa-tangalari ichki savdo muomalasida yurgan. Toxariston Markaziy Osiyoda budda va moniylik dinlarining tarqalishi va rivojida muhim rol o'ynagan.

Farg'ona. Farg'ona hukmdorlari «*ixshid*» deb atalgan. Farg'ona yerlari juda hosildor bo'lib, aholisi dehqonchilik bilan kun kechirgan, paxta va sholi ekan. Koson, Axsikat (Xushkat) va Quva (Qubo) kabi yirik markaziy shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalari rivoj topib, ularning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda xaridorgir bo'lgan. Qo'shni mamlakatlarga bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan.

Farg'ona vodiysida o'troq aholi bilan bir qatorda chorvadorlar ham yashaganlar. Qurama va Qoramozor tog'lari yonbag'irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Bu vodiya ko'paytirilgan tulpor otlarning dong'i jahonga taralgan.

Choch va Eloq. Chirchiq va Ohangaron vodiylarida ikkita hokimlik mavjud bo'lgan. Manbalarda ulardan biri Choch, ikkinchisi Eloq mulki nomlari ostida tilga olinadi. Chochning markazi Choch shahri bo'lib, hukmdori «*tudun*» deb yuritilardi. Eloqning markazi Tunkat, hokimlari esa «*dehqon*» deb atalardi. V asrda ular Eftallar davlatiga, VI asr oxirida esa G'arbiy turk xoqonligiga bo'ysundiriladi.

VII asrning dastlabki choragida esa G'arbiy turk xoqonligi hukmdorlik qarorgohini Choch viloyatiga ko'chiradi. Hukmdor va malika uchun *Yabg'ukat* va *Xotunkat* kabi o'ziga xos qarorgohlar bino qilindi. Choch tuduni va Choch tegini yozuvlari chekilgan tangalar zarb etiladi. Tangalarning old betida hukmdor surati, teskari tomonida ot, gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan. Ayrim tangalarda esa hatto hukmdorga yonma-yon malika tasviri ham chekilgan. Bunday qo'shaloq tasvir, shubhasiz, qadimgi turkiylar davlatchiligida hukmdorning malikasi – *xvatun* (xotun) vazirlik darajasiga ega bo'lib, davlat boshqaruvida faol ishtirok etganligidan dalolat beradi. Saroyda u xoqondan keyingi o'rinni egallagan.

G'arbiy turk xoqonligi, shuningdek, uning yirik o'troq viloyatlaridan hisoblangan Choch o'lkasi o'z tanga pullari tizimiga ega bo'lgan.

Choch va Eloq sertarmoq xo'jalikka ega bo'lib, sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, konchilik va savdo yuksak darajada edi. Choch va Eloq tog'lari oltin, kumush, rangli ma'danlar, temir va jilvador chaqmoqtoshlarga boy bo'lgan.

Karvon yo'lining o'lka orqali o'tishi Choch va Eloqqa ichki va tashqi savdo-sotiqning kengayib, shaharlarining gavjumlashuviga imkon beradi.

Boshqaruv ma'muriyati. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hokimliklarida ma'lum tartibdagi boshqaruv ma'muriyati tashkil topgan edi. Boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan iborat bo'lgan. Kirim-chiqimlar aniq va ravshan qayd etilib hujjatlashtirilgan. Ularga barmok bosilib, hatto muhr bilan tasdiqlab qo'yilgan.

Shahar me'morchiligi. V – VII asrlarda O'rta Osiyoda, bir tomondan, yerga egalik qilish munosabatlarining o'rnatilishi va mustahkamlanib borishi ikkinchi tomondan, ko'chmanchi chorvadorlarning beto'xtov shiddat bilan kirib kelishi va o'troqlashuvi shahar va qishloqlarning qiyofasi hamda aholi sinining turmush tarzi-yu ijtimoiy ahvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ziroatkor yerlar kengayib, dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. Tog'oldi maydonlariga suv chiqarilib, yangi yerlar o'zlashtirildi. Shaharlar gavjumlashdi. Qishloqlarda «ko'shk», «qasr», «qo'rg'on» va «qo'rg'oncha» nomlari bilan shuhrat topgan istehkomli turarjoylar qad ko'tardi.

Istehkomli qasr, qo'rg'on va ko'shklar asosan tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti, chokarlar to'planadigan joy, ma'muriy markaz hamda oziq-ovqat va qurol-yarog' saqlanadigan ombor vazifasini o'tagan.

O'rta asrlarda shaharlar uch qismdan iborat bo'lgan. Ular «*ko'handiz*», «*shahriston*», «*rabod*» deb yuritilgan. Shaharlarning uchala qismi har biri alohida-alohida devorlar bilan o'rab olingan. Ularning bir nechta darvozalar bo'lgan. Shahar devorlari bo'ylab oqib o'tgan anhor xandaq vazifasini bajarilgan. O'rta asrlarda yashagan arab mualliflari (Ibn Xavqal va Ishtaxriy) qayd etishicha, birgina Binkatning (Toshkent) *yigirma ikkita* darvozasi bo'lgan.

4.7. VI – VII asrlarda madaniy hayot

Yozuv. Bu davrda So'g'd, Xorazm va Toxariston aholisining alohida-alohida yozuvlari bo'lib, so'g'd va xorazm yozuvlari qadimgi oromiy yozuvi asosida maydonga kelgan edi. Toxar yozuvi baqtriya yozuvi asosida shakllangan. Xat, hujjat va ayrim axborotlar kabi maktubotlar asosan charm, yog'och, sopolga, kamdan kam hollarda qog'ozga bitilardi. Chunki qog'ozning bahosi nihoyatda baland edi. Ayrim bitiklar esa hatto podsho saroylari va ibodatxona devorlariga ham yozilardi. Ular orasida elchilik maktublari, xo'jalik, kirim-chiqimlari, yuridik shartnomalar, astronomik hujjat, tarixiy yodnomalar hamda diniy aqidalar bitilgan nodir qo'lyozma topilmalar bor. Bizning zamonimizgacha saqlanib qolgan so'g'd yozuvlari Panjikent yaqinidagi Muqaddas qal'asida, Sharqiy Turkistondagi Turfan shahri yaqinida, Samarqandning qadimgi dimiy xarobasi Afrosiyobda qayd etib o'rganilgan.

Ularda So'g'dning siyosiy tarixi, huquq va qonunlari, iqtisodiy va diniy e'tiqodlari xususida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

So'g'dda o'g'il bolalar 5 yoshga to'lgach yozuv va hisobga o'rgatilar, so'ngra ular 20 yoshga kirganlarida savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi.

Shuningdek, bu davrda turkiy run (ko'kturk) xati ham keng qo'llanilgan. Turklarning bu yozuvi biri ikkinchisiga tutashib ketadigan 38 – 40 harflardan iborat edi. U tosh va yog'ochlarga o'yib yozishga nihoyatda qulay edi. Qadimgi ko'kturk bitiklari (Kultegin va Bilga xoqon bitiklari) Oltoy va Sharqiy Turkistondan tashqari Yettisuv, Farg'ona va Zarafshon vodiylaridan topib o'rganilgan. Ular qabr toshlari, sopol va metall buyumlar, yog'och hamda tanga pullarga bitilgan.

Diniy e'tiqodlar. VI – VII asrlarda O'rta Osiyoda zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik, qam (shomoniylilik) kabi bir nechta mahalliy va boshqa o'lkalardan kirib kelgan dinlar mavjud bo'lgan. Aholining ko'pchilligi zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan.

Samarqand viloyatining *Urgut* tumani So'g'ddagina emas, balki butun O'rta Osiyoda nasroniylik markazlaridan hisoblanardi. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining mafkuraviy hayotida moniy dini ham ancha chuqur ildiz otgan edi. Moniy dini ta'limoti bo'yicha, olamning ibtidosi ikki qarama-qarshi yaratuvchi – yorug'lik va ezgulik hamda zulmat va yovuzlikdan iboratdir. Ibadat, ro'za, sadaqa moniy dinining arkonlari hisoblangan.

Turk xoqonligining chorvador aholisi qadimdan shomoniylilik diniga sig'inib kelgan. Bu din jon va ruhlarga, ota-bobolar ruhiga sig'inish e'tiqodini tarbiyalagan. Qadimgi turklar o'z dinini «qam» deb yuritganlar. Chunki ularda «shomon» degan so'z bo'lmagan. Bu din koinotni yo'qlikdan bor qilgan Ko'k Tangriga e'tiqod qiluvchi yakkaxudolik dini hisoblanadi. Chorvador ko'chmanchi aholi Ko'k Tangriga bag'ishlangan marosimlar o'tkazib, qurbonliklar qilishgan. Masalan, Ko'k Tangri sharafiga qurbonlik uchun qora qashqa ot so'yilgan.

San'at. Tasviriy san'atning rassomlik va haykaltaroshlik kabi bir qator tarmoqlari ravnaq topadi. Surxon vohasida Bolaliktepa va Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg'ona vodiysida Quva xarobalarida topib o'rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlar o'sha davrning yuksak san'at asarlaridan hisoblanadi. Devoriy tasvirlar zamonasi ning o'ta murakkab hayoti, din-u e'tiqodi va tashqi mamlakatlar bilan olib borilgan aloqalaridan hikoya qiluvchi manbadir.

Haykaltaroshlik rivojiga, ayniqsa, buddaviylik dini kuchli ta'sir ko'rsatgan. Farg'ona vodiysida Quvadan hamda Qo'rg'ontepa yaqinidagi Ajinatepadan buddaning bahaybat haykallari topib o'rganildi. Ajinatepa buddasi haykali-

ning bo'yi 12 metr ga boradi. Bu davrda badiiy yog'och o'ymakorligi san'ati ham yuqori darajada rivojlangan.

Ilk o'rta asr ganchkorligi san'atining nodir yodgorligi namunalari Varaxsha topilmalari orqali tadqiq etildi. Turli xil geometrik shakllar, mevali daraxt va o'simliklarning o'ymakor naqshlari, ov manzarasi Buxoro hukmdorlarining Varaxshadagi qarorgohining hashamatli saroy devorlarini bezab turgan.

*Musiq*a san'ati. O'rta Osiyoda musiqa, raqs, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning turli sohalari ham rivojlangan edi. Bu davrda san'at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent raqqos yigit va raqqosa qizlari bilan shuhrat topgan edi.

Choch raqqoslari ijro etgan mashhur «*Choch raqsi*» yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi «*Doira raqsi*» Xitoy a'yonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan.

5-BOB. O'RTA OSIYONING ARAB XALIFALIGI TOMONIDAN FATH ETILISHI. XALQ QO'ZG'OLONLARI

5.1. Islom dini va Arab xalifaligi

Islom dinining vujudga kelishi. Qadimdan Arabiston yarimorolida arablar tarqoq holda yashardilar. VII asr boshlarida Arabistonda yagona e'tiqod asosida mamlakatni birlashtirish harakati boshlanadi. Bu buyuk e'tiqod yakka-xudolikka asoslangan islom dini edi.

Allohning rasuli (elchisi) Makka shahrida dunyoga kelgan Muhammad (s.a.v.) binni Abdulloh (570 – 632) bu harakatga rahnamolik qiladi. Islomni qabul qilib, Rasulullohga ergashgan uning izdoshlari «muslim» (musulmonlar) deb atalgan. Ular insonlarning Xudo oldida teng ekani, rizq-ro'zini barchaga Yaratguvchining o'zi yetkazib berishi hamda jamiyatdagi adolatsizlik barham topishi uchun haq dinga kirish kerakligini targ'ib etadilar. Islom bayrog'i ostida Makka shahrida boshlangan targ'ibot Madinaga ko'chadi. Muhammad (s.a.v.) 630-yili arablarni yagona davlatga birlashtiradi.

Muhammad (s.a.v.) vafot etgach, uning eng yaqin safdoshi *Abu Bakr* (632 – 634) xalifa (o'rinbosar) deb e'lon qilinadi. Arab qabilalarining islomni qabul qilib, siyosiy jihatdan yagona hokimiyatga birlashuvida, shuningdek, jahon dinlaridan biriga aylanishida islom aqidalari, huquqiy va axloqiy me'yorlarini o'z ichiga qamrab olgan Qur'oni karimning ahamiyati buyuk bo'ldi.

Misr, Suriya, Falastin, Iroq, Eron kabi ko'p mamlakatlar bo'ysundirilib, behisob o'ljalarga ega bo'lgandan so'ng Arab xalifaligi harbiy yurishlarni bizning o'lkamizga qaratdi.

651-yili arablar Marv shahrini jangsiz egallaydilar. So'ngra hozirgi Afg'onistonning shimoliy, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar istilo qilinadi. Arablar bu hududlarni *Xuroson* deb ataganlar. Uning markazi *Marv* shahri edi. Bu viloyatni boshqarish uchun maxsus noib tayinlanib, u Marvda turar edi. Arablar bu yerda o'rnashib olgach Amudaryodan shimolda joylashgan boy viloyatlarni zabt etishga tayyorgarlik ko'radilar. Bu yerlarni arablar *Movarounnahr*, ya'ni «*daryoning narigi tomoni*» deb atadilar.

Movarounnahr tomon yurishlar. Arablar Movarounnahrda dastlab uni bosib olish uchun emas, balki islom dinini yoyish jihatidan tayyorgarlik ko'rish, mahalliy hukmdorlarni sinash maqsadida yurish qiladilar. Movarounnahrda ilk bor hujumlar 654-yili *Maymurg'* va 667-yili *Chag'oniyon*dan boshlanadi.

Manbalarda qayd etilishicha, bu davrda Xorazm arablar tomonidan ikki marotaba talon-toroj etilgan.

Narshaxiyning yozishicha, 673-yilning kuzida xalifa *Muoviya I* (661 – 680) farmoni bilan *Ubaydulloh ibn Ziyod* Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro hududiga bostirib kiradi. Poykand va Romitonn'i egallab, Buxoro hukmdori qo'shinlarini yengadi va o'z foydasiga sulh tuzib, bir lak (yuz ming) dirham hajmida tovon undiradi. Tovondan tashqari arablar to'rt ming asir, qurol, kiyim-kechak, oltin va kumush buyumlardan iborat ko'p o'ljalar bilan Marvga qaytadilar. Yo'l-yo'lakay arablar Termiz shahrini egallaydilar.

Movarounnahrning zabt etilishi. VIII asr boshlarida arablar Movarounnahr hududini to'liq bosib olishga kirishadilar. 704-yili *Qutayba ibn Muslim* Xurosonga noib qilib tayinlanadi. Qutayba harbiy yurishni 705-yili Balx viloyati atroflarini zabt etishdan boshlaydi. Tez orada Chag'oniyon hokimi jangsiz taslim bo'ladi. 707-yili Qutayba katta qo'shin bilan Poykandni qamalga oladi. *50 kunlik* qamal natijasida Poykand egallanib, qo'lida qurol tutishga qodir bo'lgan barcha erkak zoti qirib tashlanadi, shahar esa vayron etiladi. So'ngra Qutayba qo'shini Buxoro tomonga yo'l olgan. Narshaxiyning yozishicha, Buxoruxudotlar hokimiyati hududi *12 ta* yirik qo'rg'on va ayrim shaharlardan iborat edi. Bu davrda vohada hukmdor xoqonining tojkor tasviri ostida «Buxoruxudot» degan yozuv bilan zarb etilgan kumush dirham muomalada bo'lgan. Davlatni *Tug'shoda* (692 – 724) boshqargan. Buxoroliklar har yili xalifalikka boj to'lashga, uylarining yarmini arablarga bo'shatib berishga majbur etiladi.

Qutayba Buxoro shahrining markazida joylashgan zardushtiylar ibodatxonasini jome masjidiga aylantirdi, so'g'diy yozuvda bitilgan asarlarni yo'qotdi.

Mahalliy aholini islom diniga kiritishga harakat qildi. Shu maqsadda masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun hatto 2 dirhamdan pul hadya etishni joriy etdi.

710-yili Qutayba Naxshab va Keshni bosib olib, Samarqandga hujum boshlash uchun tayyorgarlik ko'radi. Biroq Xorazmda boshlangan ichki ziddiyatlar oqibatida yuzaga kelgan qulay fursat Qutaybani So'g'd yurishini kechiktirib, Xorazmga qo'shin tortishga jalb etadi. Negaki Xorazm shohi *Chag'on* ukasi *Hurzod* boshliq xalq qo'zg'olonidan qo'rqib 711-yili Qutaybaga yordam so'rab murojaat qiladi. Hurzod garchi dushman qo'li bilan tor-mor qilinib, o'ldirilsa hamki, Xorazmshoh o'z mustaqilligini yo'qotib, arablarga boj to'lashga majbur bo'ldi. Uning qo'shini esa Qutaybaning harbiy yurishlarida ishtirok etishga majbur etiladi.

Qutayba fathidan so'ng Xorazm diyori shimoliy va janubiy qismlarga ajralib ketgan. Uning shimoliy qismi Gurganj (Ko'hna Urganch) miri, janubiy qismi esa Xorazmshoh tomonidan boshqarilgan. Ularning har ikkisi ham xalifalikka bevosita bo'ysunib, har qaysisi alohida-alohida xiroj to'lagan.

712-yili Qutayba qo'shinlari Samarqandga tashlanadi. Bu davrda ixshid *Tarxun* taxtdan tushirilib, uning o'rniga *G'urak* (710 – 737) So'g'dga podsho qilib ko'tarilgan edi. G'urak arablarga qarshi kurash olib bordi. Kuchlar teng bo'lmaganligi oqibatida Samarqand taslim bo'ladi. G'urak bilan Qutayba o'rtasida sulh tuzilib, arablarga bir yo'la 2 ming, yiliga esa 200 ming dirham hisobida boj to'lash, 30 ming nafar odam berish, shaharda birona ham askar saqlamaslik, ichki shaharni arablarga bo'shatib berish, masjid bino qilish kabi shartlarni bajarishga majbur etiladi. Bularning evaziga Qutayba G'urakni Samarqand, Kesh va Naxshabga hokim qilib tayinlaydi. Shunday qilib, u xalifalikka qaram bo'lib qoladi.

Choch va Farg'onaning zabt etilishi. 713-yili Qutayba qo'shinining bir qismi Choch viloyatiga, o'zi boshliq asosiy kuch esa Farg'ona vodiysi tomon yo'l oladi. Choch vohasi bosib olinib, uning bosh shahri Madinat ash-Shosh, juda ko'p qal'a va qo'rg'onlar hamda qishloqlarga o't qo'yilib vayron etiladi.

715-yilning boshida esa Farg'ona vodiysini uzil-kesil egallab, Qoshg'argacha kirib boradi. Hamma viloyatlarga arablardan amirlar tayinlanadi. Lekin Qutayba xalifa Sulaymonga qarshi isyon ko'targani oqibatida Farg'onada arab askarlari tomonidan o'ldiriladi.

5.2. Movarounnahr fath etilishining iqtisodiy va ma'naviy oqibatlari

Iqtisodiy oqibatlar. Xalifalik o'lkani zabt etish jarayonida uning deyarli barcha obod dehqonchilik vohalarini oyoqosti qilib, juda ko'p shahar va qishloqlarga o't

qo'yib vayron etdi. Suv inshootlari buzib tashlandi. Ekin maydonlari suvsizlikdan qurib qoldi. Zabt etilgan shahar va qishloq aholisidan oltin, kumush, qimmatbaho buyumlar va ko'plab qurol-yarog'lar tortib olindi. Sulh tuzishga majbur bo'lgan Buxoro, Poykand, So'g'd hukmdorlaridan katta miqdorda boj-u tovonlar undirib olindi. Xalifalik qo'shinlariga minglab nafar mahalliy yigitlarni jalb etdilar.

Istilochilar harbiy kuchga tayanib aholidan turli soliqlar undirib, odamlarni xilma-xil jamoat ishlariga safarbar etadilar. Marv, Poykand, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda shahriston yoki undagi xonadonlarning qoq yarmi arablar va ular bilan birga kelgan ajamlarga (eronliklarga) bo'shatib beriladi. «Xiroj», «ushr», «zakot», «jiz'ya» kabi soliqlar joriy etiladi.

Islomga da'vat etish. Arablar Movarounnahrda o'rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlash uchun islom diniga da'vat etishga, aholi o'rtasida islomni yoyishga alohida ahamiyat berdilar. Shu boisdan ular shu davrgacha Movarounnahrda mavjud bo'lgan dinlarga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Ibadatxonalar vayron etilib, ularning o'rniga jome masjidlari bino qilinadi.

Aholini islomlashtirish yo'llari. Islom dinini qabul qilib, musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillari dastlabki yillarda xiroj va jiz'ya soliqlaridan ozod etilgan. Islomni qabul qilmaganlardan esa jon solig'i – jiz'ya undirib olingan. Soliqlarni o'z vaqtida to'lamagan kishilarning bo'yinlariga «qarzdor» deb yozilgan taxtacha osib qo'yilardi. Bunday tadbir va choralar Movarounnahr aholisi o'rtasida islom dinining tez tarqalishiga yordam beradi. Shunga qaramay, islomni qabul qilgan aholining ko'pchiligi nomigagina musulmon bo'lib, uzoq vaqtlargacha pinhona o'z dini va e'tiqodlariga sodiqligicha qolavergan.

Xalifalik tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi oqibatida mahalliy xalqning urf-odati, dini va e'tiqodi, madaniyati poymol etildi. Mahalliy so'g'd yozuvida bitilgan diniy va ma'rifiy kitoblarni, ilmiy asarlarni va qimmatli hujjatlarni hamda sanamlarni gulxanlarda yoqib yo'q qilib tashlaydilar. Quvadagi budda ibodatxonasi haykallarning parchalab tashlangani, Afrosiyob saroy devorlariga solingan suratlardagi odam rasmlarining ko'zlari o'yilib, bo'yinlariga qilich bilan chizib yuborilganligi bunga yaqqol misoldir.

5.3. Xalifalikka qarshi xalq harakatlari

Qo'zg'olonning sabablari. Xalifalikning talonchilik siyosati mahalliy xalqni barcha haq-huquqlardan mahrum etdi. Madaniyatning oyoqosti qilinishi, arab tili, yozuvi va xalifalik qonun-qoidalarining zo'rlik bilan joriy etilishi natijasida mahalliy xalq orasida norozilik tobora kuchayib, qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Xalifa *Umar ibn Abdulaziz* (717 – 719) murakkab vaziyatni hisobga olib bo'ysundirilgan yerli xalqlar bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur bo'ldi. U yangi yerlarni bundan buyon zabt etishni to'xtatish hamda moliyaviy islohot o'tkazish to'g'risida farmon berdi.

Bunga binoan musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan mahalliy xalqlardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olish bekor qilindi. Biroq Movarounnahr zodagonlarining ko'pchiligi o'zini haqiqiy musulmon deb hisoblab soliq to'lamay qo'yadi. So'ngra xalifalik ma'muriyati bir yo'la hamdan jiz'ya olish haqida buyruq beradi. Natijada Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlanadi. Buning oqibatida mahalliy mulkdorlar bilan arab ma'muriyati o'rtasida ziddiyat keskinlashib, butun mamlakatda bosqinchilarga qarshi xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi.

Qo'zg'olonlarning boshlanishi. Bunday qo'zg'olonlardan biri 720-yili So'g'dda boshlandi. Qo'zg'olonga So'g'd ixshidi *G'urak* va Panjikent hokimi *Divashtich* boshchilik qiladilar.

So'g'dliklarga yordam berish uchun Yettisuvdan turk lashkarlari keladi. So'g'ddagi barcha hokimliklar aholisi ko'tariladi. Qo'zg'olonchilarning birlashgan kuchlari arablarga qattiq zarba beradilar. Faqat ayrim shahar va qal'alar ichida qurshovda qolgan arab istilochilari katta o'lpon va e'tiborli vakillarini qo'zg'olonchilar ixtiyoriga garovga berish bilan jon saqlaydilar.

721-yili *Said Xaroshiy* Xurosonga noib qilib tayinlanadi. Unga so'g'dliklar qo'zg'olonini bostirish va ularni islomga qaytarish vazifasi topshiriladi. *Xo'jandda* bo'lib o'tgan jangda qo'zg'olonchilar yengiladi. *Said Xaroshiy* Movarounnahr shahar va qishloqlarida jazo choralarini kuchaytiradi. Biroq qo'zg'olonni to'la bostirishga erisha olmaydi.

Qo'zg'olonchilarga yon berilishi. Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arablar hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi *Ashros* islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi. Bu aholini tinchlantirishga qaratilgan vaqtinchalik tadbir edi. Zodagon dehqonlarning ko'pi o'z chokarlari va kadivarlari bilan islomni qaytadan qabul qilib, arablar tomoniga o'tadilar.

Xurosonning yangi noibi *Nasr ibn Sayyor* (738 – 748) mamlakatda o'z mavqeyini mustahkamlab olish maqsadida moliya islohoti o'tkazadi. Islomni yangi qabul qilgan kishilar jiz'yadan ozod etildi. Barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtiriladi, yer egasining e'tiqodidan qat'i nazar, ularning xiroj to'lashi shart qilib qo'yiladi.

Oliy martabali arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o'rtasidagi qon-qarindoshlik aloqalari o'rnatiladi. Ayni vaqtda, o'zi ham namuna ko'rsatib Buxorxudotning qiziga uylanadi. Bunday siyosat natijasida arablar bilan mahal-

ily zodagonlar o'rtasida ma'lum darajada ittifoq yuzaga kela boshladi. Ammo bu ozodlik yo'lida olib borilayotgan xalq harakatlariga barham bera olmaydi. Movarounnahr xalifalikdagi eng notinch va isyonkor o'lkalardan biri bo'lib qolaveradi.

VIII asrning 40-yillarida xalifalikda toj-u taxt uchun kurash kuchayadi. Muhammad payg'ambarning amakisi Abbosning evarasi *Muhammad ibn Ali* xalifalik uchun kurash boshlaydi. Umaviylar Muhammad (s.a.v.) avlodini qirib tashlashda ayblangan edi. Shu tariqa xalifalikda umaviylar hukmronligini ag'darib tashlash uchun keskin harakat boshlanib ketdi.

5.4. Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahr. Abu Muslim qo'zg'oloni

Xalq noroziligining kuchayishi. Umaviylarga qarshi umumiy norozilik, ayniqsa, xalifa *Marvon II* (744 – 750) hukmronlik qilgan davrda nihoyatda kuchaydi. Bunga xiroj solig'i miqdorining oshirib yuborilgani hamda aholining muttasil hasharlarga majburan jalb etilishi sabab bo'ladi. Umaviylarga qarshi kurashga da'vat qilish uchun abbosiylar turli viloyatlarga ko'plab targ'ibotchilar yuboradilar. Shunday targ'ibotchilardan biri kufalik *Abu Muslim* edi.

746-yili u Xurosonga keladi. Abu Muslim Xuroson aholisiga murojaat qilib, payg'ambar avlodlarini quvvatlashga chaqiradi.

Qo'zg'olonchilarning to'planishi. Dastlab arab zodagonlari, so'ngra mahalliy dehqonlar Abu Muslimni qo'llab-quvvatlaydilar. Umaviylarga qarshi tashviqotning sadosi tez orada Xuroson, Movarounnahr va Toxariston viloyatlariga keng tarqaladi. Go'yo mamlakat aholisining barcha katta-kichigi xalifalikka qarshi qo'zg'algandek bo'ladi. Qo'shin avval Abu Muslim qarorgohi *Moxuvon* qal'asida to'planadi. Abu Muslim qo'shiniga kelib qo'shilgan kishilar ro'yxatga olinib, ularga avval uch, so'ngra esa besh dirhamdan maosh to'lanadi. Qizig'i shundaki, ro'yxatdan o'tgan kishilarning katta qismi har tomondan kelgan qullardan iborat edi. Bu davrda ham qullar aholi o'rtasida eng quyi tabaqa hisoblanib, ular bilan bir safda turish boshqa tabaqa vakillariga or tuyulishini hisobga olib Abu Muslim qullar uchun *Shavval* qishlog'ida maxsus joy tashkil ettiradi va ularga *Dovud* ismli targ'ibotchini boshliq qilib tayinlaydi.

Qo'zg'olonchilarning maqsadi. Qo'zg'olonchilar safida arab zodagonlari, Movarounnahr va Xurosonning mahalliy mulkdor dehqonlari, xalifalik sharqida-gi mazlum aholi, shahar hunarmandlari va qishloq kadivarlari hamda qullar bor edi. Bularning maqsadlari ham har xil edi. Arab zodagonlari hokimiyatni abbosiylarga olib berib mamlakatda o'z mavqelarini ko'tarmoqchi edilar. Mahalliy mulkdorlar siyosiy jihatdan arablar bilan tenglashish va iloji topilsa, mamlakatni xalifalikdan ajratib, uni mustaqil idora etishni maqsad qilib olgan edilar.

Mehnat ahli umaviylarning zulmi, og'ir soliqlar va uzluksiz majburiy hasharlardan, qullar esa qullik kishanlaridan qutulish orzusida edilar. Bu ezgu umidni ro'yobga chiqarish uchun zulmkorlarga qarshi kurashishga astoydil otlangan edilar. Qo'zg'olonchilarning deyarli barchasi qora libos kiyib olgan edilar. Avvalo, qora kiyim motam ramzi, qolaversa, zabardast kuch bayrog'i hamda shiddatli janglarda qo'zg'olonchilarni umaviy harbiylardan ajratib turadigan belgini anglatgan.

Qo'zg'olonning boshlanishi. 747-yili Abu Muslim aholini umaviylarga qarshi kurashda da'vat etadi. 748-yilning boshida esa Abu Muslim Xurosonning poytaxti Marv shahrini egallaydi. Xalifa Marvon o'z ixtiyoridagi barcha harbiy kuchlarni qo'zg'olonchilarga qarshi safarbar qilsa-da, ammo umaviylar hokimiyatini saqlab qola olmaydi.

749-yili Abu Muslim boshliq qo'zg'olonchilar xalifalikning markaziy viloyatlari tomon yo'l oladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, xalifa Marvon II taxtdan ag'dariladi. Uning o'rniga abbosiylar xonadonidan bo'lgan *Abul Abbas Saffoh* (750 – 754) xalifalik taxtiga ko'tariladi. Joylarda umaviylar xonadonining vakillari va yaqinlari qirib tashlanadi. Shunday qilib, Arab xalifaligi-da davlat hokimiyati abbosiylar qo'lga o'tadi.

Abbosiylar davrida Movarounnahr. Abbosiylarning xalifalik taxtiga chiqishi mehnatkash aholiga hech qanday yengillik keltirmagan. Abu Muslim vositasi-da abbosiylar tomonidan xalq ommasiga berilgan va'dalardan birortasi ham amalga oshmadi. Abu Muslim Bag'dodda davlat va harbiy kuchlarning yuqori lavozimiga tayinlanadi. Biroq abbosiylar uning xalq orasidagi obro'yi tobora ortib borishiga xayrixoh emas edilar. Oqibatda Abu Muslim poytaxtdan uzoqlashtirilib, Xuroson va Movarounnahrda noib qilib yuboriladi.

Qo'zg'olonning boshlanishi. Mehnatkash aholi o'rtasida abbosiylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish kayfiyati paydo bo'ladi. Bunday qo'zg'olonlardan biri 750-yili Buxoroda sodir bo'ldi. Abu Muslim mahalliy kuchlar yordami bilan qo'zg'olonni arang bostirdi.

Movarounnahrdagi ichki ziddiyatdan foydalanib Xitoy imperatorining qo'shinlari Turkistonga bostirib kiradi. Abu Muslim tomonidan *Ziyod ibn Solih* boshchiligida yuborilgan arab va so'g'd, shuningdek, turklardan iborat harbiy kuch 751-yili Talos vodiysida Xitoy qo'shinlariga zarba berib, ularni mamlakat hududidan quvib chiqaradi.

Abu Muslim sidqidildan xizmat qilgan bo'lsa-da, ammo abbosiy hukmdorlar unga ishonmas edilar. 755-yili qurolsiz va yolg'iz saroyga tashrif buyurgan Abu Muslim xalifa buyrug'iga binoan o'ldiriladi. Abu Muslimning o'ldirilishi xalifalik sharqida, ayniqsa, Xuroson va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi xalq harakatlarining avj olib ketishiga bahona bo'ladi.

5.5. «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni

«Oq kiyimlilar». 769 – 783-yillarda Movarounnahrda juda katta xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tgan. Qo'zg'olonchilar oq libos kiyganlari uchun tarixda u «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni nomi bilan tilga olinadi. Bu harakatning rahbari *Muqanna* deb atalmish *Hoshim ibn Hakim* ismli hunarmand bo'lgan. U Marv shahri yaqinidagi *Koza* qishlog'ida tug'ilgan. Boshi va yuziga ko'k parda tutib yurgan. Shuning uchun ham uni «Muqanna», ya'ni «Niqobdor» laqabi bilan atashgan. Muqanna yoshlik chog'ida *kudungarlik* (matolarga ohor beruvchi) kasbi bilan shug'ullangan. U savodli, aqlli va tadbirkor bo'lgan. Xurosonda sarxanglikdan (kichik lashkarboshi) vazirlik darajasigacha ko'tarilgan. U Mazdak g'oyalariga asoslangan ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da'vat etuvchi ta'limotni targ'ib etgan. Muqanna Xuroson amirining isyonida qatnashib, payg'ambarlik da'vosini qilgani uchun zindonga tashlangan, so'ngra qochib Marvga kelgach atrofiga o'z tarafdorlarini to'plagan. Ajnabiylar hukmronligi va zulmiga qarshi qo'zg'olishga da'vat qilib Movarounnahr viloyatlariga targ'ibotchilarni yuborgan. Uning targ'iboti Naxshab va Kesh shaharlarida yaxshi samara beradi. «Oq kiyimlilar»ning safi tobora kengayib boradi. Ularga bevosita rahbarlik qilish maqsadida Muqanna So'g'd tomon o'tlanadi. Uni Marvdan So'g'dga o'tkazmaslik uchun arab ma'murlari ta'qibni kuchaytiradilar. Amudaryo sohilini suvoriylardan iborat katta harbiy kuch kecha-yu kunduz muttasil qo'riqlab turadi.

Qo'zg'olonning boshlanishi. Muqanna Movarounnahrda yo'l oladi va o'z yaqinlari bilan Amudaryoning o'ng qirg'og'iga o'tib, Naxshab va Kesh shahriga yetib boradi. Kesh yaqinida tog' tepasiga bino qilingan *Som* qal'asini o'z qarorgohiga aylantiradi. Ko'pgina qishloqlarning kadivarlari, shahar hunarmandlari va ayrim mulkdor dehqonlar unga ergashadilar. Tez orada butun Qashqadaryo vohasi «Oq kiyimlilar» qo'liga o'tadi. Natijada «Oq kiyimlilar» harakati kengayib, katta xalq qo'zg'oloniga aylanadi. U, ayniqsa, Movarounnahrning markazi – So'g'dda avj olib, Eloq (Ohangaron) vodiysi va Shoshga ham o'zining ta'sirini o'tkazadi. Qo'zg'olonida turli tabaqalar qatnashadi.

Qo'zg'olonning borishi. «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloniga zarba berish uchun xalifa *Mansur* 775-yili *Jabroil ibn Yahyo* boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrda safarbar qiladi. Ammo Jabroil qo'zg'olonchilardan yengiladi. U katta talafotlar berib, zo'rg'a Samarqanddagi arab qo'shinlariga kelib qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar *Termiz* yaqinida qo'shimcha yordamga kelayotgan arab qo'shinlariga to'satdan hujum qilib ularni tor-mor keltiradilar. Naxshab va Chag'oniyon vohalari qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi. Qo'zg'olon 776-yildan boshlab Buxoro vohasida kuchayib ketadi. *Narshax* qal'asi qo'zg'olonchilarning qo'rg'oniga aylantirilib, unda «Oq kiyimlilar»ning kattagina qismi to'plangan edi. To'rt oy davom etgan kurashdan so'ng qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchraydi.

Narshaxdagi qo'zg'olon bostirilgach, arablar asosiy kuchni Samarqand va Keshga tashlaydilar.

«Oq kiyimlilar» va turkiy qabilalar Samarqandda arablarga qarshi ikki yil jang qiladilar. Nihoyat, qo'zg'olonchilar yengilib, Samarqand taslim bo'ladi.

«*Oq kiyimlilar*»ning yengilishi. Narshax va Samarqandda «Oq kiyimlilar» yengilgach, mahalliy mulkdor tabaqa vakillari arablarga yordam bera boshlaydilar. Kurashning oxirgi bosqichi Kesh vodiysida bo'lib o'tadi. 783-yili Muqannaning Som qal'asidagi qarorgohi qamalga olinadi. Uzoq davom etgan qamaldan so'ng kurashdan tinkasi qurigan muqannachilar taslim bo'ladilar. Istilochilarga taslim bo'lishni istamagan Muqanna o'zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo'ladi.

Qo'zg'olonning yengilish sabablari. «Oq kiyimlilar» uyushqoqlik bilan harakat qila olmaganlar. Bu omil qo'zg'olon yengilishining asosiy sababi bo'ldi. Ikkinchidan, xalq harakatining ommalashib ketishidan cho'chigan mahalliy mulkdorlar birin-ketin arablar tomoniga o'tib ketganlar. Uchinchidan, qo'zg'olonning uzoq davom etganligi mehnatkashlarni holdan toydirgan.

Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, istilochilarga qarshi mahalliy xalq harakati uzil-kesil to'xtab qolmadi. 806-yili *Rofe ibn Lays* boshchiligida xalifalikka qarshi yana qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olon Samarqanddan boshlanib, Shosh, Farg'ona, Buxoro, Naxshab va Xorazm viloyatlariga tarqalgan. Tez orada mazkur viloyatlar xalifalik qo'lidan ketadi. Xuroson noibi *Ma'mun* dehqonlardan bo'lgan Somonxudotning nabiralari: Nuh, Ahmad va Yahyolardan iltimos qilib, ulardan yordam so'raydi. Ular Rofe ibn Laysni qo'lga olib, uni xalifaga taslim bo'lishga majbur qiladilar. Shu tariqa navbatdagi xalq harakati ham bostiriladi.

Mahalliy xalqlarning istilochilarga qarshi kurashlari behuda ketmadi. Asta-sekin xalifalikning hukmronligi zaiflasha bordi. Bu hol Movarounnahr aholisining ozodlikka erishuvini tezlashtirdi.

6-BOB. MOVAROUNNAHRDA MUSTAQIL DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI

6.1. Xalifalikning zaiflashuvi, mustaqil davlatlarning shakllana boshlashi

Xalifalikning zaiflashuvi. VIII asr oxiri – IX asr boshlarida Arab xalifaligi og'ir siyosiy tanglikka uchradi. Bo'ysundirilgan xalqlarni itoatda tutib turish arablar uchun tobora qiyin bo'lib qoldi. Movarounnahr va Xuroson aholisining tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turishi, uzluksiz davom etgan o'zaro urush

va ichki ziddiyatlar Arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashtirdi. Bu esa mustaqil davlatlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Movarounnahrning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlaridagi hali xalifalikka bo'ysundirilmagan chegaradosh yerlarda bir nechta davlatlar tashkil topdi. Ulardan biri Qarluqlar davlatidir.

Qarluqlar davlati. Qadimda Oltoyning g'arbida, so'ngra Irtish daryosining o'rta oqimida yashagan qarluqlar qadimiy turkiy qabilalardan hisoblangan. VI - VII asrlarda ular Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. VIII asr o'rtalarida Yettisuv o'lkasida Qarluqlar davlati tashkil topdi. Bu davlatning poytaxti Chu daryosidan shimolroqda joylashgan *Suyob* shahri edi. Qarluqlar davlati hukmdori «yabg'u» yoki «jabg'u» deb yuritilgan.

X asr o'rtalariga borganda qarluqlarning kattagina qismi musulmon bo'lgan. Bu davrda bir nechta shaharlarda jome masjidlar bino qilingan.

Qarluqlar davlati shimol va sharqdan Elsuvi daryosi vodiysigacha, chigil qabilasi yaylovlarigacha; g'arbdan o'g'uz yurti va Farg'ona vodiysi; janubda esa yag'molar vohasi va Sharqiy Turkiston bilan chegaralangan. Bu diyorda poytaxtdan tashqari *Jo'l, Navkat, Karmankat, Yor* kabi shaharlar va qator qishloqlar qad ko'targan. Aholi qo'ychilik, tog' jilg'alari bo'ylarida esa dehqonchilik bilan shug'ullangan. Sharqiy Turkiston va Movarounnahr bilan savdo-sotiq olib borilgan. Chetga asosan jun va junli mahsulotlar: gilam, sholcha, namat kabilar olib chiqilgan.

X asrda qarluqlar Movarounnahrning shimoliy hududlarini egallagach Shosh atrofi va Farg'ona hamda Zarafshon vodiylariga kelib o'rtnashganlar. Keyinchalik o'troq tarzda yashaydigan mahalliy aholiga singib ketganlar.

O'g'uzlar. Turk xoqonligi hukmronligi davrida o'g'uzlar uning tarkibida bo'lgan. Turk xoqonligi yemirilgach, o'g'uzlarning kattagina qismi Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida muqim o'rtnashib olganlar. Ular IX asr oxiri va X asr boshida O'g'uzlar davlatiga asos soladilar.

Sirdaryo quyi oqimi bo'yidagi *Yangikent* shahri O'g'uzlar davlatining poytaxti bo'lgan. X asrdan boshlab o'g'uzlar islom dinini qabul qiladilar.

X asrning birinchi choragida O'g'uzlar davlati shimoli-sharqdan qo'zg'algan qipchoqlar tomonidan qaqshatqich zarbaga uchrab bo'linib ketadi. Ular o'z yurtini tark etib, bir qismi g'arbga, Shimoliy Kavkaz dashtlariga borib o'rtnashadi. Ikkinchi qismi esa avval Movarounnahrda kirib boradi va undan janubi-g'arbga siljib, yangi sulola – *saljuqiylar* boshchiligida Old Osiyo mamlakatlarini istilo qilishga kirishadi.

Bu ikki turkiy davlat faqat Movarounnahrninggina emas, balki butun O'rta Sharq hamda Old Osiyo aholisining siyosiy hayotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu davlatlarning aholisi shu hududda yashovchi xalqlarning etnik

tarixiga ta'sir qildi. Masalan, qarluqlar o'zbek va tojiklarning, o'g'uzlar turkman, ozarbayjon, qoraqalpoqlarning etnogenezida muhim rol o'ynadi.

Tohiriylar davlati. VIII asr oxiri – IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarni Movarounnahr va Xurosonda olib borilayotgan siyosatni o'zgartirishga majbur etdi. Mahalliy zodagonlar Movarounnahr va Xurosonni nafaqat o'z tasarruflariga o'tkazib oldilar, balki xalifalik markazida ham hokimiyatni boshqarishda tobora ko'proq rol o'ynaydigan bo'lib qoldilar. Bunga, ayniqsa, xalifa *Horun ar-Rashid* (786 – 809) vafotidan so'ng uning o'g'illari Ma'mun bilan Amin o'rtasida 809 – 813-yillarda taxt uchun bo'lgan kurash katta yo'l ochib berdi.

Xalifalikning markaziy qismidagi arablar Aminni xalifalik taxtiga ko'taradilar. Bundan norozi bo'lgan Ma'mun ukasi Aminga qarshi kurash boshlaydi. Hirot viloyatining zodagonlaridan *Tohir ibn Husayn* boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari unga yordam beradilar. 813-yili ular Bag'dodga yurish qiladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, Ma'mun xalifalik taxtiga o'tiradi. Buning evaziga Tohir 821-yili Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Shuningdek, Ma'mun Movarounnahr zodagonlarining ham yordamini unutmadi. Somonxudotning nabiralari ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlaydi. Nuhga Samarqand, Ahmadga Farg'ona, Yahyoga Shosh va Ustrushona, Ilyosga esa Hirot tegadi. Buning evaziga aka-uka somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablag'ni tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar.

Tohir davlat ishlarini mustaqil idora etish maqsadida 822-yili xalifa nomini xutbadan chiqartirib yuboradi. Bu amalda Bag'dod bilan aloqani uzish va o'zini mustaqil deb e'lon qilish edi. Biroq ko'p vaqt o'tmay u to'satdan vafot etadi. Tohirning o'g'illari *Talxa* va *Abul Abbas Abdulloh* otasining o'rniga birin-ketin noiblik qiladilar. Shunday qilib, Xuroson va Movarounnahr boshqaruvi tohiriylar xonadoniga meros bo'lib qoladi. Abul Abbas Abdulloh noibliigi (830 – 844) davrida poytaxt Marvdan *Nishopur* shahriga ko'chiriladi.

Movarounnahr shaharlarida noiblik qilayotgan Somonxudot avlodlarining mahalliy noibliigi tohiriylar tomonidan tan olinadi. Somoniylar esa, o'z navbatida, tohiriylarga tobe sifatida Movarounnahrni idora etadilar. Bu, shubhasiz, Xuroson va Movarounnahrda bir asrdan oshiqroq hukm surgan xalifalik hukmronligining tugaganligini bildirardi.

Tohiriylar hokimiyatining barham topishi. Tohiriylar zamonida ham mehnat ahlining ahvoli nihoyatda og'irligicha qolaverdi. Mulkdor dehqonlarning jabr-zulmidan, davlatning og'ir soliqlaridan bezor bo'lgan xalq qo'zg'olon ko'taradi. Ularga «*g'oziyalar*» ham qo'shiladilar. Qo'zg'olonga safforiylar aka-uka Ya'qub va Amr ibn Layslar boshchilik qiladilar. 873-yili Xuroson poytaxti Nishopurni egalladilar. Natijada tohiriylar hukmronligi tugatilib, hokimiyat safforiylar qo'lga o'tadi.

6.2. Somoniylar

Somoniylar hukmronligi. IX asrda Movarounnahrning siyosiy hayotida ham o'zgarishlar yuz beradi. Yurtga avval *Nuh*, so'ngra *Ahmad* boshchilik qiladi. Har biri hukmronligi davrida o'z nomlaridan misdan chaqalar zarb etadilar. Ahmad vafotidan (865-yil) keyin uning o'g'li *Nasr* Samarqandni markazga aylantiradi. U Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko'radi.

IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tadi. Nasr butun Movarounnahrning hukmdoriga aylanadi. U kumush dirham zarb etadi.

Ko'p o'tmay aka-uka Nasr va Ismoil o'rtasida toj-taxt uchun kurash boshlanadi. Unda Ismoil g'olib chiqadi. Ismoil Somoniy 888-yili butun Movarounnahrni o'z qo'l ostiga birlashtirdi.

Ismoil Somoniy o'rta asrlarning qobiliyatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U Movarounnahrni birlashtirib, mustahkam davlat tuzishga intildi. Shimoli-sharqiy hududlarga yurish qiladi. 893-yili *Taroz* shahrini zabt etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi.

Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishishi, shubhasiz, arab xalifalariga yoqmas edi. Arab xalifaligini, bir tomondan, Movarounnahrdan muttasil undirib olinadigan katta boyliklardan mahrum bo'lishi nihoyatda ranjitsa, ikkinchi tomondan, cho'chitar ham edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan somoniylarni to'qnashtirishga va ularning har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda o'z ta'sirini qayta tiklashga harakat qiladi. Xalifa *Mu'tazid* (892 – 902) safforiylar hukmdori Amr ibn Laysga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gigijlaydi. Natijada 900-yili ular o'rtasida urush boshlanadi. Urush Ismoilning g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ladi.

Ismoil Somoniy. Ismoil Somoniy butun Movarounnahr va Xurosonni o'z qo'l ostida birlashtirdi. Buxoro shahri bu ikki davlatning poytaxtiga aylandi.

Somoniylar mamlakatni boshqarishda dastavval ixcham boshqaruv ma'muriyatini tashkil etdilar. U amir dargohi va devonlardan (vazirliklardan) iborat edi.

Dargohda amir qarorgohi va harami hamda saroy a'yonlari, navkar va xizmatkorlarining turarjoylari bo'lardi. Narshaxiyning yozishicha, somoniylar boshqaruvi asosan vazir, mustovfiy, amid ul-mulk, sohibi shurat kabi o'nta devon orqali idora etilib, ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanardi. *Nasr II* (914 – 943) davrida Buxoroning Registon may-

donida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, mahkama mana shu maxsus binoga joylashgan edi. Mahkama xizmatchilari arab, fors tillarini puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan.

Movarounnahrning ravnaqida islom dini ruhoniylarining hissasi katta bo'ldi. Shu boisdan ularning obro'yi oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko'plab ibodatxonalar, shu jumladan, jome masjid, xonaqoh va namozgohlar bino qilindi. Shu davrda Buxoro shahrida musulmon Sharqidagi ilk ilmgoh – madrasa bunyod etiladi. Buxoroning bu qadimiy madrasasi X asrda shaharning kavushdo'zlar mahallasi yaqinida bino qilingan. U *Farjak* madrasasi deb yuritilgan.

Mamlakat ma'naviy hayotiga «ustod» deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu nom «shayx ul-islom» nomi bilan yanada ulug'landi. Ustoddan keyin xatiblar turardi.

Somoniylar masjid, madrasa va xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-u xarajatlari uchun katta-katta mulklar ajratib berganlar. Islom dini ravnaqi, shubhasiz, O'rta Osiyo aholisining mustaqil xalq bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Mudofaa ishlari. Ismoil Somoniy saroyning maxsus muntazam sarbozlaridan iborat yaxshi qurollangan harbiy qo'shin tuzadi. Yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar «hojib» lavozimiga ko'tarilgan. Hojiblarning boshlig'i «hojib ul-hujob» yoki «hojibi buzruk» deb yuritilar edi. Bunday unvon somoniylar saroyidagi oliy unvon hisoblanardi.

6.3. Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Qishloq xo'jaligi. IX – X asrlarda Movarounnahr va Xorazm aholisining asosiy qismi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanar edi. Sug'orish tarmoqlari vositasida sug'orilib obod etilgan serunum vohalarda g'allakorlik, sholikorlik, paxtachilik, sabzavotchilik, polizchilik va bog'dorchilik yuqori darajada rivoj topgan edi. Vohalarda paxtachilik kattagina o'rinni egallagan.

Bog'dorchilik va chorvachilik. Bog'dorchilik madaniyati keng ravnaq topgan edi. Movarounnahr va Xorazmda sabzavot va poliz ekinlari ham serob, qovunlari nihoyatda shirali bo'lardi.

Dehqonchilik solig'i – xirojdan xazinaga tushadigan daromad davlat kiritim-chiqimining kattagina qismini qoplar edi. Shuning uchun ham somoniylar mamlakatda dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor berdilar.

IX – X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda chorvachilik yuksak darajada bo'lgan. Mamlakatning dasht va tog'oldi yaylovlarida qo'y va echkilar, yil-

qilar va tuyalar boqilgan. Qishloqlarda, ayniqsa, qoramollar behisob bo'lgan. Chorvachilik mamlakat aholisini chorva mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmay, xo'jalikning hamma sohaları uchun ot-ulovlar ham yetkazib bergan. Ayniqsa, davlatning harbiy qo'shinlari, xususan, suvoriy qismlarni ot-ulov bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etgan.

Hunarmandchilik. Movarounnahr va Xorazm shaharlarida to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, miskarlik, zargarlik, shishasozlik va duradgorlik kabi kasb-hunarlar rivoj topadi. Natijada shaharlarning umumiy qiyofasi tubdan o'zgaradi. Unda katta-katta gumbazli toq-u ravoqli va peshtoqli imoratlar, ustaxonalar, masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh va karvonsaroylar qad ko'tardi. Endilikda shaharlar o'ndan ortiq darvozali kattagina hunarmandchilik markaziga aylanib qoldi.

Shaharning do'nglik yerida joylashgan arkda, odatdagidek, podshoning qarorgohi – dargoh, shuningdek, xazina, chaqa tangalar ishlab chiqaradigan zarbxona va qamoqxona bo'lardi. Uning markazida registon maydoni, devonlar, mahkama saroyi, shuningdek, amirzodalar, saroy a'yonlari, ruhoniylar, mulkdor dehqonzodalar va davlatmand savdogarlarning hashamatli qasrlari, qurol-yarog', asbob, egar-jabduq yasaydigan ustaxonalar, hunarmandchilik do'konlari va savdo rastalari joylashgan.

Samarqandda yuqori navli qog'oz ishlab chiqarilar edi. Shosh o'zining ko'nchilik mahsulotlari va charm mollari bilan, Eloq esa kumush va qo'rg'oshin konlari hamda kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur edi. Xorazmda qayiqsozlik taraqqiy topadi. Xorazm va Termizda yasalgan qayiqlar Amudaryo bo'ylab to Orol dengizigacha muttasil mol tashib savdogarlarning yukini yengil, uzog'ini yaqin qilgan. Bu davrda shaharlar bilan bir qatorda qishloqlar ham mamlakatning iqtisodiy hayotida katta o'ringa ega edi. Buxoroning Zandana qishlog'ida to'qilgan mallarang bo'z «zandanicha», Samarqandning Vador qishlog'ida tayyorlangan mato «vadoriy» nomlari bilan Sharqda mashhur edi.

Konchilik. Movarounnahrning tog'li mintaqalarida qadimdan davom etib kelayotgan konchilik IX – X asrlarda nihoyat darajada taraqqiy qiladi. Zarafshon va Farg'ona vodiysi tog'laridan temir, qo'rg'oshin, kumush, simob, mis, qalay, feruza, novshadil qazib chiqarilgan. Hatto Farg'onadan o'sha vaqtlarda-yoq toshko'mir va neft topilib ishlatilgan. Konlarning yaqinida rudalarni eritib ma'dan oluvchi temirchilar va konchilarning qishloqlari bo'lardi. Eloq viloyati kumush va qo'rg'oshinlarni qazib olishning yirik markazlaridan biri edi.

Ichki va tashqi savdo. IX – X asrlarda mamlakatda ichki va tashqi savdo kengaydi. Qadimgi karvon yo'li bo'ylab quduqlar qazilib, har bir bekatda rabotlar bino qilinadi. Karvonlar o'tadigan shahar va qishloqlarda karvonsaroylar quriladi.

Shimoliy yo'l orqali Janubiy Sibir va Mo'g'ulistonga Movarounnahrning shahar va qishloqlaridan bo'z, kiyim-kechak, egar-jabduq, qilich, idishlar, zargarlik buyumlari, dori-darmon, quruq meva, kunjut hamda zig'ir moyl va boshqa shu kabi mollar olib borilgan. Sibirdan turli xildagi qimmatbaho mo'ynalar, chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari keltirilgan. Mutaxassis olimlarning ta'kidlashicha, VII – IX asrlarda Xitoy bilan bo'lgan savdoda choy, ipak mato, tuz va ot asosiy o'rinda turgan. Har bir ot Xitoy bozorida (to'pi 12,8 metrli) 50 o'ram ipak matoga ayirbosh (barter) qilingan. Choy bahosida har bir otning bahosi 56 kg oliy navli choyga teng bo'lgan. Bir necha «jin» (600 g) choyga bir bosh qo'y almashtirilgan.

VII – VIII asrlarda choy asosiy import mahsulotlaridan biriga aylangan. Xitoycha «cha» yoki «ming» deb yuritilgan xushbo'y choy o'simligi va uning seleksiyasi bu davrda Sharqiy Turkiston orqali Turkiston diyoriga, so'ngra boshqa mamlakatlarga keng tarqalib, aholining maishiy hayotida kundalik iste'mol etiladigan chanqovbosdi benazir ichimlikka aylangan.

Itil, Xazar va Bulg'orga Movarounnahr va Xorazmdan guruch, quruq mevalar, shirinliklar, tuzlangan baliq, paxta, shoyi matolar, movut, kimxob va gilamlar olib borib sotilgan. Bulg'or va Xazardan qimmatbaho mo'ynalar, shamlar, cho'qqi qalpoqlar keltirilgan.

Pul. Ichki bozorlarda «fals» deb atalgan mis chaqa, xalqaro savdo-sotiqda esa kumush tanga – dirhamlar ishlatilardi. Mis chaqalarni markaziy hukumat ham, sulola a'zolaridan bo'lgan ba'zi viloyat hokimlari ham chiqarar edilar. Kumush tangalar faqat hukumat boshlig'i nomidan Marv, Samarqand, Buxoro va Shoshda davlat zarbxonalarida so'qilar edi. Somoniylar «*ismoiliy*», «*muhammadiy*» nomlari bilan yuritilgan bir necha kumush dirhamlar chiqargan edilar. Ular orasida «ismoiliy» tangasi yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilib, asosan, xalqaro savdo aloqalarida ishlatilgan.

6.4. IX – X asrlarda yer-mulk munosabatlari. Somoniylar sulolasining inqirozi. G'aznaviylar davlati

Yer egaligining turlari. Somoniylar hukmronligi davrida yer egaligining «*mulki sultoniy*», «*mulk yerlari*», «*vaqf yerlari*», «*mulki xos*» va «*jamoat yerlari*» deb ataluvchi 5 turi mavjud bo'lgan.

Oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar qo'l ostidagi yerlar «mulki xos» deb yuritilgan. Bunday imtiyozga ega bo'lgan mulkdorlar davlatga ko'pincha hosilning 1/10 hisobida ushr solig'ini to'lagan, xolos. Hukmron sulola hamda oliy tabaqa vakillariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga hadya qilingan yerlar mulki iqto yerlari deb yuritilgan.

Iqto mulki. X asrda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar in'om qilina boshlaydi. Bunday mulk «iqto», unga ega bo'lgan mulkdorlar «muqto» yoki «iqtodor» deb yuritilardi. Iqto tarzida esa ayrim viloyat yoki shaharlar va tumanlar hadya etilgan. Iqto ilastavval asosan oliy tabaqa zodagonlar – sulola a'zolari, amirzodalar va yirik mansabdorlarga in'om etilgan. Iqto mulklari avvalda bir umrga emas, balki ma'lum muddatga berilib, nasldan naslga o'tkazilmagan. Iqtodorlar u ziga in'om qilingan hududlarda yashovchi aholidan olinadigan soliqlarning ma'lum qismini yig'ib olish huquqiga ega bo'lganlar.

Bundan tashqari, qishloq jamoalari tasarrufida ham ma'lum hajmda yer maydonlari saqlanib, ular «jamoa yerlari» hisoblanar edi. Ular asosan talimkor va tog'oldi yerlaridan iborat bo'lgan.

Barzikor-qo'shchilar. IX – X asrlarda katta yer egalari kadivarlarni ishlatishdan ko'ra o'z yerlarini qishloq jamoalarining kam yerli a'zolariga ijaraga berishni afzal ko'radilar. O'sha zamonda ijarachilar «barzikor» yoki «qo'shchilar» deb atalardi. Barzikor-qo'shchilarning sheriklikka ekan yerlardan oladigan hissasi turlicha edi. Agar barzikor o'z urug'i va qo'shi bilan dehqonchilik qilsa, uning hissasi hosilning 1/3, 1/4 yoki 1/5 miqdorida belgilanardi. Na qo'shga, na urug'likka ega bo'lmagan qo'shchi hosilning 1/10 yoki 1/12 ulushiga ega bo'lardi. Davlat soliqlari (xiroj va ushr) yer egasidan ham, qo'shchilardan ham alohida-alohida olinar edi.

Somoniylar hokimiyatining inqirozi. Somoniylarning harbiy yurishlari, hukmron sulolaning ichki nizolari, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlari borgan sari avj olib bordi. Oqibatda mamlakatda iqtisodiy tanglik sodir bo'ldi. Hatto harbiylar, shu jumladan, amirning muntazam turk sarbozlari qo'shiniga maosh to'lash uchun mablag' topilmaydi. Bunday og'ir ahvoldan chiqish uchun 942-yili aholidan ikki marta soliq undirib olinadi. Behad tartibsizlik mamlakatda vaziyatni yanada keskinlashtirib, aholi turli tabaqalarining hokimiyatga qarshi qo'zg'alishiga sabab bo'ladi.

Siyosiy vaziyat *Nuh* (943 – 954) va uning nabirasi *Nuh II* (976 – 997) hukmronlik qilgan davrda nihoyatda keskin tus oladi. 947-yili *Nuh* ibn *Nasr*ning amakisi *Ibrohim* isyon ko'taradi. Saroy sarbozlari va Chag'oniyaning yirik yer-mulk egasi *Abu Ali Chag'oni*y yordamida u Buxoro taxtini egallab oladi.

Ko'p vaqt o'tmay *Abu Ali Chag'oni*yning o'zi ham hukmdorga qarshi isyon ko'taradi. *Nuh* qo'zg'olonni kuch bilan bostira olmaydi. 952-yili *Abu Ali Chag'oni*y u avval Chag'oniyonga, so'ngra Xurosonga hokim qilib tayinlashga majbur bo'ladi. 961-yili Buxoro harbiy askarlarining g'alayoni ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar amir saroyini talaydilar va unga o't qo'yib yuboradilar.

Bunday voqealarning tez-tez qaytarilib turishi, shubhasiz, markaziy hokimiyatning zaiflashib qolganidan dalolat berardi.

G'aznaviylar davlati. Mamlakatda sodir bo'lgan og'ir davrda Somoniylar davlatining turk hojiblaridan iborat saroy qo'shinining siyosiy nufuzi nihoyatda kuchaydi. Chunki harbiy va mudofaa ishlari to'la ular qo'lida edi. Turkiy sarkardalarning xizmatlari evaziga somoniy amirlari aksariyat iqtidorli lashkarboshilarni *hojib ul-hujob* yoki *hojib ul-buzruk* kabi oliy harbiy mansablarga tayinlab, ularga hatto ayrim viloyatlarni boshqarish huquqini berganlar. 962 – 963-yillarda G'azna viloyatini *Alptegin* noib va lashkar amiri sifatida boshqargan. U G'azna va Qobul viloyatlarini mustaqil idora etishga intilib G'aznaviylar davlatiga asos solgan. Mazkur yosh turkiy davlatning poytaxti G'azna shahrida qaror topgan. G'aznaviylarning siyosiy nufuzi *Sobuqtegin* davrida (977 – 997) ortib, somoniylar tomonidan e'tirof etilgan. *Mahmud G'aznaviy* davrida (997 – 1030) esa uning hududi kengayib, Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Davlat chegarasi g'arbda Ray va Isfahon shaharlari, Kaspiy dengizi, shimoli-g'arbda Xorazm va Orol dengizigacha cho'zilgan. Sharqda esa Shimoliy Hindistonning kattagina qismini o'z ichiga olgan va Janubiy Balujistongacha yetgan edi. Somoniylar sulolasi barham topgach, Mahmud G'aznaviy Xuroson hududini, so'ng Xorazm davlatini (1017) ham o'z saltanatiga qo'shib olgan. Ammo *Mas'ud G'aznaviy* davrida (1030 – 1040) mamlakat viloyatlari birin-ketin qo'ldan chiqarilib, tanazzulga yuz tutgan. Oqibatda 1186-yili G'aznaviylar davlati butunlay tugatilgan.

G'aznaviylar davlatining boshqaruv tizimi. G'aznaviylar davlat tuzumi va boshqaruv tizimlari azaldan rivojlanib kelayotgan turkiy davlatchilik asosida qurilgan bo'lsa-da, biroq u o'ziga xos mahkamachilik xususiyatiga ega edi. Vazirlik tizimida harbiy, elchilik va rasmiy tadbirlar, moliya kabi hamda xabar-pochta devonlari faoliyat ko'rsatgan. Viloyat hukmdori *voliy*, shahar hokimi *rais* deb yuritilgan. Viloyatda boshqaruv ishlari *amid*, shaharlarda esa *kutvol* tomonidan amalga oshirilgan. Davlat qudratli qo'shinga ega edi. Bosh qo'mondon *sipohsolor*, lashkarboshi *solor*, harbiy qismlar boshlig'i esa *sarxang* deb atalgan. Qo'shinda harbiy kemalar (daryo va dengiz floti) ham mavjud bo'lgan.

Ilm-fan va madaniyat. G'aznaviylar davlatida ilm-fan va madaniyat, xususan, adabiyot rivojlangan. Mahmud G'aznaviy turkiy ona tili bilan bir qatorda fors, arab va pahlaviy tillarini ham mukammal bilgan, she'r bitgan. Poytaxt saroyida 400 dan ortiq olim, shoir va san'atkorlar ijod qilgan. Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xusrav, Gardiziy va Bayhaqiy kabi buyuk mutafakkirlar G'aznada yashaganlar. Beruniy «*Qonuni Mas'udiy*», Bayhaqiy «*Tarixi Mas'udiy*» asarlarini sulton Mas'udga bag'ishlaganlar. Abul Qosim Firdavsiy mashhur «*Shohnoma*» dostonini Mahmud G'aznaviyga taqdim etgan.

G'aznaviyalar davlatida qurilish va me'morchilikka ham jiddiy e'tibor berilgan. G'azna, Balx, Nishopur, Lohur va boshqa shaharlarda ko'plab madrasalar, masjid, xonaqoh va saroylar bino qilinib, kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan. Bog'-u chorbog'lar barpo etilib, xususan, poytaxt G'azna shahri gullab-yashnagan.

6.5. Qoraxoniylar davlati va Movarounnahr

X asr o'rtalarida qarluqlar Issiqko'lining janubiy sohili va Qoshg'arda yashagan yag'mo qabilasi hamda o'zlaridan shimoli-sharqda yashovchi chigil, sharqroqda qaror topgan o'g'uz va boshqa qabilalar bilan yagona ittifoqqa birlashdilar. Bu ulkan hududda dastavval «*Xoqoniya o'lkasi*» deb yuritilgan davlat tashkil topadi. Mazkur davlat hukmdorlari «jabg'u» deb yuritilgan unvonning o'rniga o'zlarini «*qoraxon*», ya'ni «*buyukxon*» deb ataydilar. XI – XII asrlarda Xoqoniya rivoj topib kuchaygach, u «*Qarluq-Qoraxoniylar*» davlati nomini olgan. Mazkur yirik davlat qator qabilalar ittifoqi asosida tashkil topgan bo'is hukmdorlari «*arslonxon*», «*bug'roxon*» va «*tavg'achxon*» unvonlari bilan yuritilgan. Bu uchta atama oliy darajali hukmdor ma'nosini anglatgan. Buyuklik yoki ulug'lik esa qadimda turkiy xalqlarda «qora» so'zi bilan sifatlangan. Shu boisdan taxtda o'tirgan Arslonxon, Bug'roxon va Tavg'achxonlar «*qoraxon*» deya e'tirof etilgan. Ular boshqargan davlat esa tarixda keyinchalik ramziy ravishda «Qoraxoniylar davlati» nomi bilan shuhrat topgan.

Qoraxoniylarning Movarounnahrda hujumi. 992-yili *Horun Bug'roxon* boshliq qoraxoniylar Movarounnahr tomon hujum boshlaydilar. Bu davrda somoniylar sulolasi chuqur ichki ziddiyatlar girdobiga tushib qolgan edi.

Qoraxoniylar Buxoroni qarshiliksiz ishg'ol qiladilar. Nuh ibn Mansur qoraxoniylarga qarshi kurashish uchun G'aznadagi noibi Sobuqteginni yordamga chaqiradi. U yigirma ming kishilik qo'shin bilan Movarounnahrda yetib keladi. Nuh bilan birlashib, bir necha janglardan so'ng qoraxoniylar noibi qo'shinlari tor-mor qilinadi. Buning evaziga Nuh Sobuqteginni Xuroson noibi etib tayinlaydi. Natijada G'azna va Xurosonda Sobuqtegin va o'g'li Mahmudning siyosiy hukmronligi mustahkamlanadi.

996-yili qoraxoniylar Movarounnahr tomon yana hujum boshlaydilar. Shunday og'ir bir sharoitda xiyonat ro'y beradi. Ya'ni Sobuqtegin qo'shini Buxoroni egallaydi. So'ngra u qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi. Natijada ular o'rtasida shartnoma tuzilib, unga muvofiq, Sirdaryo havzasi qoraxoniylar qo'lga o'tadi. Sobuqtegin esa Amudaryodan janubdagi yerlarda, shu jumladan, Xurosonda hukmdor bo'lib oladi. Somoniylarga Movarounnahrning markaziy qismi beriladi, xolos. Biroq ko'p vaqt o'tmay,

999-yili Buxoroning *Nasr Eloqxon* boshchiligida qoraxoniylar tomonidan zabt etilishi bilan somoniylar hukmronligi batamom barham topdi.

Qoraxoniylar davlatining bo'linishi. Qoraxoniylar endi Xurosonni ham o'z davlatiga qo'shib olish uchun harakat qiladilar. Oradan ko'p vaqt o'tmay qoraxoniylar va g'aznaviylar o'rtasida shiddatli urushlar boshlanadi. 1006-va 1008-yillarda qoraxoniylar Xuroson ustiga ikki marta qo'shin tortadilar. Lekin Mahmud G'aznaviy qoraxoniylarga zarba berib Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi.

Bu davrda saljuqiylar g'aznaviylarga xavf sola boshlaydi. Saljuqiylar bilan jiddiy kurash boshlanadi. Bundan foydalangan qoraxoniylarning mahalliy hukmdori «bug'roxon» unvonini olgan.

Ibrohim Bo'ritegin 1038-yili Amudaryobo'yi viloyatlari – Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oladi. Ko'p vaqt o'tmay u Movarounnahrni va Farg'onani o'ziga bo'ysundirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Biri poytaxti Bolasog'unda bo'lgan Sharqiy qoraxoniylar, ikkinchisi markazi Samarqandda bo'lgan Movarounnahrdaqi Qoraxoniylar davlati edi.

Davlat boshqaruvi. Qoraxoniylar davlatni viloyatlarga bo'lib idora qildilar. Ularni *eloqxon* yoki *takinlar* (yoki teginlar) boshqarardilar. Hokimlari faqat qoraxoniylar xonadonining eloqxon unvoniga sazovor bo'lgan a'zolaridan saylanar edi. Eloqxonlar o'z nomlari bilan chaqa-tangalar zarb qilar va viloyatlarning mustaqilligi uchun intilar edilar. Movarounnahr eloqxoni qoraxoniylar eloqxonlari orasida katta obro'ga ega edi. U Samarqandda taxtga o'tirgan. Viloyat boshqaruv ma'muriyatida somoniylar davridagidek vazirlar, sohibbaridlar, mustovfiylar xizmat qilardi. Shaharlar esa *shahar hokimi*, *raislar* tomonidan boshqarilardi. Qoraxoniylar mamlakatda o'z hukmronligini mustahkamlab olishda musulmon ruhoniylari bilan yaqin va do'stona munosabatlar o'rnatadilar. Bu davrda imomlar, sayyidlar, shayxlar va sadrlarga e'tibor kuchayib, ularning obro'yi har qachongidan ham balandga ko'tariladi.

Qoraxoniylar hukmdorlari garchi bu davrda hali o'troq hayotga ko'chmagan bo'lsalar ham, dehqonchilik vohalari va shaharlarning madaniy ahamiyatini yaxshi anglar edilar. Ular Bolasog'un, Qoshg'ar, Taroz, O'zgan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarni davlat yoki viloyat poytaxtiga aylantirib, shaharlar bilan aloqa bog'lashga harakat qiladilar.

Qoraxitoylar hujumi. Siyosiy jihatdan tobora zaiflashib borayotgan Qoraxoniylar davlati o'zining avvalgi mavqeyini yo'qotib, saljuqiylar tazyiqiga uchraydi va unga qaram bo'lib qoladi. XII asrning 30-yillari oxiriga kelganda Qoraxoniylar davlati sharqdan kelgan yangi istilochilar – ko'chmanchi qoraxitoylar (mo'g'ullarga mansub qabila) hujumiga duchor bo'ldi.

Go'rxon Bolasog'un shahrini Qoraxitoylar davlatining poytaxtiga aylantirgan.

Yettisuvga joylashib olgan qoraxitoylar tez orada Sirdaryoning o'rta oqimiga tomon yurish boshlaydilar. Ularning jangovar qo'shinlari avval Shosh va Farg'onaga, so'ngra Zarafshon va Qashqadaryo viloyatiga bostirib kiradi. 1137-yili ular Xo'jand shahri yaqinida qoraxoniylarning eloqxoni *Mahmudga* qaqshatqich zarba beradilar. O'zaro sulh tuzilib, qoraxoniylardan katta tovon olingach, o'z yurtlariga qaytib ketadilar. Lekin sulh uzoqqa cho'zilmaydi. Oradan to'rt yil o'tgach qoraxitoylar yana Movarounnahrda yurish qiladilar. 1141-yili bo'lib o'tgan jangda qoraxitoylar g'alaba qozonadi. Oqibatda Qoraxoniylar davlati tugatiladi.

6.6. XI – XII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Qishloq xo'jaligidagi ahvol. XI asrda Movarounnahrda kirib kelgan ko'chmanchi chorvadorlar dehqonchilik maydonlarini toptab, oyoqosti qiladilar. O'tloq va yaylovlarga aylantirilgan ekinzorlar qoraxoniylar xonadonining tayanchi hisoblangan qabilalarning asosiy mulkiga aylantiriladi.

Mahalliy mulkdor dehqonlar bilan chorvador ko'chmanchilar o'rtasida ziddiyat kuchayib, dehqonlarga qarshi kurash keskin tus oladi. Qoraxoniylarning tazyiqi oqibatida mulkdor dehqonlar jon saqlash maqsadida o'z yerlarini tashlab ketishga majbur bo'ladilar.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida mahalliy mulkdor dehqonlar yer-suv mulklaridan hamda mamlakatda tutgan siyosiy mavqelaridan ajralib, jamiyat hayotida o'zining ilgarigi o'rni va ahamiyatini butunlay yo'qotadilar.

Iqto yerlarining kengayishi. XI asrdan boshlab yerdan foydalanishda iqto tartiboti juda keng yoyiladi. Qoraxoniylar tomonidan hukmron sulola namoyandalaridan tashqari oliy darajali harbiylar, davlat ma'murlari va mahalliy zodagonlarga ham katta-katta yer maydonlari iqto tarzida hadya qilindi. Iqto tartibi qoraxoniylar uchun bo'ysundirilgan mamlakatlar aholisidan tegishli soliqlarni undirish boshqarishning eng qulay shakli hisoblangan.

Shunday qilib, XI – XII asrlarda Movarounnahrda va Xurosonda iqto yerlari kengayib, mulkchilikning asosiy shakllaridan biriga aylanadi.

Bu davrga kelib musulmon ruhoniylariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi va mamlakatda ularning siyosiy ta'siri tobora ortib borishi bilan vaqt yerlari ham ancha ko'paydi.

XI – XII asrlarda «dehqon» degan tushuncha o'zining «qishloq hokimi»ni anglatuvchi asl ma'nosini yo'qotdi.

Garchi bu davrda barzikorlar ilk o'rta asrlardagi kadivarlarga nisbatan ozod hisoblansalar-da, ammo ularning zimmasiga davlat tomonidan turli

soliq va majburiyatlar yuklangan edi. Sug'orish tarmoqlari, to'g'onlar, yo'l va qal'alar qurish, ularni ta'mir etishda ularning ishtiroki shart edi.

Shaharlar, savdo va hunarmandchilik mahallalari. XI – XII asrlarda shaharlar kengayadi, aholi soni ko'payib, ular yanada gavjumlashadi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent kabi shaharlar ichki va tashqi savdo uchun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa-tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylanadi. Shaharlar markazida shohona saroylar, masjid, madrasa, minora va hammom kabi ko'plab mahobatli imoratlar qad ko'taradi. XI – XII asrning sirli koshinkor va qabartma naqshli sopol idish va tovoqlari, rangdor shisha buyumlari, naqshinkor mis idishlari o'zining xilma-xilligi va yuqori darajada nafisligi bilan ajralib turadi.

Hunarmandchilikning taraqqiy etishi hamda ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan bozor tijoratida pulga talab oshadi. Natijada kumush va misdan ko'plab chaqa va tangalar zarb qilinadi. O'sha vaqtlarda Bolasog'un, Taroz, O'zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda pul ishlab chiqaradigan zarbxonalar bo'lgan.

6.7. Xorazm davlati va uning yuksalishi

Ma'muniylar davrida Xorazm. Xorazmshohlar davlati IX – X asrlarda tohiriy, safforiy va somoniylar qo'l ostida bo'lgan. X asr oxirlarida Xorazm iqtisodiy jihatdan yana tez rivojlana boshlagan. X asrning oxiriga borganda VIII asr boshlaridagi mavjud uchta shaharlarning soni o'ttiz ikkitaga yetgan. X – XI asrlarda Xorazm mintaqadagi yirik savdo markazlaridan biriga aylangan. Xorazm savdogarlari chorvadorlar (hozirgi Turkmaniston va Qozog'iston) hamda Itil (Volga) bo'yidagi Xazar va Bulg'or podsholiklari, shuningdek, Sharqiy Yevropaning slavyan aholisi bilan savdo-sotiq olib borganlar. Savdo aloqalarining kengayishida, ayniqsa, Gurganch (Urganch) shahri muhim rol o'ynagan. Uning hokimi «*Gurganch miri*» nomi bilan ulug'langan.

995-yili Gurganch miri *Ma'mun ibn Muhammad* Kat shahrini ishg'ol qilib, Xorazmning ikkala qismini birlashtirdi va Xorazmshoh unvoniga sazovor bo'ldi. Shu tariqa afrig'iylar sulolasi barham topib, ma'muniylar hukmronligi boshlandi. *Ko'hna Urganch* Xorazmshohlar davlatining poytaxtiga aylandi. Qisqa davr ichida ma'muniylar Xorazmshohlar davlatini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirdilar. Mamlakat viloyat, shahar va qishloqlarga (qal'alarga) ajratilib boshqarildi.

Xorazmshoh davlatning oliy va mutlaq hokimi hisoblanardi. Gurganchda shoh qarorgohi, markaziy boshqarma devonxona tashkil etildi. Uning tarkibi-

da ziroat, savdo-tijorat, moliya, soliq, shahar va qishloqlarda osoyishtalikni saqlash uchun harbiy ishlar bilan shug'ullanadigan mahkamalar faoliyat ko'rsatgan. Davlatning eng yuqori lavozimlaridan biri vazirlik – xojayi buzruk unvoniga ega bo'lgan. U devonxona ishlariga mas'ul bo'lgan. Harbiy safarlar vaqtida hukmdor nomidan davlatni idora etgan.

Ma'muniylar davrida Xorazmda ilm-fan va madaniyat ravnaq topib, Ma'mun akademiyasi – «*Dorul hikma va maorif*» («Bilimdonlik va maorif uyi») tashkil etiladi. Ushbu ilmgohda buyuk qomusiy olimlar ijod etganlar, o'z kashfiyot va asarlari bilan Xorazmshohlar davlatining mavqeyini yuksak darajaga ko'targanlar. Biroq bu madaniy yuksalish uzoq davom etmagan.

Mustaqillik uchun kurash. 1017-yili Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etilib, o'z mustaqilligidan mahrum bo'lgan Xorazm ko'p vaqt o'tmay (1040) saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoladi. Saljuqiylar hukmdori *Malikshoh* o'z ma'murlaridan *Anushteginni* Xorazmga noib qilib tayinlaydi. Anushtegin vatandardan so'ng Xorazmda uning vorisi *Qutbiddin Muhammad* (1097 – 1127) noiblik qiladi. Garchi u «xorazmshoh» unvonini tiklab, bunday jarangdor nom bilan ulug'lansa-da, Saljuqiylar davlatining sadoqatli noibligicha qolgan edi. Xorazmning mustaqilligi Qutbiddin Muhammadning o'g'li *Otsiz* (1127 – 1156) nomi bilan bog'liqdir.

Dastavval Otsiz turkman va qipchoqlarni o'ziga bo'ysundiradi. Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan Sirdaryo etaklari va Mang'ishloq yarimorolini egallaydi. Otsiz Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi.

Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi. Otsizning siyosatini uning vorislari *Elarson* (1156 – 1172), *Sultonshoh Mahmud* (1172) va *Takash* (1172 – 1200) davom ettiradilar. XII asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat yanada keskinlashadi. 1153-yili Sulton Sanjarga qarshi ko'chmanchi o'g'uzlar isyon ko'taradilar. Buning oqibatida Saljuqiylar davlati keskin zarbaga uchrab, zaiflashib qoladi.

Dastavval undan Kichik Osiyo va Kermon ajralib ketadi. So'ngra Fors, Ozarbayjon va Xuroson viloyatlari mustaqil bo'lib oladi. Bunday siyosiy vaziyatda, shubhasiz, Xorazmning hukmronlik doirasi kengaytirilib, uning mustaqilligi yanada mustahkamlanadi. Xorazm davlati, ayniqsa, Otsizning nabirasi *Takash* davrida juda kengayadi. 1187 – 1193-yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini zabt etadi. 1194-yili esa saljuqiylar sultoni To'g'rulga qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga bo'ysundiradi.

Davlat hududining kengayishi. Takashdan so'ng uning o'g'li *Alovuddin Muhammad* (1200 – 1220) ham Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettiradi. 1206-yildan boshlab Movarounnahrni qoraxitoylarning qa-

ramligidan ozod etishga kirishildi. 1210-yili Talos vodiysida qoraxitoylar mag'lubiyatga uchraydi. Yettisuvgacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlar davlati tasarrufiga o'tadi.

XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning shimoli-g'arbiy va g'arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubi-g'arbda Iroqqa qadar borar edi. Janubi-sharqiy hududlari G'azna viloyatidan, shimoli-sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tar edi.

Sharqdagi bu ulkan davlatning poytaxti Urganch shahri edi. Hukmdor Muhammad Xorazmshoh esa «Iskandari soniy» deb ulug'langan. Uning saroyida 27 hukmdor va ularning vakillari doimo itoatda bo'lgan.

Ichki ziddiyatlar. Mamlakat qoraxitoylar zulmidan qutulgan bo'lsa-da, mehnatkash aholining ahvoli yengillashmadi. Aksincha, xorazmshohlarning harbiy yurishlari, soliq siyosatidagi beboshlik, amir va ma'murlarning jabr-u zulmi mamlakat fuqarolarining moddiy ahvolini g'oyat og'irlashtirdi, xalq xo'jaligini yanada zaiflashtirdi. Bu, shubhasiz, shahar va qishloq aholisining Xorazmshohga qarshi noroziligini oshirdi. Natijada 1210-yili *O'tror* aholisi, 1212-yili esa *samarqandliklar* qo'zg'olon ko'tardilar. Muhammad Xorazmshoh qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostiradi.

Viloyat hukmdorlarining isyonlari, xalqning ko'pgina tabaqalari noroziligi, qo'shin va saroyda fitnalarning avj olishi davlatning beqarorlik holatini yaqqol ko'rsatar edi. Shuning uchun ham bu davlat ko'p yashamadi.

6.8. O'rta osiyolik mutafakkirlar. Ilm-fan ravnaqi

«*Bayt ul-hikma*». IX – XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etdi.

Movarounnahr arablar tomonidan istilo qilingach, zabt etilgan o'zga mamlakatlar qatorida bu o'lkada ham faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning ham davlat tili, ham fan tili edi. Shu boisdan arab tilining o'rni va ahamiyati oshib, uni o'zlashtirishga bo'lgan intilish kuchaydi.

Arab tili va yozuvini yaxshi o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Bag'dod shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. IX asrda bu shaharda «*Bayt ul-hikma*» tashkil etilgan edi. «*Bayt ul-hikma*»da katta kutubxona, Bag'dod va Damashqda astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy me-

rosini o'rganish, asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanardilar. Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Ahmad al-Marvaziy, al-Abbos Javhariy va Yahyo bin Abu Mansur kabi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o'rta asr ilm-u faniga katta hissa qo'shadilar.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783 – 850-yillarda yashab ijod qilgan) Xorazm diyorida tug'ilib voyaga yetadi. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarini u o'z ona yurti Xorazm va Movarounnahr shaharlarida ko'pgina ustozlardan oladi. So'ngra u xalifa Ma'mun zamonida (813 – 833) «Bayt ul-hikma»da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi. Al-Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Matematikaga doir asarlari «*Al-jabr val-muqobala*», «*Hind hisobi haqida*»; geografiyaga oid kitobi «*Kitob surat ul-arz*» («Yer surati»); astronomiyaga oid asarlari «*Zij*» va «*Usturlub bilan ishlash haqida kitob*»; tarixga oid asarlari «*Kitob at-tarix*», «*Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola*» nomlari bilan atalgan.

Hatto «algebra» atamasi ushbu kitobning «al-jabr» deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika fanida «algoritim» atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning «Al-jabr» asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik hisoblash tizimining Yevropada, qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Shunday qilib, vatandoshimiz Xorazmiy al-jabrni mustaqil fan darajasiga ko'tarib, algebra faniga asos soldi va tarixda o'zidan o'chmas iz qoldirdi.

Ahmad al-Farg'oni. «Bayt ul-hikma»da faoliyat ko'rsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oni (797 – 865-yillarda yashab ijod qilgan). U Farg'ona vodiysidagi Quva shahrida tavallud topgani uchun Sharqda Al-Farg'oni, Yevropada esa Alfraganus taxallusi bilan shuhrat topgan. U astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug'ullandi. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlari-ga rahbarlik qildi. 832 – 833-yillarda Suriyaning shimolida Sinjor dashtida va ar-Raqqa oralig'ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashda qatnashdi.

861-yili al-Farg'oniy rahbarligida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr daryo oqimi sathini belgilaydigan «*Miqyos an-Nil*» inshooti va uning darajoti qayta tiklandi.

Bizning davrimizgacha Ahmad Farg'oniyning sakkiz asari saqlangan bo'lib, ular orasida «*Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum*» kitobi ham bordir. Bu kitob XII asrdayoq lotin va ibroniy tillariga tarjima qilinib, nafaqat musulmon Sharqidagi, balki Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Yevropada mashhur bo'lgan alloma nomi XVI asrda Oydagi kraterlardan biriga berilgan.

Mustaqillik yillarida Ahmad al-Farg'oniyning noyob ilmiy merosi xalqimizga qaytarildi. 1998-yil oktyabrda alloma Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi nishonlandi. Farg'ona shahrida al-Farg'oniy nomi bilan bog yaratildi va buyuk allomaga haykal o'rnatildi.

Imom al-Buxoriy. Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda bu davrda islom ta'limotining takomili yo'lida movarounnahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta bo'ldi. Bu borada, ayniqsa, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810 – 870-yillarda yashab ijod qilgan) va uning zamondoshi hamda shogirdi Abu Iso Muhammad at-Termiziyning (824 – 894) hissasi nihoyatda buyukdir.

Imom al-Buxoriy islom ta'limotiga oid yigirmadan ortiq asarlar yozdi. Uning birgina «*Al-jome as-sahih*» asariga 7275 hadis kiritilgan. 1998-yil oktyabrda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlandi. Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida «Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi» barpo etildi. 4 jildlik «*Al-jome as-sahih*» kitobi ilk bor o'zbek tilida nashr etilib, kitobxonlarga taqdim etildi.

Abu Mansur al-Moturidiy. Kalom ilmi ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Abu Mansur al-Moturidiy (870 – 944) Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tug'ilgan. Al-Moturidiy islomiy odob qoidalari, ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'ljallangan qator asarlar yozgan. Ulardan «*Kitob at-Tavhid*» («Allohning birligi») va «*Ta'vilot ahl as-sunna*» («Sunniylik an'analari sharhi») nomli asarlarigina saqlanib qolgan.

Ularda diniy ta'limot, islomiy urf-odatlar insonning kamol topishida dunyoqarashining shakllanish mohiyati talqin etilgan. Al-Moturidiy 944-yili Samarqandda vafot etgan.

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlarimiz tiklanayotgan Vatanimizda 2000-yil noyabrda Imom al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi. Samarqandda al-Moturidiy xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmuyi barpo etildi, asarlari o'zbek tilida nashr etildi.

6.9. Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX – XIII asr boshlari)

Madaniy va ma'naviy uyg'onish. IX asrning ikkinchi yarmida xalifalik hukmronligi tugab, somoniylar boshqaruvining qaror topishi bilan madaniy hayotning rivoji uchun keng yo'l ochiladi. Movarounnahrning madaniy hayotida uyg'onish davri boshlandi.

Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur kabi markaziy shaharlarda kutubxonalar, kitob do'konlari qurilgan. Movarounnahr va Xorazm jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarni o'z bag'rida tarbiyalab kamolotga yetkazdi.

1004-yili shakllangan «Dorul hikma va maorif» («Bilimdonlik va maorif uyi») «Ma'mun akademiyasi»ning asosini *Abu Nasr ibn Iroq* (X asr – 1034), *Abulxayr ibn Hammor* (991 – 1048), *Abu Sahl Masihiy* (970 – 1011), *Abu Rayhon Beruniy* (973 – 1048), *Abu Ali ibn Sino* (980 – 1037) va boshqalar tashkil etgan.

1017-yili Mahmud G'aznaviy Xorazmga bostirib kirgandan so'ng «Dorul hikma va maorif»ning faoliyati tugatilgan, olimlarning ko'pchiligi G'azna shahriga majburan olib ketilgan.

1997-yil 11-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni chiqdi. 2006-yil kuzida respublikamizda «Xorazm Ma'mun akademiyasi»ning 1000 yilligi nishonlandi.

Abu Nasr Farobiy. Abu Nasr Farobiy 873-yili Aris suvining Sirdaryoga quyilishida joylashgan *Farob* shahrida tug'ilgan. U avval ona shahrida, so'ngra Samarqand, Buxoro va Bag'dodda bilim olgan. Umrining oxirlarida Halab va Damashq shaharlarida yashagan. Farobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, tarbiyashunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan.

U 160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr ilm-fan va madaniyatiga ulkan hissa qo'shdi. Bular orasida «*Arastunmg «Metafizika» asariga sharh*», «*Musiqa kitobi*», «*Baxt-saodatga erishuv haqida*», «*Tirik mavjudot a'zolari haqida*», «*Fozil odamlar shahri*» va boshqa ko'pgina asarlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Farobiy Sharqda Arastudan (Aristotel) keyingi yirik mutafakkir – «Muallim us-soniy» nomi bilan shuhrat topdi.

Abu Ali ibn Sino. Abu Ali ibn Sino 980-yili Buxoro yaqinidagi *Afshona* qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Maktabni bitirgach ustoz *Abu Abdullohdan* mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rganadi. O'n olti yoshidan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rgandi. Ayniqsa, u tabobat ilmining qadimgi al-lomalari Gippokrat va Galen hamda o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziyning (865 – 925) asarlarini puxta o'rganadi.

Ibn Sino o'n yetti yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bo'lib yetishadi. U amir *Nuh ibn Mansumi* davolab tuzatgach somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Ibn Sino taqdir hukmi bilan Gurganchdagi (Urganch) Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari qatorida ijod qiladi. U 1037-yili vafot etadi va *Hamadonda* dafn etiladi.

Ibn Sino 450 dan ortiq, shu jumladan, tibbiyotga doir 43 ta asar yozgan. Uning 5 jildlik «*Al-qonun fit-tib*» («Tib qonunlari») nomli qomusiy asarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, tashxis, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan. Uning «*Al-qonun fit-tib*» asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan.

Abu Rayhon Beruniy. Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048) Xorazmning Kat shahrida tug'ilib, Urganchda ta'lim olgan. Xorazmshoh Abul Abbas Ma'mun II saroyida to'plangan olimlar bilan birgalikda Ma'mun akademiyasida ijod qilgan. Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olingach, Beruniy va boshqa olimlar bilan birga G'azna shahriga olib ketiladi va umrining oxirigacha shu yerda ijod qildi. Beruniy 1048-yili G'aznada vafot etadi.

Beruniy astronomiya, geografiya, matematika va tarix fanlari bo'yicha 160 dan ortiq asarlar yozgan. Uning «*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*», «*Hindiston*», «*Mineralogiya*», «*Geodeziya*» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. U o'zining astronomiyaga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surdi. Beruniy Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U 1029 ta yulduzning koordinatlari kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini hamda dunyoning geografik kartasini tuzgan. Beruniyning ilmiy va falsafiy ulkan merosi, shubhasiz, jahon fani va madaniyati xazinasiga qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi.

Qoraqalpog'istonda shahar, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti Beruniy nomiga qo'yilgan. Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etilgan.

Mahmud az-Zamaxshariy. Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy 1075-yili Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida dunyoga kelgan. Ilmga bo'lgan chanqoqlik uni Buxoro, Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag'dod, Hirot va Makkada hayot kechirib, arab tili va adabiyotini, diniy ilmlarni, xattotlik san'atini, arab maqollari va urf-odatlarini chuqur o'rganishiga sabab bo'ldi. U mintaqa geografiyasiga doir ma'lumotlarni to'playdi.

Mahmud Zamaxshariy turli soha ilmlariga oid 50 dan ortiq asarlar yozib qoldirdi. Ayniqsa, uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan «*Al-Mufassal*», Qur'oni karim tafsiriga oid «*Al-Kashshof*» asari musulmon olamida mashhurdir. Zamaxshariy «*Arab va g'ayriarablar ustoz*», «*Xorazm faxri*» kabi sharafli nomlar bilan ulug'langan. Qohiradagi dunyoga dong'i ketgan Al-Azhar diniy dorilfununining talabalari hozir ham «*Al-Kashshof*» asosida Qur'oni karimni o'rganadilar.

Burhoniddin al-Marg'inoniy. Mashhur fiqh (huquqshunos) olimi Burhoniddin al-Marg'inoniy 1123-yili *Rishtonda* (Farg'ona vodiysi) tavallud topgan. Al-Marg'inoniyning eng nodir asari to'rt jildlik «*Hidoya*»dir. «*Hidoya*» islom huquqshunosligi bo'yicha mukammal asar bo'lib, bir necha asrlar davomida musulmon mamlakatlaridagi huquqshunoslar uchun ham nazariy, ham amaliy qo'llanma vazifasini o'tab kelgan. Kitob bir qancha tillarga tarjima qilingan. Hozirgi kunda ham muhim manba sifatida foydalanib kelinmoqda.

2000-yili al-Marg'inoniyning 910 yilligi nishonlandi.

Turkiy yozma adabiyot. Bu davrda Movarounnahr va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqlarning qadimdan davom etib kelayotgan og'zaki adabiyoti bilan bir qatorda yozma adabiyot yuzaga keldi. Qator yirik asarlar bitildi. Ulardan eng nodirlari Yusuf Xos Hojibning (XI asr) «*Qutadg'u bilig*», Mahmud Qashg'ariyning «*Devonu lug'atit-turk*», Ahmad Yugnakiyning «*Hibat ul-haqoyiq*», Ahmad Yassaviyning «*Hikmat*» kabi asarlaridir.

Bu davr turkiy adabiy tili eski o'zbek va uyg'ur tillarining vujudga kelishida ham muhim bosqich bo'ldi.

6.10. Me'morchilik, san'at, musiqa va diniy e'tiqod

Me'morchilik va san'at. O'rta asr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va islom dini mafkurasi madaniy hayotning bu sohasiga ham kuchli ta'sir qildi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda bu davrda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, maqbara, tim va karvon-saroylar quriladi. Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Namozgoh masjidi, Minorayi Kalon hamda Vobkent va Jarqo'rg'ondagi minoralar va ko'pgina boshqa binolar o'sha davr me'morchiligining namunalaridandir. Bu yodgorliklar o'ziga xos me'morchilikning rivoj topganligidan dalolat beradi.

Bu davrda yo'nilgan tosh, pishiq g'isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli xil suv inshootlari: suv omborlari – bandlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar barpo etiladi. Bunday inshootlarning o'lchamlari matematika nuqtayi nazaridan g'oyat puxta ishlangan. Masalan, X asrda Nurota tizmalaridagi Pasttog' darasi to'silib barpo etilgan *Xonbandi* nomli suv omboriga 1,5

mln metr kub suv to'plangan. To'g'on granit toshi va suvga chidamli qurilish qorishmasidan qurilgan. Bu suv omborini qurishda suvning vertikal va gorizontal bosim kuchi va bu hududlarda tez-tez sodir bo'ladigan zilzilalarning silkinish kuchlarini ham hisobga olganlar. Bu, shubhasiz, XVII asr mashhur fransuz fizigi Blez Paskal tomonidan suvning bosim kuchi to'g'risida yaratilgan kashfiyotdan qariyb 7 asr muqaddam movarounnahrlik muhandislarga ma'lum ekanligidan dalolat beradi.

X asrdan boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi. Yakka-sinch va qo'shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib ustunlari-yu sarrovlari va to'sinlarigacha yog'ochlarni birlashtirish uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g'isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan. Bu tuzilishdagi imoratlarni qurish hozirgacha saqlanib keladi. Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro va Poykand shahar xarobalarida kovlab ochilgan turarjoy qoldiqlaridan ma'lum bo'lishicha, X – XI asrlarda ham paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o'rinni egallagan.

Naqqoshlik, o'ymakorlik va xattotlik. IX – XII asr boshlarida me'morchilik bilan birga naqqoshlik va o'ymakorlik san'ati ham ancha rivoj topadi. Imoratning peshtoqi, eshigi va devorining ayrim qismlari turli mazmundagi bitiklar bilan qoplanar edi. Bu davrda xattotlik xalq san'atining muhim va keng tarqalgan sohalaridan biri edi. Hali kitob bosish kashf etilmaganligi, qo'lyozma kitoblarning nusxalari faqat qo'lda ko'chirilishi tufayli xattotlik san'ati ancha rivoj topdi. Turli uslubda husnixat bilan bitilgan xattotlik namunalari me'moriy naqshlarda ham hayotiy mazmun va estetik zavq beruvchi bezak sifatida ishlatiladi.

Musiqqa san'ati. IX – XIII asr boshlarida musiqqa san'ati ham g'oyat taraqqiy qiladi. Bayramlar, to'ylar, xalq sayillari va boshqa marosimlar, shubhasiz, kuy va qo'shiqsiz o'tmas edi. Bu davrda sozandalar ud, tanbur, qo'biz, rubob, nay, surnay, karnay, qo'shnay va qonun kabi g'oyat xilma-xil torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg'u asboblardan keng foydalanganlar.

Xalq kuylari asosida keyinchalik tojik va o'zbek xalqlarining mumtoz kuyi «Shashmaqom» uchun poydevor bo'lgan «Rost», «Xusravoniy», «Boda», «Ushshoq», «Zerafkanda» «Buzruk», «Sipohon», «Navo», «Basta», «Tarana» kabi yangi-yangi kuylar ijod etilgan. Musiqqa san'ati she'riyat hamda musiqashunoslik ilmi bilan uzviy bog'langan holda taraqqiy etadi.

Din. IX – XIII asrlar ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko'tarilgan islom dini xalq hayotida muhim o'rin egallaydi. Movarounnahr aholisi islom dinini qabul qilib, shariat ahkomlarini bajarishga, arab tili va yozuvini o'rganishga kirishdi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko'tardi.

XII asrda esa Buxoroning *Darvozayi Mansur* mahallasida hatto qonunshunoslar uchun maxsus «*Faqihlar madrasasi*» qurilgan. Bunday oliy dorilfunun asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni karim, Hadisi sharif va arab tilini mukammal o'rganishga katta e'tibor bergan. Shariat ahkomlarini har tomonlama chuqur o'rgatishda «Tafsir» – Qur'oni karimning sharhlari juda boy va qimmatli manba hisoblangan. Fiqh fani (islom huquqshunosligi) axloq va shariat ahkomlari borasida mukammal ma'lumot beradi.

Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'iboti kengayishida, ayniqsa, Buxoro shahri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko'p yetuk fiqhshunos olimlar, qozilar, imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab «Qubbat ul-islom» – «Islom dinining gumbazi» nomi bilan shuhrat topgan.

Tasavvuf. Tasavvuf o'rta asrlar musulmon Sharqida keng tarqaladi. Bu ta'limot dastlab VIII asr o'rtalarida Iroqda yuzaga kelgan.

Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Movarounnahrning turli o'lkalarida tasavvufning har xil tariqatlari paydo bo'ladi. Turkistonda XII asrda *yassaviya*, XII asr oxirida Xorazmda *kubroviya*, XIV asrda Buxoroda *naqshbandiya* va boshqalar vujudga keladi.

Movarounnahrda keng yoyilgan tasavvuf tariqati *yassaviya* bo'lib, unga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur «Hikmat» asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillashtiradi. Yassaviy tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g'oyasi o'lg'a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farog'atidan voz kechib, uzlatda toat va ibodat yo'lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Xullas, yassaviya tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etilsa-da, inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi. Insonning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi.

Tasavvuf ta'limotining buyuk siymolaridan yana biri Najmiddin Kubro (1145 – 1221) edi. U Xorazmda kubroviya tariqatiga asos soladi.

Yassaviya tariqatidan farqli o'laroq, kubroviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubroviya tariqatida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi.

Tasavvuf XIV asrda naqshbandiya tariqatida yanada rivoj topadi. Unga Bahouddin Naqshband asos soladi. U 1318-yili Buxoro yaqinida *Qasri Hinduvon* qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyo-

ga keladi. Yoshligida ta'lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul boshishni puxta o'rganib, ota kasbi – naqqoshlikni egallagan.

Xoja Bahouddin «*Hayotnoma*» va «*Dalil al-oshiqin*» nomli asarlar yozib, o'z tariqatini yaratadi. Naqqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi. Naqqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning «*Dil ba yor-u, dast ba kor*» («Ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l mehnat bilan band bo'lsin») degan hikmati naqqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib qiladi. Naqqshbandiya ta'limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda *Alisher Navoiy*, *Abdurahmon Jomiy*, *Xo'ja Ahror* kabi buyuk allomalar katta hissa qo'shadilar.

Mustaqillik sharofati bilan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqqshband, Najmiddin Kubro singari bobokalonlarimizning aziz nomlari tiklandi, qadamjolari obod etildi. Asarlari chop etilib, ularning bebaho ma'naviy meroslaridan hozirgi avlodlar bahramand bo'lmoqdalar. Holbuki, islomiy ta'lim-tarbiya asosida ajdodlarimiz kamol topib, o'zlaridan o'chmas tarixiy meros qoldirganlar.

6.11. Etnik jarayonlar va o'zbek xalqining shakllanishi

Etnik jarayon. Jahondagi boshqa xalqlar kabi o'zbek xalqining shakllanishi ham uzoq yillar davomida sodir bo'lgan etnik jarayonlar mahsulidir.

O'zbeklar alohida etnik birlik (elat) bo'lib *Movarounnahr*, *Xorazm*, *Yettisuv*, qisman *Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida* shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy so'g'diylar, baqtriylar, xorazmiylar, farg'onaliklar, shoshliklar, yarim chorvador qang'lar, ko'chmanchi sak-massaget kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'ylaridan turli davrlarda Movarounnahrda kirib kelgan etnik guruhlar ham o'zbek xalqi etnogenezida ishtirok etadilar. Yuqorida nomlari keltirilgan etnoslar asosan turkiy va sharqiy eroniy tillarda so'zlashganlar.

Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yuqorida nomlari qayd etilgan qabila va elatlarning etnik jihatdan aralashuv jarayoni natijasida o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon, o'zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllanadi.

Mil. avv. III asrda Sirdaryoning o'rta oqimida tashkil topgan Qang' davlati davrida turkiyzabon etnoslar ustuvorlik qilib, o'ziga xos uyg'unlashgan madaniyat shakllanadi. Arxeologik asarlarda bu madaniyat «*Qovunchi*

madaniyati» nomini olgan. Antropolog olimlarning ta'kidlashicha, aynan shu davrlarga kelib O'rta Osiyoning vodiy va vohalarida yashovchi aholi tashqi xususiyatlarida hozirgi o'zbek va voha tojiklariga xos antropologik qiyofasi to'liq shakllanadi.

O'zbeklar etnogenezida qatnashgan navbatdagi etnik guruhlar kushonlar davrida IV – V asrlarda O'rta Osiyoning markaziy viloyatlariga kirib kelgan qoraxoniylar, kidariylar va eftallardir.

Shuningdek, o'zbeklar etnogeneziga Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyoning markaziy mintaqalari va Xorazmga kelib o'troqlashgan turkiy qabilalari ta'asir ko'rsatadi. Turkiy elatlar va mahalliy o'troq aholi o'rtasidagi etnik-madaniy munosabatlarning rivoji natijasida turkiy qatlam madaniy yutuqlarining mahalliy madaniy-xo'jalik an'analar bilan jadal uyg'unlashuvi yuz berdi. VII asrdan o'lkamiz «*Turkiston*» nomi bilan atala boshlagan.

O'zbek xalqining tashkil topishi. VIII asrdan arab va ajam xalqlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta'asir etmagan bo'lsa-da, bu davrda Movarounnahrda o'troq va yarim o'troq turkiy-qoraxon aholi, so'g'diylar va Xorazmning tub yerli aholisi o'z hududlarida qolib, arablar hukmronligi ostida yagona islomiy e'tiqod birligi uyg'unlashdi.

IX asrda Movarounnahr mintaqasida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy madaniy muhiti vujudga kela boshladi, o'z navbatida, so'g'diylar va boshqa mahalliy etnik qatlamlarda ham turkiylashish jarayoni jadallashgan. Bu davrda Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo'lib, mazkur qatlam asosining aksariyatini o'troqlashgan turkiy etnoslar tashkil qilgan.

Qoraxoniylar davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy qoraxonlarga o'tishi munosabati bilan yuz bergan etnik jarayon o'zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo'ldi. Aynan mazkur davrda o'zbek xalqiga xos etnik omillar shakllangan. Bu davrda o'zbeklarning umumelat tili qaror topdi.

Shunday qilib, asrlar osha yurtimizda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatda muttasil davom etgan etnik jarayonlar natijasida IX – XII asrlarda o'zbek xalqi shakllandi. Uning asosiy, o'q ildizini o'lkamizda muqim yashab kelgan o'troq ziroatkor va mirishkor chorvador tub yerli aholi tashkil etdi. Bunday ikki turli turmush tarzidagi aholi qadimdan ikki tilda – so'g'd va turk tillarida so'zlashgan. Mazkur o'ziga xos ikki turkum tillar asosida «so'g'd yozuvi» va «turkiy run bitik»lari imlosi yuzaga kelgan. Shubhasiz, asrlar davomida kengayib borgan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida o'zbek va qator qardosh elatlarning uyg'unlashib, birikishiga olib kelgan. Hali yozuv yuzaga kelmasdan avval boshlangan bunday ulkan etnogenetik jarayonning izlari yurtimizning joy nomlarini ma'nosida o'z ifodasini topgan.

7-BOB. VATANIMIZ XALQLARINING CHINGIZXON ISTILOSI VA ZULMIGA QARSHI OZODLIK KURASHI

7.1. Xorazmshohlar saltanati bilan Mo'g'ullar davlati o'rtasidagi munosabatlar

Mo'g'ullar davlati. XI asrda mo'g'ul qabilalari hayotida hali urug'-aymoqchilik munosabatlari nihoyatda kuchli edi. Ular asosan ko'chmanchi chorvachilik, ovchilik va o'zaro mahsulot ayirbosh qilish bilan shug'ullanar edi. Bu davrda urug' va qabilalar o'rtasida o'zaro kurash avj olib bormoqda edi. Mo'g'ul urug' boshliqlari orasidagi ichki kurashlarda *Temuchin* (1155 – 1227) g'olib chiqadi. 1206-yili *Onon* daryosi bo'yida chaqirilgan mo'g'ul urug' va qabila boshliqlarining qurultoyida Temuchin ulug' xon (qoon) deb e'lon qilinadi, unga «*Chingiz*» laqabi beriladi va Mo'g'ullar davlatiga asos solinadi.

Chingizxon ko'p sonli yaxshi qurollangan, intizomli va uyushgan qo'shin hamda 10 ming nafar turk azamatlaridan iborat kezik (keshik) xos soqchilar qismini tuzib, istilochilik urushlari olib borishga kirishadi.

Qo'shni davlatlarning bosib olinishi. 1206-yili dastlab naymanlar bo'ysundirildi. 1207 – 1208-yillarda Enasoy havzasi, so'ngra Yettisuv viloyatining shimoliy qismi zabt etildi va uyg'urlar taslim bo'ldi.

1211 – 1215-yillarda Chingizxon bir necha bor Xitoyga hujum qilib, Shimoliy Xitoyning markazi *Szindi* (Pekin) shahrini ishg'ol qilib, szin sulolasini taxtdan qulatdi. Shimoliy Xitoy yerlari Mo'g'uliston davlatiga qo'shib olindi. Chingizxon Xitoydan ko'p o'ljalari, cho'rilar bilan harbiy qurol yasaydigan va ularni ishlata biladigan mohir hunarmandlarni ham Mo'g'ulistonga olib ketadi. Shu yo'l bilan u o'z qo'shinini zamonasining eng yaxshi harbiy qurol-aslahalari bilan ta'minlaydi.

Chingizxon 1218 – 1219-yillarda Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarini deyarli talafotsiz qo'lga kiritib, bu yerdagi Kuchluk davlatini tugatdi. Shunday qilib, Gobi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritog' (Tyanshan) tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan viloyatlar Mo'g'ullar davlati hukmronligi ostida birlashtirildi. Shu tariqa Mo'g'ullar davlatining g'arbiy hududlari Sulton Muhammad Xorazmshoh saltanatining chegarasiga bevosita tutashib ketdi.

O'zaro elchilik aloqalari. Chingizxon va Xorazmshoh o'rtasida bir-birining kuch-qudratini bilib olishga va bu haqda ma'lumotlar to'plashga harakat qilinadi. Ikki o'rtada hatto elchilik aloqalari o'rnatiladi.

Dastavval 1216-yili Chingizxon huzuriga Xorazmshoh *Bahouddin Roziy* boshchiligida o'z elchilarini yuboradi. Elchilarni Chingizxon iltifot bilan qabul qiladi. Hatto elchilardan u Sulton Muhammadni G'arbning sohibqironi (G'arb mamlakatlari yerlarining sultoni), o'zini esa Sharqning podshosi deb

hisoblashini Xorazmshohga yetkazishlarini so'raydi. Chingizxon qimmatbaho sovg'alar va mollar orilgan katta karvon bilan o'z elchilarini Xorazmga yuboradi. Elchilarga xorazmlik savdogar *Mahmud Yalavoch* boshliq qilib tayinlanadi. Chingizxon elchilarini Sulton Muhammad 1218-yilning bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi. Elchilar Chingizxon Sulton Muhammadni qudratli podshoh sifatida bilib, uni o'zining eng ardoqli o'g'illari qatorida ko'rishini hamda u bilan do'stona shartnoma tuzishga roziligini aytadi. Eng ardoqli o'g'illari qatorida ko'rish «iltifoti», shubhasiz, Sharq ustomonligida «Chingizxonning Xorazmshohni o'ziga qaram qilib olish niyati bor» degan ma'noni anglatardi. O'zini Iskandari soniy (Ikkinchi Iskandar) deb hisoblab yurgan podshoga bunday «iltiqbol» sira yoqmas edi. Xorazmshoh Mahmud Yalavochni tunda xufiyona o'z huzuriga chaqirtirib keladi. Elchiga xorazmlik bo'lgani uchun Chingizxonga emas, balki Xorazm shohiga xizmat qilishini, Chingizxon to'g'risidagi bor haqiqatni aytishini, keyinchalik xon qarorgohida Xorazmshohning josusi bo'lib qolishini talab qiladi. Chingizxon o'z elchilarining ish natijalaridan mamnun bo'ladi. Chunki Mahmud Yalavoch Xorazm davlati va uning podshosi to'g'risida Chingizxonga mo'g'ullar to'g'risida Xorazmshohga aytgan ma'lumotlariga qaraganda ham ko'proq axborot to'plab qaytgan edi.

Munosabatlarning keskinlashuvi. Chingizxon Sulton Muhammadga o'z minnatdorchiligini izhor etish va ikki buyuk qo'shni davlatlar o'rtasida shartnoma tuzish uchun 1218-yilning o'zidayoq Xorazmga juda katta savdo va elchilar karvonini jo'natadi. Karvon ko'p miqdorda oltin, kumush buyumlar, «iloy ipak matolari, suvsar va qunduz mo'ynalari va boshqa har xil qimmatbaho mollar orilgan 500 tuyadan hamda 450 musulmon savdogarlardan tashkil topgan edi. Bu ulkan savdo karvoni mamlakat poytaxti Urganch shahri tomon borar edi. Ammo karvon yo'lda chegara shahar O'trorda ushlanib qoladi. Shaharning noibi *G'oirxon* (Inolchiq) tomonidan karvon talanib, savdogarlarning hammasi qirib tashlanadi. Faqat bir tuyakashgina o'limdan qutulib qoladi. U Chingizxonning qarorgohiga zo'rg'a yetib borib, karvonning dahshatli qismatidan xabar beradi.

Chingizxon Xorazm ma'murlaridan hisoblangan O'tror noibining xiyonatkorona xatti-harakatidan nihoyatda g'azablendi. Ammo g'azabini bosib, *Ibn Kafroj Bug'roni* ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan Xorazmshoh huzuriga elchi qilib yuboradi. Chingizxon Sulton Muhammaddan aybdorlarni jazolashni va Inolchiqni tuttirib, uning ixtiyoriga jo'natishni talab qiladi. Xorazmshoh Chingizxonning talabiga javoban elchini o'ldirishni va u bilan birga kelgan ikkita mulozimning soqol-mo'ylovlarini qirib, sharmanda qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqealar ikkita eng katta davlatlar o'rtasida savdo aloqalari va elchilik munosabatlari tamomila uzilganini bildirar edi.

Xorazmshoh uyushtirgan bu voqea har ikki buyuk davlatlar o'rtasida urush boshlanishiga bahona bo'ldi.

Xorazmshohlar davlatining inqirozga yuz tutishi. XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar saltanati qo'shinining umumiy soni Chingizxon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Xorazmshoh hokimiyati siyosiy, xususan, ma'muriy boshqaruv jihatidan mustahkam emas edi. Chunki mansabdorlar davlat tang ahvolga tushib qolgan paytlarda o'z vazifalarini tashlab ketar, podshoga itoatsizlik qilar, o'zboshimchalik bilan o'z bilganlaricha yo'l tutar edilar. Hatto ayrim viloyat hokimlari Xorazmshohga nomigagina bo'ysunib, amalda deyarli mustaqil edi. Buning ustiga, sulton oliy dargohi ichida kuchli nizo hukm surardi. Ayniqsa, Turkon xotun, ya'ni «turklar onasi» nomi bilan shuhrat topgan Sulton Muhammadning validasi qo'shinining oliy sarkardalari hisoblangan qipchoq oqsuyaklari bilan urug'-qabila aloqalari orqali mahkam bog'langan edi. U o'z qabiladoshlari manfaati yo'lida saroyda ko'tarilgan barcha fitnalarga boshchilik qilar, hatto ularda shohga qarshi adovat ruhini uyg'unlashtirib qo'ygan edi.

Ichki nizo, boshboshdoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan edi. Bunday o'ta xavfli vaziyatni bartaraf etish maqsadida Sulton Muhammad o'z hukmronligining so'ngida «*Davlat kengashi*»ni ta'sis etadi. Kengashga 6 nafar bilimdon vakillar jalb etiladi. Unda eng dolzarb masalalar muhokama etilib, qaror qabul qilinsa-da, ammo u amalda ijobiy natija bermaydi. Ana shunday vaziyatda u jangari mo'g'ul qabilalarining Chingizxon boshliq bosqiniga duchor bo'ldi.

7.2. Chingizxon bosqini

Xorazmshohning mudofaa rejasi. Chingizxon Movarounnahr yurishiga katta ahamiyat berib, puxta tayyorgarlik ko'rgan edi. Hali harbiy yurish boshlanmasidanoq u o'z dushmanining kuch-qudrati va urushga tayyorgarligi to'g'risida savdogarlar orqali to'plagan ma'lumotlarni sinchiklab o'rgangan. Chingizxon Xorazmshohlar davlatining ichki ziddiyatidan to'la xabardor edi.

Xorazmshoh bilan sarkardalar o'rtasida mavjud ixtiloflar avvalboshdanoq mavjud ustunlikdan foydalanishga imkon bermadi. Urush boshlanishi arafasida bo'lgan harbiy kengashda ular o'rtasidagi kelishmovchilik yaqqol namoyon bo'ldi. Kengashda dushmanga zarba berishning yagona rejasini yakdillik bilan belgilab olish o'rniga fikrlar bo'linib ketdi. Sulton katta qo'shinni bir joyga to'plashdan qo'rqqar edi. Sulton nazarida, bir joyga to'plangan qo'shin uni taxtdan ag'darib tashlashi mumkin edi. Shuning uchun ham harbiy kengashda sulton o'z qo'shinlarini turli shaharlarda alohida-alohida joy-

lashtirishga, urushda mudofaa taktikasini qo'llashga qaror qiladi. Shu tariqa mamlakat katta xavf ostida qoldi.

O'tror qamali. 1219-yilning kuzida Chingizxon Xorazmshohga qarshi yurish boshladi. Uning jami askari 200 mingga yaqin edi. Chingizxon qo'shini Sirdaryo bo'yida joylashgan O'tror shahri ustiga yurish qildi. Chingizxon bu shahar yaqinida Movarounnahrni qisqa muddat ichida zabt etish uchun butun harbiy kuchlarini to'rt qismga bo'ldi. Uning bir qismini o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy boshchiligida O'tromni qamal qilib turish uchun qoldirdi. Ikkinchi qismga Jo'ji boshliq etilib, u Sirdaryo etagi tomon yuborildi. Unga Sig'noq, O'zgan, Jand, Yangikent shaharlarini bosib olishni buyurdi. Besh ming kishilik uchinchi qo'shin Aloqno'yon hamda Sukatu Cho'rbiy qo'mondonligida Sirdaryoning o'rta sohili bo'ylab, uning yuqori oqimida joylashgan Banokat va Xo'jand shaharlari tomon yuborildi. Chingizxonning o'zi asosiy kuchlari bilan Buxoro tomon askar tortdi.

O'tror mustahkam qal'ali chegara shahar edi. Qal'a noibi G'oyirxon (Inolchiq) boshchiligida shaharda 20 ming suvoriy bor edi. Qamal arafasida unga yordam uchun Qoracha Hojib qo'mondonligida yana 10 minglik qo'shin kelib qo'shilgan edi. Juvayniyning ma'lumotiga qaraganda, bu kuchdan tashqari sulton Muhammad «Lashkari berun» deb atalgan 50 ming askar yuborgan. Natijada O'tror shahrida dushmanga qarshi kuchli bir himoya quvvati tashkil bo'lgan edi. Shunga qaramay, o'sha davr solnomachilarining naqliga qaraganda, mo'g'ullar shaharni qamalga olishlari bilan mudofaachilar sarosimaga tushganlar. Qamalning dastlabki kunlaridayoq shahar hokimiyatining vakili *Badruddin Amid*, *Safiy Aqra Hojib* boshliq sulton tomonidan qatl etilgan O'tror qozisining avlodlari mo'g'ullar tomoniga o'tib ketadilar.

Manbalarga ko'ra, O'tror qamali 5 oy davom etgan. Mo'g'ullar shaharga oqib kiradigan ariqlarni ko'mib tashlaganlar, manjaniqlardan shaharga qarata tosh, neft bilan to'ldirilgan ko'zachalar (piliklarini yondirib) irg'itganlar, qo'rg'on tevaragida xandaqlar shox-shabba va tuproq bilan to'ldirilgan, qo'rg'on devori ostidan lahim (tunnel) qazilgan, daraxtlar kesib ulama shotilar yasalgan va devorga tiklangan.

O'tror qamali davrida nafaqat qamaldagilar, balki mo'g'ullar ham katta talafot ko'rganlar. Qamaldagilarning safi siyraklashib, oziq-ovqat tanqisligi kuchaygan. O'tror mudofaasining eng og'ir paytida Qoracha Hojib o'z qo'shini bilan shahar darvozasidan chiqib, mo'g'ullarga taslim bo'lgan. Biroq xiyonatkorlarni mo'g'ullar ham kechirishmagan. Ular Qoracha Hojib va uning askarlarini qatl etishgan.

Shu asnoda o'trorliklar shaharni mudofaa qilib, uni besh oy davomida o'z qo'llarida ushlab turadilar. Ayniqsa, G'oyirxon o'zini Chingizxon savdogarlari

va sarbonlarini o'ldirishda aybdor his qilib, so'nggi nafasigacha dushmanga qarshi kurashadi. Uning askarlari ellik-elliktadan bo'lib qal'adan tashqariga chiqar va bosqinchilar bilan jang qilib halok bo'lardi. Chig'atoy qo'shini shahar devorlaridan raxnalar (tuynuklar) ochib, ichkariga yopirilib kirgan, aholisini shahristondan quvib chiqarib shaharni talaganlar.

G'oyirxon boshliq mudofaachilarning bir qismi O'tror arkiga joylashib olib mudofaani yana bir oygacha davom ettiradilar. Mo'g'ullar qanday bo'lmasin G'oyirxonni qo'lga tushirishga ahd qiladilar. Oqibat u qurshovga olinib, asirga tushiriladi va Samarqandga olib borib qiynab o'ldiriladi.

Buxoro fojiasi. 1220-yilning fevralida Chingizxon Buxoroga yetib boradi. Biroq Buxoro dushman kuchini qaytarishga tayyor emas edi. Buxoroliklarning dushmanga taslim bo'lishdan o'zga choralari qolmaydi. Buxoro qozisi *Badriddin Qozixon* o'z oqsoqollari bilan Chingizxon oldiga shafqat so'rab chiqadi.

1220-yilning 16-fevralida mo'g'ullar Buxoroni egallaydilar. Movarounnahrning qadimiy markazlaridan hisoblangan Buxoro talon-toroj etiladi. Behisob xazinalar talanadi, asriy qo'lyozma asarlar, muqaddas kitoblar yirtilib, xazondek sochiladi. Ilm va ma'rifat egalari bo'lgan ulamolar va shayxlar, e'tiborli mo'g'ul jangchilariga xizmatkor qilib, goho esa baxshilariga masxara uchun beriladi. Chingizxon amri bilan Buxoro yoqib yuboriladi.

Samarqand jangi. Chingizxon Samarqandga tomon yo'l oladi va 1220-yilning mart oyida Movarounnahrning eng mashhur va yirik shahriga yaqinlashadi. Chingizxon shahardan tashqarida joylashgan *Ko'ksaroy* qasridan turib shaharni qamal qilish ishiga boshchilik qiladi. Shahar ostonasida uch kun shiddatli janglar davom etadi.

Qamalning uchinchi kuni mudofaachilar qamalni yorib chiqib mo'g'ullarga hujum qiladilar. Mo'g'ullar ularni qirib tashlaydilar. Qamalning beshinchi kuni shahar taslim bo'ladi. Mo'g'ullar Samarqandning bosh suv inshooti – Qo'rg'oshin novini (suvning quyilish joyi) buzib tashlab-shaharni suvsiz qoldiradilar. *Namozgoh* darvozasidan bostirib kirib, barcha istehkomlarni vayron qiladilar. Shahristondan aholi haydab chiqariladi va Samarqand talanadi.

Mamlakat sultoni Muhammad Xorazmshoh esa 30 minglik mo'g'ul qo'shinining ta'qibidan zo'rg'a qutulib Eronga qochadi. So'ngra Kaspiy dengizining janubidagi *Ashura* oroliga borib joylashadi. Qo'rquv domiga tushgan, o'z kuchlariga ishonchini butunlay yo'qotgan Xorazmshoh o'g'li Jaloliddin Manguberdini taxt vorisi etib tayinlab, o'zi orolda xor-zorlikda, g'ariblikda kasallanib, vafot etadi.

Sirdaryo bo'ylaridagi janglar. Bu davrda mo'g'ullarning Jo'ji boshliq askariy qismi Sirdaryo etaklarida zafarona harakat qilmoqda edi. Avval u aholisi zich joylashgan va boy savdo shahri Sig'noqqa hujum boshlaydi.

bu noq aholisi yetti kun davomida shaharni qahramonona mudofaa qiladi. Sakkizinchi kuni shahar mo'g'ullarga majburan taslim bo'ladi. Bosqinchilar shaharni talab, aholisining oxirgi kishisigacha qirib tashlaydilar.

1220-yilning aprelida bosqinchilar Jandni egallab, uni talaydilar. Aholining qo'rollangan qismi qatl etilib, shahar vayron qilinadi. Mo'g'ullar besh ming kishilik qo'shin bilan Sayhun (Sirdaryo) daryosi bo'yida joylashgan Banokat (Bihohruxiya) ustiga yuradi. Shahar to'rt kunlik mudofaadan so'ng taslim bo'ladi.

Temur Malik jasorati. Xo'jand shahri Sirdaryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan edi. Uning tabiiy joylashishi hamda shahar hokimi Temur Malikning qahramonligi bilan xo'jandliklar mo'g'ullarga kutilmagan qarshilik ko'rsatadilar. Biroq kuchlarning teng emasligi oqibatida Temur Malik shaharni tashlab chiqib, ming kishilik lashkari bilan shahar yaqinida daryo o'rtasidagi orollardan biriga joylashib oladi. Temur Malik dushmanning o'qi teshib o'tmasligi va o't yondirib yubormasligi maqsadida usti sirkali loy suvalgan namat bilan qoplangan 12 ta qayiq yasattiradi. Bunday usti yopiq qayiqlar bilan sohilga xavfsiz suzib borilar va qayiq yon devorlarida qoldirilgan maxsus shinaklardan dushmanni o'qqa tutardilar.

Temur Malik shu tariqa qayiqlarda mudofaa janglarini olib boradi. Lekin kuch kamligi uchun bor oziq-ovqat va qurol-yarog'larni 70 ta qayiqqa yuklatib, tunda mash'alalar yorug'ida Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi.

Shu tariqa Temur Malik qo'shini uzluksiz jang qilib, barcha qiyinchiliklarni yengib Jand shahriga yetib boradi. Barchinlig'kent va Jand yaqinida mo'g'ullar daryoning har ikki sohilida yo'lni to'ssalar-da, jasur xo'jandliklar sohilga tushib, dushman bilan so'nggi jangga kiradilar. Biroz vaqt o'tgach Temur Malik Xorazmda to'plangan qo'shin va xalq lashkarlariga boshchilik qiladi. Jo'jiga qarshi muvaffaqiyatli janglar olib borib, hatto undan Sayhun daryosining quyi oqimidagi *Yangikent* shahrini qaytarib ham oladi.

Chingizxon 1220-yilning yozida Naxshabga (Qarshiga) bostirib kiradi va uni egallaydi. Shu yilning kuzida esa Termizga askar tortadi. Termiz qamalning o'n birinchi kuni qattiq hujum bilan olinib, shahar xarob qilinadi.

Sirdaryo (Sayhun) havzasi, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari, Amudaryo (Jayhun) o'rta oqimining o'ng sohilidagi viloyatlar zabt etilgach, Chingizxon asosiy kuchni Xorazmshohlar davlatining markaziy qismi – Xorazmga tashlaydi.

7.3. Xorazmshohlar davlatining halokati

Urganch qamali. 1221-yilning boshlarida Chingizxon qo'shinlarining Urganchga yurishi boshlandi. Endigina Xorazm davlatining sultoni deb e'lon qilingan Jaloliddin Manguberdi Urganchga yetib kelib mudofaaga kirish-

sa-da, ammo Turkon Xotun Jaloliddin hokimiyatini tan olmadi. Bu orada sebiq Jand noibi qochqin Qutlug'xon boshliq qipchoq lashkarboshilari tomonidan uyushtirilayotgan fitnadan xabar topgan Sulton Jaloliddin Temur Malik bilan Xurosonga jo'nashga majbur bo'ladi. Chunki bunday vaziyatda poytaxt tomon bostirib kelayotgan yovuz dushmanga qarshi Urganch mudofaasi sira ham tashkil qilib bo'lmas edi. Tez vaqt ichida shahzodalar *O'zloqshoh* va *Oqshohlar* ham Urganchni tark etib qochib ketadilar. Poytaxt taqdiri o'la qo'rqqoq va amalparast amir *Xumortegin* qo'lida qoladi.

1221-yilning qishida 50 ming kishilik mo'g'ul askarlari hujum boshlab Urganchni qamal qiladi. Dushmanning harbiy kuch va zirhli qurollarining ustunligiga qaramay, urganchliklar o'z ona shahrini mudofaa qiladilar. Poytaxt ichida olib borilgan ko'cha janglarida zamonining buyuk allomasi shayx Najmiddin Kubro nomi bilan shuhrat topgan 76 yoshli *Ahmad ibn Umar Xivaqiy* o'z do'st-u shogirdlari va izdoshlari bilan ishtirok etadi. Najmiddin Kubroning iltijo bilan «Yo Vatan, yo sharofatli o'lim» deb aytgan xitobi rahnamoligida har bir mahalla, ko'cha-ko'y, guzar-u rasta, masjid-u madrasa va har bir xonadon janggohga aylanadi. Uzoq davom etgan ko'cha janglarida minglab mo'g'ul askarlari halok bo'ladi. Mo'g'ullar to shu paytgacha Movarounnahrning hech bir shahrida bunchalik qurbon bermagan edilar. Bu qonli kurash *yetti oy* davom etgan.

Chingizxon Najmiddin Kubroga ahli a'yonlari, barcha yor-u do'stlari bilan shahar tashqarisiga chiqib jon saqlashni taklif etgan. Ammo shayx Chingizxon taklifini rad qilgan. Oqibat son jihatidan teng bo'lmagan dushman bilan olib borilgan shiddatli jangda og'ir yaralangan Najmiddin Kubro o'lim oldida tig' tutgan mo'g'ul sarboziga tashlanib qahramonlarcha halok bo'ladi. Ilojsizlikdan holi tanglashib, taslim bo'lgan Urganch bosqinchilar tomonidan talon-toroj qilinadi. Shaharning bosh ihota to'g'oni buzib yuboriladi. Urganchni suv bosib vayron bo'ladi.

Jaloliddin Manguberdining jasorati. Movarounnahrning asosiy shaharlari egallangach, mo'g'ul jangarilarining bosqinchilik yurishi Amudaryo janubidagi yirik savdo va madaniyat markazlari: Balx, Hirot, Marv va G'azna kabi shaharlarga yo'naltiriladi. Ammo bu viloyatda ular Jaloliddin Manguberdining qattiq qarshiligiga uchraydi. Bu o'lkada u kuchli lashkar to'playdi.

Jaloliddin Manguberdi ancha yillar ilgari G'azna, Bomiyon va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim etib tayinlangan edi. Shu boisdan u G'azna tomon borardi. Yo'lda unga Xuroson noiblari o'z qo'shinlari bilan kelib qo'shilib bordi. Sulton Jaloliddin *Niso*, *Qandahor* shaharlari yonida mo'g'ul qo'shinlariga qaqshatqich zarbalar berib G'aznaga yetib keldi. Uning qo'shinlari safiga yangi kuchlar qo'shildi. Jaloliddin *Valiyon* qal'asini qamal

iyotgan mo'g'ul qo'shinlariga qarshi hujum qilib ularni tor-mor etadi. Bu uliddinning dushman ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi.

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no'yonni 45 nglik qo'shin bilan jo'natadi. G'azna yaqinidagi *Parvon* dashtidagi jangda oliddin g'alaba qozondi. Biroq g'alabadan keyin qo'lga kiritilgan o'ljalarni imlashda Jaloliddinning lashkarboshilari o'rtasida o'zaro kelishmovchi-boshlanadi. Oqibatda lashkarboshilardan *Sayfuddin Ag'roq*, *A'zam Malik* *Muzaffar Malik* qo'shindan ajralib ketadilar. Bu voqeadan so'ng Jalo-dinning harbiy kuchi zaiflashib qoladi.

Fursatdan foydalangan Chingizxon G'aznaga askar tortadi va ajralib g'qanlarni alohida-alohida tor-mor etadi. Jaloliddin tengsiz janglar olib rib, Sind (Hind) daryosi qirg'oqlariga yaqinlashib boradi. Daryo bo'yi- 1221-yilning 25-noyabrida ikki o'rtada qattiq jang bo'ladi. Jaloliddin Chingizxon qo'shinining ilg'orini yengadi. Mo'g'ullarning pistirmalarga yilgan 10 ming nafar saralangan askari jangni yakunlaydi. Jaloliddin alim bo'lishni xohlamay otda Sind daryosiga sakrab, narigi qirg'oqqa su- b o'tadi. U bilan birga uning to'rt ming kishilik askari ham daryodan o'tib ladi. Hozirgi paytda ham bu daryoning bir tomoni «*Ot sakrash*», narigi moni «*Cho'li Jaloliy*» deb ataladi. Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon uni ta'qib qilish fikridan qaytadi. Hatto u o'g'illariga qarab: «Ota g'il mana shunday bo'lishi lozim», – degan ekan.

Jaloliddin yana *o'n bir yil* davomida goh Eron, goh Ozarbayjon hududlari- la mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettiradi.

Shunday qilib, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdini va uning angovar kuchini tashkil qilgan fidoyi safdoshlari dushmanga qarshi yillar davomida qahramonona kurashsalar-da, ammo ona yurt ozodligini saqlab olishning ilojini qilolmaydilar. Xorazmshohning hukmdorligi 1231-yili tu- jaydi. Sharqdagi bu ulkan davlat batamom barham topadi.

Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan buyuk ajdodimiz Jaloliddin Mangu- berdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O'zbekistonda 1999-yili keng nishon- landi. Xorazmda unga haykal o'rnatildi, yirik ko'cha va maydonlarga uning nomi qo'yildi, videofilm, pyesa va dostonlar yaratildi. 2000-yil 30-avgustda «*Jaloliddin Mangubardi*» ordeni ta'sis etilgan.

Mo'g'ullar istilosining oqibatlari. Mo'g'ullar istilosi oqibatida Movaroun- nahr va Xorazmning yashnab turgan obod dehqonchilik viloyatlari halokat- ga uchradi. Gavjum va ko'rkam shaharlar, ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Banokat, Xo'jand va boshqalar xarobazorga aylantirildi. Marv vohasi sug'orish tarmoqlarining bosh to'g'oni mashhur Sultonband buzib tashlandi.

Samarqandliklar o'z ona shaharlarini tark etib chiqib ketdilar. Marv aholisi esa suvsizlikdan qurib borayotgan qishloqlarni tashlab o'zga yerlarga borib joylashdi. Urganch suvga bostirilib, batamom vayron etildi. Xorazm va Movarounnahrning ziroatchi aholisi soni keskin kamayib ketishi oqibatida ekin maydonlari jiddiy qisqarib, dehqonchilik inqirozga uchraydi.

Mohir hunarmandlar g'oliblarning yurtini obod etish uchun majburan Mo'g'ulistonga yuborildi. Butun Sharqda shuhrat topgan qurol-aslaha yasash, nafis ipak matolar to'qish, naqshli shishasozlik hunarmandchiligi barham topdi.

Asrlar davomida Turkiston orqali o'tgan mashhur Ipak yo'li mo'g'ullar bosqini davrida butunlay harakatsiz qoldi. Bu davrda ilm va ma'rifatga juda katta ziyon yetkazildi.

7.4. Chig'atoy ulusining tashkil topishi

O'lkalarning taqsimlanishi. Zabt etilgan o'lka va viloyatlarni Chingizxon hali hayotlik chog'idayoq to'rt o'g'liga taqsimlab berdi. Jumladan, Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrni Chig'atoy ega bo'ldi. Shunday qilib, mo'g'ullar bosib olingan viloyatlarni uluslarga taqsimlash asosida boshqarishga kirishdi.

Chingizxon vafotidan so'ng (1227) *O'qtoy* mo'g'ullar davlatining ulug' xoqoni qilib tayinlandi. Uluslarning hukmdorlari «xon» deb yuritilardi. Ulug' xoqonning qarorgohi *Qoraqurum* shahrida bo'lib, u yerdan turib xonlarning xatti-harakatini qattiq nazorat qilib borar edi.

Chingizxon vafotidan keyin ham mo'g'ullarning G'arbg'a tomon yurishi davom etdi. 1236 – 1240-yillarda Rus davlati zabt etilib, *Oltin O'rda* davlati tashkil topadi. 1256-yili Eron batamom bosib olinib, *Xulakuviylar davlati* vujudga keladi. 1258-yili Xuloku abbosiylar sulolasiga xotima beradi. Mo'g'ullar Osiyo va Yevropaning katta qismida o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsa-lar-da, yagona markazlashgan davlat tuza olmadilar. Ulus xonlari ulug' xoqonga nomigagina bo'ysunar, amalda o'z bilanlaricha ish yuritardilar.

Chig'atoy ulusi. XIII asrning 20-yillarida Chig'atoy tasarrufiga berilgan Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda Chig'atoy ulusi tashkil topdi. Chig'atoyxonning ulusni boshqaradigan o'rdasi *Elsuvi* (Ili) daryosi bo'yida edi. Viloyatlar va hunarmandchilik shaharlarini boshqarishda Chig'atoy o'ziga bo'ysundirilgan xalqlarning yuqori tabaqa vakillari xizmatidan foydalanadi.

Movarounnahrni bevosita idora etish ishlari hali Movarounnahr zabt etilmasdan ilgari Chingizxon huzurida xizmat qilgan xorazmlik savdogar Mahmud Yalavocho'ga beriladi. U *Xo'jand* shahrini o'ziga qarorgoh qilib oladi va shu yerda turib Movarounnahrni idora qila boshlaydi. Harbiy hokimiyat,

aholini ro'yxatdan o'tkazish, soliq yig'ish ishlari *dorug'achi* va *tavg'ach* deb ataluvchi mo'g'ul amaldorlari qo'lida bo'lgan. Mo'g'ul bosqoqlari (mahalliy hokim) ixtiyoridagi ko'p sonli askarlar Mahmud izmiga bo'ysundirilgan edi. Mahmud Yalavoch shularga suyanib mo'g'ul xoqonlari talabini ijro qilar va ularning cheksiz hukmronligini amalga oshirardi.

Soliq turlari. Chig'atoy xonlari markaziy hokimiyat xazinasi uchun aholiga turli soliqlar solib, zo'ravonlik bilan undirib olishar edi.

Ziroatchilardan olinadigan yer solig'i bu davrda «*kalon*» deb yuritilgan. Chorvadorlarga esa «*qopchur*» solig'i solingan. Davlat xazinasi uchun «*shulen*» nomi bilan yuritilgan oziq-ovqat solig'i ham undirilgan. «Shulen» har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan.

Hunarmandlar va savdogarlardan «*targ'u*» solig'i undirilgan. Targ'u ishlab chiqarilgan mahsulot yoki sotilgan molning o'ttizdan bir qismi hajmida undirilgan. Bundan tashqari, aholiga tuz solig'i, jun va kumush solig'i solingan.

Soliqlar mahalliy amaldorlar tomonidan barot (ijara) tartibida avvaldan bir yo'la to'lab yuborilar, so'ngra ular aholidan yig'ib olinardi. Aholidan yig'ib olish paytlarida soliqlar, shubhasiz, rasmiylashtirilgan miqdordan oshirib undirilardi.

Zo'rlik, jabr-zulmning nihoyatda kuchayishi, xilma-xil majburiy to'lov va yig'implarning haddan tashqari ko'pligi mo'g'ullarga nisbatan norozilikni oshirib, istilochilar istibdodiga qarshi xalqning bosh ko'tarishiga olib keldi. Shunday qo'zg'olonlardan biri Buxoro vohasidagi Torob qishlog'ida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni bo'ldi.

Mahmud Torobiy qo'zg'oloni. 1238-yili Buxoroning *Torob* qishlog'ida bosqinchilar va mahalliy mulkdorlar zulmiga qarshi qo'zg'olon boshlanadi. Qo'zg'olonga toroblik g'alvir yasovchi hunarmand *Mahmud* boshchilik qiladi. Tarixda u Mahmud Torobiy nomi bilan shuhrat topadi.

Torobiyning yaqin safdoshtlaridan Shamsiddin Mahbubiy va Buxoro aholisi qo'zg'olonchilarga qo'shilib qo'lga qurol oladi. O'zlarining qadrdon shahar va qishloqlarini mo'g'ullardan va ularning hamtovoq xizmatchilari – mahalliy ma'murlardan ozod qilishga otlangan kishilardan kattagina lashkar to'planadi. Mahmud Torobiy o'z tarafdorlari bilan Buxoroga kirgach shahar ichidagi *Robiya* saroyini qarorgoh qilib oladi. Bu yerga Buxoroning sadrlari, badavlat a'yonlari, yirik yer egalari chaqirtiradi. U o'zini Buxoro va atrof viloyatlarining xalifasi, ya'ni hukmdori deb rasmiy ravishda e'lon qilishga ularni majbur etadi. Shundan so'ng Shamsiddin Mahbubiy *sadr* deb e'lon qiliniadi. Mahmud Torobiy Buxoroda o'z hukmronligini o'rnatgach, mo'g'ul tarafdorlari bo'lgan mahalliy amaldorlar Buxorodan qochib ketadi.

Qochqin amaldorlar va mo'g'ullar noib Mahmud Yalavoch yordamida *Karmana* yaqinida kuch to'plab Buxoro ustiga yuradilar. O'rtada jang bosh-

lanadi. Mo'g'ullar yengilib, Karmana tomon qocha boshlaydilar. Jangda qo'zg'olon boshliqlari Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiy ham halok bo'ladilar. Qo'zg'olonchilar ularning o'rniga Torobiyning ukalari *Muhammad* va *Alini* boshliq qilib saylaydilar. Oradan bir hafta o'tmay ularga qarshi mo'g'ullarning yangi qo'shini hujum qiladi. Jangda qo'zg'olonchilar tor-moq qilinib, Torobiyning har ikkala ukasi ham halok bo'ladi. Mo'g'ullar Buxoron yana bosib olib, u yerda ilgarigi tartiblarni qayta o'rnatadilar.

Chig'atoy soliqlarni tartibga solish islohotida 1238-yili Mahmud Yalavochni noiblikdan chetlatishga majbur bo'ldi. Uning o'g'li *Mas'udbek* noib etib tayinlandi. Ulug' xoqon O'qtoy Mahmud Yalavochni *Pekin* shahriga hokim etib tayinlaydi.

7.5. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning jonlanishi

Ulug' xoqon farmoni. XIII asr o'rtalarida Chig'atoy ulusining mo'g'ul amaldorlari doirasida o'troqlikka ko'chish, shahar hayotiga yaqinlashish, mahalliy o'troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchayadi. Mo'g'ulistonning ulug' xoqoni *Munke* soliq va hashar ishlarini tartibga solish to'g'risida maxsus farmon – yorliq chiqaradi. Yomlar bo'ylab pochta xizmati uchun ajratilgan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot talab qilish man etiladi. Shuningdek, elchilarga, qo'llarida bevosita topshiriqlari bo'lmasa, shahar yoki qishloqlarga kirmasligi va aholidan ular uchun belgilanadigan ortiqcha yem-xashak hamda oziq-ovqat olmasligi uqtiriladi. Shu tariqa aholi o'zboshimchalik bilan yig'ib olinadigan hisobsiz to'lovlardan ozod bo'ladi.

Mas'udbekning pul islohoti. Movarounnahrda asta-sekinlik bilan bo'lsada shahar hayoti, xususan, hunarmandchilik va savdo munosabatlari jonlana boshlaydi. Shaharlarning ichki hayoti, ayniqsa, tovar va pul munosabatlari-ning tiklanishida Mas'udbek tomonidan 1271-yili amalga oshirilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ladi. U Movarounnahrning 16 ta shahar va viloyatlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Taroz, O'tror, Xo'jand va boshqa shaharlarda bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, mamlakatda ularni muomalaga chiqaradi.

Kebekxon va uning islohotlari. XIV asrning birinchi yarmida Chig'atoy ulusida mo'g'ullarning o'troqlikka o'tish jarayoni kuchayib, ularning ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Movarounnahrdek madaniy o'lka bilan mustahkam aloqa o'rnatishga va o'troq hayot kechirishga intilgan Chig'atoy xonlaridan biri *Kebek* (1318 – 1326) edi. U hokimiyatni bevosita o'z qo'lga olib, Qashqadaryo vohasidagi qadimgi Nasaf shahri yonida o'ziga saroy qurdiradi. Saroy mo'g'ul tilida «*Qarshi*» deb yuritiladi. Kebekxon o'z

qarog'ohini mo'g'ul hukmdorlari orasida birinchi bo'lib Movarounnahrda ko'chiradi. U shu saroyda turib mamlakatni idora qiladi. Keyinchalik saroy atrofiga yangi binolar qad ko'taradi va eski Nasaf shahri bilan qo'shib ketadi. Shundan e'tiboran bu shahar Qarshi deb atala boshlaydi.

Kebek davlatni idora etish tuzilishini va uning iqtisodiy hayotini tartibga solish maqsadida ma'muriy va pul islohoti o'tkazadi. Mamlakatda yagona pul joriy qilinadi. Erondagi Xulokuiylar davlati va Oltin O'rda xonligining kumush tangalari namunasida ikki xil pul: og'irligi 8 grammlik katta kumush tanga va 1 grammlik kichik tanga zarb etilgan. Katta tanga «*dinor*», kichigi «*dirham*» deb atalgan. «*Kepaki*» deb nom olgan bu tangalar Samarqand va Buxoroda zarb etilib, muomalaga chiqarilgan.

Iqtisodiy hayotning jonlanishi. Mo'g'ullar istilosi davrida xarob bo'lgan hunarmandchilik, savdo-sotiq va dehqonchilik asta-sekin tiklana boshlaydi. Hunarmandchilik va ichki-tashqi savdoning jonlanishi, shubhasiz, xarob bo'lgan shaharlarning qayta tiklanishiga sabab bo'ladi. Garchi hali ko'pgina shahar va viloyatlar xaroba va yarim xaroba holida yotgan bo'lsa-da, Urganch va Buxoro shaharlari qayta tiklanadi. Qadimgi Samarqand vayronalari yonginasi yangitdan shahar qad ko'taradi. Shaharlarda turli xil davlat, jamoat va ma'rifat binolari quriladi. Shahar bozorlari gavjumlashadi.

Yer egaligi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda yerga bo'lgan egalikning *mulki devon*, *mulki inju*, *mulki vaqf* va *mulk* deb ataluvchi to'rt xil shakli mavjud edi.

Mulki devon davlat yerlari, mulki inju hukmdor va noiblariga qarashli yerlar, mulk xususiy yerlar, mulki vaqf masjid va madrasa yerlari edi.

Mulklarning kattagina qismi harbiy ma'murlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun hadya qilingan yerlar bo'lib, ular *suyurg'ol* yerlari deb yuritilardi. Bunday yerlarga ega bo'lgan mulkdorlar – *suyurg'ol* egalari barcha soliq va to'lovlardan ozod etilardi. *Suyurg'ol* yerlari avloddan avlodga meros tariqasida o'tardi.

Mo'g'ul hukmdorlari va mulkdorlari o'rtasida bosib olingan yerlarga nisbatan ikki xil qarash mavjud edi. Ba'zilar mahalliy zodagonlar, savdogarlar bilan yaqinlashish, hunarmandchilik, dehqonchilikni rivojlantirish, islom dinini qabul qilish tarafdori edi. Boshqalari esa o'troqlik va shahar hayotiga qarshi bo'lib, shaharlarni buzib tashlash, bog' va ekinzorlarni o'tloqlarga aylantirishni istardilar.

Asta-sekin Chig'atoy ulusining bir qator xonlari o'z urug'-qabilalari bilan Movarounnahrda ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan qo'shib, o'troqlashib bordilar. Yettisuvda yashayotgan mo'g'ullar Movarounnahrda ko'chib kelganlarni «*qoraunas*» (duragay), Movarounnahrda yashayotgan mo'g'ullar esa ularni «*jete*» (qaroqchi, talonchi) deb atay boshladilar. Bu amalda

bir-birini haqorat qilish edi. Ular o'rtasida ziddiyat, nafrat kuchayib bordi. Oqibatda Chig'atoy ulusi XIV asrning 40-yillarida ikkiga bo'linib ketdi.

Chig'atoy ulusining Sharqiy Turkiston va Yettisuv qismi Mo'g'uliston deb atala boshlandi. 1348-yili Chig'atoy naslidan bo'lgan *Tug'luq Temur* Mo'g'uliston xoni etib ko'tarildi. Ulusning g'arbiy qismi – Movarounnah mustaqil idora qilinadigan bo'ldi.

Madaniy hayot. Fan, adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi. Xususan, shaharsozlik bilan bog'liq bo'lgan binokorlik va me'morchilik yo'lga qo'yiladi. Koshinpazlik, ganchkorlik, parchinsozlik, me'moriy g'isht o'ymakorligi va me'moriy xattotlik asrlar an'ana va tajribalar asosida tiklanib, hatto birmuncha taraqqiy ham qiladi. Binokor-me'morlar qo'li bilan ko'rkam imorat-u inshootlar: masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara, minora va saroylar qad ko'taradi. Ularning ayrimlari bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Buxoro shahridagi Sayfuddin Boharziy, Bayonqullixon maqbaralari, Samarqanddagi mashhur Shohizinda me'moriy ansamblining asosiy qismi bo'lgan Qusam ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi, Ko'hna Urganchdagi balandligi 62 metrli ulug'vor minora, Najmiddin Kubro va To'rabekxonim maqbaralari shular jumlasidandir.

XIII asr o'rtalarida Buxoroda «*Mas'udiya*» va «*Xoniya*» nomlari bilan shuhrat topgan ikkita madrasa bino qilinadi, ularning har birida mingtagacha talibi ilm tahsil olgan.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida fors-tojik she'riyatining yirik namoyandalardan *Jaloliddin Rumiy*, *Sa'diy Sheroziy*, *amir Xusrav Dehlaviy* kabi buyuk siymolar yashab ijod etganlar.

Jaloliddin Rumiy (1207 – 1273) buyuk tasavvuf shoiri bo'lib, 36 ming baytdan iborat «*Masnaviyi ma'naviy*» nomli asarni yaratdi. Bu asarda tasavvuf falsafasining asoslarini talqin etadi.

Bu davrning mashhur mutafakkir adiblarining yana biri Sa'diy Sheroziy (1219 – 1293). U o'zining «*Guliston*» va «*Bo'ston*» nomli asarlaridagi sevimli mazmun g'azallari bilan sharq adabiyotida o'chmas iz qoldirdi. Shoir o'z asarlarida ona yerga bo'lgan muhabbat va insonparvarlik g'oyalarini mohirlik bilan bayon etadi.

O'z davrining buyuk adiblaridan amir Xusrav Dehlaviy (1253 – 1325) Nizomiy Ganjaviydan so'ng «*Xamsa*» dostonini yozgan ham shoir, ham musiqashunos mutafakkirlardan edi. U «*Zafarlar kaliti*», «*Falakning to'qqiz gumbazi*» kabi asarlar muallifidir.

XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarixnavislik ham taraqqiy qiladi. Bu davrda Juzjoniyning «*Tabaqoti Nosiriy*» («*Nosir turkumlari*»), Juzjoniyning «*Tarixi jahonkushoy*» («*Jahon fотиhi tarixi*»), Rashiduddin

Fazlullohning «*Jome at-tavorix*» («Tarixlar to'plami») kabi qimmatli tarixiy asarlari yoziladi. Bu asarlar o'sha davr tarixi, ayniqsa, mo'g'ullar istibdodini o'rganishda birinchi darajali manba hisoblanadi.

Bu davrda turkiy tildagi adabiyot ham rivoj topa boshlaydi. Keyinchalik u «*Chig'atoy tili*» va «*Chig'atoy adabiyoti*» nomini oladi.

8-BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATI

8.1. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi

Siyosiy tarqoqlik. XIV asrning 50 – 60-yillarida Movarounnahr 10 ga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan. Samarqand viloyatida *amir Ilayon Sulduz*, Keshda *amir Hoji Barlos*, Xo'jandda *amir Boyazid Jaloir*, Balxda *O'ljaytu Sulduz*, Histori Shodmon chegarasida *amir Husayn* va *amir Yasovuriylar* o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar.

Buning ustiga, Sharqiy Turkiston va Yettisuvda tashkil topgan Mo'g'uliston xonlari bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talaydilar. Mo'g'uliston xonlarining vayronagarchilikka olib keluvchi yurishlari, istibdodlari va zulmiga qarshi xalq harakatlari boshlanadi.

Mana shunday o'zaro ichki urushlar qizigan, mo'g'ullar zulmiga qarshi mehnatkash xalq harakatlari boshlangan bir davrda mamlakatda yangi siyosiy kuch yetilmoqda edi.

Amir Temurning yoshlik davri. Amir Temur Kesh viloyatidagi *Xoja Ilg'or* qishlog'ida (Yakkabog' tumani) 1336-yil 9-aprel kuni tavallud topgan. Uning to'liq ismi *Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul*. Amir Temurning onasi *Takina xotun* Kesh yurtining obro'li beka (bek og'o)laridan hisoblangan. Uning otasi *Amir Tarag'ay* barlos urug'ining oqsoqollaridan bo'lib, ajdodlari Kesh va Nasaf viloyatida o'z mulklariga ega bo'lgan va bu yurtda hokimlik qilgan.

Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga beradi. *Shayx Shamsiddin Kulol* Temurbekning piri bo'lgan. U yoshlik chog'laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo'lib, kamondan nishonga o'q uzish, ot choptirib turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofida bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalikda mashq qilishar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib, harbiy guruhga birlashib borishardi. Bu guruh orasida *Abbos*

Bahodir, Jahonshohbek, Qimori Inoq, Sulaymonshohbek, Sayfuddinbek va boshqalar bo'lgan. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar.

O'zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o'zaro kurashlarida qatnashib jasorat ko'rsatgan va janglarda chiniqqan. Harbiy mahorat va oliyhimmatlilik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong'i butun Qashqadaryo vohasi, xususan, Kesh viloyatiga yoyilgan. Otasi Amir Temurni avval (1352) amir Joku Barlosning qizi *Turmush Og'oga* uylantiradi. 1355-yili Amir Temur Qazog'onning nabirasi, amir Husaynning singlisi *Uljoy Turkon Og'oni* o'z nikohiga oladi. Keyingi nikoh tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga keladi.

Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi. XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqadi. Mo'g'uliston xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib bu o'lkada o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Tug'luq Temur 1360 – 1361-yillarda Movarounnahrda birin-ketin ikki marta bostirib kiradi. Movarounnahr beklari birlasha olmay xalqni o'z holiga tashlab ketadilar. Amir Temurning amakisi – Kesh viloyatining hukmdori amir Hoji Barlos Xuroson tomonga qochadi. 24 yoshli Amir Temur esa boshqacha yo'l tutadi.

Temur o'z mulkini mo'g'ullar tajovuzidan himoya qilish uchun ko'p o'ylab, Tug'luq Temur huzuriga borishga qat'iy ahd qildi. Natijada u Tug'luq Temurning yorlig'i bilan Kesh viloyatining *dorug'asi* (hokimi) etib tayinlanadi.

Dorug'a mo'g'ulcha «nazoratchi», «shahar boshlig'i» degan ma'noni beradi. Mo'g'ullar davlatida mahalliy hokimlar huzuridagi ulug' qoon vakili, noibi bo'lgan. Dorug'a zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: aholini ro'yxatga olish; mahalliy xalqdan qo'shin to'plash; pochta aloqalarini yo'lga qo'yish; soliqlar yig'ish; to'plangan soliq-to'lovlarni ulug' qoon saroyiga yetkazish.

Shu tariqa Amir Temur siyosiy kurash maydoniga kirib keldi. Keyinchalik o'zining bu xatti-harakatini Temurbek aholini mo'g'ullar tomonidan talon-toroj etishdan himoya qilishning yagona yo'li – puxta o'ylangan reja 100 ming kishilik qo'shindan kuchli deb izohladi.

Tug'luq Temur o'g'li *Ilyosxo'jani* Movarounnahrning hukmdori etib tayinlab, Mo'g'ulistonga qaytib ketadi. Ilyosxo'ja bilan Amir Temurning murosasi to'g'ri kelmaydi. Shu sababli u Movarounnahrning nufuzli amirlaridan biri, Balx hokimi Husayn bilan ittifoq tuzib mo'g'ullarga qarshi kurash olib beradi. 1363-yili Amudaryoning chap sohilida, Qunduz shahri yonida umumiy dushman ustidan g'alaba qozonadilar. Keyingi ikki yil davomida ittifoqchilar

Ilyosxo'ja boshliq jeta lashkarlari bilan bir necha marta jang qiladilar. Nihoyat, 1364-yil oxirida ular mo'g'ullarni Movarounnahrda quvib chiqaradilar.

Biroq Movarounnahrni qo'ldan chiqarishni istamagan Ilyosxo'ja 1365-yilning bahorida yana Movarounnahr ustiga qo'shin tortadi. Ikki o'rtadagi jang 1366-yil 22-may kuni Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida sodir bo'ladi. Tarixda u «*Loy jangi*» nomi bilan shuhrat topadi. Chunki o'sha kuni kuchli jala quyib, jang maydoni botqoqlikka aylangan, hatto otlar loyga botib qolgan.

Jangda Amir Temur qo'shini g'olibona harakat qilib dushman qo'shinining o'ng qanotiga qaqshatqich zarba berayotgan bir paytda Husayn o'z askarlarini raqibning so'l qanotiga tashlamay jang maydonini tark etadi. Amir Temur chekinishga majbur bo'ladi.

Bu g'alabadan so'ng Ilyosxo'ja hech qanday qarshilikka uchramay, Xo'jand va Jizzax shaharlarini egallab, Samarqand ustiga yuradi. Samarqandda qur'olli qo'shin bo'lmasa-da, xalq shahar mudofaasini o'z qo'liga oladi. Uzoq davom etgan mo'g'ullar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan bu xalq harakati tarixda Sarbadorlar harakati nomi bilan shuhrat topadi.

Samarqand sarbadorlari. Sarbadorlar harakati XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda mo'g'ul xonlarining hujumi munosabati bilan vujudga keldi. Samarqand sarbadorlariga mudarris *Mavlonozoda Samarqandiy*, hunarmand *Abu Bakr Kalaviy* va shahar mahallalaridan birining oqsoqoli, mohir mergan *Xurdaki Buxoriylar* boshchilik qiladilar. Sarbadorlar mo'g'ullarga Samarqand shahrida qaqshatqich zarba beradilar. Buning ustiga, ularning otlari orasida o'lat tarqab, otlar qirila boshladi. Chorasiz qolgan Ilyosxo'ja avval Samarqandni, so'ngra butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Sarbadorlar amaldorlar mol-mulkinging bir qismini musodara etib kambag'allarga taqsimlab berganlar. Bu esa hukmdor tabaqalarning keskin noroziligiga sabab bo'lgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» kitobida: «*Yo Oллоh! Kambag'alni hadavlat kishiga aylantirding*», – deb yozadi.

Sarbadorlar boshchiligidagi samarqandliklarning mo'g'ullar xoni Ilyosxo'ja ustidan g'alabasi va shahardagi beqarorlik to'g'risidagi xabar Amir Temur bilan amir Husaynga ham borib yetadi. 1366-yilning bahorida ular Samarqandga yo'l oladilar va shahar yaqinidagi *Konigil* mavzeyiga kelib tushadilar. Beklar sarbadorlarning yetakchilari bilan muzokara olib boradilar. Uchrashuvning birinchi kunida ularga izzat-ikrom ko'rsatildi. Lekin ertasi kuni Abu Bakr Kalaviy bilan Xurdakiy Buxoriylar amir Husayn buyrug'iga ko'ra dorga tortiladilar. Bundan kech xabar topgan Amir Temur Mavlonozodaning hayotini amir Husayndan so'rab oladi va uni o'limdan qutqarib qoladi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz

goldirilib, harakat bostiriladi. Movarounnahrda amir Husaynning hukmronligi o'rnatiladi. Ammo ko'p o'tmay Husayn bilan Amir Temur o'rtasida munosabat keskinlashib, ochiqdan ochiq nizoga aylanadi. 1366 – 1370-yillar davomida ular o'rtasida bir necha bor o'zaro to'qnashuvlar ham bo'ladi.

8.2. Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi

Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur o'z zamonining bunday talabini boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u oqsoqollar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur bu ulkan maqsadini ro'yobga chiqarish ishini, avvalo, ichki g'animlariga qarshi kurashdan boshlaydi.

1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo'shinlari bilan kuchli raqib Balx hukmdori amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi *Biyo* qishlog'iga yetganida uning huzuriga taniqli ulamolardan *Sayyid Baraka* tashrif buyuradi. Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi – *tabl* bilan *yalovbayroq* tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat qiladi.

Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha yo'l-yo'lakay unga yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Bu paytda amir Husaynning ko'pchilik amirlari uni tark etadilar. Jangda amir Husayn qo'shinlari yengiladi, ikki kunlik qamaldan so'ng, 1370-yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. Amir Husayn qatl etiladi.

1370-yilning 11-aprelida Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari, Amir Temurning quroldosh do'stlari, shuningdek, Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida qurultoy o'tkaziladi. Qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi.

Markazlashgan davlatning tashkil etilishi. Amir Temur davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. U 1370-yil iyul oyida Samarqandda qurultoy chaqirdi. Qurultoyda Shibirg'on hokimi amir *Zinda Chashmdan* boshqa Movarounnahrning barcha amirlari va qabila boshliqlari to'plandilar. Ikki daryo oraliq'ida yashovchi turk-mo'g'ul qabila boshliqlari, barcha amirlar Amir Temur hokimiyatini tan oldilar. Samarqand davlat poytaxti deb e'lon qilindi. Samarqandda mustahkam devorlar, qal'alar hamda saroylar barpo etiladi. Amir Temur mamlakatda qonun va tartib ishlarini

joriy qiladi. Maxsus qo'shin tuzib, unga katta imtiyozlar beradi. Amir Temur yirik harbiy bo'linmalarning boshliqlari etib *Ardasher Qavchin*, *Joku Barlos*, *Iskandar A'lam Shayx*, *Usmon Abbos*, *Sayfiddin Barlos*larni tayinladi. Tajribali harbiylar sipohsolorlikka tayinlandi. 1370-yiliyiq Shibirg'on bo'ysundirildi. Zinda Chashm Amir Temur xizmatiga o'tdi.

Amir Temur sharqiy hududlarni mo'g'ullar ta'siridan ozod etish uchun Sharqiy Turkiston tomon bir necha marta yurish qilib, Mo'g'uliston xonlariga zarba berib, Farg'ona vodiysi hududlarini, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayramni o'z tasarrufiga oldi. Hisor, Badaxshon, Qunduz kabi viloyat amirlari ham Amir Temur hokimiyatini tan olib, unga bo'ysundilar. 1381-yili Hirot, Seiston, Mozandaron egallandi. Shundan so'ng Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlari jangsiz Amir Temurga bo'ysundi va uning tasarrufiga o'tdi. Shu tariqa butun Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi.

Amir Temur saltanati bilan Oltin O'rda xonligi oralig'ida bu davrga kelib mustaqil bo'lib olgan Xorazm davlati qaror topgan edi. Qadimdan iqtisodiy va madaniy jihatdan Movarounnahr bilan bevosita bog'liq bo'lgan Xorazm mo'g'ullar davrida ikki qismga ajralib, markazi Urganch shahri bo'lgan Shimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat qal'asi bo'lgan Janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusiga bo'ysundirilgan. XIV asming 60-yillari oxirida Oltin O'rdada yuz bergan g'ala-yonlar vaqtida Qo'ng'iro't so'fiylari Shimoliy Xorazmda yangi sulolaning mustaqil hukmronligini tiklab oladilar. So'ngra Kat va Xiva shaharlarini egallab, Shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar. Amir Temur esa butun Xorazmni Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi. Shuning uchun u Xorazmni o'z davlatiga qo'shib olish siyosatini tutdi.

Amir Temur 1372-yildan boshlab Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi, Xorazm 1388-yili uzil-kesil bo'ysundirildi.

Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib yirik markazlashgan davlat tuzdi. Bu ulkan hududda yashovchi xalqlarning birlashuvi ular taqdirida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

8.3. Amir Temurning harbiy yurishlari

Mamlakat xavfsizligi yo'lida. Amir Temur saltanatiga xavf solib turuvchi kuchlar hali bartaraf etilmagan edi. Bir tomondan, Mo'g'uliston xonlari Chig'atoy ulusini birlashtirishga intilib tinchlik berishmasdi. Ikkinchi tomondan, Oltin O'rda va Oq O'rdaga bo'linib ketgan Jo'ji ulusi xonlari ham shimoliy hududlar hamda Xorazm tomondan xavf solib turardi.

Biroq bu davrda Amir Temur davlati uchun eng kuchli xavf Oq O'rda va Oltin O'rdalar tomonidan edi. Avval Amir Temur Oltin O'rdaga zarba berib uni

kuchsizlantirishga harakat qiladi. Lekin u Jo'ji ulusini o'z davlatiga qo'shib olish niyatida emas edi. Amir Temur Oltin O'rdaning Movarounnahrda tutashgan sharqiy qismini o'z ta'siri ostiga olish hamda uning poytaxti Saroy Berka orqali o'tadigan karvon yo'lini Movarounnahr tomon burib yuborishni ko'zlaydi.

Amir Temur o'z maqsadini amalga oshirish uchun Jo'ji ulusidagi o'zaro ichki kurashdan uddaburonlik bilan foydalanadi. Oltin O'rdada toj-taxt uchur ayovsiz kurash boshlangan edi. Bunday sharoitda ba'zi chingiziyalar turli tomonlarga qochib jon saqlaganlar. Ulardan biri To'xtamish Oq O'rdadan qochib Samarqandga keldi. Amir Temur unga izzat-hurmat ko'rsatdi, oxir-oqibatda u Amir Temur yordamida Oltin O'rda taxtini egalladi.

Amir Temur va To'xtamish. Keyinchalik To'xtamish xoinlik yo'liga kiradi. U Amir Temurga qarshi ochiqdan ochiq kurashga o'tadi. Natijada Amir Temur To'xtamishga qarshi uch marta qo'shin tortishga majbur bo'ladi.

So'nggi shiddatli jang 1395-yilning 15-aprelida Shimoliy Kavkazda *Tarak* (Terek) daryosi bo'yida sodir bo'ldi. Shiddatli muhoraba (to'qnashuv, jang) uch kun davom etdi. Bu safar Amir Temur qo'shini dushmanga qarshi otdan tushib, uni kamondan o'qqa tutish usulini qo'lladi. O'q va qilich zarbiga chiday olmagan To'xtamish qo'shinining safi buzilib, orqaga chekindi va tarqalib ketdi. To'xtamishxon sanoqligina askari bilan qochib changalzorga kirdi va ta'qib etib kelayotgan askarlardan bekindi. Rusiya tarixchilari *B.D.Grekov* va *A.Y.Yakubovskiyning* ta'kidlashicha, Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi faqat O'rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek, Rus knyazliklarining birlashishi uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi.

Eron, Iroq, Shom, Hindistonga yurish. Amir Temur o'z saltanatining janubiy chegaralarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ustiga uch marta askar tortadi. Bu yurishlar tarixda uch yillik, besh yillik va yetti yillik urushlar deb nom olgan. Uch yillik (1386 – 1388) harbiy yurishlar natijasida Eron (Fors), Janubiy Ozarbayjon Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi (Van ko'li atrofidagi) yerlar egallanadi. Amir Temur o'z ixtiyori bilan taslim bo'lib, moli omon to'lagan shaharlarga tegmagan, qo'shinlarni bunday shaharlarga kiritmagan.

Erondagi muzaffariylar, jaloyiriylar sulolasi vakillarining ayirmachilik harakatlari, Mozandaron, Janubiy Eronda ko'tarilgan qo'zg'olonlar Amir Temurning Eronga yana yurish qilishiga olib keldi. Bu besh yillik (1392 – 1396) urush davomida G'arbiy Eron, Iroq, Ajam va Kavkaz egallanadi. 1398 – 1399-yillarda Hindistonga yurish qiladi va Dehlini egallaydi.

1399 – 1404-yillarda Eron, Old va Kichik Osiyoga bir necha bor yurish qilindi. Bu yurish tarixga yetti yillik urush nomi bilan kirgan.

Keng ko'lamli harbiy yurishlar natijasida Sohibqiron Amir Temur saltanatining chegarasi Usmonli turklar davlati chegarasiga borib taqaldi. Amir Temur Usmonli turklar sultoni Boyazid Yildirim bilan munosabatni yaxshilash tarafdori bo'lgan. Ziddiyatlarni diplomatik yo'l bilan hal qilish maqsadida ikki tomon o'rtasida to'rt marta xat almashish tashabbuskori bo'lgan. Sulton Boyazid esa har safar qaysarlik, manmanlik qilgani, hatto Amir Temur nomiga nomaqbul so'zlarni ham yozganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Boyazid qoraqo'yunlilar, muzaffariylar, jaloyiriylarning Amir Temurga qarshi harakatlarini qo'llab-quvvatlagan. Shu omillar tufayli bu ikki davlat o'rtasida to'qnashuv yuz berishi muqarrar bo'lib qoldi.

Anqara jangi. Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo'shinlari o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida, *Chubuuq* mavzeyida sodir bo'ladi. Bu jang tarixda «*Anqara jangi*» deb ataladi. Uch kun davom etgan bu jangda har ikki tomondan hammasi bo'lib 360 ming nafar, shu jumladan, Sohibqiron Amir Temurning taxminan 200 ming, usmonlilar sultonining 160 ming askari qatnashadi. Janggohning qulay qismiga joylashtirilgan qo'shinning markaziy qismiga Amir Temurning o'zi qo'mondonlik qiladi. Uzoq davom etgan shiddatli jangda Sohibqiron kuchlari turk qo'shinini tor-mor etadi. Sulton Boyazid asirga olinadi. Uning bilan birga o'g'li *Muso Chalabiy* ham asirga tushadi. Amir Temur rumlik askarlarni ta'qib etib Bursa va O'rta yer dengizining sharqiy sohilida joylashgan *Izmir* shahrini zabt etadi va salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohiga barham beradi. Amir Temurga Misr ham o'z itoatkorligini izhor etadi. Vizantiya va boshqa nasroniylik olamidani Boyazidga beriladigan bo'lar endi Amir Temurga to'lanadigan bo'ldi.

Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli *Karl VI* (1380 – 1422), Angliya qiroli *Genrix IV* (1399 – 1413) hamda Kastiliya va Leon qiroli *Genrix III* (1390 – 1407) tabriklab, unga o'z muboraknomalarini yuboradilar. Chunki Sohibqiron endigina uyg'onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgan Amir Temur 1404-yilning 27-noyabrida 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning to'satdan vafot etib qolishi (1405-yil 18-fevral) tufayli amalga oshmay qoldi.

Amir Temurning Vatanimiz va jahon tarixida tutgan o'rni. Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Elsuvi

daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi. U nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo'ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi. *Bag'dod*, *Darband* va *Baylakon* shaharlari shular jumlasidandir. Karvon yo'llarida rabotlar, qal'alar, ko'priklar, shaharlarda masjid va madrasalar hamda bog'-u bo'stonlar barpo etdi. Eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, Sharq bilan G'arbni bog'lovchi qadimiy karvon yo'llarini tikladi. Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya, Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi.

Siyosiy tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini va mo'g'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida tanazzulga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulay sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda, xo'jalikning asosi bo'lgan sug'orma dehqonchilikda muayyan siljishlar ro'y berdi. Yangi-yangi kanallar qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi.

Sohibqiron Amir Temur mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida O'zbekistonda davlatchilikning yuksalishida muhim o'rin tutadi. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda «Sohibi jahon» hamda «Sohibi adl» – «Adolat sohibi» nomlari bilan ulug'lanadi. Xalqaro UNESCO tashkilotining tashabbusi bilan 1996-yili Amir Temurning tavallud kuni keng miqyosda nishonlandi va shu yil «*Amir Temur yili*» deb e'lon qilindi.

8.4. Amir Temur saltanatining ma'muriy va harbiy tuzilishi

Saltanat boshqaruvi. Sohibqiron Amir Temur o'z zamonasining talab-eh-tiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo'lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta'minlash nazarda tutilgan edi.

Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan: *dargoh* va *vazirlik*dan (devon) iborat bo'lgan. Dargohni oliy hukmdorning o'zi boshqargan. Ijroiya hokimiyat devonni devonbegi (bosh vazir) boshqargan. Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri faoliyat yurit-

gan. Bundan tashqari, sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lib, ular devonbegiga hisobot berib turgan.

Markaziy hokimiyat tizimida *shayxulislom*, *qozikalon*, *sadri a'zam*, *dodxoh*, *yasovul*, *muhassil*, *tavochi*, *muhtasib* va boshqa amaldorlar xizmat qilgan.

Dargohda *bosh hojib*, *xazinabon*, *xonsolar*, *qo'shchi*, *bakovul*, *kotiblar*, *bitikchilar*, *tabiblar*, *sozandalar*, *dasturxonchilar* xizmatda bo'lgan.

Suyurg'ol yerlar. Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi o'lkalarni o'g'il-lari, nabiralari va xizmat ko'rsatgan amirlarga suyurg'ol tarzida in'om qilib, ular orqali boshqardi. Movarounnahrda tashqari o'z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur o'limidan biroz avval o'g'il va nabiralari orasida bunday taqsimlaydi: Ozarbayjon, G'arbiy Eron, Iroq, Armaniston, Gurjistonni *Mirzo Umar ibn Mironshohga*, Forsni *Pirmuhammad ibn Umarshayxga*, Xuroson, Mozandaron, Ray va Seistonni *Shohrux mirzoga*, Sulton Mahmud G'aznaviy mulkini Kobul va Qandahordan Shimoliy Hindistongacha Sind daryosi havzasi bilan birga *Pirmuhammad Jahongirga*, Toshkent, Sayram, O'tror va Ashparadan to Xitoy chegarasigacha *Ulug'bekka*, Farg'ona, Tarozdan to Xo'tangacha, ya'ni Sharqiy Turkistonning janubi-g'arbini *Ibrohim sultonga* berdi.

Uluslar markaziy hukumatga itoat etsalar-da, ammo ular ma'lum mustaqillikka ega edilar. Ulus hukmdorlarining alohida davlat devonxonasi, qo'shini mavjud edi. Ularning markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o'z qo'shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi.

Qo'shin tuzilishi. Amir Temur davlat mustaqilligi hamda muhofaza yo'lidagi ichki va tashqi siyosatida asosan qo'shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi.

Amir Temur qo'shini o'ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi. Lashkar *tuman* – o'n minglik, *hazora* – minglik, *qo'shun* – yuzlik va *ayl* – o'nlik birikmalariga bo'lingan. Amir Temur o'n minglik askarni boshqarish uchun *tuman og'asi*, minglik bo'linmalar uchun *miri hazora*, yuzliklar uchun *qo'shunboshi*, o'nliklar uchun esa *aylboshi* kabi harbiy mansablarni ta'sis etadi. Ularning haq-huquqlari oylik maoshining darajasiga mos ravishda belgilab beriladi. Janglarda bahodirlik ko'rsatib, g'alaba qozongan amir uchun in'omlar ham belgilab qo'yilgan. Biron qo'shinni yenggan, biror mamlakat yoki viloyatni zabt etgan amir bahodirlik martabasi, davlat kengashlariga bemalol kirish huquqi hamda biron sarhadning noibligi bilan siylangan. Askariy qismlarni viloyatlardan to'plash bilan *tavochi* mansabidagi amaldorlar shug'ullanar edi.

Jangga kirish usuli. Harbiy yurish paytida oldinda xabarchilar, undan orasidan yasovul bo'linmasi, undan keyinroqda manglay – avangard qis borardi. Manglay bilan qo'shinning asosiy qismlari oralig'ida esa qo'mon donning qarorgohi va uning yon-atrofida zaxira (rezerv) qismlar joylashgan bo'lib, u «*izofa*» deb yuritilgan.

Amir Temur qo'shinining asosiy jangovar qismlari markaz, o'ng – biron g'or va chap – juvong'or qanotlaridan iborat bo'lgan. Har bir qanotning oldida bittadan qo'shimcha qo'riqchi manglay avangardi, yon tomonida esa bittadan qo'riqchi askariy qo'shilmalar – *qanbullar* bo'lar edi. Shu tariqa qo'shin yetti qism – qo'llardan iborat edi. Sharafiddin Ali Yazdiy qo'shinni yetti qo'lga bo'lgan qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib Amir Temur joriy qilgan deb yozadi. Bu qo'llar janglarda mustaqil harakat qilib, faqat qo'shin qo'mondoni bo'ysungan. Amir Temur jang qilishning yangi harbiy uslublarini qo'llagan.

«*Temur tuzuklari*». Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u «*Temur tuzuklari*» nomi ostida shuhrat topadi.

Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalari faoiliyatining tartibi – tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tayinlash tartiblari belgilab berilgan. Amir Temurning «... *davlat ishlarining to'g'ri ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim*»; «*Kuch adolatdadur*» degan so'zlari uning mamlakatni aql-zakovat va adolat bilan boshqarganligidan guvohlik beradi.

Shunday qilib, Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqarish va harbiy san'atida o'ziga xos usul yaratib, shu asosda barpo qilgan davlati bilan dunyo davlatlari ol qoldirdi.

8.5. Mamlakat obodonchiligi yo'lida

Shahar obodonchiligi. Amir Temur o'z davlatining shon-shuhrati uchun uning markaziy qismi bo'lgan Movarounnahrning, ayniqsa, poytaxt Samarqandning obodonligiga alohida ahamiyat beradi. Uning har bir zafarli voqeari sevinchli hodisani muhtasham me'moriy obida barpo etish bilan nishonlash odati bo'lgan. Shu maqsadda Hindistondan olib kelingan yuzlarcha mo'ljalg'isht teruvchilar, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmanlari qatorida mahalliy ustalar ham mamlakatda go'zal imorat-u inshootlar bino qiladilar. Amir Temur Tabrizda *masjid*, Sherozda *saroy*, Bag'dodda *madrasa*, Turkistonda mashhur Ahmad Yassaviy qabri ustiga *maqbara* bino qildirdi.

Amir Temur Shahrisabzda otasi va o'g'li Jahongirning qabri ustiga *maqbara* qurdirdi, katta jome masjidini bunyod etdi. Shahrisabzda dunyo

ga dong'i ketgan mashhur Oqsaroy qad ko'tardi. Oqsaroyning koshinkor va parchinkor peshtoqining guldor naqshlari orasiga «*Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq*» degan xitobnoma bitilgan. Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasini bino qilishda ham shunday maqsad nazarda tutilgan.

Samarqand – davlat poytaxti. Mo'g'ullar bosqini davomida butunlay vayron etilgan Samarqand shahri Amir Temur davrida o'zining qadimgi o'rnidan birmuncha janubroqda qayta quriladi. Shahar tevaragi Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali mustahkam yangi qal'a devor bilan o'rab chiqiladi. Shahar arkida Amir Temurning qarorgohi – Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy bino qilindi. Ko'ksaroy to'rt qavatli bo'lib, gumbazlar va devorlari zangori koshinlar, naqshinkor va guldor parchinlar bilan qoplangani uchun shunday nom bilan shuhrat topadi. Ko'ksaroyda xonlarni podsholik taxtiga o'tqizish marosimi vaqtida ularni oq kigiz ustiga olib o'tqizadigan toshdan taxt kursi – Ko'ktosh qo'yilgan edi. Bundan tashqari, arkda davlat devonxonasi, qurol-yarog'lar yasaydigan ustaxona va aslahaxona, tangalar so'qiladigan zarbxona, qamoqxona kabi imoratlar joylashgan edi.

Samarqandda saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog'-rog'lar barpo etiladi. 1404-yili Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi *Klavixo* Amir Temurning olib borayotgan binokorlik ishlaridan hayratda qolgan edi. Xuddi shu davrda Shohizinda me'moriy yodgorliklari majmuasidagi ba'zi ajoyib maqbaralar, hozirgi vaqtda Bibixonim nomi bilan mashhur bo'lgan Jome masjidi va boshqalar bino qilinadi.

Bu davrda Samarqandda yangi binolardan tashqari turli-tuman kasbdagi hunarmandlar mahallalari paydo bo'ladi. Amir Temur bu mahallalardagi hunarmandlar uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan edi.

Amir Temur bog'lari. Amir Temur Samarqand atrofida ko'pgina go'zal bog'lar barpo qildi. Mohir me'mor, tajribali sahibkorlarning aql-zakovati, mehnati-yu mahorati bilan yaratilgan *Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Bihisht, Bog'i Baland, Davlatobod, Bog'i Nav, Bog'i Shamol, Bog'i Jahonnamo, Bog'i Maydon* kabi chorbog'lar va ulardagi go'zal ko'shklar o'sha davr bog'dorchilik san'atining yuksak namunalaridandir. Tuzilishiga ko'ra bog'lar 2 turga bo'lingan. Birinchi turdagi bog'lar har tomoni taxminan 1 km masofadan cho'zilgan to'rtburchak shakldagi chorbog'lardir. Ikkinchi turdagisi tabiiy daraxtzor va chakalakzorlardan iborat ovloqlardir. Bunday ovloqlar hukmdor shikor (ov) qilishi uchun mo'ljallangan.

Shaharning sharq tomonida Bog'i Dilkusho joylashgan. Uning tashqi hovlisida hashamatli saroy bo'lib, unda qurollangan askarlar turgan, ichki

hovlida esa tug'lar bilan bezatilgan olti fil haykallari safga terilgan. Uchinchi hovli Amir Temurning mehmonlarni qabul qiladigan oltin taxtli qarorgohi bo'lgan. Amir Temur Klavixonani ana shu bog'da qabul qilgan. Qolgan bog'lar ham o'ziga xos ajoyib usulda barpo etilgan edi.

Ichki va tashqi savdo. Bu davrda Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan, Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari qurilib, dehqonchilik maydonlari kengaytiriladi. Yangi-yangi qishloqlar barpo etiladi. Amir Temur o'z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari: Dimishq (Damashq), Misr (Qohira), Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Chunki Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmug'i lozim edi.

Tashqi savdoda ham Samarqand katta o'rin tutgan. Samarqandga turli mamlakatlardan, xususan, Xurosondan ma'danlar, Hind va Sinddan yoqut, olmos, Xitoydan atlas, choy, mushk va boshqa mollar, o'zga mamlakatlardan oltin va kumush olib kelinardi. Klavixoni Xitoy poytaxti Xonbaliqdan 800 tualik savdo karvoni kelganini o'z kundaligida qayd etgan.

Bu davrda Amir Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan O'rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga boradigan xalqaro savdo yo'li – Buyuk ipak yo'lida savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar ko'rganlar. Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalari kengaydi. Bu esa Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalari barqarorligiga olib keldi.

8.6. G'arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqalar

Xalqaro siyosiy vaziyat. Sohibqiron Amir Temur jahon siyosiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, bu davrda, bir tomondan, sulton Boyazidning Bolqon yarimoroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib, butun Yevropaga xavf solayotgan edi. Ikkinchi tomondan, Boyazidning o'zi G'arbga tomon shiddat bilan siljib borayotgan xavfli raqib – Amir Temurning kuchli tazyiqiga duchor bo'lgandi. Bunday siyosiy vaziyatda Boyazidga qarshi kuchlarning ma'lum darajada birlashuvi tabiiy edi.

Avvalambor, Boyaziddan yengilib, o'z yer va mulklaridan mahrum bo'lgan Kichik Osiyo mamlakatlarining hukmdorlari Amir Temurdan madad istab, uning *Qorabog'*dagi o'rdagohiga borib qaror topadilar. Hatto Vizantiya va G'alatadagi Genuya hokimining noibi, Fransiya qiroli hamda Sultoniya shahrining katolik missionerlari yordam so'rab Amir Temurga murojaat qiladilar. Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga yordam berish

hamda Konstantinopol va Peraning Boyazidga to'lab kelgan bojini bundan buyon Amir Temurga to'lashni va'da qiladilar. Bunday taklif Amir Temurga ma'qul tushadi. Chunki Turkiyaning dengiz sohilidagi tayanchidan ajratish uchun unga dengizdan madad zarur edi. Shunday qilib, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida sulton Boyazidga zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyat vujudga keladi. Bu vaziyatdan Amir Temur ustalik bilan foydalanadi.

Davlatlararo yozishmalar. Bu davrda Amir Temur Boyazid bilan o'zaro diplomatik yozishmalar olib borish bilan bir qatorda bo'lajak to'qnashuvda Trapezund va Konstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venetsiyaga sovg'a-salomlar hamda maktublar bilan elchilar yuboradi.

O'zaro yordam masalasida Amir Temur Konstantinopol noibi *Ioann VII Paleolog* bilan ham yozishmalar olib boradi. Amir Temurning 1402-yil 15-may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yo'llagan xatining mazmuniga qaraganda, Konstantinopol noibi va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashda Amir Temurga xizmat qilish bilan yordam berish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar. Buni Ispaniya elchisi Klavixox ham o'z kundalik daftari-da qayd qilib o'tadi.

Bu davrda Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV, Kastiliya va Leon qiroli Genrix III de Trastamaralar bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, yozishmalar olib boradi. Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulklarini, ayniqsa, G'alatadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun Karl VI, o'z navbatida, Amir Temurdan madad kutar va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga urinar edi. Amir Temur va Karl VI yozishmalarida qayd etilishicha, Sohibqiron qirolni qo'llab-quvvatlaydi. Anqara yaqinida turklarning 160 ming kishilik qo'shini ustidan qozonilgan buyuk g'alabadan so'ng Amir Temurning G'arbiy Yevropa davlatlari bilan bo'lgan aloqalarining mazmuni tubdan o'zgaradi. Endilikda Amir Temur ular bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash va o'zaro savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yish kabi masalalarga ahamiyat beradi.

Elchilik aloqalari. Amir Temur 1402-yil yozida Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali Karl VI va Genrix IV nomlariga maktublar yo'llaydi. Elchilar Parijga 1403-yil may oyida yetib boradilar. Elchilar ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlari olib borilishini ta'minlash va agar qiroli hamda gersoglar rozi bo'lsalar, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni taklif etadi. Shuning uchun ham Sohibqiron Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan maktubida bu haqda quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: «*Bundan keyin sizning (odamlaringiz) bizning yerlarimizga va bizning (kishilarimiz) sizning o'lkangizga*

o'tgan ajdodlarimiz davridagidek borib-kelib tursalar, sizning va bizning nomimizni hamma joyda olqishlab tursalar, mamlakatimiz savdogarlari uchun foyda keltirishsa, ko'p xursand bo'lar edik. Shuni aytish kerakki, endilikda bizning yurtimizda savdogarlaringizning xavfsizligi ta'minlanadi».

Fransiya qiroli Karl VI 1403-yil 15-iyunda Amir Temurga yo'llagan javob maktubidan ma'lum bo'lishicha, Amir Temur takliflari Fransiya tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilingan.

Xuddi shu davrda Amir Temurning Angliya qiroli Genrix IV bilan olib borilgan diplomatik munosabatlarida g'arbiy viloyatlar hokimi *Mironshoh* faol qatnashdi. G'arbiy Eron, Iroq, Ozarbayjon, Armanistonni o'z ichiga olgan mulklar hokimi *Mironshoh* Amir Temurning keksayib qolgan davrida G'arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan o'zaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida nasroniy ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu sababli G'arbda *Mironshoh* tez orada «katolik oqimining homiysi» sifatida shuhrat qozondi.

Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III Sharq bilan juda qiziqib qolgan edi. 1402-yilning bahorida dastlab Ispaniya elchilari Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga Amir Temur va Boyazidlarning kuch-qudrati, boyligi va qo'shinining sonini bilish hamda ular qo'l ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatları, dini va qonunlari haqida aniq ma'lumotlar to'plash topshiriladi. Sharq va G'arb davlatlarining elchilari qatorida Ispaniya elchilari ham Amir Temur tomonidan qabul qilinib, qirol nomiga yozilgan maxsus maktub va in'omlar bilan kuzatiladi. Ularga qo'shib Amir Temur *Muhammadqozi* ismli o'z vakilini Ispaniyaga elchi qilib yuboradi. Genrix III 1403-yili Amir Temur huzuriga ikkinchi marta maxsus elchilarni yuboradi. Unga Klavixo boshliq qilib tayinlanadi. 1403-yil 21-mayda Ispaniyadan jo'nab ketgan elchilar Samarqandga keladilar. Ispaniya elchilari Samarqandda Amir Temur tomonidan tantanavor qabul qilinadi, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatadilar.

Klavixo boshliq Ispaniya elchilari 1404-yilning sentyabr – noyabr oylarida Samarqandda bo'ladilar. Amir Temurning Xitoy tomonga yurishi munosabati bilan boshqa ko'pgina davlatlarning elchilari kabi Ispaniya elchilari ham 1404-yilning 21-noyabrida Samarqanddan jo'natib yuboriladi. Klavixo Ispaniyaga 1406-yilning mart oyida qaytib boradi. Klavixoning safar taassurotlari «*Buyuk Temur tarixi*» va «*Temur qarorgohi*», «*Samarqandga sayohat kundaligi*» nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi.

8.7. Amir Temur vorislari o'rtasida taxt uchun kurash va uning oqibatlari

Taxt uchun kurash. Sohibqiron 1405-yil 18-fevral kuni Xitoy tomon yurish vaqtida, qahraton qishda, O'tror shahrida vafot etadi. Amir Temur vafot etgach, uning bir necha o'n yillar davomidagi sa'y-harakatlari natijasida barpo etilgan yirik saltanat parchalana boshladi. Buning asosiy sababi saltanat tasarrufiga olingan yurtlar shu qadar xilma-xil, uzoq masofalarga cho'zilgan bo'lib, ularni yagona bir markazdan turib boshqarish murakkab edi. Buning ustiga, ulardagi muxolifatchi kuchlar ajralib chiqish uchun qulay payt kutardilar.

Saltanatning parchalanishiga Amir Temur vorislari o'rtasidagi toj-taxt ilinjida uzoq yillar davom etgan o'zaro ziddiyat va urushlar sabab bo'ldi.

Amir Temur vafoti oldidan taxt vorisi etib nabirasi *Pirmuhammadni* (Kobul, Qandahor va Hindiston viloyatlarining hukmdori) tayinlagan edi. Pirmuhammadni taxtga o'tqizish tarafdorlari kuchli bo'lsa-da, biroq Mironshohning o'g'li *Xalil sulton* o'zboshimchalik bilan 1405-yilning 18-mart kuni Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qiladi. Pirmuhammadning yo'lini to'sib, uning rejalarini buzib yuborish niyatida hatto Amudaryoning o'ng tomonidagi yerlarni ham o'z hokimiyatiga qo'shib oladi.

Xalil sulton garchi bobosidan qolgan xazinalar vositasida Sohibqironning nufuzli a'yon va kibarlaridan ma'lum qismini o'z tarafiga og'dirib Movarounnahr taxtini egallagan bo'lsa-da, ammo ko'p vaqt o'tmay Amir Temurning sadoqatli amirlari, viloyat noiblari va shahzodalarning kuchli noroziligi va isyoniga duch keladi. Birinchi bo'lib Turkiston hamda Farg'onaning hokimi *amir Xudoydot* bilan *Shayx Nuriddin* Xalil sultonga qarshi isyon ko'taradilar. Hatto Xalil sultonning ukasi *Sulton Husayn mirzo* Amudaryoning chap sohilidagi viloyatlarda o'z hokimiyatini o'rnatmoq niyatida akasiga qarshi bosh ko'taradi. O'z navbatida, Amir Temur taxtining qonuniy valiahdi Pirmuhammad Amudaryodan kechib o'tib, Xalil sultonga qarshi Nasaf tomonga askar tortadi. Movarounnahrda boshlangan sulola kurashlari shu tariqa avj olib ketadi.

Oqibatda Xurosonda Shohrux, Balx, G'azna va Qandahorda Pirmuhammad, G'arbiy Eron va Ozarbayjonda Mironshohning o'g'illari *Umarshayx mirzo* bilan *Abu Bakr mirzo* hokimi mutlaq bo'lib oladilar. Sirdaryodan shimoldagi viloyatlar: Turkiston, Sabron, O'tror, Sayram *amir Berdibekning* tasarrufida qoladi. O'ratepa bilan Farg'onani *amir Xudoydot* Husayniy egallab oladi. Xorazmni esa Oltin O'rdaning nufuzli amirlaridan *Idiku* bosib oladi. Pirmuhammad 1407-yil 22-fevralda vaziri *Pir Ali Toz* boshliq fitnachilar qo'lida halok bo'ladi. 1408-yil 22-aprel kuni qoraqo'yunli turkmanlarning qabila boshlig'i *Qora Yusuf* bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'ladi. Ozarbayjon va Iroq viloyatlari temuriylar qo'lidan ketadi.

1409-yil bahorida Movarounnahrda vaziyat yanada keskinlashadi. Amir Xudoydot O'ratepa va Shohruxiya shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi. Sheroz yaqinidagi Zarafshon daryosi bo'yida sodir bo'lgan jangda Xalil sulton qo'shini mag'lubiyatga uchraydi, o'zi esa asir olinadi.

Shohrux hokimiyatining qaror topishi. Shu davrda Xurosondagi amirlar isyonini bostirishga ulgurgan Shohrux endilikda butun e'tiborini Movarounnahrqa qaratadi. Chunki u ota yurtidagi hodisalarga loqayd qaray olmasdi. 1409-yil 25-aprelda u Amudaryodan o'tib, Samarqand sari yurish qiladi. Qariyb besh yil davom etgan o'zaro kurash va isyonlar xalqning jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan edi. Temuriyzodalar va amirlar o'rtasidagi kurashga xotima berish maqsadida Shohrux boshlagan harakat mamlakat fuqarolarining ko'pgina tabaqalari tomonidan quvvatlanadi. Shu bois Movarounnahrda beboshliklarga chek qo'yilib, Movarounnahr va Xurosonda o'z hukmronligini o'rnatadi hamda mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga muvaffaq bo'ladi.

Shohruxning uzoq hukmronligi davrida Amir Temur saltanatining asosiy qismi uning qo'li ostida saqlanib qolsa-da, ammo bu ulkan mamlakat ikki davlatga bo'lingan edi. Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan Shohrux boshchiligidagi davlat bo'lib, uning markazi Hirot shahri edi. Ikkinchisi esa Amudaryodan shimolda Movarounnahr va Turkiston hududida Ulug'bek boshchiligidagi davlat bo'lib, Samarqand uning poytaxti edi.

8.8. Ulug'bek – ma'rifatparvar davlat arbobi

Ulug'bek – Movarounnahr hukmdori. 1409-yili Shohrux Samarqanddan Hirotga qaytish oldidan o'n besh yoshli Mirzo Ulug'bekni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlaydi. Ulug'bek (1394 – 1449) garchi Movarounnahr bilan Turkistonning hokimi deb e'lon qilinsa-da, aslida, uning hokimiyati chegaralari dastavval faqat Samarqand, Buxoro va Nasaf viloyatlari bilangina cheklanardi. Chunki Shohrux tomonidan Farg'onadan to O'zgangacha *Amirak Ahmad*, Hisoni Shodmon esa *Muhammad Jahongir* ixtiyoriga berilgan edi. Turkiston Shayx Nuriddinning tasarrufida edi. O'sha vaqtda u na Ulug'bek, na Shohruxni tan olardi. Shuning uchun ham mamlakat notinch edi.

Shayx Nuriddin Turkiston bilan qanoatlanmaydi. 1410-yili u *Muhammad Jahongir*, Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi *Amir Abdulxoliq* hamda oq o'rdalik xonzodalardan *Chingiz o'g'lon* bilan ittifoq tuzib, temuriylarga qarshi isyon ko'taradi. 1410-yil 20-aprelda Samarqand yaqinida *Qizilravot* mavzeyida isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug'bek qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Jangda Ulug'bek mag'lubiyatga uchrab, Kalifga tomon cheki-

nadi. Shohrux Samarqandga yetib kelib, Shayx Nuriddin isyonini bostiradi. 1412-yildan boshlab Movarounnahr va Turkistonni to'liq boshqarish 18 yashar Ulug'bek qo'lga o'tadi.

Ulug'bek 1414-yili Farg'ona va Qoshg'arni egallaydi. 1413-yili Shohrux tomonidan Xorazm Oltin O'rda xonlari tasarrufidan qaytarib olingach, Ulug'bek davlatining g'arbiy va janubiy chegaralarining xavfsizligi barqarorlashgan bo'lsa-da, ammo uning shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy tomonlari hali xavotirli edi. Shu sababli Ulug'bek Dashti Qipchoqda boshlangan o'zaro nizoga hamda Mo'g'ulistonda avj olgan ichki kurashlarga jiddiy e'tibor berishga va aralashishga majbur bo'ladi.

Ulug'bek otasining rizosi bilan 1425-yilning erta bahorida Mo'g'uliston ustiga yurish boshlaydi. *Issiqko'l* yaqinida sodir bo'lgan to'qnashuvda Ulug'bek mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonadi va mahalliy muxolifatchi kuchlarni bartaraf etib mamlakat sharqiy chegaralarini mustahkamlaydi. Qo'lga kiritilgan o'ljalor orasida ikki bo'lak nefrit toshi ham bor edi. Keyinchalik bu nefritdan Amir Temur maqbarasi uchun qabrtosh yasattiradi.

Mo'g'ulistonda bo'lgan bu urushda Ulug'bek qozongan g'alabani nishoni tarzida Jizzax yaqinida *Ilono'tti* darasi ichida hijriy 828-yili (1425) Ulug'bek tomonidan qoyatoshga yozdirilgan o'ziga xos «zafarnoma» hozirgi kungacha saqlangan.

Dashti Qipchoqqa qarshi qilingan yurishda esa Ulug'bekning omadi kelmaydi. Otasi Shohruxning katta qo'shin bilan yetib kelishigina Ulug'bekni halokatdan saqlab qolgan.

Taxt uchun kurash. Shohrux 1447-yil 12-mart kuni nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida o'rniga voris belgilashga ulgurmay olamdan o'tadi. Shohrux vafot etishi bilan oq Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun kurash yana avjga minib, mamlakat beqarorlik va chuqur ijtimoiy-siyosiy larzalarga duchor bo'ldi. Odatga ko'ra taxtga Shohruxning to'ng'ich o'g'li Ulug'bek o'tirishi kerak edi. Ammo taxtni Boysung'urning o'g'li *Alouddavla* egallaydi. Toj-u taxt uchun yana kurash boshlanadi.

O'zboshimcha shahzodalar Ulug'bekka qarshi harakat boshlaydi va 1447-yilning bahorida Alouddavla Ulug'bekning katta o'g'li Abdullatifning qo'shinini tor-mor qilib, uni asirga oladi. Ulug'bek Alouddavla bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. Unga ko'ra, Abdullatif ozod qilinadi, Ulug'bek esa Hirot va Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechadi. Biroq ko'p o'tmay sulh buziladi. 1448-yilning bahorida Ulug'bek va Abdullatifning 90 ming kishilik birlashgan qo'shini Hirotga yurish qiladi. *Tarnob* yaqinida bo'lgan jangda Alouddavla qo'shini tor-mor keltirilib, Hirot qo'lga kiritiladi. Ulug'bek

Xurosonda Abdullatifni qoldirib, o'zi Samarqandga qaytadi. Chunki Movarounnahrda Ulug'bekka qarshi isyon boshlangan edi.

Abdullatif garchi bobosi Shohruxning Hirotdagi taxtiga o'tirishga erishsa-da, ammo unda otasiga nisbatan adovat paydo bo'ladi. G'alaba to'g'risida tevarak-atrofga yuborilgan fathnomalarda Abdullatifning nomi inisi Abdulazizdan keyin tilga olingani, *Ixtiyoriddin* qal'asidagi xazina Ulug'bek tomonidan olib qo'yilgani o'ta shuhratparast hamda mol-dunyoga o'ch Abdullatif uchun baho-na bo'ladi. U otasining dushmanlari bilan yashirin tarzda til biriktirib, zimdan Ulug'bekka qarshi harakat boshlaydi. Abdullatif Hirotda faqat *o'n besh* kun hokimlik qiladi. Abulqosim Bobur qo'shinining shaharga yaqinlashib kelayotganidan xabar topib poytaxtni jangsiz bo'shatib Movarounnahr tomon qochadi. Ulug'bek farmoni bilan Balxga noib qilib tayinlangach, viloyatda «tamg'a» solig'ini bekor qilib savdogarlarni o'z tarafiga og'dirib oladi. Otasidan norozi bo'lgan amirlarni atrofiga to'playdi. Hatto Abulqosim Bobur bilan bog'lanib, uni birlashib Ulug'bekka qarshi kurashga undaydi. Shunday qilib, Abdullatif o'z otasiga qarshi ochiqdan ochiq dushmanlik yo'liga o'tadi.

Ulug'bek fojiasi. Davlatning yaxlitligini saqlab qolmoq uchun Ulug'bekda o'zining isyonkor va makkor o'g'liga qarshi yurish qilishdan boshqa iloj qolmaydi. Ammo mamlakatda siyosiy vaziyat keskinlashib, Ulug'bekning ahvolini yanada mushkullashtiradi.

Hirotdan Samarqandga qaytar ekan, Ulug'bek old tomondan Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining hujumiga duchor bo'ladi. Abulxayrxon boshchiligidagi ko'chmanchilar o'shanda Toshkent, Shohruxiya, Samarqand va Buxoro tevaragidagi qishloqlarni talab, podshoh va yirik mansabdorlarning shahar atrofidagi chorbog'lari va ko'shklarini vayron qiladilar. Ikki tarafdin kelgan dushmanlar bilan bo'lgan to'qnashuvlar oqibatida Ulug'bek qo'shini qattiq shikast topib, zaiflashib qoladi. Shu vaqtda Samarqandda vaqtinchalik noib qilib qoldirilgan Ulug'bekning kichik o'g'li Abdulazizga qarshi Samarqand amirlarining noroziligi kuchayib, Ulug'bek uni bartaraf etishga majbur bo'ladi.

Otasining qiyin ahvolda qolganini kuzatib turgan Abdullatif qulay fursatdan foydalanib bosh ko'taradi va Amudaryodan kechib o'tib, Termiz, Shahrisabz va Xuzorni osongina zabt etadi. So'ngra Samarqandga qarab yo'l oladi. 1449-yil oktyabrda *Damashq* qishlog'i yaqinida qattiq jang bo'ladi, bu jangda Ulug'bek yengiladi, Samarqand amiri *Mironshoh Qavchin* shahar darvozalarini berkitirib Ulug'bekni ichkariga kirishga qo'ymaydi. U Shohruxiyaga ham kirolmaydi va Abdullatifga taslim bo'lishga majbur bo'ladi. Shahar qozisi *Shamsiddin Muhammad Miskinning* qarshiligiga qaramay, Abdullatif jaholatparast ulamolarning yashirin fatvosini chiqartirib, otasining o'ldirilishini uyushtiradi. 1449-yili Mirzo Ulug'bek 55 yoshida fojiali halok bo'ladi.

Shunday qilib, Ulug'bek Movarounnahrni qirq yil idora qildi. Bu davrda mamlakatning siyosiy hayotida keskin kurash davom etganligiga qaramay, davlatni mustahkamlashga, mamlakat birligini saqlab qolishga va madaniy hayotni ko'tarishga, rivojlantirishga harakat qildi.

8.9. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi

Siyosiy beqarorlik. Ulug'bek qatl etilganidan bir necha kun o'tgach Abdullatif taxt da'vogaridan qutulish maqsadida o'z inisi Abdulazizni hamda otasiga sodiq bo'lgan amirlarni o'ldirtirib, temuriylarning Movarounnahrda toj-u taxtini batamom egallab oldi. Mamlakat fuqarolari tomonidan «padarkush» («ota qotili») deb la'natlangan Abdullatif va uning tarafdorlari taxtda uzoq vaqt o'tirolmadi. Oradan olti yarim oy o'tar-o'tmas Abdullatfga qarshi saroyda fitna uyushtirilib, u o'ldirildi. Uning kallasi tanasidan judo qilinib, Registon maydonida Ulug'bek madrasasining peshtoqiga osib qo'yildi.

Muxolifatchi kuchlar Samarqandda Shohruxning nabirasi *Mirzo Abduloni*, Buxoroda Mironshohning nabirasi *Abu Said*ni hukmdor qilib ko'tarishadi. Oqibatda ular o'rtasida hokimiyat uchun yana kurash boshlanadi.

Movarounnahr va Xurosonda muttasil davom etib turgan o'zaro kurashlar Dashti Qipchoqdagi hukmdorlar uchun juda qo'l keladi. 1451-yili Abulxayrxon katta qo'shin bilan Abu Said yordami va ishtirokida Toshkent, Chinoz va Jizzax orqali Samarqandga Mirzo Abdulloga qarshi yurish qiladi. *Sheroz* qishlog'i yaqinidagi *Bulung'ur* anhuri yoqasida jang bo'ladi. O'zaro to'qnashuvda Mirzo Abdullo yengiladi va jangda halok bo'ladi. Shunday qilib, Abulxayrxonning yordamida Abu Said Samarqandni egallab, Movarounnahrda hokim bo'lib oladi.

Xuroson bu davrda Shohruxning nabirasi *Abulqosim Bobur* tasarrufida edi. Xurosonda siyosiy tarqoqlik juda avj olib ketadi. Temuriylar davri muarriflarining yozishicha, bu davrda Xuroson o'n bir bo'lakka ajralib ketadi. Ular o'rtasida urush-talashlar to'xtovsiz davom etardi. 1457-yili Abulqosim Bobur vafot etgach, vaziyat yana mushkullashadi. Xurosonda ham, Hirotida ham hokimiyatga da'vo qiluvchilar ko'p bo'lsa-da, lekin ularning birortasi davlatni idora qila oladigan kuchga ega emas edi. Bunday qulay vaziyatdan foydalangan Abu Said 1457-yili Hirot taxtini egallaydi va saltanatning har ikki qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Biroq viloyat hokimlarining mustaqil hukmronlikka intilishlariga, tarqoqlikka barham bera olmaydi. Ayniqsa, uni Abulqosim Bobur vafotidan keyin Xorazmni egallab olgan Umarshayx mirzo avlodi *Sulton Husayn*ning isyonlari hammadan ko'proq tashvishlantiradi.

1469-yilning erta bahorida Abu Said Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroq-gacha bo'lgan viloyatlarni egallab turgan turkmanlarga qarshi jangda halok bo'ladi. Otasi o'limidan so'ng Abu Saidning vorislari Sulton Husayn bilan to'qnashishga jur'at eta olmay Movarounnahrqa qaytadilar. 1469-yil 24-martda Sulton Husayn Xurosonning hokimi sifatida tantana bilan Hirotga kirib boradi. Natijada Temuriylar saltanati yana ikki mustaqil qismga: Sulton Husayn hukmronligidagi Xuroson va Abu Said o'g'li Sulton Ahmad hukmronligidagi Movarounnahrqa bo'linib ketadi.

Parokandalik. Movarounnahrda Abu Saidning o'g'illari: avval *Sulton Ahmad* (1469 – 1494), so'ng *Sulton Mahmud* (1494 – 1495), keyinchalik Mahmudning o'g'li *Sulton Ali* (1498 – 1500) mustaqil hokimlik qiladi. Biroq Movarounnahrda tarqoqlik yanada avj oladi. Bu vaqtda Movarounnahr o'zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar boshchilik qilib turgan ko'pdan ko'p viloyatlarga bo'linib ketgan edi. Mamlakat, el-yurt boshiga katta tashvishlar tushgan paytlarda din ulamolaridan biri *Xoja Ubaydulloh Ahror* musibatlarni daf qilish yo'lida bir necha bor jonbozlik ko'rsatgan edi. 1454-yili Hirot hokimi Abulqosim Bobur Movarounnahrqa bostirib kirib, Samarqandni qamalga olganida *Xoja Ubaydulloh Ahror* mojaroga qat'iyon aralashib, raqiblarni yarashtirdi.

Sulton Husayn va Alisher Navoiy. Sulton Husayn Boyqaro Amudaryoning janubidagi yerlarga hukmron bo'lib, o'z tasarrufida Xuroson, Xorazm hamda Sharqiy va Shimoliy Eron viloyatlarini birlashtirgan edi. U qariyb 40 yil hukm surgan temuriylarning so'nggi yirik hukmdori bo'lib, uning davrida, shahzoda va amirlarning boshboshdoqligiga qaramay, mamlakatning xo'jalik va madaniy hayoti yuksaldi. Xurosonning obod etilishida, ravnaq topishida zamonasining tadbirkor va dono hukmdori Sulton Husayn bilan bir qatorda buyuk adib va davlat arbobi Alisher Navoiyning ham xizmati nihoyatda katta bo'ldi.

Alisher Navoiy 1441-yili Hirotida dunyoga kelgan. Uning ota-bobosi temuriylar saroyida xizmat qilgan. Sulton Husayn bilan Alisher bir maktabda o'qiganlar. Ular bolalik chog'laridayoq Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur xizmatida bo'lganlar. Uning vafotidan so'ng 12 yil davomida boshqa-boshqa shaharlarda yashaganlar. Husayn bu davrda avval Xorazmda, so'ngra Xurosonning Obivard, Niso, Mashhad va boshqa viloyatlarida darbadarlikda yurib, kuch to'plab Abu Saidga qarshi isyonlar ko'taradi. Alisher Navoiy bu yillarda Mashhad va Hirotida o'qiydi. O'sha paytlardayoq u shoirlik iste'dodi tufayli katta shuhrat qozongan edi. Yoshlikdan Sulton Husayn bilan yaqin bo'lgan Alisher o'ziga nisbatan Abu Saidga adovat kayfiyatini sezib qolgach Samarqandga borib, ma'lum vaqt u yerda yashashga majbur bo'ladi. Samarqandda ilm-fan va she'riyat bilan mashg'ul bo'ladi. Bu yerda u mash-

hur olim, falsafa, mantiq, huquq, arab tili, adabiyot va she'riyatning o'tkir bilimdoni *Fazlulloh Abullays Samarqandiy*dan saboqlar oladi. 1469-yili Sulton Husayn Hirotni egallagach Navoiyni o'z huzuriga taklif etadi. Alisherni dastlab *muhrdorlik* lavozimiga, keyinroq esa *vazir* qilib tayinlaydi.

Sulton Husayn hukmronligi davrida Alisher Navoiy mamlakatda markazlashgan saltanat vujudga kelishi, viloyatlar obod etilishi, qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda hunarmandchilik va savdning kengayib taraqqiy qilishi yo'lida xizmat ko'rsatdi. Alisher Navoiy adabiyot, san'at va ilm-ma'rifatning ravnaqi, aholining tinch va osoyishta istiqomat qilishi tarafdori edi.

Lekin Sulton Husayn davlati Alisher kutganicha taraqqiy etmaydi. Suyurg'ol tartibiga asoslangan bu davlatda, bir tomondan, viloyat hukmdorlari, hatto toj-u taxt valiahdlari Badiuzzamon va Muzaffar Husayn mirzo isyonlari yuz beradi. Ikkinchi tomondan, zulm oqibatida Hirotni va uning viloyatlarida xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi. Uchinchidan, o'z manfaatlarini ko'zlagan ochko'z saroy ma'murlari fitna va fasodni avj oldirib, uning botqog'iga Sulton Husaynni ham botiradilar. Bunday ahvol, shubhasiz, bosh vazirlik vazifasida turgan dono Navoiyning saroydan, hatto poytaxtdan uzoqlashishiga olib keladi.

Shunday qilib, XV asrning ikkinchi yarmidagi beqaror siyosiy vaziyat tufayli Temuriylar saltanati inqirozga yuz tutdi.

8.10. Dehqonchilik, yer egaligi munosabatlari

Dehqonchilik va chorvachilik. Mamlakatda tez-tez sodir bo'lib turadigan o'zaro ichki urushlarga qaramasdan, XV asrda ham Movarounnahr va Xuroson qishloqlarida birmuncha obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Xususiylar sohibkorlarning dashtliklarda yangi yerlarni o'zlashtirish, kanallar qazib, bog' ko'kartinish va qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug'orib, obod etish kabi mehnatlari qo'llab-quvvatlanadi. Hatto bunday sohibkorlar bir-ikki yil davomida hamma soliq va to'lovlardan ozod etiladi.

Yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, dehqonchilik maydonlarining suv ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Eng yirik sug'orish ishlaridan biri, Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan boshlangan Darg'om anhoridan chiqarilgan qadimgi *Angor* kanali tiklandi. Bu kanal orqali kam suvli Qashqadaryo vohasiga qo'shimcha suv chiqariladi.

Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda Buxoro vohasining janubi-sharqiy chegarasida yondashgan *Somonchuq* dashtiga suv chiqarilib, yangi yerlar o'zlashtiriladi. Murg'ob daryosining bosh to'g'oni – Sultonbandning Shohrux tomonidan tiklanishi va sug'orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli Marv shahri va Murg'ob vohasining suv ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Sulton

Husayn mirzo hukmronlik qilgan davrda esa uning tashabbusi bilan Marviruddan yangi kanal chiqarilib, kattagina yer maydoni sug'orilib obod etiladi.

Alisher Navoiyning tashabbusi bilan Tus viloyatining yuqori qismida *Turuqband* suv ombori qurdiriladi. O'n farsax (60 – 70 km) uzunlikda maxsus kanal qazdirilib, Turuqband suv omborida jamg'arilgan suv Mashhadga olib kelinadi. Natijada Mashhad suv bilan ta'min qilinib, shahar atrofidagi yerlarga suv chiqariladi va obod etiladi.

Xo'jalikning iqtisodiy hayotida, ayniqsa, yaylov chorvachiligi: yilqichilik, tuyachilik hamda qoramolchilik muhim o'rin tutgan.

XV asr davomida Movarounnahr va Xurosonda avvalgidek yer va mulkchilikning asosan to'rt shakli – «mulki devoniy» – davlat yerlari, «mulk» – xususiy yerlar, «mulki vaqf» – madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar va «jamo'a yerlari» bo'lgan. Sug'oriladigan yerlarning eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga, avvalgidek, mamlakat hukmdori – sulton yoki amirlar egalik qilardi.

Temuriylar davrida davlat yerlarini «suyurg'ol» tarzida in'om qilish keng tarqaladi. Suyurg'ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba'zan ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning haq-huquqlarini cheklar, bo'ysunmagan taqdirda suyurg'ol huquqidan mahrum etilar va boshqa shaxsga berilar edi.

Bu davrda bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalariга yaxshi xizmati uchun tarxonlik yorlig'i berish an'anaga aylanadi. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig'i, odatda, amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga «tarxon» martabasi qo'shib aytilgan.

XV asrda ham, avvalgi davrlardagidek, juda ko'p yer va suv masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga birlashtirilib, bunday yerlar «mulki vaqf» deb atalgan. Odatda, yer va suvdan tashqari ko'plab do'kon, korxonalar, tegirmon, objuvoz, bozor rastalari, karvonsaroylar ham vaqf qilinib, ulardan tushgan daromad masjid, madrasa, tabiblar uyi va xonaqohlarning ta'miri, jihozi, mutavalli, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarning kundalik xarajlari uchun sarf etilgan.

Soliq turlari. Sug'orma dehqonchilik yerlaridan olinadigan asosiy soliq «xiroj» deb atalgan. Xiroj mahsulot yoki pul bilan to'langan. U hosilga va yerning unumdorligiga qarab belgilangan. Chunonchi, daryo va buloq suvlari bilan sug'oriladigan obikor yerlardan xiroj hosilning uchdan bir qismi (33%) miqdorida olingan. Lalmikor yerlardan hosilning oltidan bir, ya'ni 16,5% dan to sakkizdan bir, ya'ni 12,5% miqdorida soliq undirilgan.

Mulk yerlarining bir qismidan «ushr», ya'ni hosilning o'ndan bir qismi (10%) miqdorida soliq olingan. Bunday yerlar, odatda, zamonasining ilm-tani, ma'rifati va ma'naviy hayotida muhim nufuzga ega bo'lgan ulamolar va mashoyixlar tasarrufida bo'lgan. Chorva mollaridan qirqdan bir, ya'ni 2,5% miqdorida zakot olingan.

Asosiy soliqlardan tashqari mahalliy aholi begor ishlarida ham qatnashgan. Begorda qatnashgan har bir kishi ishlash uchun kerakli asbob-uskuna va yetarli yemaklarni o'zi bilan olib kelishi lozim bo'lgan.

8.11. Hunarmandchilik va savdo aloqalari

Hunarmandchilik. Movarounnahrning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruxiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa ko'pgina shaharlari hunarmandchilik markaziga aylanadi. Shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi guzarlar, ko'chako'ylar, bozor rastalari, timlar va toqlar (usti gumbazli bozor) paydo bo'ladi. Ko'pgina shaharlarda zargarlik, miskarlik, ignasozlik, sovutsozlik, tosh-taroshlik, shishasozlik, ko'nychilik kabi hunarmandchilik mahallalari bo'lgan.

Shaharlarda ip, ipak, jun va kanop tolasidan turli xildagi rangdor, guldor hamda nafis va dag'al gazmollar to'qib chiqarilar edi.

XV asrda temir buyum, qurol-yarog' va asboblar yasash yuqori darajaga ko'tariladi. Chilangarlarning aksariyati uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar va asbob-uskunalar yasovchi temirchilardan iborat edi. Ular orasida mix yasovchilar, taqachilar, sim cho'zuvchilar, pichoqchilar kabi turli xil buyumlar yasovchi ustalar bo'lgan.

Shaharlarda, xususan, Samarqand va Hirotda zargarlik rivoj topadi. Shahar zargarlari orasida oltin, kumush va jez qotishmalaridan turli xil zeb-ziynatlar va qimmatbaho buyumlar yasaydigan va ularga nozik did bilan nafis ishlov beruvchi mohir ustalarning soni ko'payadi. Odatda, naqshinkor badiiy buyumlar boylik hashamlari hisoblanib, ular faqat mulkdor tabaqalar-gagina mansub edi.

Binokorlik, yog'och o'ymakorligi. O'rta asr hunarmandchiligida kulolsozlik eng rivoj topgan sertarmoq sohaga aylanadi. U kosasozlar, xumsozlar va tandirsozlar kabi bir nechta tarmoqlarga bo'linadi. Bu davrda tosh yo'nish, unga sayqal berib, o'ymakor naqshlar va xushxat yozuvlar bitish san'ati kamolotga yetadi. Samarqandda Bibixonim jome masjidida Qur'onni qo'yish uchun o'rnatilgan ulkan tosh lavh, Go'ri Amirdagi nefrit qabrtoshi, Shohizinda (Shayhizinda) va boshqa joylardagi sag'analarga jimjimador naqshlar berilib, o'ymakor oyatlar, marsiyalar va tarixiy qaydnomalar yozilgan.

Bu davrda mamlakatning yirik shaharlari, xususan, Samarqand va Hirotida qurilish ishlari keng avj olib, binokorlarning roli oshib ketadi. G'isht terib imorat qaddini bino qiluvchilar «*banno*», peshtoq-u ravoq hamda toqlarga parchin va girihlar qoplab imoratga pardoz beruvchilar «*ustoz*» deb yuritilgan.

XV asrda shishasozlik ham taraqqiy qilgan. Samarqandda hatto shisha-sozlar mahallasi bo'lgan. Bu davrda yog'ochsozlik ham rivojlangan. Mohir duradgor ustalar yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullangan. Ular naqshinkor eshiklar, panjaralar, ustunlar, toq-ravoqlar, xontaxtalar, kursilar va boshqa ko'pdan ko'p jihozlar yasaganlar. Go'ri Amir va Shohizindaning oyatlar bitilgan naqshinkor eshiklari XV asr xalq ustalarining yog'och o'ymakorligi san'atidagi eng nodir namunalaridan hisoblanadi.

Samarqand hunarmandchiligida, ayniqsa, qog'oz ishlab chiqarish alohida o'rin tutadi. Samarqand qog'oz o'rta asr xattotligida g'oyat mashhur bo'lib, uning ma'lum bir qismi chet o'lkalarga chiqarilgan.

Bu davrda hunarmandchilikning teri oshlash, charm-mo'yna mahsulotlari: mahsido'zlik, po'stindo'zlik, telpakdo'zlik, kavushdo'zlik, etikdo'zlik sohalari ham rivojlangan.

Samarqand bozorida shirmoyi, sedana payvand, noni zargaron, noni osiyoiy kabi mashhur anvoyi nonlar, ziravorlar, attorlik mollari sotilar edi.

Savdo aloqalari. XV asrda temuriylar uzoq va yaqin qator qo'shni mamlakatlar: Xitoy, Hindiston, Tibet, Eron, Rus, Volgabo'yi va Sibir bilan muntazam savdo-sotiq qilardi. Xitoydan ipak, shoyi matolar, xususan, atlas va parchalar, choy, chinni, la'l, gavhar va mushk; Hindistondan nafis oq rangli ip matolar, nil (bo'yoqlar), xushbo'y ziravorlar; Erondan surp, marvarid, durlar; Rus, Tatariston va Sibirdan qimmatbaho mo'yna, teri va mum olib kelinar edi. Yevropa mamlakatlaridan Samarqandga olib kelingan mollar orasida farang gazmollari, movuti, cherkas pichog'i bor edi.

Samarqanddan chet mamlakatlarga, xususan, Rus, Tatariston va Sibirga ip matolar, asosan, bo'z, duxoba, shoyi gazlama, qog'oz, quruq meva, gurch, paxta va kalavalar (yigirilgan iplar) chiqarilgan.

Chet davlatlar bilan o'zaro savdo-sotiqni kengaytirishda temuriylarning qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan elchilik aloqalari katta rol o'ynaydi. Ulug'bek va Shohrux Xitoy bilan muntazam ravishda elchilar almashib turishgan.

1418-yili *Ardasher* boshliq Shohrux elchilari Xitoyda bo'ladilar. 1419-yili bunga javoban *Li-Do* va *Jong-Fu* Xitoydan Samarqand va Hirotga elchi bo'lib keladilar. Elchilar Ulug'bek va Shohrux nomiga o'zaro do'stlik munosabatlarini rivojlantirish xususidagi takliflar yozilgan maktub va katta sovg'a-salomlarni topshiradilar. 1420-yili Shohrux va Ulug'bek o'z elchilari bilan birga 530 nafar savdogardan iborat savdo karvonini Xitoyga jo'nata-

dilar. Temuriylarning elchilari ikki yildan ortiqroq Xitoyda bo'lib, 1422-yili o'z vatanlariga qaytib keladilar.

Shohrux bilan Ulug'bek zamonida Tibet va Hindiston bilan ham yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatiladi. 1421-yili Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi. 1441 – 1442-yillarda Shohrux Hindistonga *Vijayanagar* saroyiga tarixchi *Abdurazzoq Samarqandiy* boshchiligida elchilar yuboradi. U Kermon, Xurmuzd va Fors qo'ltig'i orqali Hindistonga qilgan sayohatini yozib qoldiradi.

Pul muomalasi. Iqtisodiy taraqqiyot ma'lum darajada o'sha davrda o'tkazilgan pul islohoti bilan ham bog'liq edi. Ma'lumki, Ulug'bek 1428-yili muomaladagi fulusiy pullar islohotini amalga oshirdi. Ulug'bek yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan chaqa pullar bilan ayirboshlashni man etdi. Eski chaqalarni yangisiga almashtirib, ichki savdoning fulusiy pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o'zida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruxiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil qilib, bir xil vazndagi salmoqdor fuluslar zarb ettiradi va muomalaga chiqaradi. Xalq o'rtasida «*fulusi adliya*», ya'ni «*adolatli chaqa*» nomi bilan shuhrat topgan Ulug'bekning bu yangi fuluslari ichki chakana savdo uchun keng yo'l ochadi. Shu bilan birga, Ulug'bek tashqi savdodan davlat xazinasiga tushadigan daromadni ko'paytirish maqsadida tamg'a solig'ini birmuncha oshirdi.

Shunday qilib, Ulug'bek zamonida mamlakatda ichki va tashqi savdoning kengayishi hunarmandchilik mahsulotlarining hajmini oshirib, kasb-hunar tarmoqlarining rivojida asosiy omillardan biriga aylandi.

8.12. Ilm-fan ravnaqi

Ilm-fan markazlari. XV asrda Samarqand va Hirotida olimlar-u fuzalolar, shoirlar-u bastakorlarning kattagina guruhi to'plangan edi. Ilm-fan va san'at taraqqiyotida zamonasining madaniy muhitida tarbiyalanib, yoshligidayoq mashhur olim sifatida shuhrat qozongan Ulug'bekning hissasi nihoyatda buyukdir. Ulug'bek mamlakatni boshqarish bilan bir qatorda ilmiy ishlar bilan shug'ullanadi, olimlarning munozaralarida faol qatnashadi. Ulug'bek o'tmishdoshlari Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino asarlarini batafsil o'rganadi. Bu buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali u qadimgi yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolemeyning mumtoz asarlari bilan ham tanishadi. Ulug'bek farmoni bilan 1417-yili Buxoroda, 1420-yili Samarqandda, 1433-yili G'ijduvonda madrasalar qad ko'taradi. Hatto Buxoro madrasasining darvozasiga «*Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir*» degan xitobnoma o'yib yozib qo'yila-

di. Movarounnahrning bu uchta qadimiy shaharlarida barpo etilgan ilmgohlar, xususan, Samarqand madrasasi zamonasining dorilfununi edi. Ushbu madrasalarda diniy ilmlar: Qur'on, hadis, tafsir, fiqh (din va shariat qonun va qoidalari) bilan bir qatorda riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), ilmi hay'at (astronomiya), tibbiyot (meditsina), tarix, jo'g'rofiya, ilmi aruz (nazm), arab tili va uning morfologiyasi (qofiya) kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitilardi.

Ulug'bek madrasasi. 1420-yili ochilgan Samarqand madrasasi ikki qavatli, ellik hujrali bo'lgan. Har bir hujra uch xonaga: qaznoq (omborxonona), yotoqxona va darsxonalarga bo'lingan. Madrasada o'sha zamonning iqtidorli olimlaridan mavlono *Shamsiddin Muhammad Havofiy* yetakchi mudarris bo'lgan. O'rta asrlarning mashhur olimlari *Qozizoda Rumiy*, *G'iyosiddin Jamshid Koshoniy*, *Mirzo Ulug'bek* va uning shogirdi *Alouddin Ali Qushchi* turli fanlardan dars berganlar. Madrasa ochilgan kuni birinchi darsni Shamsiddin Muhammad Havofiy o'qigan, darsda tolibi ilmlardan *to'qson* nafari qatnashgan. Madrasada ilmi hay'atdan (astronomiya) darsni Qozizoda Rumiy bergan. Madrasada kamida 15 – 16 yil tahsil ko'rib, uning dasturi bo'yicha fanlarni to'la o'zlashtirgan va imtihonlarda o'z bilimini namoyish qila olgan tolibi ilmlarga sanad yozib berilgan.

Ulug'bek madrasasi. Samarqandda o'z atrofida to'plangan taniqli olimlarning bevosita ishtiroki va yordamida Mirzo Ulug'bek 1424 – 1429-yillarda shahar yaqinidagi *Obirahmat* anhuri bo'yida rasadxona qurdirdi. Hanuzgacha olimlarning qiziqishini uyg'otib kelayotgan bu ulkan imoratning balandligi *31 metr* edi.

G'iyosiddin Jamshid boshchiligida rasadxonaning asosiy o'lchov asbob-uskunasi – ulkan sekstant o'rnatilgan. Samarqand sekstanti o'sha davrda Sharqda ma'lum bo'lgan sekstantlarning eng kattasi hisoblangan. Ulug'bek rasadxona qoshida zamonasining boy kutubxonasini ham tashkil etadi. Bu kutubxonada fanning deyarli hamma sohalariga tegishli qariyb *o'n besh ming* jild kitob saqlangan.

Rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun katta-kichik hujralar quriladi. Uning etagida esa ikkita chorbog' barpo etiladi. Ulardan biri *Bog'i Maydon*, ikkinchisi esa *Chinnixona* nomi bilan shuhrat topadi. Rasadxona joylashgan bu mavze mahalliy aholi o'rtasida «*Naqshi jahon*» degan nom bilan shuhrat qozongan.

Ulug'bekning faol ishtiroki bilan Ulug'bek rasadxonasi o'sha zamon sharoitida mukammal astronomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylanadi. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga mashhur matematik va astronomlardan «*Aflotuni zamon*» deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, «*o'z davrining Ptolemeyi*» nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi va ko'pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatish-

lar va tadqiqotlar olib boradilar. Xullas, Ulug'bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi.

Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 ta qo'zg'almas (turg'un) yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida matematika va astronomiyaga oid qator nodir asarlar yaratildi.

Ulug'bekning shoh asari «Ziji jadidi Ko'ragoniy» (Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali) nomli kitobidir. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asosan ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat. Ulug'bekning astronomik jadvali o'sha zamondagi shunga o'xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Ulug'bekning yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirgudek bo'lsak, u bor-yo'g'i bir minut-u ikki sekundga farq qiladi. Bu XV asr uchun g'oyat yuksak aniqlik bo'lib, hozirgi zamon o'lchovlariga juda yaqindir.

Ulug'bek «Tarixi arba ulus» (To'rt ulus tarixi) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan beshta risola ham yozgan. Ulug'bekning astronomiya maktabi o'sha davrning o'ziga xos akademiyasi edi. Mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1694 – 1778): «Ulug'bek Samarqandda bo'lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini o'lchashni buyurdi va astronomiyaga oid jadvallarni tuzishda ishtirok etdi», – deb yozgan edi.

8.13. Madaniy hayot

Kitob san'ati. XV asrda kitobat san'ati, ya'ni qo'lyozma asarlarni ko'chirib yozish va u bilan bog'liq bo'lgan xattotlik, musavvirlik, lavvohlik va sahhoflik san'ati ham nihoyatda yaxshi taraqqiy etadi.

Bosmaxona va kitob nashr etish hali vujudga kelmagan zamonda kitob yaratish va uning nusxalarini ko'paytirish og'ir mehnat va ko'p vaqt sarf etiladigan nihoyatda mushkul ish bo'lgan. Har bir kitob qog'ozidan tortib muqovasigacha, siyohidan tortib to bo'yoqlari-yu zarhaligacha ma'lum qoida asosida tayyorlanar edi. Xattot bo'lish uchun uzoq vaqt sabr-matonat va ishtiyoq bilan mashq qilish, mukammal savodli, badiiy didi baland kishi bo'lishi lozim edi. Mohir xattotlar o'z usuli va uslubini shogirdlariga o'rgatardi. Shu tariqa xattotlik an'analari davom ettirilar va rivojlantirilar edi.

Mashhur xattot *Mirali Tabriziy* (1330 – 1404) nasta'liq deb nomlangan yangi uslubdagi xatni kashf qiladi. Xushnavis xattotlardan biri *Sultonali Mashhadiy* (1432 – 1520) edi. U Nizomiy, Attor, Hofiz, Sa'diy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro va boshqa shoirlarning asarlarini ko'chiradi. Sultonali tomonidan ko'chirilgan 50 dan ziyod kitob va ko'pgi-

na qit'alar hozirgi vaqtgacha yetib kelgan. Sultonali o'ymakorlik san'atida ham mohir bo'lgan. Husayn Boyqaroning «*Bog'i Jahonoro*» bog'idagi saroy devorlaridagi bitiklar, Husayn Boyqaro qabrtoshidagi lavha Sultonali tomonidan o'yib bitilgan. U xattotlik san'ati turlari haqida maxsus asar ham yozgan. Sultonali Mashhadiy «*Qiblat ul-quttob*» (Kotiblar qiblasini) va «*Sulton ul-xattotin*» (Xattotlar sultoni) nomlari bilan shuhrat topadi.

Samarqand va Hirotda maxsus saroy kutubxonalarini tashkil etilgandi. Kutubxona ishlariga *kutubxona dorug'asi* yoki *kitabdor* boshchilik qilgan. Uning qo'l ostida xattotlar, naqqoshlar-u musavvirlar, mohir lavvohlar-u sahhoflar buyurtmalarni bajarganlar. Masalan, Hirotda Ulug'bekning ukasi Boysung'ur kutubxonasida qirqta xattot va bir qancha naqqoshlar qo'lyozma asarlardan nusxalar ko'chirish va ularni bezash bilan band bo'lgan. 1429-yili bu kutubxonada Abulqosim Firdavsiyning mashhur «*Shohnoma*» dostoni ko'chirtirilib, u 20 ta turli mazmun va manzarali rangdor miniatyuralar bilan bezatilgan.

Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy saroy kutubxonasini nodir asarlar bilan boyitishga g'amxo'rlik qiladilar.

Tasviriy san'at. XV asrda ulkan yutuqlarga erishgan tasviriy san'at portretlar, hayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlangan tasvirlardan iborat bo'lgan. Siymolar qiyofasi tasvirlari orasida Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotifiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Bobur va boshqalarning tasvirlari bizgacha saqlanib qolgan. Musavvirlar bu tarixiy shaxslarning tashqi qiyofasini aniqroq va mukammalroq tasvirlashga, ayrim hollarda hatto ularning ma'naviy dunyosini ochishga intilganlar. Masalan, mashhur rassom *Mahmud Muzahhib* tomonidan chizilgan Navoiy tasvirida shoir hassaga tayangan, uning qomati birmuncha bukchaygan, qarashlarida ham horg'inlik alomatlari, ham ulug'vorlik va oliyjanoblik ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Kamoliddin Behzod XV asr tasviriy san'atining ulug' namoyandasi. U musavvirlikda «*Hirotda maktabi*» deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi. U o'z davrida *Moniyi Soniy* (Ikkinchi Moniy) deb ulug'langan. U ustoz san'atkor sifatida O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviriy san'ati taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi. Behzodning ijodi xilma-xil mazmunga ega bo'lib, u tarixiy siymolar (Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy) portretlaridan tortib to serjilo hukmdor saroylaridagi qabul marosimlari va jang maydoni manzaralarigacha haqqoniy, ta'sirli qilib bera olgan. Ayniqsa, Dehlaviyning «*Layli va Majnun*» dostoniga bag'ishlangan uning lirik manzaralari yoki Sharafiddin Ali Yazdiyning «*Zafarnoma*» asari uchun chizilgan jang maydonidagi shiddatli jang tasvirlangan miniatyuralari nihoyatda jozibador va ta'sirchandır. Xullas, tasviriy san'at asarlari bilan badiiy adabiyotning o'zaro uzviy aloqada ravnaq topganligi, biri ikkinchisiga samarali ta'sir etganini ko'rsatadi.

*Musiq*a. XIV – XV asrlarda yangi kuy va qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga doir nodir asarlar yaratildi. Juda ko'p mahoratli sozandalar, mashshoqlar, bastakorlar va hofizlar yetishdi. *Abduqodir Nayiy*, *Qulmuhammad Shayxii*, *Husayn Udiy*, *Shohquli G'ijjakii*, *Qosim Rabbonii* va boshqalar shular jumlasidandir. Mohir musiqachilar bilan bir qatorda Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Binoiy kabi mutafakkir va shoirlar ham musiqa san'ati bilan shug'ullanib, uning rivojiga ma'lum darajada hissa qo'shadilar. Masalan, Ulug'bek «*Bulujiy*», «*Shodiyona*», «*Axloqiy*», «*Tabriziy*», «*Usuli ravon*» va «*Usuli otlig'*», Navoiy «*Isfahoniy*» kuylarini ijod qiladi. Jomiy va Binoiy musiqa nazariyasiga doir asar yaratadilar. Musiqa she'riyat bilan uzviy aloqada yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tariladi.

Adabiyot. O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti badiiy uslub jihatidan takomillashdi, yangi pog'onaga ko'tarildi. Nasrda ham, nazmda ham ko'plab nodir badiiy va lirik asarlar yaratildi. O'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek hamda tojik adabiyoti o'rtasida o'zaro hamkorlik kengaydi va mustahkamlandi. Tarjima adabiyot vujudga keldi. Badiiy adabiyotning ravnaqi bilan uzviy bog'langan holda adabiyotshunoslik ham taraqqiy etdi, nodir asarlar yaratildi.

Bu davrda zamonasining iste'dodli shoirlari va adiblari *Qutb Xorazmiy*, *Sayfi Saroyi*, *Haydar Xorazmiy*, *Durbek*, *Amiriy*, *Yaqiniy*, *Atoiy*, *Sakkokiy*, *Lutfiy*, *Muhammad Solih* va boshqalar yashab ijod qiladilar. Durbek tomondan qayta ishlangan «*Yusuf va Zulayxo*» dostoni, toshkentlik shoir Atoiyning devoni shu davr badiiy adabiyotining durdonalaridir. Bu davr o'zbek shoirlari ichida Lutfiy (1366 – 1465) alohida o'rin tutadi. Navoiyga qadar o'zbek she'riyatida Lutfiy darajasiga yetadigan shoir bo'lmagan. U birgina turkiy tilda asarlar yaratib qolmadi, balki fors tilida ham qasidalar yozdi. Lutfiy ijodida haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo'lishni targ'ib qilish, ilm va san'atni sevish kabi fikrlar katta joy olgan.

XV asr badiiy adabiyoti ravnaqida buyuk davlat arbobi, ulug' shoir, olim, mutafakkir *Alisher Navoiy* va buyuk fors-tojik shoiri *Abdurahmon Jomiy*ning hissaları g'oyat buyukdir. Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi. U o'zbek adabiy tili, o'zbek mumtoz adabiyotini yangi pog'onaga ko'tardi. Navoiy o'ttizdan ortiq yirik badiiy asar yozdi. «*Xamsa*», «*Xazoyin ul-maoniy*», «*Mahub ul-qulub*», «*Lison ut-tayr*» shular jumlasidandir.

Navoiy tarixni bilishning ahamiyati katta ekanini ta'kidlab, odamlarni tarixni o'rganishga da'vat etadi. Uning fikricha, tarix fani sho'hlari, hukmdorlarning tarjimai holini emas, balki mamlakat tarixini o'rganishi kerak. Navoiy mamlakatni nimalar tanazzulga va nimalar farovonlikka olib kelishini,

qanday ishlar tufayli mamlakat obod bo'lishini, xalqqa farog'at va baxt keltirishini tarix ko'rsatib berishi lozim deb hisoblaydi.

Navoiy adolat yordamida mamlakatni obod qilish mumkinligini, har kishi o'zining xulqi va odobi bilan odamlarni xursand qilishi lozimligini uchratib o'tadi.

Xullas, o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o'zining bebaho asarlarida ko'targan o'ta insonparvar g'oyalari bilan jahon adabiyotini buyuk namoyandalari qatoridan munosib o'rin egalladi. Abdurahmon Jon Alisher Navoiyning zamondoshi, ustози va do'sti edi. Ularning do'stligi va hamkorligi o'zbek va qardosh xalqlar do'stligi va hamkorligining yorqin timsolidir.

9-BOB. MOVAROUNNAHR SHAYBONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA

9.1. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Xuroson va Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat

Siyosiy ahvol. Xuroson hukmdori Shohrux mirzo 1447-yili vafot bo'lgach, toj-u taxt uchun kurash kuchaydi. Natijada Xuroson davlati bir necha mustaqil qismlarga bo'linib ketdi. 1469-yili Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayxning nabirasi *Sulton Husayn Boyqaro* Xuroson taxtini egalladi.

Salkam 40 yil hukmronlik qilgan Sulton Husayn Boyqaro davrida ham mamlakatda to'la osoyishtalik o'rnatilmagan bo'lsa-da, Xuroson davlatini xo'jalik va madaniy hayoti ancha yuksak darajada rivojlantirdi. Mamlakat obodonchiligi yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Bunda Husayn Boyqaroning hukmdorlik salohiyati muhim o'rin tutdi. Vazir Alisher Navoiyning xizmatlari ham benihoya katta bo'ldi.

1506-yili Sulton Husayn Boyqaro vafot etdi. Shundan keyin mamlakatda qo'shhoqimiyatchilik vujudga keldi. Marhum sultonning ikki o'g'li (Badiuzzamon va Muzaffar Husayn) bir vaqtda hukmdor deb e'lon qilindi. Bu hol shusiz ham og'ir kunlarni boshidan kechirayotgan Xuroson davlati to'la parokandalikka olib keldi. Natijada shayboniylar hujumi arafasida davlat nihoyatda kuchsizlanib qoldi.

Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin Movarounnahrdagi ham toj-u taxt uchun keskin kurash boshlanib ketdi. Bu kurashda Mironshohning nabirasi *Ali Said ibn Sulton Muhammad* g'alaba qozonadi va Movarounnahr taxtini egallaydi (1451 – 1469). U 1469-yili urushda halok bo'lgach, hokimiyat birin-ketin dastlab uning ikki o'g'li: *Sulton Ahmad* va *Sulton Mahmud*, keyinchalik nabiralari *Boysung'ur mirzo* va *Sulton Ali mirzo* boshqargan.

Bobur mirzo siyosiy kurash maydonida. XVI asr bo'sag'asida Temuriylar davlati taxti uchun kurash maydoniga Zahiriddin Muhammad Bobur chiqdi. Bobur Mirzo Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshohning chevarasi edi. U 1483-yilning 14-fevralida *Andijon* shahrida tug'ilgan. Bolalik va yoshlik yillari Andijon va Axi shaharlarida o'tgan. U otasi *Umarshayx mirzo* (1455 – 1494) saroyida o'z davriga yarasha barcha zarur bilimlarni egallagan.

Umarshayx mirzoni otasi Abu Said mirzo o'z hukmronligi davrida dastlab *Kobul* viloyatiga, so'ng *Farg'ona* viloyatiga hukmdor etib tayinlagan. Keyinchalik akasi Sulton Ahmad hukmronligi davrida Toshkent va Sayram ham Umarshayx mirzoga berilgan. Biroq o'zaro ichki kurashlar natijasida Umarshayx mirzo qo'l ostida faqat Farg'ona, Xo'jand va O'ratepagina qolgan.

Umarshayx mirzo 1494-yili baxtsiz hodisa tufayli halok bo'lgach, hokimiyat 12 yoshli Bobur mirzo qo'liga o'tdi.

Bobur yosh bo'lganligi uchun davlat ishlarini ishonchli beklardan *Hojiqozi* va o'qimishli, oqila onasi *Qutlug' Nigorxonim* yordamida boshqarardi.

Bobur mirzoning siyosiy kurash maydoniga chiqishi Temuriylar saltanatida harbiy-siyosiy vaziyat nihoyatda og'irlashgan sharoitga to'g'ri keldi. U siyosiy kurash maydoniga chiqqan paytda Samarqandda Boysung'ur mirzo, Toshkentda Bobur mirzoning tog'asi Sulton Mahmudxon, Hirotida esa Sulton Husayn Boyqaro hukmron edi.

Bobur mirzoning Samarqand taxtini egallashi. Bobur mirzo ham barcha taxt da'vogarlariga xos xususiyatlardan xoli emasdi. Uning orzusi ulug' bobosi Amir Temur saltanatining markazi – Samarqand taxtini egallash edi.

Tez orada Boysung'ur mirzo bilan ukasi Sulton Ali mirzo o'rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlandi. Bundan xabar topgan Bobur mirzo 1496-yili qo'shini bilan Samarqandni qamal qilishga kirishdi. Biroq qish yaqinlashib qolganligi tufayli Samarqand qamalini to'xtatib Andijonga qaytishga majbur bo'ladi.

1497-yili Bobur mirzo yana Samarqandga yurish boshlaydi va Samarqand qamali boshlanadi. Qamal 7 oydan ortiq davom etdi. Bu vaqtda shahar ichida oziq-ovqat tanqisligi yuz bergani tufayli Boysung'ur mirzo askarlari orasida parokandalik ro'y beradi.

Tang ahvolda qolgan Boysung'ur mirzo kam sonli qo'shini va yaqinlari bilan Qunduz hukmdori *Xusravshoh* huzuriga qochdi.

Bobur mirzo esa 1497-yilning noyabr oyi oxirida Samarqand taxtini egalashga muvaffaq bo'ldi.

Andijonda hokimiyat uchun kurash. Biroq bu hol uzoqqa bormadi. Boburning Andijondagi dushmanlari til birliktirib ukasi *Jahongir mirzoni* Andijon taxtiga o'tqazishga erishdilar. Vujudga kelgan harbiy-siyosiy tanglikni tushungan Bobur mirzo qanday bo'lmasin Andijonni saqlab qolishga

qaror qildi va Samarqandni *yuz kun* idora etgandan so'ng uni tark etishga majbur bo'ldi. Samarqand taxtini esa Sulton Ali mirzo egalladi.

Nihoyat, 1500-yili Bobur mirzo bilan ukasi Jahongir mirzo o'rtasida sulh tuzildi. Unga ko'ra, Sirdaryoning shimoliy tarafi Axsi shahri bilan Jahongir mirzoga, daryoning janubiy tomoni Andijon shahri bilan Bobur mirzoga berildi.

Temuriylar saltanatining boshqa qismlarida ham Farg'onadagi kabi toj-u taxt uchun kurash davom etardi. O'sha davr tarixchisi Muhammad Solih yozganidek, «*Hamma bir-biridan qo'rqar edi. O'zlaricha shohlik talab qilib mamlakatda ig'vo urug'ini sochardilar*».

Temuriylar saltanatida boshlangan toj-u taxt uchun ayovsiz kurash oqibatida saltanat inqirozga yuz tutdi. Natijada ko'pdan buyon Temuriylar saltanati hududlarini egallashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahr va Xurosonni egallab olishi uchun qulay sharoit vujudga keldi.

9.2. Dashti Qipchoqdagi siyosiy ahvol. Muhammad Shayboniyxon

Dashti Qipchoq haqida. XI asrdan boshlab arab va fors manbalarida «*Dashti Qipchoq*» deb ataluvchi geografik hudud tilga olinadi. Bu atama Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yonbag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho'zilgan dashtlarga nisbatan ishlatilgan.

Ural (Yoyiq) daryosi Dashti Qipchoqni sharqiy va g'arbiy qismlarga ajratib turgan.

Bu hududlar rus manbalarida «*Poloveslar yeri*» nomi bilan yuritilgan. Chunki ruslar Dashti Qipchoq aholisini *poloveslar* deb atashgan. Vizantiya manbalarida ular *kumanlar*, sharq manbalarida esa *qipchoqlar* nomlari bilan qayd etilgan.

Dashti Qipchoqning sharqiy qismi aholisi o'zbeklar deb atalgan.

Sharqiy Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat. 1428-yili Jo'jining beshinchi o'g'li Shaybon naslidan bo'lgan Abulxayrxon (1412 – 1468) Sharqiy Dashti Qipchoqni egallab alohida davlatga asos soladi. Tarixiy manbalarda bu davlat «O'zbek ulusi» (o'zbeklar mamlakati) deb ham ataladi.

Abulxayrxon dastlab temuriylarga rasman qaram bo'lgan Xorazmga hujum qilgan. 1446-yili esa Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan shaharlar – *Sig'noq, Oqqo'rg'on, Arquq, O'zgan* va *Suzoqni* bosib oladi. O'z davlatining poytaxtini Turadan Sig'noqqa ko'chirdi. Bu endi Abulxayrxonning temuriylarga qarshi kurashga kirishganligining tasdig'i edi.

Samarqand taxti uchun kurash kuchaygan paytda Abulxayrxon vaziyatdan foydalanishga harakat qiladi. U 1451-yili o'zidan madad so'ragan temuriyzo-

da Abu Said mirzoga Samarqand taxtini egallashda yordam berish bahonasida yurish boshladi. Abulxayrxon ko'rsatgan yordami evaziga kattadan katta sovg'alar bilan o'z yurtiga qaytadi. Minnatdorchilik tariqasida Abu Said mirzo Ulug'bekning qizi *Robiya Sultonbegimni* Abulxayrxonga xotinlikka beradi.

Abulxayrxon keyin ham bir necha bor Movarounnahr ishlariga aralashdi. Shu tariqa u Movarounnahrda borgan sari o'z nufuzining ortishiga erisha olgan.

Muhammad Shayboniyxon. 1468-yili Abulxayrxon vafot etishi bilan o'q u tuzgan davlat parchalanib ketdi. Muhammad Shayboniy Abulxayrxonning nabirasi bo'lib, uning *Shohbudog' sulton* ismli o'g'lining farzandi edi. *Shohbudog' sulton*dan ikki o'g'il qolgan: Muhammad Shayboniy va Mahmud sulton. Muhammad Shayboniy 1451-yili tug'ilgan.

Shayboniyning bobosi Abulxayrxon saroyida ham turkiylar odatiga ko'ra tug'ilgan go'dakka ikki ism qo'yish urf bo'lgan. Ismlarning birinchisi islomiy (arab), ikkinchisi esa turkiy bo'lgan. Tug'ilganida Muhammad deb nom olgan Shayboniy o'zining ikkinchi nomi bilan mashhur bo'lgan. «Boburnoma»da Shayboniyning ismi *Shoyboqxon* deb berilgan. Bu nom «kuch-qudrat» degan ma'noni anglatadi.

Ota-onasidan yoshligida yetim qolgan Muhammad Shayboniy otasiga otaliq qilgan amir *Boyshayx* qo'lida tarbiyalangan. Boyshayx bu shahzodaga otalarcha mehribonlik ko'rsatgan. Keyinchalik Shayboniyga nufuzli temuriy amirlardan bo'lmish Turkiston va O'tror hukmdori *Muhammad Mazid tarxon* homiylik qildi. Shayboniy ukasi bilan Turkistonda uzoq vaqt yashamadi. Keyinchalik ular Buxoroda yashab, ilm o'rgandilar, she'riyat va ilm-fanga oshno bo'ldilar. Balog'atga yetgani sari Shayboniy ko'nglida bobosi Abulxayrxon davlatini tiklash orzusi jo'sh ura boshladi. U Dashti Qipchoqqa qaytib borib, lashkar to'plashga muvaffaq bo'ladi. Ayni paytda, u bobosining davlatini tiklash yo'lidagi xatti-harakatini dastlab o'z qo'shini bilan temuriylarga yollanma qo'shin lashkarboshisi sifatida xizmat qilishdan boshlagan.

Shayboniyning xizmatidan ham Mo'g'uliston, ham Movarounnahr, ham Xuroson hukmdorlari o'zlarining qo'shnilariga hamda ichki raqiblariga qarshi kurashda foydalanganlar. Bu kurashlarda Shayboniy o'zining mohir lashkarboshilik qobiliyatini namoyon qildi. Turli hukmdorlarga xizmat qilish Shayboniyga Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshi bilib olishga imkon berdi.

Shayboniy bobosi Abulxayrxon vafotidan keyin parokanda bo'lib ketgan qabilalarni birlashtirdi va beayov qonli urushlar natijasida XV asrning 80-yillarida davlatni qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi hamda xonlik taxtiga o'tirdi.

Vaqtlar o'tib Shayboniyxon Sirdaryo bo'ylaridagi qo'rg'onlarni ham egalladi. Bu qo'rg'onlar kelgusida unga Movarounnahrni istilo qilish uchun tayanch vazifasini o'tadi.

9.3. Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hokimiyatining o'rnatilishi

Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishi. Qabilalarning rahnamolari Abulxayrxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro qirg'inlarning yana takrorlanishini aslo istamas edilar. Shu tufayli ular Muhammad Shayboniyxon timsolida bunday qirg'inga yo'l qo'ymaydigan qodir shaxsni ko'rdilar.

Bundan tashqari, Dashti Qipchoq qabilalari ko'pdan buyon o'troq hayot tarzida yashashni orzu qilib kelardilar. Bu orzuning ushali o'zgalarning unumdor yerlarini bosib olish hisobiga ro'yobga chiqishi mumkin edi.

Qabilalar rahnamolari Muhammad Shayboniyxonni o'z orzularini ro'yobga chiqarishga qodir birdan bir shaxs deb hisoblardilar. Shu bois ham ular va ruhoniylar kuchli yollanma qo'shinga ega bo'lgan Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaydilar. Ular yerlari unumdor, hunarmandchiligi rivojlangan o'lkalarda, birinchi navbatda, Movarounnahrda Muhammad Shayboniyxon hokimiyatining o'rnatilishi o'troq hayotga o'tish imkonini berishini ham yaxshi bilganlar. Bu omillar Muhammad Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishiga yordam berdi. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrda ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi ham uning nufuzini yanada oshirdi. Ayni paytda, Movarounnahr aholisi temuriyzodalarning toj-taxt uchun o'zaro kurashlaridan charchagan ham edi. Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari, hatto oddiy aholining ma'lum qismi ham Muhammad Shayboniyxon timsolida Movarounnahrda tinchlik o'rnatishga qodir yagona shaxsni ko'rganlar. Shu sababli Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaganlar.

Shu tariqa Muhammad Shayboniyxonning Temuriylar saltanati hududlarida ham o'z hokimiyatini o'rnatishi uchun barcha zarur shart-sharoit yetilgan edi.

Movarounnahrda Shayboniyxon hukmronligining maqsadi. Muhammad Shayboniyxonning asosiy maqsadi Temuriylar saltanatiga butunlay barham berish edi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun u 1499-yili Movarounnahrda harbiy yurish boshladi. Bu yurish davomida raqiblarini sarosimaga solib qo'ygan jang usuli – *to'lg'amani* qo'lladi. U Samarqandni dastlab 1500-yili qisqa muddatga bo'lsa-da egalladi va yangi o'zbek davlati – Shayboniylar davlatiga asos soldi. 1501-yili esa Samarqandni uzil-kesil bo'ysundirdi.

Samarqand taxti egallangach, Sulton Ali mirzo qatl etildi. Katta qo'shinga ega bo'lgan Muhammad Shayboniyxon endi butun Movarounnahrni egalashga kirishdi.

1503-yili *Toshkent* va *Shohruxiya* shaharlari egallanadi. Shayboniyxon Ulug'bek mirzoning Abulxayrxonga uzatilgan qizi Robiya Sultonbegimning o'g'illari bo'lgan amakisi *Ko'chkunchi sultonni* Turkistonga va uning ukasi

Suyunchxo'ja sultonni Toshkentga, o'zining ukasi *Mahmud sultonni* Buxoro viloyatiga hokim etib tayinladi.

1504-yili esa *Farg'ona* egallandi. Shayboniyxonning harbiy yurishlarida eng faol qatnashgan amakisining o'g'li Jonibek sultonga *Axsi* va *Andijonni* tortiq qildi.

Jonibek sulton Abulxayrxonning yana bir o'g'li *Xo'ja Mahmud sultonning* o'g'li edi.

Shu tariqa butun Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Samarqand shahri poytaxt etib belgilandi.

Xorazm va Xurosonning egallanishi. Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrda mustahkamlanib olgach endi *Xorazmni* zabt etishga kirishdi va 1505-yili uni bosib oldi.

1505-yil kuzida esa *Xurosonga* yurish boshladi. So'nggi yillarda o'zaro ichki nizolar oqibatida inqirozga yuz tutgan temuriylarning Xuroson davlatini egallashi qiyin bo'lmadi. 1506-yili *Balx*, 1507-yili esa *Hiro*t egallandi. Shundan so'ng *Hiro*t o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi nufuzini yo'qotdi.

Xurosonning ham bo'ysundirilishi bilan amalda Muhammad Shayboniyxon butun mintaqani yagona bir markaz – Samarqand qo'l ostida birlashtira oldi. Binobarin, u temuriyzodalar amalga oshirolmagan ishni bajardi. Bu uning davlatchiligimiz oldidagi xizmatidir. Shu tariqa Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o'z ichiga olgan hududda Muhammad Shayboniyxon hukmronligi o'rnatildi va davlatchiligimiz tarixida shayboniylar sulolasi hukmronligi davri boshlandi.

Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qonli to'qnashuv. Bu vaqtda Eronda shoh Ismoil Safaviy hukmdorlik qilayotgan edi. U o'z davri uchun katta va qudratli qo'shin tuza olgan edi. Ismoil Safaviy tuzgan saltanat tarixda Safaviylar davlati nomi bilan mashhur.

Shoh Ismoil davlati kattagina hududlarni o'z ichiga olardi. Bu davlatning bir sarhadi Xuroson bilan, ikkinchi sarhadi esa Usmonli turklar davlati bilan tutashgan edi.

Shoh Ismoil boshliq Eron safaviylarining Xurosonga tazyiqi tobora kuchayib, talonchilik harakatlari avj oldi. Endi bu ikki hukmdor o'rtasida urush bo'lishi muqarrar bo'lib qoldi.

Nihoyat, 1510-yili ikki hukmdor qo'shini to'qnashdi. *Marv* yaqinida bo'lgan jangda Eron qo'shini g'alaba qozondi. Shayboniyxon va uning safdoshlari jangda halok bo'lishdi.

Bu g'alaba tufayli shoh Ismoil butun Xurosonni egalladi.

Etnik jarayonlar. Movarounnahr va Xorazmda o'zbek xalqi IX – XII asrlarda shakllangan. To'g'ri, bu hududlarda yashagan ajdodlarimiz XVI asrgacha

hali yoppasiga o'zbeklar deb atalmaganlar. Qadim-qadimdan tarixiy turkiy etnik guruhlar nafaqat bizning ona zaminimizda, balki boshqa o'lkalarda, shu jumladan, Dashti Qipchoqda ham uzoq yillar davomida yashab kelganlar. Dashti Qipchoqni XIII asr boshlarida zabt etgan mo'g'ullar bu o'lkada yashovchi turkiy qabilalar tarkibiga singib ketganlar va o'z milliyligini yo'qotganlar. Shayboniylar yurtimizni egallagach esa Dashti Qipchoqda yashovchi turli o'zbek qabilalari Movarounnahr va Xorazmga ko'chib kela boshlaganlar. Bu hodisa Vatanimiz hududidagi etnik jarayonga ta'sir etmay qolmagan.

Chunonchi, XVI asrdan Dashti Qipchoqda ham yashovchi o'zbek qabilalari ko'chib kela boshlagach, yurtimizda o'zbek xalqining tarkibi kengayib bordi. Ikkinchidan, ko'chib kelgan turli o'zbek qabilalari iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jihatidan o'zlaridan ustun bo'lgan mahalliy qardoshlari bilan tabiiy suratda yaqinlashdilar. Uchinchidan, ular o'troq hayotga moslashib, shu turmush tarziga xos hamma ijobiy jihatlarni qabul qildilar va bora-bora Movarounnahr va Xorazmda avvaldan yashab kelayotgan qardoshlari tarkibiga singib ketganlar. Faqat hukmron qabila sifatida ulardan mahalliy aholiga «o'zbek» degan etnik nom o'tgan, xolos.

Shu tufayli XVI asrdan Movarounnahr va Xorazmning mahalliy aholisi ham umumiy nom bilan o'zbek deb atala boshlagan.

Bundan o'zbek xalqi XVI asrda shakllangan degan xulosa chiqmasligi lozim.

9.4. Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi va mutafakkir

Bobur mirzoning Shayboniyxonga qarshi kurashi. Shayboniyxon 1500-yili Samarqandni egallagach, Bobur mirzo unga qarshi yurish boshladi. Bu paytda Shayboniyxon Samarqanddan tashqarida edi. Bobur mirzo qo'shini shiddat bilan hujum qilib Shayboniyxonning bu yerda qoldirib ketgan 600 kishilik askarini mag'lubiyatga uchratdi va Bobur mirzo Samarqand taxtini ikkinchi marta egalladi.

Shayboniyxon bu orada chekindi va bo'lajak hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'ra boshladi. 1501-yil aprelida *Zarafshon* bo'yidagi bo'lib o'tgan og'ir jangda Bobur mirzo yengiladi va Samarqandga chekinadi. G'olib Shayboniyxon Samarqandni qamal qilib, Bobur mirzoga sulh taklif qildi. Sulh shartlari Bobur mirzo uchun juda haqoratli bo'lsa-da, unga rozi bo'lmaslikdan boshqa chorasi yo'q edi.

Og'ir va nochor ahvolga tushib qolgan Bobur sulhga binoan Samarqandni tark etib, o'zga yurtlarga ketishga majbur bo'ldi.

Bobur mirzo *Kobulga* borib, bu yerda 1504-yili hokimiyatni qo'lga kiritdi.

1510-yili Shayboniyxon halok bo'lgach, Bobur mirzo shoh Ismoil yordamida Movarounnahrni shayboniylardan qaytarib olish uchun kurash boshladi va, nihoyat, 1511-yilning kuzida Samarqandni uchinchi marta qo'lga kiritdi. Bobur Samarqandni egallagach noilojlikdan islomning shialik yo'nalishiga e'tiqod qiluvchi shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e'lon qildi. Bu esa Samarqand xalqining Bobur mirzodan yuz o'girishiga sabab bo'ldi. Chunki Movarounnahr aholisi, Boburning o'zi ham islomning sunniylik yo'nalishiga e'tiqod qilganlar. Shayboniylar ham shu yo'nalishda edilar. 1512-yilning aprel va noyabr oylarida Shayboniyxonning ukasi Mahmud sultonning o'g'li *Ubaydulla sulton* boshchiligidagi shayboniylar qo'shini bilan bo'lib o'tgan har ikki jangda Bobur mirzo qo'shini mag'lubiyatga uchradi. Noyabr oyidagi jangda shayboniylar shoh Ismoilning Bobur mirzoga yordam uchun yuborgan qo'shinini ham mag'lub etdilar.

Bobur endi Movarounnahrda tamoman umidini uzib, yana Kobulga qaytdi va 1526-yilga qadar Kobulni idora qildi. So'ngra Kobulni ikkinchi o'g'li *Komron mirzoga* qoldirib, o'zi Hindiston sari yurish boshladi. Hindistonda qudratli va shavkatli saltanat egasi bo'lganida ham Vatan xayoli, ayriliq alami Bobur mirzoni aslo tark etmagan.

Boburiylar saltanati. Bobur podshoh 1526-yilning 21-aprelida Dehli hukmdori *Ibrohim Lo'diy* qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Bu g'alaba natijasida Bobur podshoh Shimoliy Hindistonni egalladi. 1526-yilning 27-aprelida *Dehli* shahrida podshoh Bobur nomiga xutba o'qildi. Shu tariqa Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solindi.

Bobur podshoh Hindistonda bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lgan mayda mustaqil rojalarni ham qilich, ham siyosat yo'li bilan birlashtirdi va markazlashgan yirik saltanatni barpo etdi. Bu saltanat 1858-yili Buyuk Britaniya Hindistonni to'liq bosib olguniga qadar hukm surdi.

Chet ellarda, shu jumladan, Hindistonning o'zida ham Bobur podshohni va uning avlodlarini «*buyuk mo'g'ullar*» deb atashgan. Bu mutlaqo xato. Boburiylar yurtdoshimiz, temuriyozda Boburning avlodlaridir. Ular tarixiy hujjatlarda o'zlarini «*boburiy mirzolar*» deb yuritishgan. Boburiylarning mo'g'ullar deb xato atalishiga yevropaliklarning Amir Temurni va temuriylarni mo'g'ullardan kelib chiqqan deb noto'g'ri hisoblashlari sabab bo'lgan.

So'nggi yillarda «*buyuk mo'g'ullar*» deb atalgan ibora o'rnida «*boburiylar*» iborasi qo'llanilishi bilan tarixiy haqiqat tiklandi.

Bobur podshoh 1530-yilning 26-dekabrida 47 yoshida vafot etdi. Uni Agra shahrida, Jamna daryosi yonidagi «*Bog'i Orom*»ga dafn etadilar. Uning vasiyatiga ko'ra, bir necha yildan so'ng Bobur podshoh jasadi Kobuldagi «*Bog'i Kalon*»ga ko'chiriladi. Bu bog'ni Boburning o'zi katta mehr bilan obod qilgan edi. Keyinchalik bu bog' «*Bog'i Bobur*» deb atala boshlangan.

Bobur Sharq mamlakatlari taxtiga munosib hukmdorlarning yorqin namoyandalaridan biridir. Bobur bobokaloni Amir Temurdek bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor bilan qaragan davlat arbobi edi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» («Sher») laqabini oladi.

Bobur podshoh davlat ishlarini yuritishda adolat bilan yo'l tutgan. Turli dinga mansub xalqlarning diniy e'tiqodini, urf-odatlarini kamsitmagan, aksincha, hurmat bilan qaragan.

Shuningdek, Bobur podshoh unga hamroh, safdosh bo'lgan arboblardan kimki o'z vataniga qaytishini istagan bo'lsa, ularning ra'yini qaytarmay ruxsat bergan, ayni paytda, xizmatlariga yarasha muruvvat ham ko'rsatgan.

Bobur – mashhur mutafakkir. Zahiriddin Muhammad Bobur bilimga chanqoq buyuk davlat arbobi bo'lganligi uchun ham bilim olishga intilganlariga hamisha otalarcha g'amxo'rlik qilgan. Uning o'zi ham ajoyib olim, turkiy nazmda asarlar bitgan Alisher Navoiydan keyin turadigan tengi yo'q shoir, yirik bastakor edi. Bobur o'zining «*Boburnoma*» hamda «*Mubayyin*», «*Turkiy devon*» kabi asarlari bilan mashhur ijodkor hamdir.

«Boburnoma» asari Movarounnahr, Xuroson va Hindiston tarixini to'g'ri aks ettirgan asardir. Bu xotira asarlar sirasiga kiradi. Asar 1493 – 1529-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida yilma-yil hikoya qiladi.

Asarda ba'zi temuriy zoda hukmdorlarning birgalashib umumiy dushmanga qarshi kurashish o'rniga o'z dushmanlari bilan o'z manfaatlari yo'lida (Vatan manfaatlari yo'lida emas) kelishishga qilgan harakatlari tanqid qilinadi.

Bobur o'z kitobida Hindiston haqida, jumladan, quyidagilarni yozib qoldirgan: «*Hindiston... bizning viloyatlardan o'zgacha olamdur. Tog' va daryosi, sahrosi, hayvonot va nabototi, eli va tili, yomg'iri va yeli – barchasi o'zgachadir...*»

Hindistonning aksari viloyati tuz yerdan bo'libtur... Hindistonning bir ulug' aybi budurkim, oqar suvi yo'qtur...»

Uning «Mubayyin» asari esa islom huquqshunosligi va islom dinining asoslari, xususan, namoz, zakot va haj ziyoratining mezonlariga bag'ishlangan. Bobur, ayni paytda, «*Xatti Boburiy*» deb ataluvchi alifbo ham yaratgan.

Bobur hamisna barhayot. O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan 1993-yili Bobur tavalludining 510 yilligi keng miqyosda nishonlandi.

Boburning buyuk xotirasini ulug'lash yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, Andijonda Bobur haykali o'rnatildi, ramziy qabr maqbarasi qurildi. «*Bobur milliy bog'i*» va shu bog' qoshida «*Bobur va jahon adabiyoti*» nomli muzey tashkil etildi.

9.5. Buxoro xonligi

Xonlikning tashkil topishi. Shayboniylar urf-odatiga ko'ra vafot etgan xon o'rniga taxtga yoshi katta shayboniy o'tqazilgan. Shuning uchun ham Muhammad Shayboniyxonning o'limidan so'ng taxtga bevosita uning avlodlari emas, amakisi *Ko'chkunchi sulton* o'tqazilgan. To'g'ri, XVI asrning 40-yillaridan so'ng bu urf-odatga rioya etilmay qo'ygan. Ko'chkunchixonidan so'ng taxtga uning o'g'li *Abu Said* (1530 – 1533) o'tirdi. Undan keyin esa hukmdorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud sultonning o'g'li *Ubaydullaxon* (1533–1540) qo'liga o'tdi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan *Buxoroga* ko'chirtirdi. Ubaydullaxon Buxoroga ota meros mulk deb qarar edi, chunki Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi Mahmud sultonga (Ubaydullaxonning otasi) bergan edi. Shu tariqa shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati endilikda rasmiy ravishda *Buxoro xonligi* deb ataladigan bo'ldi.

Ubaydullaxonning tariximizdagi xizmatlari katta. Avvalo, u Ismoil Safaviyning hujumlarini bartaraf etib, Movarounnahrni ularning harbiy-siyosiy tazyiqlaridan saqlab qoldi. Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning poytaxt sifatidagi nufuzi har tomonlama o'sdi.

Ubaydullaxon o'z davlatining chegarasini Shayboniyxon davridagi sardahlarda qayta tiklashga harakat qildi. U Hirotni ishg'ol etgan Eron qo'shinini bir necha marta mag'lubiyatga uchratgan edi. Ayni paytda, u mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurash va tarqoqlikka barham berdi.

Ubaydullaxon vafot etgach esa ichki ziddiyatlar yana kuchaydi. Hokimiyat uchun qattiq kurashlar boshlandi. Shayboniyxon avlodlarining har biri toj-taxtga da'vogar edilar. Ularning har biri o'z ota merosi bo'lgan hududlarda mustaqillikka intilar, imkoni bo'lsa, xonlik taxtini egallash ishtiyoqida edilar.

Buning natijasida Ko'chkunchixonning o'g'li *Abdullaxon I* ning qisqa vaqt hukmdorligidan so'ng mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. Ya'ni bir davlatda ikki hukmdor paydo bo'ldi.

Biri – Ubaydullaxonning o'g'li *Abdulazizxon* Buxoroda, ikkinchisi – Ko'chkunchixonning o'g'li *Abdullatifxon* Samarqandda hukmdorlik qila boshladi. Mamlakat bir necha mustaqil hokimliklarga bo'linib ketdi. Biroq qachondir, kimdir bu holatga chek qo'yishi kerak edi.

Buxoro Abdullaxon II hukmronligi davrida. Mamlakatdagi parokandalikka chek qo'yish uchun markaziy hokimiyatni yana tiklash va kuchaytirish zarur edi. Bu zaruriyatni urushlarsiz amalga oshirib bo'lmas edi. Ana shunday sharoitda kurash maydoniga Miyonqol hokimi Iskandar sultonning o'g'li *Abdullaxon II* (1534 – 1598) chiqdi. U shayboniylar sulolasining yorqin vakillaridan biri Jonibek sultonning nabirasi bo'lgan.

Iskandarxon xonadoniga Buxoro yaqinidagi *Jo'ybor* qishlog'ida istiqomat qiluvchi, g'oyatda katta nufuzga ega shayx *Muhammad Islomning* ixlosi baland bo'lganligi Abdullaxonga bu kurashda juda katta madad bo'ldi.

1556-yili Muhammad Islomning ko'magida Abdullaxon Buxoro taxtini amalda egallaydi. Muhammad Islom Alloh nomidan Abdullaxonning faoliyatiga oq fотиha bergan edi.

Abdullaxon II Xorazm va Xurosonni Movarounnahrga birlashtirish yo'lida ko'p jang-u jadallar olib bordi. Chunonchi, 1574 – 1595-yillar oralig'ida *Balx, Samarqand, Toshkent va Farg'onani, Badaxshonni hamda Xorazmni* zabt etdi va o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi. Shundan keyin uning davlati sarhadlari janubda Hirotdan Mashhadgacha, shimolda Orol dengizigacha, Kaspiy dengizidan Issiqko'lgacha yetdi. Butun Movarounnahr, Xorazm va Xuroson yana yagona hukmdor qo'li ostida birlashtirildi. XVI asr oxirlariga kelib Buxoro xonligi nisbatan markazlashgan ulkan davlatga aylandi.

Rossiyada bu davlatga nisbatan «Великая Бухария» (Buyuk Buxoro) iborasi qo'llangan edi.

Shunday qilib, XVI asrdagi davlatchiligimiz tarixida yetakchi sulola shayboniylar sulolasi bo'ldi. Sulolaning eng qudratli vakili Abdullaxon II davrida esa o'zbek davlatchiligi o'z tarixida yana bir bor yuksak darajaga ko'tarila oldi.

Shayboniylar sulolasi hukmronligining barham topishi. Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish yo'lida shaybomy sultonlarning markaziy hokimiyatni kuchsizlantirishga urinishlariga qarshi tinimsiz va shafqatsiz kurash olib bordi. Bu maqsad yo'lida qarindoshlariga ham shafqat qilmadi. Abdullaxon II garchand davlatni markazlashtira olgan bo'lsa-da, davlatdagi ichki nizolarga barham bera olmagan edi.

Abdullaxon II 1598-yili vafot etgach, taxtni uning o'g'li *Abdulmo'min* egalladi. Biroq o'sha yilning o'zidayoq Abdulmo'min fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Undan qolgan ikki yashar o'g'ilning xonlik huquqini hech kim tan olmadi. Taxt uchun kurash boshlandi.

Buxoroning bir guruh amirlari shayboniylardan Ibodulla sultonning o'g'li *Abdulaminni* taxtga o'tqazishga urindilar. Shayboniylarning boshqa guruhi esa Abdullaxon II ning amakivachchasi – Balx hokimi *Pirmuhammadni* taxtga o'tqazdilar.

Ichki nizolar tufayli Buxoro xonligida sodir bo'lgan og'ir vaziyatdan foydalangan Eron hukmdori shoh *Abbos* bostirib kirib, *Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Hirotni* egallaydi. Xorazm esa xonlik tasarruftdan chiqib, davlat mustaqilligini tiklab oldi. Ayni paytda, qozoq xoni *Tavakkal* Movarounnahrga qo'shin tortib, *Aksi, Andijon, Toshkent, Samarqandni* egallab, *Buxoroga* yurish qildi. Pirmuhammadxon qo'shini 1599-yili Tavakkal qo'shinini tor-

mor keltirdi va Movarounnahr hududini ozod etdi. Qozoqlar qo'shini Dashti Qipchoqqa chekindi.

Pirmuhammad Buxoro xonligini yana ikki yilcha idora qildi. 1601-yili Pirmuhammad va kelib chiqishi ashtarxoniylardan bo'lgan Samarqand hokimi Boqi Muhammad o'rtasida qonli to'qnashuv yuz beradi. Mag'lub bo'lgan Pirmuhammad o'ldirildi. Shu tariqa u ichki nizolar qurboni bo'ldi. Shunday qilib, Abdullaxon II vafotidan atigi 3 yil o'tgach bir asr davom etgan shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi.

9.6. XVI asrda Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Shayboniylar o'tkazgan islohotlar. Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lida qator islohotlar o'tkazdi. Birinchidan, u davlat boshqaruvida *suyurg'ol* tizimini joriy etdi. Ya'ni zabt etilgan hududlarni boshqarish ishini o'z farzandlariga, qarindosh-urug'lariga, birodarlariga topshirdi.

1512-yili shayboniylar Movarounnahrni tamoman egallagach, shayboniy sultonlar mamlakat viloyatlarini qayta taqsimlashni shayboniylarning eng nufuzli vakili Jonibek sultonga topshirganlar. Uning ra'yiga ko'ra Samarqand Ko'chkunchixonga, Toshkent viloyati Suyunchxo'jaga, Buxoro va uning atroflari Ubaydulla sultonga doimiy merosiy mulk qilib berildi.

Lekin *suyurg'ol* mulklar bora-bora markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilganlar.

Ikkinchidan, mamlakatda yer-suv qaytadan taqsim qilindi. Ko'chmanchi qabila zodagonlari yengilgan mahalliy mulkdorlar mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar.

Uchinchidan, mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o'tkazildi. Keyingi *10 yil* ichida soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasi ko'rib chiqildi.

To'rtinchidan, 1507-yili pul islohoti o'tkazildi. Bunga ko'ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil – *5,2 gramm* bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib, muomalaga chiqarildi. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda, bu islohot dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi.

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirlar o'z mohiyatiga ko'ra markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur edi.

Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro toj-u taxt kurashlari hamda Eron bosqinchilariga qarshi kurash mamlakat iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hol, o'z navbatida, pulning qadrsizlanishiga olib kelgan. Natijada oliy hukmdor Ko'chukunchixon navbatdagi pul islohotini o'tkazishga majbur bo'lgan. Shu yo'l bilan ahvolning bir maromga tushishiga erishilgan. Shayboniy Abdullaxon II o'tkazgan pul islohoti ham Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga ega voqea bo'lgan. U oltin pul zarb etishni yo'lga qo'ygan va uning tarkibiga qiymati past bo'lgan boshqa ma'danlar aralashtirilmaligini qattiq nazorat ostiga olgan. Bu pullar xonlikning butun hududida muomalaga kirdi. Bu hol, o'z navbatida, hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi, savdo-sotiq yanada jonlandi.

Iqtisodiy hayot. Shayboniylar davrida ham iqtisodiy hayotda sun'iy sug'orish bilan bog'liq muammolarni hal etish ishiga jiddiy e'tibor bilan qaralgan. Bu sulola vakillari Sangzor, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh va Murg'ob daryolari imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rganlar.

Shayboniyxon avlodlari keyinchalik Qashqadaryoning irmoqlaridan Kesh viloyati yerlarini sug'orish uchun 10 dan ortiq kanallar qazitganlar.

Sun'iy sug'orish ishlari, ayniqsa, Abdullaxon II davrida keng rivojlangan. Masalan, 1556 – 1585-yillar oralig'ida Zarafshon daryosida *Karmana*, *Mehtar Qosim*, *Chahorminor*, *Jondor* suv ayirg'ichlari; Nurota tog'ida *Oqchob*, Murg'ob vohasida *Hovuzixon* suv ombortari qurilgan. Bundan tashqari, Sangzor daryosidan Jizzax vohasiga *Tuyatortar* kanali, Somonjuq dashtini obodonlashtirishga xizmat qilgan *Xoja Ka'ab* kanali, *Afshona* kanali, Amudaryodan Chorjo'yga, Murg'obdan Marvga, Vaxshdan uning atrof vohalariga suv chiqarishga imkon beruvchi kanallar qazilgan.

Bundan tashqari, Abdullaxon II karvon yo'llarini qayta jonlantirish, sardobalar, karvonsaroylar qurish va ta'mirlashga ahamiyat berdi. 1577-yili Buxoroda yirik usti berk bozor – Abdullaxon timi qurildi. Nurota tumanidagi Oqchob yaqinida Beklarsoy darasida joylashgan qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan band (to'g'on) qurdirdi. Abdullaxon bandi uning ravoqlarini to'g'on tepasida turib ochishi yoki berkitishi mumkin edi. Maqsad esa o'sha atrofdagi bo'z yerlarni sug'orib, dehqonchilikni rivojlantirish va yurtni obod qilish edi.

Bu tadbirlar, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlagan.

Shayboniylar davrida ishlab chiqarish tarmoqlari bo'lgan tikuvchilik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, qog'oz va qurilish ashyolarini ishlab chiqarish rivojlangan.

Shayboniylar davrida davlat boshqaruvi. Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan viloyatlar va tumanlarga bo'lingan. Xonlikda oliy davlat idorasi temuriylar

davridagidek *dargoh* deb atalgan. Uning tepasida *xon* turgan. Ijro etuvchi hokimiyat ham avvalgidек *devon* (vazirlik) deb atalgan. Unga *devonbegi* (bosh vazir) rahbarlik qilgan. Katta nufuzga ega bo'lgan devonbegi, ayni paytda, davlatning moliya va xo'jalik ishlarini ham boshqargan. Biroq shayboniylar davrida devon faoliyati temuriylar davridagidek nufuzga ega bo'lmagan. Bunga dargohdagi mansablar mavqeyining kuchli bo'lmaganligi sabab bo'lgan.

Yana bir katta davlat mansabi *otaliq* edi. Xon siyosatining viloyatlardagi ta'siri otaliq mansabiga tayinlanganlarning nufuzi bilan belgilangan. Xon viloyatlarni shahzodalarga taqsimlab berar ekan, ularga rahnamo etib o'z nazoratchisini, ishongan kishisini tayinlagan. Bunday nazoratchi, ishonchli shaxs otaliq deb atalgan. Balog'atga yetmagan shahzodalar ulg'ayib, mustaqil faoliyat yuritgunlariga qadar viloyatlardagi davlat ishlarini ularning nomidan otaliqlar boshqargan.

Yana bir davlat mansabi *parvonachi* deb atalgan. Uning vazifasi xon farmonlarini, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazishdan iborat bo'lgan.

Dodxoh mansabida ishlagan amaldor dargohga tushgan arizalarni qabul qilgan va ularga javob qaytargan. Shuningdek, dodxoh mamlakatda adolat mezonlariga amal qilinishini ham nazorat qilgan.

Muhim davlat mansablaridan yana biri *ko'kaldosh* mansabi edi. Bu mansabga xon sufolasiga eng yaqin shaxslardangina tayinlangan. Ko'kaldosh xon siyosatiga fuqarolarning munosabatini o'rgangan va bu siyosatning daxlsizligini ta'minlagan.

Xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar masalasi bilan *xon yasovuli* mansabida ishlagan amaldor shug'ullangan.

Shayboniylar davlatida *eshikog'aboshi* lavozimi ham muhim sanalgan. U dargoh xavfsizligi, undagi tartib hamda kelgan-ketganlardan xabardor bo'lib turish masalalari bilan shug'ullangan.

Yuqori davlat lavozimlari ichida katta mavqega ega bo'lgan lavozimlardan yana biri *shayxulislom* hisoblangan. Shayxulislom shariat qonunlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirgan.

Qozikalon degan amaldor esa sud ishlariga yetakchilik qilgan.

Yana bir muhim davlat lavozimi *muhtasib* (rais) deb atalgan. Bu lavozimni egallagan amaldor mamlakatda jamoat tartibining saqlanishini, diniy marosim va amallarga rioya qilinishini kuzatgan, bozorlarda narx-navo va tarozilarning to'g'riligini nazorat qilish bilan shug'ullangan.

Mehtar lavozimiga tayinlangan mansabdor esa zakot va boshqa tushumlardan tushgan mablag'larni zarur o'rinlarda ishlatishni nazorat qiluvchi amaldor hisoblangan.

Xonlikda davlat lavozimi mansabdori hisoblanmasa-da, *naqib* unvoniga sazovor bo'lgan shaxsning xon saroyida nufuzi baland edi. Chunonchi, u xonning yaqin va ishonchli kishisi sanalgan. Ayni paytda, u davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning maslahatchisi ham hisoblangan. Zarur bo'lganda elchilik vazifasini ham bajargan.

Ichki ziddiyatlar. Shayboniylar davlatidagi ichki ziddiyatlar markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatlarda to'la namoyon bo'lgan.

Shayboniylar davrida yer egaligining *iqto*, *suyurg'ol*, *tanho* va *jogir* turlari bo'lgan. Shayboniixon davrida davlatni katta-kichik mulklarga (suyurg'olga) bo'lib idora qilinardi. Bu hol suyurg'ol egalaringning markaziy hokimiyatdan ajralib chiqishiga sharoit yaratardi. Shayboniixon bu xatoni tuzatishga urinib, bo'ysunishni istamagan mahalliy hukmdorlar mustaqilligini tugatishga, ayrim hukmdorlarni almashtirishga harakat qildi. Bu esa mahalliy hukmdor va zamindorlarning keskin noroziliklariga sabab bo'ldi.

Shayboniylar davrida mehnatkashlarning iqtisodiy ahvoli nochor edi. Ko'pchilik omma yersiz bo'lib, ijaraga yer olib ishlashga majbur edi. Asosiy soliq sug'oriladigan yerdan olinadigan *xiroj* bo'lib, daromadning 30 – 40 foizini tashkil qilardi. Davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq *ixrojat* deb atalardi. Davlat pulga muhtoj bo'lganida favqulodda soliqlar ham joriy etilgan.

Aholi soliq va jarimalar to'lashdan tashqari mehnat majburiyatini ham o'tashi kerak edi. Bu majburiyat aholini kanallar, zovurlar qazishga, yo'l va ko'priklar qurishga, yem-xashak yig'ishga jalb etishni nazarda tutardi.

9.7. Buxoro xonligining tashqi siyosati

Buxoro va Boburiylar davlati munosabatlari. Hindistondagi Boburiylar saltanati bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'rnatilishi Bobur va Ko'chkunchixon nomi bilan bog'liq.

Ko'chkunchixon hukmronligi davrida Buxoro xonligi Boburiylar davlatini tan oldi hamda u bilan savdo va elchilik munosabatlarini o'rnatdi.

Ko'chkunchixonning elchisi xon tomonidan Boburga Movarounnahrning mashhur mayzilaridan, subhoni o'riklaridan va boshqa noyob ne'matlaridan yetti tuyaga yuklangan sovg'a-salamlari qatorida tortiq qilingan 200 ta yaxshi ot olib kelganligi manbalarda qayd etilgan. O'z navbatida, Bobur ham Buxoro xonligiga elchilar yuborgan. Bu ikki davlat o'rtasidagi savdo va elchilik munosabatlari Boburning o'g'li Humoyun hukmronligi yillarida ham davom etgan. Bunday munosabatlar keyingi shayboniy va boburiy hukmdorlar davrida yanada kengaygan. Chunonchi, Buxoro xoni Abdullaxon II

safaviylarga qarshi kurashda boburiylar bilan birga harakat qilishga intilgan. Shu sababdan 1572-yili Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga o'zining elchilarini yubordi. Buxorolik elchilar o'z hukmdorining sovg'a-salomlari va maktubini olib borganlar. Bir qancha vaqtdan so'ng yana javob sovg'a-salomlari va maktubini olib o'z vatanlariga qaytganlar. Abdullaxon o'z maktubida ikki davlat o'rtasida do'stlik munosabatlarini mustahkamlash istagini bayon qilgan edi. Bundan ko'zlangan maqsad boshqa davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan hujum xavfiga qarshi ittifoq tuzish edi. 1577-yili Abdullaxon II Hindistonga ikkinchi marta elchi yuborgan. Bu elchi almashishdan siyosiy maqsad ko'zlangan edi. Abdullaxon II to'g'ridan to'g'ri Eronni o'zaro taqsimlab olishni taklif qildi. Lekin Akbarshoh bunga rozi bo'lmadi. Chunki Akbarshoh fuqarolari turli din va diniy yo'nalishlarga e'tiqod qiluvchi davlatlarning bir-biriga toqat qilib yashashlari tarafdori, diniy bag'rikenglikni davlat siyosati darajasiga ko'targan hukmdor edi. Qolaversa, u Eron bilan yaxshi munosabatda bo'lgan.

Akbarshoh tez orada Hindistonning shimolidagi Sind va Kashmirni egallaydi. Buxoro xonligi bu voqeani Hindistonning shayboniylar davlatining janubiy chegarasiga yaqinlashuvi deb hisoblaganlar. Chunki Movarounnahrda ham, Hindistonda ham Akbarshohni o'z bobosi yurti – Movarounnahrni egallab olishga undovchi kuchlar bor edi.

Shunday sharoitda Abdullaxon II 1584-yili Badaxshonni egallaydi. Bu voqeadan so'ng Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga 1585-yili uchinchi marta elchi yubordi. Elchi Akbarshohga topshirgan maktubda Abdullaxon Badaxshonning egallab olinishi sabablarini tushuntirishga harakat qilgan edi. Abdullaxonning fikricha, musulmonlarning muqaddas shaharlari bo'lgan Makka va Madinaga boradigan yo'l Badaxshon orqali o'tardi. Bu yo'lni g'ayridinlardan tozalash maqsadida Badaxshonni egallaganini bildiradi.

1586-yili Akbarshoh o'z elchisini Abdullaxonning elchilariga qo'shib Buxoroga yuboradi. Akbarshoh o'z maktubida Abdullaxonga Turkiya Eronning bir qismini bosib olganligidan tashvishlanayotganligini, Buxoro va Hindiston birgalikda Eronga yordam ko'rsatishi zarurligini ma'lum qilgan edi. Biroq Eron Shayboniylar davlatini o'zining asosiy raqiblaridan biri deb hisoblab kelayotgani uchun Abdullaxon II bunday ittifoqqa rozi bo'lmaydi. Bu paytda Eron shohi Abbas I Eronni birlashtirishga, mustahkamlab olishga erishgan edi. Ana shunday sharoitda Badaxshonda Abdullaxonga qarshi isyon ko'tarildi. Buxoroda bu isyonda Akbarshohning qo'li bor degan gumon paydo bo'ldi. Badaxshon hokimi, Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'min Akbarshohga maktub yo'llab, undan boshpana berilgan badaxshonlik isyonchilarni Buxoroga qaytarib yuborishini talab qildi. Natijada ikki davlat o'rtasidagi mu-

nosabatlarga sovuqchilik tushadi. Biroq Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga o'z elchisini yuborib, o'g'lining xatti-harakati uchun undan uzr so'ragan.

Buxoro – Turkiya (Usmonli turklar davlati) munosabatlari. Manbalarda ta'kidlanishicha, Muhammad Shayboniyxon bilan Turkiya sultoni Boyazid II o'rtasida Eron safaviylariga qarshi kurash to'g'risida shartnoma tuzilgan. Bu shartnoma Shayboniyxondan keyin ham davom etdi.

1515-yili turk sultoni Sulton Salim huzuriga shayboniylik elchisi bordi. O'z navbatida, Sulton Salimning elchisi o'sha yili Buxoro xonligiga sultonning maktubini olib keladi. Sulton o'z maktubida Ubaydullaxonni Eronda qarshi kurashga chaqiradi. Bu chaqiriq ostida, aslida, Turkiyaning manfaati yotar edi. Turkiya Buxoro xonligining ichki ishlariga ham aralashgan. Chunonchi, shayboniyzodalarning Movarounnahr taxti uchun kurashida Turkiya Toshkent hokimi *Baroqxon Navro'z Ahmadxon ibn Suyunchxo'jaxon*ga yordam uchun harbiy kuch ham jo'natgan. Baroqxonning Toshkentdagi qarorgohida 300 nafar turk askari doimiy xizmatda bo'lgan, qurol-aslaha bilan ham ta'minlab turilgan.

Turkiya safaviylarga qarshi kurashda shayboniylik kuchidan foydalanibgina qolmay, Buxoro xonligida o'z siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida ham bu ichki kurashlarda faol qatnashdi.

Buxoro va Eron munosabatlari. Buxoro va Eron manfaatlari to'qnashgan asosiy hudud Xuroson edi. Buning sababi Xurosonning ham harbiy-siyosiy, ham savdo-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligida edi.

Bundan tashqari, Xuroson Buxoro xonligi, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini ham o'tar edi.

Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylik va safaviylik o'rtasida keskin kurash ketgan. Bu masalada Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronligi davrida shayboniylik ustunlik qildilar. Abdullaxon II Xurosonning Marv, Nishopur va Mashhad kabi yirik shaharlarini egallagan.

Buxoro – Rossiya munosabatlari. Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari XVI asrning ikkinchi yarmidan rivojlana bordi. Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilar ekan, bu orqali o'z davlatining siyosiy ahvolini mustahkamlashga ham erishmoqchi edi. Chunki podsho *Ivan Grozniy* (1533 – 1584) davrida Rossiyaning mavqeyi kuchaya bordi. Ivan Grozniy davrida Qozon xonligi (1552), Hojitarxon xonligi (1556), Volga bo'ylari va G'arbiy Sibir hududlari Rossiya tomonidan bosib olingan edi.

Bu hol Rossiyaga savdo yo'llarini nazorat qilish imkonini berdi.

Volga atrofidagi viloyatlarda savdo-sotiq ishlarini olib borish Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar uchun ancha qulay edi. Ularga eng yaqin qo'shni mamlakat Rossiya bo'lib qolgandi. Bu hol ko'p jihatdan Qozon tatarlari hamda boshqirdlarga din va til yaqinligi bilan izohlanar edi. Shuning uchun ham

Abdullaxon II tomonidan 1557 – 1558-yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Elchilar Astraxan orqali Moskvaga borib, Ivan Grozniy huzurida bo'ladilar. Ular o'z xonlari nomidan savdogarlarning Volga bo'ylab erkin o'tishlariga ijozat so'raydilar. Elchilar Moskvadan juda ko'p o'q-dori, ov qushlari va matolar bilan qaytgan.

Ayni paytda, Rossiya ham Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Bu manfaatdorlik, avvalo, Buxoroning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligida edi. Ikkinchidan, Rossiya Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lardi. Bunda, birinchi navbatda, Hindistonga chiqish maqsadi hisobga olingan edi. 1555-yili Moskvada tashkil etilgan «*Moskva savdo kompaniyasi*» vakili *Antoniy Jenkinson* boshliq elchilar rus podshosining javohnomasi bilan 1558-yili Buxoroga yuboriladi. Elchi Antoniy Jenkinson Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan qabul qilindi. Elchi xonlikning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini «*Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohat*» nomli esdaliklarida bayon etadi.

Antoniy Jenkinson elchiligi natijasida Rossiya va Buxoro xonligi o'rtasida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi.

9.8. XVI asrda Buxoro xonligida madaniy hayot

Ta'lim sohasidagi islohotlar. Shayboniylar temuriylar davrida yurtimizda yaratilgan yuksak rivojlangan madaniyatga munosib voris bo'la olmaganlar. Shunday bo'lsa-da, shayboniylar davrida ilm-fan va madaniyat baholi qudrat rivoj topdi. Bunga ushbu sulola hukmdorlari orasidan o'z davrining yetuk ilm-fan arboblari yetishib chiqqanligi ham ta'sir ko'rsatgan. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon va Ubaydullaxon o'z davrining nihoyatda o'qimishli kishilari bo'lganlar.

Shuningdek, Muhammad Shayboniyxon, Abdulazizxon va Abdullaxon kutubxonalari o'z zamonasining ajoyib kitob xazinalari bo'lgan.

Muhammad Shayboniyxon Buxoro va Samarqandni temuriylardan so'ng fan, madaniyat va san'at markazlari sifatida rivojlantirishga harakat qildi. Shayboniylar ta'limni rivojlantirish maqsadida islohot ham o'tkazganlar. Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo'yicha ilmiy, diplomatik qobiliyatga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko'ra ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi. Har bir mahallada maktab ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi. Bolalarga 6 yoshdan ta'lim beriladigan bo'ldi. Maktabda ikki yil o'qigach o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi.

XVI asrda Samarqandda Shayboniyxon madrasasi, Buxoroda Abdullaxon, Toshkentda Baroqxon va Ko'kaldosh kabi qator madrasalar hamda boshqa ta'lim muassasalari quriladi va faoliyat yuritadi. Madrasada uch bosqichli ta'lim joriy etilgan, uning har bir bosqichi 7 yildan bo'lib, 21 yil davom etardi. O'quvchilar ilohiyot ilmi, hisob-kitobdan, handasa, fiqh, mantiq, musiqa, she'r san'atidan ilm olardi. Albatta, ta'lim olishga hammaning ham imkoni bo'lmas edi.

Ilm-fan. Shayboniylar davrida tibbiyot, matematika va astronomiya kabi fanlar ma'lum darajada rivojlangan. Tibbiyot ilmidagi rivojlanish o'z zamonasida «tabiblar iftixori» deb sharaflangan *Muhammad Mazid*, jarroh mavlono *Baqo*, ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan *Shohali ibn Sulaymon*, «*Davolash bo'yicha dastur*» asari muallifi *Sultonali Samarqandiy*, «*Ko'z kasalligiga doir asosiy kitob*» asari bilan mashhur bo'lgan *Ubaydulloh Kahhol* kabi alloma tabiblarning nomi bilan bog'liqdir. *Muhammad Amin*, *Bobokalon Samarqandiy*, mavlono *Kavkaviy* matematika fanining, *Muhammad Husayni Buxoriy* «*Qibla tomonini topish ma'rifati*», *Mahmud ibn Ahmad Faroziy* esa «*Oy fazolarining tengligi haqida risola*» asarlari bilan astronomiya ilmi rivojiga munosib hissa qo'shganlar.

Shayboniylar davrida tarix fani sohasida ko'plab yirik tarixiy asarlar yaratilgan. Ular orasida *Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma»*, *Muhammad Solihning «Shayboniynoma»*, *Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy»*, *Fazlulloh ibn Ro'zbxonning «Mehmonnomayi Buxoro»*, *Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma»*, «*Sharafnomayi shohiy*», *Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiyning «Tarixi jadidayi Toshkand»* kabi asarlari shular jumlasidandir. *K.Binoiyning «Shayboniynoma»* asari *Dashti Qipchoq* va *Movarounnahrning XV asr o'rtalaridan XVI asr boshlarigacha* bo'lgan davr voqealarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, shayboniylar bilan *Eron safaviylari o'rtasidagi munosabatlar haqida* muhim ma'lumotlar beradi.

*Muhammad Solihning «Shayboniynoma»*si esa o'zbek tilida yozilgan asar bo'lib, u *Shayboniyxonning harbiy yurishlariga bag'ishlangan*.

«*Abdullanoma*» asari muallifi mazkur asarini *Chingizxonning Movarounnahr istilosi, chingiziylar hukmronligining o'rnatilishi, Dashti Qipchoqda Abulxayrxon davlatining tashkil etilishi, Shayboniyxonning harbiy yurishlari, uning o'limidan so'ng Movarounnahrda vujudga kelgan ahvol, Abdullaxon II ning mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish yo'lida olib borgan kurashi tarixiga bag'ishlagan*.

Adabiyot. Shayboniylar davrida adabiyot ham rivojlandi. Bu davr adabiyotida *M.Shayboniyxon, uning jiyani Ubaydullaxon, K.Binoiy, M.Solih va Mushfiqiy* alohida o'rin tutadi.

Umrining asosiy qismini jang-u jadallarda o'tkazgan *Muhammad Shayboniyxon*, ayni paytda, she'riyat bilan ham shug'ullangan. U o'zidan yuqori

naviyali badiiy asarni meros qilib qoldirgan. Uning asarlari bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlariga olib ketilgan. Masalan, yozib qoldirgan she'rlari to'plami bo'lmish «Devon»i *Istanbul* shahri kutubxonasida saqlanib kelmoqda.

Shayboniyxon o'zining she'rlarida, ayniqsa, Samarqand va Buxoro shaharlarini eng ko'p madh etgan. Chunonchi, bir she'rida Samarqandni jannatga qiyoslaydi:

*Jannati ma'no bog'i Samarqand emish,
Kavsari a'lo degan obi Samarqand emish.
Buxoro shahrini esa Ka'ba darajasida ulug'laydi:
Bir xayolim bor, ko'ngulkim pir vafiy aylayin,
Ul Buxoro shahrida Ka'ba tavofin aylayin.*

Muhammad Shayboniyxonning jiyani Ubaydullaxon o'zining g'azal, ruboiy, qit'a va tuyuqlari bilan she'riyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. U «*Ubaydiy*», «*Ubaydullo*» va «*Qul Ubaydiy*» taxalluslari bilan ijod qilgan.

U fors va arab tillarini yaxshi bilgan hamda shu tillarda ham ijod etgan.

O'zbek, fors va arab tillaridagi she'rlari uch devonda to'plangan. Keyinchalik ular bitta muqova ichiga jamlangan va «*Kulliyot*» deb nomlangan.

M.Solihning «Shayboniynoma»si, ayni paytda, adabiyotga oid asar – doston hamdir. Adabiyotimizda bu asar o'zining yuksak badiiy saviyasi va tilining soddaligi bilan ajralib turadi.

Abdullaxon II saroyida xizmat qilgan va «*Malik ush-shuaro*» unvoniga sazovor bo'lgan shoir Mushfiqiy o'z she'rlarida yuqori tabaqa vakillarining adolatsizliklarini ayovsiz fosh etgan.

Me'morchilik. Shayboniy hukmdorlar poytaxt Buxoro va uning atroflarini obod qilishga intildilar. XVI asr davomida shu davrning barcha muhandislik imkoniyatlari va jamiyatning ma'naviyat va madaniyati darajasiga mos ravishda ko'plab binolar, me'moriy majmualar, inshootlar bunyod etildi.

Ularning orasida Buxorodagi Mir Arab, Abdullaxon, Samarqandda qurilgan Shayboniyxon, Toshkentda qurilgan Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari me'morchiligimizning yorqin namunalari hisoblanadi. Baroqxon madrasasi shayboniy hukmdor Suyunchxo'jaxonning o'g'li Baroqxon tomonidan qurilgan. Madrasa gumbazining balandligi 22 metrni tashkil etadi. Mustaqillik yillarida bu madrasada ham katta ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Mir Arab madrasasi *Shayx Abdulla* (Mir Arab) tomonidan 1530 – 1536-yillarda qurilgan. Uni qurish uchun sarflangan xarajatlarni Buxoro xoni Ubaydullaxon bergan. Madrasa ulkan peshtoqli. Ikki yonida baland gumbazli keng darsxona, masjid va go'rxona bor. Go'rxonada Ubaydullaxonning sag'anasi va Mir Arab hamda uning qarindoshlarining qabrlari bor. Madrasa bugungi kunda ham islom oliy diniy o'quv muassasasidir.

Buxoroga kelgan Rossiya elchisi Antoniy Jenkinson: «*Buxoro juda katta shahar, unda g'ishtlik imoratlar, serhasham binolar ko'p. Hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki, ularning misli dunyoda yo'qdir*», – deb yozadi.

Ayniqsa, Abdullaxonning yurt obodonchiligi yo'lidagi sa'y-harakatlari tarixchilar tomonidan yuksak baholangan. Uning davrida markaziy hokimiyat kuchayishi tufayli katta qurilish ishlari amalga oshirilgan.

10-BOB. ASHTARXONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGI

10.1. Ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi

Buxoroda hokimiyatning ashtarxoniylarga o'tishi. Shayboniylarga amakivachcha ashtarxoniylar *Jo'jixon* naslidan bo'lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Ashtarxon xonligida (Hoji Tarxon, Astraxan) hukmronlik qilganlar. Ruslar bu xonlikning nomini Astraxan deb atagan. 1556-yili Astraxanni Rossiya bosib olgach, Ashtarxonning sobiq hukmdori Yormuhammadxon oila a'zolari va qarindosh-urug'i bilan Buxoroga keladi. Ularni Buxoro xoni Iskandarxon (Abdullaxon II ning otasi) izzat-ikrom bilan kutib oladi. Iskandarxon qizi *Zuhrabegimni* Yormuhammadxonning o'g'li *Jonibek sultonga* beradi. U shu tariqa Buxoro xoni oilasining a'zosi bo'lib qoldi. Jonibek sulton Zuhrabegimdan uch o'g'il (Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad) ko'radi. Jonibek sulton va uning o'g'illari Buxoro xonligida yuksak mavqega erishib, Buxoro xonligi viloyatlarida hokim vazifasida faoliyat yuritadilar.

Shayboniylar sulolasidan munosib taxt vorisi qolmagach, Jonibek sulton xonlik taxtiga eng munosib nomzod bo'lib qoldi. Xonlikning nufuzli kishilari unga taxtni egallashni taklif etganlar. Lekin u o'g'li Din Muhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Biroq bu orada Din Muhammad vafot etadi.

Natijada 1601-yili Jonibek sultonning ikkinchi og'li, Samarqand hokimi *Boqi Muhammad* Buxoro taxtiga o'tqazildi. Shu tariqa Buxoro xonligi tarixida yangi sulola – *ashtarxoniylar* sulolasi hukmronligi boshlandi.

Markaziy boshqaruv hokimiyatini mustahkamlash uchun kurash. Boqi Muhammad (1601 – 1605) mamlakat sarhadlari jipsligini mustahkamlash, boshqaruv tizimini izga solish uchun ko'p urindi. 1602-yili Eron safaviylariga zarba berib, Balxni kuch bilan bo'ysundirdi va ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. 1603-yili Eron safaviylarining Balxga hujum qilgan qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Boqi Muhammad Toshkent uchun qozoq sultonlariga qarshi kurashdi. Qozoq xoni *Keldimuhammad* qo'shinlarini mamlakat hududidan haydab chiqarib, qator hududlarni Buxoro xonligiga bo'ysundirdi.

1605-yili Boqi Muhammad vafot etgach, uning ukasi *Vali Muhammad* taxtga o'tqazildi. Ichki kurash yana avj oldi. Qabila beklari xon hokimiyatiga bo'ysunmay, muxolifatchilikni kuchaytirdilar. Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirganligidan xabar topgan Vali Muhammad Eronga qochadi. Amirlar taxtga Boqi Muhammadxonning o'g'li *Imomqulixonni* (1611 – 1642) o'tqazdilar. U Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo'shinlarini tor-mor keltirib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoldi. Vali Muhammad asir olinib, qatl etildi.

Imomqulixon Toshkent va xonlikning shimoli-sharqiy chegaralari uchun qozoqlar, asosiy negizi oyrotlardan kelib chiqqan jung'ortar va qalmiqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. 1613-yili Toshkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, Toshkentni o'z tasarruftga kiritdi.

Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi.

Siyosiy tarqoqlikning kuchayishi. Imomqulixonidan keyin taxtni egallagan *Nodir Muhammad* (1642 – 1645) davrida siyosiy tarqoqlik yana kuchaydi. Xonning o'zi mamlakatning asosiy viloyatlarini 12 nafar o'g'li, 2 nafar jiyani va nabirasiga mulk qilib taqsimlab berdi. Oqibatda davlatchilik asoslarini zaiflashtirdi. 1645-yili qozoqlar yana Movarounnahrga yurish qilib, *Xo'jand*-gacha yetib keladilar.

Nodir Muhammad ularni quvib chiqarish uchun o'g'li Abdulaziz boshchiligidagi katta qo'shinni safarbar etadi. Xondan norozi bo'lgan bir guruh amirlar yurish davrida Abdulazizni xon deb e'lon qiladilar. Abdulaziz Buxoroga keladi, asizodalar uni taxtga o'tqazadilar.

Nodir Muhammad Balxga qochib ketadi va toj-u taxtni qaytarib olish maqsadida Hindiston podshohi temuriyzoda *Shoh Jahon*dan yordam so'raydi. Shoh Jahon Balx viloyatini o'ziga bo'ysundirish maqsadida u yerga o'g'illari *Murodbaxsh* va *Avrangzeb* boshchiligida katta qo'shin yuboradi. Nodir Muhammad Shoh Jahon o'g'illari yordamga emas, Balx viloyatini egallash uchun kelayotganini bilgach ularga qarshi chiqadi. *Maymana* yo'lida bo'lgan jangda Nodir Muhammad yengilib Eronga qochadi va shoh Abbos huzurida panoj topadi.

1647-yili Shoh Jahonning o'g'illari Balxni egallaydi. Nodir Muhammad shoh Abbos yordamida Balxni qayta egallaydi. Bu voqealardan tashvishga tushgan Abdulazizxon ukasi Subhonquli yetakchiligida Balxga katta qo'shin yuboradi, 1651-yili Subhonquli Balxni egallaydi va u Balx hokimi etib tayinlanadi. Nodir Muhammad esa Makkaga hajga borayotib yo'lida vafot etadi.

Buxoro – Xiva munosabatlari. Abdulazizxon davrida (1645 – 1681) Xiva xonlarining talonchilik yurishlari kuchayadi. 1655-yili Xiva xoni Abulg'oziyxon katta qo'shin bilan yurish qilib, Buxoro atroflarini ikki bor talon-toroj qiladi. *Qorako'l* aholisining bir qismini asir olib, *Karmanani* vayronaga aylantiradi. 1658-yili Vardonzeni talab, 1662-yili Buxoro shahrigacha yetib boradi.

Tinimsiz urushlar, ichki ziddiyatlar Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini murakkablashtirib yuborgandi, siyosiy vaziyat izdan chiqqandi. Keksayib qolgan Abdulazizxon 1681-yili taxtdan voz kechadi.

Abdulazizxondan keyin taxtga o'tirgan *Subhonqulixon* (1681 – 1702) davrida ham ahvol o'nglanmadi. Subhonqulixon, bir tomondan, Balx viloyatlarida hokimlik qilayotgan o'g'illariga qarshi, ikkinchi tomondan, Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi urushlar qilishga majbur bo'ldi. Uchinchi tomondan, Xiva xoni Anushaxon qo'shinlari hujum qilib Buxoro, Karmana va Vardonzeni egalladi, hatto Samarqandni ham ishg'ol qildi. Samarqandda Anushaxon nomiga xutba o'qitilib, uning nomidan tanga pullar zarb etiladi.

Subhonqulixon qatag'on urug'idan bo'lmish Badaxshon hokimi *Mahmudbiy otaliq* yordamida Xiva qo'shinlarini Samarqanddan quvib chiqarishga erishdi. Subhonqulixon Xiva hujumiga chek qo'yish uchun Anushaxonga qarshi fitna tayyorlaydi. Natijada Xiva xoni Anushaxon taxtdan tushiriladi. Subhonqulixon 1688-yili Xivadagi tarafdorlari xizmatidan foydalanib xonlikni Buxoro xonligi tasarrufiga oladi.

Qirg'inbarot urushlar, ichki nizolar oxir-oqibat mamlakat iqtisodiyotini chuqur tanazzulga tushiradi.

10.2. XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida siyosiy tarqoqlikning kuchayishi va uning oqibatlari

Buxoro xonligi Ubaydullaxon II davrida. 1702-yili Subhonqulixon vafot etgach, toj-u taxtni uning o'g'li *Ubaydullaxon II* (1702 – 1711) egallaydi. Ubaydullaxon II goh isyonkor qabilalarga qarshi, goh bo'ysunmas mahalliy hukmdorlarga, goh davlat sarhadlariga bostirib kirgan ko'chmanchilarga qarshi urush olib borishga majbur bo'ldi. Ubaydullaxonning asosiy maqsadi siyosiy tarqoqlikni tugatishdan iborat edi. U ana shu maqsad yo'lida harakat qildi.

Dastlab u Balxni bo'ysundirish yo'lini izladi. Ma'lumki, Ubaydullaxon II ning otasi Subhonqulixon Balxni qatag'on qabilasi boshlig'i, Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqqa alohida xizmatlari uchun tortiq qilgan edi. Ubaydullaxon davrida Mahmudbiy Balxda hokimiyatni to'liq o'z qo'lga oladi va o'zini 1706-yili xon deb e'lon qiladi. Tez orada u *Termizni* ham egallaydi. Ubaydullaxon avval Termizga, so'ngra Balxga yurish qilib, 1707-yili *Balxni* egallaydi. Mahmudbiy qochib ketadi. Ubaydullaxon Buxoroga qaytgach, Balxni yana Mahmudbiy egallaydi. Oxir-oqibat Ubaydullaxon uning mustaqilligini tan olishga majbur bo'ladi.

Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan Farg'ona vodiysida ham XVIII asr boshlarida ajralib chiqish harakati boshlanib, hokimiyat avval Chust ya-

qinidagi *Chodak* xo'jalari qo'lga o'tadi. 1710-yili esa hokimiyatni *ming* urug'i boshlig'i *Shohruxbiy* egallab, mustaqil Qo'qon xonligiga asos soladi.

Mustaqillikka intilayotgan viloyat hokimlari tomonidan Ubaydullaxonga qarshi fitna uyushtirildi va u 1711-yili o'ldirildi.

Shunday qilib, parokandalikka qarshi, oliy hokimiyatni kuchaytirish va mamlakat birligini ta'minlash uchun kurashgan Ubaydullaxonning hukmronligi fojiali yakunlandi.

Taxtga Ubaydullaxonning inisi *Abulfayzxon* (1711 – 1747) o'tqazildi. *Abulfayzxon* tomonidan fitnaning hamma ishtirokchi va ijrochilari saxiylik bilan mukofotlandi. Ular katta-katta lavozim egalari bo'ldilar. Ubaydullaxonning yaqinlari, amaldorlarining mol-mulklari talandi, o'zlari esa qatl etildi.

Xonlikda parokandalikning kuchayishi. *Abulfayzxon* kundan kunga mamlakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amirlar va zodagonlar qo'lida bir qo'g'irchoq hukmdor edi, xolos. Bu davrga kelib xonning ahvoli shu darajaga borib yetdiki, uning farmonlari saroy ostonasidan nariga o'tmaydigan bo'lib qoldi. Zamondosh tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda, *Abulfayzxon* «*Registon (ya'ni saroyning oldi) tinch bo'lsa bo'lgani*» degan gapni doimo takrorlab turgan.

Xon hokimiyatining bu darajaga tushib qolishiga xonlikning muntazam qo'shinga ega bo'lmaganligi ham sabab edi. Muntazam qo'shin tuzishga va uni saqlashga mablag' yetishmagan. Bunday yetishmovchilikka esa xonlik iqtisodiyotining nochorligi sabab bo'lgan. Xon zarur bo'lganida viloyatlardan qo'shin so'rar edi. Biroq viloyat hokimlari hamisha ham xonning qo'shin yuborish haqidagi buyrug'iga itoat etavermasdilar.

Abulfayzxon davrida o'zbeklarning mang'it qabilasidan kelib chiqqan *Muhammad Hakimbiy* katta nufuzga ega bo'lib oladi. U barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i deb tan olingan edi. Bu boshqa qabilalar aslzodalari-ning qat'iy noroziligiga sabab bo'ladi.

Shahrisabz hokimi, kenagas qabilasidan chiqqan *Ibrohimbiy* Urgut va Miyonqol hokimlari bilan til birliktirib Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishga qaror qildi. 1723-yili Samarqandni egallab, kuyovi *Rajab sultonni* taxtga o'tqazdi. *Ibrohimbiy* o'ziga «*amir ul-umaro*» (ulug' amir) unvonini oldi.

*Ibrohimbiy*ning navbatdagi maqsadi Buxoro taxtini egallash, *Rajab sultonni* Buxoro taxtiga o'tqazish hamda shu yo'l bilan xonlikning eng nufuzli kishisi bo'lib olish edi. *Abulfayzxon* siyosatidan norozi bo'lgan beklar *Ibrohimbiy*ga qo'shiladilar. *Ibrohimbiy* katta qo'shin to'plab Buxoroga yurish boshlaydi. *Ibrohimbiy* va *Rajab sultonlar* kimki ularga qo'shilsa, g'alabadan so'ng juda katta boylik va amal va'da qiladilar. Jangda *Muhammad Hakimbiy* otaliq boshchiligidagi Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Lekin *Rajab sulton* Buxoro shahrini egallay olmaydi.

Qanday bo'lmasin Buxoro taxtini egallash ishtiyoqida yonayotgan Ibrohimiy va Rajab sulton oqibatini chuqur o'ylab ko'rmasdan turib ko'chmanchi qozoqlardan yordam so'raydilar. Ularga katta o'ljalar va'da qiladilar.

Jung'or qalmoq ko'chmanchilarining bosqinidan katta talafot ko'rgan, talangan hamda ocharchilikka duchor etilgan qozoqlar bu taklifga rozi bo'ladilar. Mamlakatga kirib kelgan qozoqlar talon-torojni avj oldiradilar. Ular *yetti yil* mobaynida Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga talonchilik yurishlari uyushtirib, hammayoqni talab, xonavayron qiladilar. Na Buxoroda, na Samarqandda ularni to'xtatishga qodir kuch topilmadi.

Bunday sharoitda ichki nizolar yanada avj oldi. Aholining Abulfayzxon dan noroziligi kuchayib ketdi. Nihoyat, Abulfayzxon yaqinlarining talabi bilan Muhammad Hakimbiy Buxorodan chiqarib yuborishga qaror qildi. Hakimbiy Qarshiga jo'nab ketadi, biroq u qulay fursat tug'ilishi bilanoq Buxoroda hokimiyatni yana o'z qo'liga olish niyatidan qaytmagan edi.

Abulfayzxon esa vaqtini ko'ngilxushlik ishlariga sarflab, davlat ishlarini deyarli nazorat qilmay qo'ydi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi siyosiy tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. *Samarqand, Qarshi, Balx, Farg'ona, Badaxshon* amalda mustaqil bo'lib oldilar.

Davlat parokandaligining oqibati. Buxoro xonligida vujudga kelgan parokandalik Eronning Buxoroga hujum qilishi uchun qulay sharoit yaratdi. Shuning uchun ham Eron shohi Nodirshoh Kavkaz, Hindiston, Usmonli turklar saltanati va Afg'onistonga qarshi zafarli yurishlaridan so'ng 1736-yili Buxoro xonligiga qarshi katta qo'shinni safarbar etdi. Nodirshohning o'g'li *Rizoqul* yetakchiligidagi qo'shinlar Amudaryodan o'tib, ko'pgina hududlarni bosib oladi.

Bunday og'ir sharoitda Buxoro xoni Xiva xonidan yordam so'rashga majbur bo'ldi.

Xiva xoni Elbarsxonning yordamga kelayotganidan xabar topgan Nodirshoh buyrug'iga binoan Rizoqul qo'shinlari orqaga qaytib ketadilar.

1740-yili Eron qo'shinlari Buxoroga qarshi ikkinchi marta Nodirshoh boshchiligida hujum qiladilar. Biroq Buxoro xonligida muntazam qo'shinning mavjud bo'lmaganligi va o'z xonligida ichki nizolarni bartaraf etish bilan band Xiva xonining Buxoroga yordam bera olmaganligi Nodirshohning g'alabasini ta'minladi.

10.3. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Davlat boshqaruvi. Ashtarxoniylar davrida davlat tizimi va boshqaruvi o'z tuzilishi, mohiyati jihatidan shayboniylar davridagidan deyarli farq qilmas edi. Davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir masalalar rasman oliy hokimi

yat boshlig'i – xon ixtiyori bilan hal qilinardi. Markaziy va mahalliy hokimiyat boshqaruvida ham shayboniylar davrida amalda bo'lgan lavozimlar saqlanib qolgan.

Shunday bo'lsa-da, ayrim o'zgarishlar ham amalga oshirilgan. Chunonchi, shayboniylar davrida devonbegi xondan keyingi shaxs bo'lgan bo'lsa, endi *otaliq* lavozimidagi shaxs bunday martabaga ega bo'lgan. Shuningdek, ashtarxoniylar davrida *saroy qutvoli* davlat lavozimi joriy etilib, u davlat mablag'i hisobiga amalga oshiriladigan qurilish, suv inshootlari barpo etish va obodonchilik ishlarini boshqargan.

Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar tumanlarga bo'lib boshqarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Shuni ta'kidlash lozimki, eng yuqori davlat lavozimlariga qudratli o'zbek qabilalarining boshliqlari tayinlangan. Bu esa mazkur qabilalarning xonlikdagi mavqeyini yanada kuchaytirgan. Harbiy sohada doimiy qo'shin, markaziy harbiy qo'mondonlikning yo'qligi, qo'shinning zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlanmaganligi Buxoro xonligining harbiy jihatdan o'ta zaiflashuviga olib kelgan.

Yer egaligi munosabatlari. Ashtarxoniylar davrida yerga egalik qilishning, ilgari asrlarda amalda bo'lganidek, *mulki sultoniy, xususiy mulk, vaqf yerlari* shakllari mavjud edi.

Mulki sultoniy davlat yerlari hisoblanib, undan keladigan daromad xon xazinasiga kelib tushardi. Davlat yerlaridan o'sha joylarda yashagan dehqonlar foydalangan, ular yerni ishlatib, olingan hosildan *xiroj* solig'i to'laganlar.

Xon davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din ulamolari va sayyidlarga suyurg'ol shaklida, harbiy qism boshliqlari va saroy amaldorlariga tanho shaklida in'om qilardi.

Suyurg'ol qilingan katta yer egalari xon xazinasiga soliq to'lmas edi. Tanho shaklida in'om qilingan yerlar tanhodorning xususiy mulki bo'lmagan. U o'rinda tanhodor o'sha yerlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq yig'ib olish huquqiga ega bo'lgan. Xon ayrim shaxslarga hukmdorga ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun ham yer-mulklar in'om etardi. Bunday mulklar soliqlardan ozod qilinardi, shu boisdan ular «*mulki hurri xolis*» deb atalardi.

Diniy mahkamalarga mulki sultoniy hisobidan berilgan yerlar, masjidlar, xonaqohlar, qabristonlar vaqf mulki hisoblanardi. Vaqf mulkidan ham soliq olinmas edi.

Barcha mulk shakllariga xos xususiyat shunda ediki, ularda yersiz kambag'al dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar.

Dehqonchilik va chorvachilik. Qabila boshliqlari va amirlar o'rtasidagi ichki kurashlar mamlakat iqtisodiy hayotini, aholining moddiy turmushini ayanchli ahvolga tushirdi.

Sug'oriladigan yerlarda bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan. Dasht va tog'oldi lalmi yerlarda ham boshqoqli ekinlar, kunjut, tarvuz, qovun ekilib, dehqonchilik qilingan.

Dehqonchilik mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib qolishidan saqlab turgan asosiy omil bo'lib, aholining oziq-ovqatga ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Imomqulixon davrida, 1614 – 1615-yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga, 1633 – 1634-yillarda Qo'shqo'rg'onda kanal qazilib, vohalarga suv chiqarilgan. Biroq ashtarxoniyalar davrida suv inshootlari qurilishiga yetarli e'tibor berilmadi.

Chorvachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan. Mehnatkash aholi chorva mollarini boqib, go'sht, sut mahsulotlari yetishtirgan. Ammo katta yaylovlar xon, saroy amaldorlari, din peshvolari, qabila boshliqlariga tegishli bo'lib, ming-minglab qo'ylar, sigirlar, yilqilar, tuyalar boqilardi. Jun, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirilardi, ichki va tashqi bozorda sotilardi. Ho'kizlardan yer haydashda, omoch va mola tortishda keng foydalanilardi.

Hunarmandchilik va savdo. Hunarmandchilik mahsulotlari asosan shaharlarda, yirik qishloqlarda yetishtirilardi. Hunarmandchilikning to'qimachilik tarmog'ida ip yigirish, gazlamalar tayyorlash, kiyimlar tikish, gilam to'qish, kashtachilik rivojlandi.

Hunarmandchilikning kulolchilik tarmog'i ham rivoj topardi. O'lkada sog' tuproq manbalarining ko'pligi sopol va chinni idishlar, ko'za, kosa va boshqa tayyor kulolchilik mahsulotlari tayyorlashga imkoniyat berardi.

Metall va yog'ochga ishlov berish orqali uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash, binolar qurilishida yog'och va ganch o'ymakorligi kabi hunarmandchilik tarmog'i ham ancha o'sdi.

Buxoro va Samarqandda yuqori sifatli yozuv qog'ozi ishlab chiqarish, tog'li hududlardan nodir metallar, kaliy qazib olish ham yo'lga qo'yilgan.

XVII – XVIII asrlarning birinchi yarmida savdo-sotiq ishlari ham bir qadar o'sib bordi. Savdo-sotiq ishlarida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Toshkent, Balx va boshqa yirik shaharlarning mavqeyi baland edi. Ichki savdoda dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlariga, hunarmandchilik buyumlariga ehtiyoj kattaligi sababli bozorlar gavjum bo'lardi.

Tashqi savdo ham to'xtab qolmadi. Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Qashqar, Turkiya mamlakatlariga paxta, teri, jun, turli matolar va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari chiqarilardi. Buxorolik savdogarlarning *Sibir* shaharlarida o'z savdo rastalari bo'lgan. Xitoydan shoyi matolar, chinni idishlar, dori-darmon, choy, Hindistondan qimmatbaho toshlar, matolar, oltin iplar olib kelib sotilgan.

Xalq noroziliklari. Ashtarxoniyalar davrida davlat xazinasini boyitishning yagona vositasi soliq edi. Shu boisdan soliqlar turi va miqdori ko'paytirilgan. Asosiy

soliq to'lovchilar dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, savdogarlar bo'lib, ulardan xiroj, zakot, boj va boshqa soliqlar undirilgan. Soliqlardan tashqari aholi kanallar qazish, ariqlarni tozalash, qurilish va boshqa ishlarga majburan jalb etilardi.

Urush yillarida soliq miqdori haddan tashqari oshirilardi. Subhonqulixon davrida raiyatdan 7 yillik soliqlarni birdaniga yig'ib olish hollari bo'lgan. Ubaydullaxon esa aholidan yig'iladigan soliqlar miqdorini 4 baravarga ko'paytirgan.

Ubaydullaxon 1708-yili pul islohoti o'tkazib, tarkibining 35 foizini kumush tashkil etuvchi tangalar o'rniga tarkibida 9 foiz kumush bo'lgan tangalarni zarb ettiradi va uning qimmatini oldingi tangalarga teng deb belgilaydi. Natijada pulning qadri 4 baravar kamayadi, norozilik kuchayib, do'kondor va hunarmandlar o'z mahsulotlarini sotmay qo'yganlar. Bunday ahvolga chiday olmagan xalq 1708-yili *Buxoroda*, keyinchalik *Samarqand*, *Balx*, *Karmana*, *Miyonqol*, *Shahrisabz* va boshqa qator joylarda ham qo'zg'olon ko'taradi. Biroq bu qo'zg'olonlar tartibsiz, tarqoq holda bo'lganligi uchun tezda bostiriladi. Shunday bo'lsa-da, bu xalq qo'zg'olonlari Buxoro xonligini yanada zaiflashtirgan.

10.4. Ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayot

Ashtarxoniylar davrida avj olgan ichki ziddiyatlar, tinimsiz urushlar, siyosiy parokandalik ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotga salbiy ta'sir etdi. Biroq bunday murakkab siyosiy vaziyat maorif, ilm-fan, madaniyat rivojini to'xtatib qo'ya olmagan.

Maktab va madrasa ta'limi. XVII – XVIII asrlarda shahar va qishloqlarda ko'plab maktablar (maktabxonalar) faoliyat ko'rsatgan. O'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktablarda o'qitilgan. O'g'il bolalar maktablari masjidlar, madrasalar, xo'jalik yurituvchi ustaxonalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida tashkil etilgan bo'lib, masjid imomi yoki madrasani tugatgan ziyoli kishilar o'qituvchilik qilgan. Ularni domla deyishgan. Qiz bolalar maktablari badavlat kishilar yoki o'qituvchi ayollar uylarida tashkil etilgan, qizlarni otinoyi, otinbibi, bibixalifa, bibiotin deb atalgan ayol o'qituvchilar o'qitishgan.

Bolalar maktabga 6 – 7 yoshdan berilgan va ular 5 – 8 yil davomida boshlang'ich ta'lim olganlar.

O'quvchilarga avval harflar o'rgatilgan, keyin bo'g'inlar, ularni qo'shish orqali so'z tuzish, «*Haftiyak*» (Qur'oni karimning yettidan biri) kitobini o'qish o'rgatilgan. Hisob darsida sonlar, ularni qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish amallari o'rgatilgan. O'quvchilar Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Hofiz Sheroziy, So'fi Olloyor asarlarini, «*Chor kitob*»ni o'qib saboq olganlar. Qizlar maktablarida uy-ro'zg'or tutish, pazandachilik, odob-axloq, pokizalik sirlarini o'rganishga ko'proq o'rin berilgan.

Bolalar o'qishni to'liq o'zlashtirib olganlaridan keyingina yozishga o'tganlar. Maktablarda imtihonlar bo'lmagan, o'quvchilarga maktabni bitirgani to'g'risida hujjat ham berilmagan. Bolaning ravon o'qishi, to'g'ri yoza olishi, hisob-kitobni bilishi maktabni bitirganligiga guvoh bo'lgan.

Madrasa o'rta va oliy o'quv yurti hisoblangan. Madrasaga maktabxonalarni tugatganlar qabul qilingan. Madrasa ta'limi talabalar iqtidoriga qarab 7 – 12 yil davom etgan. Buxoro xonligi shaharlarida 150 dan ortiq madrasa bo'lgan. Madrasada arab, fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. O'qish «*Avvali ilm*» deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirishdan boshlangan. Keyin arab tili grammatikasi o'qitilgan. Fiqhni (huquqni) o'rganish majburiy hisoblangan.

Ilm-fan. Diniy mutaassiblik, xalq ommasidan diniy aqidalarga so'zsiz itoat etish talablarining kuchayishi ilm-fan ravnaqiga salbiy ta'sir etdi. Shunga qaramay, ilm ahllarining ijodi batamom to'xtab qolmadi. Mahmud ibn Valining 1636-yili yozilgan «*Bahr ul-asror*» («Sirlar dengizi») asarida samarqandlik va buxorolik 20 nafar olim haqida ma'lumotlar berilgan. XVII asrning taniqli olimi, Mir Arab madrasasi mudarrisi Muhammad Sharif Buxoriy (1609 – 1697) falsafa, tasavvuf, tarix, fiqh, tilshunoslik, astronomiya sohasida 20 dan ortiq asarlar yozgan. Uning «*Xoqonga foydali maslahatlar*» kitobida shariat qonun-qoidalari, ijtimoiy hayot va axloqiy muammolarga oid ma'lumotlar, hukmdorlar to'g'risida qiziqarli lavhalar o'z ifodasini topgan.

Subhonqulixon davrida tibbiyot ilmi rivojlandi. Uning tashabbusi bilan Buxoroda «*Dor ush-shifo*» qurilib, bemorlarni davolash ishi yo'lga qo'yilgan, tibbiyotga ixtisoslashgan madrasa qurilib, shifokorlar tayyorlangan. Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblar jamlangan nodir kutubxonasi bo'lgan. U «*Subhoniy tibbiyoti bo'yicha davolash*» va astronomiyaga oid «*Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati*» nomli kitoblar yozgan.

Tarixnavislik. XVII – XVIII asr birinchi yarmida Buxoro tarixiga doir qator asarlar yaratiladi. Tarixchi va geograf olim Mahmud ibn Valining «*Oliyjanob insonlar jasorati xususida sirlar dengizi*» («Bahr ul-asror») asarida Movarounnahr va Xuroson tarixi, mamlakatlar, shaharlar, okean va dengizlar, hayvonot olami haqida qimmatli ma'lumotlar bayon qilinadi. Shuningdek, bu davrda Muhammad Yusuf Munshiyning «*Tarixi Muqimxoniy*», Muhammad Amin Buxoriyning «*Ubaydullanoma*», Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning «*Tarixlar dengizi*», Abdurahmon Tolening «*Abulfayzxon tarixi*» kabi muhim asarlari yaratildi.

Adabiyot. XVII – XVIII asr birinchi yarmida adabiyot ancha rivoj topdi. Bu davr adabiy muhitida Bedilning (asl ismi Mirzo Abdulqodir, 1644 – 1721) o'rni katta. U keshlik (shahrisabzlik). Dehlida vafot etgan. Uning yirik asari

– «*To'rt unsur*» nasrda yozilgan bo'lib, unda havo, sùv, yer, olov haqida, shuningdek, o'simliklar, hayvonlar va odamning kelib chiqishi haqida qarashlari bayon etiladi.

Bedilning «*Irfon*» («Bilim») dostonida falsafa, tarix va ilohiyot masalalari bayon etilgan. Bedilning fikricha, dunyo abadiy bo'lib, to'xtovsiz harakat qiladi va o'zgarib turadi. U she'rlarida jamiyatdagi jabr-zulm, adolatsizlik kabi illatlarni qoralaydi. Bedil Turkistonda «*Abulma'oniy*» («Ma'nolar otasi») degan nom olgan.

Bu davr adabiyotining yirik namoyandalaridan yana biri shoir Sayido Nasafiy edi. U Nasaf (Qarshi) shahrida tug'ilgan. Zamondoshlari uni «*Buxoro shoirlari taxtida sulton*» deb ulug'laganlar.

Uni mashhur qilgan «*Hayvonotnoma*» nomli majoziy munozara asari edi. Nasafiy mazkur asarida hayvonlar timsoli orqali yer egalari va amaldorlarning mehnatkash xalqqa yetkazgan jabr-zulmini, ularning adolatsizligini, poraxo'rli-gi va ma'naviy jihatdan pastkashliklarini fosh etadi. Shoir asarida *bo'ri* va *sher* timsolida yer egalari-ning yirtqichlikdan iborat asl basharalarini ochib tashlaydi. Asarda sher barcha hayvonlar ustidan g'alaba qozonsa-da, mehnatkash xalq timsoli bo'lgan *chumolidan* yengiladi. Bu shoirning mehnatkash xalq ham bir kunmas, bir kun jabr-zulmdan ozod bo'lishi yo'lidagi orzusi edi.

Bu davr adabiyotida Turdi Farog'iy ham munosib o'rin egallaydi. Turdi jamiyatdagi adolatsizliklarni, Subhonqulixonning xalqni og'ir soliqlarga duchor etganligini, uning oqibatida xalq tortayotgan azob-uqubatlarini ro'yi-rost tanqid qila olgan jasoratli shoir edi:

*Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,
G'asb ila molin olib, qo'ymadingiz bitini.*

Turdi xalqning tilidan mamlakatni xonavayron qilgan siyosiy tarqoqlik, u keltirib chiqargan qirg'inbarot urushlarni la'natlagan. Urug' va qabilalarni birlashishga va o'zaro hamkorlik qilishga da'vat etgan. Urug' oqsoqollarini va beklarni bir yoqadan bosh chiqarishga chaqirgan.

Bu o'rinda Turdining «*Tor ko'ngullik beklar*» she'ri alohida ahamiyatga ega:
*Tor ko'ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bovli o'zbek yurtidir, tenglik qiling...*

Me'morchilik. Buxoro xonligi tasarrufidagi hududlarda me'morchilik ham ancha rivoj topdi. Ko'plab masjidlar, madrasalar, bozorlar, xonaqohlar, karvon-saroylar, hammomlar, sardobalar barpo etildi. Ularning bunyod etilishida temuriylar davrida qurilgan me'moriy obidalar andaza bo'lib xizmat qilgan.

XVII asrda Samarqand Registoni ansamblining hozirgi qiyofasi shakllantirildi. Samarqand hokimi *Yalangto'sh Bahodir* 1619 – 1635-yillarda vayrona holatiga tushib qolgan Registon maydonida Ulug'bek madrasasi qarshisida

Sherdor madrasasini, uning yonida 1646 – 1660-yillarda *Tillakori* masjidi sa-masjidini o'z mablag'lari hisobidan bunyod ettirgan, unga tilladan ish berish, bezash ishlari bajarilgan. Samarqand Registon ansambli o'z rang-barang koshinkor bezaklari, naqshinkor peshtoqlari, ulkan gumbaz bilan Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob tarixiy yodgorligi bo'lib, gungi kunda jahon jamoatchiligi, sayyohlar e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda.

Buxoroda yirik me'moriy majmua – *Labi-hovuz* ansambli bunyod Buxoroning eng badavlat kishilaridan biri bo'lgan Nodir devonbegi 1620 bozor maydoni o'rtasida bo'yi 45 metr, eni 36 metr, chuqurligi 5 metr bo'lgan katta hovuz qurdirib, atrofini shag'al, marmar va toshlar bilan mustahkamlattiradi. Hovuz atrofida Nodir devonbegi madrasasi va xonaqohi, Ko'kal madrasasi, Ernazar elchi madrasasi bunyod etiladi.

1652-yili Buxoro shahrida Abdulazizxon qurdirgan qo'sh imoratli masjidi sa mustahkamligi, nafis naqshli koshinlarga boyligi bilan ajralib turadi. o'z zamonasi me'morchiligining yetuk namunasi hisoblanadi.

11-BOB. BUXORO AMIRLIGI

11.1. Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi

Buxoro xonligining davlat mustaqilligini yo'qotishi. Buxoro Eron kushonlari qiniga qarshi tura olmagach, Abulfayzxon taslim bo'lish shartlari haqida shartnomani imzolash uchun Zarafshon daryosining bo'yiga – Nodirshoh huzuriga borishga majbur bo'ladi.

Shartnomaga ko'ra, Nodirshoh oliy hukmdor, Buxoro xonligi esa Eron kushonlari mute davlat deb tan olingan. Shuningdek, Nodirshoh qo'shinlari uchun 8 yil yetadigan 200 ming xarvor bug'doy va arpa to'plab beriladi. Bundan tashqari Buxoro xonligi aholisidan 10 ming nafarli qo'shin to'planib, Nodirshoh qo'shiniga yoriga jo'natiladi. Bu qo'shinga Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim qo'mondon etib tayinlanadi. Shu tariqa Abulfayzxon amalda Eron kushonlari qaram qo'g'irchoq hukmdorga aylandi. Muhammad Hakimbiy esa qo'shin boshqaruvi (bosh vazir) lavozimini egalladi. Butun hokimiyat amalda uning qo'lida to'planib qoldi. Endi ashtarxoniylar hukmronligining barham topishi muqarrar bo'lib qoldi.

Muhammad Rahimbiy. Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida o'zbek qabilalaridan mang'itlarning nufuzi baland edi. Bu qabila hokimiyat ashtarxoniylar qo'lida bo'lib turgan davrlarda ularga sadoqat bilan xizmat qilgan. Biroq keyinchalik Buxoroda mang'itlar alohida nufuzga ega bo'lish uchun astoydil kurashdilar va Hakimbiy davrida bu maqsadga erishdilar.

Muhammad Hakimbiy 1743-yili vafot etgach, uning o'g'li Muhammad Rahimbiy o'zining muntazam qo'shinga egaligidan foydalanib hokimiyatda o'zini kabi alohida mavqe uchun da'vogarlik qila boshladi. So'nggi ashtar-biy Abulfayzxon uni otasining o'rniga tayinlashga majbur bo'ldi.

Nodirshoh 1747-yili o'ldirilganidan so'ng Eronda boshlangan ichki kurashlar Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo'l ochib berdi. Uning buyrug'i bilan Abulfayzxon ham 1747-yili o'ldirildi. Muhammad Rahimbiy taxtga Abulfayzning o'g'li *Abdulmo'minni* o'tqazdi (soxta xon) va uni o'ziga kuyov qilib oldi. Ko'p o'tmay Muhammad Rahimbiy kuyovi Abdulmo'minni, uning o'rniga o'tqazilgan soxta xonlarni ham qatl ettirdi. Muhammad Rahimbiy Buxoro aslzodalari va ruhoniylarining qo'llab-quvvatlashi bilan 1753-yili hokimiyatni to'la egalladi. Biroq mang'itlar chingiziylar nasliga mansub bo'lmaganligi uchun mang'it hukmdorlari o'zlarini xon deb emas, amir deb ataganlar. Ular, ayni paytda, mintaqaning diniy hukmdori – amir al-mo'minin hisoblanganlar.

Shunday qilib, 1753-yili Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola – mang'itlar sulolasi keldi va davlatni 1920-yilgacha idora qildi. 1753-yildan boshlab Buxoro xonligi endilikda *Buxoro amirligi* deb ataladigan bo'ldi.

Mang'it hukmdori Muhammad Rahimbiy mamlakatda o'zining mutlaq hukmdorligini o'rnatish hamda ichki boshboshdoqlikni tugatish siyosatini tutdi. Bunday siyosatdan ko'zlangan maqsad markazlashgan davlatni tiklash edi. Muhammad Rahimbiy bu siyosatni ro'yobga chiqarishga qat'iy kirishdi. U barcha mahalliy hukmdorlarni o'z huzuriga chorlab, ularga o'zining asl maqsadini, o'z boshqaruv dasturini ma'lum qildi. Lekin davom etayotgan ichki nizolar, urushlar mamlakatni xonavayron qilayotganligi, xo'jalik, savdo-sotiq ishlarining izdan chiqayotganligi, agar bu jarayonlar bundan buyon ham davom etadigan bo'lsa, davlat halokati muqarrar ekanligini alohida ta'kidladi. Qaysi mahalliy hukmdor markaziy hokimiyatga bo'ysunmasa, ayovsiz jazoga tortilishini ogohlantirdi.

Muhammad Rahimbiy mustaqillikni da'vo etib yurgan *Miyonqol*, *Nurata*, *Qo'bodiyon*, *Boysun*, *Shahrisabz* hamda *Urgut* beklklarini *to'rt yil* davomida o'ziga bo'ysundirdi. Ayni paytda, u markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka urinayotgan qabilalarni turgan joyidan ko'chirtirib yuborish siyosatini tutdi. Masalan, *burqut*, *qipchoq*, *yetti urug'*, *bahrin*, *yuz*, *kenagas*, *saroy* va boshqa qabilalarga nisbatan ana shunday siyosat yuritildi.

Doniyoibiy otaliq va amir Shohmurod. Muhammad Rahimbiy yirik yer egalari davlatni boshqarish ishlarida shu vaqtgacha davom etib kelgan aralashuvlarini keskin kamaytirishga erisha oldi. Shunday bo'lsa-da, u barcha viloyatlarning markaziy hokimiyatni tan olishlariga to'la erisha olmadi.

Muhammad Rahimbiy vafotidan so'ng uning amakisi *Doniyolbiy otaliq* hokimiyatni o'z qo'liga oldi (1758 – 1785). U o'z qo'shinini mustahkamlashga, unga tayanib ish ko'rishga harakat qildi. Barcha mang'it beklariga katta yer-mulkni tanho qilib berdi. Xalqdan olinadigan soliqlarni ko'paytirdi. Uning davrida Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa viloyatlarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi. Katta yer egalari o'zboshimchaligini esa sindira olmadi. O'g'illaridan biri Shohmurod darveshona hayot kechirar, shayx maslahati bilan bozorda yuk tashuvchilik qilardi. Keyin esa pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro'zg'or tebratardi. Xalq orasida obro'si katta bo'lgani uchun Doniyolbiy unga hokimiyatni topshirdi.

Amir Shohmurod (1785 – 1800) amir Doniyolbiy otaliqning to'ng'ich o'g'li hisoblanib, yoshligidan xudojo'y, porso bo'lib o'sgan. Madrasani bitirib, darveshlik jamoasi tarafdori, targ'ibotchisidan biriga aylanadi. Xalq unga hurmat bilan «*amiri ma'sum*» (begunoh amir) unvonini bergan.

Shohmurod o'z faoliyatida ommaga tayanib ish tutdi. Adolat tamoyillariga qattiq amal qildi. O'zi ham nihoyatda kamtarin hayot kechirgan. Masalan, bir yilda bir olacha chopon, bir bo'z ko'ylak kiygan. Boshiga olti gazli bo'z salla, oyog'iga echki terisidan tikilgan saxtiyon mahsi hamda kavush kiygan.

Amir Shohmurod Samarqand shahrida katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Shahar markazida olti qirrali chorsu qurilib, u «*Toqi musaddas*» deb atalgan. Samarqandning har bir madrasasiga imom, muazzin, mudarris-larni o'zi tayinlagan. Talabalar va mudarrislarining maoshi uchun vaqf yerlari va mulklar ajratgan.

Amir Shohmurod islohotlar o'tkazib, davlatni mustahkamlashga erishdi. Boj va xirojdan boshqa barcha soliqlarni kamaytirdi. *Rais* (muhtasib) va *qozi askar* (harbiy sud) mansablarining nufuzini yanada orttirdi.

Mamlakat iqtisodini yo'lga qo'yishda Shohmurod o'tkazgan pul islohoti ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ashtarxoniyalar davrida zarb qilingan tangalarda kumush miqdori kamaytirib yuborilgan edi.

Shohmurod joriy qilgan qonun bo'yicha, kim mol-mulkka xiyonat qilsa, jamiyatdagi martabasidan qat'i nazar, qattiq jazoga tortilishi lozim edi. Bu tadbir xalq mashaqatlariga tajovuzning oldini oldi.

11.2. Amirlik davlat tuzumi va uning ma'muriy boshqaruvi

Davlat tuzumi va ma'muriy bo'linish. Buxoro davlat tuzumiga ko'ra monarxiya davlati edi. Davlat tepasida *amir*, ya'ni yakka mustabid hukmdor turgan. Hukmdor rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, butun hokimi-

yat uning qo'lida to'plangan. U o'zi ishongan eng oliy toifadagi amaldorlar (akoni davlat) hamda qabilalarning boshliqlari bilan hisoblashib ish tutgan.

Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga va tumanlarga bo'lingan. Chunonchi, amirlik davlati 40 viloyat va tumanliklardan iborat edi. Amirlikning yer maydoni taxminan 270 ming km, aholisi esa 2 mln atrofida bo'lgan. Aholisini o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa xalqlar tashkil etgan. Amir tayinlaydigan hokim boshqaradigan hudud viloyat deb atalgan.

Amirlikda eng quyi ma'muriy bo'linma *amlodkorlik* (bir nechta katta-kichik qishloqlar birikmasi) deb atalgan. Uni amlokdor boshqargan. Boshqaruv ishida qishloq oqsoqollari, amin va miroblarga tayangan.

Amlodkor («mulk egasi» degan ma'noni anglatadi) yetishtirilgan hosilning hisobini yuritish, soliq va boshqa tushumlarning belgilangan muddatlarda yig'ilishi uchun mas'ul bo'lgan.

Aminning («ishonchli, halol odam» ma'nosini anglatadi) asosiy vazifasi soliq va boshqa tushumlarni yig'ish, aholi ustidan nazorat olib borish va ariqlardagi suvni ekin maydonlariga taqsimlash bo'lgan.

Qishloq mirobi esa suv inshootlarining o'z vaqtida ta'mirlanishini, qishloqlar uchun ajratilgan suvning ariqlar bo'yicha to'g'ri taqsimlanishini ta'minlagan.

Yuqori davlat lavozimlari. Amirlikning poytaxti Buxoro shahri va viloyatini qo'shbegi boshqargan. Xazina amirning mulki bo'lgan. Amirlikning davlat muassasalari ma'muriy, moliya, qozilik, mirshablik va harbiy idoralardan iborat bo'lgan. Ularning har biriga tayinlangan amaldor rahbarlik qilgan.

Buxoro amirligi saroyida 30 ga yaqin amaldor xizmat qilgan. Mahalliy boshqaruv muassasalarida xizmat qiluvchilarning soni 30 ming atrofida bo'lgan. Viloyatlarning beklari (hokimlari) xon tomonidan tayinlangan.

Markaziy hokimiyatda devonbegi, ko'kaldosh, qo'shbegi, mushrif, mirshab, dodxoh, inoq, miroxur, dasturxonchi, kitobdor, parvonachi, sadr, shayxulislom, qozikalon, muftiy, muhtasib kabi yuqori martabali lavozimlar joriy etilgan.

Eng katta davlat lavozimi *qo'shbegi* (vaziri buzruk), ya'ni bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga bo'ysunar edi. Bir so'z bilan aytganda, barcha ijroiya hokimiyat qo'shbegining qo'lida edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qo'shbegi tavsiyasiga binoan tayinlanar edi. Qo'shbegi xon Arkida yashagan.

Devonbegi xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliqlar undirilishi ustidan nazorat olib borgan.

Mushrif amaldorlar xonga in'om etgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olgan. Soliq tushumlarini yozib borgan.

Mirshab tungi shahar soqchilari boshlig'i vazifasini bajargan.

Inoqning vazifasi amir farmoyishlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazishdan iborat bo'lgan.

Amir otxonasining boshlig'i *miroxur* deb atalgan.

Dasturxonchi lavozimidagi amaldor amir huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul bo'lgan bo'lsa, *kitobdor* amir kutubxonasi boshlig'i edi.

Amirlikda harbiy qo'shin bosh sarkardasi *parvonachi* deb atalgan.

Sadr esa vaqf mulklarini boshqargan.

Poytaxt qozisi (qozikalon) – davlatning oliy qozisi (sudyasi), amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozikalon shariatpanoh deb ham atalardi.

Qozikalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha shariatga asoslanib fatvo chiqaruvchi shaxs *muftiy* deyilgan.

11.3. Amirlikning xo'jalik hayoti

Yer mulkchiligi shakllari. Buxoro davlatida yer-suv mulkchiligining uch shakli mavjud edi: 1) davlat yerlari (bu amlok yerlar deb ham atalgan); 2) mulk yerlari (xususiy); 3) vaqf yerlari.

Davlat yerlarining suvsiz dasht, to'qayzor qismi ko'chmanchi jamoalarga bo'lib berilgan bo'lib, ular bu yerlardan foydalanganlari uchun davlatga xiroj to'lar edilar. Bunday yerlar sotilmasdi va ayirboshlanmasdi. Davlat yerlarining boshqa bir qismi hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga, lashkarboshilarga davlat oldidagi xizmatlari evaziga suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Suyurg'ol olganlar u yerni boshqarish huquqini ham olganlar. Suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lashi hamda oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi lozim edi.

XVI asrdan boshlab davlat yerlarini «*tanho*» deb nom olgan shaklda in'om etish qaror topa borgan. Bunday in'omga sazovor bo'lgan kishi yerga emas, mansabining darajasiga qarab shu yerdan olinadigan soliqning ma'lum qismiga egalik qilgan. XIX asrda ham amirlikda tanholarning soni tobora ortib borgan. Eng kichik tanho yeri 3 – 5 *gektarni* tashkil etgan.

Davlat yerlarining yana bir qismi dehqonlarga ijaraga berilgan. Xazinaga eng ko'p soliq ham ana shu yerlardan tushar edi.

Xususiy yerlarning (mulk) bir qismi xususiy shaxslarning yerlari bo'lib, ularning bu yerlarga egalik qilishlari davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan. Bunday yerlar asosan amirlikda asrlar osha yashab kelayotgan arablarga qarashli bo'lgan. Bu yerlardan 1/10 qismi miqdorida o'lpon to'lanardi. Mulki yerlarining ikkinchi qismi (mulki hur yoki mulki hurri xolis) davlat xizmati

dan bog'liq bo'lib, bunday yerlar urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna ko'rsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan. Bunday yerga ega bo'lgan shaxslarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilgan.

Vaqf yerlari – bu masjid, mozor, xonaqoh, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltiriladi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulkini *mutavalli* baxarruf etishi belgilab qo'yilgan edi.

Soliq tizimi va majburiyatlar. Amirlikda asosiy soliq *xiroj* deb atalgan. U hosil ulushidan, asosan, mahsulot bilan to'lanardi. XIX asrda xirojning bir qismi pul bilan ham yig'iladigan bo'lgan. To'lanadigan xiroj miqdorini aniqlashda amlokdor o'z odamlari bilan dehqonchilik dalasiga chiqib, qishloq oqsoqoli ishtirokida hosil miqdorini ko'z bilan chamalab aniqlab chiqqan.

Xirojdan tashqari bog', poliz, ekilgan yerlardan *tanobona* deb atalgan soliq ham olingan. Bu soliqning miqdori ekinzorning bozorga uzoq-yoqinligiga qarab belgilangan.

Keyinchalik polizlarga yangi soliq – *qo'sh puli* solinadigan bo'ldi. Uning miqdori yer haydashga yaroqli har bir juft ho'kiz hisobidan kelib chiqib belgilangan.

Soliq tizimi orasida *zakot* deb atalgan soliq ham bo'lgan. Uning miqdori soliq solinadigan narsa qiymatining 2,5% ni tashkil etgan.

Zakot solig'iga asosan chorva mollari egalari va savdogarlar tortilgan.

Tanobona, zakot, qo'sh puli soliqlari esa faqat pul shaklida olingan.

Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi, sug'orish ishlari. Markaziy Osiyoda, jumladan, Buxoro davlatida ham qishloq xo'jaligining taqdiri sun'iy sug'orishning qanchalik to'g'ri hal etilganligiga bog'liq edi.

Shuning uchun ham XVIII asrda sug'orish tarmoqlarining kengaytirilishiga alohida e'tibor berildi. Zarafshon daryosida *Xurmo* va *Sarazm* nahrlari (ariqlari) chiqarilgan. Ularning biri *to'rt chaqirim*, ikkinchisi *uch chaqirim* uzunlikda bo'lgan.

Amir Shohmurod zamonida *40 chaqirim* (1 chaqirim 0,9 km ga teng) uzunlikdagi *Qozonariq* (Urgut tumanini sug'organ), *24 chaqirim* uzunlikdagi

Toyman arig'i, 24 *chaqirim* uzunlikdagi *To'g'uzariq* qazilgan. Yana Oqdaryo va Qoradaryodan ham ariqlar chiqarilgan.

Sug'orish inshootlarini yaroqli holda saqlashning og'ir yuki mehnatkashlar gardanida edi. Aynan ularning matonatli mehnati, sabr-toqati sug'orish inshootlarining muqim ishlashini ta'minlar edi. Dehqonlar suvdan foydalanishda asrlar davomida juda katta tajriba to'plagan edilar. Ular shunday sug'orish inshootlarini bunyod eta olganlarki, unga tan bermaslikning iloji yo'q. Xususan, suv ayirg'ich to'g'oni qurishdagi mohirlik buning isbotidir.

Daryo va kanallarga o'rnatilgan *chig'ir* eng ko'p ishlatiladigan suv ayirg'ich edi. Shunday *chig'ir*lar ham yaratilganki, ular suvni hatto 4 metr va undan ham balandga chiqarib bera olardi. Suvni chuqur ariqlardan chiqarib olish uchun tutqichli suv ayirg'ichlar ishlatilar, bunda ot, tuya, eshak va ho'kiz kuchidan foydalanilar edi. Bu kabi inshootlar Buxoro xonligi xo'jaligida katta o'rin tutgan. Bu hayot ta'minoti bo'lgan inshootlarning bosh bunyodkori dehqonlar ommasi edi. Har bir dehqon xonadoni yiliga 60 kundan 100 kungacha sug'orish inshootlari qurish, kanal va ariqlarni tozalash, sozlash ishlarida qatnashgan.

Dehqonchilik mehnat qurollari nihoyatda sodda edi. Oddiy dehqon so'qasi (omoch) asosiy dehqonchilik quroli edi. Ot, ho'kiz, sigir, tuya, eshak dehqonning suyanchig'i hisoblangan. Yaxshiyamki, yurtimiz tuprog'i hosildor, iqlimi qulay mamlakatdir. Shu ikki muhim omil ancha serhosil va unumdor dehqonchilikni yo'lga qo'yish imkonini berar edi.

Amirlik yerlarida paxta, bug'doy, jo'xori, tariq, arpa, beda yetishtirish dehqonchilikning asosini tashkil etardi. Deyarli har bir dehqon xo'jaligida o'z ehtiyoji va sotish uchun paxta yetishtirilardi. Ipakchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik va polizchilik keng rivojlangan. Piyoz, sabzi, bodring, qovoq, qovun, tarvuz, olma, olxo'ri, o'rik, shaftoli, nok, yong'oq, bodom, anjir, uzum yetishtirilardi. Buxoro amirligi o'zining qovun va uzumi bilan mashhur edi. Ko'pgina shaharlarni bog'lar o'rab turardi. 4 qismdan iborat alohida reja asosida bunyod etilgan bog'lar ham bo'lardi. Bog' qismlarining har birini ariqlar ajratib turgan. Bunday bog'lar *chorbog'* deb atalgan.

Buxorodagi *Jo'ybor*, Toshkentdagi *Kaykovus* bog'lari eng mashhur bog'lar edi.

Amirlikda bo'yoq olinadigan o'simlik – *mardona* ham o'stirilgan. Dorivor o'simliklardan esa dorilar tayyorlashgan.

Amirlikda, garchand salmog'i dehqonchilikdan pastroq bo'lsa-da, chorvachilik ham rivojlangan.

Chorvachilik tumanlarida dumbali va qorako'l qo'ylar, yirik shoxli qoramollar, tuya va otlar boqilgan. Jun, teri, go'sht, sut-qatiq va yog' kabi chorvachilik mahsulotlari xalq hayotida muhim rol o'ynagan.

11.4. Amirlik shaharlari hayoti va savdo-sotiq ishlari

Shaharlar hamisha mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti-
ga g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki shaharlar davlat hokimiyati
tayanchi, savdo va hunarmandchilik markazi, madaniyat hamda ilm-fan
ilchog'i vazifasini o'tagan.

Samarqand. «Dunyoning husni» deb ulug'langan Samarqand amirlikning
eng yirik shaharlaridan biri edi. Samarqand shahrida kulolchilik, cho'yan
qayish (degrezlik), teri oshlash, qog'oz, kiyim-kechak, qurol-yarog' ishlab
chiqaruvchilar, baxmalboflar, kimxobgarlar, chitgarlar, bo'yoqchilar, po'stin-
do'zlar, mo'ynado'zlar mahallalari va rastalari bo'lgan.

Samarqandda yetti madrasa faoliyat ko'rsatgan. Bular *Ulug'bek*, *Sherdor*,
Tillakori, *Safed (Xoja Ahror)*, *Shayboniyxon*, *Xoja Abdulg'afur*, *Qozi Soqiy*
madrasalari edi.

Ashtarxoniylar davrida kuchayib ketgan siyosiy kurashlar, chet elliklar
hujumi natijasida shahar talangan, vayronaga aylangan.

Buxoro amiri Shohmurod davrida Samarqand deyarli qayta tiklangan.

XIX asr boshlarida Samarqand shahri baland devor bilan o'rab olingan.
Uning *Buxoro*, *Paykabod*, *Shohizinda*, *Qalandarxona*, *So'zangaron*, *Xoja*
Ahror nomlari bilan ataluvchi 6 ta darvozasi bo'lgan. Shaharda ko'plab
bog'lar, ariq-zovurlar va hovuzlar, 2 ta karvonsaroy va 3 ta hammom bo'lgan.
Ko'chalar shaharning 6 ta darvozasini Registon maydoni bilan bog'lagan.
Shahar aholisi soni 25 – 30 ming kishini tashkil etgan. Shaharda hunar-
mandchilikning shoyi to'qish, qog'oz ishlab chiqarish, kulolchilik, temirchi-
lik, novvoylik, qandolatchilik va kashtachilik sohalari juda rivojlangan. 2007-
yili Samarqand shahrining 2750 yilligi nishonlandi.

Buxoro. Amirlik poytaxti Buxoro shahrida XIX asrning 40-yillarida 38 ta
karvonsaroy bo'lib, ularda musofir va mahalliy savdogarlar istiqomat qilganlar.
Karvonsaroyda ombor, do'kon, ustaxona, mehmonxonalar bo'lgan. Karvon-
saroylarning amirga, ayrim shaxslarga va vaqfga tegishlilari bo'lgan. Buxoro kar-
vonsaroylariga har yili 12 – 15 ming tuyada mol kelgan. Savdo ishini *karvonbo-
shi* – amirlikdagi barcha savdo ishlarining boshqaruvchisi boshqargan.

Buxoroda ichki va shaharlararo savdo to'qqizta tim va chorsuda amalga
oshirilgan.

Buxoro shahrida 103 ta madrasa, 360 masjid va 83 ta hovuz mavjud
bo'lgan. 1997-yili shon-u shavkati yetti olamni tutgan Buxoro shahrining
2500 yilligi nishonlandi.

Hunarmandchilik. Hunarmandchilik amirlik shaharlarining iqtisodiy hayo-
tida muhim ahamiyatga ega edi. Hunarmandchilikning asosiy turlaridan biri
to'qimachilik bo'lgan. Buxoro olachasi, bo'zi, bo'zga gul bosish yo'li bilan

tayyorlanadigan chiti, shoyisi, Samarqandning to'q qizil rangli baxmali mahsulot edi. Yigirilgan ipdan ro'mol, choyshab, salla to'qish ham keng tarqalgan.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan yana bir tarmoq temirchilik va maskarlik bo'lib, o'roq, pichoq, shuningdek, qurol-yarog' yasashgan. Temirchilar qilich, xanjar, oybolta, nayza, qalqon, kamon va uning o'qini yasash edilar. To'plar yasash ham yo'lga qo'yilgan. Zargarlik, kulolchilik, yog'ochsozlik ham muhim soha hisoblangan.

Yog'ochdan eshik, beshik, deraza, arava, sandiq, qayiq va boshqalar yasashlari edi. Yog'och o'ymakorligi alohida ahamiyatga ega edi. Novdalardan savatlar to'qilardi. Uy sharoitida namat, gilam to'qish, oshlangan charmdan egar-jabduqlar, ayillar, pichoq qinlari, hamyonlar tikish ham keng rivojlangan.

Ichki savdo. Davlat hayotida iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'lmadi. Bu esa, o'z navbatida, yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyojini vujudga keltirmadi. Natijada oddiy hunarmandchilik ishlab chiqarishi manufaktura ishlab chiqarishi darajasiga ko'tarilmadi. Shuning uchun ham ichki bozorda odatdagi hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi yetakchi o'rin egallagan.

Buxoroda bozordagi narx-navo, tosh-tarozining to'g'riligi qattiq nazorat qilinardi. Kimki xaridor haqiga xiyonat qilsa, qattiq jazoga duchor etilardi, xususan, bundaylar yarim yalang'och holda aravada bozor ahliga sazoyi qilinardi va ovozi boricha: «*Men shayton yo'lga kirib, xaridorni aldadim*», — deb jar solishga majbur etilardi.

Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro bozorlari faqatgina xo'jalik vazifasini o'tab qolmagan. Ular, ayni paytda, o'ziga xos jamoat va madaniyat markazi vazifasini ham o'tagan. Xususan, bozorlarda hukmdorning farmonlari o'qib eshittirilardi, aybdorlar jazolanardi, bayram kunlari esa turli tomoshalar ko'rsatilardi.

Tashqi savdo. Mamlakatning tashqi savdo aloqalari to'xtab qolgani yo'q. Buxoro Hindiston, Afg'oniston, Eron, Xitoy bilan savdo aloqalarini olib borgan. Bu davlatlarga xonlikda ishlab chiqarilgan ip gazlamalar, baxmal, qog'oz, egar-jabduqlar, qurollarning ayrim turlari, meva va boshqa mahsulotlar ortilgan savdo karvonlari qatnab turardi. Ba'zi savdo karvonlarining tuyalari bir necha yuz boshga yetardi.

Mamlakatning Samarqand va Buxoro kabi shaharlariga ko'plab chet ellik savdogarlar kelib turishardi. Buxoroda hatto hind savdogarlari va sudxo'rlari yashaydigan alohida mahallalar ham bor edi. Ular hind gazlamalari, bo'yoqlari, shifobaxsh va ziravor o'tlar, dori-darmonlar, qand-shakar bilan savdo qilardilar.

Buxoro aholisini chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari, tuyalar hamda hunarmandchilik buyumlari bilan ta'minlovchi qozoq cho'llarining aholisi bilan keng savdo olib borilardi. Ular xom teri, shuningdek, qo'y terisini turli ranglarga bo'yab tikkan kamzullari bilan ham mashhur edilar. Bular

Buxoro bozorlarining eng xaridorgir mahsulotlari edi. Qozoqlar bilan savdo aloqalarida *qoraqalpog'lar* vositachilik qilar edilar. Turkmanlar Buxoro bozoriga zotdor otlar olib kelib sotardilar.

Buxoro amirligining Rossiya bilan savdo aloqalari o'sib bordi. *Orenburgda* 1804-yili Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda *20 xonaxon* istiqomat qilgan. Ular Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi savdoda muhim o'rin tutganlar. 1825-yilga kelib savdogarlar qarorgohi kengayib, xonaxonlar soni *30 taga* yetdi. Buxorodan yo'lga chiqqan karvon *2 oyda Orskka* yetib borardi. Ba'zida savdo karvoni *5 mingtagacha* tuyadan iborat bo'lardi.

Shu tariqa Buxoro davlati iqtisodiyoti Rossiya bilan savdo qilishga mo'ljallangan o'ziga xos yo'nalishga ega bo'la borgan. Buni quyidagi fakt ham isbotlaydi. Masalan, 1844-yili Buxoro xonligining Markaziy Osiyo – Rossiya tashqi savdosidagi ulushi *25 foizni* tashkil etgan bo'lsa, 1864-yilga kelib bu ko'rsatkich *42 foizga* ko'tarilgan.

11.5. Buxoro amirligi XIX asrning birinchi yarmida

Buxoro Amir Haydar hukmronligi davrida. Amir Shohmurod vafot etgach, taxtga uning o'g'li *Haydar* o'tirdi (1800 – 1826). Ayrim viloyatlar hukmdorlari uning tajribasizligidan foydalanib markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka uringanlar. Biroq Amir Haydar katta qiyinchiklar bilan bo'lsa-da ulardan aksariyatining qarshiligini sindira olgan va markaziy hokimiyatga bo'ysundirgan. Aksariyat viloyatlar mustaqilligining tugatilishi davlat yerlari zaxirasini ko'paytirgan. Bu esa davlat yerlarini ijaraga olib ishlovchilar sonining oshishiga olib kelgan. Bu omil amirlik iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan o'sishiga xizmat qilgan.

Amir Haydar hukmronligi davrida mamlakat ichki va tashqi savdosi ham o'sdi.

Amir Haydar o'z davrining eng bilimdon hukmdorlaridan biri bo'lgan. Qur'oni karimni yoddan bilgan. Amir huzurida tez-tez diniy va ilmiy munozaralar o'tkazib turilgan. Buxoro madrasalariga chet davlatlardan o'qishga keluvchilar soni ortib borgan. Ular uchun qulay sharoit yaratish chorolari ko'rilgan. Amir Haydarning o'zi ham madrasa talabalariga ma'ruzalar o'qigan.

Ayni paytda, amir Haydar qanchalik hurmat qilinmasin, amirlikda to'la osoyishtalikni ta'minlay olmagan. Bunga jamiyat hayotidagi adolatsizliklar ham sabab bo'lgan.

Viloyatlardagi xalq noroziligidan ayrim viloyatlar hokimlari va yirik zodagonlar markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lish maqsadi yo'lida foydalanib qolishga uringanlar.

Amir Haydarning ukasi *Dinnosirbek* hokimlik qilayotgan *Marv* viloyati aholisi 1804-yili qo'zg'olon ko'targan. Amir Haydarga qarshi bo'lgan kuchlar esa

undan foydalanib Dinnosirbekni amirlik taxtiga o'tqazmoqchi bo'lganlar. Biroq markaziy hukumat bunga qarshi keskin choralar ko'rishga majbur bo'lgan.

Amir Haydar ukasi Dinnosirbek boshliq qo'zg'olonchilarga qarshi *Niyozbek parvonachi* boshchiligida qo'shin yuborgan. Niyozbek parvonachi Marv vodiysini suv bilan ta'minlab turgan *Sultonbandi* to'g'onini buzdirib tashlagan. Suvsiz qolgan marvliklar jang qilmay, o'zlari yashab turgan joylardan boshqa yurtlarga ketishga majbur bo'lgan. Dinnosirbek esa *Eron*dan boshpana topgan.

Harbiy harakatlar oddiy mehnatkashlarning buningsiz ham og'ir ahvollarini yanada og'irlashtirgan. Bu ham yetmaganidek, harbiy harakatlar uchun qoracherikka safarbarlik va yer solig'ining muddatidan oldin yig'ib olinishi 1821-yili *Miyonqolda* qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Lekin amir Haydar qo'zg'olonchilarning kuchini to'la sindirolmaydi va qo'zg'olonchilarga yonib bosishga, ularning mulki daxlsizligi xususida yorliq berishga majbur bo'ladi.

Amir Nasrullo hukmronligi. Amir Haydar vafot etgach, qisqa vaqt oralig'ida uning ikki o'g'li taxtga o'tirgan. Biroq ular fitna qurboni bo'lishgan. Nihoyat, taxtni uning uchinchi o'g'li *Nasrullo* egallagan (1826 – 1860).

Amir Nasrullo amirlik tarkibiga rasmangina kirgan beklklarni yagona davlatga birlashtirish yo'lida qat'iyat bilan kurash olib bordi. Qanchalik qattiqqo'l bo'lmasin, uning davrida ham beklklarning mustaqillik uchun kurashiga to'la chek qo'yishning iloji bo'lmadi. Masalan, Shahrisabz va Kitob beklklarini to'la bo'ysundirish uchun kurash 30 yil davom etgan. Nihoyat, 1856-yilgina u Shahrisabz va Kitobni o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'lgan.

Amirlikning qurolli kuchlari. Amirlik muntazam (doimiy) qo'shinga ega emas edi. Mavjud qo'shin nomuntazam bo'lib, *qoracherik* deb atalgan. Bu qo'shin zaruriyat tug'ilganida viloyatlardan to'plangan. Amir Nasrullo qoracherik o'rniga muntazam qo'shin (navkariya) tuzish maqsadida 1837-yili harbiy islohot o'tkazgan. Muntazam qo'shinga ega bo'lish, birinchi navbatda, davlat yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilardi. Zero, bunday qo'shin markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga urinayotgan viloyatlarning imkoniyatlarini amalda yo'qqa chiqarar edi. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida mehnat qilayotgan kishilardan qoracherikka safarbar etiluvchilar sonining keskin kamayishiga olib kelardi. Natijada safarbarlik davrida qishloq xo'jaligi ekinlari qarovsiz qolishining oldi olinardi. Uchinchidan, zaruriyat tug'ilganida amirni viloyatlar yuborishi lozim bo'lgan qoracherikka umid bog'lashdan xalos etardi. Zero, barcha viloyatlar ham qoracherikni talab etilgan miqdorda yuboravermas edi.

1837-yili o'tkazilgan harbiy islohotga ko'ra, dastlab 800 kishilik sarbozlar (piyoda askarlar) va 250 kishilik to'pchilardan iborat muntazam qo'shin tuzilgan. Ularning yashashlari uchun maxsus uy-joylar qurilgan. Sarbozlar maxsus kiyim (qizil kamzul, oq shalvar va qalpoq), nayzali miltiq, qilich va to'pponcha bilan ta'minlangan.

To'pchilar qismini shakllantirishda chetdan to'p quyish va to'pdan otish ilmini o'rgatuvchi mutaxassislar jalb etilgan. Navkariya tarkibida otliq qo'shin (navkar) ham bo'lgan. Muntazam qo'shinning harbiy xizmatchilariga mansab darajasiga qarab maosh to'langan.

Ichki siyosat. Mang'it hukmdorlari ichki siyosatining asosiy maqsadi markaziy hokimiyatni mustahkamlash, xalq ommasini qattiq itoatda tutishdan iborat bo'lgan. Ayni paytda, mang'it hukmdorlari yirik zodagonlarning nufuzini kamaytirishga imkon beruvchi tayanch kuchlarni vujudga keltirish siyosatini tutdilar. Bunday ijtimoiy tayanch davlatga xizmat qiluvchi amaldorlar tabaqasi bo'lishi mumkin edi. Mang'it hukmdorlari ana shunday amaldor xizmatkorlar tabaqasini yarata oldilar. Amir saroyida xizmat qiluvchi 300 ga yaqin yuqori amaldorlik lavozimi joriy etildi.

Bundan tashqari, mang'it amirlari markazlashgan mutlaq hokimiyatni barpo etishni o'zlarining bosh vazifalaridan biri deb hisoblaganlar. Shu maqsadda ular amir shaxsiga sig'inish siyosatini yuritganlar. Amir shu darajada oliy hokimiyat mavqeyiga ko'tarilganki, jazoga tortilishdan qo'rqqan fuqaro uning nomini baland ovoz bilan ayta olmas edi. Hukmron tabaqalar amirga xushomadgo'ylik qilardilar. Amaldorlar amirdan ko'rsatma kutib o'tirmasdan uning xohish-istagini topishga intildilar. Har bir amaldor amirning, kichik amaldor o'zidan katta amaldorning qahriga uchrab qolishdan qo'rqib yashardi. O'zining bugungi mavqeyi, mulki, hayoti, oilasining omonligi uchun shunday bir qo'rquv muhiti vujudga keltirilgan ediki, natijada hech kim ishonch bilan ertangi kundan umidvor bo'la olmay qolgan edi.

Amirlar mang'it qabilasidan bo'lganliklari uchun bu qabilani o'zlarining asosiy siyosiy va ijtimoiy tayanchlariga aylantirgan edilar. Davlat muassasalari asosan ulardan tashkil etilgan. Buxoro amirlari o'zbek qabilalari boshliqlarining o'z qabiladoshlariga ta'sirini juda yaxshi bilardilar. Qabila boshliqlari bilan o'zaro til topa olish – bu mamlakat xavfsizligining asosiy kafolatlaridan biri edi. Shuning uchun mang'it amirlari boshqa o'zbek qabilalari boshliqlarini o'z xizmatlariga olardilar.

11.6. Buxoro amirligida madaniy hayot

Tarixnavislik. Ashtarxoniylar hukmronligi davridan boshlab ijtimoiy-madaniy hayot rivojining qudratli to'sig'iga aylangan diniy mutaassiblik mang'itlar hukmronligi davrida yanada kuchaydi. Bu omil, birinchi navbatda, aniq, tabiiy fanlarning rivojlanishiga imkon bermadi. Chunki diniy mutaassiblik namoyandalari bu fanlar sohasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan har qanday kashfiyotni Xudoning irodasiga shak keltirish deb hisoblardilar. Shuning uchun ham uch o'zbek xonligida, jumladan, Buxoro amirligida aniq,

tabiiy fanlar rivojlanmadi. Shu tufayli bu davrda asosiy asarlar tarix, adabiyot, san'at va me'morchilik sohasida yaratilganligi bejiz emas. Buxoroning XIX asr birinchi yarmida ijod etgan tarixchi olimi Muhammad Ya'qub ibn Donyolbiy Buxoriy (1771 – 1831) edi. U «*Gulshan ul-muluk*» (Podshohlar gulshani) degan asar yozib qoldirgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayoniga bag'ishlangan. Asarning ikkinchi qismida esa Markaziy Osiyoning XVIII va XIX asr boshlaridagi tarixi bayon etilgan.

XIX asrda yozilgan Mirzo Shams Buxoriyning «*Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo'qand va Qoshg'ar*» («Buxoro, Qo'qon va Qashqarning ayrim voqea-hodisalari bayoni») kitobi, shuningdek, Mir Olim Buxoriyning «*Fathnomayi sultoniy*», Muhammad Hakimxonning «*Yilnomalar to'plami*» asarlari tariximiz uchun muhim manbalar hisoblanadi.

Adabiyot. Bu davr adabiyotida o'z davrining mashhur shoir va yozuvchilari ijod qilganlar. Ulardan biri o'ziga xos iste'dod egasi Muhammadniyoz Nishotiy edi (XVIII asrda yashab ijod etgan). U o'rtacha, vaqti kelganda kambag'allik va sargardonlikda yashagan. Shoir 1778-yili o'zining ajoyib «*Husn-u Dil*» dostonini yaratgan. O'zbek adabiyotining katta yutug'i sanalgan bu asarni shoir majoziy shaklda yozgan. Doston qahramonlari – *Aql, Husn, Yurak, Xayol, Vafo, Nazar, Ishq* va boshqalarning har biri g'oyat go'zal insoniy fazilatlarga ega. *Raqib, Fasod, Nafs* obrazlari esa yomon sifatlar hamda turli yovuzliklarning timsoli edi.

Shu tariqa Nishotiy dostonida odamlar va davlatlar orasidagi nizolar, baxillik va boshqa axloqiy qusurlar qoralanadi. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarashlarda xayrli intilishlar, aql va oliyjanob niyatlar ustun keladi.

Bundan tashqari, Nishotiyning adabiy ijodidagi yana bir o'ziga xoslik – bu uning adabiyotda munozara janri taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligidir. Bu o'rinda uning «*Qushlar munozarasi*» majmuasi katta ahamiyatga ega. Asarda o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illat, jaholat, mansabparastlik majoziy shaklda tanqid qilingan, mehnat ahlining kamtarligi ulug'langan. Asarda laylak, zog', bulbul, tovus, to'ti, humo kabi jami 14 ta qush o'rtasida bo'lib o'tgan bahs tasvirlangan.

Bu davrning yana bir mashhur shoiri Mujrim-Obid (1748 – 1818) edi. Shoirning asarlarida jamiyatdagi nomukammallik, ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, odamlar fe'lidagi illatlar tanqid ostiga olinadi.

Buxoroda Shavqiy, Joniy, Hiromiy, Vola va Junaydulloh Hoziq kabi o'nlab iste'dodli shoirlar ham ijod qilganlar.

Volaning (1770 – 1842) ko'zi tug'ma ojiz bo'lsa-da, tabiat unga kuchli iroda, aql, xotira va qobiliyat hamda yoqimli ovoz in'om etgandi. Shoir o'z

she'rlaridan 2 ta devon tartib bergan. Bizgacha 3 ming misra she'rlari yetib kelgan. O'z she'rlarida xalq boshiga tushgan kulfat va mashaqqatlarni kuylagan.

Tasviriy san'at. Buxoroda xattotlik va miniatyura san'ati yaxshi rivojlangan edi. Rassomlar asosan qo'lyozmalarni naqshli bezash bilan shug'ullanib, ko'proq diniy mazmundagi kitoblarni bezata boshladilar. Bu sohaning qator yetuk bilimdonlari zamonasiga yarasha yodgorlik qoldirdilar. Chunonchi, amir Haydar davrida ijod qilgan Mir Ma'sum Olamiyov «*Axloqi Muhsiniy*» kitobini hamda Sa'diyning she'riy asarlarini rasm bilan bezaydi.

Mirzo Sodiq Jondoriy Nasrulloxon amirligi davrida qo'lyozma kitoblarga lavhalar, Sa'diy va Hofiz asarlariga turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishlagan.

Yirik olim, faylasuf, shoir Ahmad Donish (1827 – 1897) 20 yil mobaynida Buxoro saroy kutubxonasida xattot va rassom bo'lib ishlagan. U astronomiya, tibbiyot, riyozat, me'morchilik va musiqadan tashqari xattotlikni, rassomlik hamda rang berish san'atini ham o'rgangan edi. Alimad Donish ko'chirgan, bezagan yoki rasm ishlagan qo'lyozmalar ichida «*Shohi darvesh*», «*Ajoyib al-tabaqot*» va boshqa asarlar buning dalilidir.

Musiq. Buxoro yuksak ustozona musiqi san'atining markazlaridan biri bo'lgan. Chunonchi, XVIII asr oxirlarida Buxoroda vujudga kelgan «*Shashmaqom*» buning yorqin dalilidir.

Buxoro Shashmaqomi Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan iborat bo'lib, 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalari tashkil topgan.

Maqom ashulalarining she'riy matni *Rudakiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Bobur, Nodira, Mashrab* singari turkiy va forsiy tilli mumtoz shoirlarning lirikasidan tuzilgan. Shashmaqom og'zaki tarzda ustoz-shogird an'anasi shaklida avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

12-BOB. XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHI. XVI – XVIII ASRNING BIRINCHI YARMIDA XONLIKNING IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

12.1. Xiva xonligining tashkil topishi

Xonlikning tashkil topishi. Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm temuriy Sulton Husayn Boyqaro hukmdor bo'lgan Xuroson davlati tasarrufida edi. Xorazmga qo'ng'iroq qabilasidan chiqqan Chin So'fi hokim etib tayinlangan va u rasman Husayn Boyqaro noibi hisoblanardi.

1505-yili Shayboniyxon, 1510-yili esa Eron hukmdori shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. Xorazmliklar safaviylar hukmronligiga qarshi kurash boshlaganlar. Bu kurashda ular dashti qipchoqlik siyosiy kuchlar madadiga suyananlar. Ayni paytda, Xorazmning mo'tabar zotlari mamlakat taxtiga Shaybon avlodlaridan Berka sultonning o'g'li, dashti qipchoqlik *Elbarsxonni* o'tqazishga qaror qildilar. U bu davrda Dashti Qipchoqda edi. Berka sultonning xonadoni Shayboniyxon xonadoni bilan garchand bir shajaradan bo'lsa-da, ular o'zaro dushmanlik munosabatida edilar. 1480-yili o'zaro toj-u taxt uchun kurashda Muhammad Shayboniyxon tomonidan o'z bobokaloni Shaybonxon avlodiga mansub Berka sultonning o'ldirilganligi buning sabablaridan biri edi.

Xorazmning erksevar xalqi Elbarsxon yetakchiligidagi Eron qo'shiniga qarshi ozodlik kurashi boshlandi va 1512-yili Eron qo'shinlarini mamlakatdan butunlay quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldi.

Bu g'alaba natijasida Xorazmning mustaqilligi tiklandi va bu davlat 1512-yildan *Xiva xonligi* deb atala boshlandi. Bu davlat asoschisi ham shayboniylik vakillari bo'ldi. Xiva xonligida shayboniylik hukmronligi 1770-yilgacha davom etdi.

Elbarsxon davrida mamlakat poytaxti *Vazir* shahridan *Urganch* shahriga ko'chirildi. Elbarsxon Vazir shahrini Eron qo'shinlaridan ozod etgach bu g'alaba sharafiga o'z o'g'illari nomiga «*g'oziy*» laqabini qo'shib aytishni buyurgan.

Elbarsxon davrida Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'pgina o'zbek qabilalarining ko'chib kelishi yanada kuchaydi. Natijada xonlik hukmdorlarining ijtimoiy tayanchi mustahkamlandi. Bu omil Xiva hukmdoriga xonlik hududini qo'shni davlatlar hisobiga kengaytirib olish imkonini ham berdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Movarounnahrdagi Shayboniylik davlati singari Xiva xonligi ham bir qancha katta-kichik mulklarga bo'lingan.

Xonlikda yirik o'zbek qabilalarining boshliqlari amalda mustaqil mulk egalari aylangan. Ular xonlikning butun ijtimoiy-siyosiy hayotiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatib kelganlar.

Ayni paytda, ular markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka, mustaqillikka intilishgan. Bu hol o'zaro nizolarni keltirib chiqargan.

Buning ustiga, XVI asrning 70-yillarida Xiva xonligi iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi. Uning asosiy sabablaridan biri Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirib, Orol dengizi yo'nalishiga burilganligi edi. Buning oqibatida eski o'zan atrofidagi yerlar cho'lga aylandi. Alioli esa xonlikning boshqa hududlariga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan. Bundan tashqari, Xiva xonligining XVI asrda ikki marta Buxoro xonligi tomonidan bosib olinishi, shuningdek, o'zaro qabilaviy nizolar, og'ir soliqlar hamda turli to'lov va jarimalar mamlakat aholisini xonavayron qilgan. Bu hol savdo-sotiqqa katta putur yetkazgan.

XVI asrda Xiva – Buxoro munosabatlari. Markaziy Osiyoda dastlab tashkil topgan ikki davlat – Buxoro va Xiva xonligi o'rtasida o'zaro nodo'stona munosabatlar hukm surgan. Buning asosiy sababi xonliklarning bosqinchilik ushllari hisobiga o'z hududlarini kengaytirishga urinishlari bo'lsa, ikkinchisi Buxoro va Xiva xonligida hukmron sulolalarning bir-biriga g'anim bo'lib qolgan xonadonlarga mansubligi edi.

Xivani Buxoroga bo'ysundirish harakati Ubaydullaxon davrida boshlangan. Ubaydullaxon 1537 – 1538-yillarda Xorazmga hujum qilib, Xiva xonligini Buxoroga bo'ysundiradi. Xiva xoni *Avaneshxon* (1525 – 1538) qo'shinlari tor-mor keltirildi, xonning o'zi esa o'ldirildi. Ubaydullaxon o'g'li Abdulazizni Xorazmga noib etib tayinladi. Biroq bu ahvol uzoq davom etmadi. Mahalliy xon Avanesxon avlodlari boshchiligida mamlakatni ozod etdi. Ubaydullaxon yuborgan qo'shin ham tor-mor keltirildi. Abdulazizxon esa Urganchdan Buxoroga qochib kelishga majbur bo'ldi. Keyingi hukmdorlar davrida ham bu ikki xonlik o'rtasidagi adovat va g'animlik to'xtamadi.

Jumladan, Buxoro xoni Abdullaxon II 1595-yili Xiva xonligini bo'ysundirdi. Faqatgina 1598-yili Abdullaxonning vafotidan keyin Buxoro xonligida boshlangan o'zaro toj-u taxt uchun kurashlar oqibatida Xiva xonligining mustaqilligi tiklandi.

12.2. XVII – XVIII asrning birinchi yarmida Xiva xonligidagi siyosiy ahvol

Xiva xonligida siyosiy parokandalik. XVII asrdan boshlab Xiva xonligining siyosiy hayotida ikki jarayon kuchaya bordi. Ularning birinchisi markaziy hukmron sulola nufuzining pasayishi bo'lsa, ikkinchisi qabila boshliqlari ta'sirining kuchayishi edi. Qabila boshliqlarining kuch-qudrati shu darajaga borib yetgan ediki, ular xonga o'z xohish-istaklarini o'tkaza olganlar. Xon davlat hayotiga oid har bir masalani ularsiz mustaqil hal eta olmas edi. Ayni paytda, shu qabila boshliqlari xon taqdirini hal etardilar. Binobarin, bu holat Xiva xonligida davlat parokandaligi yuz berganligini anglatar edi. Parokandalik Arab Muhammadxon davrida (1602 – 1621) yuqori nuqtasiga yetgan edi. Amudaryo o'zanining o'zgarishi bu davrda ham davom etdi. Natijada Arab Muhammadxon xonlik poytaxtini Urganchdan Xivaga ko'chirishga majbur bo'ldi. Yuz bergan iqtisodiy tanglik davlatning siyosiy ahvoliga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqi kuchlar foydalanib qolishga urindilar. Chunonchi, Arab Muhammad davrida Rossiya chegarasini qo'riqlab turgan Yoyiq kazaklari ataman *Nechay*, ko'p o'tmay ataman *Shamay* Urganchga hujum qildilar. Biroq Xiva qo'shini ularni tor-mor etadi.

Abulg'oziy Bahodirxon. 1616-yili Arab Muhammadxonning o'g'illari Habash sulton bilan Elbars sulton ayrim qabilalarning boshliqlariga tayanib otalariga qarshi isyon ko'tardilar. Ota farzandlariga yon bosishga majbur bo'ldi. Ular boshqaruviga topshirilgan hududlarga *Vazir* shahrini ham qo'shib berdi. Biroq bu bilan nizo tugamadi. 1621-yili ular yana isyon ko'tarishdi. Bu safar otalari Arab Muhammadxon tarafida uning boshqa ikki o'g'li – Asfandiyorxon va Abulg'oziy sulton urushda qatnashdilar. Bu urushda Habash sulton va Elbars sulton qo'shinlari g'olib keldi. Noqobil farzandlarning amri bilan asir olingan ota Xivaga keltirib qamab qo'yildi, keyinroq qatl etildi.

Abulg'oziy sulton Buxoro xoni Imomqulixon saroyida panohtopdi.

Asfandiyorxon esa Eron shohi Abbas I huzuriga yo'l oldi, uning yordamida 1623-yili Xiva taxtini egalladi va Habash hamda Elbars qatl etildi. Bu voqeadan xabar topgan Abulg'oziy sulton Xivaga qaytdi. Akasi Asfandiyorxon (1623 – 1643) uni *Urganch* hokimi etib tayinladi. Biroq tez orada aka-uka o'rtasidagi munosabatlar buzildi. Natijada Abulg'oziy sulton Turkiston, Toshkent, Buxoroda qochib yurishga majbur bo'ldi. Asfandiyorxon siyosatidan norozi bo'lgan turkmanlarning chaqirig'i bilan u yana Xivaga qaytib bordi. Akasi endi unga Xivani topshirishga majbur bo'ladi. Biroq qulay fursat tug'ilishi bilanoq uni 1630-yili Eron shohi huzuriga garov tariqasida jo'natib yuboradi. Abulg'oziy sulton Eronda *10 yil* tutqunlikda kun kechirdi.

O'n yildan so'ng tutqunlikdan qochib, Orol o'zbeklari qarorgohiga yetib keladi. Asfandiyorxon vafot etgach, 1644-yili Abulg'oziy Bahodirxon Xiva xonligi taxtini egallaydi.

Abulg'oziy Bahodirxon qabila boshliqlari nufuzini yanada oshirish yo'li bilan ularning markaziy hokimiyatga qarshi xatti-harakatlariga barham bermoqchi bo'ldi. U xonlikdagi barcha 32 qabilani *to'rt guruhga* bo'ldi: qiyot-qo'ng'iroq, uyg'ur-nayman, qang'li-qipchoq, nukuz-mang'it. Bunda qabilalarning urf-odatlari, turmush tarzi va qarindoshlik aloqalari hamda joylashgan yeri hisobga olindi. Har bir qabilaviy guruhga *inoq* tayinlanib, xon inoqlar orqali qabilalarga tegishli masalalarni hal qilgan. Inoqlar xonning eng yaqin maslahatchisi sifatida saroyda istiqomat qilganlar.

Xiva – Buxoro munosabatlari. Abulg'oziy Bahodirxon 1663-yili hokimiyatni o'g'li *Anushaxonga* topshiradi. Anushaxon davrida Buxoro – Xiva munosabatlari yanada keskinlashdi. Anushaxon bir necha marta Buxoro xonligi hududlarini xonavayronlikka olib kelgan harbiy yurishlar uyushtirdi. Uning qo'shini hatto Samarqandni egalladi. Biroq 1685-yili *G'ijduvon* yaqinidagi jangda Xiva qo'shinlari tor-mor etildi. Ayni paytda, Buxoro xoni Subhonqulixon Anushaxonga qarshi Xivada fitna uyushtirishga erishadi. 1686-yili Anushaxon taxtdan tushiriladi.

Subhonqulixon Xivada o'z tarafdorlaridan shunday fitnachi guruh uyush-
tra olgan ediki, buning oqibatida Xiva xonligining siyosiy hayoti yanada mu-
rakkablashdi, xonlik ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar girdobida qoldi. O'sha
davr manbalarida qayd etilganidek, qishloqlar va ekin yerlari o'rmon hamda
chakalakzorlarga, ko'llar qamishzor, botqoqlarga aylandi.

Xiva xoni Sherg'ozixon (1714 – 1728) davrida Buxoro xoni Abulfayzxon
qrolliklarni Xiva xoniga qarshi gijgijlay boshladi. Natijada Orolbo'yi aholisi
Xiva xonligidan ajralib chiqdi. Xiva xonligida boshlangan o'zaro kurash goh
u, goh bu tomonning ustunligi bilan to Sherg'ozixon vafotiga qadar davom
etdi. Qabilalar o'zaro kelisholmagach, endi taxtga Qozoq xonligidan chingiziy
sultonlarni o'tqazish boshlandi. 1728-yili taxtga o'tqazilgan *Elbarsxon* ular-
ning birinchisi bo'ldi (1728 – 1740).

Eron shohi Nodirshoh xonlikdagi siyosiy beqarorlikdan foydalanib 1740-
yili Xivani bosib oldi.

Nodirshoh Xivaga o'z odamini hokim etib tayinlab Eronga qaytadi. Xivada
Eron boshqaruv tizimi o'rnatiladi. Aholiga «*moli omon*» solig'i solinadi. Biroq
Eronga qaramlik davrida ham ichki nizolar to'xtamagan.

Taxt uchun qabilalararo ayovsiz kurash boshlandi. Taxtga esa atayin
chingiziyalar avlodiga mansub xonlarni o'tqazish davom etdi va ular tez-tez
almashtirib turildi. Bu hodisa tarixga «*xonlar o'yini*» nomi bilan kirdi.

Xonlar esa amalda inoqlar qo'lida itoatkor bo'lib qoldilar. O'zaro ichki
kurashlarda ma'lum muddat turkman yovmutlarining qo'li baland kelib turdi.
Xonlikdagi bu ichki boshboshdoqlik qo'ng'iroq qabilasi hokimiyat tepasiga
kelgunga qadar davom etdi.

12.3. Xiva xonligining iqtisodiy va madaniy hayoti

Xonlikdagi shaharlar hayoti. Xiva xonligida Xiva, Ko'hna Urganch, Yangi
Urganch, Vazir kabi o'nlab shaharlar mavjud bo'lgan. Ulardan eng qadimiysi
Xiva shahri bo'lib, u «*Ming gumbaz shahri*» nomi bilan ham mashhurdir. XIX
asrning birinchi yarmida Xiva shahrida 2 ta xon saroyi, 17 ta masjid va 22 ta
madrasa mavjud bo'lgan. 1997-yili uning *2500 yilligi* nishonlandi. Bu haqda
UNESCO 1995-yili qaror qabul qilgan edi. Bu qaror Xiva shahrining jahon
madaniyati taraqqiyotida tutgan alohida o'rning e'tirofi bo'ldi. Bugungi av-
lod o'z ota-bobolarining madaniy merosi bilan haqli ravishda faxrlana oladi.

Xiva shahri mil. avv. V asrda bunyod etilganidan buyon uning tarixi butun
Xorazm tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib keldi. Xivaning mashhurligi
u bunyod etilgan davrlardanoq Sharq bilan G'arbni bog'lovchi savdo yo'li
o'tganligi bilan izohlanadi.

Xiva shahri XVII asrning I choragidan 1920-yil fevraligacha Xiva xonligining poytaxti bo'lgan.

Yangi Urganch. 1646-yili Abulg'oziyxon hozirgi Urganch shahriga asos soldi. Abulg'oziyxon asos solgan bu shahar *Yangi Urganch* deb atalgan. Yangi Urganch shahri Buyuk ipak yo'lida joylashganligi tufayli tez sur'atlar bilan rivojlangan savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan. Shaharda ko'plab mayda do'konlar va ustaxonalar ishlab turgan. Bunga yuqorida qayd etilgan Amudaryoning o'z yo'nalishini o'zgartirib Orol dengizi tomon oqa boshlagani, buning oqibatida Xorazmning qadimdan madaniyat markazi bo'lib kelgan shahri Gurganjning (Ko'hna Urganch) suvsiz qolganligi sabab bo'lgan edi. Shundan keyin qadimgi Gurganjning nomi *Ko'hna Urganch* bo'lib qoldi. Abulg'oziyxon Yangi Urganchga asos solgach Vazir shahrining aholisini ham shu yerga ko'chirgan. Shu tariqa bu shahar o'z ahamiyatini butunlay yo'qotgan.

Hunarmandchilik. Xiva xonligi tarixiy manbalarida hunarmandchilikning 27 sohasi qayd etilgan. Amalda esa ular bundan-da ko'p bo'lgan.

Hunarmand malakali usta bo'lishi uchun ko'p yil mashaqqatli mehnat qilgan.

Hunarmandlar o'z uyushmalariga ega edilar. Bu uyushmalar hunarmandlarning faoliyatini tartibga solib turardi. Shu yo'l bilan ularning manfaatini himoya ham qilardi. Uyushma boshlig'i xonning xazina siyosatini o'tkazuvchi shaxs ham hisoblanardi.

Xiva ustalarining juda oz qismi xususiy ustaxona – do'koniga ega edi. Hunarmand o'z uyida ham do'kon ochishi mumkin edi. Ko'pchilik hunarmandlar xonga va boshqa badavlat kishilarga tegishli do'konlarni ijaraga olib mehnat qilishardi. Ayrim hunarmandlar buyurtma asosida ham ishlardi.

Qishloq xo'jaligi. Xonlik aholisi asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan. Dehqonchilik va u bilan bog'liq bo'lgan chorvachilik qishloq xo'jaligining ikki asosiy sohasi edi.

Dehqonchilikda g'alla, paxta va poliz mahsulotlari yetishtirish yetakchi o'rin egallagan. Ekinzorlarning yarmidan ortig'ida g'alla yetishtirilgan. G'allachilikda kuzgi bug'doy ekish yetakchi edi. Dehqonlarning don ekinlaridan mo'l hosil olishlariga hatto chet elliklarning ham tan berganligiga tarix guvoh.

Chunonchi, Xivaga kelgan yevropalik sayyohlardan biri aytgan quyidagi so'zlar manbalarda saqlanib qolgan: «*Men Germaniyaning o'zida dalada ishlovchilarning Xivadagidek mirishkorligini ko'rmaganman*». Don ekinlari ichida jo'xori ekish bug'doydan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Sholi esa asosan suv ko'p hududlarda yetishtirilgan. Ekinzorlarning 1/5 qismida paxta yetishtirilgan.

Xonlik iqtisodiyotida pillachilik ham muayyan ahamiyatga ega bo'lgan. Poliz mahsulotlari ichida Xorazm qovunining dovrug'i keng yoyilgan edi. Bundan tashqari, xonlikda bog'dorchilik ham dehqonchilikning rivojlangan sohalaridan biri bo'lgan.

Ichki va tashqi savdo. Xonlikning ichki va tashqi savdosidan davlat xazinasi durustgina daromad tushgan. Ichki savdo-sotiqda Xivaning usti yopiq bozori alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bozor yo'lining ikki tarafiga ustaxonado'konlar qurilgan.

Bozordagi savdo o'rinlaridan foydalanganlik uchun *tagjoy* deb ataluvchi alohida soliq olingan.

Xonlikdan asosan qorako'l teri, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari Eron, Hindiston, Xitoy va Turkiya kabi davlatlarga eksport qilingan.

XVI asr oxirlaridan Rossiya bilan ham savdo-sotiq birmuncha yo'lga qo'yila boshlandi. Xiva elchilari asosan gazlama va to'qilgan buyumlar olib borishgan. Chunonchi, Xiva elchisi 1620-yili *Qozon* shahrida 670 *kiyimlik* mato sotganligi manbalarda qayd etilgan. Rossiyaga gilam, qoqi meva, qorako'l terisi, o'simliklardan tayyorlangan bo'yoqlar ham olib borilgan.

Xiva savdogarlari Rossiyaning *Nijniy Novgorod* yarmarkasida faol qatnasha boshlaganlar.

Ilm-fan. XVI – XVIII asrning birinchi yarmi Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyoti butunlay to'xtab qolgani yo'q. Bu davrda tarix ilmi o'ziga xos o'rinda turgan. Chunonchi, Xiva xoni Abulg'oziyxon Xiva tarixshunosligi maktabiga asos soldi.

Abulg'oziyxon fan va madaniyat tarixida «*Shajarayi turk*» va «*Shajarayi tarokima*» asarlari bilan o'chmas nom qoldirdi.

«*Shajarayi turk*» asarining 9-bobi bevosita Xorazmning 1512 – 1663-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlangan. Unda aniq tarixiy voqealar, turkiy xalqlar an'analari, Xiva va Buxoro munosabatlari jarayoni yoritilgan. Pul muomalasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Abulg'oziyxonning yana bir katta xizmati shundan iboratki, u o'z asarlarini oddiy kitobxon uchun turkiy tilda yozgan. Shuning uchun ayrim olimlar uning asarlarini yangi o'zbek tili yozma yodgorligi deb hisoblashadi.

Vengriyaning mashhur sharqshunosi X.Vamberi: «*Abulg'oziyning «Shajarayi turk»i uchun butun dunyo undan minnatdor*», – deb yozgan edi. Bu asar bir necha asrlardan beri ko'plab tillarga tarjima qilib kelinmoqda.

Abulg'oziyxonning topshirig'i bilan «*Dastur ul-amal*» asari ham yozilgan. Afsuski, bu asar muallifi hamon aniqlangan emas. Ushbu asarda Sohibqiron Amir Temurdan tortib Zahiriddin Muhammad Boburga qadar temuriylar shajarasi qisqacha sharhlangan. Har bir hukmdorga qo'lyozmaning bir bo'limi bag'ishlangan.

Qo'lyozma kitob san'ati. XVI asrda Xiva xonlari kutubxonalarida xat-totlik, husnixat maktabi shakllandi. Mashhur xattot *Hamadoniy* 1556-yili Eshmuhammadxonga «*Shohnoma*»ni miniatyuralar uchun ochiq joy qoldirib ko'chirib berdi.

XVII – XVIII asrlarda Xivada *Muhammad Yusuf Rojii*, *Bobojon Sanoyi*, *Muhammad Rizo Oxund* kabi qator usta xattotlar yashab mehnat qilganlar. Ular she'riy asarlar, tatjima va tarixiy kitoblarni ko'chirganlar. Har bir kitobni bezashda bir necha soha ustalari ishtirok etgan. Bular – qog'oz qirquvchi, kotib-xattot, muzahhib, lavvohlar, miniatyurachi rassom va sahhoflar edi.

13-BOB. XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA XIVA XONLIGI

13.1. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi

Qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Xiva xonligidagi siyosiy vaziyat hukmron tabaqalarning urushlar va qabilalar o'rtasidagi mojarolarni to'xtatishga qodir bo'lgan kuchli markaziy hokimiyatning barpo etilishini taqozo etardi. Bunday hokimiyatni barpo etishga qodir kuch sifatida maydonga o'zbeklarning qo'ng'irot qabilasi chiqdi. Bu zaruriyatning natijasi o'laroq XVIII asrning 60-yillaridan Xiva xonligida hokimiyatni qo'ng'irot qabilasi boshliqlari asta-sekin o'z qo'llariga ola boshladilar.

Yirik zodagonlar va ruhoniylar tabaqasining madadiga tayangan qo'ng'irot qabilasining yo'l boshchisi *Muhammad Amin* 1761-yili inoqlik lavozimiga ko'tarilgan. U turkmanlarning *yovmut* va *chovdur* qabilalariga qarshi kurash olib borgan. Biroq dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Buxoroga – Doniyolbiy otaliq yoniga ketadi. Turkman qabilalari Xorazmni egallab, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat, Shohobod shaharlarini xonavayron qiladilar. Ocharchilik va vabo tarqalib, o'zbeklar Orolbo'yi va Buxoroga ketishga majbur bo'ladilar.

Buxoro amirligi madadiga tayangan Muhammad Amin inoq 1770-yili Buxorodan qaytib kelib, yovmutlarga qarshi kurashni uyushtiradi va ularni Xorazmdan haydab chiqaradi.

Muhammad Amin inoq mahalliy beklarni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi va Xiva xonligida hokimiyatni qo'lga oldi.

Shu tariqa 1770-yili xonlikda qo'ng'irotlar sulolasining hukmronligi o'rnatildi. Biroq bu sulola chingiziylar avlodiga mansub bo'lmaganligi uchun taxtda avvalgi sulola vakillarini saqlab keldilar. Ular, aslida, soxta xonlar bo'lib, amalda hech qanday hokimiyatga ega emasdi.

Hukmronligining so'nggi yillarida o'z qabilasining faol qatlamiga, savdogarlar va ruhoniylar madadiga tayangan hamda turli turkman qabilalari o'rtasidagi o'zaro nizolardan oqilona foydalana olgan Muhammad Amin mamlakatda

shababan siyosiy osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi. Bularning barchasi mamlakat iqtisodining ko'tarilishini ta'minladi. Jon saqlash uchun o'zga yurtlarga qochib ketgan fuqarolar yana qaytib kela boshladilar. Avaz Muhammad inoq davrida Xiva xonligi iqtisodiy jihatdan ancha mustahkamlandi.

Muhammad Amin (1770 – 1790) ham, uning o'g'li Avaz (1790 – 1804) ham davlat hokimiyatini inoq unvonida boshqarganlar. Hokimiyat amalda inoq va *maxsus kengash* tomonidan boshqarilgan. Faqat Avazning o'g'li *Eltuzar* 1804-yili o'zini *xon* deb e'lon qildi. Bu sana xonlik tarixiga *qo'ng'irok* sulolasi hukmronligi rasman o'rnatilgan sana sifatida kirgan. Bu sulola 1920-yilga qadar Xiva xonligini idora qildi.

Eltuzarxon xonlikda markazlashgan davlat siyosati yuritish uchun harakat qildi. Biroq u 1806-yili Xiva – Buxoro urushida halok bo'ldi.

Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligi. *Eltuzarxon* vafot etgach, taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi. Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini siyosiy jihatdan birlashtirishga kirishdi.

Ayni paytda, turkmanlarni bo'ysundirish masalasi yetakchi o'ringa chiqdi. Turkmanlarning turli qabilalari qanchalik qattiq qarshilik ko'rsatmasinlar, birin-ketin bo'ysundirib borildi.

Bo'ysunishni istamagan yovmut qabilasi Xurosonga ko'chib ketdi. Biroq Eron hukumatining tazyiqi ostida hamda yaylov maydoni yo'qligi uchun yana Xiva xonligi hududiga qaytib keldi. Endi ular Xiva xoni tomonidan ajratib berilgan hududga joylashishga majbur bo'ldilar. Shu davrdan boshlab yovmut qabilasining taqdiri Xiva xonligi bilan uzil-kesil bog'lanib, xonlik fuqarolari tarkibiga olindi. Ularga ham soliq to'lash belgilandi. Shuningdek, xon qo'shiniga belgilangan miqdorda navkar yuborish majburiyati ham yuklandi.

Uzoq davom etgan urushlar va yillab sarson-sargardonlikda yurish yovmutlarni qishloq xo'jaligidan ancha uzoqlashtirib qo'ygan edi. Shu tufayli ular xon qo'shinida sidqidildan xizmat qildilar. Ulardan o'z zamonining eng jangovar otliq harbiy qismi tuzilganligi ham bejiz bo'lmagan.

Muhammad Rahimxon I (1806 – 1825) o'zbeklar va turkmanlardan tuzilgan «*xon navkarlari*» deb atalgan muntazam qo'shinga tayanib yirik zodagonlar qarshiligini sindirish uchun shiddatli kurashda o'z raqiblarini birin-ketin bo'ysundira bordi.

Muhammad Rahimxon I ga dushmanlik ruhidagi Orolbo'yi zodagonlari guruhi qattiq qarshilik ko'rsatdi. Biroq 1811-yili ularning qarshiligi sindirildi. Xiva xoni qoraqalpoqlarni ham bo'ysunishga majbur etdi.

Muhammad Rahimxon I davrida xonlik siyosiy jihatdan birlashtirildi. Ayni paytda, uning hududlari yanada kengaytirildi. Mamlakatda nisbiy barqarorlik ta'minlandi. Muhammad Rahimxon I mamlakat obodonchiligiga ham alohida

e'tibor berdi. Qator madrasalar va masjidlar qurdirdi. Bir qancha kanallar qazdirib, ekin maydonlariga suv chiqartirdi. Mamlakatda ichkilik va bangilikni taqiqladi. Ilm ahliga homiylik ko'rsatdi. Olimlar, shoir va donishmandlar bilan tez-tez suhbatlar o'tkazib turdi.

13.2. XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligining tashqi siyosati

Xonlikning Osiyo davlatlari bilan aloqalari. XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Hindiston va Turkiya kabi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy va elchilik aloqalari rivojlandi. Bunga, bir tomondan, Xiva xonligi hududining o'rta osiyolik savdogarlar va haj safariga boruvchilarning Kaspiy dengizi orqali muqaddas Makka va boshqa shaharlarga o'tish manzilgohiga aylanganligi, ikkinchidan, chet davlatlar bilan savdo-sotiqni rivojlantirish davlat xazinasiga yaxshigina daromad keltirayotganligi sabab bo'lgan.

Xiva – Buxoro munosabatlari har doim ham silliq kechmagan.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon I Buxoro amirligi bilan elchilik aloqalarini qayta tiklashga va ikki davlat o'rtasida savdo-sotiqni rivojlantirishga harakat qilgan. Chunonchi, 1811 – 1812-yillarda Xivaga Buxorodan *O'rozboy Jo'ra* va *Avaz Murod yasovulboshi* boshchiligida elchilar kelgan. Bunga javoban Muhammad Rahimxon I Buxoroga *Hasan Murod otaliq* boshchiligida elchilar va savdo karvonlarini yuborgan.

Ayni paytda, bu ikki davlatning manfaatlari mintaqaning ayrim hududlarida, xususan, Marv viloyatida ham to'qnash kelgan. Chunki Marv O'rta Osiyo davlatlarini Eron bilan bog'lovchi muhim savdo yo'li ustida joylashgan edi. Shuning uchun ham XIX asrning 1-yarmida bu ikki davlat o'rtasida bir necha bor o'zaro urushlar yuz bergan. Chunonchi, Muhammad Rahimxon I 1822-yili Marvni Buxorodan qaytarib olgan. O'zaro urushlarga qaramay, savdo aloqalari to'xtab qolmagan.

1812-yili Xivaga Eron va qozoqlarning o'rta juz xonligidan elchilar kelishgan. Ular bilan davlat chegaralari xavfsizligi va savdo-sotiq masalalarida kelishuvga erishilgan. XIX asr boshlarida Xiva va Afg'oniston o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatilgan. Muhammad Rahimxon I hatto Afg'onistonda hokimiyat uchun kurashayotgan shoh *Mahmud*ning ikkinchi marta hokimiyat tepasiga kelishida yordam ham bergan. Buning evaziga Afg'oniston Xiva xonligi savdogarlariga *Kobul* bozorida erkin savdo qilish huquqini bergan.

Xiva xonligi Qo'qon xonligi bilan ham o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga harakat qilgan. Chunonchi, 1843 – 1844-yillarda Xivaga Qo'qon xonligi elchilarining kelganligi, o'zaro muzokaralar davomida ikki davlat o'rtasida hamdo'stlik o'rnatishga kelishilganligi va o'zaro savdo aloqalarini yanada

rivojlantirishga kelishilganligi buni tasdiqlaydi. Tabiiyki, u yoki bu davlatga chet ellardan savdogarlarning muntazam kelishi ularga yaratiladigan qulay sharoitga ham bog'liqdir. Xiva xonlari chet ellik savdogarlarga shunday sharoit yaratish masalasiga katta e'tibor berganlar. Bunga misol qilib Olloqulixonning (1825 – 1842) ajoyib me'moriy obida, xonlik ustalari yuksak mahoratining ko'zgularidan biri bo'lgan *Karvonsaroy* majmuasini bunyod ettirganini keltirish mumkin. Bu majmua 14 gumbazli tim (yopiq bozor), karvonsaroy va omborxonadan iborat qilib qurilgan. Bozorda Hindiston, Xitoy, Eron, Rossiya, Buxoro va Qo'qon kabi davlatlardan keltirilgan mollar sotilgan.

Tim yozda savdo-sotiq uchun juda qulay va salqin bo'lgan. Karvonsaroy esa ikki qavatli, 105 hujrali edi.

Xiva xonligining anori, qovuni, uzumi, nashvatisi, anjiri va o'rigining shirinligiga chet ellik savdogarlar tan berishgan va bu mahsulotlar chet davlatlarda ham mashhur bo'lgan.

Xiva – Rossiya munosabatlarining o'ziga xos jihatlari. Xiva – Rossiya munosabatlarida muhim jihat shunda ediki, o'zaro savdodan har ikkala davlat ham birdek manfaatdor edi.

Xiva savdogarlari uchun Rossiyaga boradigan savdo yo'llari xavfsiz edi. Shuningdek, Xiva xonligida Rossiya zavod va fabrikalari ishlab chiqargan tayyor iste'mol mahsulotlariga ehtiyoj baland bo'lgan. Ayni paytda, Rossiya Xiva xonligiga o'z mahsulotlarini sotadigan bozor deb qarardi. Rossiya mahsulotlari Yevropaning ilg'or davlatlari tovarlari bilan raqobat qila olmayotgan bir davrda bu juda muhim edi. Ikkinchidan, Xiva xonligi Rossiya sanoati uchun zarur xomashyo mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib beruvchi o'lka ham hisoblanardi. Xivadan Rossiyaga paxta, ipak, bo'z, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari, quritilgan meva va boshqa mahsulotlar olib borilgan. Xiva savdogarlari *Nijniy Novgorod* shahrida o'tkaziladigan yarmarkalarda qatnashganlar. Rossiyadan esa Xivaga metall, to'qimachilik mahsulotlari, turli rangli bo'yoqlar, mo'yna terilari, qurol-aslaha keltirilgan.

Biroq har ikki davlat o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining qaror topishiga to'sqinlik qilgan omillar ham mavjud bo'lgan. Bular savdo karvonlariga hujum qilish xavfining mavjudligi, har ikki tarafning Kichik juz qozoqlarini va qoraqalpoqlarni o'z fuqarolari deb hisoblashlari; shuningdek, har ikki tomonning o'zaro savdodan olinadigan boj hajmi masalasida uzoq vaqt bir to'xtamga kela olmaganliklari bilan bog'liq edi.

Xiva – Rossiya munosabatlarining keskinlashuvi. Maqsadi O'rta Osiyoni egallashtirish iborat bo'lgan podsho Rossiyasi O'rta Osiyo davlatlariga, xususan, Xiva xonligiga turli bahonalarni ro'kach qilib bosim o'tkazishni kuchaytirib borgan. Ayni paytda, qozoq juzlarini, qoraqalpoqlarni hamda

turkmanlarning ayrim qabilalarini Xivaga bo'ysunmaslikka da'vat etib turgan. Chunonchi, podsho Rossiyasi Xiva xonligi tarkibida yashovchi turkmanlarning yovmut qabilasini Rossiya fuqaroligiga o'tkazish istiqbollarini hamda savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minlash bahonasida chegara hududlarida istehkomlar qurish imkoniyatlarini o'rganish maqsadida 1819-yili armiya zobiti *N.Muravyov* rahbarligida maxsus ekspeditsiya ham yuborgan.

Podsho Rossiyasining tajovuzkorligi 1822-yili O'rta juz, 1824-yili esa Kichik juz xonliklarida xonlik hokimiyatini tugatib, ularning Rossiyaga bo'y sundirilganida yaqqol ko'rindi. Endi podsho Rossiyasi chegarasi bevosita Xiva xonligi chegarasiga yaqinlashib qoldi. Bunday sharoitda Xiva xonligi qozoq cho'llarining ikki davlat o'rtasida bir-birini ajratib turuvchi hudud bo'lib qolishi uchun harakat qildi. Biroq podsho Rossiyasi buni istamadi. Oqibatda ikki davlat o'rtasidagi munosabat keskinlasha bordi.

Xiva – Rossiya munosabatlari keskinlashgan bir sharoitda Muhammad Rahimxon I vafot etdi. Taxtga o'g'li *Olloqulixon* o'tirdi. U Xiva – Rossiya munosabatlaridagi keskinlikni yumshatishga urindi.

1826 – 1829-yillardagi Eron – Rossiya va 1828 – 1829-yillardagi Rossiya – Turkiya urushi Rossiyani Xiva bilan munosabatlarini yanada keskinlashtirishdan o'zini tiyishga majbur etdi. Bu orada Buyuk Britaniya razvedkasi Markaziy Osiyo xonliklariga suqulib kira boshladi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya tovarlarining xonliklar bozorini to'ldirish xavfi ham vujudga keldi. Bundan tashqari, Eron bilan urush oqibatida Rossiya – Eron savdo-sotiq ishlarining ahvoli yomonlashdi. Bunday sharoitda Markaziy Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiqni har qachongidan ko'ra rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. Ayni paytda, Rossiya hukumati Xiva xonligiga nisbatan o'z talablari ko'lamini tobora kengaytirib bordi. Chunonchi, keyinchalik Xivadan Amudaryoda Rossiya savdo kemalarining suzishiga ruxsat berishni ham talab eta boshladi.

Bora-bora Rossiya Xiva bilan munosabatni harbiy kuch orqali tartibga solish yo'lini tanladi. Shu maqsadda 1839-yili *V.Perovskiy* harbiy ekspeditsiyasi tashkil etildi. Uning ixtiyorida 4 ming piyoda askar, 12 ta to'p va yuk ortilgan o'n ming tuya bor edi. Biroq Ustyurtning qattiq sovug'i, oziq-ovqat va yem-xashakning yetishmasligi oqibatida ekspeditsiya talafot ko'rdi. Oqibatda *V.Perovskiy* orqaga qaytishga majbur bo'ldi.

Lekin ekspeditsiya izsiz ketmadi. *V.Perovskiy* ekspeditsiyasi Xiva xonini Rossiya bilan kelishuv yo'lini axtarishga majbur etdi.

«*Majburiyatlar akti*». Vaqt o'tishi bilan Rossiya hukumati zo'r berib Xiva xonligiga o'z hukmini majburan o'tkazishga kirishdi. Bu maqsadga erishish uchun *G.Danilevskiy* boshchiligidagi elchilik missiyasini yubordi.

Muzokaralar davom etayotgan kunlarda *Olloqulixon* vafot etdi. Taxtni o'g'li *Rahimqulixon* egalladi. Muzokaralar yakunida Rossiya bosimi ostida

1842-yilning 27-dekabrida Xiva – Rossiya o'rtasida «Majburiyatlar akti» deb ataluvchi shartnoma imzolandi.

Shartnomada Xiva xonining Rossiya bilan tinchlik, mustahkam do'stlik munosabatida bo'lishi e'lon qilindi. Bundan tashqari, Xiva xoniga Rossiyaga nisbatan dushmanlik harakatlari sodir etmaslik; savdo karvonlarining tala-nishiga yo'l qo'ymaslik; Rossiya fuqarolarining shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlash kabi majburiyatlar yuklandi.

Bular, aslida, podsho Rossiyasining o'z xohish-istaklarini majburan bajar-tirishdan boshqa narsa emas edi. Shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi sav-do aloqalariga ham katta e'tibor berildi. Mazkur masalada ham Rossiya o'z xohish-istagini majburan qabul qildirgan. Chunonchi, boj to'lovlari Rossiya tovarlari qiymatining 5% miqdoridan oshmasligi belgilab qo'yildi. Biroq Rossiya shartnomaning ana shu bandini ham amalda bajarmagan. Oqibatda o'zaro munosabatlar tobora keskinlashib borgan.

13.3. Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti

Xonlik aholisi. XIX asrning 20-yillari boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Xiva aholisining soni 800 ming kishini tashkil etgan. Bu raqam qat'iy bo'lmasdan, xonlik hududining kengaya borishi bilan xonlik fuqaroligini qabul qilganlar-ni soni ko'payib borgan. XIX asr o'rtalarida xonlik poytaxti Xiva shahrida 20 mingdan ortiq aholi yashagan. 700 dan ortiq hunarmandchilik ustaxona-si, 200 dan ortiq savdo do'koni, 3 ta katta va 15 ta kichik bozorlar bo'lgan. Hunarmandchilikning 50 dan ortiq turi rivoj topgan. Xonlik aholisining katta qis-mini o'zbeklar tashkil etgan. Ular o'zbeklarning turli qabilalariga mansub edilar. Undan keyingi o'rinlarni turkmanlar, qoraqalpoqlar va qozoqlar egallashgan.

Ularning har biri asosan o'zlariga ajratilgan yerlarda joylashgan. Har biri alohida-alohida kanalga ega bo'lgan. Har bir qabila o'zlariga qarashli su-g'orish inshootlarini tiklash va ta'mirlash ishlarida qatnashgan. Har bir qabi-laning kanali shu qabila nomi bilan atalgan.

Davlat tuzumi va boshqaruv tizimi. Xonlik mutlaq monarxiya bo'lib, oliy hukmdor – xon davlat boshlig'i edi. Ma'muriy jihatdan xonlik hududi 15 ta viloyatga (Pitnak, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'shko'pir, G'azovat, Qiyot, Shohabbos, Toshhovuz, Ambar-Manoq, Gurlan, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Chumanoy va Qo'ng'iro't) va 2 ta noiblikka bo'lingan. Viloyatlar shahar va masjid qavmlarini (qismlarni) o'z ichiga olgan. Masjid qavmlari obro'li oqso-qollar, qozilar va miroblar tomonidan boshqarilgan.

Davlat boshlig'i – xon hokimiyati vakolati nasldan naslga o'tgan. Muham-mad Rahimxon I o'z hukmdorligi davrida davlat boshqaruvi tizimida islohot o'tkazgan. Unga ko'ra, xon huzurida yuqori ma'muriy organ – *Oliy Kengash*

ta'sis etilgan. Oliy Kengash davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vazifasini bajargan. Oliy Kengashga xonning o'zi rahbarlik qilgan. Oliy Kengash ishida xonning yaqin qarindoshlari, mehtar, qo'shbegi, devonbegi, naqib, shayxulislom, bosh qozi, inoq, otaliq va biylar qatnashganlar. Oliy Kengash majlisi haflada bir marta o'tkazilgan va unda davlatning ichki va tashqi siyosatiga oid eng muhim masalalar muhokama etilgan.

Ayni paytda, xonlik hayotiga oid kundalik masalalarni hal etish uchun *Kichik Kengash* ham ta'sis etilgan. Bu kengash ishida xondan tashqari mehtar, qo'shbegi, devonbegi, naqib va shayxulislom qatnashgan.

Xonlikda *mehtar* bosh vazir hisoblangan. U xon safarga chiqqan paytlarda xonlikni idora qilgan. Mehtar va qo'shbegi mamlakat miqyosida soliqlar yig'ilishiga javobgar bo'lganlar.

Xonlikda 3 ta devon (vazirlik) ham faoliyat ko'rsatgan. Bular xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy va harbiy ishlar bilan shug'ullanuvchi devonlar edi. Ularning faoliyatiga *devonbegi* rahbarlik qilgan. Xonlikning qo'shiniga *yasovulboshi* qo'mondonlik qilgan.

Xonlik tarkibidagi qozoq va qoraqalpoqlar esa o'zlarining biylari, turkmanlar esa ularning vakili tomonidan boshqarilgan. Ularning lavozimlari nasldan naslga meros bo'lib o'tsa-da, nomzodini xon tasdiqlashi shart edi.

Yer egaligi. Xonlikning asosiy boyligi yer hisoblanardi. Bu yerlar sug'oriladigan (axya) va sug'orilmaydigan (adra) yerlardan iborat edi. Egalik shakliga ko'ra Xiva xonligining yerlari ham uchga bo'lingan:

1. Davlat yerlari (podshohi). 2. Xususiy mulk (xususiy yerlar). 3. Vaqf yerlari.

Xon va uning qarindoshlari, oliy martabali boshqa turli amaldorlar, ruhoniylar, savdo-sotiq tabaqalari barcha yerlarning deyarli yarmiga egalik qilishgan. Amaldorlarning yerlari 2 – 3 *ming* tanobni tashkil etgan. Xon va uning qarindoshlari undan ham katta hajmdagi yer maydonlariga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat yerlarida va xususiy mulk yerlarida ijarachi dehqonlar mehnat qilganlar.

Davlat yerini ijaraga oluvchilar *bevaton*, xususiy yerlarni ijaraga oluvchilar *koranda*, vaqf yerlarini ijaraga oluvchilar esa *vaqfchi* deb atalgan.

Xonning qarindoshlari o'z xususiy yerlaridan davlatga soliq to'lamas edilar. Davlat soliqlaridan ruhoniylar, katta amaldorlar, tarxon yer olganlar ham ozod etilgandilar. Biroq soliqni bu yerlarda ishlovchi ijaradorlar, ya'ni mehnatkashlar to'lashgan.

Shaharlarning iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolishi, yirik sanoatning mutlaqo yo'qligi oqibatida yersiz dehqonlar shaharga ish izlab borishdek imkoniyatga ega emasdi. Oqibatda ular qishloqda qolishga majbur bo'lganlar.

Suv tanqisligi tufayli dehqonchilik qiyin sharoitda olib borilardi. Shu bois Amudaryodan suv chiqarishga e'tibor berildi. XVIII asrning 70-yillarida

Davkor ko'li yonida kanal, XIX asr boshlarida esa *Lavzan*, *Qilich Niyozbiy*, *Katta Xonobod* kanallari qurildi. Bu tadbirlar yerlarni sug'orish holatini yaxshilashga ko'maklashdi.

Soliq va majburiyatlar. Barcha davlatlarda bo'lganidek, Xiva xonligida ham aholi to'laydigan soliqlar va ular o'taydigan majburiyatlar belgilab qo'yilgan edi. Xonlikda asosiy soliq *salg'ut*, ya'ni yer solig'i hisoblangan.

Hunarmandlar, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi savdogarlar, chorvadorlar *zakot* to'lashgan.

Bundan tashqari, mehnatkash xalq quyidagi bir qancha majburiyatlarni ham o'tagan:

Begar – rasman 12 kunlik davlat majburiyati; unga ko'ra, qishloqning har bir xonadonidan bir kishidan odamlarni to'plashardi. Ular har yili turli qurilish ishlarida, kanal qazishda, yo'llarni tuzatishda, turli binolar qurilishida ishlar edilar.

Qazu – butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarni tozalashga sarbar etish majburiyati.

Ichki va obxo'ra qazu – har yili kanallarning suv taqsimlagichini tozalash majburiyati.

Hachi – himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati.

Sug'orish inshootlari qurish va ta'mirlash bilan bog'liq majburiyatlarda qatnashish mashaqqatli ish edi. Chunki bu majburiyatlarining barchasi qo'lda ketmon bilan bajarilar, tuproqlar esa zambilda tashilar yoki yelkada ko'tarib chiqilar edi. Suv chiqarish va himoya to'g'onlari tuproq, yog'och hamda chimlardan qurilar ediki, ko'pincha ular suvning bosimiga bardosh bera olmas edi. Ana shunday paytlarda ular qaytadan qurilardi. Bosimga bardosh berganlari esa bir yildan ortiqroq chidamasdi. Kelasi yili ularni qayta qurish kerak bo'lardi.

13.4. Xiva xonligida shaharlar hayoti

Shaharlar hayotining umumiy manzarasi. XVI asr oxiriga kelib shaharlar hayotida uzoq davom etgan tushkunlik holati barham topdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida katta ko'lamdagi sug'orish inshootlarining tiklanishi hamda yangilarining bunyod etilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishiga asos bo'ldi. Bu hodisa, o'z navbatida, shaharlarda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning o'sishiga sabab bo'ldi.

Biroq bu o'sishni Yevropa davlatlari iqtisodiyoti taraqqiyoti bilan aslo tenglashtirib bo'lmaz edi. Bu G'arbiy Yevropa davlatlari hayotida tub sifat o'zgarishlari davom etayotgan davr edi. Chunonchi, Buyuk Britaniyada boshlangan sanoat to'ntarishi boshqa ilg'or davlatlarga ham yoyilgan, XIX asr

o'rtalariga kelganda esa nihoyasiga yetayotgan edi. Binobarin, Yevropa davlatlarida kapitalistik munosabatlar gurkirab rivojlanayotgandi.

Markaziy Osiyo xonliklarida, jumladan, Xiva xonligi jamiyati hayotida hamon o'rta asr yer egaligi munosabatlari hukmron edi.

Me'morchilik. XVIII asr oxirida Muhammad Amin hukmronligi davridan boshlab birmuncha siyosiy barqarorlik o'rnatildi. Bu omil Xiva shahrining holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 1782-yilga kelib Xiva shahrida qayta tiklash ishlari tugallandi.

Qayta tiklash ishlaridan tashqari yangi me'moriy obidalar ham qurildi. Masalan, 1765-yili *Sherg'ozixon* va *Muhammad Amin* madrasalari bunyod etildi.

XIX asr boshlarida Xiva xonligi poytaxti yirik qurilish maydoniga aylandi. Xon farmoyishi bilan karvonsaroy, usti yopiq bozor hamda 1834-yili *Olloqulixon* madrasasi qurilishi tugallandi.

XIX asrda Xiva shahri bir-biridan devor bilan ajralib turadigan ikki qismga bo'lingan. Ularning biri Dishan qal'a – Tashqi shahar (qal'a) deb, ikkinchisi esa Ichon qal'a – Ichki shahar (qal'a) deb atalgan.

Ma'lumki, Sharqda shaharning ichki qismi, ya'ni markazi Shahriston, tashqi qismi esa Rabod deb atalgan.

Ichon qal'a. Ichon qal'a bobolarimizdan qolgan Markaziy Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlikdir. Ichon qal'a Xiva shahrining ichki qal'a (Shahriston) qismidir.

Ichon qal'a Dishan qal'adan devor bilan ajralib turadi. Unga *Bog'cha*, *Polvon*, *Tosh* va *Ota* deb nomlangan to'rtta darvoza orqali kirilgan.

Xorazm o'lkasi me'morchiligining ajoyib obidalari – madrasa, masjid, xon saroyi, ma'muriy binolar, bosh maydon va minoralar Ichon qal'ada joylashgan.

Muhammad Rahimxon, Olloqulixon va Muhammad Aminxon hukmronliklari davrida Ichon qal'ada keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Muhtasham saroy, madrasa va maqbaralar barpo etildi. Ko'hna arkdagi saroy qurilishi tugallandi.

Muhammad Aminxon Ichon qal'aning g'arbiy qismidagi Ko'hna ark yoniga *Kalta Minor* nomi bilan mashhur bo'lgan minorani qurdirdi. Ichon qal'ani bunyod etishda Xiva me'morlari Markaziy Osiyoda qadimdan davom etib kelayotgan an'ana – inshootlarni ro'parama-ro'para qurish usulidan foydalanishgan. Bu usul «*qo'sh*» deb ataladi.

Bundan tashqari, binolarni alohida ansambl holida qurish an'analari ham amal qilingan. Masalan, Polvon darvozasi oldidagi bir necha masjid, madrasa, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyi ana shunday o'ziga xos ansamblni tashkil etadi. Noyob me'morchilik obidasi bo'lgan Ichon qal'a 1961-yili me'moriy yodgorlik sifatida alohida muhofazaga olingan va muzey-qo'riqxonaga aylantirilgan. Uning maydoni 26 ga ni tashkil etadi.

Unda 54 ta tarixiy-me'moriy obida joylashgan. 1969-yildan muzey-qo'riqxonasi Xiva «Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi» deb ataladi. 1990-yili Ichan qal'a butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.

Dishan qal'a. Dishan qal'a – Tashqi qal'a Xiva shahrining rabod qismi hisoblanadi. Unda savdo va hunarmandchilik do'konlari, mahallalar joylashgan. 1842-yili Xiva xoni Olloqulixon Xiva shahrini tashqi dushmanlar hujumidan saqlash maqsadida shaharni uzunligi 6250 metr, balandligi 7 – 8 metr, qalinligi esa 5 – 6 metr bo'lgan devor bilan o'ratgan.

Ichan qal'a 4 darvozali bo'lsa, Dishan qal'a 10 darvozali bo'lgan.

Hunarmandchilik. XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asr birinchi yarmida ham avvalgi asrlarda mavjud bo'lgan hunarmandchilikning har xil turlari yanada rivojlandi.

Me'morchilikning yuksalishi kulolchilikda ham o'z ifodasini topdi. Kulollar faqat alohida-alohida buyumlar tayyorlabgina qolmay, bir necha yuzlab lagan, tovoq va kosalardan iborat butun bir to'y marosimini o'tkazishga yetadigan to'y majmualarini ham tayyorlaganlar. Alohida tantanalar uchun maxsus to'y va podshoyi tovoqlar ham tayyorlangan.

XIX asrning 30 – 40-yillariga oid manbalarda Xivada zargarlik yetakchi hunarlar qatorida tilga olingan. Xivaning bosh taqinchog'i – *jig'a* Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalariga ham keng tarqalgan. Isirg'alar feruza va marjonlar, bilaguzuklar esa toshlar bilan bezatilgan.

XIX asrda Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi xonlikda oldingi o'rinda turardi. U o'z badiiy yuksakligi bilan ajralib turardi. Bu o'rinda Olloqulixon saroyidagi *Toshhovli* ayvon ustunlari majmuyi o'zining ko'rkamligi bilan ajralib turadi.

XIX asr o'rtalarida o'ymakori eshik va ustunlar ustasi *Polvon Abdusattor o'g'li*, ayniqsa, shuhrat qozondi.

Xiva shahri, ayni paytda, XX asr boshlarigacha xonlikda yagona shoyi to'qish markazi bo'lib qoldi.

XIX asrda Xivada matoga gul bosish san'ati o'zining kulrang uyg'unligi va mayda gullari bilan Markaziy Osiyoning boshqa gul bosish markazlaridan farq qilib turgan.

13.5. Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar

Arxiv hujjatlari. Arxiv hujjatlari bugungi avlodni o'tmish tarixi bilan tanishtirishda beqiyos ahamiyatga ega. Olimlar u manbalarni o'rganganlar, sharhlaganlar va shu orqali o'tmish tarixni tiklaganlar.

Xiva xonlari arxivi hujjatlari Rossiya xonlikni bosib olgach, 1873-yili *Peterburgga* olib ketilgan. Keyinchalik ular olimlar tomonidan topib o'rganilgan va sharhlangan.

Arxiv hujjatlari Xiva xonligining davlat tuzumi, soliq va majburiyatlar, pul muomalasi, davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi, aholining xo'jalik mashg'uloti, savdo-sotiq ishlari kabi masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Mahalliy tarixchilarning Xiva xonligi tarixi to'g'risidagi asarlari. XVII asrda yashagan Hasanbek Rumluning «*Eng go'zal tarix*» asari XVI asrning birinchi yarmidagi Xiva tarixiga bag'ishlangan.

Xiva xoni, tarixchi olim Abulg'oziy Bahodirxonning (1603 – 1664) «*Shajarayi turk*» asari, ayniqsa, katta ahamiyatga egadir. Asarda juda katta tarixiy dalillar to'plangan. Asar turkiy qabilalar shajarasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. U kitobxonni Xiva va xivaliklar, shuningdek, Abulg'oziyning ham o'zaro urushlar oqibatida parchalanib ketgan davlatni birlashtirish yo'lida olib borgan shiddatli kurashi bilan ham tanishtiradi. Asarning 1512–1663-yillardagi Xiva ijtimoiy-siyosiy tarixiga, Xiva – Buxoro munosabatlariga bag'ishlangan IX bobi tarix fani uchun katta ahamiyatga ega.

Mahalliy mualliflar orasida Munis va Ogahiyning tarixiy asarlari ham tarix uchun muhim manba hisoblanadi. Munisning «*Firdavs ul-iqbol*» deb ataluvchi tarixiy asari Eltuzarxonning 1806-yili bergan topshirig'i bilan yozilgan. Asar Xivaning XVI asrdan 1812-yilgacha bo'lgan tarixini qamrab olgan.

Munis vafot etgach, xonlik tarixini yozish ishini Ogahiy davom ettirgan. U bitgan tarixiy asar «*Shohidi iqbol*» deb atalib, o'zida 1872-yilgacha bo'lgan tarixni aks ettiradi.

Xudoyberdi Avaz Muhammadning 1831 – 1832-yillarda yozilgan «*Dili g'aroyib*» asari ham Xiva xonligi, uning shaharlari haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Xiva xonligining 1872 – 1911-yillardagi tarixini Xiva xoni Asfandiyorxonning topshirig'i bilan 1912-yili *Yusufbek Bayoniy* yaratgan.

Xiva tarixi bo'yicha rossiyalik mualliflarning asarlari. 1725-yili Xivaga Rossiya elchisi bo'lib kelgan *Florio Beneveni* esdaliklarida ilmiy jihatdan muhim ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

1793 – 1794-yillarda Orenburgdan Xivaga oftalmolog (ko'z kasalliklari shifokori) *Blankennagel* taklif etilgan. U xonning ko'zi ojiz bo'lib qolgan amakisini davolagan. U yozib qoldirgan esdalik ma'lumotlar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiya elchisi sifatida Xiva xonligiga 1819-yili kelgan *N.I. Muravyov* ham yozib qoldirgan esdaliklar eng qimmatli manbalar qatorida turadi. «*Esdaliklar*» Xiva to'g'risida, qadimiy obidalar, davlat boshqaruvi tizimi, hunarmandchilik va savdo-sotiq to'g'risida batafsil ma'lumotlardan iborat. Shuning uchun bu kitob fransuz va nemis tillariga tatjima qilingan edi. Muallif asarida o'zbek xalqiga xos xususiyatlar haqida to'xtalib, o'zbeklarni «*aql-idrokli, suhbatlari yoqimli va o'tkir, qat'iyatli, matonatli, urf-odati oddiy, yolg'on va aldovdan nafratlanuvchi, harbiy ishda hormay-tolmaydigan mard*

va jasur kishilar» deb ta'riflagan ham edi. N.I.Muravyov o'z fikrini davom ettirib yana quyidagilarni qayd etgan: «Xiva shahri keng maydonda bog'-rog' bilan o'ralgan. Atrofi esa devor bilan o'ralgan hamda Amudaryodan suv yuvuri o'tkazilgan. Xiva aholisi o'zining mashaqqatli mehnati bilan cho'l-u hovbonni hosildor o'lkaga aylantirgan. Atrof hammasi ekinzor maydon. Bug'doyzor, sholipoya, uzumzor va shirin-shakar bog'. Chorvachilik ham rivojlangan».

1842-yili Xiva va Rossiya o'rtasida «Majburiyatlar akti» shartnomasining imzolanishiga erishgan elchi G.Danilevskiy o'zi bilan Xivaga kelgan tabiatshunos olim R.Baziner bilan birgalikda «Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari, savdo-sotig'i va sanoati» nomli asar yozib qoldirgan.

1858-yili Xiva va Buxoroga yuborilgan diplomatik missiya rahbari N.Ignatyev yozib qoldirgan esdaliklar ham Xiva tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

Taniqli sharqshunos olim N.Vasilevskiyning «O'zbeklar Xorazmda», «Inoqlar hukmdorligi», «Qo'ng'iroq sulolasi» asarlari Xiva xonligining XVI asr va undan keyingi asrlar tarixiga bag'ishlangan. Bundan tashqari, Xiva bilan Rossiyaning XVIII – XIX asrlardagi o'zaro aloqalari yana bir sharqshunos olim S.Jukovskiyning «Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxoro va Xiva bilan aloqasi» asarida o'z ifodasini topgan.

Yevropa sayyohlari va olimlari yozib qoldirgan manbalar. Yevropa mamlakatlari sayyohlari va Yevropa sayyohlari va olimlari yozib qoldirgan asarlar ichida ingliz savdo va diplomatiya vakili A.Jenkinsonning esdaliklari Xiva xonligining XVI asr tarixi haqida muhim ma'lumot beradi. Bu esdalik «Jenkinsonning Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohati» deb nomlangan.

Yevropa sayyohlari ichida taniqli venger sharqshunos olimi X.Vamberi yozib qoldirgan «O'rta Osiyo bo'ylab sayohat» deb ataluvchi asar Xiva tarixi bo'yicha ham eng qimmatli manbalardan hisoblanadi. Uning esdaligi o'zbek tilida ham chop etilgan.

O'zbekiston olimlarining Xiva tarixiga oid asarlari. O'zbekiston olimlari ham Xiva xonligi tarixini o'rganish ishiga katta hissa qo'shganlar. Ular orasida akademik I.Mo'minov boshchiligida yaratilgan «Xorazmning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi» (1976-yil) alohida qimmatga ega.

Xorazmning eng qadimgi davrlaridan to hozirgi kungacha, shu jumladan, XVI – XIX asrlar birinchi yarmi tarixi haqida Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan chop etilgan «Xiva – ming gumbaz shaliri» kitobi ham tarixiy dalillarga juda boy asardir (1997-yil).

14-BOB. XVI - XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QORAQALPOQLAR

14.1. Qoraqalpoq xalqining shakllanishi va siyosiy hayoti

Qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanishi tarixidan. Tarixiy manbalar da hozirgi Qoraqalpog'iston hududida odamlar *neolit* davridayoq yashaganligi qayd etiladi.

Milodiy II – VIII asrlarda Orolbo'yi dashtlariga bir qator turkiy qabilalar kirib kelib joylashganlar. Mahalliy aholining kirib kelgan qabilalar bilan qo'shilishi natijasida Orolbo'yida bijanaklar va o'g'uzlar shakllangan. Bijanaklar negizida VIII – X asrlarda qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanish jarayoni boshlangan.

X asr boshlarida bijanaklarning bir qismi Volgaortiga, Janubiy Rus dashtlariga ko'chib o'tishga majbur bo'lganlar. Bunga o'g'uzlar va qipchoqlarning siquvi, tazyiqi sabab bo'lgan.

XII asr rus yilnomalarida ular «*черные клобуки*» (qoraqalpoq) deb tilga olingan. Qoraqalpoq xalqining nomi shu atamadan olingan. Volga va Ural daryolari oralig'ida qolgan bijanaklar joylashgan hududni *Irtish* daryosi atroflaridan kelgan qipchoq qabilalari zabt etgan. Shu tariqa ular qipchoqlar bilan aralashib, ularning tilini qabul qilganlar. Qipchoqlarning urug'-qabila tarkibiga kirgan bijanaklar (qoraqalpoqlar) manbalarda «*qora bo'rkli*» deb qayd etilgan.

XIII asr boshlarida Chingizxon Xorazmshohlar davlati poytaxti Urganch shahrini egallagach uni suvga bostirish maqsadida Amudaryo to'g'onini buzdirib tashlagan. To'g'on buzilgach, Amudaryoning o'zani ham o'zgargan. Oqibatda suvsiz qolgan Orolbo'yi qoraqalpoqlarining bir qismi Volga va O'rol (Yoyiq) daryolari bo'ylariga, Sirdaryo vohalariga ko'chib ketishga majbur bo'lganlar.

Oltin O'rda zaiflashgach, uning tarkibidan qator mustaqil davlatlar ajralib chiqqan. Bu davlatlarning biri XIV asr oxirida tashkil topgan *No'g'ay* (Mang'it) xonligi edi. Uning chegarasi Volga daryosidan Irtish daryosigacha, Kaspiy va Orol dengizi bo'ylaridan Kama daryosigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Binobarin, qoraqalpoqlar ko'chib borib joylashgan hududlar XV – XVI asrlarda *No'g'ay* xonligi hududiga kirgan. *No'g'ay* va qoraqalpoq xalqlari o'zaro siyosiy hamkorlikda, birlashma bo'lib yashaganlar.

No'g'ay tili tarkibi, fonetikasi va grammatik qurilishi jihatidan qoraqalpoq tiliga juda yaqin.

Shu tariqa XVI asrga kelib bir necha urug'lardan iborat qoraqalpoq xalqining shakllanish jarayoni nihoyasiga yetgan. Qoraqalpoqlarning alohida

bir xalq bo'lganligi haqidagi manbalar XVI asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Chunonchi, 1598-yili Buxoro xoni Abdullaxon II ning bir yorlig'ida «qoraqalpoqlar» degan so'z qayd etilgan.

Qoraqalpoq xonligining tashkil topishi. XVII asr boshlarida no'g'aylar Volga va Yoyiq daryolari bo'ylariga bostirib kelgan *jung'orlar* (qalmoqlar) tomonidan tor-mor etiladi. Oqibatda ular *Qrimga* ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. Qoraqalpoqlar esa Orol va Sirdaryo bo'ylariga kelib o'r'nashadilar.

Qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida *biylar* va *botirlar* (harbiylar boshlig'i) muhim o'rin tutgan. Biylar qoraqalpoq urug'lariga boshchilik qilganlar, shuningdek, qo'shni xalqlar bilan munosabatlarda o'z urug'i yoki qabilasi nomidan vakil sifatida qatnashganlar. XVI – XVII asrlarda qoraqalpoqlar goh *fluxoro* xonligiga, goh *qozoq* xonlariga tobe bo'lganlar.

XVIII asr boshlariga kelib Sirdaryo bo'yida yashovchi qoraqalpoqlarning birlashish jarayonida *Sig'noq* va *Jonkent* singari qadimiy qo'rg'on-shaharlar tayanch bo'lgan. Qoraqalpoqlarning birlashuvida *Kuchukxon*, *Taburchak* va *G'oyib sulton* muhim rol o'ynaganlar. Buning natijasida 1714-yili Sirdaryo bo'yida qoraqalpoqlari o'z yetakchilari *Eshmuhammad* (Eshimxon) boshchiligida qoraqalpoq xonligiga birlashtirilgan. Bu davlat Sirdaryoning quyi oqimi, Volga bo'ylari *jung'orlari*, Boshqird ulusi va Kichik juz *qozoq* xonliklari bilan chegaradosh edi.

1723-yili *jung'orlar* bostirib kelib Sirdaryoning o'rta qismini egallagach, qoraqalpoqlar yana ko'chishga majbur bo'ladi.

Ko'chish oqibatida qoraqalpoqlar ikkiga bo'linib ketdi, bir guruhi Sirdaryoning yuqori oqimi – Toshkent tomonga, ikkinchi guruhi Sirdaryoning quyi oqimiga borib joylashdi. Shu tariqa qoraqalpoqlar shartli ravishda «yuqori qoraqalpoqlar» va «quyi qoraqalpoqlar»ga bo'linib ketdi. Quyi qoraqalpoqlar Sirdaryo bilan Amudaryo o'rtasidagi bo'sh yotgan yerlarga ham o'r'nashib, bu yerlarga *Quvondaryo*dan suv chiqarib, dehqonchilik bilan shug'ullandilar.

Qoraqalpoq va Rossiya munosabatlari. Qoraqalpoqlar Rossiya bilan munosabatlar o'rnatishga harakat qilgan. Bunday yaqinlashishga bir qator omillar sabab bo'lgan edi. Birinchidan, Rossiya bilan savdo-tijorat ishlarini yo'lga qo'yishdan manfaatdorlik, ikkinchidan, *jung'orlarning* tinimsiz hujumlaridan himoyalalanish zarurati sabab bo'ldi.

1726-yili *qozoq* xoni Abulxayrxon Peterburgga o'z elchilarini jo'natgan. Uning tarkibida qoraqalpoq vakillari ham bor edi.

Bunga javoban 1731-yili Rossiya o'z elchisi *M.Tevkelevni* Abulxayrxon huzuriga jo'natadi. Muzokaralar natijasida ham Kichik juz, ham Quyi qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilinadi. Ayni paytda, qoraqalpoqlar-

ning Rossiyaga emas, Kichik juz xonligiga yasoq to'lashi tan olindi. Qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi fuqaroligiga qabul qilinishi ularni Eron hukmdori Nodirshoh hujumidan saqlab qoldi.

Qoraqalpoq va Xiva munosabatlari. Qoraqalpoqlarning asosiy qismi notinch, og'ir yillarda Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi bo'sh yotgan yerlarga, Yangidaryo va Quvondaryo bo'ylariga ko'chib kelib yashardilar. Bu yerlar Xiva xonligiga chegara hududlar edi.

Bu yangi yerlar qoraqalpoq xalqining o'ta mashaqqatli mehnati evaziga o'zlashtirilgan. Tarixchi olimlar *Yangidaryo*da yaratilgan ajoyib sug'orish inshootlari tizimiga bu qoraqalpoq xalqi qahramonona mehnatining ulug'vorligi xotirasidir deb baho bergan.

Asta-sekin qoraqalpoqlarning Orolbo'yi o'zbeklari bilan yaqinlashuvi yul bera boshlagan. Orolbo'yi o'zbeklari Xiva xonligi hokimiyatiga bo'ysunishni istamas edi. Xon hukumati o'z oldiga Orolbo'yi o'zbeklarini hamda qoraqalpoqlarni bo'ysundirish maqsadini qo'ygan. Nihoyat, uzoq kurashlardan so'ng 1735-yiliga Orolbo'yi o'zbeklari va qoraqalpoqlar Xiva xonligi hokimiyatini tan olishga majbur etildilar.

Muhammad Amin inoq davrida esa ayrim qoraqalpoq qabilalari ixtiyoriy ravishda Xiva xonligi fuqaroligiga o'ta boshlagan.

1809-yili Amudaryo, Quvondaryo va Orol dengizi atrofta yashovchi qoraqalpoqlar xonlikka bo'ysundirildi. 1811-yili Yangidaryo (Janadaryo) atrofida yashovchi qoraqalpoqlar ham tobe etildi. Shu tariqa qoraqalpoqlarni Xiva xonligiga bo'ysundirish nihoyasiga yetkazildi.

14.2. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti

Ijtimoiy ahvol. Qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida urug'chilik, qabilachilik munosabatlari, aholining tabaqalarga bo'linishi ancha kuchli edi. Har bir urug' yoki qabilaga *biylar* boshchilik qilardi. Harbiy qismlarni *botirlar* boshqarardi. Aholi orasida ruhoniylar, shayxlar, xo'jalarning o'rni ham katta edi. Ovul boshlang'ich ma'muriy bo'g'in bo'lib, ularning butun hayotiga *Oqsoqollar kengashi* rahbarlik qilardi.

Shuningdek, qoraqalpoqlarda *yuzboshi*, *mirobboshi*, *qozi*, *rais* kabi ma'muriy mansablar ham bor edi. *Mirob* suv taqsimlovchi hisoblangan.

Biylik lavozimiga ilgarilari urug' yig'inlarida saylangan bo'lsa, qoraqalpoqlar Xiva xonligiga bo'ysundirilgach, xon tomonidan tayinlanadigan bo'ldi. Xon tomonidan tayinlangan biyga boshqa biylar bo'ysungan. Amudaryoning so'l tomonidagi *Qo'ng'iroq*, o'ng sohilidagi *Chimboy* qoraqalpoqlarning bosh ma'muriy markaziga aylanadi.

Aholi orasida mulkiy tabaqalanish ham kuchayib bordi. Yerga jamoa bo'lib egalik qilish asta-sekin barham topib, katta yer egalari tabaqasi vujudga keldi. Chorvachilikda minglab qoramol, qo'y-echki, yilqi, tuyalarga ega tabaqalar shakllandi. Juda ko'p baliq ovlanadigan suv havzalari ham alohida kishilar tomonidan egallanib bordi. Natijada yersiz, chorva mollarisiz kambag'allar soni ko'paydi. Ular boylardan yerni ijaraga olib ishlashga, chorva mollarini boqib kun kechirishga majbur bo'ldilar.

Dehqonchilik va chorvachilik. Qoraqalpoqlar qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelganlar. «Qirqqiz» dostonida qoraqalpoqlarning yerlar o'zlashtirib, suv inshootlari qurib, yer haydab g'alla yetishtirganligi, bog'lar yaratganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Qoraqalpoqlar Orol bo'ylarida, Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi yerlarda dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Bug'doy, arpa, tariq va boshqa ekinlar ekib, mo'l hosil olganlar. Yangi (Jana)daryo va Quvondaryo havzalari-da qoraqalpoqlar tomonidan barpo etilgan kanal va sug'orish inshootlari xo'jalikda dehqonchilik tarmog'ining yetakchi o'rinda turganligidan guvohlik beradi. XVIII asr oxirlarida Amudaryo quyi tarmoqlarida *Qalliko'l*, *Kegayli*, XIX asr o'rtalarida *Chimboy*, *Qo'ng'iro't* dehqonchilik vohalari vujudga keldi. Dehqonchilikda omoch, mola, ketmon, belkurak, o'roq kabi mehnat qurolaridan foydalanilgan.

Qoraqalpoqlar iqtisodiy hayotida chorvachilik ham muhim o'rin tutgan. Chorvadorlar ho'kiz va tuya qo'shilgan aravalarda poda va otarlari bilan yil davomida sero't yaylovlarga ko'chib yurganlar. Pichan, xashak, ayniqsa, qamishzorlar chorva mollari uchun to'yimli ozuqa bo'lib xizmat qilgan.

Qoraqalpoqlar iqtisodiy hayotida baliqchilik ham rivojlangan. Baliqchilik, ovchilik aholi uchun qo'shimcha tirikchilik manbai hisoblanardi.

Hunarmandchilik va savdo. Qoraqalpoqlar hayotida temirchilik, duradgorlik, kigiz bosuvchilik, to'quvchilik, bo'yoqchilik, kulolchilik, zargarlik kabi hunarmandchilik tarmoqlari rivojlanib boradi. Hunarmandlar uy-ro'zg'or buyumlari, idish-tovoqlar, matolar, kiyim-kechaklar tayyorlaganlar. Yog'ochdan o'tov tayyorlab, kigizlar bilan yon va tom qismini o'rab, turarjoylar yasaganlar. Olacha, gilam, tuya junidan movut tayyorlash ancha rivojlangan.

Yog'ochdan omoch, mola, arava, kema va qayiqlar yasaganlar. Asosiy transport vositasi bo'lgan otlar uchun yugan, egar-jabduq buyumlari tayyorlangan. Jun va terini qayta ishlab, turli xil kiyim va boshqa buyumlar tayyorlangan.

Qoraqalpoqlar amaliy san'atida o'tovlar uchun o'ymakor eshiklar, kash-tachilik, zargarlik buyumlari yasash rivojlangan.

Savdo-sotiq ishlari ham rivojlanib bordi. Shaharlarda do'konlar, karvon-saroylar qurildi. Dehqon va chorvadorlar shaharlarda g'alla, chorva mollari, baliq sotardi. Hunarmandlardan uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim, gilam, zargarlik buyumlari sotib olinardi. Xo'jayli, Qo'ng'iro't, Mang'it, Chimboy shaharlari Sharq va G'arb mamlakatlari bilan muloqotda yirik savdo markazlariga aylanadi. Sharqdan G'arbg'a boruvchi savdogarlar uchun qoraqalpoqlar tayyorlagan tuzlangan baliq mahsulotlari xaridorgir edi.

Soliq va majburiyatlar. Dehqonlardan *salg'ut* (yer) solig'i, chorvadorlardan *zakot* solig'i, aholidan ruhoniylar uchun *ushr* solig'i olinardi. Solliq miqdorini xon amaldorlari belgilardi. Yer solig'i butun qabila yoki urug'ga bir yo'la solinardi. Oqibatda soliqning ko'p qismi kambag'allar bo'yniga tushardi. Bunday tartibdan boy tabaqalar foydalanar edi. Biy va amaldorlar ham go'yo o'z xarajatlarini qoplash uchun xalqdan qo'shimcha soliqlar undirdilar. Harbiy xavf yuz berganida xalqdan «qozon» (xo'jalik) solig'i undirilardi, yigitlar majburiy harbiy xizmatga chaqirildardi.

Soliqlardan tashqari kambag'allar kanal va ariqlar qazish, sug'orish inshootlarini tozalash ishlariga majburiy safarbar etilardi.

Oydo'stbiy boshchiligidagi qo'zg'olon. 1827-yili Xiva xonligi zulmiga qarshi qoraqalpoqlar qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonga qoraqalpoqlar biyl *Oydo'stbiy* boshchilik qiladi. 1827-yil 25-iyul kuni Xiva xoni Olloqulixon *Oydo'stbiy* boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirish uchun *Muhammad Nazarbiy inoq* qo'mondonligidagi qo'shinni *Xo'jayli* shahriga jo'natadi.

Oydo'stbiy qoraqalpoq biylarini to'plab Orol dengizi bo'yida maslahat uyushtiradi. Yig'ilganlar maslahati bilan qoraqalpoq ovullariga otliq choparlar jo'natilib, shunday buyruq beriladi: «*Hamma bola-chaqasi bilan qo'zg'olonga yig'ilsin. Kimda-kim bosh tortsa – u dushman hisoblanadi*». Qoraqalpoqlar yig'ilib, qulay yerda xandaq qazib, shox-shabbalar va aravalar bilan mudofaa to'sig'i qurishgan. 29-iyulda *Oydo'stbiy* o'zining ikki o'g'li *Rizo* va *To'rani* 300 botirga bosh qilib *Qo'ng'iro't* qo'rg'oniga chopovulga yuboradi. *Qo'ng'iro't* hokimi *Muhammad Yaqub mushrif* qo'rg'on mudofaasini uyushtiradi. Urush peshingacha davom etgan. *Oydo'stbiy* askarlarining bir qanchasi urushda nobud bo'lgan. Ba'zilar dengiz tomon qochgan. *Rizo* ham, *To'ra* ham bor imkoniyatni ishga solsalar-da, yengiladilar.

Muhammad Nazarbiy inoq *Oydo'stbiy*ga qarshi sara qo'shin jo'natadi. Kuchlar noteng bo'lgan jangda qo'zg'olonchilar tor-mor qilinadi, *Oydo'stbiy*ning esa boshi tanasidan judo etiladi. Xiva tarixchisi va shoiri *Munis* *Oydo'stbiy* o'limiga bag'ishlab marsiya yozgan. Qo'zg'olon bostirilsa-da, xalqning zulmga qarshi nafrati kuchayib bordi.

14.3. Qoraqalpoq xalqi madaniyati

Turmush tarzi. Qoraqalpoqlar uzoq yillar davomida ko'chmanchilik turmush tarzidan o'troqlikka o'tish jarayonini boshdan kechirdilar. Aholining asosiy qismi o'tov va paxsa uylardan iborat ovullarda yashardi. Keyinchalik qo'rg'on (qal'a) va shaharlar vujudga keladi. Qo'rg'onlarning to'rt tomoni devor yoki baland tepalar bilan o'rab olinardi.

Qoraqalpoqlar bir necha urug'lardan shakllangan bo'lib, har urug' a'zosi o'z urug'ining mustahkamligini ta'minlashga intilardi. Bir urug' ichida qiz olish, qiz berish taqiqlangan edi. Shu boisdan boshqa urug'dan qiz olib qochish odatiy hodisa hisoblanardi. Ma'lum vaqt o'tgach qiz olib ketilgan joy ma'lum qilinib, qiz tomonning ota-onasi, yaqin qarindoshlari va urug' oqsoqoli turli sarpolar bilan siylanib, to'yga rozilik olinardi. To'yda baxshilar dostonlardan qo'shiqlar kuylashardi, aytishuvlar avjiga chiqardi. Polvonlar va botirlar kurashga tushardi.

Qoraqalpoqlar qishlovni ko'pincha dengiz va daryo bo'ylarida o'tkazganlar. Arava, qayiq, sol va ot asosiy transport vositasi bo'lgan. Qoraqalpoqlar kiyim-kechagida milliylikka alohida e'tibor berganlar. Bu narsa, ayniqsa, ayollar va qiz bolalar savkelida (qalin bo'zdan tikilib, kumush va marjonlar bilan bezatilgan bosh kiyim) yaqqol namoyon bo'lgan.

Shaharlar. Qoraqalpoqlar *Qo'ng'iro't*, *Chimboy*, *Xo'jayli* kabi yirik shaharlarni bunyod etganlar. Shulardan Qo'ng'iro't va Chimboy qoraqalpoqlarning ma'muriy markazlari bo'lgan. Bu shaharlar XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida barpo etilgan.

Xo'jayli shahri Orol va Xiva oralig'idagi savdo markazi bo'lib, bojxona shu shaharda joylashgan. Shaharlar og'ir mehnat evaziga baland devorlar bilan o'rab olingan, shahar ichkarisida ko'rkam binolar, saroylar barpo etilgan.

Janaqal'a, Oydo'stqal'a, Ernazarqal'a, Ko'ko'zakqal'a, Eshonqal'a kabi qal'a shaklida qurilgan shaharlar qoraqalpoq xalqi tomonidan yaratilgan me'morchilik madaniyati yodgorliklari hisoblanadi.

Shaharlarda XIX asr boshlarida 318 maktab, Qoraqum eshon, Qalila oxun, Egambergan oxun, Oyimbet eshon mavzalarida, Eshonqal'ada madrasalar mavjud bo'lgan. Hunarmandlar 12 – 13 yoshli bolalarni shogirdlikka qabul qilib, ularga hunar sirlarini o'rgatganlar. Qoraqalpoq yoshlari Xiva va Buxoro madrasalarida ham ta'lim olganlar.

Folklor. Qoraqalpoqlarning xalq og'zaki ijodi juda boy. Qoraqalpoq folklor namunalari *20 jildligining* nashr etilgani fikrimizning dalilidir. Ular so'z ustalari bo'lgan chechanlarni, baxshi (jirov)larni sevadilar. El oqsoqollari, rahbarlari yonidan qissaxonlar arimagan.

O'zbeklarning Afandisi kabi qoraqalpoqlarning qiziqchisi – *O'mirbek laqqisi* bor. O'mirbek laqqi o'z og'zaki latifalarida ayrim shaxslar va jamiyatdagi

kamchiliklar ustidan kuluvchi xalq qahramoni sifatida gavdalangan. U adolatsiz amaldorlar, qozilar, so'zi bilan ishi mos kelmaydigan ruhoniylar kirdikorlarini fosh qilib, mardlik, to'g'rilik, haqiqat, adolatni kuylagan. U o'z latifalarini yengil mutoyiba, achchiq hajv bilan ixcham ifodalab tinglovchilarni xursand qilgan.

Qoraqalpoqlarning qahramonlik dostonlari qadimdan ma'lum. Ulardan «Qirqqiz», «Alpomis», «Qublon», «Mastposhsho», «Edigey» dostonlarida qoraqalpoqlarning voqealarga boy tarixi kuylanadi. Masalan, «Edigey» dostonida Amir Temur, To'xtamish faoliyati bilan bog'liq voqealar bayon etilsa, «Qirqqiz»da qoraqalpoq xalqining ozodlik kurashi, Xorazm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashi o'z badiiy ifodasini topgan.

Qoraqalpoqlarning xalq qo'shiqlarida el-yurt yo'l boshchilari, qahramonlari – Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo'stbiy, Ernazarbiy ulug'lanadi.

Qozoq ma'rifatparvar olimi Cho'qon Valixonovning «Qoraqalpoqlar sahrodagi ham birinchi shoir, ham qo'shiqchilardir» degan so'zlari bejiz aytilmagan.

«Qirqqiz» dostoni haqida. Qoraqalpoq adabiyotida XVII – XVIII asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirgan «Qirqqiz» dostoni alohida o'rin tutadi. Bu asar qoraqalpoq xalq qahramonlik eposidir. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Asarning bosh qahramoni Guloyim o'zining qirq nafar dugonasi va sevgilisi Arslon bilan birga Eron shohi Nodirshoh hamda jung'or xoni Surtoyshi hujumidan yurtini himoya qilishga o'tlanadi. Guloyim Xorazmni ozod qilib, u yerda qoraqalpoq, turkman, o'zbek va qozoq xalqlari vakillarini birlashtirgan davlat tuzadi. Asarda Guloyim bilan bir safda turib jang qilgan Oltinoy, O'tbosgan, Arslon, Sarvinoz kabilar timsolida mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insoniylik, ayni paytda, dushmanga nisbatan shafqatsizlik g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Tasviriy san'at va musiqa. Qoraqalpoqlar tasviriy san'atidagi o'ziga xoslik, ayniqsa, ular to'qigan gilam va kashta buyumlarda o'zining yorqin ifodasini topgan. Ularga tushirilgan naqshli bezaklar suv ramzini aks ettiruvchi to'liq ko'rinishiga ega bo'lgan. Bu bejiz emas edi. Chunki qoraqalpoqlar qadimdan daryo va ko'l bo'ylarida yashab kelganlar. Bundan tashqari, qoraqalpoq tasviriy san'atining yana bir o'ziga xosligi uning qadama naqshli yog'och o'ymakorligida yaqqol namoyon bo'ladi.

Qoraqalpoqlar qo'shiqchiligi mazmuniga ko'ra xalq, tarixiy va marosim qo'shiqlariga bo'lingan. Ular qo'biz, dutor, g'ijjak, surnay, nog'ora kabi musiqiy cholg'u asboblari yordamida ijro etilgan. Doston ijrochilari jirovlar, baxshilar va qissaxonlar deb ataluvchi uch guruhga bo'linganlar. Ular bir-biridan aytadigan dostonlarining mazmuni, ijro etish uslublari, kuy va musiqiy cholg'u asboblari bilan farq qilganlar. Masalan, jirovlar qahramonlik dostonlarini qo'biz jo'rligida, baxshilar esa dutor va g'ijjak jo'rligida ijro etganlar. Qissaxonlar esa doston qo'lyozmalarini zo'r mahorat bilan o'qib yoki yoddan aytib berganlar.

14.4. XVIII – XIX asrlarda qoraqalpoq adabiyoti ravnaqi

Qoraqalpoq yozma adabiyoti. XVIII asrdan boshlab qoraqalpoq yozma adabiyoti shakllandi va rivojlana bordi.

XVIII – XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan qator namoyandalari qalam tebratganlarki, ularning nomlari bugungi kunda ham ardoqlanadi.

Ulardan biri *Jiyen Jirov* (1730 – 1784) edi. U mashhur baxshi, hajvchi shoir sifatida kamol topdi. «*Hoy yigitlar, yigitlar*» va «*Yuragimda ko'p dog'im*» kabi qator she'rlarida jamiyatdagi nohaqliklarni, hukmron tabaqalarning kirdikorlarini, xalqqa o'tkazgan jabr-zulmini fosh etadi.

Qoraqalpoqlar – erksevar xalq. Shuning uchun ham ular doimo o'z erki uchun ozodlik kurashi olib borgan. Ma'lumki, qozoq xoni Abulxayrga qarshi olib borilgan urushda qoraqalpoqlar yengilib qolgan edi. Bu mag'lubiyat natijasida ular azob-uqubatlarga duchor etilgan. Xususan, Sirdaryo bo'ylaridagi qoraqalpoqlar har yoqqa tarqab ketgan. Ularning bir qismi Toshkent atrofiga (Chirchiq bo'ylariga), boshqa bir qismi esa Qizilqum orqali Xorazmga (Orol dengizining janubiy sohillariga) ko'chib ketgan. Mana shu ko'chishlarning guvohi bo'lgan Jiyen Jirov «*Darbadar el*» nomli doston yozib, unda qoraqalpoqlarning mashaqqatli davri tarixini haqqoniy bayon etgan. Baxshi sifatida «*Alpomis*», «*Qirqqiz*» kabi dostonlarni zo'r mahorat bilan kuylagan.

Qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan yana biri *Kunxo'ja Ibrohim* (1799 – 1880) edi. Shoirning, ayniqsa, «*O'roqchilar*», «*Cho'ponlar*», «*El bilan*» kabi she'rlari xalq orasida mashhur bo'lib, ularda qoraqalpoq xalqining Xiva xonligi tobeligiga tushib qolgan davrdagi og'ir ahvoli, erksiz turmushi, hukmron tabaqalar kirdikorlari katta mahorat bilan fosh etilgan.

Ajiniyoz. Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li (taxallusi Zevar) ham (1824 – 1878) qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biridir. Mo'ynoqdagi eski maktabda o'qigan. Keyin Xivadagi *Sherg'ozixon* madrasasida ilm olgan. Ajiniyozdan yuzdan ortiq she'r va dostonlar meros qolgan. She'rlarida Vatan, insonparvarlik g'oyalari kuylangan. Shoirning «*Bo'zatov*» dostonida esa qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko'chib ketishga majbur etilganligi katta mahorat bilan tasvirlangan.

1999-yili Ajiniyoz tavalludining 175 yilligi nishonlandi. *Nukusda* Ajiniyoz maydoni barpo etildi va unga haykal o'rnatildi.

Berdaq. Qoraqalpoq xalqi adabiyoti uning asoschisi *Berdaq* (1827 – 1900) (taxallusi; asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li) nomi bilan mashhurdir. Berdaq avval ovul maktabida, so'ngra madrasada tahsil ko'rgan. U Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli, Kunxo'ja asarlarini chuqur mutolaa qilgan, ulardan o'rgangan. Berdaq tarixni, xalq og'zaki ijodini mukammal o'zlashtirib oladi. Uning ijodi 18 – 19 yoshlarda do'mbira chertib, she'r aytishdan

boshlangan. 25 yoshida iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi. Uning «*Bo'lgan emas*», «*Umrin*» va «*Soliq*» kabi she'rlarida mehnatkash xalqning og'ir hayoti o'z aksini topib, Xiva xonlari, amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi ifodalangan. Xususan, «*Soliq*» she'rida bunday deb nola qiladi:

*Undiradi och xalqdan,
Yetimlar yig'lar xo'rlikdan,
Boy omon qoldi soliqdan,
Tuhmat to'lov bo'ldi soliq.*

«*O'g'limga*», «*Ahmoq bo'lma*» kabi she'rlari orqali esa yoshlarni Vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi.

Berdaq xalq hayotini, uning ezgu orzu-istaklarini yaxshi bilgan shoir edi. Shuning uchun uning she'rlarida xalqparvarlik ruhi kuchli. Xususan, shoir o'zining «*Xalq uchun*» degan she'rida yoshlarni mehnatkash xalq uchun jonini ayamaslikka chaqiradi:

*Bo'ri hech vaqt o'z dardini bildirmas,
Yaxshi odam dushmanini kuldirmas,
Qo'ldan kelsa, unga davron surdirmas,
Er yigitning joni qurbon xalq uchun.*

Berdaq tarixiy mavzularda ham qalam tebratgan. Uning «*Omongeldi*», «*Oydo'stbiy*», «*Ernazarbiy*» kabi asarlarida xonlar zulmiga qarshi kurashgan xalq qahramonlari faxr bilan kuylanadi. «*Avlodlar*» asari tarixiy voqealar solnomasi bo'lib, unda xalqlarning kelib chiqishi, qoraqalpoq xalqining boshqa turkiy xalqlar bilan aloqasi, ularning hayotidagi umumiylik kabi jihatlar bayon etilgan.

Xiva xonligi zulmiga qarshi ko'tarilgan isyon «*Ernazarbiy*» dostonida ham aks ettirilgan.

1998-yili mamlakatimizda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi. Toshkent shahridagi xiyobonlarning biriga Berdaq nomi berildi va byusti o'rnatildi. Shoir tug'ilgan joy – Bo'zatovda ham Berdaq byusti o'rnatildi, Nukus shahrida Berdaqqa haykal qo'yildi.

15-BOB. XVIII – XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QO'QON XONLIGI

15.1. Qo'qon xonligining tashkil topishi

Shohruxbiy – *xonlik asoschisi*. Farg'ona vodiysi Buxoro xonligi tasarrufida edi. XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi ichki kurashlar oqibatida zaiflashadi. Bunday vaziyatdan foydalangan jung'orlar Farg'ona vodiysiga tez-tez bostirib kirib, talon-toroj qila boshladilar. Vaziyat ichki kuchlarni birlashishga, musta-

qil davlat tuzishga undamoqda edi. Dastlab Chust yaqinidagi *Chodak* qishlog'i xo'jalar jamoasi o'z mulklarini mustaqil deb elon qildilar. Vodiydagi o'zbeklarning *ming* urug'i oqsoqollari yig'ilishib, o'z yo'l boshchisi *Shohruxbiy* boshchiligida Buxoro xonligidan mustaqil davlat tuzishga qaror qilishgan.

1710-yili ming urug'i chodaklik din peshvolari hokimiyatini ag'darib, Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'llariga olganlar. Shu tariqa Markaziy Osiyoda keyinchalik Qo'qon xonligi deb atalgan yangi davlat vujudga keldi.

Tepaqo'rg'on hukmdor Shohruxbiyning qarorgohiga aylantirildi. Shohruxbiyning o'g'li *Abdurahimbiy* (1721 – 1733) davrida *Xo'jand*, *O'ratepa* viloyatlari qo'shib olindi. U *Shahrisabz* ostonalariga qo'shin tortib bordi va uning hokimi bilan Qo'qonga tobelik haqida bitim tuzishga erishadi. Keyin Samarqandni va Jizzaxni egallaydi. Abdurahimbiy Xo'jandga qaytib kelgach qattiq betob bo'lib, vafot etadi. Qo'qon xonligi taxtiga uning inisi *Abdukarimbiy* o'tiradi (1733 – 1750). U o'z poytaxtini *Tepaqo'rg'on*dan *Qo'qon* shahriga ko'chiradi. Shahar atrofini devor bilan o'ratadi.

Erdonabiy hukmronligi davrida (1751 – 1762) xonlikning qudrati ortdi. U *O'sh* va *O'zganni* bo'ysundirdi. Erdona davrida Qo'qon xonligi g'arbda Buxoro, sharqda Xitoy bilan tengma-teng kurash olib bora olgan davlatga aylandi. Biroq uning hukmronligi yillarida toj-u taxt uchun kurash ham kuchaydi. Nihoyat, 1763-yili taxtga *Abdukarimbiy*ning nabirasi *Norbo'tabiy* o'tqazildi (1763 – 1798). U dastlab *Chust* va *Namangan* hokimlarining isyonini bostirdi. *Xo'jand*ni qayta bo'ysundirdi.

Norbo'tabiy davrida ekinlardan mo'l hosil olinib, bozorlarda narx-navo arzonlashgan. Mamlakatning qudrati har tomonlama o'sgan.

Norbo'tabiy vafot etgach, taxtga uning o'g'li *Olimbek* o'tqazildi. Uning davrida (1798 – 1810) Qo'qonning siyosiy mavqeyi yanada kuchaydi. U Ohangaron vohasini, Toshkent, Chimkent va Sayramni, Rossiyaga boruvchi karvon savdo yo'llarini bo'ysundiradi. Shu tariqa *Olimxon* davrida Rossiya bilan birinchi marta savdo aloqalari o'rnatilgan. *Olimxon* harbiy islohot ham o'tkazgan. Unga ko'ra «askariya» deb ataluvchi muntazam qo'shin tuzilgan. Bu qo'shin sipoh (otliq), sarboz (piyoda) va to'pchi kabi qismlardan iborat bo'lgan. Ayni paytda, xonlikda «*qilquyruq*» deb ataluvchi nomuntazam qo'shindan foydalanish ham davom etgan. Muntazam qo'shin, birinchi navbatda, markaziy hokimiyatning tayanchiga aylantirildi. Ikkinchidan, asosiy raqibi – Buxoro amirligiga qarshi tura olishini ta'minladi. Buxoro amirligiga qarshi tura olishiga ishonch hosil qilgach 1805-yili o'z davlatini rasman Qo'qon xonligi deb, o'zini esa xon deb e'lon qildi.

Davlat tuzumi va boshqaruvi. Qo'qon xonligi davlat tuzumiga ko'ra mutlaq monarxiya edi. Davlat boshlig'i xon bo'lib, u rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan. Xon davlatni hukmron qabila, ruhoniylar, boshqa qabilalarning nufuzli tabaqalari, davlat boshqaruvi amaldorlari va harbiylarga tayanib boshqargan.

Mulla Olim Maxdumxo'ja Toshkandiyning 1915-yili Toshkentda nashr etilgan «*Tarixi Turkiston*» asarida Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan.

Unda ta'kidlanishicha, xondan keyingi o'rinda *mingboshi* turgan. U bosh vazir va qo'shinning bosh qo'mondoni sanalgan. *Qo'shbegi* esa xonning maslahatchisi bo'lgan. U, ayni paytda, katta shaharlardan biriga hokim etib ham tayinlangan. Chunonchi, Toshkent shahri ma'lum bir vaqtda qo'shbeg tomonidan boshqarilgan.

Parvonachi mansabi ham o'z nufuzi jihatidan qo'shbegi vakolatiga teng bo'lgan.

Xonlikda *xon yotog'i posbonboshisi, tunqator* (*xon topshiriqlarini tunda bajaruvchi*), *otaliq, dodxoh, bakovulboshi, daftardor* kabi mansablar ham joriy etilgan.

Qo'qon xonligida islom shariati qoidalarining amal qilishiga mas'ul bo'lgan katta nufuzga ega lavozimlar ham bo'lgan. Bular *shayxulislom, qozikalon, qozi, muftiy* lavozimlari edi. Bu mansablarga ulamolalar vakillari tayinlangan. Ma'muriy-hududiy jihatdan xonlik viloyatlarga (o'n beshta), beklik va oqsoqolliklarga bo'lingan.

Bakovulboshi – saroy dasturxonchilari boshlig'i, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi tatib ko'ruvchi bosh oshpaz.

Daftardor – xonning shaxsiy daromadi hisob-kitobini olib boruvchi amaldor

15.2. XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asr boshlarida Toshkent

Toshkent hokimligining tashkil topishi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzor dahalariga bo'lingan. Ularning har birini mustaqil hokim boshqargan. Bu davr Toshkent tarixida *to'rt hokimlik* deb nom olgan. Shahar hokimlarining o'zaro urushlaridan tinkasi qurigan va bu kurashda *Yunusxo'janing* qo'li baland kelayotganini ko'rgan xalq boshqa hokimlarni mansabidan chetlatib, butun shaharga Yunusxo'jani hokim qilib ko'tardi. Yunusxo'jaga «*Hazrati eshon*» unvoni berilgan, xon deb ham yuritilgan. Yunusxo'ja huzurida *xon kengashi* tuzildi, kengashga 4 daha mingboshilari kiritilgan. Kengashda Yunusxo'ja hokim etib tayinlandi.

To'rt hokimlik tugatilib, 1784-yili yagona siyosiy hokimiyatning vujudga kelishi natijasida yagona mustaqil Toshkent hokimligi tashkil topdi. Anhorning o'ng tomonida baland va qalin devor bilan o'ralgan o'rda, ya'ni davlat mahkamasi qurildi. Unda xon qarorgohi, devonxona, zarbxona joylashgan. O'rdani harbiy qism qo'riqlab turgan.

Toshkent hokimligi hududlarining kengayishi. 1796-yili Chimkent, Sayram va boshqa o'nlab shahar-u qishloqlar Toshkentga qo'shib olindi. 1799-yilga kelib Turkiston va uning atroflaridan Chu daryosigacha bo'lgan yerlar, jumladan, Qorako'l mavzeyi Toshkentga qo'shib olindi. Yunusxo'ja o'ziga tobe bo'lgan Katta qozoq juzi yerlaridagi qabilalarni boshqarish ishini o'sha urug' boshliqlariga topshirdi. Bu bilan u qozoq biylaridan o'ziga tayanch yaratdi. Yunusxo'ja qozoq qabilalari orasida katta obro'ga ega bo'lgan. Ayniqsa, Qorakesak bo'lisi sultoni *Bukey sulton* bilan yaqin aloqada bo'lgan. Bukey sulton va uning o'g'illari Toshkentni va rus karvonlarini qaroqchilardan himoya qilib, ularni belgilangan joyga yetgunicha kuzatib borganlar.

Katta juz qabilalari Yunusxo'ja qo'shinida asosiy kuchni tashkil etib, uning Qo'qon xoniga qarshi urushlarida jonbozlik ko'rsatganlar. Toshkent davlati Qo'qon va Buxoro xonliklarini, Orenburg va Sibir bilan bog'laydigan karvon yo'llari o'tadigan Turkiston, Chimkent va Sayramni o'z qo'lida tutib, Markaziy Osiyo bilan Rossiyaning savdo munosabatlarida yetakchilikni qo'lga olishga intiladi. Bu hol Qo'qon bilan Buxoroning Toshkentga munosabati keskinlashuviga olib keldi. Toshkentning Katta qozoq juzi ustidan o'z ta'sirini kuchaytirishi Qo'qon xonligining iqtisodiy va siyosiy mavqeyini chegaralab qo'ygan edi. Farg'ona vodiysini Rossiya bilan bog'lovchi asosiy savdo yo'li Toshkent orqali o'tardi. Shuning uchun Toshkentni bo'ysundirish maqsadida 1799-yili Qo'qon xoni Olimxon qo'shinlari Toshkentga yurish boshladilar. Yunusxo'ja ularga qarshi o'z qo'shini bilan chiqib, Chirchiq bo'yidagi *Qorasuv* mavzeyida ularga zarba beradi. Bu g'alaba natijasida Sirdaryoning o'ng sohilidagi *Qurama* mavzeyi Toshkentga qo'shib olinadi.

Bu davrda Toshkent yirik shaharga aylantirilgan, uni o'rab turgan devorning uzunligi *18 chaqirimga* yaqin bo'lgan. Unda *10 ming* xonadon istiqomat qilgan. Shahar aholisi Rossiya, Qashqar va Xitoy bilan ham savdo qilgan. Yunusxo'ja davrida ikki xil pul: *rupiya* va *tanga* zarb qilingan. Besh tanga bir rupiyaga teng bo'lgan. Shahar nazorati va soliq yig'ish *Boshchixo'janing* qo'lida edi. Shahar savdosi ustidan *qozi* va *devonbegi* nazorat qilishgan. *Rais* shariat qonun-qoidalarini va bozordagi narx-navo, o'lchovlar ustidan nazorat qilgan.

Toshkent – Rossiya munosabatlari. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Toshkent bilan Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlari rivojlandi. Masalan, 1786-yili toshkentlik savdogarlar *B. Ismoilov* va *Azizxo'ja* Irbit yarmarkasiga borishgan. 1787-yili *Troitskdan* Toshkentga *27773 so'mlik* rus va chet el mollari keltirilgan. Ular rus va nemis movuti, qizil charm, gazmol, mis, baxmal va boshqa mollardan iborat bo'lgan.

1795-yilning sentyabr oyida 24 kishidan iborat Toshkent savdo karvoni *Semipalatinsk* shahriga kelgani hujjatlarda qayd etilgan. XVIII asrning 90-yil-

larida *Rahmatulla karvonboshi* rahbarligidagi bir guruh Toshkent savdogarlari o'z karvonlari bilan doimo *Petropavlovskka* qatnab turgan.

Toshkentning qulay geografik holati Toshkent – Rossiya elchilik munosabatlarining ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmay qolmagan. Xususan, 1792-yili *Muhammadxo'ja* va *Azizxo'ja* boshliq Toshkent savdo karvoni Sibirga jo'naganida Yunusxo'ja ular orqali Sibir ma'muriyati nomiga maktab jo'natgan. Yunusxo'ja bu savdogarlarga Sibir ma'muriyati bilan har ikki tomonni qiziqtiradigan masalalar yuzasidan muzokara olib borish vakolatini ham bergan edi. Yunusxo'janing elchilariga javoban Sibir ma'muriyati 1794-yili o'z elchilari *A.T.Beznosikov* va *T.S.Burnashevni* Toshkentga jo'natadi. Biroq ular Toshkentga kela olmay *Buxorodan* qaytishga majbur bo'ladilar. Sibir ma'muriyatining 1796-yili ikkinchi bor yuborgan elchilari, nihoyat Toshkentga yetib keladi. Ularni O'rta qozoq juzi Qorakesak bo'lisi sultoni Bukeyning o'g'li *Eshim sulton* kuzatib keladi. Bu faktlar Toshkent ijtimoiy-siyosiy nufuzining o'sib borganligini anglatar edi. Toshkent elchilari 1803-yili *Sankt-Peterburgga* borib, imperator *Aleksandr I* qabulida bo'ladilar.

Toshkent mustaqilligining tugatilishi. Toshkentning mustaqilligi uzoq davom etmadi. Bunga Toshkent – Qo'qon munosabatlari sabab bo'lgan. Ular o'rtasida muntazam davom etgan qarama-qarshilik, kurash muhiti hukm surgan. Yunusxo'ja Qo'qon xonligida markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamagan bekliklar, viloyatlar bilan ittifoq tuzishga harakat qilgan. Qolaversa, u isyonchi hokimlarning markaziy hukumatga qarshi kurashidan ham foydalanishga uringan. Ayni paytda, Qo'qon xonligi Toshkentni butunlay egallash yo'lini tutgan. Ikki tomon qo'shinlari o'rtasidagi asosiy jang 1800-yilning kuzida Sirdaryo bo'yidagi *G'urumsaroy* (Namangan viloyatiga qaraydi) yaqinida bo'lgan. Bu jangda Toshkent qo'shini yengilgan.

Muvaffaqiyatsizlikka uchrab Toshkentga qaytib kelgan Yunusxo'ja kasallanib, 1803-yili vafot etadi. Hokimiyatga uning o'g'li *Sultonxo'ja* o'tirdi. Yunusxo'janing vafot etganini eshitgan Qo'qon xoni Olimxon Toshkentga o'z qo'shinini yuboradi. 1810-yili Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olinadi. Shu tariqa Toshkentning mustaqilligi butunlay barham topdi.

15.3. XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli

Ichki vaziyatning keskinlashuvi. Olimxon hokimiyatni markazlashtirish maqsadida ichki islohotlar ham o'tkazdi. Diniy rahnamo unvoni hisoblangan «*eshon*»ni bekor qiladi. Kambag'al va qalandarlariga yer maydonlari hamda chorva mollari berib, ularni mehnatga jalb etadi. Ayrim diniy arboblarni imtihon qiladi va yolg'onchiligi fosh qilinganlarni jazolaydi.

Ayni paytda, Olimxonning markazlashgan kuchli hokimiyat tuzish yo'lidagi harakatlari ayrim qabila boshliqlarining undan noroziligini kuchaytiradi. Oqibatda ulamolar va markaziy hokimiyatning kuchayishidan norozi kuchlar unga qarshi fitna uyushtiradilar. Ular 1810-yili xonning Toshkentda ko'tarilgan isyonni bostirish uchun ketganligidan foydalanib «Olimxon Toshkentda o'ldi» degan mishmish tarqatishadi. Taxtga uning ukasi *Umarxonni* o'tqazadilar. Olimxon xiyonatdan xabar topgach Qo'qonga qaytadi. Biroq fitnachilar tomonidan yo'lda otib o'ldiriladi.

Umarxon. Umarxon (1810 – 1822) akasi Olimxon davrida Farg'ona hokimi edi. U Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi *Mohlaroyimga* (Nodira) uylangan.

Farg'onalik tarixchi *Muhammad Hakim* Umarxon hukmronligi davrini eng yaxshi podsholik davrlaridan biri sifatida tavsiflagan.

Umarxon hukmronligining dastlabki paytlarida Buxoro bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlar Jizzax va O'ratepa uchun azaliy kurash oqibatida yana uzilib qoldi. Bu kurash Umarxonning butun hukmronlik davrida davom etdi va, ilgari bo'lganidek, u tomonga ham, bu tomonga ham g'alaba keltirmadi.

Qo'qon qo'shinlarining ko'chmanchi qozoq va qirg'iz elatlariga yurishlari ancha muvaffaqiyatli kechdi. Katta va qisman Kichik juz o'rdalarini o'z ichiga oluvchi keng hududlar Qo'qon xonligiga bo'ysundirildi. Sirdaryo bo'yidagi *Yangiqo'rg'on*, *Julek*, *Qamishqo'rg'on*, *Oqmasjid*, *Qo'shqo'rg'on* nomli harbiy istehkomlar qurildi va *Turkiston* shahrini o'z tasarrufiga oldi. Ular Markaziy Osiyoni Rossiya bilan bog'laydigan muhim savdo yo'lida joylashgan edi.

Muhammad Alixon. Qo'qon xonligi hududi Umarxonning o'g'li va vorisi Muhammad Alixon (Madalixon) davrida (1822 – 1841) ancha kengaydi. Qo'qon qo'shinlari Farg'onaning janubida joylashgan, asosan, tojik o'troq aholisi yashaydigan va o'z hokimlari bo'lgan *Qorategin*, *Darboz* va *Ko'lobga* yurish qilib, bu yerlarni egalladilar.

Madalixon boshqaruvining so'nggi yillarida, Qo'qon xonligida g'alayonlar kuchaygan paytda, Madalining ko'ngli tusagan ishlarni qila berishini qo'llab-quvvatlovchi odamlar ta'siriga tushib qolgan yosh xon o'z marhum otasining eng obro'li a'yonlarini ta'qib qila boshladi. Umarxon davrida xon hokimiyati bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida mustahkamlangan ittifoq buzila boshladi. Amaldorlarning ayrimlari surgun qilindi, ba'zilar qatl etildi, ba'zilar esa Buxoroga qochib ketishdi. Joylarida qolgan amaldorlar esa xon hokimiyatidan norozi bo'lganlarning hammasini o'z atrofiga yig'ib, xonni taxtdan qulatishga tayyorlana boshladilar. Bularning hammasi aholining barcha tabaqalarini Madaliga qarshi qilib qo'ydi. Ruhoniylar xonni turli axloqsizlik va shariatga qarshi jinoyatlarda ayblab, unga qarshi ochiq targ'ibot olib borishdi. 1841-yili Madalixon o'z ukasi *Sulton Mahmudxon* foydasiga taxtdan voz kechdi.

Xondan norozi bo'lganlar unga qarshi ochiq kurashish uchun yetarli kuchga ega bo'lmay, o'z elchilarini Buxoro amiri Nasrullo huzuriga yuborib, undan yordam so'radilar.

Amir Nasrullo 1842-yili o'z qo'shinlarini Qo'qonga qarshi safarbar etdi. Qo'qon qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi.

Madalixon o'z a'yonlari bilan tutib olindi va amir Nasrullo buyrug'iga binoan qatl etildi. Amir Nasrullo hatto Madalixonning onasi Nodirabegimga ham shafqat qilmadi.

Amir Nasrullo istilosidan keyingi siyosiy ahvol. Amir Nasrulloning Qo'qon xonligidagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. Chunki amirning Qo'qondagi noibi *Ibrohim dodxoh* Qo'qon xonligi aholisini avval undirib kelingan soliqqa qo'shimcha ravishda Buxoro amirligida joriy etilgan soliqlarni ham to'lashga majbur qilgan. Natijada butun Qo'qon xonligi hududida 1842-yili katta qo'zg'olon ko'tariladi. Uning oqibatida amirning Qo'qondagi noibi va beklari hokimiyati tugatildi. Buxoro amiri hukmronligiga qarshi qo'zg'olonni tashkil etgan mahalliy kuchlar Farg'ona vodiysida ko'chib yurgan *qipchoqlar* madadiga tayangan edilar. Qo'zg'olon natijasida Qo'qon xonligining mustaqilligi tiklandi. Taxtga Norbo'tabiyning ukasi Hojibekning o'g'li *Sheralixon* (1842 – 1845) o'tqazildi. Qo'qon xonligi mustaqilligini tiklashda ming qabilasiga katta madad bergan qipchoqlar xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta mavqega ega bo'lib oldilar. Qipchoqlardan Musulmonqul *mingboshi* etib tayinlandi.

Qo'qondagi mag'lubiyatga chiday olmagan amir Nasrullo yana Qo'qonga yurish qiladi. U Qo'qon shahrini *40 kun* qamalda tutadi. Biroq amir Nasrulloning qamalni davom ettirishiga Xiva xoni *Olloqulixonning* Buxoro amirligiga qilgan hujumi xalaqit berdi. Amir Nasrullo Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi.

Sheralixonning hukmronligi davrida aholidan soliq undirish kuchaydi. Bu-hol mehnatkash aholining noroziligini keltirib chiqardi. Bundan tashqari, davlatda muhim lavozimlarni egallab olgan qipchoqlar davlat ishlarida o'z hukmronligini o'tkazishga, o'zbek, qirg'iz va tojiklarning mamlakat hayotidagi ta'sirini kamaytirishga urindilar. Qipchoqlar Qo'qonga ko'plab ko'chib kela boshlagach, mahalliy aholining uy-joyini, mol-mulkini zo'ravonlik bilan tortib olib boshladilar. Bular xonlikda qipchoqlarga nisbatan norozilikni kuchaytirdi.

Musulmonqul 1845-yili soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lib qo'zg'olon ko'targan *O'sh* xalqi qo'zg'olonini bostirish uchun qo'shin bilan yuborildi. 1845-yili *Isfara* hokimi Samarqandda istiqomat qilib turgan marhum Qo'qon xoni Ollimxonning o'g'li *Murodxonni* olib kelib, Qo'qon taxtiga o'tqazadi va Sheralixon o'ldiriladi. Musulmonqul o'z qo'shini bilan Namanganga keladi. Ishni avval qizini marhum Sheralixonning o'g'li *Xudoyorxon*ga nikohlab berishdan boshlaydi. 13 yoshli Xudoyorxon bu

davrda *Namangan* hokimi edi. Shundan keyin Musulmonqul Qo'qonga kelib Murodxon va uni qo'llab-quvvatlaganlarni fitnachi sifatida ayblab, ularni qatl ettiradi. Kuyovi Xudoyorxonni esa taxtga o'tqazadi (1845).

Ichki nizolarning kuchayishi. Xudoyorxon yosh bo'lganligi tufayli amalda xonlikni qaynotasi Musulmonqul boshqarardi. Shunday qilib, xonlikda qipchoqlar hukmronligi davri boshlandi.

Endilikda qipchoqlar Qo'qonga yoppasiga ko'chib kela boshladilar, mahalliy aholini shahardan haydab chiqarib, ularning uy-joylariga o'rnashib ola boshladilar. Sug'orish inshootlarini qo'lga kiritdilar, bundan tashqari, aholi endi suv uchun soliq to'laydigan bo'ldi. Bularning barchasi mahalliy aholining qattiq noroziligiga sabab bo'ldi.

Bu ahvol, o'z navbatida, xonlikda hukmronlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish xavfini tug'dirdi. Bunday vaziyatda Musulmonqul o'z mavqeyini yo'qotmaslik yo'lida ruslar bilan aloqa o'rnatishga intiladi va rus qo'mondonligi vakili *V.V.Velyaminov-Zernov* bilan maxfiy ravishda uchrashadi. Bu hol Xudoyorxonni qattiq cho'chitib qo'ydi. Shuning uchun ham u endi qaynotasi Musulmonqul va qipchoqlar hukmronligiga xotima berishga qaror qildi.

1852-yil 9-oktyabr kuni Xudoyorxon Toshkentdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'inini uyushtirdi. Qaynotasi Musulmonqul asir olinib, qatl etildi. Qipchoqlarning mol-mulki musodara qilindi va aholiga sotildi.

Shu tariqa Musulmonqul va qipchoqlar hukmronligi barham topdi.

15.4. Qo'qon xonligida iqtisodiy hayot

Qishloq xo'jaligi. Qo'qon xonligida aholi sun'iy sug'orish mahoratini mukammal egallagan edi. Suvdan oqilona foydalanilardi. Xonlikda asosiy qishloq xo'jaligi ekini bug'doy bo'lgan. Shuningdek, meva, sabzavot va poliz ekinlarining deyarli barcha turlari yetishtirilgan. Chorvachilikda makkajo'xori va beda yetakchi o'rinda turgan.

Xonlikda paxtachilik ham alohida o'rin egallagan. Farg'ona vodiysining ko'pgina dehqonlari paxtakor bo'lib, paxtachilik yildan yilga rivojlana bordi. Rossiyaning Markaziy Osiyodan, avvalo, Qo'qondan paxta sotib ola boshlashi bu ekin maydonlarining yanada kengayishiga sabab bo'ldi. Paxta savdosiga hatto boj ham bekor qilindi. Shu sababli Qo'qon savdogarlari Rossiyaga serqatnov bo'lib qolishdi. Talabning o'sib borishi bilan paxta narxi ham oshib bordi.

Yer egaligi. Qo'qon xonligida yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan: 1. Amlok yerlari. 2. Xususiy mulk yerlari. 3. Vaqf yerlari. Mamlakatdagi butun yer davlatniki edi. Shuning uchun ham xususiy yer egalari, aslida, yerga emas, balki undan olinadigan mahsulot hamda shu yerlarda qurilgan

imoratlarga egalik qilar edilar. Mulklarning ko'pchiligi 30 sotixdan 60 sotixgacha bo'lgan. Yerlar ishlov berish uchun dehqonlarga ijaraga berilar edi.

Dehqonlar xon yerlarida ham mehnat qilar edilar. Xon yerlarida ishlash uchun majburan safarbar etilganlar soni 10 ming nafargacha yetardi. Ular *mardikorlar* deb atalardi.

Xonlikda xususiy yerlarda hosilning 1/4 qismi uchun yollanib ishlovchi yersiz, ot-ulovsiz kambag'allar *chorikorlar* deb atalar edi. Bundan tashqari, *korandalar* deb ataluvchilar ham bo'lib, ular hosilning 1/4 dan 1/2 qismigacha yerlarni ijaraga olib, o'z mehnat qurollari bilan yollanib ishlar edilar.

Soliq va majburiyatlar. Asosiy soliq *xiroj* bo'lib, uning miqdori ekin ekiladigan yer maydoni va ekin turiga qarab hosilning 1/3 – 1/5 qismigacha belgilanar edi.

Ko'chmanchi xalqlardan olinadigan zakotning ham turi ko'p edi. Ularning asosiylari «*qo'ra boshi*», «*tutun haqi*», «*yig'im soliq*» deb atalar edi. «*Qo'ra boshi*» zakoti ko'chmanchi chorvadorlardan moli boshiga va qo'rasiga qarab olinadigan zakot edi. Bu zakot qishda mollar qo'ralarda turganida yig'ib olinar edi.

«*Tutun haqi*» zakoti – bu bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq (zakot) edi.

«*Yig'im soliq*» esa zakot to'lamaydigan boylar va ulaming qarindoshlarining bekka beradigan 9 *buyumdan* iborat in'omlari yig'imi bo'lgan.

Mehnatkash xalq deyarli hamma narsa uchun soliq to'lar edi. Chunki hamma qo'riq yerlar, chakalakzorlar, to'qaylar, daraxtzorlar, ko'llar, barcha yaylovlar xonning ixtiyorida edi.

Aholi qal'a devorlarini ta'mirlash, istehkomlar qurishga, kanallar qazishga, ariqlarni tozalashga, yo'l qurilishiga safarbar etilardi.

Hunarmandchilik. Xonlik hujjatlariga ko'ra, Qo'qonda hunarmandchilikning miskar, zargar, o'ymakor, kulol, qog'ozgar, to'qimachi, do'ppi tikuvchi, kash-tachi, ko'priksiz, temirchi, novvoy, aravasoz, baxmalbof, bo'yoqchi, dorukash, devorzan, degrez, ko'nchi, miltiqsoz, nayzagar, panjarasoz, pillakash, po'stindo'z, taqachi, paranjido'z, chevar, chitgar, gilamchi kabi turlari bo'lgan.

Xonlikda oltin ma'dani Kosonsoydan (Namangan), Qoratog' shimolida-gi Ko'krev daryosidan, Chirchiq daryosi bo'ylaridan, Chatqol daryosi yuqori oqimlaridan olingan.

Samarqandda bo'lganidek, Qo'qon xonligida ham qog'oz ishlab chiqarilgan. Qog'oz juvozxonasi Qo'qon shahrining *Mo'yi muborak* darvozasi orqasida maqbara yonida joylashgan.

Savdo. Qo'qonga qo'shni shaharlar va xorijiy mamlakatlardan savdogarlar kelib turgan. Shaharda *yakshanba* va *chorshanba* kunlari bozor bo'lgan.

Qo'qon xonligining iqtisodiy hayotida Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qashqar, Hindiston, Afg'oniston, Eron, ayniqsa, Rossiya bilan bo'lgan savdo katta o'rinni egallagan. Masalan, Qashqar bilan olib borilgan savdo-sotiq

laqat Qo'qon orqali bo'lar edi. Qo'qondan Qashqargacha yuklangan ot karvoni 14 – 20 kun yo'l yurgan. Qo'qondan Qashqarga temir, qizil charm, ipak va ipdan to'qilgan matolar, oltin olib borilgan.

Qo'qon karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Qashqar, Buxoro amirligi, Afg'oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar ayirboshlanardi. Qo'qonga savdogarlar karvon yo'llari orqali kelganlar.

15.5. Qo'qon xonligi shaharlari

Qo'qon. Qo'qon xonligidagi shaharlar bir-biridan aholisi, madrasa va masjidlarining soni, mahsulotining sifati bilan farq qilardi. U yoki bu shaharning ahamiyati uning strategik mavqeyi bilan belgilanardi. Katta shaharlarga xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari hokim etib tayinlanardi. Xonlikning bosh shahri Qo'qon edi. Tarixiy manbalarda Qo'qonga oid ma'lumotlar X asrdan boshlab uchraydi. Qo'qonning yoshi 2000 yildan ortiqdir. Ma'lumotlarda «Havoqand», «Ho'qand» degan nomlar bilan qayd etilgan. «Havoqand» so'zi «qo'zal», «yoqimli», «xushmanzara», «shamol shahri» degan ma'noni anglatadi degan fikrlar ham mavjud. Mahalliy aholi o'z shahrini Ho'qandi latif yoki Qo'qon deb aytgan. Qo'qon shahri XVIII – XIX asr birinchi yarmida nafaqat xonlikning, ayni paytda, Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridan biri edi.

Qo'qon mustahkam devor bilan o'ralgan. Shaharga 12 darvozadan kirilgan. Shaharning 12 darvozali bo'lishiga sabab uning ma'muriy jihatdan 12 dahaga bo'linganligi edi. Bu davrda shaharda 30000 aholi yashagan. XIX asr o'rtalarida Qo'qondagi madrasalar ichida *Madalixon*, *Norbo'tabiy*, *Jome*, *Hokim oyim*, *Xoja dodxoh*, *Mingoyim* madrasalari alohida ajralib turadi. Ularning har birida 38 tadan 100 tagacha hujrasi bo'lgan.

Qo'qon shahri xonlikning siyosiy, madaniy, iqtisodiy va diniy markazi edi.

Marg'ilon. Marg'ilon (Marg'inon) shahriga bundan 2000 yil avval asos solingan. Olimlar shaharning nomi «Maysazor», «O'tzor» degan ma'noni anglatadi deb taxmin qiladilar. «Boburnoma» asarida Marg'ilon Farg'onadagi 8 ta shahardan biri ekanligi, shaharning obodligi, shirin mevalari haqida so'z yuritilib, uning «donayi kalon» deb ataluvchi anori va «subhoniy» navli o'rigi maqtalgan.

Marg'ilonning Buyuk ipak yo'lida joylashganligi hunarmandchilikning gullab-yashnashiga sabab bo'lgan. Uning atlas to'qish turi nihoyatda rivojlangan. Aynan Marg'ilon atlasini jahonga mashhur qilgan. Marg'ilon shahri qadimdan ilm-fan va madaniyat markazi ham bo'lgan. Shu tufayli shahar dunyoga mashhur huquqshunos alloma Burhoniddin Marg'inoniyini yetkazib bergan. Marg'ilon Qo'qon xonligi davrida *pilla* sotiladigan asosiy bozor markazi edi. Shaharda ko'plab pillakashlik va shoyi to'qish ustaxonalari bor edi. 2007-yili Marg'ilon shahrining 2000 yilligi nishonlandi.

Andijon. Markaziy Osiyoning mashhur shaharlaridan biri bo'lgan Andijon Buyuk ipak yo'lida bunyod etilgan. Ayrim manbalarda shahar nomi «*andi*», «*adoq*» kabi urug' atamalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. Arablar istilo qilgan davrda shahar «*Andukon*» deb atalgan. Andijon XV asrdan boshlab Farg'ona vodiysining markaziga aylangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur davrida Andijonda xo'jalik, fan va madaniyat ravaq topgan. U «Boburnoma»da Andijon haqida: «*Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur... Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. To'qqiz tarnov suv kirar*», – deya ta'rif bergan.

Qo'qon xonligi tashkil topgach, endi u Andijon bekligining markazi bo'lib qoldi. XIX asr o'rtalarida Andijon 4 *dahaga* bo'lingan. Har dahaning qozisi, mingboshisi bo'lgan. Dahalar oqsoqol boshliq mahallalarga bo'lingan.

Namangan. Namangan shahri ham xonlikning yirik shaharlaridan biri edi. Uning nomi manbalarda XVII asrdan boshlab uchraydi. 1620-yili Farg'onaning qadimgi poytaxti Axsikat qattiq zilzila oqibatida vayron bo'lganligi uchun aholi Namangan atrofiga ko'chgan. Namangan tuz koni («namak kon») yaqinida qurilgan edi. XVIII asrda Qo'qon xonligi hududiga kirgan. Beklik markazi bo'lgan. Namangan aholisi hunarmandchilik bilan shug'ullangan.

1819 – 1822-yillarda Namangan aholisi kuchi bilan katta *Yangi ariq* kanali qazilib, shaharning suv ta'minoti yaxshilangan. 1842 – 1845-yillarda shahar baland devor bilan o'ralgan.

Toshkent. 2009-yili 2200 yilligi nishonlangan Toshkent ham Markaziy Osiyoning qadimgi shaharlaridan biridir. U turli davrlarda *Choch, Shosh, Binkat* kabi nomlar bilan atalib kelingan. XI asrdan esa hozirgi nomi bilan atala boshladi.

Toshkent o'z tarixida turli davrlarda yurtimizga bostirib kirgan davlatlarga qaramlik davrlarini boshidan kechirgan.

1503-yili esa Shayboniylar davlati tarkibiga kiritildi. XVI asrda shaharda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Chunonchi, Baroqxon, Ko'kaldosh madrasalari kabi me'moriy obidalar bunyod etildi.

1723-yili Toshkentni ko'chmanchi jung'orlar egallab olganlar. Jung'orlarga qaramlik 1758-yilgacha davom etgan. Shundan so'ng shaharda to'rtta mustaqil hokimlik qaror topgan. 1784-yili 4 hokimlik tugatilgach, 1810-yilgacha Yunusxo'ja barpo etgan Toshkent hokimligining markazi bo'ldi. 1810-yili esa Qo'qon xonligi tarkibiga qo'shib olindi.

Toshkent Qo'qon xonligi tarkibiga qo'shib olinganidan so'ng qator bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Chunonchi, o'rta asrlarda yashab o'tgan shayx *Zayniddin bobo* xotirasi uchun yangi maqbara bunyod etildi. Shuningdek, sobiq hukmdor Yunusxo'janing qarorgohi Eski o'rda buzilgach, yangi – *Qo'qon o'rdasi* qurildi.

Toshkent muhim xalqaro savdo yo'li chorrahasida joylashgani sababli hunarmandchilikning turli sohalari yuksak darajada rivojlangan. Chorsu shahar hayotining markazi bo'lgan.

Markaziy Osiyoning boshqa shaharlari kabi Toshkentning ham xo'jalik hayoti qishloq aholisining faoliyati bilan chambarchas bog'lanib ketgan edi. Chunki shahar hunarmandlari atrofdagi qishloqlardan xomashyo keltirar, ayni paytda, qishloq aholisi o'zining ehtiyojini shahar hisobidan ham qoplar edi.

15.6. Qo'qon xonligida madaniy hayot

Umarxon va madaniy muhit. Qo'qon xonligining savdo va hunarmandchilik markazi bo'lgan Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Toshkent va boshqa shaharlari, ayni paytda, madaniyat markazlari ham bo'lgan. Chunonchi, birgina Qo'qon shahrida 120 ta maktab, 40 ta madrasa va masjid, Marg'ilonida 80 ta maktab, 10 ta madrasa va masjid faoliyat ko'rsatgan. Bu yerda XVIII – XIX asrning birinchi yarmida ilm-ma'rifat olamida mashhur ijodkorlar yetishib chiqqan. Qo'qon xoni Umarxon esa ilm, madaniyat, adabiyot rivojiga, madrasalarda o'qish-o'qitish ishlarini yaxshilashga, turli kasb-hunar maktablarining ochilishiga e'tibor bergan.

Umarxon va uning umr yo'ldoshi shoira Nodiraning sa'y-harakatlari natijasida XIX asr boshlarida Qo'qon ilm-ma'rifat markaziga aylandi va bu yerda Qo'qon adabiy muhiti shakllandi.

Umarxonning o'zi *Amiriy* taxallusi bilan ko'plab she'rlar yozgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig'ilgan. 1821-yili *Fazliy Namangoniy* Umarxon amriga binoan 63 shoirning she'rlarini o'z ichiga olgan «*Majmuayi shoiron*» to'plamini tuzgan. 10 ming misradan ortiq o'zbek, fors-tojik tilidagi g'azal, muxammas, tuyuq janrlaridagi she'rlar to'plangan devon yaratilgan.

Arab va fors tillaridagi kitoblar o'zbek tiliga tatjima qilindi. Noyob kitoblar iste'dodli xattotlar tomonidan ko'chirildi, nozik tasvirlar bilan bezatildi. Amiriy o'zbek va fors tillarida she'rlar yozdi. Uning g'azallar devoni 1882-yili *Istanbulda*, 1905-yili *Toshkentda* chop etildi.

Maxmur va Gulxaniy. Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri *Maxmur* (asl ismi Mahmud) XVIII asr oxirida tug'ilib, 1844-yili vafot etgan. Qo'qondagi Madrasayi Mirda o'qigan, keyin qo'shinda sipohilik qilgan. Maxmurning hajviy she'rlar devoni saqlangan bo'lib, unda 69 asar (3717 misra) jamlangan. U milliy adabiyotda *ijtimoiy hajviyani* yuksak pog'onaga ko'taradi. Hajviy asarlarida xalqqa jabr yetkazgan amaldorlarni keskin tanqid ostiga oladi. Xususan, «*Hapalak*» she'rida Hapalak qishlog'idagi xalq hayotining ayanchli manzarasini aks ettirsa-da, aslida, bu she'r butun xonlik hududidagi xalq hayotining manzarasini ifodalay edi.

O'zbek mumtoz adabiyotining tanqidiy yo'nalishini rivojlantirgan Maxmur merosi keyingi davrdagi qalam ahlining hajviygo'ylik ijodiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Bu davr adabiyotining yana bir yirik namoyandasi *Gulxaniy* (Muhammad Sharif) bo'lgan. U 1770-yili hozirgi Tojikistonning *Tavildara* tumanida tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limni qishlog'ida olgan. Muhtojlik oqibatida Namanganga kelib mardikorlik qilgan. Keyinchalik Qo'qonda istiqomat qiladi. Bu yerda hammomda go'lax (o't yoquvchi) bo'lib ishlaydi. Shu boisdan «Gulxaniy» taxallusi bilan ijod qilgan.

Gulxaniy o'zbek adabiyotida poeziyaga *masal*ni mustaqil janr sifatida birinchi bo'lib kiritgan ijodkor edi. Gulxaniyning butun sharq adabiyotida mashhur hisoblangan asari «*Zarbulmasal*»dir. Asardagi «*Maymun va Najjor*», «*Tuya bilan Bo'taloq*», «*Toshbaqa bilan Chayon*» kabi masallari chuqur axloqiy-ta'limiy ahamiyatga ega.

Asardagi Yapaloqqush va Boyo'g'li, Ko'rqush va Hudhud, Kulonkir sulton va Malik shohinning obrazlari orqali o'sha davr jamiyatidagi illatlarni, hukmron tabaqalarning xalqqa o'tkazgan jabr-zulmlarini, xalqning og'ir turmush sharoitini haqqoniy tarzda katta badiiy mahorat bilan ochib bergan.

Uvaysiy. Qo'qon adabiy muhitini Jahon otin *Uvaysiy* (1779 – 1845) va Mohlaroyim – *Nodira* ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Uvaysiy oilasi o'z davrining ilg'or va ma'rifatli oilalaridan edi. Otasi ham o'zbek, ham tojik tilida qalam tebratgan. Oiladagi muhit Uvaysiyda ijod qobiliyatini yuzaga chiqardi. Uvaysiy Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy va Jomiy ijodini qunt bilan o'rgandi.

Amir Umarxon Marg'ilon hokimi bo'lib turgan yillarda (1806 – 1807) Uvaysiy el orasida tanilgan shoira edi. Undagi shoiralik iste'dodi Umarxonning xotini Nodirani o'ziga rom etgan. Umarxon Qo'qon taxtiga o'tirgach, Uvaysiy Qo'qonga taklif etilgan. Bu yerda u juda ko'p yoshlarga murabbiylik qilgan. Nodira bilan ijodiy hamkorligi qaror topgan.

Uning ijodi xalqparvarligi bilan ajralib turadi. Manbalarda ta'kidlanishi-cha, Uvaysiydan *to'rtta* lirik devon va *uchta* doston meros bo'lib qolgan. Uvaysiy asarlarida insonni e'zozlash, do'stlik, vafo, sadoqat g'oyalari, el-yurt dardi, xalq hasrati kuylanadi.

Mohlaroyim – Nodira. O'zbek shoirasi, ma'rifatparvar davlat arbobi Mohlaroyim – *Nodira* (1792 – 1842) Andijonda tug'ilgan. Otasi Rahmonqulbiy Andijon hokimi bo'lib, Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi edi.

Umarxon Marg'ilonga hokim etib tayinlanganidan keyin Nodiraga uylan-gan. Nodira Uvaysiy bilan tanishgach uni yosh bolalar va kanizaklarni o'qi-tish uchun muallimlikka taklif etadi. Nodira, o'g'li Muhammad Alixon taxtga o'tirgach, davlatni idora etishda faol qatnashadi, madrasalar qurdiradi.

Nodira olimlar, xattot va naqqoshlarni Qo'qonga to'plagan, ko'p kitoblarni qayta ko'chirtirgan. Kitob muqovasining did bilan ishlanishiga e'tibor beradi. Yaxshi xattotlarga, naqqoshlarga tilla qalam, kumush qalamdon sovg'a qilgan.

Nodiraning o'zi ham o'zbek, ham tojik tillarida ijod qilgan. Mohlaroyim Nodira taxallusida 180 she'r jamlangan devon, Komila taxallusida 19 g'azal, Maknuna taxallusida 333 g'azaldan iborat devon yozgan. Nodiradan *10 ming* misraga yaqin lirik adabiy meros qolgan. Uning she'riyati asosini lirika tashkil etadi. She'rlarida muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oh-fig'onlari kuylanadi.

Bundan tashqari, Nodira Navoiy, Fuzuliy va Bedil g'azallariga muxammasar ham bog'lagan.

Boborahim Mashrab. Qo'qon xonligida ijod qilgan ulug' insonlardan biri iste'dodli shoir *Boborahim Mashrab* edi (1640 – 1711). U Namanganda tug'ilgan. 7 yoshligida xat-savodi chiqqan. 15 yoshidan tasavvuf ilmini egallay boshlagan. *18 yil* davomida dunyoning juda ko'p mamlakatlarini kezib chiqqan.

Mashrab o'z she'rlarida hukmron tabaqalarning mehnatkash xalqqa o'tkazgan jabr-zulmini, ochko'zligini, ba'zi ruhoniylarning, eshonlarning avom xalq ruhini do'zax va oxirat azoblari bilan dahshatga solayotganligini ayovsiz fosh etadi. Xalqning og'ir, ayanchli ahvoliga achinadi. Mashrab bitgan quyidagi satrlar buning dalilidir:

Dili tig'i sitamdin pora bo'lg'on xalqni ko'rdim,

Tani dard-u alamdan yora bo'lg'on xalqni ko'rdim.

Mashrab asarlari to'plangan devon haqida manba topilmagan. Uning «*Devoni Mashrab*», «*Devonayi Mashrab*», «*Eshoni Mashrab*» nomlari ostida xalq orasida tarqalgan qo'lyozma va toshbosma shaklidagi qissalari qolgan.

Mashrab dinga shak keltirganlikda ayblanadi va 1711-yili g'animlarning ig'vosi bilan Balx hokimi *Mahmudbiy Qatag'on* tomonidan o'limga hukm etiladi.

15.7. Tarixnavislik, san'at va me'morchilik

Tarixnavislik. XVIII – XIX asrlarda Qo'qon xonligida ko'plab tarixiy asarlar yaratilgan. Mazkur davr tarixchilaridan Abdulkarim Fazliy Namangoniy amir Umarxonning topshirig'iga binoan «*Umarnoma*» dostonini yozib tugatgan (1822). U *5000 baytdan* iborat tarixiy asardir. Yana «*Majmuayi shoiron*» tazkirasida ham uning ijtimoiy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Xon saroyida qoziaskar lavozimida ishlagan Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy amir Umarxonning maslahati bilan «*Shohnomayi nusratpayom*» («G'alabadan xabar beruvchi shohnoma») tarixiy asarini yozgan.

Umarxon davrining ko'zga ko'ringan tarixchisi Muhammad Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sumxondir (1802 – 1870). U ona tomondan Qo'qon xoni

Norbo'tabiyning nabirasidir. Muhammad Alixon davrida quvg'inga uchrab, Rossiya va Sharq mamlakatlariga sayohat qilishga majbur bo'lgan. Umrining oxirida Shahrisabzda yashab, shu yerda o'zining «*Muntaxab ut-tavorix*» (Saralangan tarixlar) asarini yozadi. Bu asar Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi tarixiga doir muhim manbalardan biri sanaladi. Unda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga doir qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Ushbu davrning yana bir yetuk tarixchisi Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiydir (1802 – 1872). Undan bizga «*Tarixi Shohruxiy*» asari meros qolgan. Asarda olim o'zi yashagan davrning siyosiy ahvoli va xalqning ijtimoiy turmushiga to'g'ri baho bera olgan. Unda 1872-yilgacha bo'lgan, ko'pincha o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealar bayon etilgan.

Umarxon davridan 1872-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarning bayonidan iborat bo'lgan yana bir tarixiy asar «*Tarixi jahonnomayi*» deb nomlanadi. Uning muallifi Junayd Mulla Avaz Muhammad Mulla Ro'zimuhammad o'g'lidir.

Toshkentlik tarixchi olim Muhammad Solihning «*Tarixi jadidayi Toshkand*» («*Toshkentning yangi tarixi*») asari Vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manbadir. U XV – XIX asrlar Turkiston tarixi, jumladan, Toshkent tarixi, Qo'qon xonligi tarixi ilmiy nuqtayi nazardan yozilgan qimmatli asardir.

Yana bir tarixchi Mulla Ali qori Qunduziyning «*Tavorixi manzuma*» asarida esa 1822 – 1848-yillar tarixi bayon etilgan.

Ma'rifatparvar shoira va tarixchi olim Dilshodi Barno «*Tarixi muhojiron*» (Muhojirlar tarixi), «*Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiron*» (Inson matonati va muhojirlar tarixi) kabi asarlar yozib qoldirgan.

Xattotlik san'ati va me'morchilik. Qo'qonda xattotlik san'ati va me'morchilik ham rivojlangan. Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Abulg'oziyxo'ja kabi xattotlarning kitob ko'chirish borasida o'zlari amalga oshirgan xayrli ishlari bilan tarixda nomlari qoldi. Kitoblar shunday did bilan ko'chirilganki, xorijiy mamlakatlar shohlari uchun elchilariga ana shunday nafis ko'chirilgan kitoblarni tortiq qilish xonlikda odatga aylangan edi.

Qo'qonda me'morchilik ham rivojlanib borgan. Buxorodan bir guruh binokorlar taklif etilib, ko'plab madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, ko'priklar va muhtasham binolar bunyod etildi. Xalq orasida Madrasayi Mir nomi bilan mashhur bo'lgan Norbo'tabiy madrasasi, Daxmayi Shohon ansambli, Norbo'tabiy daxmasi kabi hozirgacha saqlanib kelinayotgan me'moriy obidalar shular jumlasidandir.

Norbo'tabiy madrasasi XVIII asrning oxirida bunyod etilgan. U to'g'ri to'rtburchakli, bir qavatli, hovlilili va to'rt minorali me'moriy obida. Madrasada gumbazli masjid va panjaralar o'rnatilgan 12 ta derazali darsxona ham mavjud. Hovlisi atrofida peshayvonli hujralar joylashgan.

Daxmayi Shohon (shohlar maqbarasi) XIX asrning birinchi choragida qurilgan. Unda Norbo'tabiy va uning avlodlari dafn etilgan. Daxmaga peshtoq orqali kiritilgan. Daxmayi Shohonda xonning onasiga atab qurilgan Modarixon maqbarasi ham joylashgan.

Umarxon Turkiston va uning atroflarini – Orolbo'yidan Yettisuvgacha egallab, Oqmachit (Qizil O'rda), Avliyoota (Jambul), Pishpak (Bishkek) qal'alarini bunyod etdi. Qo'qon va boshqa shaharlarda ko'plab binolar qurilgan. *Norbo'tabiy madrasasi, Madalixon madrasasi, Kamol qozi, Tunqator, Haqquli mingboshi, Miyon hazrat, Mohlaroyim, Hakim To'ra, Xonxo'ja eshon, Buzrukxo'ja, Pirmuhammad yasovul, Xojabek, Oxund devonbegi, Mingoyim, Jome* kabi madrasalar shular jumlasidandir.

XIX asrning birinchi yarmida Toshkentda ham muhtasham me'moriy-diniy inshootlar qurilishi, eskilarini ta'mirlash ishlari keng ko'lamda olib borildi. Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari qayta ta'mirlandi. *Shayx Xovandi Tohur* me'moriy majmuasi hozirgi ko'rinishda shakllantirildi. Zayniddin bobo uchun yangi maqbara qad ko'tardi. Yunusxo'ja qarorgohi Eski o'rda buzilgani sababli yangi markaz – Qo'qon o'rdasi bunyod etildi.

16-BOB. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING XALQARO MUNOSABATLARI

16.1. XVI – XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar

Xuroson – raqobat maydoni. XVI asrda Osiyoning bir-biriga tutash qismida uch siyosiy kuch kurash maydoniga chiqqan edi. Bular Movarounnahrda *shayboniylar*, Eronda *safaviylar* va Hindistonda *boburiylar* edi. Xalqaro va o'zaro munosabatlarda bu uch sulola manfaatlari to'qnashib, raqobatchilik kuchayib bordi.

Ularning manfaatlari to'qnashgan nuqta *Xuroson* edi. Chunki Xuroson ham harbiy-siyosiy, ham savdo-iqtisodiy jihatdan muhim o'rin tutar edi. Bundan tashqari, Xuroson Movarounnahr, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini ham o'tar edi.

Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o'rtasida keskin kurash ketgan.

Bu masalada Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon davrida shayboniylar ustunlik qilganlar. Keyinchalik safaviylarning qo'li baland kelgan va oxir-oqibatda ular Xurosonni Movarounnahrdan ajratib tashlashga muvaffaq bo'lganlar.

Buxoro va Boburiylar davlati munosabatlari. XVI asrda shayboniylar bilan boburiylar o'rtasida elchilik munosabatlari o'tmatildi. Unga shayboniy

Ko'chkunchixon va Bobur asos solgan edilar. Abdullaxon II boburiylar hukmdori Akbarshohga to'rt marta elchi yuborgan. 1586-yili Akbarshoh elchisi Buxoroga kelgan. Elchilik munosabatlarida ikkala davlatning Xuroson bilan bog'liq o'z manfaatlari masalalari muhokama qilingan. Shuningdek, Hindistonga me'morlar, 3 miniatyurachi rassomlar yuborilgan. Ikki mamlakat o'rtasida savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Akbarshohning o'g'li Jahongirshoh (1605 – 1627) va Buxoro xoni Imomqulixon davrida ikkala davlat o'rtasidagi elchilik munosabatlari davom etgan. Lekin Jahongirshohning o'g'li Shoh Jahon (1627 – 1658) davrida Hindiston – Buxoro munosabatlarida keskinlik yuz bergan. Bu Buxoro xoni Nodir Muhammadxon va uning o'g'li Abdulaziz o'rtasida yuz bergan nizo bilan bog'liq edi. Taxtdan ag'darilgan Nodir Muhammad Balxga qochadi. U o'g'liga qarshi kurashish maqsadida Hindiston hukmdori Shoh Jahondan yordam so'raydi. Shoh Jahon bu paytda qulay fursat kutib Balxni bosib olish niyatida yurar edi. Shoh Jahon darhol Balx ustiga «yordam» jo'natadi. Biroq hind qo'shinlarining Balxga yordamga emas, balki uni bosib olish uchun kelganligini tushunib yetgan Nodir Muhammadxon Eronga qochadi. 1645-yili Abdulazizxon Balxni qamal qiladi. Oxir-oqibat boburiylar qo'shini ortga qaytib ketishga majbur bo'ladi.

Avrangzeb Olamgir (1658 – 1707) bilan Abdulazizxon hamda Subhonqulixon o'rtalarida elchilik munosabatlari davom etgan. Avrangzebdan keyin boburiylar sulolasi yana 150 yil hukmronlik qilgan bo'lsa-da, bu saltanat tanazzul tomon yuz tutib bordi. Shunday bo'lsa-da, Hindiston va Buxoro munosabatlari to'xtab qolmagan. Savdo aloqalari ham to'xtovsiz davom etgan.

Markaziy Osiyo xonliklarining Afg'oniston bilan aloqalari. Markaziy Osiyo davlatlarining yaqin qo'shnisi Afg'oniston edi. Mustaqil Afg'oniston davlati 1747-yili tashkil topgan. Yosh afg'on davlati bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi munosabatlar do'stona ruhda bo'lmagan. Bunga ikkala tomonning Amudaryoning janubiy qirg'og'idagi o'zbeklar istiqomat qilib turgan hududlarni o'z tasarrufida saqlashga urinishlari sabab bo'lgan edi. Xususan, 1751-yili Afg'oniston hukmdori Ahmadshoh Amudaryoning janubida istiqomat qilib turgan o'zbeklarning yerlarini bosib olish maqsadida qo'shin yuboradi. Bu hududda joylashgan kichik-kichik o'zbek bekliklari o'zaro urushlar oqibatida zaiflashib qolgan edilar. Natijada ular Afg'onistonning vassaliga aylangandilar. Balx qal'asini afg'on garnizoni egallaydi. Balxni Ahmadshohning noibi boshqara boshlaydi.

1768-yili mahalliy o'zbeklar afg'onlarning jabr-zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olonchilarni Buxoro qo'llab-quvvatlaydi. Ana shunday vaziyatda Ahmadshohning o'zi qo'shin tortib kelib qo'zg'olonni bostiradi.

1789-yili o'zbeklar yana qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olonchilarga bu safar ham Buxoro amaliy yordam ko'rsatadi. Afg'oniston hukmdori *Temurshoh*

(1773 – 1793) Balxga qarab qo'shin tortadi. Biroq Buxoroga qarshi yurish qilishga Temurshohning yuragi dov bermaydi va Buxoro bilan sulh shartnomasi tuzishga majbur bo'ladi. Shartnomaga ko'ra, Amudaryo har ikki davlat o'rtasidagi chegara deb tan olinadi.

Munosabatlar do'stona bo'lmasa-da, Buxoro va Afg'oniston o'rtasida savdo aloqalari uzluksiz davom etgan. *Kobul* shahri savdo aloqalarida alohida o'rin tutgan. Kobul orqali Buxorodan Hindistonga, Buxoro orqali Afg'onistonga Rossiya tovarlari, Hindistondan Buxoroga hind tovarlari ortilgan savdo karvonlari qatnab turgan.

Qo'qon va Xitoy munosabatlari. Markaziy Osiyo xonliklaridan Qo'qon xonligining Xitoy bilan munosabatlari ham do'stona emas edi. Bir tomondan, Sin imperiyasi 1755 – 1759-yillar mobaynida Sharqiy Turkistonni o'ziga bo'ysundirib, Qo'qon xonligini kuchsizlantirishga urinardi. Ikkinchi tomondan, Qo'qon xonligi Sharqiy Turkistonda o'z hokimiyatini o'rnatishga intilib Sharqiy Turkiston sari o'z chegarasini tobora kengaytirib borayotgan edi. Ayniqsa, XIX asrning 20-yillarida Qo'qon – Xitoy munosabatlari yanada keskinlashdi. Bunga Qo'qon xoni Muhammad Alixonning sharqiy turkistonliklarning *Jahongirxo'ja* boshchiligida Sin imperiyasiga qarshi 1825-yili boshlangan milliy-ozodlik kurashiga aralashuvi sabab bo'ldi.

Xitoy hukumati 1829-yili Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi, markaziy osiyolik savdogarlarning aksariyat qismini haydab, mol-mulklarini musodara qildi.

Bunga javoban Qo'qon xoni Muhammad Ali sharqiy turkistonliklarning Xitoyga qarshi ozodlik kurashi rahbari Jahongirxo'ja va uning ukasi Yusufxo'ja ixtiyoriga *Haqquli* boshchiligida qo'shin jo'natadi. Natijada Yusufxo'ja Qashqarni egallaydi va Yorkentni egallash uchun harbiy harakatni davom ettiradi. Bu hol Xitoy hukumatini qattiq tashvishga solib qo'yadi va Yusufxo'jaga qarshi katta qo'shin yuboradi.

Qo'zg'olonchilarning safida mustahkam birlik yo'qligi hamda Buxoro – Qo'qon munosabatlari yomonlashuvi oqibatida Qo'qon xonining Sharqiy Turkistonga yuborgan qo'shinini chaqirib olishi tufayli Yusufxo'ja mag'lubiyatga uchraydi.

Oqibatda Yusufxo'ja Sharqiy Turkistonni tashlab chiqadi. U bilan 70 ming uyg'ur oilasi Farg'ona vodiysiga ko'chib keladi.

Qo'qon xonligi o'z chegaralarini tobora Sharqiy Turkiston tomon kengaytirish siyosatini davom ettirgan. Ayni paytda, Sin imperiyasi moliyaviy qiyinchiliklar tufayli Qo'qon xonligiga qarshi ochiqdan ochiq urush harakatlari olib borishga qodir emas edi. Natijada 1832-yili *Pekinda* Xitoy – Qo'qon shartnomasi imzolangan. Unga ko'ra, Qo'qon Jahongirxo'ja avlodlarini Sharqiy Turkistonga

o'tkazmaslik majburiyatini olgan. Xitoy esa Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qilgan. Ikkinchidan, Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi berilgan. Uchinchidan, Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganida ulardan tortib olingan mol-mulkleri evaziga Qo'qon xoniga tovon to'langan. To'rtinchidan, Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi markaziy osiyolik savdogarlar to'laydigan to'lovlarni yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berilgan.

16.2. O'zbek xonliklari va Rossiya imperiyasi munosabatlari

Savdo aloqalari. Markaziy Osiyo va Rossiya xalqlari o'rtasidagi munosabatlar, savdo aloqalari tarixi uzoq zamonlarga borib taqaladi. Volgabo'yi orqali rus savdogarlari ham, Markaziy Osiyo savdogarlari ham ikki mintaqada o'rtasida savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaganlar.

XVI asrda jahondagi yirik davlatlar tomonidan dunyoni bo'lib olish boshlangan davrda Rossiya *Qozon, Astraxan, Sibir* xonliklarini zabt etdi. Natijada Rossiya va o'zbek xonliklari bir-biriga bevosita qo'shni bo'lib qoldi. Bu holat ularning o'zaro munosabatlarini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratdi. Markaziy Osiyoning savdo-hunarmandchilik doiralari o'z mahsulotlarini, ayniqsa, ipak, paxtadan to'qilgan matolarni talab qilayotgan Rossiya bilan savdo-tijorat munosabatlarini rivojlantirishdan g'oyat manfaatdor edi. Rossiyaning movut, temir, mis, mo'yna, charm va boshqa mollari Markaziy Osiyoda xaridorgir edi. Savdo-sotiq ishlari uchun qulay shart-sharoit yaratishda o'zbek xonliklari va Rossiya o'rtasidagi elchilik munosabatlari muhim o'rin tutardi.

XVII asrda elchilik munosabatlari. 1619-yili Imomqulixonning elchisi *Odambiy* Moskvaga boradi va podsho *Mixail Romanov* qabulida bo'ladi. Podsho *Odambiy* bilan birgalikda Buxoroga *Ivan Xoxlov* boshchiligida elchilarni yuboradi. *I. Xoxlovni* Imomqulixon qabul qiladi, rus podshosi iltimosiga binoan o'z saroyidagi 23 nafar rus asirlarini ozod qiladi. *I. Xoxlov* 1620 – 1622-yillarda Buxoro xonligining ichki va tashqi siyosati haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi. U qimmatli sovg'alar bilan Moskvaga kuzatiladi. Yozma manbalarga ko'ra, XVI – XVII asrlarda Buxoro va Xiva xonliklariga Rossiyadan 12 marta elchilar kelishgan. 1583 – 1600-yillarda Moskvada 5 marta Buxoro elchilari, 2 marta Xiva elchilari bo'lishgan. Bu misollar Markaziy Osiyo va Rossiya o'rtasida savdo-diplomatik aloqalarning ancha faollashganligidan guvohlik beradi.

Rossiya imperiyasi tazyiqining kuchayishi. XVIII asrdan Rossiya imperiyasining o'zbek xonliklari bilan bo'lgan munosabatlarida tazyiq o'tkazish ustunlik qila boshladi. Bu Rossiya imperiyasining siyosatida Markaziy Osiyo

xonliklarini savdo-sotiqda kamsitish, ularning tabiiy boyliklariga ko'z olaytirish, strategik maqsadlarni ro'yobga chiqarish kayfiyatining kuchayganligida yaqqol namoyon bo'la boshladi.

Pyotr I Buxoro va Xiva xonliklarini siyosiy jihatdan Rossiyaga teng davlatlar emas deb hisoblab ularga tazyiq o'tkaza boshladi. Bunga xonliklardagi ichki siyosiy ahvol ham qulay sharoit yaratib bergan edi. Masalan, Xiva xoni *Shohniyoz* 1700-yili Pyotr I huzuriga yashirincha elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'ragan. 1709-yili toj-u taxt vorisi *Muhammad* ham shunday qilgan edi. Pyotr I Xiva xoniga jo'natgan yorlig'ida shunday gaplar yozilgan: «*Shohona muruvvat ko'rsatib xonning qo'l ostidagi jamiki narsalari bilan birga abadiy tobeligimizga olamiz*». Biroq bu niyat u davrda amalga oshmay qoldi. Rossiya imperiyasining «*Shimoliy urush*» bilan bandligi bunga sabab bo'ldi.

1713-yili Astraxanga kelgan Xiva elchisi *Xoja Nafas* rus ma'murlariga, Sankt-Peterburgga borgach podsho Pyotr I ga Amudaryo sohillaridagi qumlar oltinga boyligini, sohilda istiqomat qiluvchi aholi ko'p miqdorda oltin yuvib olayotganini aytadi. Ana shu ma'lumotlar ta'sirida Pyotr I o'zbek xonliklariga kirib borish maxfiy rejasini tuzadi. U ikki harbiy ekspeditsiya tashkil etadi. Biriga *Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy*ni, ikkinchisiga kapitan *Ivan Buxgols*ni rahbar etib tayinlaydi.

Bekovich-Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi tarkibida katta harbiy qo'shin bor edi. Ular 1717-yili Xiva xonligi hududlariga kirib keladi va harbiy to'qnashuvlar bo'ladi. Xiva xoni *Sherg'ozixon* hiyla ishlatib Bekovich-Cherkasskiy qabul qiladi va uning qo'shinlarini qirib tashlaydi. Pyotr I uyushtirgan ekspeditsiyaning halokati Xiva – Rossiya munosabatlarini keskinlashtirib yubordi.

«Buxgols ekspeditsiyasi»ga kelsak, uning qo'shini 1715-yili Toboldan Irtish bo'ylab Yorkentga yo'l oladi. Bu guruh *Yamishchev* ko'lida bo'lib, u yerda istehkom quradi. Biroq ular qalmoqlar hujumiga uchrab orqaga chekinishga majbur bo'ladilar.

1717-yili Buxoro xoni Peterburgga o'z elchisini yuboradi. Elchi *Qulibek Abulfayzxon*ning Pyotr I ga shvedlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan yozilgan qutlov maktubini topshiradi. Abulfayzxon o'z maktubida, ayni paytda, Buxoroga Rossiya elchisi yuborilishini so'ragan edi. Bunga javoban Rossiya hukumati 1721-yili *Florio Beneveni*ni elchi qilib jo'natadi. Rossiya elchisiga Sharq mamlakatlariga olib boradigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish; rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash; Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish; xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish; qayerda qancha oltin borligini aniqlash va ularni xaritaga tushirish; xonlikdagi qal'a va qo'shinlar ahvolini o'rganish hamda xonlikning Eron va Xiva bilan munosabatlarini o'rganish vazifalari yuklatilgan edi. F.Beneveni Buxoroga yetib keladi va Abulfayzxon qabulida bo'ladi.

F.Beneveni Buxoroda 3,5 yil turdi va o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'ldi. Ularni Sankt-Peterburgga ochiq va shifrlangan xat orqali jo'natib turdi. Hukumatning barcha topshiriqlarini bajargan F.Beneveni 1725-yili Peterburgga qaytib ketdi.

XVIII asrning birinchi choragida Kichik, O'rta, Katta juzga bo'lingan qozoq sultonlari o'rtasida o'zaro kurash kuchaydi. Natijada ular nochor ahvolda tushib, tashqaridan yordam so'rashga majbur bo'ldilar. 1730-yili Kichik juz sultoni *Abulxayr* Rossiyaga elchi jo'natib, Rossiya tobeligiga o'tish istagini bildiradi. 1732-yili *Kichik juz*, 1739 – 1740-yillarda Semekexon boshchiligidagi *O'rta juz*, 1747-yili *Katta juz* Rossiya tobeligiga o'tdi. Natijada Rossiya hukumati uchun Markaziy Osiyoni o'z ta'siriga bo'ysundirish yo'lida qulay imkoniyat yuzaga keldi.

1734-yili senat kotibi *I.Kirillov* boshchiligidagi harbiy guruh tayinlandi. U Orol dengizida Rossiya bayrog'ini ko'tarishi, Buxoro va undan Hindistonga boradigan yo'lni ochishi, oltin konlarini izlashni davom ettirishi lozim edi. 1735-yili Kirillov guruhi Or daryosi bo'yida *Or* qal'asini qurdi (keyinchalik bu qal'a atrofida *Orenburg* shahri vujudga keladi), Yoyiq va Irtish sohillarida (Sibirida) istehkomlar barpo etdi. Xonliklar savdogarlari Rossiya bilan Orenburgda savdo-sotiq qiladigan bo'lishdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarida Markaziy Osiyo xonliklarining ahamiyati yanada orta bordi. Bunda, birinchidan, Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalari topishga intilish, ikkinchidan, Osiyoda, xususan, Hindistonda Buyuk Britaniya ta'sirining kuchayib borayotganligi sabab bo'lgan.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida rus sarmoyasi Markaziy Osiyo bozorida yetakchi o'rinni egalladi. Ingliz mollari Rossiya orqali olib kelinar edi. *Nijegorod* yarmarkasida rus savdogarlaridan tashqari o'zbek xonliklari, Eron va Hindistondan kelgan savdogarlar ham qatnashgan. XIX asr boshlarida Rossiya o'zbek savdogarlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi, ba'zi cheklashlar bekor qilindi. Endi ular Rossiyaning ichkari shaharlariga ham borib savdo qila oladigan bo'lishdi.

16.3. XIX asr birinchi yarmida Markaziy Osiyo uchun Buyuk Britaniya – Rossiya raqobatchiligi

Raqobat sabablari. XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari o'rtasida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari hududlari uchun raqobatchilik kuchayib, keskinlashib ketdi. Raqobatchilikning kuchayishiga quyidagilar sabab bo'ldi:

Buyuk Britaniya va Rossiyaning Markaziy Osiyo hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari;

o'z mollarini sotish va undan mo'may daromad olish uchun Markaziy Osiyo bozorlarini egallash istagi;

Markaziy Osiyoning boy xomashyo manbalariga ega bo'lishga intilishlari.

Bu omillar dunyodagi ikki yirik mustamlakachi davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga olib keldi.

Hindistonda mustahkam o'rtnashib olgan ingliz mustamlakachilari o'zlari tuzgan *Ost-Indiya* (Sharqiy Hindiston) kompaniyasi orqali Markaziy Osiyo tomon siljishga urindilar. Ularning maqsadi Rossiyaning o'zbek xonliklaridagi ta'sirini yo'qqa chiqarish hamda xonliklarni o'z ta'sir doirasiga olishdan iborat edi. Buyuk Britaniya hukmron doiralari xonliklarning ichki va tashqi ahvolini, ularni bog'lab turgan yo'llarni aniqlash, xonlar bilan aloqa o'rnatish maqsadida maxsus ekspeditsiyalar yubora boshladi. Ekspeditsiyalar zimmasiga, ayni paytda, mahalliy nufuzli kuchlar bilan aloqa o'rnatish vazifasi ham yuklatilar edi.

Ingliz ekspeditsiyalari. Ingliz ekspeditsiyalaridan biri *Murkford* boshchiligida uyushtirildi. Murkford ekspeditsiyasi 1825-yil fevral oyida Buxoroga yetib keldi. Manbalarda qayd etilishicha, ekspeditsiya tarkibida 70 kishi bo'lib, ular olib kelgan 80 sandiq turli xil mollar Buxoro qo'shbegisiga ko'rsatilgan. Inglizlar Buxoro xonligini har tomonlama o'rganishga, mahalliy hukmdorlar orasida inglizlarga tarafdor guruhni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan edi.

Murkford ekspeditsiyasidan xabar topgan Rossiya hukmron doiralari tashvishga tushdilar. Natijada Rossiya hukumati Buxoro amiri Haydarga inglizlarning Buxorodagi xatti-harakatidan noroziligini bildiradi. Rossiya hukmron doiralari borgan sari Markaziy Osiyoni bosib olish kayfiyati kuchayib bordi. 1826-yili Rossiya hukumati polkovnik *F.Berg* boshchiligida Ustyurtga ekspeditsiya yuborib, Markaziy Osiyoga boradigan yo'llarni yanada aniqroq belgilab oldi. 1831-yili inglizlar Markaziy Osiyoga ikkinchi marta elchi yubordilar. Elchilarga ingliz armiyasi leytenanti *Aleksandr Byorns* boshchilik qildi.

A.Byorns 1832-yili Buxoroga kirib keldi. U o'zini *arman savdogari* deb tanitdi. Qo'lida hind va afg'on savdogarlarining tavsiyanomalari bo'lgan bu «tadbirkor» Buxoro xonligi qo'shbegisi bilan aloqa bog'lay oldi. Buyuk Britaniya hukumati Hindiston bilan Markaziy Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining kengayishiga o'zining xonliklardagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'li deb qarar edi. Shuning uchun Buyuk Britaniya hind savdogarlariga xonliklar bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishlarida katta yordam ko'rsatdi. Xususan, hind savdogarlariga qarz hamda ingliz mollari berib turildi. Bu mollar Markaziy Osiyoda Rossiya mollari narxidan arzoniga sotilar edi.

Aleksandr Byorns mamlakat hududida katta razvedka ma'lumotlari ham to'play oldi. Bu elchilik missiyasi Markaziy Osiyoda ingliz savdosining rivojlanishiga yordam berdi.

1839-yili Buyuk Britaniya Afg'onistonga qarshi harbiy harakatlar boshlaganida Rossiya – Buyuk Britaniya munosabatlari yanada keskinlashgan. Agar Afg'oniston bosib olingudek bo'lsa, navbat Markaziy Osiyoga kelishi mumkin edi. 1839-yili *Hirotda* o'z qarorgohini vujudga keltirgan ingliz razvedkasining ayg'oqchilari Markaziy Osiyo xonliklariga yuborilib turdi. Xususan, ingliz razvedkasi vakillaridan kapitanlar *Jeyms Ebbot*, *Charlz Stoddart*, *Konolli*, *Richard Shekspir Xiva*, Buxoro, Qo'qon xonliklariga kelib harbiy, siyosiy, iqtisodiy masalalarda ma'lumotlar to'plab, o'z rahbarlariga yetkazishardi.

Inglizlarning Markaziy Osiyodagi harakatlaridan tashvishga tushib qolgan Rossiya 1839-yili Xiva xonligiga qarshi harbiy yurish boshladi. Bu yurishga Orenburg gubernatori *V.A.Perovskiy* rahbarlik qilgan edi. Biroq urush qatnashchilarining o'zini sovuqqa oldirishi, oziq-ovqat, yem-xashakning tugab borishi oqibatida orqaga qaytadi. Bu yurish muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Markaziy Osiyo xonliklari va Rossiya munosabatlarining keskinlashuvi. Markaziy Osiyo xonliklari va Rossiya munosabatlarining keskinlashuviga podsho Rossiyasining Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini mustahkamlash yo'lidagi harakatlari sabab bo'ldi. Xususan, 1847-yili Rossiya xonliklarga olib boradigan yo'lda ikkita istehkom qurdi. Ularning biri – Aralsk shahri yaqinida barpo etilgan (Sirdaryo o'zani yaqinida) *Raim* istehkomi, ikkinchisi Yettisuv Olatog'idagi *Kopal* istehkomi edi. Bu istehkomlar Rossiya olib borgan siyosatda harbiy yo'l bilan Markaziy Osiyoni ishg'ol etish tomon burilish ro'y berganligining yaqqol isbotidir. Bu hol Markaziy Osiyo xonliklarini tashvishga solib qo'ydi. Shuning uchun Xiva xoni Orenburgga o'z vakillarini yubordi. Xon o'z maktubida yaxshi qo'shnicilik o'rnatish hamda do'stona yashash istagini bildirgan va Raim istehkomini buzib tashlashni iltimos qilgan edi. Xiva elchilari 1847-yili Peterburgda podsho qabulida bo'lgan bo'lsalar-da, ko'zlangan maqsadga erisha olmadilar.

- Xiva xonligining qurol kuchi bilan istehkomni yo'q qilish yo'lidagi urinishlari natija bermadi. Chunki rus garnizoni yaxshi qurollangan edi. Bu paytda Qo'qon – Rossiya munosabatlari ham keskinlashgandi. Qo'qon xoni Xudoyorxon ham yangi istehkomlar qurilganligidan tashvishga tushib qolgandi. Natijada Xudoyorxon Rossiyaga elchi yuboradi. Podsho nomiga yo'llangan maktubda Xudoyorxon *Nikolay I* ga Qo'qon xonligida jamoat tartibi tiklanganligini, savdo yo'llari yaxshi qo'riqlanayotganligini, rus savdogarlari uchun hech qanday xavf-xatar yo'qligini bildirgan. Ayni paytda, Raim istehkomi qurilganligidan norozi ekanligini ma'lum qilgan.

Nikolay I o'z javob maktubida Qo'qonda tartib o'rnatilganligidan mamnun ekanligini bildirgan, biroq Raim istehkomi buzilmasligini tasdiqlagan. Podsho o'z fikrini Raim istelikomining, avvalo, Rossiya hududida qurilganligi bilan, ikkinchidan, bu istehkom u qurilgan hududda tartib va tinchlikni, savdo karvonlari osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qilayotganligi bilan «asoslagan». Tez orada Qo'qon qal'asi bo'lgan Oqmasjidni Rossiya bosib olishni mo'ljallayotgani ma'lum bo'lgach, Rossiya – Qo'qon munosabatlari yanada keskinlashdi.

Yuqorida qayd etilganlar ertami-kechmi Rossiyaning Markaziy Osiyo xonliklariga qarshi bosqinchilik yurishi boshlashi muqarrar ekanligini ko'rsatar edi.

Markaziy Osiyo xonliklarining Rossiyaga qarshi turishda Buyuk Britaniyaga suyanishi mumkinligi ehtimoli ham o'zini oqlamadi. Bunga Rossiya – Buyuk Britaniya munosabatlarida o'zgarish yuz berganligi sabab bo'lgan edi. Afg'onistonga qarshi urushda mag'lubiyatga uchragan Buyuk Britaniya Rossiya bilan kelishishga qaror qiladi. Bu kelishuvga binoan Rossiya Markaziy Osiyo bilan cheklanadi, Hindistonga chiqish niyatidan voz kechadi. Buyuk Britaniya esa Rossiyaning Markaziy Osiyoda olib borgan siyosatiga qarshilik qilmaydigan bo'ladi. Afg'oniston esa Buyuk Britaniya va Rossiyaning Osiyodagi mustamlakalari o'rtasida ularni ajratib turuvchi hudud sifatida e'tirof etiladi.

Markaziy Osiyo xonliklari endilikda yakkalanib qolib, ularni faqat o'zaro ittifoqliklarigina saqlab qolishi mumkin edi. Afsuski, ular o'rtasidagi o'zaro ziddiyat shu darajada kuchli ediki, hatto tashqi hujum xavfi ham ularni birlashtira olmadi. Oqibati yomon bo'ldi. Xonliklar Rossiya istilosi qurboni bo'lishiga yo'l ochildi.

16.4. O'zbek xonliklarining taraqqiyotda orqada qolish sabablari va oqibatlari

Jahon taraqqiyotidagi o'zgarishlar. G'arbiy Yevropaning ilg'or mamlakatlari sanoat ishlab chiqarishning yetakchi tarmog'iga aylanib bordi. XVI asrning o'rtalaridan boshlab to'qimachilik, qog'oz, shisha ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti va qo'l hunari texnikasiga asoslangan korxonalar – manufakturalar (lotincha, manus – qo'l, faktura – tayyorlash) vujudga keldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida asbob-uskunalar harakatga keltiruvchi bug' mashinasi (motor) ixtiro qilindi. Natijada asosiy ishlarni mashinalar bajaruvchi fabrika-zavodlar paydo bo'ldi.

Bug' mashinasi bilan harakatlanuvchi parovoz, paroxod, cho'yan va po'lat oluvchi domna pechlari yaratildi, temir yo'llar qurildi.

Yirik boy tabaqalarning tashqi savdodan, mustamlakalardan, manufakturalardan orttirgan boyliklari sanoatni rivojlantirish uchun sarmoya sifatida qo'yildi. Bu sanoatning rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Eng muhimi, xo'ja-

lik yuritish uchun zarur bo'lgan mashinalarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, og'ir sanoat vujudga keldi.

Biroq bu jarayon jahon mamlakatlarida nihoyatda notekis bordi. Ko'pgina mamlakatlar, jumladan, o'zbek xonliklari ham bu jarayondan chetda qolib, taraqqiyotda orqada qolib bordi.

Qoloqlik sabablari. Asrlar davomida bir butun bo'lib kelgan mamlakatning, bir iqtisodiy va ma'naviy-madaniy makonda yashab kelgan aholining uch xonlikka bo'linib ketishi, xonliklar o'rtasida tinimsiz davom etgan qarama-qarshiliklar, urushlar mamlakatni umumbashariy taraqqiyot jarayonidan uzilib, rivojlanishda orqada qolishga mahkum etdi. Har bir xonlik ichidagi hokimiyatni egallash uchun ichki kurash, o'zaro nizo-janjal, ig'volarning avj olishi viloyat va tumanlar, qolaversa, butun mamlakatni xonavayron qilardi.

Xonliklarning asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan davlat idora usuli taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgan edi.

Xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar, etnik nizolar urug'-qabila jamoalarining bir joydan boshqa joylarga ko'chishini keltirib chiqarardi. Yoki ular zo'rlik bilan yashab turgan joylaridan ko'chirilar edi. Bu jarayon etnik guruhbozlikni keltirib chiqarardi, aholining bir butun xalq bo'lib jipslashishiga xalaqit berardi. Davlat darajasida ham, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi. Odamlarni, Turkistonni, xalqni bir-lashtirish g'oyasi ostida uyushtira oladigan yo'l boshchi, siyosiy kuch topilmadi.

Xonlar va saroy amaldorlari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga xalaqit berayotgan eski ishlab chiqarish usulini himoya qilardi. Xonliklarning asosiy boyligi bo'lgan yerga egalik qilishning, mulkchilikning eski usuli asrlar davomida o'zgarmasdan kelardi. Yerning egasi xon edi, xonga alohida xizmat ko'rsatgani uchun bir hovuch kishilarga yer hadya qilinardi. Yerni ijaraga olib ishlovchi dehqon yerning egasi emasdi. Shu boisdan dehqon yerni asrab-avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intilmasdi, manfaatdor emasdi. Dehqon yer egasi bo'lmagani sababli boshqa joylarga ketaverardi.

Aholi og'ir soliqlardan, g'ayriqonuniy yig'im va majburiyatlardan azob chekardi. Turmush darajasi past bo'lib, aholi iste'mol uchun eng zarur bo'lgan tor doiradagi oddiy buyum va mahsulotlar bilan qanoatlanishga majbur edi. Ishlab chiqarish asosan iste'molga yo'naltirilgan, iqtisodiyotning o'sishi uchun turtki bo'lolmasdi.

Dehqonchilik nochor ahvolda edi. Yerga ishlov berish o'sha-o'sha – bir juft ho'kiz, so'qa-omoch darajasida qolib ketgan edi. Sug'orish ishlariga ahamiyat pasayib, sug'oriladigan yer maydonlari qisqarib borardi. Xonliklarda sanoat ishlari rivojlantirilmadi. Rangli metallar, oltingugurt, marmar, toshko'mir, neft kabi tabiiy boyliklarga mo'l konlar bo'lsa-da, ularni izlab

topish, tog'-kon ishlarini yo'lga qo'yishga e'tiborsizlik qilindi. O'lkada yirik daryolar bo'lsa-da, baliqchilikni sanoat darajasiga ko'tarish, kemasozlikni yo'lga qo'yishga e'tibor berilmadi.

Tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Savdoda hamon mol ayirboshlash davom etardi. Markaziy Osiyo jahon bozorida ajralib qolgani ustiga o'zaro urushlar tufayli xonliklar o'rtasida yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi.

Qoloqlikning oqibatlari. O'zbek xonliklarining jahon taraqqiyotidan orqada qolishining oqibati yomon bo'ldi. Iqtisodiy qoloqlik va harbiy nochorlik, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik Markaziy Osiyoni o'z tasarrufiga kiritib olishga intilayotgan davlatlarga qo'l keldi.

Xonliklardagi o'zaro nizo va urushlar, parokandalik oxir-oqibat ularning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi uchun qulay imkoniyat yaratdi.

17-BOB. XIX ASR O'RTALARIDA O'ZBEK XONLIKLARINING SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

17.1. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi

O'rta Osiyo davlatlarining hududi. XIX asrda O'rta Osiyoda uchta mustaqil davlat mavjud bo'lib, bular Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari edi. Bu davlatlarda ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, savdo-sotiq va boshqa sohalar rivojlangan bo'lsa-da, biroq ularning taraqqiyoti ilg'or Yevropa davlatlari darajasidan past edi.

Amirlik poytaxti islom dini markazlaridan biri bo'lib, «Buxoroyi Sharif», ya'ni «Muqaddas Buxoro» nomiga ega bo'lgan. Amirlik chegaralari janubda Amudaryoning chap qirg'og'idan boshlanib Sirdaryogacha, sharqda Pomir tog'laridan g'arbda Xiva xonligi yerlarigacha cho'zilgan. Davlat hududi XIX asrning o'rtalarida Eron, Afg'oniston, Qo'qon va Xiva xonliklari, qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo'lgan. Amirlikning markaziy qismi Buxoro va Samarqand shaharlari joylashgan *Zarafshon vodiysi* hisoblangan. Amirlikda *Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Ko'lob* kabi yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy markazlar hisoblangan shaharlar ham mavjud edi. Unga hozirgi Tojikistondagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj daryolari vodiysidagi yerlar, Turkmanistondagi Murg'ob daryosi vohalaridagi joylar qarashli bo'lgan. Shu bilan birga, hududiy jihat-

dan beklik va tumanlarga bo'linib, ularni amir tomonidan tayinlangan *beklar* boshqargan. Amirlikda 27 ta beklik bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligi yerlari janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh bo'lgan. Xonlikning ma'muriy markazi Xiva shahri hisoblangan. Xonlikda Xiva, Kat, Yangi Urganch, Hazorasp, Qo'ng'iroq, Xo'jayli kabi beklarning markazlari bor edi. Xiva xonligi 18 ta beklik, 2 ta noiblikka bo'lingan va ularni xon tomonidan tayinlangan *beklar* va *to'ralar* boshqargan.

XVIII asrning boshlarida, asosan, Farg'ona vodiysi va Sirdaryoning quyi qismigacha bo'lgan hududlar Buxoro amirligidan ajrab, mustaqil davlat – Qo'qon xonligi tashkil topadi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan. Xonlikda Qo'qon, Toshkent, Andijon, Marg'ilon, Namangan, O'zgan, O'sh, Pishpak, Turkiston, Chimkent kabi ma'muriy, savdo-sotiq va madaniy markazga aylangan shaharlar bo'lgan. Xonlikning hududi, Buxoro amirligi va Xiva xonliklaridan farqli o'laroq, sersuv daryolar, so'lim vodiylar, serhosil yerlarga boy bo'lgan. Xonlik 15 ta beklikka bo'linib, ularni asosan xon tomonidan o'z qarindoshlari va yaqinlaridan tayinlangan kishilar boshqargan.

O'rta Osiyo davlatlarining aholisi. XIX asr o'rtalariga kelib Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari aholisining etnik tarkibi bir-biriga yaqin bo'lib, ularda asosan o'zbeklar yashagan. Shu bilan birga, uchala xonlik hududlarida tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, qirg'izlar ham istiqomat qilgan. Jumladan, bu davrda Buxoro amirligining aholisi soni 2 million atrofida bo'lib, aholining etnik tarkibi asosan o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlardan tashkil topgan. Aholining asosiy qismi sersuv vohalarda yashagan. Amirlikda *mang'it*, *saroy*, *qo'ng'iroq*, *kenagas*, *qarluq*, *qalmoq*, *nayman*, *qipchoq* kabi o'zbek urug'lari ko'pchilikni tashkil qilgan.

Xiva xonligida aholi soni 800 ming kishidan ortiq bo'lgan. Xonlik aholisining etnik tarkibi, asosan, o'zbeklardan, bundan tashqari, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqalardan tashkil topgan.

Qo'qon xonligida aholi soni 3 millionga yaqin bo'lib, asosan, o'zbeklardan iborat bo'lgan. Shu bilan birga, u yerda qirg'izlar, tojiklar, qozoqlar, uyg'urlar, yahudiylar, hindlar va boshqa elat vakillari ham yashagan.

Bu davrda uchala davlatda ham aholining asosiy qismini tashkil qilgan o'zbeklar o'troq turmush tarzida hayot kechirib, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar va qirg'izlar esa ko'chmanchi turmush kechirib, asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan.

17.2. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi

Buxoro amirligining davlat boshqaruvi. Buxoro amirligida oliy hukmdor *amir* hisoblanib, uning hokimiyati avloddan avlodga merosiy tarzda o'tgan. Amirlikni *mang'itlar* sulolasiga (1756 – 1920) mansub cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan hukmdorlar boshqargan.

Buxoro shahri amirlikning ma'muriy markazi edi. Amirlikda ijro hokimiyati bosh vazir – *qo'shbegi* qo'lida bo'lgan. Viloyat va tuman hokimlari *qo'shbegi* tavsiyasi bilan tayinlangan. Moliya va xazina ishlari, soliqlar to'planishi kabi sohalarni *devonbegi* idora qilgan. *Devonbegiga* tashqi aloqalarni yuritish ham yuklatilgan. Unga amirlik hujjatlarini yuritishga mas'ul *mirzaboshi* bo'ysungan. Amirlikda soliqlarni o'z vaqtida yig'ish va ularni hisobga olib borishga javobgar kishi *mushrif* hisoblangan. *Dodxoh* lavozimini egallab turgan shaxs xalqning shikoyatlari bilan shug'ullangan. Oliy hukmdor farmonlarini *parvonachi* e'lon qilgan. Shariat qoidalari va qonunlar ijrosi, sud ishlarini nazorat qilishni *shayxulislom* bajargan. Shayxulislomga bo'ysungan *muftiy* diniy-huquqiy masalalar bilan, *muhtasiblar* esa shariat qoidalarining bajarilishi va amal qilinishi masalalari bilan shug'ullangan. Buxoro amirligida sud boshlig'i *qozikalon*, *raiskalon* hisoblangan. Vaqf ishlari va mulklari bilan *sadr* shug'ullangan. Amir qarorgohi hisoblangan arkda taxt vorisi – valiahd tarbiyasi bilan *otaliq* mashg'ul bo'lgan. *To'pchiboshi* amir qo'shinlarining bosh qo'mondoni bo'lgan. Amirlikning shaharlarida tinchlik va tartibni saqlashga amir soqchilari boshlig'i – *mirshabboshi* mas'ul hisoblangan. *Ko'kaldosh* mamlakat xavfsizligi, amirning yaqinlari, do'stlari va dushmanlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullangan. Buxoro amirligida davlat boshqaruvi, moliya, sud, mirshablik va harbiy ishlar amirning qarindoshlari, o'ziga yaqin odamlar tomonidan boshqarilgan. Ular o'z faoliyatlarini bajarishda katta huquq va imtiyozlarga ega bo'lganlar.

Xiva xonligining davlat boshqaruvi. Xiva xonligi *qo'ng'irotlar* sulolasi (1770 – 1920) tomonidan boshqarilib, uning oliy hukmdori *xon* hisoblangan. U cheklanmagan ma'muriy, harbiy hokimiyatga ega bo'lgan.

Oliy hukmdor hisoblangan xon qarorgohi Xiva shahrida joylashgan. Bu shaharda ichki – Ichan qal'a va mudofaa devori bilan o'ralgan tashqi – Disheshan qal'a mavjud bo'lgan. Xonlikda Xiva, Urganch, Qiyot, Hazorasp, Qo'ng'irotlar kabi shaharlar ma'muriy, savdo-sotiq va madaniy markazlar hisoblangan. Xonlikda oliy amaldor *devonbegi* hisoblanib, uning ixtiyorida *qo'shbegi*, *mehtar*, *otaliq*dan iborat kengash faoliyat ko'rsatgan. Aholining tinchligi va osoyishtaligi bilan *mirshabboshi*, xonlikdagi tartib-intizom ishlariga xon qo'shinlarining bosh qo'mondoni – *yasovulboshi*, diniy ishlar va shariat qoi-

dalariga rioya etilishi va amal qilinishi masalalariga *shayxulislom*, sug'orish inshootlari va suv ta'minoti hamda taqsimotiga *mirobbohi* mas'ul hisoblangan. Harbiy bo'linmalarga *lashkarboshilar* qo'mondonlik qilgan. Askarlik xizmatida bo'lganlar soliqlardan ozod qilingan.

Qo'qon xonligining davlat boshqaruvi. Qo'qon xonligida oliy hukmdor *xon* hisoblangan. Xonlik *minglar* sulolasi (1710 – 1876) tomonidan boshqarilgan va uning ma'muriy markazi Qo'qon shahri bo'lgan. Qo'qon xon hokimiyati merosiy hisoblanib, xon cheklanmagan siyosiy, ma'muriy va harbiy hokimiyatni o'z qo'lida mujassamlashtirgan. Eng yuqori harbiy lavozim *amirlashkar* bo'lib, u harbiy vazir hisoblangan. Xonlikdagi alohida harbiy bo'linmalarga *mingboshilar* rahbarlik qilgan. Ular keyinchalik bosh vazir vazifasini bajargan. Xazina ishlari va xarajatlarini *mehtar* nazorat qilib borgan. *Qozikalon*, *qozilar* islom dini qoidalarini asosida sud ishlarini olib borganlar. *Muhtasib-raisar* diniy ishlar, shariat qoidalariga rioya qilinishi, savdo-sotiqning to'g'ri yuritilishini nazorat qilganlar. Xonlikdagi tartib-intizom ishlari bilan *mirshablar* shug'ullangan.

17.3. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti

Yer egaligi va soliq tizimi. XIX asrda O'rta Osiyo xonliklari agrar davlatlar edi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yerga egalik tartiblari qandayligi, to'lanadigan soliq va to'lovlarning miqdori bilan belgilangan. Bu davrda yerlarning asosiy qismi, ayniqsa, ekin maydonlari xon, uning qarindosh va yaqinlari hamda bir qancha katta yer egalari qo'lida bo'lgan. Aholining ak-sariyati katta yer egalari tegishli ekin maydonlarida mehnat qilib, ijaraga olgan yerlari uchun hosilning bir qismini (ko'p hollarda hosilning 1/5 yoki 1/3 qismini) *xiroj* sifatida to'laganlar.

Xiva xonligida ijaraga yer olgan dehqonlar *yarimchi* deb atalgan. Chunki ular olingan hosilning yarmini ijara haqi qilib to'lagan. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida yerga egalik qilish shakllari deyarli bir xil edi. Ular uch turdagi yer egaligidan iborat bo'lib, *amlak* – davlat yerlari, *mulk* – xususiy yerlar, shuningdek, masjid va madrasalar, diniy muassasalarga qarashli *vaqf* yerlari hisoblangan. Xonliklardagi yirik amaldorlar, harbiy sarkardalarga davlat tomonidan yerlar in'om etilgan. Vaqf yerlaridan olinadigan foydaning hisob-kitobi va taqsimoti bilan *mutavalli* shug'ullangan. Aholi soliq va to'lovlarni mahsulot yoki pul ko'rinishida to'lagan. Bundan tashqari, sug'orish inshootlari, yo'llar, ko'priklar qurish va ularni ta'mirlash kabi ishlarni majburiyat tarzida bajarganlar. Mehnat majburiyati aholining ishlab berishi bo'lib, u *begar* deb ham nomlangan.

Bu davrda aholidan *xiroj, zakot, suv, tegirmon, tuz, mulk, tomorqa, bog' solig'i* va boshqa soliqlar yig'ilgan. Xiva xonligida asosiy soliq *solg'ut* deb atalgan. Harbiy majburiyatda har bir erkak kishi oziq-ovqati, qurol-aslahasi bilan birga qatnashishi kerak bo'lgan. Chorvador aholi chorva mollaridan zakot solig'i, yaylov va suvdan foydalangani uchun ham soliqlar to'lagan. Shaharlar aholisi – hunarmand va savdogarlardan *savdo puli, do'kon puli, tarozi puli* kabi soliqlar olingan.

Sug'orish tizimi va tartiblari. O'rta Osiyo hududi va uning iqlimi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga qulay bo'lgan. Bu soha taraqqiyoti sug'orish ishlarining holati va suv ta'minotining qay darajada ekanligiga bog'liq edi. Shuning uchun sug'orish va suv ta'minoti sohasi O'rta Osiyoda muhim hamda davlat ahamiyati darajasiga ko'tarilgan. Qolaversa, xazinaga tushadigan asosiy daromadni dehqonlardan yig'iladigan soliqlar tashkil qilgan.

Har bir hududda aholi va ma'muriyat vakillari sug'orish sohasiga mas'ul va javobgar bo'lgan. Sug'orish ishlarini yuritish va nazorat qilish bilan bu sohaning mutaxassisleri – *miroblar* shug'ullanganlar. Ular sug'orish ishlari, suv inshootlarining qurilishi, ta'minoti, ta'mirlanishi, tozalanishi, suv taqsimotini yaxshi bilgan kishilar bo'lgan. O'rta Osiyoda sug'orish tizimi qadimdan rivojlanib kelgan soha hisoblanadi. Mazkur ishlar asosan hashar yo'li bilan bajarilgan.

Aholisi asosan sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan Farg'ona vodiysida sug'orish tizimiga katta e'tibor qaratilgan. Vodiy hududida yirik sug'orish inshootlari – *Shahrixonsoy, Andijonsoy, Marg'ilonsoy, Yangiariq, Ulug'nor, Qoradaryo* kabilar bo'lgan. Suv chiqishi qiyin bo'lgan joylarga maxsus qurilmalar – chig'irlar yordamida suv chiqarilgan. Amudaryo, Sirdaryo suvlari turli sun'iy sug'orish tizimlari – kanallar hamda uning bo'ylariga qurilgan to'g'onlar orqali ekin maydonlariga yetkazilgan. Bu hududda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, asosan, paxta va donli ekinlar tashkil qilgan. Bundan tashqari, bog'dorchilik, uzumchilik, poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq. O'rta Osiyo xalqlari hayotida hunarmandchilik muhim o'rin egallab, aholining dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan qatlami hayoti ham bevosita hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan. Chunki har bir dehqon va chorvador hunarmandchilik buyumlaridan foydalangan holda mehnat qilgan, ayni vaqtda, ular hunarmandchilikning turli sohalarini uchun xomashyo yetkazib bergan. Savdogarlar esa hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo-sotiq qilgan. O'rta Osiyo davlatlarida ko'plab hunarmandchilik markazlari mavjud bo'lib, ular mahalliy xususiyatlariga ko'ra turli hunarmandchilik sohalariga ixtisoslashgan. Masalan, *Marg'ilon*da atlas to'qish, do'ppichilik, *Rishtonda* kulolchilik, *Shahrixonda* pichoqchilik, do'ppichilik, duradgorlik,

Chustda ham do'ppichilik, pichoqchilik, *Qo'qonda* temirchilik, duradgorlik, zargarlik, *Buxoroda* zargarlik, *Samarqandda* zargarlik, *Xivada* me'morchilik, ganchkorlik rivojlangan. Buxoro amirligida bu davrda kulolchilik, temirchilik, miskarlik, zardo'zlik, shishasozlik, kandakorlik, badiiy kashtachilik sohalari ham keng tarqalgan. Xonliklarda temir mahsulotlariga ehtiyoj katta bo'lganligi bois metallga ishlov beruvchi mahalliy temirchilik sohasi rivojlangan. Hunarmandlar tomonidan, asosan, mehnat qurollari, xususan, dehqonchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, kiyim-kechaklar, zeb-ziynatlar, idish-tovoqlar, chorvadorlar foydalanadigan buyumlar tayyorlangan.

O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida azaldan hunarmandlarga hurmat bilan qaralgan, hunar egallash va bu kasbga munosib bo'lish yaxshi fazilat hisoblangan. Xalq orasida «Hunardan unar», «Yigit kishiga qirq hunar ham oz», «Hunari bor kishi xor bo'lmas» kabi hikmatli so'zlar bejiz tarqalmagan.

Hunarmandchilik xonadon va kasanachilik ko'rinishidagi mayda ustaxonalardan iborat bo'lib, unda asosan qo'l mehnatidan foydalanilgan. Hunarmandchilik mahsulotlari mahalliy aholi ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki savdogarlar tomonidan chetga ham olib borilgan. O'rta Osiyo savdogarlari Eron, Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Rossiya davlatlari va qozoq juzlari bilan savdo-sotiq qilganlar. Xorijda hunarmandlarning zargarlik mahsulotlari, shoyi va atlas matolari, kulolchilik buyumlari yuqori baholangan.

Bu davrda O'rta Osiyodagi ichki va tashqi savdoning yanada jadal rivojlanishiga uchta davlat o'rtasidagi kelishmovchiliklar, ichki nizolar va notinchiliklar salbiy ta'sir ko'rsatgan.

17.4. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo aholisining madaniy hayoti

Xalq ijodiyoti. Xonliklardagi aholining aksariyati o'zbek tilida so'zlashgan. Bu tilda oliyhimmat qahramon va bahodirlarning jasorati, ularning g'alabalari va adolat uchun kurashlari sharaflangan xalq dostonlari – qahramonlik eposlari keng tarqalgan. XIX asrda qirqqa yaqin doston ma'lum bo'lib, «*Alpomish*», «*Go'ro'g'li*», «*Kuntug'mish*», «*Shirin va Shakar*» dostonlari ularning eng mashhurlari edi. Xalq baxshilari tomonidan bayramlar, xalq sayillarida sadoqatli do'stlik va chin muhabbatni ulug'lovchi «*Tohir va Zuhra*», «*Bo'z yigit*» dostonlari kuylangan.

Aholi orasida xalq og'zaki ijodiyoti katta o'rin egallagan. Ularda amaldorlarning illatlari, saroy a'yonlarining nuqsonlari va ochko'zligi kulgi ostiga olinar edi. Ba'zi insofsiz amaldor va boylar qoralangan hamda mehnatkash xalqning olijanoblighi, mardligi madh etilgan. Dostonlarda ko'pincha ezgu-

likning yovuzlik ustidan g'alabasi g'oyasi yetakchilik qiladi. Ularda xalqni zolimlardan himoya qilish, noinsof beklar va xonlarni fosh etish, oddiy kishilarga nisbatan mehr-muruvvat kabilar aks etgan. O'zlari mavzular to'qib, ularni o'zlari ijro etgan qiziqchilar va askiyachilar ham o'zbek adabiyoti, folklorining rivojiga salmoqli hissa qo'shganlar. Har yili bahorda shahar va qishloqlar atroflaridagi bog'lar va chorbog'larda, qir-u adirlarda xalq sayillari o'tkazilar edi. Xalq sayillarida sayyor sirk truppalari bozor maydonlarida o'z tomoshalarini ko'rsatib, aholini xushnud qilgan. Polvonlar o'rtasida kurash musobaqalari o'tkazilgan. Novvoyxonalar, choyxonalar, oshxonalar ochilib, ularda milliy taomlar tayyorlanar, hofizlar, mashshoqlar kuylar, ko'zboyloqchilar, dorbozlar, hayvon o'ynatuvchilar, qo'g'irchoq teatrlari tomoshalar ko'rsatar, askiyachilar davrada o'zaro musobaqalarda bellashgan.

Yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi uchala davlat aholisi uchun yagona bo'lgan xalq madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadi. Xalq madaniyati siyosiy jihatdan inqirozli davrda ham rivojlanib borgan.

Ilm-fan, Adabiyot. Bu davrda Xiva va Qo'qon xonliklari, Buxoro amirligida ilm-fan ma'lum darajada rivojlangan. Xiva xonligida *Eltuzar* (1804 – 1806) farmoyishi bilan *Shermuhammad Munis* Xorazmning 1812-yilga qadar bo'lgan tarixini yozgan. Uning asl ismi *Shermuhammad amir Avazbiy* o'g'li bo'lib, tarixchi, ayni paytda, shoir, tarjimon, xattot, ma'rifatparvar bo'lgan. U 1819-yili Mirxondning «*Ravzat us-safo*» («Soflik bog'i») tarixiy asarini o'zbek tiliga tarjima qilishni boshladi va asarning 1-jildini tarjima qilishga ulgurd. Uning «*Firdavs ul-iqbol*» («Baxtlar bog'i») asarini va «*Ravzat us-safo*» tarjimasini shogirdi va jiyani Ogahiy nihoyasiga yetkazdi. Ogahiyning asl ismi *Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li* bo'lib, 1809 – 1874-yillarda yashagan. 16 ta tarixiy, ma'rifiy, tarjima asarlar muallifi. U arab, fors, turk tillarini puxta bilgan va Xorazmning 1812 – 1872-yillardagi tarixiga bag'ishlangan asar yozgan. Xiva xonligi tarixiga oid «*Riyoz ud-davla*», «*Zubdat ut-tavorix*», «*Gulshani davlat*», «*Shohidi iqbol*» nomli asarlar yozgan. Ogahiyning xalqparvarligi va xalq holiga befarq emasligi uning «*Qish*» g'azalida o'zining yorqin ifodasini topgan. Ogahiy she'riyati, tarixnavislik va tarjimonlik faoliyati O'rta Osiyo hududidagina emas, balki XIX asr Sharq dunyosi madaniy hayotida chuqur iz qoldirdi.

Buxoro amirligida ham bir qator ilm-fan namoyandalari yetishib chiqdi. Ulardan biri yozuvchi, faylasuf, musavvir, ma'rifatparvar *Ahmad Donish* edi. U Buxoro amiri Nasrulloning elchilari bilan 1857-yili Moskva, Peterburg va boshqa Rossiya shaharlari bo'ylab sayohat qilgan. U «*Buxorodan Peterburgga sayohat*», «*Buxoroyi sharif mang'it amirlari muxtasar tarixi*», «*Navodir ul-vaqoye*» («Nodir voqealar») asarlarining muallifidir. Ahmad Donish 1865-yili amir Muzaffar taklifi bilan «*Manozir ul-kavokib*» («Sayyoralarning joylanish-

lari») nomli astronomiyaga oid kitob yozgan. U faqat Buxoro amirligi emas, balki O'rta Osiyoning boshqa xonliklarida ham eng ko'zga ko'ringan madaniyat arbobi sifatida tanilgan edi.

XIX asr boshlarida amir Umarxon hukmronlik qilgan davrda Qo'qon xonligida markazlashgan hokimiyat o'rnatilishi, savdo-sotiq munosabatlarining tartibga solinishi, xonlikdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ilm-fan rivojida muhim o'rin tutdi. Xon saroyida o'zbek milliy madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan namoyandalar ko'paydi.

Saroyda tarixnavislik, adabiyot, xattotlik rivojlandi. Saroy tarixchisi *Muhammad Yunus* tomonidan 1859-yili yozilgan «*Xudoyqul anvar*» asarida Muhammad Alixon davri tarixi voqealari batafsil yoritilgan. Xonlikdagi eng mashhur xattot *Turdi Ali* bo'lgan. Xonlik o'rdasi qurilgach, Xudoyorxon saroy devorlaridagi xattotlik ishlarini bajarishni ikki shaxsga – *Turdi Ali* va *Mirzo Mahmudga* topshirgan. Turdi Alining xon saroyidagi nufuzi baland bo'lgan va ba'zi madaniy tadbirlarda xon undan maslahatlar olgan.

Me'morchilik. XIX asrda ham O'rta Osiyo davlatlari shaharlarida qurilish ishlari rivojlangan. Ayniqsa, Xiva xonligida XIX asr o'rtalariga borib qurilish ishlari avj oldi. Bu davrda Xiva va boshqa shaharlarda ko'plab imoratlar – saroy, bozor, madrasa, masjid, xonaqoh kabi inshootlar qurildi. Oллоhqulixon madrasasi, Rahmonqul Inoq saroyi, Ichan qal'adagi Muhammad Aminxon madrasasi (1851 – 1855), Ark darvozasi qarshisida Muhammad Rahimxon madrasasi (1871) bugungi kunda ham Xiva shahrining ko'rki hisoblanadi. Ularning devorlari o'sha davr Xorazm me'morchiligiga xos usulda, tiniq zangori rang ustidan oq va yashil gullar tushirilgan koshinlar bilan bezatilgan.

Qo'qon xonligida bu davrda Hazrati Kalon Sohibzoda madrasasi (1862), Hokim Oyim madrasasi (1869 – 1870), Sulton Murodbek madrasasi (1872) qurib bitkazilgan. Ularning ichida XIX asr ikkinchi yarmi noyob arxitektura yodgorligi hisoblangan yuzdan ortiq xonadan iborat Xudoyorxon saroyi (1863 – 1870) alohida o'rin tutadi. U o'zining bezaklari, naqshlari rang-barangligi, yorqin jilosi bilan ajralib turadi.

Xonlikning yirik markazi Toshkentda XIX asrning o'rtalarida qadimiy inshootlardan Hazrati Imom majmuasini, 1859-yili Baroqxon madrasasini ta'mirlash ishlari boshlanadi. Shu davrda Baroqxon madrasasi qarshisidagi Mo'yi muborak madrasasining (XX asr boshida) qurilishi yakunlangan. Tillashayx jome masjidi singari inshootlar bunyod etildi.

Bu vaqtga kelib Buxoro amirligi me'moriy qiyofasida ham o'zgarishlar so'dir bo'ldi. Shahar va qishloq aholisi yashaydigan turarjoylar va mahalla g'zarlaridagi qurilishlar joylarni yanada obod va ko'rkam qildi. *Kufiy, rayhoniy, nasta'liq* yozuv uslublaridan binolarni bezashda foydalanish davom ettirildi.

O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining o'ziga xosligi. Bu davrda ikki tilda (zullisonayn), ya'ni o'zbek va fors tillarida ijod qilingan. Ayni mahalda, bu madaniyatda o'zbek adabiyotining ulug' namoyandalari, ayniqsa, Alisher Navoiy asos solgan insonparvarlik va demokratik an'analar muhim o'rin tutgan.

O'rta Osiyo xalqlarining mushtarak tarixi mustahkam do'stlik zaminiga qurilgan edi. Minglab she'rlar, g'azallar va og'zaki rivoyatlar og'izdan og'izga o'tib, bahodir yigitlar jasoratini madh etar, botirlar va pahlavonlar haqida kuylar, sadoqat, mardlik, do'stlik va muhabbat haqidagi dostonlar odamlarda ishonch, o'zaro hurmat tuyg'ularini uyg'otib, ezgulikka da'vat etardi.

18-BOB. ROSSIYA IMPERIYASINING O'RTA OSIYONI BOSIB OLISHI

18.1. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi

Bosib olish uchun tayyorgarlik. Rossiya imperiyasi tashqi siyosatida o'z chegaralarini sharqqa tomon kengaytirish uchun dastlab Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari bilan har tomonlama aloqalar o'rnatishga harakat qildi. Bunda, eng avvalo, xonliklar to'g'risida ko'proq ma'lumotlar to'plash maqsadida o'z elchilarini bu yerlarga jo'natdi. Pyotr I hukmronligi davridayoq *Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy* boshchiligidagi harbiy ekspeditsiya jo'natilgan. Ammo bu ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlikka uchragandan so'ng podsho hukumati harbiy istehkomlar qurishga kirishdi. 1718-yili Irtish daryosi sohilida shunday istehkomlardan *yettitasi* qurib bitkazildi.

Sayyoh, savdogar, elchilar sifatida yuborilgan ayg'oqchilar tomonidan O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy ahvoli, suv va quruqlikdagi yo'llari to'g'risida ma'lumotlar yig'ib borildi. XIX asrda Rossiya imperiyasining sanoat xomashyosiga bo'lgan ehtiyojining ortishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlari uchun qo'shimcha iste'mol bozorlarining zarurligi, to'qimachilik sanoati uchun arzon paxta tolasi yetkazib beradigan hududga ega bo'lish muammolari O'rta Osiyoning bosib olinishini yanada tezlashtirdi. Shuning uchun XIX asr o'rtalarida bu hududni bosib olish Rossiya imperiyasining birinchi navbatdagi vazifasiga aylandi. Bundan tashqari, xalqaro doirada ingliz tovarlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi, Angliyaning bu hududga nisbatan qiziqishi ortib borishi Rossiya imperiyasi hukumatining istilochilik harakatlarini yanada tezlashtirdi. Buyuk Britaniyaning Ost-Indiya kompaniyasi XIX asrdan strategik ahamiyatga ega bo'lgan xonliklarning tabiiy boyliklari, xomashyo mahsulotlariga qiziqqa boshladi. O'rta Osiyoga 1825-yili *M. Murkroft* Angliya bilan aloqalarni yo'lga

qo'yish uchun yuboriladi. U Buxoroga kelib, qaytib ketayotganida ikki hamrohi bilan halok bo'ladi. 1832-yili Buxoroga *A.Byorns*, 1844-yili mayor *I.Volf*, 1843-yili Xiva va Buxoroga kapitan *J.Abbot* yuborilgan.

O'rta Osiyo davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ularga Rossiya imperiyasiga qarshi harbiy ittifoq tuzish taklifi bilan Buxoroga kelgan Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari *Ch.Stoddart* va *A.Konolli* 1842-yili amir tomonidan qatl qilindi. Bunga javoban Angliya hukumati Buxoroga qarshi Afg'oniston bilan sulh tuzib, ularni qurollantiradi. Shundan keyin Afg'oniston Buxoro amirligi hududining bir qismini bosib oldi. Natijada 1855-yili o'zbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryoning janubiy sohilidagi hududlar Afg'oniston viloyatiga aylantirildi.

XIX asrning o'rtalariga kelib Angliyaning O'rta Osiyoga nisbatan olib borayotgan bunday siyosati va podsho hukumatining *Qrim urushidagi* (1853 – 1856) mag'lubiyati Rossiya imperiyasini Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarini bosib olish harakatlarini tezlashtirishga undadi. Buning uchun, eng avvalo, unga olib boradigan yo'llar, ayniqsa, Rossiya imperiyasini O'rta Osiyo bilan bog'lovchi savdo yo'llarini to'liq o'z qo'lga olishga harakat qildi. Buning natijasida asosiy yo'l hisoblangan Toshkentga boradigan Orenburg yo'lida harbiy istehkomlar qurdi. Sirdaryoning Orolga quyilish joyida 1847-yili *Raim* qal'asi bunyod etildi.

Chegara hududlarida yashaydigan Rossiya imperiyasi fuqarolari bo'lgan aholiga talonchilik va bosqinchilik qilib turuvchi guruhlarning hujumlarini bartaraf etish podsho hukumatining O'rta Osiyoga harbiy yurishlarini boshlashiga bahona bo'ldi. Bundan tashqari, to'qimachilik sanoati uchun xomashyo bo'lgan paxtaning yetishmasligi O'rta Osiyoni bosib olish harakatlarini tezlashtirdi. Bu davrda AQShda shimol va janub o'rtasida boshlangan fuqarolar urushi (1861 – 1865) tufayli Rossiyaning to'qimachilik sanoati uchun paxta xomashyosiga taqchillik vujudga keldi.

XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi uzoq vaqt davom etgan o'zaro urushlar ularning iqtisodiy va harbiy jihatdan zaiflashib qolishiga olib keldi. Bunday vaziyat oxir-oqibat xonliklarning istilo qilinishlarini osonlashtirdi.

Shunday qilib, XIX asr o'rtalariga kelib xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar, ichki nizo va ziddiyatlar, davlat boshliqlarining uzoqni ko'zlab ichki va tashqi siyosat olib bormaganliklaridan nochor ahvolga tushib qoldi. Shunday vaziyatda Rossiya imperiyasi hukumati o'zining siyosiy, iqtisodiy va geopolitik manfaatlarini ko'zlab O'rta Osiyoga harbiy istilochilik harakatlarini boshlaydi.

O'rta Osiyoga qarshi istilochilik yurishi bosqichlari. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi *to'rt* bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich 1847 – 1865-yillarda Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining shimoli-g'arbiy viloyatlari va Toshkent shahri istilo qilin-

di. Istilo etilgan hududlarda Orenburg general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi *Turkiston viloyati* tashkil etildi.

Ikkinchi bosqich 1865 – 1868-yillarni qamrab olgan bo'lib, bunda Qo'qon xonligi va Buxoro amirligiga qarshi istilochilik harakatlari amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich – 1873 – 1879-yillar davomida Xiva va Qo'qon xonligi yerlarini bosib olishdan iborat bo'ldi.

To'rtinchi bosqich – 1880 – 1885-yillarda turkmanlarning bo'ysundirilib, olinishi edi.

Shunday qilib, 1864 – 1885-yillarda – 20 yildan ortiq vaqt davomida Rossiya imperiyasining uzoq davom etgan harbiy tayyorgarligi natijasida bosqinchilik urushlari olib borildi. O'rta Osiyo xonliklari hududining katta qismi bosib olinib, mustamlakaga aylantirildi.

O'rta Osiyoga qarshi harbiy-istilochilik yurishlarining boshlanishi. Rossiya imperatori *Aleksandr II* ning (1855 – 1881) 1859-yili Qo'qon xonligini bosib olishning davom ettirilishi to'g'risidagi ko'rsatmasidan so'ng harbiy harakatlar kuchaydi. Buning uchun, eng avvalo, xonlikning Toshkent shahri bosib olinishi zarur edi.

Toshkentni bosib olishda *Oqmachit* qal'asi harbiy harakatlarning tayanchiga aylandi. Podsho qo'shinlarining *Oqmachit* qal'asini bosib olish borasidagi dastlabki harakatlari (1852-yil) muvaffaqiyatsizlikka uchragach, 1853-yili uni egallash uchun ikkinchi marta hujum boshlanadi. 3 mingdan ortiq kishidan iborat harbiy qo'shinga 400 kishidan iborat qal'a himoyachilari *20 kun* davomida qarshilik ko'rsatdi. Dushman tomonga nisbatan soni juda oz bo'lgan, qurshovda qolgan qal'a himoyachilari oxirgi imkoniyatlari qolgunicha jang qildilar. Kuchlar notengligi oqibatida podsho hukumati qo'shinlari tomonidan qal'a egallanadi. Keyinchalik bu qal'a harbiy harakatlar uchun tayanch punktga aylandi va unga *Perovskiy forti* deb nom berildi.

N.Veryovkin va *M.Chernyayev*ning 1864-yili uch mingdan ko'prog qo'shini ikki yo'nalishda: biri *Perovskiy fortidan* (Orenburg tomondan), boshqasi esa *Verniy* (Almati) shahri tomondan Toshkentni bosib olish uchun yo'lga chiqdi. 4-iyunda *M.Chernyayev* boshchiligidagi qo'shin Talas daryosining chap sohilidagi *Avliyootani* (hozirgi Taroz shahri) bosib oldi. Turkiston va Chimkent shaharlari mudofaasiga rahbarlik qilishga Qo'qon xoni tomonidan amirlashkar *Aliquli* (Alimqul) yuborildi. *N.Veryovkin*, agar Turkiston himoyachilari taslim bo'lmasa, shaharni yalpi o'qqa tutib barchani qirib tashlashini, amir *Temur* tomonidan Ahmad Yassaviy sharafiga qurilgan maqbarani ham yakson qilishini ultimatum tarzida qo'ydi. Natijada *Aliquli* o'z qo'shinini Turkistondan olib chiqib, Chimkent mudofaasi uchun chekindi. Uch kunlik jangdan so'ng 12-iyul kuni *N.Veryovkin* otryadi Qo'qon xonligiga

qarashli Turkiston shahrini bosib oldi va 20 kilometrlik qal'a devori bilan o'ralgan Toshkentni bosib olishga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

Bu harbiy harakatlarga M.Chernyayev qo'mondon etib tayinlandi. 1864-yil kuzida *Chimkent* shahri egallanib, Yangi Qo'qon chizig'i asosida qo'lga kiritilgan qal'alar birlashtirildi. Bu vaqtga kelib Raim qal'asidan Perovskiy fortigacha *Sirdaryo* istehkom chizig'i, Semipalatinskdan Verniy shahrigacha *Sibir* istehkom chizig'i vujudga keldi.

18.2. Toshkentning bosib olinishi

Toshkent bosib olinishining strategik ahamiyati. Toshkent O'rta Osiyo-ning siyosiy, iqtisodiy, yirik ma'muriy va savdo-sotiq markazlaridan biri hisoblangan. XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining 12 ta, ya'ni *Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog'och, Qo'ymas, Qo'qon, Qoshg'ar* darvozalari bo'lgan. Har tomondan shaharga kirish uchun qurilgan bu darvozalar soqchilar tomonidan qo'riqlangan. Shaharni mudofaa qilish uchun qurilgan devor ortida *Kaykovus* arig'ining suvi bilan to'ldiriladigan xandaqlar bo'lgan. Toshkent to'rtta – *Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor va Shayxontohur* dahalariga bo'linib, har bir daha o'z oqsoqoli tomonidan boshqarilgan. XIX asr o'rtalarida shahar aholisi 80 mingga yaqin kishini tashkil qilgan.

Toshkent shahrining bosib olinishiga podsho hukumati jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. Chunki Toshkentni egallash Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi harbiy yurishlarini keng qamrovda va tayanch hududga ega bo'lgan holda olib borishni ta'minlar edi. Bu shahar O'rta Osiyoni bosib olish uchun asosiy yo'lak, harbiy qo'shinlarning kelgusidagi harakatlari uchun tayanch nuqta vazifasini bajara oladigan joy hisoblangan.

Shaharga dastlabki hujum. 1864-yil 1-oktyabrida M.Chernyayev o'zini podshoga yaxshi ko'rsatish uchun tezlik bilan Toshkentni qo'lga kiritmoqchi bo'ldi. Lekin uning bu rejasi amalga oshmadi. M.Chernyayev 70 nafardan ziyod askarlaridan ajralib Chimkentga chekinishga majbur bo'ldi. Uning Toshkentni egallash uchun olib borgan birinchi harakati natija bermagach, yangi hujumga tayyorgarlik boshladi. Uning bu tayyorgarligi bahorgacha davom etdi va 1865-yil aprel oyi oxirida podsho hukumatining harbiy qo'shinlari Toshkent yaqiniga joylashtirildi. M.Chernyayev boshchiligidagi harbiy qo'shin Toshkent shahridan 25 km uzoqlikdagi Chirchiq daryosining chap sohilida joylashgan *Niyozbek* qal'asiga kelib, uni jangsiz topshirishni taklif qiladi, lekin qal'a himoyachilari rad javobini berib mudofaaga o'tadi. Himoyachilar va istilochilarning harbiy kuchlari o'rtasidagi farq juda katta edi. Qal'a to'xtovsiz ravishda

to'plardan o'qqa tutilib, devorlari buzib tashlandi. Devorlarning buzilgan joylaridan bosqinchilar qal'aga kirib, uni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Oqibatda Toshkent darvozasi deb nom olgan Niyozbek qo'rg'oni dushman qo'lga o'tdi. Ushbu qal'aning qo'lga kiritilishi M.Chernyayevga Toshkentni suv ta'minotidan uzib qo'yish imkonini berdi. Uning buyrug'i bilan Toshkent shahri aholisini suv bilan ta'minlaydigan Chirchiq daryosidagi to'g'on buzib tashlanadi.

Shaharning egallanishi. M.Chernyayev boshchiligidagi istilochilar 1865-yil may oyida bevosita Toshkentga hujum boshladi. Toshkent mudofaasida shahar himoyachilari va Qo'qon xonligi qo'shinlari amirlashkar Aliquli boshchiligidagi qarshilik ko'rsatdi. Ayovsiz janglarda Aliqulining yaralanib vafot etishi shahar himoyachilarini sarosimaga solib qo'ydi. Himoyachilarning yagona harbiy boshliqsiz qolishi istilochilarning qo'li ustun kelishiga olib keldi. Toshkent himoyasiga Buxoro amirligidan kechikib yetib kelgan qo'shinlarning foydasi tegmadi. Chernyayev qo'shinlari *Kamolon* darvozasi yonidan devorni buzib shaharga kirdi. Ularga toshkentlik sarbozlar va aholi shaharning har bir mahalla, ko'chasida tashkil qilingan to'siqlarda qattiq qarshilik ko'rsatdi. Toshkentning har bir qarich yeri uchun ko'cha va mahallalarda janglar davom etdi. Asosiy jang Kamolon darvozasidan Xadradagi markaziy bozorga boradigan ko'chada bo'lib, podsho qo'shinlari to'rtta to'p himoyasida bo'lgan to'siqdan o'ta olishmadi. Ammo M.Chernyayev qo'shinining bir qismi bu vaqtda shahar qal'asini egallab, shu yerdan shahar ichkarisini to'plardan o'qqa tutdi. Himoyachilar shaharni o'qqa tutilishdan saqlash maqsadida qal'aga o't qo'ydilar. Bu bilan qal'adan podsho qo'shinlarini chiqib ketishga majbur qildilar.

Kamolon darvozasi tomonga chekingan M.Chernyayev qo'shinlari ertalab yana jangga o'tishdi. Shahar yong'in ichida qoldi. Suv yo'llarining to'sib qo'yilganligi yong'inlarni o'z vaqtida o'chirish imkonini bermadi.

Shahar qurol kuchi bilan egallab olingach, M.Chernyayev 17-iyunda Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor va Shayxontohur dahalarining oqsoqollarini chaqirdi. Muzokarada Toshkent qozikaloni *Hakimxo'ja*, *Abulqosim eshon*, *Solihbek dodxoh* va shaharning boshqa nufuzli kishilari ishtirok etdi. M.Chernyayev xalqaro doirada o'z xatti-harakatlarini oqlash maqsadida go'yoki Toshkent ixtiyoriy ravishda taslim bo'ldi va aholi tinchligi uchun toshkentliklar o'zlari Rossiya askarlariga uning darvozalarini ochib berdi degan xatni imperator nomiga yozishlarini talab qiladi. Oqsoqollardan *9 nafari* shaharni «ixtiyoriy ravishda topshirish» to'g'risidagi sulhni imzolashga majbur bo'lishdi. Jahon ommasi bu xatning mazmunidan xabardor bo'lishi uchun podsho hukumati tomonidan barcha choralar ko'rilgan edi. Bunday soxta xat yozilishiga qarshi bo'lgan Solihbek dodxoh, Abulqosim eshon, Hakimxo'ja singari vatanparvarlar Sibirga surgun qilingan. Shu bilan Toshkent podsho hukumati ixtiyoriga o'tib, Turkiston o'lkasining harbiy, siyosiy va ma'muriy markaziga aylantirildi.

Harbiy istilochilik yurishlari natijasida bosib olingan hududlarda *Turkiston viloyati* tuzilib, unga harbiy qo'shin qo'mondoni, general-mayor M. Chernyayev gubernator qilib tayinlandi. 1865-yil 6-avgustda qabul qilingan «*Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom*»ga muvofiq viloyatda harbiy lashtirilgan boshqaruv tartiblari o'rnatildi. Viloyat bo'limlarining harbiy asosda tashkil qilinishidan podsho hukumatining kelgusidagi harbiy rejalari amalga oshirilishida tayanch ma'muriy hudud vazifasini o'tashi ko'zda tutilgan edi.

18.3. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi

Turkiston o'lkasida mustamlaka boshqaruvining o'rnatilishi. O'rta Osiyoni o'z mustamlakasiga aylantirish maqsadida podsho hukumatining olib borgan harbiy istilochilik yurishlari natijasida uning katta hududlari bosib olindi. Yo'qotishlar va talafotlarga qaramay, imperator *Aleksandr II* ning buyrug'i bilan navbatdagi harbiy rejalarni amalga oshirish davom ettirildi.

1865-yili tashkil qilingan Turkiston viloyati O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarni olib borishda harbiy markaz rolini bajardi. Navbatdagi vazifa bosib olingan hududlarda podsho hukumati hukmronligini mustahkamlash va ma'muriy-hududiy birliklarni tashkil qilishdan iborat edi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun bosib olingan joylarni o'z ichiga oluvchi ma'muriy-boshqaruv hudud, ya'ni alohida general-gubernatorlik tashkil etishga kirishildi. Buning sababi O'rta Osiyoning Orenburg general-gubernatorligidan uzoqda joylashganligi bo'lsa, boshqa yana bir sababi kelgusida bosib olinadigan yerlarni ham birlashtirish bo'lgan. Bu hududlarning imperiya tarkibida yana bitta general-gubernatorlik tashkil qilish uchun aholisi va hududi to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, O'rta Osiyoda alohida general-gubernatorlikni tashkil qilish orqali uning geografik xususiyatlari, iqtisodi, tabiiy boyliklari, mineral resurslarini imperiya manfaatlariga har tomonlama moslashtirish edi.

1867-yili bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi *Turkiston general-gubernatorligi* tashkil qilindi va *Turkiston harbiy okrugi* tuzildi. 1847-yildan boshlab harbiy istilochilik yurishlarida ishtirok etgan barcha harbiy qismlar uning tarkibiga kiritildi. Bu davrda Turkiston harbiy okrugidagi harbiylar soni 40 ming kishidan iborat bo'lgan. Toshkent shahri general-gubernatorlikning markazi qilib belgilandi. U qulay geografik makonda joylashgan bo'lib, harbiy, siyosiy, strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarga ega edi.

Turkiston general-gubernatori o'lkada joylashgan harbiy qo'shinlar qo'mondoni, Yettisuv kazaklari qismi qo'mondoni, shu bilan birga, bosh sudya ham hisoblangan. Turkiston general-gubernatorligiga 1867-yil Rossiya imperatori farmoniga ko'ra general-adyutant *Konstantin Petrovich fon Kaufman*

(1867 – 1881) tayinlandi. U bir paytning o'zida Turkiston harbiy okrugining qo'mondoni ham edi.

Yangi ma'muriy hududlarning tashkil qilinishi. Turkiston general-gubernatorligi Turkiston viloyati va Semipalatinsk viloyatining janubiy qismini ham o'z ichiga oldi. Dastlab Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy jihatdan ikkita viloyat: *Sirdaryo* (markazi – Toshkent) va *Yettisuv* (markazi – Verniy) viloyatlariga bo'lingan. Sirdaryo viloyatining hududiga asosan 1865-yili tashkil qilingan Turkiston viloyatiga tegishli bo'lgan yerlar va Qo'qon xonligining bosib olingan shimoliy hududlari kirgan. Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal, Olatavsk okrugi yerlari va sobiq Turkiston viloyatining bir qismidan iborat holda tashkil qilindi. Bosib olingan hududlar hisobiga keyinchalik quyidagi ma'muriy-hududiy birliklar vujudga kelgan: 1868-yili Buxoro amirligiga qarashli yerlarda *Zarafshon okrugi* (markazi Samarqand), 1873-yili Xiva xonligiga qarashli hududlarda *Amudaryo bo'limi* (markazi – Petro-Aleksandrovs; hozirgi To'rtko'l) va 1876-yili *Farg'ona viloyati* (markazi – Yangi Marg'ilon, keyinchalik Skobelev – hozirgi Farg'ona shahri), 1881-yili *Kaspiyorti viloyati* (markazi – Ashxobod shahri) tashkil qilingan.

Turkiston o'lkasidagi viloyatlarning hududlari katta bo'lgan. Ularning maydoni Rossiyaning ayrim markaziy guberniyalari hududidan ham katta edi. Jumladan, o'lkadagi viloyatlarning hududiy jihatdan eng kichigi bo'lgan Samarqand viloyatining maydoni *2000 kv verst* (1 verst – 1,066 km ga teng) bo'lib, u Saratov guberniyasidan, Sirdaryo viloyatining hududi esa Moskva guberniyasidan katta bo'lgan.

Turkiston general-gubernatori 1867-yilgi «Nizom» loyihasida ko'rsatilgan huquqlardan tashqari o'lkani boshqarish uchun mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda mustaqil faoliyat olib borishda katta huquqlarga ega edi.

Turkiston o'lkasida, Rossiya imperiyasining boshqa guberniya boshliqlaridan farqli ravishda, siyosiy, iqtisodiy, harbiy va geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirishda K.P.Kaufmanga katta vakolatlar berilgan. Shuning uchun u xalq orasida «*yarim podsho*» nomini olgan.

18.4. Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning boshlanishi

Buxoro amirligini bosib olishning boshlanishi. Toshkent shahri bosib olinganidan so'ng podsho hukumatining kelgusidagi rejasi xonliklarni navbat bilan bosib olish edi. Barcha harbiy harakatlar Toshkent shahridan turib tashkil qilindi va boshqarildi. Shu maqsadda, eng avvalo, xonliklarning birlashmasligiga qaratilgan siyosat olib borildi. Ya'ni mustamlakachilar o'zlarining asosiy qoidasi hisoblangan «*Bo'lib tashla, hukmronlik qil*» shioriga amal qilishga kirishdi.

Podsho hukumati O'rta Osiyodan M.Chernyayevni Sankt-Peterburgga chaqirib oldi va uning o'rniga Turkiston viloyatining gubernatori qilib *F.Romanovskiy*ni tayinladi. F.Romanovskiy 1866-yili Buxoro amirligi Rossiyaga qarshi urushga tayyorlanayotganligini bahona qilib unga qarshi harbiy yurish boshlashga imperatordan ruxsat so'radi. Hukumat tomonidan bu taklif qabul qilingach, u Sirdaryoning o'rta oqimidagi hududlarni egallashga kirishdi. Birinchi jang 1866-yil 8-mayda *Erjar* qishlog'i yaqinida yuz berib, kuchlar harbiy jihatdan teng bo'lmaganligi uchun amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. F.Romanovskiy Buxoro qo'shinini ta'qib qilishni to'xtatib, avval Qo'qon xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasida joylashgan Toshkent, Qo'qon, Balx va Buxoro bilan bog'lovchi *Xo'jand*ga qarab harakat boshladi.

Turkiston viloyati harbiy gubernatori qo'shinlari tomonidan *Xo'jand* qal'asi may oyida qamal qilinib, 20 ta to'pdan o'qqa tutildi. Ertasi tonggacha qamal davom etib, keyin hujum boshlandi. Birinchi hujum qaytarilgandan so'ng shahar yana qayta o'qqa tutildi. Shahar qamali va o'qqa tutish ikki kun davom etdi. Istilochilarga qarshi shahar mudofaachilari har bir qarich joy uchun mardonavor jang qildilar. Lekin harbiy texnika va son jihatidan ustun bo'lgan mustamlakachilar qo'shinlari 24-mayda tunga borib himoyachilarning mudofaasini yorib o'tdilar. Shahar ko'chalarida ko'plab mudofaachilar va tinch aholining jasadlari, vayron bo'lgan xonadonlar qoldi.

O'ratepa va Jizzax uchun janglar. Turkiston viloyati gubernatori F.Romanovskiyga Orenburg general-gubernatori *N.Krijanovskiy* tomonidan harbiy harakatlarni Qo'qon xonligiga qarshi qaratish to'g'risida ko'rsatma berildi. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi harbiy harakatlari rejasiga ko'ra Qo'qon xonligining taqdiri 1866-yiliy oq hal qilinib, *Xo'jand*da Qo'qonga qarshi hamma narsa tayyor holatga keltirilgan edi. Qo'qonga qarshi yurishga boshchilik qilish uchun *N.Krijanovskiy*ning o'zi keldi. U Buxoro amirining vakili bilan sulh shartnomasi bo'yicha uchrashib, *10 kun* mobaynida *100 ming* rubl tovon to'lashni talab qildi. Belgilangan muddat o'tgach *N.Krijanovskiy* Buxoro amiri talablarni bajarmaganligini bahona qilib o'z qo'shinlariga amirlikka qarshi hujum boshlashga buyruq berdi.

1866-yilning kuzida 6 ming piyoda askar, 500 kazak, 28 to'p, 600 arava va 800 tuyadan iborat harbiy qo'shin *O'ratepa*ga qarab harakat boshladi. Bu harakatga Qo'qonga qarshi tayyorlab qo'yilgan kuchlar ham jalb qilindi. F.Romanovskiyning harbiy qo'shinlari *O'ratepa*ga yetib borgach, shahar uch kun to'plardan o'qqa tutildi. Shundan keyin tongda hujumga o'tildi. Shahar aholisi bosqinchilarga mardonavor qarshilik ko'rsatdi. *O'ratepa* to'plardan o'qqa tutilganligi natijasida vayron qilinib, dushman tomonidan egallandi. Hujum natijasida 2 ming nafardan ko'proq aholi halok bo'ldi.

18.5. Buxoro amirligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi

Samarqand uchun jang. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman O'rta Osiyoni bosib olishni Buxoro amirligini qo'lga kiritish bilan davom ettirishga qaror qildi. Amirlikning harbiy kuchi Qo'qon xonligi bilan uzluksiz olib borilgan urushlar, ichki nizolar, zamonaviy harbiy texnikada ortda qolishi tufayli zaiflashgan edi. Fon Kaufman Buxoro amirligi chegaralariga hududlarini puxta o'rganib chiqib, amir Muzaffarga chegaraning Rossiya mulki foydasiga o'zgartirilgan yangi loyihasini tasdiqlashni taklif qildi. Amir Muzaffar bu shartnomani imzolashdan bosh tortdi. Shunda K.P.Kaufman uni general-gubernatorlik chegaralariga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'rishda ayblab, 4 mingdan ziyod qo'shindan iborat harbiy otryad to'plab, 1868-yil aprelda Samarqandni bosib olishga kirishdi. Biroq K.P.Kaufmanning amir Muzaffar qo'shinini Samarqandga to'plagan deb qilgan taxmini o'z tasdig'ini topmadi.

Bu vaqtda Buxoro qo'shinlari *Cho'ponota* tepaligida o'rtnashib olgan edi. 1868-yil 1-mayda fon Kaufman tepalikka hujum boshladi. Rossiya imperiyasi qo'shinlari amirlik sarbozlarining miltiq va to'pdan tinmay o'qqa tutib turganiga qaramay, suvdan kechib *Cho'ponota* tepaligiga ko'tarildi. Natijada sarbozlar chekinishga majbur bo'ldi. Shu bilan amir qo'shinining ilg'or jangovar qismi tor-mor keltirildi. Shundan so'ng *Zirabuloq* tepaligida ikkinchi jang bo'lib o'tdi. Qanchalik qarshilik ko'rsatmasin, Buxoro amiri qo'shini yana mag'lubiyatga uchradi va podsho qo'shinlari Samarqandga jangsiz kirib bordi. K.P.Kaufman Samarqand bekligini Rossiyaga berish, «harbiy xarajatlar»ni to'lash va 1865-yildan buyon Turkiston o'lkasida qo'lga kiritilgan barcha narsalarni Rossiya mulki deb e'tirof etish sharti bilan sulh fuzishni taklif qilib, amir Muzaffarga maktub yo'lladi, ammo amirdan javob bo'lmadi.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda amalga oshirgan harbiy istilochilik yurishlariga nafaqat amirlik va xonliklarning harbiy qo'shinlari, balki mahalliy aholi vakillari ham qattiq qarshilik ko'rsatdi. Masalan, K.P.Kaufmanning Buxoro amirligiga qarshi harbiy yurishlari vaqtida *Urgut* shahrida mahalliy aholi podsho hukumatining qo'shinlariga qarshi kurash olib bordi. K.P.Kaufman general *Abramovni* qo'shin bilan Urgutga yuborib, shaharning taslim bo'lishini taklif qildi. Lekin bu taklif mahalliy aholi tomonidan rad etildi. Ikki tomon o'rtasidagi to'qnashuvda mahalliy aholi mardonavor jang olib bordi. Artilleriya to'plaridan otilgan o'qlar boshqa joylardagi kabi Urgutda ham istilochilarning harbiy ustunligini ta'minladi. Buning natijasida shahar qal'asi mustamlakachilar tomonidan egallandi. Podsho hukumati qo'shinlari Urgutdan so'ng *Kattaqo'rg'on* shahrini bosib olishga kirishdi.

Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi Kitob hokimi *Jo'rabek* va Shahrisabz hokimi *Bobobek* boshchiligidagi Samarqandda kurash olib borildi. Bu ikki xalq harakati rahbarlari o'z qo'shinlari bilan 1868-yil 2-iyunda samarqandlik qo'zg'olonchilar bilan birga Rossiya imperiyasi qo'shinlari garnizoni joylashgan qal'aga hujum qilishdi. Qamalda qolgan qo'shin yordam so'rab general-gubernator fon Kaufmanga chopar yuboradi. 6-iyunda yordamchi kuchlar yuborildi. Qal'ani egallash uchun 4-iyundan 7-iyungacha shiddatli janglar davom etdi. Unda ikki tomon ham ko'plab talafot ko'rdi. 8-iyunda qamalda qolganlarga yordamga harbiy kuchlar yetib keldi, shundan so'ng xalq himoyachilari Samarqanddan chiqib tog' tomonga chekinishga majbur bo'ldi.

Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylantirilishi. Podsho hukumati tomonidan yangi bosib olingan hududlarda Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat *Zarafshon okrugi* tuzildi. Unga general Abramov boshliq qilib tayinlandi. Zirabuloq jangidan keyin amir Muzaffar o'z mag'lubiyatini tan olib, fon Kaufmannning Turkiston general-gubernatorligining yangi chegaralari haqidagi taklifini qabul qilishga majbur bo'ldi. Bu bilan Rossiya imperiyasi istilochilik yurishlarining ikkinchi bosqichi yakunlandi.

Fon Kaufman 1868-yil 28-iyunda Samarqandda amir Muzaffar bilan Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga aylantirgan shartnomani imzoladi. Unda amir urush boshlanishida aybdor ekanligi, abadiy do'stlik belgisi sifatida Rossiya qo'shinlarining harbiy xarajatlari uchun 500 ming rubl to'lanishi e'tirof etildi. Shartnomaga ko'ra, bosib olingan Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan barcha hudud – Xo'jand, O'ratepa, Panjikent, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlari Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tdi. Amir o'z ixtiyorida qolgan hududlarni boshqarishda Turkiston general-gubernatorining ko'rsatmalariga rioya etish majburiyatini oldi. Siyosiy qaramligi uchun tarixchilar tomonidan Buxoro hukmdori vassal deb ham yuritiladi. Rossiya savdogarlariga amirlikda erkin savdo qilishiga sharoit yaratib berish va ularni himoya qilishni o'z zimmasiga oldi. Rossiyalik savdogarlarga savdo agentliklarini ta'sis etishga ruxsat berildi, tovarlardan olinadigan boj umumiy qiymatning 2,5 foizidan oshmasligi belgilanib, ular amirlik hududidan boshqa davlatlarga erkin o'tish huquqini oldi.

Mazkur shartnoma amirlikni tahqirlagan, huquqsizlikka va qashshoqlikka mahkum etgan sharmandali shartnoma bo'ldi. Amirning tobelik siyosatidan norozi bo'lgan kuchlar o'z harakatini boshladi. Xalq tomonidan qo'llab-quvvatlangan amir Muzaffarning katta o'g'li Abdumalik to'ra, Jo'rabek va Bobobeklar boshchiligidagi qo'shin Samarqandni ozod qilish uchun kurashlarini davom ettirdi. Ular amir Muzaffarning taxtdan tushirilganligini va Abdumalik to'ra

... etib tayinlanganini e'lon qildi. Xalq qo'shinlari avval *Shahrisabz*ni, so'ng *Beshi* va *Karmana* shaharlarini o'z qo'llariga olishdi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman tomonidan bu harakatlarning oldini olish va bostirish uchun I.F.Abramov boshchiligidagi qo'shin yuborildi. Zamonaviy qurollar bilan ta'minlanmaganligi sababli janglarda qo'zg'olonchilar egallab olgan hududlarini birin-ketin surib chiqarila boshlandi. Natijada Abdumalik to'ra Xiva xonligi hududiga, undan Afg'onistonga o'tib ketdi. Afg'on amiri *Sheralixon* Angliya bilan yaqinlashib kelayotgan urushda Rossiyaga tayanishni rejalashtirgani uchun unga yordam bermadi. Hech qayerdan yordam ololmagan Abdumalik to'ra *Peshovarga* ketadi va u yerda 1909-yili vafot etadi. Shunday qilib, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi istilochilik urushining ikkinchi bosqichi Samarqandning egallanishi va Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi protektoratiga aylanishi bilan yakunlandi.

1873-yildagi shartnoma. Buxoro bilan Rossiya imperiyasi 1873-yili amirlikka o'z vakilini tayinlash huquqini beruvchi yangi shartnomani imzoladi. Bu vakilning roziligisiz amirlik biror-bir ichki hamda tashqi siyosiy masalani hal qila olmaydigan bo'ldi. Shartnomaning 14-moddasida: «*Rossiya hukumatidan yozat bo'lmagan, kim bo'lishidan qat'i nazar, har xil kimsalarni Buxoro hukumati qabul qilmaydi*», – deb ko'rsatilgan. Shartnomaga muvofiq, har kuni ortalab qo'shbegi vakildan kerakli ko'rsatmalarni olib amirga yetkazishi shart bo'lgan. Amir esa bu hujjatlarni rasman tasdiqlagan, xolos. *P.Lessar* Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakili etib tayinlandi.

Vakilni Buxoroning amaldagi norasmiy gubernatori deb hisoblash mumkin edi. U Buxorodan 15 km uzoqda joylashgan *Kogon* shahrini qarorgoh qildi. Bu bilan podsho hukumati Buxoroni to'liq imperiya tarkibiga qo'shib olmasdan, mamlakatni amir va uning amaldorlari orqali boshqarishni afzal ko'rdi. Natijada podsho hukumati Buxoro amirini o'z ta'sir doirasiga kiritib, undan o'z manfaatlari yo'lida foydalandi.

1869 – 1870-yillarda Rossiya imperiyasi Tashqi ishlar vazirligi Angliya bilan Afg'oniston va O'rta Osiyodagi chegaralarni belgilash to'g'risida muzokaralar olib bordi. Natijada chegaralar Amudaryo bo'ylab *Panj* tumanidan o'tkazilishiga kelishildi. Buxoro amirligi va Eron o'rtasidagi chegara 1881-yil 10-dekabrda Eron shohi bilan Tehrondagi Rossiya elchisi imzolagan maxfiy shartnomada belgilandi. 1885 – 1887-yildagi muzokaralar natijasida chegaralarni belgilash bo'yicha ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg'oniston o'rtasidagi chegara chizig'ini belgilashni nihoyasiga yetkazdi.

18.6. Xiva xonligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi

Xiva xonligiga qarshi harbiy yurishlarning boshlanishi. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoda istilochilik yurishlari natijasida bosib olingan hududlarda dastlab mustahkam o'rnatilib oldi. Xiva xonligiga qarshi olib boriladigan harbiy yurishga *besh yil* tayyorgarlik ko'rdi. Yurish uchun bunday uzoq tayyorgarlik ko'rishning asosiy sababi A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi qo'shinning mag'lubiyatga uchraganligi (1717) bo'lsa, boshqa yana bir sabab 1839-yil V.Perovski boshchiligidagi qo'shinlarning Xiva xonligigacha yetib borolmay orqaga qaytib ketganligi bo'ldi. Xonlikni bosib olish Rossiya imperiyasi uchun Amudaryoni qo'lga kiritish degani edi. Amudaryoni egallash, birinchi navbatda, suv manbasi, suv orqali savdo aloqalari, daryoning quyi oqimidagi tekisliklardagi serhosil yerlardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lish hisoblangan.

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo istilo qilinishining uchinchi bosqichi (1873 – 1879-yillar) davomida Xiva xonligining istilo etilishi ham amalga oshirildi. Hujum g'arbda *Mang'ishloq*, shimolda *Orenburg*, sharqda *Turkiston* va janubda *Krasnovodsk* kabi to'rt harbiy okrugdan olib borildi. Bunda 12 mingdan ortiq askar, 4600 ot va 20 ming tuyadan iborat harbiy qo'shin ishtirok etgan. Bu qo'shinga K.P.Kaufman boshchilik qildi. Mazkur ko'p sonli harbiy qo'shin 1873-yil fevralda o'zlari o'rnatilgan joylari – Toshkent, Orenburg, Mang'ishloq va Krasnovodskdan deyarli bir vaqtda yo'lga chiqdi. Xiva xonligiga olib boruvchi yo'llarning yomonligi, dastlab 25 daraja sovuqda, keyin 40 darajadan yuqori haroratda yo'l yurish juda qiyin kechdi. Bundan tashqari, cho'llarda 60 darajagacha jazirama bo'lishi, suvsiz dashtlardagi yo'llar tufayli harbiy qo'shin manzilga yetmasdan oq saflari siyraklashib bordi. Uning katta qismi yo'lda kasalga chalindi, bir qismi halok bo'ldi va bir qismi orqaga qaytib ketdi. Xivaga *7,5 ming* kishigina yetib bordi. Krasnovodsk va Mang'ishloqdan Xiva tomon yurgan qo'shinlar jazirama issiq va suv yetishmasligidan aziyat chekkanligi, holdan toyganligi sababli yo'lning yarmidan ortga qaytishga majbur bo'ldi. Faqatgina Toshkent, Orenburg yo'nalishidan yo'lga chiqqan qo'shinlar 1873-yil may oyida Xiva xonligi chegaralariga yetib keldi. Yo'l qiyinchiliklaridan tashqari ularga yo'lda kichik guruhlar hujum qilib tinkasini quritgan. Rossiya imperiyasi qo'shinlari bilan Xiva xonligi qo'shinlari o'rtasida may oyida *Hazorasp* qa'asi, *Qo'ng'iroq*, *Xo'jayli*, *Mang'it* shaharlari va *Xiva* shahri yaqinida janglar bo'lib o'tdi. Tomonlarning kuchlari teng emasligi, katta talafotlarga qaramay, xivaliklarga nisbatan podsho hukumati qo'shinlari yaxshi qurollangani bois xonlik himoyachilari mag'lubiyatga uchradi.

1873-yil may oyi o'rtalariga kelib mustamlakachi hukumatning asosiy qo'shinlari Xivaga yetib keldi. Ularning Xivaga qilingan birinchi hujumi hi-moyachilar tomonidan qaytarildi. Bu jangda ikki tomon ham katta talafotlar ko'rdi. Hujumga boshchilik qilgan general *Veryovkin* yarador bo'ldi. Podsho hukumati qo'shinlari katta talafot ko'rgani bois chekinib, fon Kaufman boshchiligidagi kuchlarni kutishga majbur bo'ldi.

Xivaga yetib kelgan K.P.Kaufman boshchiligidagi qo'shin yana shahar-ga hujum qildi. Ammo bu safar ham podsho hukumati qo'shinlari shaharni egallay olmadi. 29-may kuni shaharning *Hazorasp* darvozasi dushmanlarga ochib berilishi xonlik poytaxtining egallanishiga olib keldi. Shundan so'ng K.P.Kaufman muzokara olib borish yo'lini tanladi.

Gandimiyon shartnomasi. K.P.Kaufman Xivani bosib olgandan so'ng xon xazinasini kontributsiya (tovon) evaziga musodara qilib, xazina bilan birga qadimiy qo'lyozmalar, xonning taxti va toji, tanga zarb qiladigan tamg'a va zarb tasviri, qo'ng'iroq sulolasi xonlarining hokimiyati ramzlari va boshqa qo'lga kiritilgan moddiy boyliklarni Sankt-Peterburgga jo'natdi. K.P.Kaufman Xivani egallagandan so'ng Xiva xonligi bilan muzokaralar o'tkazish uchun *Gandimiyon* qishlog'idagi qarorgohiga bordi. U taklif etgan sulh shartno-masini Xiva xoni Muhammad Rahimxon II 1873-yil 12-avgustda imzolash-ga majbur bo'ldi. Ushbu shartnoma Xiva xoni Rossiya imperiyasi tobeligiga o'tganligini ko'rsatardi. Shartnomaning birinchi moddasida: «*Sayid Rahim Bahodirxon o'zini Butun Rossiya imperatorining sodiq xodimi deb tan oladi. U qo'shni hukmdorlar va xonlar bilan har qanaqa bevosita do'stona munosa-batlardan va ular bilan biron-bir savdo yoki boshqa shartnomalar tuzishdan voz kechadi hamda Rossiyaning O'rta Osiyodagi oliy hokimiyati ruxsatisiz ularga qarshi hech qanday jangovar harakatlarni amalga oshirmaydi*», – deb yozib qo'yilgan edi. Bu bilan Xiva xoni mustaqil ravishda tashqi dunyo, hatto yaqin qo'shnilari bilan ham aloqa o'rnatish imkonidan mahrum etildi. Faqat ular bilan Rossiya imperiyasi roziligi bilangina aloqa qila oladigan bo'ldi.

Xiva xonligiga qarashli Amudaryoning o'ng sohili, unga qo'shni yerlar-ning barchasi, bu joylarda yashaydigan o'troq va chorvador aholisi bilan xon tasarrufidan chiqdi. Amudaryo bo'ylab erkin harakatlanish uchun Rossiya kemalariga keng huquq berildi. Rossiyalik savdogarlar hamda ularning mol-lari uchun xon va mahalliy hokimlar javobgar bo'ladigan bo'ldi. Ular xon-likda erkin yurish, boj to'lovlarisiz savdo qilish huquqini qo'lga kiritdilar. Gandimiyon shartnomasida: «*Amudaryoning chap qirg'og'idagi ruslar uchun zarur va qulay bo'lgan yerga ular o'zlarining pristanlarini qurish huquqiga ega. Xonlik ushbu pristanlarning saqlanishi va xavfsizligi uchun javobgar. Ular uchun joyning tanlanishi O'rta Osiyodagi rus oliy hokimiyatining tas-diqlashiga bog'liq*», – deb ko'rsatib qo'yildi.

Shartnomaga binoan Xiva xonligi 2 million 200 ming rubl miqdoridagi tovonni 20 yil davomida to'lashi belgilandi. Xonlik xazinasida yetarli darajada pul bo'lmaganligi uchun bu tovon aholidan yig'ib olinadigan bo'ldi.

Gandimiyon shartnomasi Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga to'laqligini, xonning davlat boshlig'i darajasida boshqa davlatga bo'ysunganligini ko'rsatuvchi hujjat bo'ldi. Shartnoma xonlik aholisini juda og'ir ahvolda solib qo'ydi. Tovu bilan birga yangi soliq va majburiyatlarni to'lash xalqning zimmasiga tushdi. Qolaversa, xonlik hududining uch baravar qisqarishi xonlikning davlat sifatida nomigagina mavjudligini, aslida, mustaqilligini yo'qotgan protektoratga aylanganligini ko'rsatardi.

18.7. Qo'qon xonligining bosib olinishi

Qo'qon xonligidagi ichki siyosiy nizolarning kuchayishi. Rossiya imperiyasi XIX asrning 50 – 60-yillarida harbiy istilochilik yo'li bilan Qo'qon xonligi hududining bir qismini bosib oldi. K.P.Kaufman xonlikda o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida 1868-yili xon bilan shartnoma tuzdi. Unga ko'ra, xonlikda Rossiya savdogarlariga katta imkoniyatlar berildi. Bu davrda xonlik yerlari ancha qisqarib, xazinaga tushadigan daromadlar kamaydi. Urush natijasida ko'rilgan zararlar xalq ommasi zimmasiga tushdi, soliq va majburiyatlar ko'paydi. Buning oqibatida xonlikda ichki nizolar, xalq noroziligi kuchaydi.

XIX asrning 70-yillarida Qo'qon xonligida ko'plab qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Ulardan biri 1875-yil bahorida avj olib, unga *Mulla Is'hoq Mullo Hasan o'g'li* Po'latxon nomi bilan rahbarlik qildi. Qo'qon hukmdori Xudoyorxon qo'zg'olonni bostirish uchun *Abdurahmon Oftobachi*, *Iso Avliyo* boshchiligida qo'shin yubordi. Lekin ular 17-iyulda qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketdi. Xudoyorxonning o'g'li *Nasriddinbek* ham qo'zg'olonchilarga qo'shilgandan so'ng 20-iyulda Xudoyorxon K.P.Kaufmandan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Uning ukasi va ikkinchi o'g'li ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketgach, xon general-gubernatordan panoz izlab *Toshkentga* ketdi. K.P.Kaufman uni *Orenburgga* jo'natdi. Xudoyorxon Orenburgdan Hindiston orqali Makkaga boradi va u yerdan qaytib kelayotganda kasalga chalinib, 1882-yili *Afg'onistonda* vafot etadi.

Xudoyorxondan so'ng taxtga Nasriddinbek o'tirdi. Taxtni egallashga harakat qilgan Po'latxon Nasriddinbek va Abdurahmon Oftobachiga qarshi bo'lib qoldi. Qo'qon xonligida siyosiy vaziyat keskinlashib, qo'zg'olon butun vodiyni qamrab oldi. Mustamlakachi hukumat qo'zg'olonchilarga qarshi katta harbiy kuchlarini yuborgan. Janglar keskin davom etayotgan vaqtda Nasriddinbek mag'lubiyatdan qo'rqib 1875-yil 22-sentyabrda taslim bo'ldi

«*Lon Kaufman bilan shartnoma imzoladi. Unda o'zini imperatorning «sodiq quli» deb tan olishi, tashqi siyosatda hech qanday bitimlar tuza olmasligi, ikki million rubl tovon to'lashi. Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar – Namangan va Chust Rossiya ixtiyoriga o'tganligi*» belgilangan edi. Bu yerlarda tashkil qilingan *Namangan bo'limiga general M.Skobelev* boshliq etib tayinlanadi.

Nasriddinbek imzolagan shartnomadan norozi bo'lgan aholi yana qo'zg'olon ko'tardi. Po'latxon tarafdorlari soni oshdi, buning natijasida u Nasriddinbekni siqib chiqarib hokimiyatni o'z qo'lga oldi.

Andijonga uyushtirilgan hujum. Po'latxon qo'zg'olonining kuchayib ketishidan xavotirga tushgan mustamlakachi hukumat ularni tor-mor qilish uchun Andijonga hujum qildi. Chunki qo'zg'olonchilarning asosiy kuchlari shu yerda joylashgan edi.

General *M.Skobelev* boshchiligidagi hujum 1875-yil oktyabr oyi boshida boshlandi. Shahar kun davomida to'plardan o'qqa tutildi. Andijon aholisi mudofaa janglarida shaharning har bir qarich yeri uchun jon-jahdi bilan kurashdi. *M.Skobelev* boshchiligidagi qo'shinning dastlabki urinishlari jiddiy qarshilikka uchradi. Shundan so'ng podsho hukumati qo'shinlari barcha imorat va xonadonlarga o't qo'yib, shaharni yong'in ichida qoldirdi. Shahar to'xtovsiz ravishda artilleriyadan o'qqa tutib turildi. Bu shahar himoyachilarini og'ir ahvolga solib qo'ydi. Uch soat davom etgan betinim o'qqa tutishdan so'ng kechqurun podsho hukumati qo'shinlari yana hujumga o'tdi. Lekin bu hujum ham natija bermadi. Erta tongdan boshlab yana to'plardan kuni bo'yi o'q yog'dirildi. Biroq shahar himoyachilarining qarshi hujumga o'tishi podsho qo'shinlarini chekinishga majbur qildi. Shahar 1876-yil yanvarda uyushtirilgan ikkinchi hujum natijasida qiyinchilik bilan egallandi.

Namanganning bosib olinishi. Rossiya imperiyasining general *M.Skobelev* boshchiligidagi qo'shinlari 1875-yil 18-oktyabrda Namanganga joylashib, *K.P.Kaufman* qo'mondonligi ostidagi harbiy kuchlarga qo'shildi. Mustamlakachi qo'shinlarga qarshilik harakatlari Namanganda *bir oy* davom etdi. Shaharni ozod etish uchun atrofdagi qishloqlardan qo'shimcha kuchlar keldi. Shunga qaramay, podsho qo'shinlari tomonidan shaharning yarmi qo'lga kiritildi. Podsho hukumati harbiy qo'shini uch kun davomida shahar qal'asida turdi. Ikki tomon o'rtasida janglar 1876-yil yanvar oyi oxirigacha davom etdi. General *M.Skobelev* boshchiligidagi qo'shin fevral oyiga kelibgina harbiy qurol ustunligi bilan g'alabaga erishdi. Po'latxon va uning tarafdorlari qatl qilindi.

1876-yil 19-fevralda podsho hukumatining Qo'qon xonligining tugatilganligi to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Shu tariqa Qo'qon xonligi hududi o'rnida Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi *Farg'ona viloyati*

tashkil qilindi. Viloyatga Qo'qon xonligini bosib olishdagi harbiy yurishlarga rahbarlik qilgan general *M.Skobelev* harbiy gubernator etib tayinlandi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda olib borgan istilochilik yurishlari natijasida Qo'qon xonligi, Buxoro va Xiva davlatlaridan farqli ravishda, davlat sifatida butunlay tugatildi. Uning o'rnida mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan an'anaviy turmush tarziqamos ma'muriy boshqaruv tizimi va hududiy birliklari tugatilib, imperiya manfaatlariga mos keladigan, ayni paytda, mahalliy aholini boshqarish uchun mustamlaka ma'muriyatga qulay bo'lgan yangi boshqaruv tizimi qaror topdi.

Farg'ona vodiysining bo'ysundirilishi bilan Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishining uchinchi bosqichi (1873 – 1879) nihoyasiga yetdi. Bu yurishlar natijasida O'rta Osiyoning katta hududi bosib olinib, Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirildi.

Turkmanlarning bo'ysundirilishi. O'rta Osiyoni bosib olishning to'rtinchi bosqichi Amudaryo va Kopetdog' oralig'idagi Qoraqum sarhadlaridagi turkmanlarga qarshi qaratildi. 1879-yil iyulda Angliya Afg'oniston hududining bir qismini bosib olgandan so'ng inglizlar uchun O'rta Osiyoga yo'l ochildi. Shuning uchun 1879-yil iyulda Krasnovodskdan *I.Lazerev* boshchiligidagi harbiy qo'shin turkmanlar yashaydigan hududlarga jo'natildi. Bu yo'nalishdagi dastlabki harakatlarda podsho hukumati qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Qo'qon xonligiga qarshi harbiy yurishlarda tajribasi katta bo'lgan general *M.Skobelev* boshchiligidagi qo'shin 1880-yil may oyida ikkinchi yurishni boshladi. Uch oy davom etgan janglardan so'ng qamalga olingan turkmanlar qal'asi – *Go'ktepa* qo'lga olindi. Buning natijasida istilo qilingan yerlarda *Kaspiyorti* viloyati tashkil qilindi. Turkmanlarning batamom bo'ysundirilishi esa 1885-yilgina amalga oshirildi.

Turkmanlarning asosiy qal'asi *Go'ktepa* bo'ysundirilgach, 1881-yili Rossiya va Eron o'rtasidagi chegaralar belgilandi. Shu yili Sharqiy Turkistonning Ili o'lkasidagi qo'zg'olon podsho hukumati qo'shinlari tomonidan bostirilishi bilan Rossiya va Xitoy o'rtasidagi chegaralar ham belgilandi.

Shu harakatlar bilan Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo hududidagi istilochilik yurishlarining to'rtinchi bosqichi (1880 – 1885) tugadi.

Shunday qilib, istilo qilingan hududlarda besh viloyat, ya'ni *Sirdaryo*, *Yettisuv*, *Farg'ona*, *Samarqand* va *Kaspiyorti* viloyatlari tashkil qilinib, ular Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

Rossiya imperiyasining XIX asr o'rtalaridan boshlab amalga oshirilgan harbiy istilochilik yurishlari natijasida Buxoro amirligi va Xiva xonligi imperiyaning protektoratiga aylantirildi. Qo'qon xonligi esa batamom tugatildi.

Mag'lubiyat sabablari va oqibatlari. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlari Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi mardona-

var kurash olib bordi. Keng xalq ommasi vatan mustaqilligi va ozodligini mustamlakachilardan himoya qilish uchun qahramonlarcha jang qildi. Lekin bu davrdagi ichki nizolar, o'zaro urushlar, hukmdorlarning uzoqni ko'zlab olib bormaganligi oxir-oqibat yurtning mustaqilligi yo'qotilib, o'zgalarga tobe bo'lishiga olib keldi.

O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga, Qo'qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligining mag'lubiyatga uchrashiga quyidagilar sabab bo'ldi: Birinchidan, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari Rossiya imperiyasiga nisbatan harbiy va iqtisodiy rivojlanish sohasida ancha orqada edi. Ayniqsa, ularning harbiy sohadagi ahvoli o'sha davrda jahon miqyosidagi taraqqiyot darajasidan past bo'lgan. Xonliklarning tashqi siyosatda odilona siyosat olib bormaganliklari oqibatida ularning o'zlari tashqi dunyodan ajralib qolgan edi. Ikkinchidan, uchta davlat o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlar, hamkorlik va birdamlik yo'q edi. Ulardagi siyosiy tizim, davlat boshqaruvi zamonaviy boshqaruvdan uzoq bo'lib, o'rta asrlarga xos yakkahokimiyatchilikka, zo'ravonlikka asoslangan edi. Buning oqibatida ichki ziddiyatlar ko'payib, nizolar kuchaydi. O'zaro urushlar, taxt uchun kurashlar avj oldi. Uchinchidan, urush harakatlari vaqtida xonlar biri ikkinchisiga yordam ko'rsatmadi va o'z tinchligini o'ylab befarq qarab turdi. Bu esa har bir xonlikning alohida tor-mor etilishini yengillashtirdi. Shularning barchasi Rossiya imperiyasi hukumatiga qo'l keldi va vaziyatdan foydalanib mamlakatni mustamlakaga aylantirdi.

19-BOB. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

19.1. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy- ma'muriy boshqaruv tizimi

Boshqaruvning mustamlakachilik tartiblari. Bosib olingan hududlarda imperiya hukmronligini o'rnatish, mustahkam o'rnashib olish, istilo qilingan joylarni qo'ldan chiqarmaslik uchun, eng avvalo, mustamlakachilar o'zlariga mos boshqaruv tartiblarini ishlab chiqishi va uni o'lkada joriy qilishi kerak edi. Mustamlakachilik siyosatining to'liq amalga oshirilishida boshqaruv tartiblari asosiy tayanch hisoblangan. Boshqaruv tartiblari istilochilik yurishlari bilan birga turli ko'rinishlarda tashkil qilinib, tajriba-sinovlardan o'tkazilgan holda o'zgartirib borilgan.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda olib borgan bosqinchilik siyosatining davom ettirilishi natijasida mustamlakaga aylantirilgan hududlar kengayib borgan. Bosib olingan hududlarni boshqarish tartiblari va uning qanday

bo'lishi kerakligi masalasi juda ko'p hamda uzoq vaqt imperiya hukmron doiralarida turli soha vakillari ishtirokida muhokama qilingan. Ushbu masalani hal qilishda ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko'zlab ish ko'rish, hech nimada takvakkal qilmaslik tamoyiliga tayangan holda ish olib borilgan. Turkiston general-gubernatori S.M.Duxovskoy (1898 – 1901): «*Turkiston o'lkasi boshqa o'lkalarga nisbatan tarixiy o'tmishi, etnografik xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida e'tibor berilishini talab qiladi*», – degan edi.

Podsho hukumati Toshkentni bosib olgandan so'ng 1865-yil 6-avgustda Aleksandr II «*Turkiston viloyatini idora qilish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom*»ni tasdiqlaydi. Boshqaruv harbiy zobitlar qo'liga o'tadi. Ushbu nizomda boshqaruv tizimi «*harbiy-xalq boshqaruvi*» nomi bilan gubernator qo'lida harbiy va fuqarolik ishlari mujassamlashtiriladi. Viloyat bo'limlarga bo'linib, ularning boshliqlari bir vaqtning o'zida harbiy komendant ham hisoblangan. Bo'lim boshliqlariga mahalliy aholi ustidan nazorat qiluvchi mustamlakachi hukumat vakillaridan tayinlanadigan boshqaruvchilar bo'ysungan.

1908 – 1910-yillarda Turkiston o'lkasini podsho topshirig'i bilan taftish qilgan senator *K.Palen* ta'kidlaganidek, «o'lkada eng kichik ahamiyatga ega bo'lgan boshqaruv ham harbiy boshliqlar qo'lida» bo'lgan. Mahalliy aholi vakillariga boshqaruvning eng quyi bosqichidagi lavozimlar berilgan. Bularga volost boshliqlari (mingboshilar), qishloq oqsoqollari, ovul boshliqlari, qozi, biy va ularning yordamchilari kirgan.

General-gubernatorlik devoni katta vakolatlarga ega bo'lgan asosiy ijrochi organ hisoblangan. Rossiya imperiyasidagi hech bir guberniyada bunday katta vakolatga ega boshqaruv organi mavjud bo'lmagan. Turkiston o'lkasi ma'muriy-hududiy jihatdan *viloyatlarga* bo'linib, ularni o'z qo'lida fuqarolik va harbiy hokimiyatni birlashtirgan *harbiy gubernatorlar* boshqargan. Viloyatlar *uyezdlarga* bo'linib, ular *harbiy zobitlar* boshqaruvida bo'lgan. Uyezdlar *uchastkalarga*, volostlarga, *qishloq* va *ovullarga* bo'lingan. Uchastkalarni *uchastka pristavleri* boshqargan. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida o'z hukmronligini saqlab qolish, uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa hisoblagani uchun dastlab boshqaruv sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirmagan. Yuqori organlar nazoratida bo'lgan mahalliy aholi vakillaridan iborat quyi boshqaruv organlari va soliq tizimi saqlab qolingan. Quyi boshqaruvning saqlab qolinishiga asosiy sabab mahalliy aholining ichki hayotiga dastlabki davrda keskin aralashish va aholining an'anaviy turmush tarziga katta o'zgartirishlar kiritish salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin edi. Bundan tashqari, yangi bosib olingan yertlarda hali qarshilik va norozilik harakatlari davom etayotganligi, boshqaruv tizimida faoliyat olib boruvchi odamlar bo'lmagani, o'lka sharoitini to'liq bilmasliklari dastlabki vaqtda ma-

haliy aholi vakillarining quyi boshqaruvda ishtirok etishiga yo'l bergan. Quyi boshqaruv tizimining saqlab qolinishi o'lka ma'muriyatiga imperiya manfaat-lari uchun xizmat qiladigan, o'lkadagi sharoitlarni yaxshi biladigan mahalliy aholi vakillaridan o'zlariga eng ishonchli bo'lgan kishilarni topish muammosini ko'ndalang qo'yardi. Uni hal qilishda imperiya hukumati Turkistondagi hukmronlikning dastlabki vaqtidayoq ishlab chiqilgan saylov tizimi yordam berdi.

Uyezdlar *volostlarga*, volostlar o'troq aholi yashaydigan hududlarda *qishloqlarga*, chorvador aholi yashaydigan hududlarda esa *ovullarga* bo'lin-di. Boshqaruv tizimining quyi bosqichida *volost boshlig'i*, *qishloq oqsoqoli*, *ovul boshlig'i*, *xalq sudyalari va ularning yordamchilari*, *ariq oqsoqoli*, *mirob*, *o'nboshi*, *ellikboshilar* kabi lavozimlarda yerlik aholi vakillari ish olib borgan.

1867-yilgi «Nizom» loyihasi asosida o'troq aholi bir bosqichli tizim shak-lida, ya'ni *oqsoqolliklarga*, chorvador aholi esa ikki bosqichli tizim ko'rinishi-dagi *volost* va *ovullarga* birlashtirilgan. Har bir oqsoqollik 100 – 200 *xona-don*, ovul 100 – 200 *o'tov*, har bir volost esa 1000 – 2000 *o'tovdan* iborat holda tashkil qilinishi belgilangan.

Boshqaruvning mustamlakachilik tartiblari. O'rta Osiyoning Rossiya impe-riyasi tomonidan bosib olinishi bilan bir vaqtda uni kelgusida qanday bosh-qarish va o'z manfaatlarini yo'lida foydalanish hal qilib borilgan. Shunga ko'ra, Turkiston o'lkasi bosib olingan davrdan boshlab to'liq mustamlaka sifatida boshqaruv tartiblariga asoslangan ma'muriy-hududiy birliklar va ularning boshqaruv tartiblari joriy qilib borilgan. Uning asosiy maqsadi mahalliy aho-lini qattiq nazoratda va tobelikda ushlab turishga qaratilgan edi. Joriy qilingan boshqaruv tartiblari to'liq ravishda harbiy tartiblarga asoslanib, o'lkada imperi-yaning siyosiy va iqtisodiy hukmronligini o'rnatishga qaratilgan edi.

O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi hukumatining yana bir asosiy maqsadi – bu imperiyaning markaziy rayonlaridan bu yerlarga aholini ko'chirib kelti-rib joylashtirish bo'lgan. O'lka ma'muriyati ko'chirib keltirilgan aholiga erkin yashashi va xavfsiz turmush kechirishi uchun yetarli imkoniyatlar yaratib berishga harakat qildi. Ko'chirib keltirilganlar yerlar va kerakli mablag'lar bi-lan ta'minlangan. Aholini ko'chirib keltirib joylashtirishdan yana bir maqsad o'lkada mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishda qo'shimcha tayanch kuchlarga ega bo'lish edi. Bu siyosat mahalliy aholini ruslashtirish imkoni-yatlarini kengaytirishga qaratilgan tadbir bo'ldi.

Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi va boshqaruvi. O'rta Osiyoda bosib olingan hududlar ma'muriy jihatdan bo'linib, ular to'liq harbiy zobitlar qo'l ostida bo'lgan. 1877-yili Toshkentda «*Shahar nizomi*» joriy etilgan bo'lib, unga muvofiq shahar boshqaruvi *Dumaga* o'tgan edi. Duma a'zolarining 1/3 *qismi* Eski shahar qismidan, 2/3 *qismi* esa Yangi shahar qismidan saylan-

gan. Bunga ko'ra, shaharning 80 ming mahalliy aholisidan 21 deputat, 390 nafari asosan ruslardan iborat aholidan esa 48 deputat qatnashgan. Shahar xo'jaligiga oid barcha ishlar Duma qo'lida bo'lgan. Dumaga rahbarlik qiluvchi shaxs general-gubernator tavsiyasi bilan *harbiy vazir* tomonidan tasdiqlangan.

1886-yil 12-iyulda imperator Aleksandr III tomonidan yangi «*Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom*» tasdiqlandi. Mazkur Nizomning asosiy maqsadi o'lkada ma'muriy boshqaruvni mustahkamlash va yerdan foydalanish tartiblarini o'zgartirishdan iborat bo'lgan. Nizomga muvofiq Zarafshon okrugi *Samarqand viloyatiga* aylantirildi. Xo'jand, Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand uyezdlari uning tarkibiga kiritildi. Qurama uyezdning nomi *Toshkent uyezdi* deb o'zgartirildi.

1886-yili Turkiston general-gubernatorligining umumiy hududi 1,7 million kv km bo'lib, aholisining soni 5,2 million kishidan iborat bo'lgan. O'zbeklar va boshqa tub xalqlar 1897-yili 5 millionga, 1911-yili esa qariyb 6 millionga yetgan. Rus aholisining umumiy soni, ukrainlar va beloruslarni ham qo'shib hisoblaganda, 1897-yili 197 ming kishini, 1911-yili esa 400 ming kishini tashkil qildi. Podsho hukumati hamisha ko'chirib keltirilganlar sonining ortib borishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib bordi. Ular mustamlakasiyosatini amalga oshirishda tayanch bo'lib xizmat qilishi lozim edi.

1886-yildagi «Nizom»ga muvofiq Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy boshqaruvi yangi idora – *Turkiston general-gubernatori kengashi* bilan to'ldirilgan. *Viloyat harbiy gubernatorlari, general-gubernator devoni, boshqaruvchisi, Turkiston harbiy okrugi shtabi boshlig'i* bu kengashning doimiy a'zolari bo'lishgan. Buxoroda esa Rossiya imperatorining siyosiy agentligi ta'sis etildi. Uning ruxsatisiz Buxoro amiri tashqi va ichki siyosatda mustaqil ish olib bora olmagan.

19.2. Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining yer-suv siyosati

Qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar. O'rta Osiyo iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rin tutgan. Rossiya imperiyasi agrar hudud hisoblangan Turkiston o'lkasida yer-suvdan foydalanishni to'liq o'z nazoratiga olish va ulardan olinadigan soliqlarning o'z vaqtida to'planishidan manfaatdor edi. Jumladan, yerga egalik qilish va undan foydalanish tartiblariga e'tibor qaratilgan. Agrar masala nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyatga ham ega bo'lgan. Yerga egalik qilish tartiblarini nazorat qilish podsho hukumatiga aholi ustidan hukmronligini ta'minlashda juda muhim edi. Mahalliy aholining asosiy tirikchilik manbai yer bo'lgani bois unga egalik qilish zarur edi.

1886-yildagi «Nizom»ning «*Turkiston o'lkasining yer tuzilishi*» degan bo'limida o'lkada tarixan shakllanib kelgan an'anaviy yerga egalik qilish munosabatlari o'zgartirib yuborildi. Unga ko'ra, Turkiston yerlari, o'rmonlari va yerosti qazilma boyliklari davlat mulki deb e'lon qilindi. Bu bilan ular Rossiya imperiyasi mulkiga aylandi. Nizom bo'yicha, o'lkada yirik yer egaligi ham tugatildi.

Vaqf yerlari (masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalarga tegishli yerlar) ayni vaqtda yashab va yerga ishlov berayotgan kishilarga ijaraga berilar edi. Yangi vaqf hujjatlarini tasdiqlash faqat general-gubernator roziligi bilan bu yerlarni davlat soliqlari va majburiyatlaridan ozod qilmasdan amalga oshirilgan. Masjid tasarrufidan tashqarida, xususiy shaxs ixtiyorida bo'lgan yerlar ham davlat solig'iga tortiladigan bo'ldi. Vaqf hujjatlarini e'tirof etish, vaqf daromadlarining to'g'ri ishlatilishi ustidan nazorat qilish va ularni taftish etish huquqi viloyat ma'muriyati ixtiyoriga o'tkazildi.

Bu vaqtgacha vaqf mulkidan olingan daromadlar maktablar, madrasalar va masjid binolarini ta'mirlashga, xodimlarini moddiy ta'minlashga, diniy marosimlarni bajarishga, kerakli buyumlar olishga (gilam, joynamoz, diniy kitob) va boshqa tadbirlarga sarflanar edi.

Vaqf mulklarini nazorat qilish mustamlakachi hukumat vakillari qo'liga o'tishi bilan masjidlar va maktablarning moddiy ahvoli yomonlashdi. Mustamlakachi hukumat bu bilan mahalliy din peshvolari, ulamolar va diniy muassasalarga zarba berishga harakat qildi.

Rossiyaning O'rta Osiyoga ko'chirish siyosati. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni imperiyaning ajralmas bir qismiga aylantirish va o'lkada doimiy hukmron bo'lib qolish maqsadida Sibir va Kavkaz hududlaridagidek mustamlakachilik siyosati olib borildi. Bu borada asosiy amalga oshirilgan choralaridan biri imperiyaning markaziy guberniya aholisini o'lkaga ko'chirib keltirish hisoblangan. 1886-yildagi «Nizom»da hukumat tasarrufida qolayotgan bo'sh turgan davlat yerlariga rus aholisini joylashtirish muhim ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Ko'chirish siyosati bilan shug'ullanish o'lka ma'muriyati zimmasiga yuklatilgan. Ko'chib kelganlarga katta imtiyozlar berilgan. Jumladan, ular mablag', turarjoy, yer maydonlari, kreditlar bilan ta'minlangan. Ko'chib kelganlar 5 yil davomida soliqlardan ozod etilgan, keyingi 5 yil davomida soliqlarning yarmini to'lagan. Rossiyadan ko'chib kelganlar asosan qishloq aholisi bo'lgan. Ular uchun o'lka ma'muriyati maktab va cherkovlar qurishga mablag' ajratgan. Turkiston o'lkasida harbiy xizmatchilar yashab qolishlari va tomorqa yer olishlari mumkin bo'lgan. Bunday imkoniyatlar Rossiyaning markaziy rayonlaridan ko'plab aholining ko'chib kelishiga sabab bo'lgan. 1875-yili *Avliyootada* Rossiyadan kelgan dehqonlarning birinchi manzilgohi paydo bo'ldi. 15 yil da-

vomida (1875 – 1890) Turkiston o'lkasiga 1300 oila ko'chib kelib joylashib, 11 ta rus qishlog'i tashkil topdi. Faqat 1891 – 1892-yillardagina ko'chib kelganlarning 25 ta manzilgohi paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan nafaqat ko'chib kelgan shaxslar, balki yirik korxonalar ham daromad olish maqsadida o'lkadan yerlar sotib ola boshladi. Rossiya imperiyasining ko'chirib keltirish siyosati Turkiston o'lkasidagi mustamlaka tizimini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan edi. Ko'chib kelganlarga yaratilgan imkoniyatlar o'lkaga ko'chib keluvchilar sonining haddan ziyod ko'payishiga olib keldi.

Ko'chirib keltirib joylashtirilgan aholining ko'payishi, ularga unumdor yerlarning berilishi mahalliy aholi vakillarining jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan. *Toshkent* shahri va o'lkaning *Yangi Marg'ilon*, *Samarqand*, *Andijon* kabi shaharlarida ham ko'chib kelganlarning posyolkalari paydo bo'ldi. O'lkadagi yirik shaharlar ikkiga: yangi – ma'muriyat, harbiy qismlar joylashgan va ko'chirib keltirilganlar yashaydigan qism hamda eski – mahalliy aholi vakillari yashaydigan qismlarga ajratildi. Jumladan, Toshkentdagi *Bo'zsuv* anhuri shaharni ikki qismga ajratgan chegara bo'lgan.

19.3. Turkistonda sud tizimi va harbiy politsiya tartibotining o'rnatilishi

Sudlov tizimining mustamlaka manfaatlariga moslashtirilishi. Turkiston o'lkasida imperiya manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlardan yana biri sud tizimi bo'lgan. Xonlik davrida qozilarning chiqargan qaroridan norozi bo'lganlar qozikalonga murojaat qilgan. Qozilar qat'iy belgilangan uchastkaga ega bo'lishmagan; har bir da'vogar o'zi ishongan qoziga murojaat qilgan. Qozi sud majlisi boshlanishidan oldin tomonlarga kelishib olishni taklif etgan. Bu taklifdan bosh tortilsa, qozi ularga qasam ichirib, tomonlarning arzini, guvohlarning ko'rsatmalarini tinglagan, so'ng qaror chiqargan va bu qaror mahalliy hokimiyat tomonidan zudlik bilan ijro etilgan. Odatda, qozilar asosan bilimdon, adolatli va xalq orasida hurmat qozongan kishilar bo'lgan. Qozilar o'zlariga murojaat qilgan tomonlarga betaraf va ularga nisbatan beg'araz bo'lishi, ulardan pul, sovg'a, har xil xizmatlarni qabul qilmasligi lozim edi.

Podsho hukumati tomonidan dastlab o'lkadagi mavjud sud tizimidagi *qozikalon* lavozimi tugatilib, barcha qozilarning huquqi tenglashtirildi. Boshqa mustamlakachi davlatlar singari Rossiya imperiyasi ham o'z mustamlakasiga aylangan Turkiston o'lkasida dastlab tub joy aholining diniy e'tiqodiga mos ravishda amal qilingan shariat qoidalariga asoslangan qozilik va ko'chmanchi tarzda hayot kechiruvchi aholining urf-odatlariga asoslangan biy sudlarini butunlay tugatmasdan, uni saqlab qoldi. Milliy va diniy

vakillarga asoslangan sudlar faoliyati cheklanib, ular ustidan kuchli nazorat yaratildi. Bu o'zgarishlar bosqichma-bosqich, mahalliy aholining noroziligini keskinlashtirmagan holda amalga oshirib borildi. Bundan tashqari, shu yil bilan podsho hukumati vakillari ko'plab mahalliy aholi o'rtasidagi o'zaro janjal va kelishmovchiliklarga aralashishdan o'zini saqlashga harakat qildi.

Sud organlarining faoliyati. Sud tizimida amalga oshirilgan siyosatda qozi va biy sudlari oxir-oqibat tugatilishi hamda ungacha faqat kichik ko'rishdagi sud ishlarini, ya'ni asosan oilaviy mojarolar, kishilar o'rtasida janjal va kelishmovchiliklarni ko'rib turishi maqsad qilib olingan edi. 1867-yilgi «Nizom» loyihasi bo'yicha, o'lkada qozilar va biy sudlari, uyezd sudlari, muvaqqat harbiy-sudlov komissiyalari, viloyat boshqaruvining sud bo'limlari va general-gubernatorlik Devonining sudlov bo'limi tashkil qilindi.

Sud ishlarida mahalliy aholining o'troq qismi uchun qozi sudlari, ko'chmanchi aholisi uchun esa biy sudlari, volost boshliqlari, qishloq oqsoqollari, ovul boshliqlari va ularning yordamchilari aholi tomonidan *uch yil* muddatga saylangan.

Rossiya imperiyasi yerlik aholiga o'z ta'sirini kuchaytirish uchun 1866-yil Toshkentda *mahkama* joriy qiladi. Uning tarkibiga mahalliy aholi vakillaridan saylangan *qozi* va *7 nafar a'lam* kirgan. Mahkama a'zolari podsho hukumati-ning o'lkadagi ishonchli va sadoqatli yordamchilari hisoblangan.

Qozi sudlarining vakolatlariga da'vo hajmi *100 rubl*dan oshmaydigan jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish kirgan. Yirik da'volar esa qozilar va biylar qurultoyida ko'rib chiqilgan. Bu yig'ilishlar xalq sudyalari qurultoyi deb atalgan. Bular da'vo hajmi *1000 rubl*dan oshmaydigan jinoyat va fuqarolik ishlarini hal qiluvchi ikkinchi bosqich sudlari edi. Qozi sudi, xalq sudlari, ya'ni birinchi bosqich sudi tomonidan qonunga xilof qaror qabul qilingan taqdirda shikoyat qiluvchi keyingi bosqichga murojaat etgan. Uchinchi bosqich sudlari turli volostlar va uyezdlar aholisi o'rtasida yuzaga kelgan bahsli ishlarni hal qiluvchi xalq sudyalarining favqulodda qurultoylari hisoblangan. Qozilar aholining soniga qarab belgilangan. Toshkent shahrida to'rt dahaning har birida bittadan *to'rtta* qozi, Samarqand shahrida *ikkita* qozi, volostlarda *bittadan* qozi bo'lgan.

Turkiston o'lkasida yashaydigan rossiyalik aholi uchun imperiya qonunlari asosidagi sudlar faoliyat olib borgan. Dastlab tashkil qilingan vaqtinchalik harbiy sud komissiyalari bu aholining jinoiy ishlarini ko'rish bilan birga mahalliy aholi tomonidan sodir etilgan siyosiy jinoyatlar va hokimiyatga qarshi jinoyatlarni ko'rib chiqqan. Viloyat va o'lka sudlari vazifalari general-gubernatorlik devoni va boshqarmalari zimmasiga yuklangan edi. General-gubernator o'lkaning *bosh prokurori* va *oliy sudyasi* vazifasini ham bajargan.

XIX asrning oxirida sudlov jarayonidagi o'zgarishlar. O'rta Osiyo mustamlakaga aylantirilganidan so'ng boshqa sohalar singari sud tizimi ham bosqichma-bosqich o'zgartirib borilgan. Qozi va biy sudlariga bo'lib o'tadigan saylovlarda mustamlakachi hukumatning aralashuvi, saylov natijalarini tasdiqlashdagi noto'g'ri ishlar ko'plab janjallarni, mahalliy aholi o'rtasida o'zaro nizolar, ma'muriyatga nisbatan ishonchsizlik va norozilik harakatlarini keltirib chiqargan.

Sudlarga joriy etilgan saylovlar mustamlakachi hukumat ixtiyorida bo'lib, saylovda kimning g'olib chiqishi saylovchilarga qaraganda ma'muriyat xohishiga bog'liq bo'lib qoldi. Kim mustamlakachi ma'muriyatga yoqsa va unga sodiqligiga ishonch hosil qila olsa, o'sha qozi va biy bo'la olardi. Saylovlarda turli xil nayranglar, poraxo'rliklar avj olgan. Buning natijasida saylangan qozi va biylar o'z faoliyati davomida saylov vaqtidagi xarajatlarini turli yo'llar bilan, ayniqsa, poralar hisobiga qaytarib olishga harakat qilishgan. Bu bilan qozilik va biylik serdaromad mansabga aylandi. Qozilar va biylar lavozim egallashi va uni saqlab qolishi uchun mustamlakachi hukumat vakillarining sodiq xizmatkorlariga aylandi.

1886-yilgi «Nizom»da ham Turkiston o'lkasida qozilar sudi saqlanib qoldi. Uyezd sudlari bekor qilinib, ularning o'rniga shahar va zemstvo boshliqlari tomonidan tayinlanadigan *uchastka mirovoy sudyalari* (sudlari) tuzildi. Viloyat boshqaruvining sud bo'limlari *viloyat sudlari* bilan almashtirildi. *Sud tergovchilari, viloyat prokurori va ularning yordamchisi* lavozimlari joriy etildi.

1898-yili Turkiston o'lkasida sud nizomlarini qo'llash qoidalariga muvofiq viloyat sudlari tugatildi, ularning o'rniga *okrug sudlari* va *Toshkent sud palatasi* tuzildi. Toshkent sud palatasi faqat imperiyaning oliy sudi – *hukumat senatiga* bo'ysunar edi. Okrug sudlari Turkiston o'lkasining barcha viloyatlarida joriy etildi. Ularning tarkibi *sud raisi, uning o'rinbosari* va *sud a'zolaridan* iborat bo'lgan. Jazo chorasini sudyalar va ikki sud a'zosi tayinlardi. Ularning qarori ustidan berilgan apellyatsiyani imperiyada oliy sud bo'lgan hukumat senati ko'rib chiqardi. Shunday qilib, Turkiston o'lkasidagi sud tizimi mustamlakachi hukumat vakillari va o'lka ma'muriyati nazorati ostiga o'tdi.

O'lkada harbiy politsiya tartiboti. Turkiston o'lkasida podsho hukumati mahalliy aholining keng ko'lamli qo'zg'olonlarga aylanib ketadigan norozilik harakatlariga qarshi jazolash tadbirlari uchun imperiya manfaatlarini to'liq himoyalaydigan huquqiy asoslar yaratishga harakat qildi. 1881-yili «*Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo'riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Nizom*» e'lon qilindi. Nizomga muvofiq general-gubernator «kuchaytirilgan» yoki «favqulodda» qo'riqlash holatini o'z ixtiyori bilan joriy etish huquqiga ega bo'ldi. Bunday huquq o'lkada qo'zg'olon, «jamoat oso-

ylishtaligi» buzilgan va «tashvishli kayfiyatlar» paydo bo'lgan taqdirda unga o'z ixtiyoriga ko'ra kuch va zo'rvonlik ishlatish mumkinligini anglatar edi. 1892-yildan boshlab 1916-yilga qadar Turkiston «*kuchaytirilgan qo'riqlov*» va «*favqulodda qo'riqlov*» holatida bo'ldi.

Yangi «Nizom» shahar va qishloqlarning har bir mavzesini nazorat ostida saqlab turgan avvalgi politsiya tuzilmalariga qo'shimcha tarzda uyezd boshliqlariga ispravniklar huquqini ham berdi. Bu narsa ularni uyezd politsiya boshqarmalari rahbarlariga tenglashtirgan edi. Ular har qanday odamni yetti kungacha qamoqqa olishga yoki jarimaga tortish vakolatiga ega bo'ldilar. Uchastka pristavlari lavozimi ularga yordam tariqasida ta'sis etilgan edi. Odatda, ular solliqlar yig'imiga, joylarda majburiyatlar, uyezd boshliqlarining qarorlari ijro etilishiga rahbarlik qilgan ofitserlar bo'lib, har qanday o'zgarishlar haqida o'lka ma'muriyatiga ma'lumot yetkazib turgan holda aholi ustidan kerakli nazoratni amalga oshirar edilar. O'z uchastkalari doirasida ular surishtirish va tergov ishlarini yuritishi, qamoqqa olishi va jarimaga tortishi mumkin edi.

1882 – 1884-yillarda o'lkani tekshirgan imperatorning maxfiy maslahatchisi *F.Girs* Turkistonda 2404000 kishi yashashini va ulardan 1200000 kishi erkak ekanligini yozgan. Xuddi shu erkak aholiga harbiy xizmat majburiyatini yuklash masalasiga to'xtalgan podsho amaldori (*F.Girs*) bu qaltis siyosiy tadbir ekanligiga ishora qilib, Turkiston aholisini armiyaga chaqirmaslik siyosatini yoqlab chiqdi. Podsho hukumati mahalliy aholining muntazam armiyada xizmat qilishidan, jangovar harbiy malakalarini oshirishidan, qo'shinlarni yevropachasiga takomillashtirishga o'rgatishdan va zamonaviy qurol-yarog'lardan foydalanish mahoratini egallab olishlaridan cho'chir edi. Shuning uchun mahalliy aholi qulay fursat kelganida ana shunday harbiy mahorat va zamonaviy qurollardan podsho hukumati o'ziga qarshi foydalanishidan ha-diksirar edi. Mahalliy aholini qurolsizlantirish, unda qurolli kurash uchun har qanday umidni yo'qotish, jangarilik unsurlarini bostirish va qadimiy jangovar an'analarni tag-tomiri bilan tugatish Turkiston o'lkasidagi podsho hukumati harbiy siyosatining asosini tashkil etar edi.

19.4. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol

Mustamlaka tartibotining kuchaytirilishi. Turkiston o'lkasida mustamlaka tartiboti harbiy kuch va keng tarmoqlangan politsiya tizimiga asoslangan edi. Bu vaqtgacha mustamlakachilik urushlari olib borish uchun saqlab turilgan harbiy qismlardan endi podsho ma'muriyati tomonidan o'rnatilgan mustamlaka tartiblarini himoya qilish quroli sifatida foydalanadigan bo'ldi.

O'rta Osiyoga temir yo'llarning o'tkazilishi Rossiya iqtisodiyoti uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga harbiy-strategik maqsadlarni ham ko'zlab qurilgan edi. O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida Rossiya imperiyasining mustahkam o'rtnashib olishi va mustamlakachilik siyosatining keng qamrovli olib borilishida temir yo'llar muhim o'rin tutdi. Harbiy qo'shinlar va qurol-aslahalarni Krasnovodskdan Qizilarvatga qadar Kavkazdan O'rta Osiyoga tashish uchun temir yo'l qurildi. So'ngra temir yo'l qurilishi Ashxobodgacha davom ettirildi. 1888-yili dastlabki poyezd *Samarqandga* keldi, 1899-yili esa temir yo'l Toshkent orqali *Andijongacha* qurib bitkazildi.

Rossiya harbiy qurolli kuchlarining asosiy bazalari Kavkazda joylashgan bo'lib, u yerdan Kaspiy dengizi orqali kemada tez kechib o'tish mumkin edi. Krasnovodskdan esa temir yo'l bilan Samarqand, Toshkent va Andijonga yetib kelish oson bo'ldi. Endi harbiy qismlarni Krasnovodskdan Andijongacha bo'lgan 3 ming kilometrdan ziyod masofaga ko'chirish muammo bo'lmay qoldi.

Turkistonda paxta ekini keng tarqalishi va Rossiya kapitali joriy etilishi bilan XX asr boshlarida temir yo'llarning nafaqat harbiy, balki iqtisodiy ahamiyati ham ko'tarildi. 1905-yili Orenburgdan Toshkentga qadar temir yo'l qurib kelindi.

Iqtisodiyotning mustamlaka manfaatlariga bo'ysundirilishi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan O'rta Osiyo hududlarida yashovchi xalqlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Shu bilan birga, o'lka iqtisodiyoti imperiya manfaatlariga to'liq bo'ysundirildi. Bu davrda o'lkaga Rossiya kapitali, Yevropa mahsulotlari va yangi ishlab chiqarish texnologiyalarining kirib kelishi kengaydi. Ko'plab bank va sanoat bo'limlari ish boshladi. Bu o'zgarishlar o'lkada paxtachilik, konchilik, xomashyoga dastlabki ishlov berish, yog'-moy sanoati kabi sohalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Iqtisodiyotdagi o'zgarishlar imperiyaning o'lkadagi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ya'ni bir tomonlama olib borildi. Ishlab chiqarish va savdo-sotiq Rossiya imperiyasi va u orqali boshqa davlatlar bilan aloqalarning kengayishi natijasida rivojlanib bordi. Ayniqsa, imperiya to'qimachilik sanoati uchun paxta yetishtirish ko'paydi. Bu o'lkada boshqa turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarining kamayishiga, ayniqsa, g'alla tanqisligiga sabab bo'ldi. Bu davrda boshqa sohalarga qaraganda sanoatning paxta xomashyosiga dastlabki ishlov berishga mo'ljallangan sohasi rivojlandi. Paxtani faqat tozalash va yog' ishlab chiqarish sohasigina yo'lga qo'yilib, paxta xomashyosidan tayyor mahsulot tayyorlash imperiyaning markaziy guberniyalarida bajarilgan. O'lkadan olingan boshqa xomashyolar, jumladan, jun va teriga ishlov berish ham shunday tarzda bo'lgan.

1867 – 1900-yillarda Turkiston general-gubernatorligida ishga tushirilgan 175 ta sanoat korxonasi bo'lib, ularning aksariyat ishlari qo'l mehnati bi-

lan bajarilgan. Mahalliy sanoat ishchilari xonavayron bo'lgan dehqonlar yoki ishsiz qolgan hunarmandlar hisobidan ortib borar edi. Korxonalarda ish kuni 16 soat bo'lib, ishchilarning huquqini himoya qiladigan tashkilotlar bo'lmagan, ishchilar shikoyat bilan hech kimga murojaat qila olmaganlar. Rossiya imperiyasining markaziy rayonlarida ishlab chiqarilgan sanoat va boshqa turdagi mahsulotlarning o'lkaga kirib kelishi natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar hunarmandlar mahsulotlarining bozori kasodga uchrab, ularning kamayishiga olib keldi. Rossiyadan keltirilgan arzon narxlardagi zavod va fabrika mahsulotlari mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqiladigan mahsulotlar bozorini sindirdi. Buning natijasida o'lkada ko'plab odamlar, ayniqsa, hunarmandlar ishsiz qoldi.

Rossiya sarmoyasi o'lkada ishlab chiqarishni rivojlantirishga emas, balki mavjud tabiiy boyliklarni o'zlashtirishga, arzon xomashyoga ega bo'lishga, ularni tashib ketishga, o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bu o'lkada sotishga qaratildi. Shu maqsadda savdo-sotiq sohasini va temir yo'llarni kengaytirishga katta e'tibor berildi. Podsho hukumati tomonidan o'lkadan olinadigan foydalar bu hududni rivojlantirish uchun emas, balki imperiya xazinasi to'ldirish, Rossiya savdogar va sarmoyadorlarini boyitishga xizmat qildi.

Paxta xomashyosiga bo'lgan ehtiyoj. Rossiya imperiyasining Turkiston borasidagi barcha rejalari paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan edi. O'lkani Rossiya to'qimachilik sanoati uchun asosiy xomashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirish mo'ljallangan edi. Chorvachilikda yaylovlar uchun foydalaniladigan yerlarning paxta maydonlariga aylantirilishi chorvachilikning va chorva mahsulotlarining kamayishiga olib keldi. Bu hol, ayniqsa, Farg'ona vodiysida yaqqol sezilib, bu yerga g'alla va chorva mahsulotlari chetdan olib kelina boshlandi. G'alla, chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ularning narxlarini keskin oshirib yubordi.

Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlari paxta yetishtiriladigan eng muhim markazlar bo'lgan. 1884-yili Turkistonda yangi paxta navi (Amerika navi) yetishtirila boshlandi. Bu nav mahalliy navlarga qaraganda ancha yuqori hosil berar edi.

Podsho hukumati paxta maydonlarining kengayishi va hosilning yaxshi bo'lishi O'rta Osiyo mintaqasida suv bilan bog'liq bo'lganligi uchun irrigatsiya tarmoqlarini kengaytirishga harakat qilgan. 1911-yili *Sirdaryo magistral kanalini* bunyod etish ishlari boshlandi va 1913-yilga kelib tugallandi. Biroq Toshkent vohasi, Samarqand viloyati va Farg'ona vodiysida sug'orish sohasi bo'yicha ishlarning ko'pi bajarilmay qolib ketdi.

Mustamlakachi hukumat uchun paxta o'lkada *neft* va *oltin*dan keyingi o'rinda turuvchi yuqori daromadli sohaga aylandi.

20-BOB. XIX ASR OXIRIDA TURKISTONDAGI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI

20.1. Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining boshlanishi va uning sabablari

Mustamlakachilik jabr-zulmining kuchayishi. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini bosib olgach mahalliy aholining milliy davlatchilik, ozodlik tuyg'ularini so'ndirishni asosiy vazifa deb hisoblagan. Bu vazifani amalga oshirmay turib o'z hukmronligini osongina saqlab bo'lmasligini podsho hukumati yaxshi bilar edi. Har qanday mustamlakachi davlat harbiy va bosqinchilik yo'li bilan bosib olgan hududning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga harakat qiladi. Turkistonda ham xuddi shu taxlitda ish yuritilib, o'lkani Rossiya imperiyasining asosiy xomashyo bazasiga aylantirishga kirishildi. O'lkada sanoat ishlab chiqarish rivojlana borib, kapitalistik munosabatlarga asta-sekin yo'l ochilayotgan bo'lsa-da, bu xalqning moddiy ahvolini yaxshilamadi, balki korxonalar, savdogarlar, amaldorlarning boyishiga yo'l ochib berdi.

Yer-mulkning boylar va yirik savdogarlar qo'lida to'plana borishi kam yerli dehqonlarning, chorakorlarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Sudxo'rlik mislsiz darajada avj oldi. Qarz beruvchi kassa mablag'laridan faqat ayrim vositachilar – boylar, sudxo'rlar, savdogarlar va shunga o'xshash yulg'ichlar foydalanib uni o'zlari xohlaganlaricha tasarruf qilardilar. Paxtani sotib oluvchilar dehqonning nihoyat darajada muhtoj bo'lib qolganligidan foydalanib kelasi yil hosiliga juda past narx belgilab qarz berardi. Sudxo'r changaliga tushib qolgan dehqon xo'jalik mustaqilligidan mahrum bo'lib, qarz bergan kishi nimani buyursa, shuni ekishga majbur edi.

Qarz va nasiyalardan foydalanish avj olgan sari dehqonlarning ahvoli tobora yomonlashib, qashshoqlikka yuz tutgan. Ular qarzlarni tufayli o'z yerlarini sotib yuborishga majbur bo'lganlar.

Turkistonning mustamlakaga aylantirilishi nafaqat dehqonlarning, balki minglab oilalarning tirikchiligini tebratib turgan hunarmand-kosiblarning ham ahvolini og'irlashtirdi. Rossiya sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan uy-ro'zg'or buyumlari, ayniqsa, to'qimachilik mahsulotlari bilan O'rta Osiyo bozorlarining to'ldirilishi natijasida hunarmandchilikning ko'plab turlari inqirozga uchradi. Bu vaqtga kelib iqtisodiy qiyinchiliklar, yashash sharoitining yomonligi, soliqlarning ko'pligi, mehnat majburiyatlarining og'irligidan mahalliy aholining ahvoli yomonlashib ketdi. Bunday holat kambag'allar safining yanada ko'payishiga olib keldi. Bularning barchasi o'lka xalqlarining

siyosiy mustamlaka zulmiga tushishi, milliy davlatchilikning yo'qotilishi va hukmron ma'muriyat tomonidan har tomonlama kamsitilishiga sabab bo'ldi.

Milliy-ozodlik harakatlarining boshlanishi. XIX asr oxirida iqtisodiy qiyinchiliklar va xalqning ma'naviy jihatdan kamsitilishi, mahalliy urf-odatlariga zid bo'lgan qarorlarning qabul qilinishi natijasida Turkiston Rossiya imperiyasining milliy-ozodlik harakatlari avj olgan markazlaridan biriga aylandi. O'lkaning turli joylarida ko'tarilib kelayotgan bu qo'zg'olonlarning harakatlantiruvchi kuchi asosan *dehqonlar, shahar hunarmand-kosiblaridan* iborat aholining kambag'al qismi bo'ldi. Bu harakatlarda vatanparvar *ruhoniylar*, milliy g'ururini yo'qotmagan *mulkdorlar, savdogarlar* ham ishtirok etdilar. Mustamlakachilikka qarshi o'lkaning turli joylarida norozilik chiqishlari bo'lib turdi. Jumladan, 1878-yili *Mingtepada* (hozirgi Marhamat tumani) mustamlakachilarning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi *Yetimxon* boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Uni mustamlakachi hukumat kuch bilan bostirdi. 1879-yilning kuzida mahalliy aholi Farg'ona viloyat boshqarmasi binosi oldiga ochiqchasiga norozilik bildirib yig'ildi. Ular *Marg'ilon* uyezdida soliq to'plash noqonuniy tusga kirganligiga qarshi chiqib, soliqlarning kamaytirilishini qat'iy talab qildilar.

Qo'zg'olon kuchayib ketishi ehtimolini sezgan podsho hukumati komissiya tuzib, vaziyatni o'rganishga kirishdi. Komissiya viloyatda paxta ekishning keng ko'lamda avj oldirilishi, natijada boshqa muhim ekinlar keskin kamayganligi bunga sabab bo'lganini ma'lum qilgan.

1880-yilning noyabrda aholi hamma soliqlarni to'laganligiga qaramay, Xo'jand uyezdining boshlig'i *Xo'jand* va *O'ratepa* tumanlaridagi aholidan qo'shimcha yer solig'i olinishini e'lon qildi. Buning oqibatida sabr kosasi to'lgan aholi *Rahmonqulihoji, Mirkarimboy* boshchiligida odamlar uyezd boshlig'ining mahkamasiga borib, adolatsiz soliqni bekor qilishni talab etdi. Bunga javoban boshliq mirshablarga namoyish rahbarlarini hibsga olishni buyurdi.

Talanchilik, soliqlar va jabr-zulm avjiga chiqqanligi sababli 1882-yilning boshlarida *Namangan* aholisi ma'murlarga qarshi bosh ko'tarib chiqdi. Bu safar ular uyezd boshlig'ining uyini o'rab oldilar. Uyezd ma'murlari harbiy bo'linmani yordamga chaqirib namoyishchilarni qattiq jazoladi.

1885-yilning yozida Farg'ona vodiysida xalq qo'zgonlari qaytadan avj olib, Andijonda *Darvishxon* boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Endi qo'zg'olonchilar kurash usullarini o'zgartirib, boylar va volost boshliqlarining qarorgohlariga hujum uyushtirdilar. Shu yillarda qo'zg'olon birin-ketin butun viloyatga yoyildi.

1896-yili Namangan uyezdining Oqsuv – Shahrixon volostidagi *Naymanchi, Ko'hna mozor, Langarbob* qishloqlarida aholining mingboshilar saylov-

laridagi noroziligi oshkora qo'zg'olonga aylanib ketdi. Turkistonda podsho hukumatining hukmronligi, amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi o'lkaning har bir joyida mahalliy aholi tomonidan turli ko'rinishdagi norozilik harakatlari olib borildi.

Xalq harakatlariga qarshi jazo choralarining kuchaytirilishi. Rossiya imperiyasining savdo-sanoat doiralari Turkiston o'lkasini har tomonlama, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan qaram qilishda faol ishtirok etdilar. Mustamlakachi hukumat dastlab ko'chirib keltirilganlar qishloqlarini o'zbek, qirg'iz, tojik qishloqlaridan ajratib, mustaqil bo'lishini ta'minlagan bo'lsa, keyinchalik bu qishloqlar va mahalliy qishloqlarni birlashtirgan volostlarga rahbarlarni mahalliy aholiga mansub bo'lmagan shaxslardan qo'ya boshladilar. Ular orqali mahalliy aholi ustidan boshqaruv va nazoratni o'z qo'llariga to'liq olish mo'ljallangan edi. O'lka ma'muriyati qo'zg'olonlarning yangi to'lqin bilan kuchayib ketishidan doimiy ravishda xavfsirab turardi. General-gubernator mahkamasi maxsus bo'limining boshlig'i o'z ma'ruzasida «*isyonga moyil*» aholi vakillarini harbiy sudga berish va bu sud o'lim jazosini oshkora ijro etishi haqida fikr bildirdi. U xalqni qo'rquv va tobelikda ushlab turish o'lkada tartib hamda osoyishtalikni ta'minlashga qodir yagona vosita ekanligini uqtirdi.

1892-yildan mustamlakachilar oddiy fuqarolarni ma'murlarga qarshilik ko'rsatgan taqdirda bevosita harbiy dala sudiga bera boshladilar. «G'nohkorlar»ni ochiqchasiga qatl etish endilikda odamlarni qo'rqitish uchun mustamlakachilarga katta huquqlar berdi.

20.2. Toshkentda «Vabo isyoni»

Qo'zg'olonning boshlanish sabablari. 1892-yilning mart oyida Afg'onistonda vabo kasalligi tarqaldi. Bahor faslining oxirlariga kelib bu kasallik Samarqand viloyatining Jizzax uyezdida, 7-iyunda esa Toshkentda ham qayd qilindi. Toshkent shahar ma'muriyati kasallikka qarshi tadbirlar qatorida shahardagi 12 ta qabristonni yopib qo'ydi. Shu kasallikdan vafot etgan kishilar uchun shahardan chekka joyda maxsus qabristonlar ochish va'da qilindi. Lekin amalda shahardan tashqarida faqat bitta qabriston ochildi. Sanitariya tadbirlari xalqqa ishonarli qilib tushuntirilmadi. Bundan tashqari, shifokor-feldsherlar yetishmasligi sababli bemorlarni tekshirish ko'pincha uchinchi yo to'rtinchi kuni o'tkazilar edi. Bu vaqtda aholi o'rtasida mustamlakachi ma'murlar suvni, shifokorlar esa bemorlarni qasddan zaharlayotgani, murdalarning qabrlardan chiqarib tashlanayotgani to'g'risidagi mishmish gaplar tarqaldi. Turkiston o'lkasida 1892-yil 18-iyundan kuchga kirgan «*Harbiy holatda deb e'lon qilingan joylar haqida Qoida*» joriy etildi. Bunday vaziyat aholi orasida sarosima va

norozilik keltirib chiqardi. Bu vaqtda Toshkentning Eski shahardagi xalqparvar oqsoqoli *Inog'omxo'ja Umriyoxo'jaye*v lavozimidan chetlashtirildi. Uning o'rniga tayinlangan shaxs pora olishni kuchaytirish maqsadida boshqa kasallik bilan og'rib vafot etganlarni ham vabo uchun ochilgan shahar chekkasidagi qabristonga ko'mishni buyurdi. Xalq bunga keskin norozilik bildirdi. Bu holat qo'zg'olon boshlanishiga sabab bo'ldi.

1892-yildagi norozilik harakatlarini keltirib chiqargan asosiy sabab, birinchidan, mahalliy aholiga nisbatan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mustamlakachilik jabr-zulmining tobora kuchayib borayotganligi; ikkinchidan, xalq ommasining og'ir ahvoli, hunarmand kosiblar va mardikorlarning ayovsiz ishlatilishi; uchinchidan, iste'mol mahsulotlari narxining to'xtovsiz oshib borishi, soliqlarning ko'pligi; to'rtinchidan, amaldorlarning o'z mansablarini suliste'mol qilishi, poraxo'rliги kabi holatlarning ko'payib ketishi bo'ldi.

Qo'zg'olonning boshlanishi. Tarixda «*Vabo isyoni*» (yoki «Toshotar voqeasi») deb nom olgan qo'zg'olon 1892-yilning 24-iyunida boshlandi. Dastlab mahalliy aholining noinsof amaldorlar va sudxo'rlarga, hokimiyatni suliste'mol qilish bilan tanilgan shahar bosh oqsoqoliga qarshi noroziligi bilan boshlandi. Bu qo'zg'olonchilar asosan *mardikorlar va hunarmand-kosiblardan* iborat edi.

Bu voqeani o'z ko'zi bilan ko'rganlardan biri shunday yozgan edi: «*Qo'zg'olonchilarning maqsadi bo'layotgan kamsitishlarni to'xtatishga erishish edi. Olomon shahar boshlig'i S.Putinsev huzuriga chora ko'rish to'g'risidagi talab bilan yo'lga tushadi. Olomonda o'qotar yoki zamonaviy qurollar ham yo'q bo'lib, ular taxminan 400 kishi atrofida edi*».

Eski shahar oqsoqoli *Muhammad Yoqub* olomondan qo'rqib shahar boshlig'i huzuriga boradi. Xalq *S.Putinsevdan* oqsoqolni ular ixtiyoriga berishni talab qildi. *S.Putinsev* esa muzokara o'rniga kuch ishlatishni afzal ko'rdi. Kuch ishlatish to'g'risidagi buyruqdan keyin sabr kosasi to'lgan xalq uzoq o'ylab o'tirmay hokimga hujum boshladi. Uning odamlarini tor-mor etib, o'zini kaltaklashdi. Toshkent oqsoqolining uyiga o't qo'yishdi. *S.Putinsev* va uning mirshablarini do'pposlagan xaloyiq mahkamani ham ostin-ustin qildi. Qo'zg'olonni bostirish uchun kazaklar polki va bir rota askar chaqirildi.

Qo'zg'olon bostirilgandan keyingi chora-tadbirlar. O'lka ma'muriyatining norozilik harakatlarini shafqatsiz usullar bilan bostirishi, qo'zg'olon ishtirokchilarini ayovsiz jazolashi mustamlakachi hukumatning asl yuzini yaqqol ko'rsatib berdi. Toshkentdagi qo'zg'olon Turkiston mustamlaka ma'muriyatini jiddiy tashvishga soldi. U hukumatga politsiya shtatini ko'paytirish va jazo vakolatlarini yanada kengaytirish haqida murojaat qildi. Sankt-Peterburg Turkiston general-gubernatorining iltimosini qondirib, o'lkada «mirshablik holati»ni joriy etishga ruxsat berdi. Mustamlakachilar uchun keng vakolatlar berildi.

Turkiston general-gubernatori «kuchli muhofazada» deb e'lon qilingan joylarda majlis-yig'inlarni tarqatish, savdo-sanoat korxonalarini yopish, matbuot organlarini taqiqlash, istalgan odamni surgun qilish, jarima solish va boshqa huquqlarni oldi. «Favqulodda muhofazada» deb e'lon qilingan joylarda esa butun hokimiyat *general-gubernator* yoki u tayinlagan *bosh noib* qo'liga o'tdi.

Ushbu qo'zg'olonning bostirilishida mustamlakachilar o'z manfaatlarini yo'lida xalqning urf-odatlarini, diniy e'tiqodini, milliy qadriyatlarini toptashdan ham qaytmasligini ko'rsatdilar. Umuman olganda, mustamlakachilar har qadamda o'zlarining o'lkada hokim va istilochi ekanliklarini mahalliy aholiga namoyish qildi.

20.3. Andijon qo'zg'oloni

Qo'zg'olonning sabablari. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda Rossiya imperiyasi o'rnatgan mustamlakachilik tuzumi mahalliy aholini siyosiy huquqlardan mahrum etdi, milliy, diniy qadriyatlarini tahqirladi, iqtisodini esa imperiya maqsadlariga bo'ysundirib, xalqning turmushi, moddiy ahvolini yomonlashtirib, qashshoqlanishiga olib keldi.

1886-yilgi «Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom»ga ko'ra, o'lkada mustamlaka siyosati qonun hujjatlari asosida mustahkamlab qo'yildi. Buning natijasida o'lka aholisiga nisbatan jabr-zulm yanada kuchaydi. «Nizom»ning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi o'lkada yer masalasini mustamlakachilik manfaatlariga moslashtirish bo'lgan. «Nizom» e'lon qilinganidan so'ng unda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda mahalliy aholining milliy, diniy va mahalliy xususiyatlari inobatga olinmadi.

Mazkur «Nizom» asosida podsho ma'murlari mahalliy xalqqa tegishli yerlarning katta qismini tortib oldi va ular asosida Rossiyadan ko'chib kelganlar uchun yer fondi tashkil etildi. Bunday siyosat yer masalasi juda nozik bo'lgan, aholi zich joylashgan, ayniqsa, sug'oriladigan ekin maydonlari kam bo'lgan Farg'ona vodiysida mahalliy aholining ahvolini yomonlashtirib yuboradi. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysi asosan imperiyaning paxta xomashyosini yetishtirib beruvchi hududga aylantirilgan edi. Vodiya paxta yetishtirishning ko'paytirilishi g'alla, ozuqabop ekinlar maydoni va yaylovlarning qisqarishi, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar narxini keskin oshirib yubordi.

1891-yili Rossiyadan aholining Farg'ona viloyatiga ko'plab ko'chirib keltirilishi, ularning joylashtirilishi yer taqchil va aholi zich yashaydigan vodiyni ahvolini nihoyatda yomonlashtirib yubordi. Shubhasiz, podsho hukumatining bunday harakatlari mahalliy aholi noroziligining yanada ortib borishiga sabab bo'ldi.

Mustamlakachi hukumat Turkiston o'lkasining barcha joylarida mahalliy aholining milliy va diniy qadriyatlarini hisobga olmasdan, ularga qarshi siyosat olib bordi. Podsho hukumati tomonidan o'lkadagi vaqf mulklari qisqartirildi. Vaqf mulklariga tegishli yerlarni tugatishga qaratilgan chora-tadbirlar esa vaqf yerlarining katta qismi davlat mulkiga aylantirilishiga olib keldi. Bu o'lka hayotida, keng xalq ommasi o'rtasida yuqori nufuzli din peshvolari, diniy muassasalar va ta'lim maskanlarida ish olib boradigan mutasaddilarning keskin noroziligini keltirib chiqardi.

Norozilik harakatlariga o'lka ma'muriyatining mahalliy xalq manfaatlaridan imperiya manfaatlarini ustun qo'yuvchi siyosat olib borishi, tub aholi yashash sharoitlarining yomonligi, soliqlarning ko'pligi, amaldorlarning poraxo'rligi va o'z mansabini suiiste'mol qilishlari, to'lovlar hamda majburiyatlarining og'irligi kabilar sabab bo'ldi. Maorif, tibbiy xizmat, obodonchilik ishlari qarovsiz bo'lib, ularga hukumat tomonidan mablag' ajratilmagan. Bunday salbiy holatlar mahalliy xalqlarning mustamlakachilarga nisbatan nafratini oshirib, ularga qarshi q'alayon va qo'zg'olonlar ko'tarishiga olib keldi.

Qo'zg'olonning boshlanishi. Turkiston o'lkasida XIX asrning oxirlarida bo'lib o'tgan qo'zg'olonlardan biri 1898-yildagi mahalliy xalqlarning mustamlakachilarga qarshi qaratilgan Andijon qo'zg'oloni hisoblanadi. Bu qo'zg'olonga vodiy aholisi orasida Dukchi eshon nomini olgan *Muhammad Ali* (1846 – 1898) rahbarlik qildi. Dukchi eshon mutaassib dindorlardan edi. U oddiy fizikaviy holatlardan foydalanib sodda xalq o'rtasida mo'jizalar ko'rsatgan. Uni «avliyo» deb hisoblagan aholi qo'zg'olonga boshchilik qilishga undagan. 1898-yilning bahor faslida vodiyning turli joylarida Muhammad Ali boshchiligida qo'zg'olon bo'lishi haqida gaplar tarqaladi. Bu voqea va Dukchi eshon to'g'risidagi ma'lumotlardan mustamlakachi ma'murlar ham xabardor bo'lgan.

Mahalliy aholining mustamlakachilik jabr-zulmiga qarshi norozilik harakatlarining oshkora qo'zg'olon ko'rinishida boshlanib ketishiga 1898-yil 17-may kuni Muhammad Ali o'z odamlari orqali atrofdagi qishloqlarga xabar tarqatib, qo'zg'olon boshlash vaqti kelganligini e'lon qilishi sabab bo'ldi. Shu kuni tunda qo'zg'olonchilar tomonidan *Tojikqishloq*dagi telegraf simlarining qirqib tashlanishi bilan qo'zg'olon boshlanib ketdi. Ular yo'lda uchragan *Asaka* pristinini o'ldirdilar. Dukchi eshon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar ikkiga bo'linib, ularning biriga *Ziyovuddin maxsum* boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar *Qutchi* qishlog'iga yetib borganlarida ularning safiga yana 200 kishi, *Qo'yli* qishlog'iga borganlarida esa mingboshi *G'oyibnazar* o'z odamlari bilan qo'shildi. Shundan keyin qo'zg'olonchilar *Andijon*dagi harbiy kazarmaga hujum qildilar.

Qo'zg'olonchilar bilan mustamlakachi ma'muriyat harbiy kuchlari o'rtasida ro'y bergan to'qnashuvdan keyin kuchlar va harbiy qurol-aslahalar teng

bo'lmaganligi bois qo'zg'olonchilar chekinishga majbur bo'ldilar. Bu to'g' nashuvda harbiy kazarma jangchilaridan 22 tasi o'ldirildi, 22 tasi yarador bo'ldi. Qo'zg'olonchilardan 11 tasi halok bo'ldi, 8 tasi yaralandi. Shaharda harbiylar bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida ro'y bergan ayovsiz otishmalar natijasida nafaqat qo'zg'olonchilar, balki ko'plab tinch aholi vakillari ham halok bo'ldi.

Qo'zg'olon boshlanganligi to'g'risidagi xabar olinishi bilan podsho hukumati zudlik bilan chora ko'rishga va uni bostirishga harakat qildi. Qo'zg'olon Andijonda, ayniqsa, ruslar yashaydigan Yangi shaharda vahima uyg'otdi. Mustamlakachi amaldorlardan tortib to' oddiy fuqarolargacha sarosimaga tushib uylariga berkinib oldilar. Hatto tumanboshi polkovnik *Konshevskiy* ham ko'chaga chiqmay, o'z uyidan telefon orqali harbiy kuchlarni chaqirdi. Harbiy kuchlar uch soat ichida Andijonga yetib kelib, Yangi shaharda duch kelgan mahalliy aholini o'qqa tutdilar. Buning natijasida umuman qo'zg'olonga aloqasi bo'lmagan yuzlab odamlar mustamlakachilar o'qidan nobud bo'ldi.

Qo'zg'olonning bostirilishi. Andijondagi 1898-yil qo'zg'olonidan keyin podsho Nikolay II Turkiston general-gubernatori general-leytenant *A.Vrevskiy* ni lavozimidan chetlatib, uning vazifasini vaqtinchalik Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori *N.Korolkov* zimmasiga yukladi. U mustamlakachilik siyosatini o'ta qattiqqo'llik bilan amalga oshirish borasida nafaqat o'lkada, balki imperiya hukmron doiralari orasida ham tanilgan edi. Uning zimmasiga qo'zg'olonchilarni batamom yo'q qilishga qaratilgan jazo ekspeditsiyasiga shaxsan rahbarlik qilish ham topshirildi. *N.Korolkov* 1898-yil 20-may kuni qo'zg'olon ko'tarilishining oldi olinmaganligi uchun Farg'ona viloyat harbiy gubernatori va bir qancha amaldorlarni lavozimidan bo'shatdi. Mustamlakachi hukumat qo'zg'olonni batamom bostirish uchun unda ishtirok etganlarni shafqatsiz jazoladi. Qo'zg'olon bostirilgach, *ikki ming* kishi hibsga olindi. Xalq ko'z o'ngida qo'zg'olonchilar namoyishkorona jazolandi. Dukchi eshon va uning yaqin safdoshlari osib o'ldirildi. Manbalarga ko'ra, jami *380 kishi* o'lim jazosiga mahkum qilindi.

Ammo xalqning yanada g'azablanishidan xavfsiragan imperiya ma'muriyati, xususan, harbiy vazir *A.N.Kuropatkin* yangi tayinlangan Turkiston general-gubernatori *S.M.Duxovskoyga* o'lim jazosini ko'paytirmaslik haqida telegramma jo'natdi. Unda o'lim jazosini katorga va qamoq jazosiga almashtirish to'g'risida ko'rsatma beriladi, lekin *22 kishiga* berilgan o'lim jazosi o'z kuchida qoldi.

1898-yili bo'lib o'tgan qo'zg'olon mahalliy aholining o'z jonlarini xavfga qo'yib mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash olib borishlari mumkinligini ko'rsatdi. Ular qo'llariga qurol olib, toptalgan haq-huquqlari, orzu-umidlari uchun jang qildilar. Qo'zg'olon izsiz ketmadi. U keng xalq ommasiga ozodlik uchun kurash sari yo'l ko'rsatdi va minglab odamlarni mustamlakachilik jabr-zulmiga qarshi faol kurashishga ilhomlantirdi.

1898-yilgi qo'zg'olon garchi tor-mor etilgan bo'lsa-da, mahalliy xalqlarning mustaqillik va ozodlik uchun kurashlarini to'xtata olmadi. O'lkaning turli hududlarida norozilik harakatlari turli ko'rinishlarda davom etdi. Qo'zg'olon bo'lganidan bir yil o'tib, 1899-yil 20-iyunda Farg'ona vodiysida yana yangi qo'zg'olon boshlandi. Mustamlakachilikka qarshi qo'zg'olonlar Turkiston o'lkasining deyarli barcha hududlarida davom etdi. Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi uchun eng notinch, to'xtovsiz norozilik harakatlari va qo'zg'olon bo'lib turadigan hududga aylanib qoldi.

Qo'zg'olonchilarning xatolari. 1898-yili Andijonda boshlangan qo'zg'olon ham o'lkaning boshqa joylarida bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar singari mustamlakachi hukumatning harbiy kuchlari tomonidan bostirildi. Qurolsiz qo'zg'olonchilar yaxshi qurollangan mustamlakachilarga qarshi kurashlarda g'alaba qilishi amri mahol edi. Bu qo'zg'olonni mag'lubiyatga olib kelgan sabablardan biri uning o'lka bo'ylab keng yoyilib ketmaganligi va mahalliy aholining barcha tabaqalari unda ishtirok etmaganligi bo'ldi.

Qo'zg'olonchilar mustamlakachilarga qarshi qaratilgan harakatlari bilan, eng avvalo, o'lkadagi jabr-zulmga chek qo'yilishiga erishmoqchi bo'lgan edilar. Qo'zg'olonni tashkil qilishdan boshlab unga boshchilik qilishgacha qat'iy tartib va intizom yo'qligi qo'zg'olonchilar mag'lubiyatiga yana bir sabab bo'ldi. Qo'zg'olon ko'targanlarning tarqoqligi, aniq reja ishlab chiqilmaganligi, hamma bir vaqtda ko'tarilmaganligi ularga pand berdi. Xususan, *Ketmontepa* va *Ko'gard*dagi odamlarga boshchilik qilgan *Chibil bo'lis* Dukchi eshonga zudlik bilan qo'shilish o'rniga atrofi-da joylashgan mustamlakachilarga qarshi kurash olib borishga harakat qilib taktik xatoga yo'l qo'ydi. Aholining ayrim tabaqalari qo'zg'olonga qo'rqqanidan, ba'zilar qo'zg'olon g'alaba qozonishiga ishonmagani uchun qo'shilmadi.

Dukchi eshonning yetarli darajada tayyorlanmay, harbiy sohadan bexabar, yaxshi qurollanmagan muridlari bilan ochiqchasiga qo'zg'olon ko'targanligi mustamlakachilarning qo'zg'olonni osonlik bilan bostirishiga imkon berdi. O'lkada hukmron bo'lib olgan mustamlakachi hukumat qo'zg'olonni bostirishga erishdi. Andijonda ko'tarilgan qo'zg'olon nafaqat Turkiston o'lkasi ma'muriyatini, balki Rossiya imperiyasi hukumatini ham qattiq xavotirga solib qo'yadi. Qo'zg'olondan keyin o'lkaning har bir hududida norozilik kayfiyatidagi barcha aholini qattiq nazoratda ushlab turishga qaratilgan choralar ko'rildi. Har qanday norozilik ko'rinishdagi harakatlarni ayovsiz bostirishga kirishildi.

20.4. Milliy-ozodlik harakatlarining ahamiyati

XIX asr oxiridagi qo'zg'olonlarning umumiy xususiyatlari. XIX asrning ikkinchi yarmidagi milliy-ozodlik harakatlari Turkiston o'lkasining podsho hukumati tomonidan istilochilik yo'li bilan bosib olinganligini yana bir karra isbotladi. Istilo qilingan hududlar imperiyaning tarkibiga mustamlaka sifatida kirib, turli yerlarda imperiyaning siyosiy, iqtisodiy va geopolitik manfaatlarini birinchi o'ringa qo'ydi. O'lka arzon xomashyo bazasiga, Rossiyada tayyorlangan mahsulotlar uchun tayyor bozorga, uning aholisi esa arzon ishchi kuchiga aylandi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida olib borilgan milliy-ozodlik harakatlari mahalliy aholining turli ko'rinishlardagi chiqishlarida o'z aksini topdi. Bularga asosiy sabab soliq va majburiyatlarning og'irligi, mahalliy boshqaruv vakillarining sotqinlarcha podsho ma'murlariga xizmat qilishi, Rossiya o'lkalaridan ko'chirib keltirilgan aholiga yangi ekin maydonlarining bo'lib berilishi, narx-navoning oshib ketganligi, turmush sharoitlarining yomonligi kabi holatlar tufayli ro'y berdi. Bundan tashqari, mahalliy aholi uchun tibbiy xizmat ko'rsatishning yo'qligi, yangi ishlab chiqarish va texnologiyalarning faqat imperiya manfaatlariga xizmat qilishi ham tub joy aholi vakillarining ommaviy ravishdagi norozilik chiqishlarida ishtirok etishiga olib kelgan edi.

XIX asrning o'rtalaridan boshlangan milliy-ozodlik harakatlari o'lkaning turli hududlarida to'xtovsiz tarzda davom etdi.

Bu davrda bo'lib o'tgan milliy-ozodlik harakatlarining aksariyati o'lkaning ma'lum bir hududlarida bo'lib o'tgan bo'lsa-da, uning aks sadosi butun o'lka bo'ylab tarqaldi. Har bir qo'zg'olon boshqa joylarda ham norozilik chiqishlarining ko'tarilishiga hamda u yerdagi aholini ozodlik uchun mustamlakachilarga qarshi kurash olib borishiga ruhan ta'sir ko'rsatdi.

Qo'zg'olonlar bostirilgani bilan, uning ishtirokchilari o'lkaning turli hududlariga qochib borib, o'z harakatlarini davom ettirdilar.

Qo'zg'olonlarning ahamiyati. XIX asrning ikkinchi yarmida bo'lgan milliy-ozodlik harakatlari o'lka xalqlarining deyarli barchasidan vakillar ishtirok etganligi bilan ahamiyatli. Shu bilan birga, qo'zg'olonlarda aholining turli tabaqa vakillari, ya'ni dehqonlar, hunarmandlar, din ulamolari, qishloq qochoqollari, mingboshilar, qozilar, hatto katta mulk egalari, savdogarlar ishtirok etganlar.

Bu qo'zg'olonlarda podsho hukumati o'lka tub aholisining mustaqillik va ozodlik yo'lidan qaytmasligini, har qanday jabr-zulm, kuchli nazorat va qattiq jazolar ularni ezgu niyatlaridan chekintirmasligini tushunib yetdi. Mustamlakachi hukumat o'lkani qo'ldan chiqarmaslik uchun ehtiyotkor va vazmin siyosat olib borish kerakligini anglab, kelgusida qo'zg'olonlar ko'tarilmasligi uchun har tomonlama ish ko'rishga harakat qildi.

XIX asrning ikkinchi yarmidagi milliy-ozodlik harakatlari vatanimiz ta-
rifi milliy mustaqillik va ozodlik kurashi sifatida muhim o'rin tutadi. Bu
asrdagi milliy-ozodlik harakatlari *Po'latxon, Qurbonjon dodxoh, Yetimxon,*
Qasbiyxon, Muhammad Ali eshon kabilar boshchiligida bo'lib o'tdi.

XIX asrning ikkinchi yarmidagi milliy-ozodlik harakatlarida Turkiston
aholisining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va milliy-ozodlik uchun kurashlari
yana birlashgan holda sodir bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning ikkinchi yarmidagi milliy-ozodlik ha-
rakatlari o'lka aholisining ijtimoiy holati, milliy kelib chiqishidan qat'i nazar,
watan mustaqilligi, yurt ozodligi, xalq erkinligi barchaning umumiy maqsadi
ekanligini anglatadi.

Qo'zg'olonlar xarakteriga ko'ra milliy-ozodlik ko'rinishida yuz berdi,
chunki bu qo'zg'olonlarning asosiy kuchi keng xalq ommasi bo'lib, ular
mustamlakachilik tartiblariga qarshi mardonavor kurash olib bordi. Ular
yurtning haqiqiy fidoyi farzandlari ekanliklarini amalda isbotladilar va jaso-
ratlari bilan Vatán tarixi sahifalaridan munosib o'rin egalladilar.

21-BOB. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLAR

21.1. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti

XIX asrda qoraqalpoqlar. Tarixan qoraqalpoqlar Ural, so'ngra Volga
bo'ylarida, Orol atrofi hamda Sirdaryoning quyi havzalari etaklarida ya-
shab kelganlar. Ularning ko'chib yashashlariga ko'proq tashqi omillar sabab
bo'ldi. Nihoyat, ular XIX asr boshlarida Quyi Amudaryo havzasi, Orolning
janub va janubi-g'arb tomonlarida muqim hayot tarziga o'ta boshladilar.
Qoraqalpoqlar goh qozoqlar, goh turkmanlar hujumlariga uchrab, buning
oqibatida Xiva xonligi fuqaroligiga o'tdilar. Quyi Amudaryoning katta cho'l va
suv chiqmagan cho'lga tutash sho'rxok yerlarini ular o'zlarining mashaqqat-
li mehnati evaziga o'zlashtirdilar. O'troq hayotga o'tilgach, dehqonchilik
bilan shug'ullanish qoraqalpoqlar hayotida asosiy o'rinni egallay boshladi.
Shunday bo'lsa-da, chorvachilik ham qoraqalpoqlar hayotida yetakchi so-
halardan biri bo'lib qolaverdi.

XIX asr o'rtalarida qoraqalpoqlar Xiva xonligi hukmronligi ostida bo'lib,
ular Amudaryoning har ikkala qirg'og'ida va Orol dengiziga quyiladigan yer-
larda yashagan. Ularning soni o'sha vaqtda taxminan 100 ming nafardan

oshmagan. Qoraqalpoqlarga berilgan yerlar xonlik mulki sanalgan, ular bu yerlar uchun soliqlar to'laganlar. Har xil majburiyatlarni bajarganlar.

Qoraqalpoqlarning ijtimoiy hayoti. Qoraqalpoqlar urug'larga bo'lingan, ular da yerdan foydalanish jamoa tariqasida kechar edi. Urug'lar sug'orish kanallari qazilishi uchun mas'ul bo'lishgan. Chorva xususiy mulk bo'lgani bois unga urug' tamg'asi urilar va jamoa yaylovlarida boqilar edi. Qoraqalpoqlarning har bir ovul aholisi bitta urug'ga mansub edi. Qoraqalpoqlarni boshqarish qulay roq bo'lishi uchun Muhammad Rahimxon I «*Qoraqalpoq ulusi*»ni shakllantirdi. barcha qoraqalpoq jamoalari ana shu ulusga kirgan. Ulusni boshqarish xonning ixtiyorida edi. Urug'lar va qabilalar ancha yirik guruhlariga birlashtirilib, ularni boshqarish uchun xon saroyining oliy amaldorlari – *otaliq va beklarbeg* tayinlangan. Ayrim viloyatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimlar, odatda, xonning yaqin qarindoshlari bo'lishgan.

Qoraqalpoq ruhoniylari, eshonlari va aholining nufuzli kishilari Xiva xonlarining alohida homiyligida bo'lgan. Qoraqalpoqlar orasida sudlarning ikki turi – *qozilar sudi va biylar sudi* mavjud edi.

Xo'jaligi va mashg'ulotlari. Qoraqalpoqlar XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib o'troqlashib, dehqonchilik ular hayotida asosiy o'rinni egallay boshladi. Ammo chorvachilik ham yetakchi sohalardan biri bo'lib qolaverdi. Dehqonchilik ishlari qizg'in vaqtlarda qoraqalpoq oilalari ekinzor yerlarning qulay bir joyiga o'z o'tovlarini qurib mehnat qilganlar. Ana shunday tinch mehnat bilan band bo'lgan paytlarda bosqinchilik bilan boylik orttirishni kasb qilib olgan qarog'chi guruhlar qoraqalpoqlar o'tovlariga to'satdan hujum qilar edi. Bu kutilmagan bosqin natijasida ular ko'plab mol-mulklaridan ajralardi. Bunday paytlarda yurt oqsoqollari Xiva xonidan o'zlarini himoya qilishni so'rab choparlar yo'llardilar.

Qoraqalpoqlar hayotida *baliqchilik va ovchilik* ham muhim o'rin egallagan. Amudaryo bo'ylarida va Orol dengizi atrofidagi ko'llarda baliqlar serob bo'lib, ular ko'plab oila hamda urug'lar uchun asosiy tirikchilik manbai edi. Hatto sharqdan g'arbg'a borayotgan savdo karvonlari *tuzlangan baliqni* ko'p miqdorda ana shu baliqchilik bilan shug'ullanuvchi oilalardan olib ketardilar. Qoraqalpoqlar asosan ro'zg'or uchun zarur buyumlarni tayyorlash bilan shug'ullanar edilar. Ehtiyojdan ortgan buyumlar esa bozorga chiqarilgan. Ular o'tovlarning atrofini o'rash uchun matolar, tuya junidan guldor namatlar to'qir edilar. Ularning xalq amaliy san'atida o'tovlar uchun o'ymakor eshiklar, uy-ro'zg'or buyumlari yasash, gilam to'qish, kashtachilik yuqori darajada rivojlangan. Bu qoraqalpoqlarda xo'jalik va turmush talablarini ta'minlab turuvchi hunarmandchilik sohalarining ham rivojlanganligini, ular, ayniqsa, yog'och va suyakka ishlov berish borasida qo'li gul usta bo'lishganligini ko'rsatadi.

Qoraqalpoqlarda urug'chilik va qabilaviy munosabatlar. XIX asrda ham qoraqalpoqlarning ayrim ovullarida urug' munosabatlari mustahkam tarzda davom etdi. Xitoy-qipchoq, mang'it va kenagas qabilalari tarkibidagi urug'lar «o'n to'rt urug'» – aris (urug') birlashmasini tashkil qilgan. Arislar orasida eng yirigi o'n to'rt urug' bo'lsa, harbiy kuch borasida ikkinchi o'rinda shulluk va jounurni birlashtirgan *aris-qo'ng'irotlar* turar edi. Ularda yer-suv mulki, chorva mahsulotlari urug'niki hisoblansa-da, urug' oqsoqollari, ruhoniylar va biylarning ulushi katta miqdorni tashkil qilgan. Bu hol XIX asr ikkinchi yarmida tabaqalanish jarayonining kuchayishini yanada tezlashtirdi.

Qoraqalpoq urug'larini boshqarish *biy* va *uning oqsoqollari* qo'lida bo'lgan. Urug' biylarini Xiva xonlari tayinlar va mansabga tayinlanganligini tasdiqlovchi yorliq berar edi. Biylar qo'l ostidagi urug' a'zosini jazolar, loyiq deb bilgan odamlariga tortiq va hadyalar in'om qilardi. Xiva xonining ishonchini qozongan biylarning vakolatlari yanada kengaytirilib, ularga alohida muruvvat ko'rsatilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida butun qoraqalpoq urug'larini boshqarish, soliqlarni undirish, harbiy xizmatni o'tash majburiyatlariga doir ishlarni tartibga solish maqsadida *beklarbegi* lavozimi tayin etilgan. Ayrim tumanlarni idora qilish uchun esa xon o'zining qarindosh-urug'lari va ishonchli odamlarini qoraqalpoqlar yashayotgan Quyi Amudaryo va Orolbo'yi hududlariga jo'natib turgan. Islom dini asoslarini qoraqalpoq xalqi orasida mustahkamlash, yoshlarini Xiva madrasalariga jo'natib turish uchun Xivadan musulmon ruhoniylari ham jo'natilgan.

Urf-odatlari va turmush tarzi. Qoraqalpoqlarda urug'chilik o'ziga xos qadriyat bo'lib, uning ta'siri oila va qarindoshchilik munosabatlarida ko'zga tashlanib turar edi. Har bir urug' o'z qavmining mustahkamligini ta'minlashga intilgan.

Har bir urug'ning o'ziga xos dafn marosimlari bo'lib, ularning qabristonlari ham alohida edi. An'ana bo'yicha, qabristonga ularda shu urug'ning mashhur avliyo yoki pir darajasidagi kishilari dafn etilgan.

To'y marosimlarida urug'ning barcha a'zolari ishtirok etishi shart bo'lgan. Umuman olganda, qoraqalpoqlar ko'chmanchilikdan o'troq turmushga o'tishgacha bo'lgan uzoq davrda, xalq bo'lib shakllanish jarayonida o'ziga xos ma'naviy-moddiy qadriyatlar yaratdi. Mehr-oqibat, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan turmush tarzi shakllandi. «Qirqqiz» va boshqa turkiy xalqlarning ma'naviy mulki bo'lgan turli xil dostonlarida mardlik, erksevarlik, Vatanga sadoqat, sof sevgi, or-nomus ustuvor edi. Bu g'oyalar qoraqalpoq xalqi hayotidan mustahkam o'rin oldi.

21.2. Soliq va majburiyatlari. Xalq qo'zg'olonlari

Soliq va majburiyat turlari. Qoraqalpoqlar ham Xiva xonligining fuqarolari singari o'sha davrdagi xonlikda mavjud soliqlarni to'lab, majburiyatlarni bajarganlar. Aholidan yer solig'i – *solg'ut*, ruhoniylar foydasiga – *ushr* solig'i undirilgan. Urush paytlarida qoraqalpoqlar ham *qozon puli* solig'ini to'lar edilar.

Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi har bir oila chorva mollarining qirقدan bir qismini *zakot* solig'i tariqasida to'lagan. XIX asrning ikkinchi yarmida aholidan 40 bosh qoramol uchun pul hisobida 9 *so'm*, 40 bosh qo'y va echki uchun 2 *so'm 50 tiyin* pul miqdorida zakot olingan.

Soliqlarni to'lashdan tashqari qoraqalpoqlar ko'pincha soliqlardan og'irroq bo'ladigan turli majburiyatlarni ham bajarganlar. Majburiyatlardan eng og'iri har oiladan bitta erkak kishining 12 *kun* davomida ariq qazish ishlarida qatnashishi edi. Majburiyatlarning butun og'irligi urug' jamoasining oddiy a'zolari zimmasiga tushardi. Urush holatlarida aholining majburiy harbiy xizmatga chaqirilishi ham asosiy majburiyatlardan biri edi. Bunda har bir jamoa 1000 *tadan 2000 tagacha* askar berishi lozim bo'lgan. Askar yetkazib bera olmagan jamoalar qo'shimcha soliq to'lagan. Safarbarlik paytida bunday jamoalardan 180 *ming so'mdan 250 ming so'mgacha* pul yig'ilgan. Jang harakatlari davomida qoraqalpoqlar orasidan ko'plab bahodir jangchilar yetishib chiqqan va ular xonning iltifatiga sazovor bo'lgan.

Xalq qo'zg'olonlari. Xiva xoni *Muhammad Aminxon* (1845 – 1855) hukmronligining oxirlarida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga harbiy tahdidi kuchayib ketdi. Ular turkman sardorlari bilan qoraqalpoq oqsoqol va biylarini Xiva xoniga qarshi qo'yib xonlikni parokandalikka uchratishga urindilar. Buning ustiga, o'sha vaqtda Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasida hududiy nizolar ham mavjud edi. Xiva xoni mudofaani kuchaytirish choralarini ko'rdi. Bu ko'plab xarajatlarni talab qilardi. Bo'shab qolayotgan xazinani to'ldirish uchun aholiga solinadigan soliqlar miqdorini oshirib berrardi. Rossiya imperiyasi o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq hamda qoraqalpoq xalqlarini bir-biriga qarshi qo'yib, hatto turkman, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq urug' boshliqlarini katta pul evaziga sotib olish siyosatini ham yurgizgan.

Bu jarayonlar natijasida 1855-yil qoraqalpoqlarning *qo'ldovli* qabilasidan bo'lgan *Ernazarbiy* boshchiligidagi qo'zg'olon boshlanadi. Qoraqalpoqlar bundan buyon Xiva xonligiga bo'ysunmasligini e'lon qiladilar. Ernazarbiy Rossiya ta'sirida bo'lgan qozoq urug' boshliqlaridan biri *Zariqni* xon qilib ko'tarish va imperiya tobeligiga o'tishga intilardi. Rossiya imperiyasi xuddi mana shu qabiladagi qo'zg'olon va xatti-harakatlarni nafaqat pul-mablag'lar bilan, balki harbiy yordam yuborish bilan ham qo'llab-quvvatlashga uringan.

1856-yili *Said Muhammadxon* Xiva taxtiga o'tirgach Ernazarbiy qo'z-g'olonini bostirish uchun katta qo'shin yuboradi. Xivadan yuborilgan yashovulboshi *Muhammadniyoz* Ernazarbiy qo'z-g'olonini tor-mor etish uchun o'tlandi. Buni eshitgan Ernazarbiy o'zi qurdirgan *Qozoqdaryo* qo'rg'oniga joylashib olib mudofaa jangiga tayyorgarlik ko'rdi.

Katta qo'shinning qamal qilishga kirishganligini ko'rgan qo'z-g'olonchilar orasida kelishmovchilik chiqadi va Ernazarbiy otib tashlanadi. Uni oxirigacha qo'llab-quvvatlashga ahd qilgan guruhlar esa maxfiy yo'llar orqali qal'adan chiqib, 1853-yili Rossiya qo'shinlari tomonidan bosib olingan *Oqmachit* qal'asidan panoj topishadi. Ular podsho hukumatidan qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi fuqaroligiga o'tkazilishini so'rab murojaat qildilar. Butun qoraqalpoq xalqi nomidan gapirish huquqiga ega bo'lmagan ayrim oqsoqol yoki biylarning murojaati Rossiya tashqi ishlar va harbiy vazirliklari tomonidan bo'rttirilib, «*Rossiyaga butun turkiy qabilalar o'zlarini qo'shib olishni so'rab murojaat qilayotirlar, ular na Xiva, na Qo'qon xonlari tarkibida bo'lishni istashmayapti*» degan bahonada o'z xatti-harakatlarini oqlashga urindilar.

1858 – 1859-yillarda qoraqalpoq urug'laridan ayrimlari yana qo'z-g'olon ko'taradilar. *Qo'ng'irot* shahri qo'z-g'olon markaziga aylandi. Xiva xoni qo'z-g'olonchilarni shafqatsiz jazolash va tor-mor keltirishni turkman jangovar kuchlari boshlig'i *Otamurodxonga* topshirdi. Natijada qo'z-g'olon ayovsiz bostirilib, uning markazi *Qo'ng'irot* shahri vayron etiladi.

Ko'pchilik qoraqalpoqlar Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shilishni istamay jondosh va qondosh turkiy xalq – o'zbeklar bilan birgalikda yashash ahamiyatini yaxshi tushunar edilar. Kelib chiqishi azaldan bir bo'lgan ushbu xalqlarda yagona turkiy zaminda birga yashash istagi ustunlik qilardi.

Podsho hukumati tomonidan Xiva xonligi protektoratga aylantirilganidan so'ng Amudaryo bo'limidagi qoraqalpoqlarga nisbatan jabr-zulm kuchaydi. *Biy-bozor* va *Nukus* volostida mustamlakachilarga qarshi *Bobo Go'klan* boshchiligida xalq qo'z-g'oloni jiddiy tus olib, qariyb *o'n yil* (1881 – 1891) davom etdi.

Dehqonlarning ahvoli og'irlashishi oqibatida 1900-yili *Nukus* volosti va *Qo'ng'irot* bekligida norozilik harakatlari amalga oshirildi. Bunday harakatlar mustamlakachi hukumat tomonidan ayovsiz bostirildi.

21.3. Qoraqalpoqlar Turkiston general-gubernatorligi tarkibida

Gandimiyon shartnomasidan so'ng qoraqalpoqlar hayotidagi o'zgarishlar. Xiva xonlari tomonidan qoraqalpoqlarning ko'chmanchi hayoti cheklan-ganidan so'ng qisqa davr mobaynida ular xonlikda bir nechta yangi dehqon-

chilik tumanlarini tashkil etishdi. XIX asrning 70-yillariga kelib ular deyarli o'troq turmush kechira boshladilar. Qoraqalpoqlar Amudaryoning har ikkala qirg'og'ida yastanib yotgan kengliklarni o'zlashtirib, sholi, bug'doy, arpa va paxta yetishtirishdi. 1868-yili Rossiya gazetalaridan biri shunday yozadi: «*Bu xalqning asosiy va deyarli birdan bir hunari dehqonchilikdir. Mehnatsevarlik sharofatidan qoraqalpoq yarlari yaxshi sug'oriladi va hech qayerda, hatto chig'ir bilan ko'tariladigan joylarda ham suv taqchilligi sezilmaydi*».

Podsho hukumati qo'shinlarining 1873-yili Xiva xonligiga bosqinchilik yurishidan va Gandimiyon shartnomasi imzolanganidan keyin Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan qoraqalpoqlar yashaydigan yerlar Rossiya imperiyasiga qo'shib olindi. Bu yerda Turkiston general-gubernatorligining Sirdaryo viloyati tarkibiga kiruvchi *Amudaryo bo'limi* tashkil etildi. Qoraqalpoqlarning Amudaryoning chap qirg'og'ida yashagan kamroq qismi Xiva xonligi tarkibida qoladi.

Amudaryo bo'limida qoraqalpoqlar soni qariyb 70 ming kishiga yetib, bu yerdagi jami aholining 48,6% ni tashkil etar edi. Rossiyadan ko'chib kelgan odamlar qariyb ming kishi bo'lib, *Petro-Aleksandrovskda* (hozirgi To'rtko'l), *Uralskiy* posyolkasida va *Nukus* qishlog'ida yashardi. Ularning aksariyati 1875-yili podsho hukumati tomonidan armiya xizmati to'g'risidagi yangi nizomga bo'ysunmagani uchun bu yerga surgun qilib ko'chirilgan *Ural kazaklari* edi. Bu kazaklar asosan *balig' ovlash* bilan shug'ullanishgan.

Xiva xonligi hududida qoraqalpoqlar soni 3,8% ni, ya'ni qariyb 25 ming kishini tashkil etar edi. Qoraqalpoqlar yashab kelgan hududlarning Rossiya imperiyasiga qo'shib olinishi natijasida podsho hukumatining O'rta Osiyodagi ta'sir doirasi yanada kengaydi.

Har ikkala hududda yashaydigan qoraqalpoqlarning 70% dan ziyodi yersiz dehqonlar bo'lib, ular asosan yollanib mehnat qilishar edi.

Qoraqalpoqlar yashab kelgan hududlarga Rossiya kapitalining kirib kelishi tovar-pul munosabatlarini o'zgartirib yubordi. Paxta tozalash va baliqchilik sohasida dastlabki sanoat korxonalari paydo bo'ldi. Ularda mahalliy aholi vakillari ham ishlay boshladi.

XIX asrning 70-yillarida qoraqalpoqlarda savdo-sotiq munosabatlari rivojlanib bordi. *Chimboyda* aholi yashaydigan tumanlarni iqtisodiy jihatdan birlashtirgan shahar bozori vujudga keldi. Qoraqalpoq hunarmand va dehqonlari bozor bo'ladigan kunlarda o'z mahsulotlarini sotish uchun Chimboyga kelishar edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar. Chimboy Rossiya imperiyasini Xiva xonligining asosiy iqtisodiy markazlari bilan bog'lardi. Bu yerda ko'plab do'konlar bo'lib, katta bozor yaqinida yirik karvonsaroy joylashgan edi. Dastlabki

kasalxona va maktablar paydo bo'ldi, ammo ular yetarli emasdi. Jumladan, 1914-yili qoraqalpoqlar yashaydigan joylarda atigi *to'rtta* umumta'lim maktabida *200 nafar* o'quvchi o'qir, ikkita kasalxona va feldsherlik punktida *uch* shifokor ishlar edi.

Dehqonlar va chorvadorlar orasida mulkiy tabaqalanish kuchaydi. Ayrim biylar, yuzboshilar, mulla va eshonlarning yer mulklari *15 ming tanobgacha* (1 tanob – 2500 kv m yer) bo'lsa, oddiy xalq tomorqalari *1 – 2 tanobdan* oshmas edi.

Aholining tabaqalanishi qoraqalpoqlarda chorva mollari soniga qarab ham belgilangan. 1871 – 1872-yillar ma'lumotlariga qaraganda, urug'ning aksariyat oddiy a'zolari chorvaga ega bo'lishmagan, ayrim boylar *ming boshgacha* qoramol va *1,5 ming boshgacha* qo'y-qo'ziga ega edi.

Qashshoqlashib qolgan va kasodga uchragan dehqonlar katta yer egalari va boylarga qaram bo'lib qolishdi. Jamoaning boy-badavlat a'zolari yordam sifatida o'z qarindoshlariga yerni hosilning teng yarmi – «*jarmshi*» sharti bilan berishardi. Yersiz va chorvasiz qolgan dehqonlar esa har qanday og'ir ishlarni bajarib, badavlat chorvadorlar va zamindorlarning mollari va yerlaridan foydalanganliklari uchun ham ishlab berishga majbur edilar.

21.4. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar madaniyati

Xalq og'zaki ijodiyoti. Tinch hayot izlab bir joydan ikkinchi joyga asrlar davomida ko'chib yurgan mehnatsevar qoraqalpoq xalqi moddiy madaniyat yodgorliklarini to'liq saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lmagan.

Xalq iste'dodini namoyon etuvchi boy og'zaki she'riy ijodiyotning janrlari ancha ko'p edi. Ular orasida maqollar, hikmatlar, laparlar, nasihat qo'shiqlarda ifoda etilgan «*otalar so'zi*» alohida ajralib turar edi. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida kulgi qahramoni bo'lgan O'mirbek laqqi obrazi orqali razillik, yomonlik, yovuzlik, zolimlik kabi salbiy illatlar hajv yo'li bilan fosh etilib, mehnatsevarlik, ezgulik, qahramonlik ulug'langan. Qoraqalpoq xalqining og'zaki ijodi chuqur mazmunga egaligi va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Xalq ma'naviy madaniyatining yuksak darajasi ajdodlardan avlodlarga yetkaziladigan xalq dostonlarida, termalarida, shuningdek, musiqali o'lanlarda saqlanib qolgan.

Xalq orasida qoraqalpoq folklorining doston yo'llari mashhur edi. Doston qahramonlik haqida she'riy asarlar bo'lib, ularda xalq baxt-saodati va farovonligi uchun kurashgan mard botirlarning buyuk jasoratlari madh etilgan. Ancha mashhur bo'lgan dostonlar orasida qoraqalpoqlarning ozodlik va mustaqillik uchun fidoyilarcha kurashi tasvirlangan «*Qirqqiz*» dostoni alohida ajralib

turadi. Dostonda *Sarkub* hukmdori *Olloyor* o'z qizi *Guloyim*ga *Muyeli* degan hosildor yerlarni tortiq qilgani haqida aytiladi. Bu joyda Guloyim va uning qirq kanizagi mustahkam bir qal'a barpo etishadi. Dushmanlar Sarkub yerlariga hujum qilib, Guloyimning otasini o'ldirishadi. Sarkub mulklari talanadi, sarkubliklarning ko'pi asir olinib haydab ketiladi. Guloyim va uning kanizaklari dushmanga qarshi kurashga kirishadi, qoraqalpoqlarni asirlikdan ozod qiladi va ona yurtga ozodlikni qaytaradi. Bu ishda Guloyimga uning oshig'i, xorazmlik bahodir *Arslon* yordam beradi. Dostonning bosh g'oyasi yuksak vatanparvarlik hissi va ona Vatanga, xalqqa fidoyilarcha muhabbatdir. «Qirqqiz» dostoni bugungi kunda xalq og'zaki ijodining durdonalaridan biri sanaladi.

Ilm-fan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qoraqalpoqlarda bir qancha madrasalar bo'lib, ularning eng kattalari *Qoraqum eshon* va *Tosh* madrasalari edi. Qoraqum eshon madrasasi XIX asr o'rtalarida qurilgan. Dastlab u *masjid* vazifasini bajargan. Tosh madrasa esa 1841-yil Mang'it hokimi *Xo'janiyoz* tomonidan qurdirilgan. Madrasada ta'lim ikki bosqichli bo'lib, birinchi bosqichda arab tili grammatikasi o'rganilgan bo'lsa, keyingi bosqichda diniy-huquqiy bilimlar o'qitilgan.

XIX asr oxirida qoraqalpoqlarning ilk yozma asarlari paydo bo'la boshladi. Qoraqalpoq shoirlari *Kunxo'ja* (1799 – 1880), *Otash Olshinboy* (1788 – 1875), *Ajiniyoz* (1824 – 1878) kabilarning nomlari keng tanildi. Ular bilimdon, o'z taqdirini xalqi taqdiri bilan bog'lagan kishilar edi. Masalan, *Kunxo'ja* o'z ijodiyotini ovullarning oddiy ahliga, ularning kundalik mehnati va turmushiga bag'ishladi. U adolatsiz tartiblarni qattiq qoraladi.

Ajiniyoz Qasiboy o'g'li (taxallusi *Zevar*) Mo'ynoqdagi eski maktabda, so'ngra Xivadagi *Sherg'ozixon* madrasasida o'qigan. Qoraqalpoq ziyolilari orasida birinchilardan bo'lib *oxund* (o'qimishli, ilmi kishi; xalq dostonlarining mahoratli kuychisi) darajasiga erishgan. O'zbek, qozoq, turkman tillarini yaxshi bilgan. Shoirning «*Bo'zatov*» dostonida qoraqalpoq xalqining hayoti, ayniqsa, ularning yurtma-yurt ko'chib yurish jarayoni bilan bog'liq voqealar katta mahorat bilan tasvirlangan. *Ajiniyoz* adabiy merosidan bizga *100 ga yaqin* she'rlar va dostonlar yetib kelgan. Uning she'rlarida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari kuylangan. «*Qiz Mengesh bilan aytishuv*» dostoni esa xalq orasida mashhur bo'lgan. Uning hayoti va ijodi haqida qoraqalpoq yozuvchisi *K.Sultonov* «*Ajiniyoz*» romanini yozgan.

Berdaq (1827 – 1900) qoraqalpoqlarning buyuk shoiridir. U *qo'ng'irrot* urug'iga mansub bo'lib, *Orolbo'yida* tug'ilgan. Ovul maktabida, so'ngra *Qoraqum eshon* madrasasida o'qigan. 20 yoshidan she'rlar yoza boshlagan va yarim asr davomida turli mavzularda o'lanlar to'qidi. *Berdaq* o'z ijodini xalqi uchun o'lmas asarlar yaratishga bag'ishladi. She'rlaridan biri ham «*Xalq uchun*»

deb nomlangan. Uning she'rlarida zulmni qoralovchi tuyg'ular, jo'shqinlik ustuvor bo'lgan. Jumladan, «*Ahmoq podshoh*» dostoni shunday ulkan ta'sir kuchiga ega edi. Tarixiy mavzudagi «*Avlodlar*», «*Omongeldi*», «*Oydo'stbiy*», «*Ernazarbiy*» asarlarida shoir o'z xalqi qahramonlarini faxr bilan kuylaydi.

XX asr boshlariga kelib qoraqalpoq adabiyotidagi demokratik an'analarni yangi avlod vakillari *Umar*, *Qulimbet*, *Sariboy*, *Qulmurot*, *Sodiq* kabilar davom ettirdilar.

22-BOB. JADIDLAR HARAKATI VA UNING TURKISTON IJTIMOY-SIYOSIY VA MADANIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI

22.1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi

O'rta Osiyoda jadidchilik harakatining vujudga kelish shart-sharoitlari. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining zabt etilishi ushbu hududning tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan davlatlaridan ko'p sohalarda orqada qolib ketishiga, milliy qadriyatlarining toptalishiga olib keldi. Maorif sohasida ham imperiya manfaatlaridan kelib chiqib mahalliy aholini savodsizlikda, qoloqlikda tutib turishga qaratilgan siyosat olib borildi.

Turkistonda mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik harakatlari bilan bir qatorda mahalliy aholining aksariyat qismi o'zlikni saqlab qolish, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishni bir kun bo'lsa ham unutmadi. O'rta Osiyoga nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustunligi mahalliy aholining ochiqdan ochiq kurash olib borishiga imkon bermadi. Shuning uchun ham Vatan, millat, xalq qayg'usini tushungan kishilar, ayniqsa, ziyolilar xalqni ozodlikka eltuvchi yo'l bu — xalqni ma'rifatli qilish deb bildi. Ular xalqni ma'rifatli qilmasdan turib mustaqillikni qo'lga kiritib bo'lmaydi deb hisoblaganlar. Ziyolilar xalq orasida ilg'or g'oyalarni tarqatishda maorif tizimini asosiy vosita deb bildilar. O'lka milliy ziyolilarining jamiyatni yangilashga va isloh qilishga qaratilgan harakati jadidchilik nomi bilan maydonga chiqdi.

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Har bir jamiyatdagi o'zgarishlar o'z davrining tarixiy sharoitidan kelib chiqib namoyon bo'ladi. Bu o'zgarishlarda tarixiy shaxslar, ayniqsa, ziyolilarning o'rni katta bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. Ziyolilar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'llarini topishga harakat qiladi. Xuddi shunday jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Qrim, Kavkazorti, Turkiston, protektoratga aylantirilgan Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham ro'y berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka

zulmi ostidagi ziyolilar o'z xalqlarini ma'rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko'tarishga qaratilgan harakatlarni boshladilar.

Qrim-tatar ma'rifatparvari bo'lgan *Ismoil G'aspirali* (1851 – 1914) butun turkiy xalqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni, turli xalqlarning madaniyatini o'rgangan edi. O'zi egallagan bilimlar asosida Sharq va G'arb dunyosini taqqoslab, turkiy xalqlarning taraqqiyotga erishish yo'llarini izlaydi. Ismoil G'aspirali 1884-yili Qrimdagi *Boqchasaroyda* birinchi jadid maktabiga asos soldi. U o'zi tuzgan ta'lim dasturi asosida darslik tayyorladi. Shu dastur bo'yicha 40 kunda 12 o'quvchining savodi chiqarildi. Bu usul «*usuli savtiya*» – harf tovushi usuli, ya'ni «*usuli jadid*» nomi bilan keng tarqaldi. 1888-yili uning «*Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh*» kitobi chop etildi. Unda yangi usul maktablarining ta'lim tizimi, dars o'tish va uning tashkil qilinishi, o'quv xonalarining jihozlanishi, dars jadvali, ta'tillar, imtihonlar bayon etilgan.

«Jadid» so'zi arab tilidan olingan bo'lib, «*yangi*» degan ma'noni anglatadi. Jadidlar Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lgan xalqlarning, eng avvalo, maorif tizimini yaxshilash, ta'lim sohasini isloh qilish, yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlarni ham o'qitish zarur deb bildilar. Ular musulmon xalqlarning maktab va madrasalarida yoshlarga diniy ta'lim, arab, fors va rus tillari, tibbiyot, kimyo kabi fanlar o'qitilishi zarurligi g'oyasini ilgari surdilar.

Taraqqiyparvarlik harakatining O'rta Osiyoga yoyilishi. Turkiston o'lkasida millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Jadidchilik g'oyalarning keng yoyilishida «*Tarjimon*» gazetasi muhim o'rin tutdi. Ismoil G'aspiralining 1893-yili Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrifi ma'rifatparvarlik g'oyalarning keyingi rivojiga turtki bo'ldi. 1893-yili Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko'rsata boshladi. Keyinchalik bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqaldi.

O'rta Osiyo jadidlari ma'rifatparvarlik yo'lida qrim ziyolilari tajribalarini o'rganish bilan birga boshqa mamlakatlardagi taraqqiyparvarlarning ilg'or g'oyalardan ham foydalandilar. O'rta Osiyo taraqqiyparvarlik harakati ishtirokchilarining yoshi boshqa mamlakatlar jadid vakillaridan ajralib turgan. 1910-yili ularning eng yoshi Abdulhamid Cho'ipon 13 yoshda, eng kattasi Mahmudxo'ja Behbudiy 36 yoshda bo'lgan.

Taraqqiyparvarlik harakatining rivojlanishi ikki bosqichda bo'ldi. Birinchi bosqichda ma'rifatparvarlikdan Ismoil G'aspirali boshlangan bu harakat 1917-yilga kelib o'zining ikkinchi bosqichi – siyosiy ko'rinishdagi harakatga aylandi.

O'rta Osiyodagi milliy taraqqiyparvarlik harakati hududiy xususiyatlariga ko'ra Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlariga bo'linadi. Turkiston jadidchiligi-ning asosiy tarkibini *ziyolilar* tashkil qilib, ular Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashning oldingi saflarida turdilar. Ular podsho hukumatining xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning kelajagini mustaqil, rivojlangan davlat sifatida ko'rishni orzu qilganlar. XX asrning boshlarida shakllangan taraqqiyparvarlik kuchlari davlatning boshqaruv tizimi zamon talablariga javob bermasligini, xalqning turmush darajasi past ekanligini va uni o'zgartirish lozimligini chuqur angladilar.

Buxoro milliy ziyolilarining harakati Turkiston o'lkasiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan *mayda do'kondorlar*, *o'qituvchilar*, *hunarmandlar*, *savdogarlardan* iborat edi. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan ham chiqishdi. Shuningdek, Buxoro jadidchiligi ayrim mutaassib mullalar, yangilik va islohotlarni xush ko'rmaydigan qadimchilar oqimi qarshiligiga uchradi. 1910-yildan Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus olib, siyosiy tashkilot sifatida shakllana boshladi. XX asrning boshlarida Buxoro taraqqiyparvar kuchlari vaziyatga tanqidiy yondashgan holda davlatning ichki boshqaruv tizimi zamon talablariga javob bermasligini, mehnatkash xalqning turmush darajasi nihoyatda past ekanligini va siyosiy-ma'muriy tuzumni o'zgartirish lozimligini chuqur anglay boshladilar.

Xiva xonligida XX asr boshlarida shakllangan taraqqiyparvarlik harakati esa boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. Xiva xonligida jadidchilik ikkita oqimdan iborat bo'lib, uning o'ng oqimi bosh vazir *Islomxo'ja* boshchiligida xonlikdagi savdo-sanoat korxonalarini egalari hamda yirik boylarning vakillarini birlashtirdi. Mazkur oqim o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda islohotlar o'tkazilishini maqsad qilib qo'ydi. So'l oqim esa qozikalon *Boboaxon Salimov* rahbarligida sarmoyadorlar, hunarmandlar va boshqa tabaqa vakillarini birlashtirib, yangi usul maktablarini tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligiga erishmoqchi bo'ldilar.

Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining yoyilishi bu davrdagi mustamlakachi hukumat va uning amaldorlari hamda mahalliy mutaassib va johil ruhoniylarning qarshiligiga uchradi. Shunga qaramay, jadidlar matbuot, noshirlik va teatr sohalarida faoliyatlarini davom ettirdilar. 1898-yili Qo'qon shahrida *Salohiddin domla* ikkinchi jadid maktabini ochdi. 1899-yili Andijonda *Shamsiddin domla* va Toshkentda *Mannon qori* jadid maktabini ochib, ko'plab o'quvchilarning yangi usulda ta'lim olishlariga erishdilar.

22.2. Jadidlarning dasturiy maqsad va vazifalari

Jadidlarning asosiy g'oyalari. O'rta Osiyoda taraqqiyparvarlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o'z g'oyalari amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurash olib borishga alohida ahamiyat berganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarni ustuvor deb hisoblaganlar: o'lkada yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish, turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop etish, xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini yuksaltirish yo'li bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Ilg'or milliy ziyolilar faoliyatining muhim yo'nalishi yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish edi. Bu maktablar bolalarning tez va oson savodxon bo'lishini ta'minlabgina qolmay, balki ularda fanatizm va konservatizmdan xoli bo'lgan yangi dunyoqarashning shakllanishiga ham xizmat qilar edi.

Ular ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlarini egallashga intildilar, o'qidilar va o'zgalarni ham shunga da'vat etdilar. Ma'rifatparvarlar xorijga chiqib, turli mamlakatlardagi madaniyat va ta'lim taraqqiyoti darajasini ko'ra oldilar, ularni solishtirdilar va bu zehni yoshlarda jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga keltirish istagi paydo bo'ldi. Natijada jadidlarning diqqat markaziga birinchi bosqichda ta'limni isloh etish vazifasi qo'yildi.

Yangi usul maktablarida ta'lim jarayonida Yevropa standartlari mezon qilib olingan edi. Arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik asoslari singari fanlar bilan bir qatorda islom ta'limoti asoslarini o'rganishga ham katta e'tibor berilgan.

Yangi darsliklar yaratish masalasi juda dolzarb bo'lib turar edi. Dastlabki paytlarda Turkistondagi yangi usul maktablarining ko'pchiligida Qozon va Orenburgda nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi.

Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Xiva shaharlari jadidchilik harakati markaziga aylandi. Bu shaharlarda ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalar Turkistonda jadidchilikning keng yoylashiga olib keldi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari

Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish;

«Usuli qadim»ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish;

Milliy davlat bunyod etish;

Konstitutsion, parlament idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish;

Turkiy tillarga davlat tili maqomini berish;

Milliy pul birligi va milliy qo'shin tuzish.

Jadidlar o'z nashrlarida jahonda va Turkiston hududida ro'y berayotgan voqealar haqida ma'lumotlar berib borishdi. Ular bu orqali o'z g'oyalari mazmunini va ularni keng yoyish zarur ekanligini ko'rsatdilar.

Ma'rifatparvarlar yangi usul maktablarining Turkistonda milliy kadrlar tayyorlash, yosh avlodni o'qitishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar. XIX asr oxirida O'rta Osiyoda yangi usuldagi maktablar sanoqli bo'lgan bo'lsa, 1911-yilga kelib ularning soni 63 taga, o'quvchilarning soni 4106 nafarga yetdi. 1910-yili Toshkentning o'zida 24 ta jadid maktabi faoliyat ko'rsatib, ularda 1740 nafar bola o'qigan. 1917-yilga kelib o'lkada 100 ga yaqin yangi usuldagi maktablar mavjud edi.

Taraqqiyparvarlarning qarashlarida xotin-qizlar ta'limi masalasi alohida o'rin tutgan. Jadidlar islom ma'rifatli bo'lishni istagan ayollarga to'sqinlik qilmaydi deb ta'kidladilar. Islom ilm o'rganishni erkaklarga ham, ayollarga ham farz deb hisoblashidan kelib chiqqan holda jadidlar o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitishda tashabbuskor bo'ldilar.

Jadidchilik harakati namoyandalarining asosiy faoliyati ma'rifatparvarlikdan boshlangan bo'lsa-da, ular Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlarida g'oyaviy rahnamolar sifatida muhim o'rin tutdi.

22.3. Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati

Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandalari. XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surganlar. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyoilarning butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda *Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy*, Toshkentda *Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev*, Buxoroda *Abdurauif Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev*, Farg'ona vodiysida *Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'ipon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Boboaxon Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov* va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda «O'rta Osiyo jadidlarining otasi» deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiyning (1875 – 1919) xizmati katta bo'ldi.

U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi *Baxshitepa* qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, *imom-xatib*, *qozi*, keyin *muftiy* darajasiga ko'tarildi. Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'l boshchisi edi. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga «*Behbudiya kutubxonasi*» deb atalgan kutubxona tashkil qilingan.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878 – 1931) Turkiston o'lkasida ozodlik, millat kelajagi uchun kurashgan ma'rifatparvar siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyandalardan biri. 1904-yildan boshlab o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ'ibotchisi bo'lgan. Munavvarqori maktablar uchun «*Adibi avval*», «*Adibi soniy*», «*Yer yuzi*» kabi darsliklarni yaratdi.

Dastlabki paytlarda madaniy-ma'rifiy, keyinchalik siyosiy-ijtimoiy xususiyat kasb etgan islohotchilik harakati faol ishtirokchilaridan biri Abdulla Avloniy 1878-yili Toshkent shahrida hunarmand oilasida tug'ildi. U maktab va madrasada ta'lim olib, chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim, matbuot, teatr sohasining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, 1907-yil «*Shuhrat*» gazetasiga asos soldi. O'zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun «*Birinchi muallim*», «*Ikkinchi muallim*», «*Turkiy guliston yoxud axloq*» kabi darsliklarni yaratdi.

Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlar ham ma'rifatparvarlik faoliyatini olib borib, yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona va kitob do'konlari ochdilar.

Jadidchilik harakatining milliy xususiyatlari. Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari ma'rifatparvar kishilar edi. Ma'rifatparvarlar keng ma'noda bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma'noda ma'rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Turkiston ma'rifatparvarlari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarning asl sabablari deya talqin etdilar. Ular podsho yakkahukmronligiga (absolyutizmga) qarshi kurashdilar, siyosiy erkinlik va inson huquqlarini yoqlab chiqdilar.

Turli mamlakatlarda ma'rifatchilik harakatlari o'ziga xos, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan, ammo ularning mushtarak jihatlari ham mavjud edi. Bu jihatlarda Turkiston jadidlari faoliyatida ham namoyon bo'ldi. Jumladan, ular mavjud tuzum, uning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalardagi barcha salbiy ko'rinishlariga va kamchiliklariga qarshi kurashish; maorif, erkinlik, hayotning insoniy-madaniy jihatlari shakllantirish, ularni qo'llab-quvvatlash va himoya

qilish, ma'naviy va axloqiy me'yorlarni takomillashtirish; xalq manfaatlarini himoya qilish, farovonligini oshirishga sidqidildan intilish yo'lidan bordilar.

Jadidlar Turkistonda azaldan mavjud bo'lgan, ya'ni Alisher Navoiy, Mirzo Bedil va Boborahim Mashrabdan qolgan merosdan foydalangan holda Turkistonda demokratik va taraqqiyparvar g'oyalarni davom ettirdilar. Turkiston ilg'or ziyolilari erishgan yutuqlar orasida eng salmoqlisi hukmron mafkuradan mustaqil bo'lgan xalq ta'limi tizimining yaratilishi hamda milliy matbuotga asos solinishi edi. Bu esa, o'z navbatida, progressiv g'oyalarni tarqatish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Turkiston taraqqiyparvar sarmoyadorlari yoshlarni chet ellarga yuborib, zarur kasblarni egallab, xalqqa foydali xizmat qiladigan yoshlarni va ular uchun qayg'urgan jadidlarni qo'llab-quvvatladilar. Andijonlik *Mirkomil Mirmo'minboyev* o'z hisobidan ana shu ishga katta miqdorda mablag' ajratgan. 1910-yili Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo'ja Mehriy, Usmonxo'ja va Muhammaddin maxdum kabilar «*Tarbiyayi atfol*» («Bolalar tarbiyasi») jamiyatini tashkil qilib, 1911-yili 15 nafar, 1912-yili esa 30 nafar talabani Turkiyaga o'qishga yuborganlar.

22.4. Jadidchilik harakatining Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga ta'siri

Jadidlar va islom dini. Jadidlar mafkurasiga ko'ra islom dini shaxsning ma'naviy kamoloti va jamiyat rivojida muhim o'rin tutgan. Ular ushbu vazifani hal etmay turib boshqa muammolarni bartaraf qilishning iloji yo'qligini anglab yetganlar. Ana shu maqsadda 1909-yili *Mahmudxo'ja Behbudiy*, 1910-yili *Abdulla Avloniy*, 1915-yili *Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat* tomonidan islom tarixiga oid asarlar yaratildi. Ushbu asarlarda ular islomning paydo bo'lishi va tarqalishining eng muhim bosqichlarini yoritib berdilar, shuningdek, islom aqidalarining noto'g'ri talqin qilinishiga qarshi chiqdilar.

Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida islom dini me'yorlarini, Qur'on oyatlari va hadislarni, shariat hukmlarini to'g'ri talqin etish, ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamon talablariga moslashtirish kabilar bor edi.

Milliy taraqqiyparvarlar musulmon ruhoniylarining fanga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan vakillarini qoraladilar. Taraqqiyparvarlar islom dini har bir musulmon erkak va ayolning bilimga ega bo'lishini ularning zimmasiga burch qilib qo'yganligini keng targ'ib qildilar.

Jadidlar ilm-fanni taraqqiyotning va farovonlikning asosiy yo'naltiruvchi kuchi hamda jaholatga qarshi kurashning birdan bir vositasi deb hi-

sobladilar. Ularning fikriga ko'ra, chin musulmon bo'lish uchun diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni, ayniqsa, matematika, fizika, kimyo, tibbiyot, tarix va boshqa fanlarni bilish zarur deb hisoblangan. Buni muqaddas Qur'on oyatlari va hadislar asosida tasdiqlaganlar.

Jadidlarning islomga oid g'oyalari ularni islomning asosiy ta'limotini o'zgartirishga intilganlar degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Sababi, ular o'z faoliyatlarida Qur'onni, umuman, butun islom ta'limotini to'g'ri izohlab berganlar. Ularning barchasi islom diniga va musulmon an'alariga sodiq edilar. Ular islomga putur yetkazadigan urf-odatlariga, jamiyat rivojiga va taraqqiyotiga xalal beradigan salbiy ko'rinishdagi holatlarga qarshi chiqdilar. Jadidlar johillikni tugatishga, omma orasida taraqqiyparvar g'oyalar uyg'otishga intildilar.

Taraqqiyparvarlarning Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi faoliyati. Jadidlar o'lkani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ham o'ziga xos qarashlarga ega edi. Taraqqiyparvarlar o'z faoliyatlari davomida o'lka xalqlarining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, kasb-kori, shart-sharoitlaridan xabardor bo'lganlar. Xalqning ahvoli yildan yilga og'irlashib borayotganligini anglaganlar.

Ularning fikricha, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlamay turib siyosiy va huquqiy erkinlikka erishish mumkin emas edi. Buning uchun, birinchi navbatda, yerni, yerosti va yerusti boyliklarini, suvni Turkiston xalqlarining umumiy boyligi deb e'lon qilish, barcha sohalarni rivojlantirishga qodir mahalliy kadrlarni tayyorlash, zavod va fabrikalar qurib, mahsulotlarni o'lkaning o'zida ishlab chiqarishni zarur deb bildilar.

Jadidlar ko'plab yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarga, jumladan, Germaniyaga o'qishga yuborish, u yerda ular tahsil olib kelib, yurt va millat uchun xizmat qilishi g'oyalarini ilgari surdi. Ularning sa'y-harakatlari bilan mahalliy aholi tomonidan yoshlarning xorijda o'qib kelishiga ketadigan xarajatlari uchun mablag'lar yig'ildi. O'lkada va xorijda savdo-sotiq, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan ko'plab maqolalar e'lon qilindi.

Turkiston taraqqiyparvarlaridan biri, Toshkentning «*Qoryog'di*» mahallasidan bo'lgan *Asadullaxo'ja o'g'li Ubaydullaxo'ja* Rossiyada huquqshunoslik sohasi bo'yicha ta'lim olib, birinchi oliy ma'lumotli o'zbek advokati bo'ldi. U buyuk rus yozuvchisi *Lev Tolstoy* bilan yozishmalar olib borgan.

Jadidchilikning siyosiy harakatga aylanishi. Turkiston taraqqiyparvarlari XX asrning boshlaridagi dunyoda ro'y bergan siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar. Bu davrda xorijdagi siyosiy partiyalarning dasturlarini tahlil qildilar. Shu vaziyatda taraqqiyparvarlar o'zbek xalqining tinchlik-sevarligi, bosiqligidan kelib chiqib barcha muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga intildilar, chunki ular qonli to'qnashuv va urushlarga qarshi edilar.

1917-yildagi Rossiya fevral voqealari arafasida Turkiston jadidchiligi kuchli siyosiy harakatga aylandi. Birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral voqealaridan keyin ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdilar. Jumladan, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o'lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o'tkazish, Davlat Dumasidan o'lka aholisi sonidan kelib chiqib o'rin ajratish, milliy matbuot erkinligini ta'minlash kabilar. Ayni vaqtda, milliy-siyosiy partiyalar va tashkilotlar, masalan, «*Sho'royi Islomiya*», «*Ittifoq*» kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining barcha qatlam vakillarini o'z ortidan ergashtira oldilar. Turkistonda jadidlar faoliyati mahalliy aholini ma'rifatli qilishga, ularda milliy o'zlikni anglashning kuchayishiga, ozodlik uchun kurashlarning ko'tarilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Jadidchilik harakati o'lkada podsho hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turuvchi asosiy ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ldi.

1917-yil mart oyi boshlarida jadidlar tomonidan Toshkentda barcha erkparvar tashkilotlarning umumiy dasturiga ega bo'lgan yagona tashkilot – «*Musulmon markaziy sho'rosi*» tuzildi. Uning ta'sis syezdida 350 delegat qatnashgan. Ular orasida ozarbayjonlar, tatarlar, turkmanlar, boshqirdlar kabi boshqa musulmon xalqlar vakillari ham bo'lgan. Syezdda barcha delegatlar bo'lajak davlat Turkiston deb atalishi, uning tarkibiga Buxoro, Xiva va Turkiston general-gubernatorligi kirishi kerak degan fikrni ma'qulladilar. Biroq Turkistonda 1917-yildagi oktyabr voqealari va bolsheviklarning hokimiyatni egallashi jadidlarning o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular markazi Qo'qonda bo'lgan, Turkiston Muxtoriyati deb atalgan mustaqil muxtor respublika e'lon qildilar. 72 kun yashagan bu muxtor respublika sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etildi. Natijada jadidlar ta'qibga uchradi va oxir-oqibat 1937 – 1938-yillarda qatag'on qurboni bo'ldilar.

23-BOB. TURKISTON VA BIRINCHI JAHON URUSHI

23.1. Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta'siri

Birinchi jahon urushining Turkistonga ta'siri. XX asr boshlarida jahonda gi yirik davlatlarning mustamlakalarga ega bo'lish masalasida o'zaro munosabatlari keskin ko'rinish oldi. Birinchi jahon urushida Rossiya Angliya va Fransiya davlatlaridan iborat ittifoq – *Antanta* tomonida turib urushda qatnashdi. Rossiya imperiyasining Birinchi jahon urushida ishtirok etishi uni iqtisodiy jihatdan yomon ahvolga solib qo'ydi. Busiz ham G'arbiy Yevropa davlatlaridan

taraqqiyoti ancha orqada qolib ketgan Rossiya urush tufayli yanada nochoh ahvolga tushib qoldi. Natijada podsho hukumati o'z mustamlakalaridan, jumladan, Turkiston o'lkasidan yanada ko'proq foyda olish uchun uning tabiiy boyliklarini ko'proq o'zlashtirishga jon-jahdi bilan kirishdi. Mahalliy aholidan esa arzon ishchi kuchi sifatida foydalanishga harakat qildi.

Bu urush tufayli Rossiyada ommaviy safarbarlik e'lon qilindi. Safarbarlik Rossiyaning mustamlakalariga ham, jumladan, Turkistonga ham tegishli edi. Unga ko'ra, Turkiston o'lkasidan urushga *19 yoshdan 43 yoshgacha* bo'lgan aholining yevropalik qismi vakillari chaqirildi. Aynan hosillarni yig'ib olish vaqtiga to'g'ri kelgan bu chaqiruv Turkiston o'lkasidagi Rossiya guberniyalaridan ko'chirib keltirilganlarning oilalari uchun qiyinchilik tug'dirdi. Asosiy ishchi kuchi bo'lgan erkaklarning urushga olinishi oilaning asosiy boquvchisidan ajralishiga va ularning yomon ahvolga tushishiga sabab bo'ldi.

1914-yili Turkistonda *«favqulodda muhofaza holati»* e'lon qilinishi natijasida mustamlaka hukumatning mahalliy aholi ustidan nazorat va jazo choralari kuchaydi. Turkiston aholisi urushga safarbarlik e'lon qilinishiga qarshi chiqib, *«favqulodda holat»* tartiblariga rioya etmay qo'ydilar. Bunday tartiblarni buzganlar *50 so'mgacha* jarima to'laydigan yoki *3 oygacha* qamoqqa olinadigan bo'ldi. Busiz ham aholi turmush sharoitining yomonligi, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarning yetishmasligi, narx-navoning oshib ketganligi o'lkada norozilik kayfiyatining yanada oshishiga hamda ommaviy ko'rinishdagi qo'zg'olonlarning kuchayishiga sabab bo'ldi.

Mardikorlikka safarbarlikning e'lon qilinishi. Urush ketayotgan joylardagi vayronagarchiliklarni tugatish, mudofaa inshootlarini qurish, urushga oziq-ovqat va qurol-yarog'larni tayyorlash va ularni joylarga yetkazish ishlari katta muammoga aylandi. Bu ishlarni amaliy boshqarish va tashkil qilish umuman izdan chiqib ketdi. Muammoni hal qilish uchun qo'shimcha ishchi kuchi va front ortida ishlash uchun ko'plab odamlar zarur bo'ldi. Shu vaziyatdan kelib chiqib amaldagi hukumat tomonidan imperiya mustamlakalaridagi tub aholi vakillari va urushga safarbar qilinmagan kishilardan front orqasidagi ishlarda foydalanishga qaror qilindi. 1916-yil 25-iyunda Rossiya imperatori Nikolay II (1894 – 1917) Oliy bosh qo'mondon va harbiy vazir taklifi bilan chiqargan farmoni bo'yicha *«front ortidagi xizmatlar uchun Turkiston, Sibir va Kavkazdan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar safarbarligi»* boshlandi.

23.2. Turkistonda 1916-yilgi qo'zg'olonning boshlanishi

Qo'zg'olonning boshlanish sabablari. Imperator Nikolay II front ortidagi xizmatlar uchun aholining mardikorlikka olinishi to'g'risidagi farmoniga muvofiq Turkiston o'lkasining Sirdaryo viloyatidan 87 ming, Samarqanddan 30 ming, Farg'onadan 50 ming kishini mardikorlikka yuborish belgilandi. Belgilangan miqdorlar viloyatlar bo'yicha aholi o'rtasida taqsimlandi. Farg'ona viloyatida belgilangan mardikorlarni to'plash uchun viloyatdagi xonadonlarning har beshtasidan bir kishini olishga to'g'ri kelgan.

Xalq bundan qattiq norozi bo'lgan. Turkiston erkaklarining o'z oilasini tashlab ketishi ularni ochlikka mahkum etdi. Ayniqsa, qishloq aholisining safarbar qilinishi qishloq xo'jaligini inqirozga olib keldi. Mardikorlikka boradiganlarning ro'yxatini tuzishda Turkiston mahalliy ma'muriyati vakillari adolatsizliklarga yo'l qo'yдилar. Hatto oilada bir nechta erkak bo'lishiga qaramay, badavlat xonadon vakillari pora berib ro'yxatga yozilmasdi. Kambag'al oilalarda garchi bitta erkak bo'lsa ham ro'yxatga kiritilardi. Bunday nohaqliklar keng xalq ommasi noroziligining kuchayishiga sabab bo'ldi. Mahalliy aholi o'rtasida mardikorlikka olishga qarshi keng ommaviy chiqishlar boshlanib ketdi. 1916-yili mardikorlikka olinadiganlar ro'yxatini tuzadigan mahalliy boshqaruv vakillari tomonidan aholini zo'rflash, tazyiq o'tkazish kabi holatlar avj oldi.

Norozilik harakatlarida dehqonlar, hunarmandlar, mayda savdogarlar, ishchilar va aholining boshqa ijtimoiy qatlamlari vakillari ishtirok etdi. Mardikorlikka qarshi harakatlarning keng ommaviy tus olishidan mustamlaka hukumati, o'lka va viloyat ma'murlari xavotirga tushdi. Farg'ona viloyati gubernatori A.Gippius viloyatda norozilik kayfiyatidagi odamlarning ko'pligi, mardikorlikka safarbar etish jarayoni aholi orasida katta g'alayonlar chiqishiga sabab bo'lishi mumkinligi haqida o'lka va podsho ma'muriyatiga ma'lumot beradi. Lekin markaziy hokimiyat viloyat gubernatori A.Gippiusning xavotiri va g'alayonlarning oldini olish to'g'risidagi ma'lumotlarini «podsho farmonlarini bajarmaslik, kechiktirish, qarshi chiqish» deb hisoblab uni viloyat gubernatori lavozimidan ozod qiladi.

1916-yil 4-iyulda *Xo'jand* shahrida norozilik bildirib ko'p sonli aholi yig'ildi. Ular mardikorlikdan bosh tortdilar. 5-iyulda Samarqandning *Urgut* qishlog'ida, keyinchalik *Siyob*, *Mahalla*, *Xo'ja Ahror*, *Angorda*, 7-iyulda *Dahbedda* norozilik chiqishlari bo'lib o'tdi. Namoyishchilar mahalliy boshqaruv vakillarini kaltaklab, ro'yxatlarni yirtib tashladilar.

Qo'zg'olonning Turkiston bo'ylab tarqalishi. Mardikorlikka qarshi qaratilgan norozilik harakatlari bir necha kun ichida butun o'lkaga yoyildi. Qo'zg'olonchilar mustamlakachi hukumat tomonidan kuch bilan tarqatilib, qarshilik qilganlar qattiq jazolandi. Toshkentda 11-iyulda ko'p sonli aholi

Beshyog'ochdagi politsiya mahkamasi oldiga to'plandilar. Qo'zg'olon faollaridan *Rizvonbibi Ahmadjonova* politsiyaga qarata: «Bizni o'ldirsanglar ham o'g'illarimizni sizlarga bermaymiz», – deb xitob qilgan. Politsiyachilar esa o'q uzib uni og'ir yarador qilgan. Norozilik bildirganlarga qarshi miltiqlardan o'q otilganidan so'ng xaloyiq mahkamaga bostirib kirdi. Bu vaqtda yordamga yetib kelgan harbiy kuchlar namoyishchilarni o'qqa tuta boshladi. Natijada 11 kishi otib o'ldirildi, 15 kishi yarador bo'ldi. Qo'zg'olon harbiy kuchlar tomonidan qiyinchilik bilan bostirildi. Shahar harbiy holatga tushib, har bir joyda qo'riqchilar, tun-u kun navbatchilik, nazorat va tekshiruvlar kuchaytirildi. Bu voqealardan keyin norozilik harakatlari Toshkent shahri atrofidagi qishloqlarga yoyildi. U yerdan Farg'ona vodiysiga o'tib, vodiya bu harakat keng tus olib ketdi. U yerda ham mahalliy aholi ma'muriyat vakillariga bo'ysunmay qo'ydi.

Qo'zg'olon iyul oyining o'rtalarida Farg'ona viloyatining *Qo'qon, Rishton, Marg'ilon, Andijon, Namangan* uyezdlarida keskin tus oldi. Jumladan, 9-iyul kuni Andijonda podsho farmoni o'qib eshittirilgandan so'ng tayoq, tosh, ketmon va boshqa narsalar bilan qurollangan aholi mardikorlikdan bosh tortib namoyishga chiqdilar. Ularga politsiya va harbiy kuchlar qarshi qo'yildi. Qo'zg'olonchilarni tarqatish paytida ulardan 3 kishi otib o'ldirildi, 12 kishi yarador bo'ldi.

10-iyulda *Eski Marg'ilon*da taxminan 25 ming kishi norozilik bildirib bazor atrofiga yig'ildi. Qo'zg'olonchilar mardikorlikni bekor qilishni talab etib mahalliy ma'muriyat idoralariga kirdilar. Ular mustamlakachilarning xizmatida bo'lgan mahalliy ma'muriyat vakillari uylariga, ma'muriy binolarga o't qo'ydilar, 2 mirshab o'ldirildi va bir necha kishi jarohatlandi. Qo'zg'olonning kuchayib ketganligidan xavotirga tushgan viloyat ma'muriyati zudlik bilan ularga qarshi harbiy kuch yubordi. Ular qo'zg'olonchilardan 63 kishini otib o'ldirdi va ko'pchilikni yarador qildi.

Shahrixonda ham qo'zg'olonchilardan 16 kishi o'ldirildi, ko'pchilik yarador bo'ldi. 11-iyulda *Namanganda* ko'tarilgan qo'zg'olon ham jiddiy tus oldi. *Labbaytog'a* dahasida yig'ilgan 1500 dan ortiq kishilarga qarshi kuchli qurollangan rota tashlandi va qo'zg'olonchilar tarqatib yuborildi.

Mustamlakachi hukumat politsiyasi va harbiy kuchlari bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida ayovsiz janglar natijasida qurolsiz namoyishchilardan ko'pchiligi o'ldirildi va yarador qilindi. Ular orasida ayollar va bolalar ham bo'lganligi mustamlakachilarning beshafqat siyosatini yana bir bor fosh qildi.

23.3. Jizzax qo'zg'oloni

Qo'zg'olonning boshlanishi. Rossiya imperatorining 1916-yildagi mardikorlikka olish to'g'risidagi farmoni Turkiston o'lkasining barcha hududlariga yoyilib, unga qarshi chiqishlar mahalliy aholining milliy-ozodlik harakatlari aylanib ketdi. Bular orasida Jizzaxda bo'lib o'tgan qo'zg'olon o'lkada mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lish va bosqinchilarga qarshi mardona-vor kurash maydoniga aylandi.

Jizzax aholisi asosan don mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanardi. Ularning yerlari imperiyaning markaziy hududlaridan ko'chirib keltirilganlarga berib yuborilishi, soliqlarning ko'payib borishi ularning ahvoli yomonlashishiga olib keldi. Aholining 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklari front ortidagi ishlarga safarbar qilinishi butun o'lkadagi kabi Jizzaxda ham jabr-zulm, adolatsizliklardan tobora keskinlashib borayotgan norozilik chiqishlari xalq qo'zg'oloniga aylanishiga olib keldi. Mardikorlikka olinadiganlarning tuzilgan ro'yxatiga muvofiq Samarqand viloyatining Jizzax uyezdidan 11 ming kishi belgilandi. 1916-yil 3-iyulda farmon e'lon qilinishi bilan xalq orasida norozilik boshlanib ketdi. 5-iyulda dastlabki g'alayonlar boshlandi.

Bunda aholi farmonning bekor qilinishini, ro'yxat tuzishni to'xtatishni talab qiladi. Jizzax qo'zg'oloniga *Nazirxo'ja eshon* va *Abdurahmon jevachi* rahbarlik qilganlar.

Jizzax aholisi mardikorlikka qarshi ommaviy qo'zg'olon ko'tarish maqsadida boshqa shaharlarga, jumladan, Toshkent, Samarqand va ko'plab atrof-dagi qishloqlarga o'z vakillarini yubordilar. 13-iyulda Jizzax shahrida *Damin kulo'* boshchiligida hunarmandlar mardikorlikka olish bo'yicha ro'yxatni talab qilib qishloq oqsoqoli *Mirzayor Xudoyorov* oldiga bordilar. Undagi ro'yxat asosan kambag'al oila vakillaridan tuzilgan bo'lib chiqdi. Bundan norozi bo'lgan aholi ro'yxatni berishni va uni qaytadan tuzishni talab qildi. *Mirzayor Xudoyorov* ro'yxatni bermay, to'plangan odamlarni haqorat qildi. Bu holat aholining keskin noroziligini keltirib chiqardi. Shundan keyin ketmon, tayoqlar bilan qurollangan qo'zg'olonchilar Jizzaxning yangi shahar qismiga yo'l oladi. Qo'zg'olonni bostirish uchun uyezd boshlig'i o'z yordamchilari bilan yetib keladi, lekin ularni qaytara olmaydi. Qo'zg'olonchilar safiga shahar va uning atrofidan ko'plab kishilar qo'shildi. *Nazirxo'ja eshon* qo'zg'olonchilarga umumiy rahbar bo'ldi.

Jizzax qo'zg'oloni ishtirokchilari mustamlakachi ma'muriyatga tegishli bo'lgan harbiy, ma'muriy va boshqa joylarga hujum qildilar. Ular 13-iyul kuni temir yo'l stansiyalarini, aloqa simlarini uzib, temir yo'l va ko'priklarni buzib tashladilar. 14-iyulda *Abdurahmon jevachi* o'z uyida turli joylardan yuborilgan vakillar bilan yig'ilish o'tkazdi va unda Jizzaxdan 12 chaqirim uzoqlikda joy-

lashgan *Kuyaboshi* degan joyda to'planib, barcha birgalikda harakat qilishiga kelishildi. Bu xabarni atrofdagi joylarga yetkazish uchun vakillar yuboriladi.

Jizzaxdagi bu voqealardan xabar topgan podsho hukumati polkovnik *Ivanov* boshchiligida harbiy kuchlarni u yerga yubordi. 18-iyul kuni Turkistonda harbiy holat e'lon qilindi.

Qo'zg'olonning bostirilishi. Bu vaqtda mustamlakachi hukumat tomondan qo'zg'olonni bostirish va uning ishtirokchilarini jazolash choralari birlari ishlab chiqildi. Jizzaxga polkovnik *Ivanov* boshchiligida 13 ta rota soldat, 2 ta artilleriya qismi, kazak otryadlari, jami ikki yarim ming kishilik harbiy kuchlar yuborildi. Ular Jizzax shahrini to'p va pulemyotlardan o'qqa tutdilar. Mustamlakachilar qo'shini dastlab *Jizzaxni*, keyin *Zominni* egallab, so'ng *Sangzorga* yurish qiladi. Qo'shin qurolsiz qo'zg'olonchilarni ayovsiz o'qqa tutadi. Abdurahmon jevachi omon qolgan 600 kishilik odamlari bilan 20 – 21-iyulda polkovnik *Afanasyev* boshchiligidagi harbiy kuchlarga qarshi jang olib bordi. *Ivanov* boshchiligidagi harbiy kuchlarning yordamga kelishi qo'zg'olonchilarning mag'lubiyatga uchrashini ta'minladi. Natijada qo'zg'olonchilar yengildi va chekinishga majbur bo'ldi. Qo'zg'olon rahbarlari va faol ishtirokchilaridan Abdurahmon jevachi, Nazirxo'ja eshon, aka-uka *To'raqul* va *Eshonqul To'rabekovlar*, *Qosim hoji eshon* qo'lga olinib, o'lim jazosiga hukm etildi. Mustamlakachi hukumatning jazo qo'shini qo'zg'olonchilarni ayovsiz ravishda jazolashga kirishdi. Qo'zg'olon ko'tarilgan qishloqlarga o't qo'yildi. Uylar yondirildi. Ularning oila a'zolari ham jazoga tortildi. Bu jazodan qariyalar, ayollar, hatto yosh bolalar ham chetda qolmadi.

Jizzaxga 26 – 27-iyulda yana qo'shimcha jazo otryadlari yetib kelib, jazoni yanada kuchaytirdi. Qo'zg'olonchilardan 3 ming kishi hibsga olindi. Ularning boshliqlari o'lim jazosiga, qolganlari qamoq va surgunga hukm qilindi. Mahalliy aholi qo'zg'olonida ishtirok etganligi, qo'zg'olonchilarga xayrixoh bo'lganligi va ularni tutishda podsho hukumatiga yordam bermaganligi uchun o'z uylaridan cho'lga haydab yuborildi.

23.4. Turkistonda 1916-yilgi voqealarning oqibatlari va ahamiyati

Qo'zg'olonning yengilish sabablari va oqibatlari. Qo'zg'olon xarakteriga ko'ra milliy-ozodlik ko'rinishida yuz berdi, chunki bu qo'zg'olonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xalq ommasi edi. Ular mustamlakachilik tartiblariga qarshi qo'lga qurol olib toptalgan haq-huquqlari, din-u diyonatlari uchun tengsiz kurash olib bordilar. Qo'zg'olonchilar Vatanning haqiqiy fidoyi farzandlari ekanliklarini amalda isbotladilar. Misisiz jasoratlari bilan Vatan

tarixi sahifalaridan munosib o'rin egalladilar. Mazkur qo'zg'olonlarga rus amaldorlaridan biri: «*Urush frontlariga yangi bir Turkiston fronti qo'shildi*», deb o'lkadagi vaziyatga baho bergan edi.

Qo'zg'olonchilar mustamlakachi hukumatga qarshi oddiy ish qurollari bilan jang olib bordi. Bundan tashqari, ularning aksariyati dehqonlar, hunarmandlar bo'lganligi va harbiy sohadan mutlaqo bexabar ekanligi qo'zg'olonning mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi. Ular Turkistonning turli mintaqalarida mustamlakachilarga qarshilik ko'rsatdilar. Shunday bo'lsa-da, qo'zg'olonchilarning taktik va strategik uquvsizligi, ahillikda va birdamlikda harakat qilmasligi pand berdi.

Qo'zg'olon xalq ommasi uchun juda katta yo'qotishlarni olib keldi. Birinchidan, Jizzax atrofidagi aholisi qo'zg'olonida qatnashgan qishloqlar yondirib yuborildi, natijada ko'pchilik uy-joysiz qoldi. Ikkinchidan, qo'zg'olon yoz faslida bo'lib o'tganligi bois ekinzorlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari nobud bo'ldi. Buning natijasida Turkiston aholisi 1916 – 1917-yil qish oylari uchun g'amlaydigan oziq-ovqat zaxirasining katta qismidan ayrildi. Uchinchidan, qo'zg'olon natijasida aholi orasida ko'plab qurbonlar berildi.

Rossiyaning Birinchi jahon urushida ishtirok etishi, Turkiston o'lkasidagi qo'zg'olonlar xalq turmushiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Podsho hukumati tomonidan Turkiston aholisining mardikorlikka safarbar qilinishi mahalliy aholining katta qismini boquvchisiz qoldirdi. Natijada bu davrda oziq-ovqat taqchilligi, narx-navoning ko'tarilishi tirikchilik qilishning qiyinlashishiga olib keldi. Shuning uchun ham mardikorlikka qarshi olib borilgan 1916-yildagi qo'zg'olonlar mahalliy aholining mustamlakachilarning jabr-zulmga asoslangan siyosati va urush oqibatlarining salbiy ta'siri natijasida sodir bo'ldi.

Qo'zg'olonning ahamiyati. 1916-yildagi qo'zg'olonlar podsho hukumati tomonidan ayovsiz ravishda bostirildi. Qo'zg'olonchilar mustamlakachi hukumatning politsiya va harbiy kuchlariga qarshi mardonavor kurashdilar. Bu mardikorlikka qarshi qaratilgan qo'zg'olonlar Turkiston aholisining bosqinchilarga qarshi milliy-ozodlik xarakteridagi harakati hisoblanadi. Qolaversa, bu qo'zg'olonida o'lka keng xalq ommasining barcha tabaqalari, jumladan, qariyalar va ayollar ham ishtirok etdi.

1916-yilgi qo'zg'olonlar mustamlakachi hukumatni qattiq sarosimaga soldi. Bu qo'zg'olon Turkiston xalqlarining o'z huquqlarini poymol qilishlariga yo'l qo'ymasligini tasdiqladi. Bu qo'zg'olon mustamlakachi hukumatga yana bir bor mahalliy aholining ozodlik va mustaqillik uchun kurash tuyg'ulari hali so'nmaganligini ko'rsatdi. Podsho hukumati ba'zi choralar ko'rishga, yengilliklar yaratishga va aholi bilan murosa qilishga majbur bo'ldi.

24-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI VA XIVA XONLIGI

24.1. Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti

Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli. Rossiya bilan 1868-yildagi shartnoma Buxoro amirligi taqdirini tubdan o'zgartirib yubordi. U siyosiy mustaqillikdan mahrum bo'lib, Rossiya protektoratiga aylanib qoldi. Garchi siyosiy mustaqilligidan mahrum bo'lsa-da, Buxoro amiri o'z fuqarolari ul-tidan cheklanmagan hokimiyatni qo'lida saqlab qolgan edi. Buxoro amiri-ning siyosiy faoliyatini bevosita nazorat qilish uchun Rossiya imperatorining 1885-yildagi farmoni asosida «*Rossiya imperatorining siyosiy agentligi*» (1886 – 1917) tashkil etilgan bo'lib, u 1868-yildagi shartnoma shartlari ba-jarilishini va amirning siyosiy faoliyatini nazorat qilib borgan.

XIX asr oxirida Buxoro amirligi hududi Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tgan hududlar hisobiga qisqargandi. Aholisining soni 2 million kishi atrofida bo'lib, asosiy mashg'uloti hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik edi. Poytaxt Buxorodan tashqari *Chorjo'y, Kitob, Shahrisabz, Denov* kabi shaharlar amirlikning yirik savdo va hunarmandchilik markazlari hisoblangan.

Davlat ishlarini boshqaruvchi oliy amaldor *qo'shbegi* bo'lib, u soliqlar yig'imi nazoratini boshqarar, ma'muriy amaldorlar tarkibiga rahbarlik qilar, mahalliy beklar bilan yozishmalar olib borardi. Qo'shbegi har kuni shaxsan hukmdorga amirlikdagi ahvol to'g'risida ma'lumot berib turardi. Barcha amaldorlar qo'shbegi tomonidan, faqat oliy amaldorlarga amirning o'zi to-monidan tayinlanar edi.

Xazina va zakot yig'imini boshqargan *devonbegi* lavozimi ahamiyati va mavqeyi jihatidan qo'shbegidan keyin turgan. Sudlov, notarial ishlar, ta'lim muassasalarini *ruhoniylar* boshqargan, *bosh qozi* esa diniy-sudlov ishlariga rahbarlik qilardi.

Joylarda qonunlarning ijro etilishi, diniy amallarning bajarilishi, axloqiy mezonlar, bozordagi tarozilar va o'lchovlar ustidan nazorat ishlarini *rais* bosh-qarardi. Rais, o'z navbatida, bosh qoziga bo'ysunardi. Bosh raisning o'zi amir va bosh qozi oldida ma'lumot berish uchun shaxsan mas'ul bo'lgan. Uchala oliy amaldor – qo'shbegi, devonbegi va bosh qozi har doim Buxoroda bo'lishi shart edi. Amirlikdagi beklar va ularning mol-mulkini askarlar qo'riqlashgan.

Mahalliy ma'muriyat aminlar, oqsoqollar hamda beklklar vakillari va ru-honiylardan iborat bo'lib, ular amir farmonlarini so'zsiz ijro etishlari shart bo'lgan. Butun Buxoro amirligi beklklarga bo'lingan edi. Beklar shaxsan

amir tomonidan tayinlanar va lavozimidan bo'shatilardi. Beklar atrofida ularning qarindoshlari yoki yaqin kishilaridan tayinlangan ulkan amaldorlar guruhi jamlangan.

Davlatni himoya qilish uchun amirning xalq ko'ngillilari va qo'shinlardan saralab olingan xos lashkari bo'lgan. Lashkarga *to'pchiboshi* (to'pchilashkar) rahbarlik qilgan. Biroq XIX asr oxiriga kelib amir lashkari shoshilinch tarzda yig'iladigan, yomon harbiy ta'lim ko'rgan va sodda qurollar bilan ta'minlangan dehqonlardan iborat bo'lgan. Bunday lashkarning bosh maqsadi zarur bo'lganda Ark qarshisida safga yig'ilish edi. Lashkar tartiboti amalda XIX asr boshlaridan beri isloh qilinmagan, harbiy ish sifatsiz va qo'shin qurol-ya-rog'lari o'ta qoloq darajada edi.

Mamlakat daromadlarining katta qismini shaxsiy manfaatlariga sarf qiluvchi amaldor-u xizmatchilar davlat ravnaqi va taraqqiyoti uchun kamdan kam qayg'urardilar. Shu bois amirlikning zaruriy sarf-xarajatlari bir-biriga qon-qarindosh amaldorlar zimmasiga emas, balki oddiy xalq gardaniga tushardi.

Soliq va majburiyatlar. Xalq qo'zg'olonlari. Amirtikdagi dehqonlarning aksariyati nochorlikda kun kechirardi. Chunki yer va yerga ishlov berish vositalari amir va uning amaldorlari qo'lida edi. Davlat amaldorlari moddiy ta'minoti uchun zarur moliyaviy mablag'larni bekorga sarf qilardilar. Amir Abdulahad Peterburgga, imperator huzuriga katta sovg'a-salom bilan har yili qatnardi. Shuningdek, u Qrim va Kavkazga borganida qimmatbaho sovg'alarni va saroylarni xarid qilardi. Bu odat ulkan sarf-xarajatlarni talab qilardi va ushbu xarajatlar oddiy aholi yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushardi.

Buxoro amirligida asosiy soliqlarni aholining 90% ga yaqinini tashkil etuvchi dehqonlar to'lardi. Bu soliqlarni to'lash uchun ular savdogarlar, sudxo'rlar va yirik zamindorlarga tegishli yerlarida arzimagan haq evaziga mehnat qilishga majbur edilar. Natijada og'ir jabr-zulm bilan murosqa qila olmagan xalq oshkora noroziliklarga jazm etardi. Garchi bu norozilik chiqishlarining aksariyati stixiyali, uyushmagan bo'lsa-da, ular amirlikning eski boshqaruv uslubi o'z ahamiyatini yo'qotib borayotganligini ko'rsatardi. Qolaversa, dehqonlarning aksariyati soliqlarning ko'pligidan kasodga uchrab, qishloqlardan shaharlarga kelib yollanib ishlashga majbur bo'lganlar.

Amir Muzaffar hukmronligi davrida nohaqlik haddan tashqari oshib ketdi. Bu davrda soliqqa tortishning natura shakli (mahsulot ko'rinishida) o'rniga naqd pul ko'rinishidagi yig'imlar asosiy o'rinni egallagan edi.

Amirlikda azaldan *xiroj* va *zakot* asosiy soliqlar bo'lsa-da, yerdan olinadigan xiroj solig'i miqdori ayrim viloyatlarda hosilning 40 – 50% ga yetardi. Bu miqdor amirlik yillik daromadlarining yarmidan ko'pini tashkil etardi. Bundan tashqari, xiroj bilan bir qatorda *kafsan*, *dorug'ayi muzd*, ya'ni xirmonlarni xatga

olgani uchun amaldorga qo'shimcha maosh ham undirilardi. Bog'lar va poljalardan olingan daromadlar uchun alohida yig'im – *tanobona* to'langan.

Dehqonlar ma'muriyat vakillari ularning yerlarni egallab olishidan, mahalliy hokimiyat va sud hokimiyati xodimlarining poraxo'rliigi hamda tovlamachiligidan aziyat chekishardi. Odatda, dehqonning soliq to'lashga puli bo'lmasa, uning mol-mulki tortib olinardi. Kasodga uchrash, qashshoqlashish, amaldorlarning o'z vakolatlarni suiiste'mol qilishlari dehqonlarni qo'zg'olon ko'tarishga majbur qilardi. Natijada amirlikdagi eng yirik qo'zg'olonlardan biri 1885-yili *Baljuvon* bekligida shijoatli va xalqparvar *Vose* ismli kishi rahnamoligida ko'tarildi. Ketma-ket ocharchilik yillaridan keyin baljuvonlik dehqonlar ilk bora 1885-yili mo'l hosil yig'ib olishgandi. Soliq yig'uvchilar esa nafaqat o'sha yil uchun, balki o'tgan kamhosil yillar uchun ham xiroj to'lashni talab qilishdi. Bunday soliq undirishni adolatsizlik deb bilgan dehqonlar uni to'lashdan bosh tortdilar. Amaldorlar zo'ravonligi va ijtimoiy zulm qurolli qo'zg'olonga undagan minglab dehqonlar *Vose* atrofida uyushdilar.

1885-yil iyul oyining oxirgi kunlarida qo'zg'olon ko'targan dehqonlar va amir Muzaffar lashkari o'rtasida jang bo'lib o'tdi. Tayyorgarlik ko'rmagan va mehnat qurollari bilan ko'chaga chiqqan dehqonlar mag'lubiyatga uchradi. Qo'zg'olon yo'l boshchilari, jumladan, *Vose* ham qo'lga olinib, qatl etildi. 1888-yili *Ko'lob* bekligida boshlangan yirik dehqonlar qo'zg'olonlari Pomir chegaraga qo'shinlarining yordami bilan bostirildi. 1889-yil may oyida *Kalif* bekligida ham qo'zg'olon bo'lib o'tdi.

Hunarmandchilik. Bu paytda hunarmandchilik sohasida ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri gilam va namat tayyorlash bo'lgan. Buxoro gilamlariga chet ellarda ham talab katta bo'lib, amirlik savdogarlari ularni ko'p miqdorda xorijsa, jumladan, Rossiyaga olib borib sotar edilar. Bundan tashqari, O'rta Sharq mamlakatlari, Turkiston bozorlarida ham Buxoro gilamlari xaridorgir edi. Ichki va tashqi bozorlarda Buxoro ip-gazlama matolari, ko'ncilik, zardo'zlik, kumush va oltin kandakorlik buyumlari, bo'yoq va sovun mahsulotlari ham mashhur bo'lgan. Buxoro ustalarining oltin va kumushdan yasagan buyumlari, ayniqsa, dong taratgan edi.

Amirlikning deyarli barcha shaharlarida mohir zargarlar mehnat qiladigan ustaxonalar mavjud edi. Ular yasagan mahsulotning barchasi o'ziga xos nozik naqshlar bilan bezatilardi. Buxoro kulolchilik buyumlari bozori ham chaqqon bo'lib, kulollar butun amirlik shaharlarida keng tarqalgan edi.

Buxoro amirligida azaldan rivojlanib kelgan o'ziga xos ko'rinishdagi hunarmandchilik mavjud bo'lgan. Hunarmandlarning asosiy daromadlari behisob soliqlarni to'lashga ketardi. Shu bois ular o'z ustaxona va korxonalarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun qo'shimcha mablag'larga ega emasdi.

Savdo-sotiq munosabatlari. XIX asrning oxirida Buxoro amirligi Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Eron va Kavkaz bilan savdo aloqalariga ega bo'lgan. Buxoro, Chorjo'y, Karki, Termiz va Kogonda (Yangi Buxoro) Rossiya firmalarining idora va omborxonalari mavjud edi. Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasida tovar aylanishi yil sayin o'sib bordi.

Buxoro amirligi hududi katta foyda keltiruvchi tranzit savdo uchun ham qulay edi. Rossiya va Afg'oniston o'rtasidagi barcha savdo yo'llari Buxoro amirligi orqali o'tardi. Rossiya Buxoro orqali Afg'onistonga katta miqdorda movut, chinni buyumlar, baxmal, chit, gugurt va kerosin chiqarar edi.

1887-yili amirlik hududi orqali dastlabki temir yo'l o'tkazildi. Buxorodan 15 kilometr masofada *Yangi Buxoro* stansiyasi qurilishi boshlab yuborildi. Bu yerda amir saroyi va Rossiya siyosiy agentining qarorgohi ham barpo etildi. Endilikda Buxoro amirligi temir yo'l orqali Toshkent, Orenburg va Moskva bilan bog'langandi. 1888-yilga kelib Buxoro amirligi hududida rus qishloqlari vujudga kela boshladi. Buxoroda Rossiya davlat banki bo'limi ochildi. Bundan tashqari, ikkita paxta tozalash zavodi, Yevropa namunasida ikkita mehmonxona barpo etildi. Eski Buxorodagi qo'shbegi uyi va Rossiya imperatorining siyosiy agentligi qarorgohi ilk paydo bo'lgan telefon aloqasi bilan bog'langan edi.

24.2. Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi

Yosh buxoroliklar. XX asr boshlarida Buxoro ijtimoiy hayotida bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch paydo bo'ldi. Birinchisi – Buxoroning siyosiy hayotini demokratik asosda qayta qurish, uning iqtisodini rivojlantirish, ilg'or mamlakatlar qatoriga ko'tarilishi uchun astoydil kurashuvchi Yosh buxoroliklar. Ikkinchisi – diniy mutaassiblar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan toifa vakillari.

Yosh buxoroliklar siyosiy harakat sifatida 1910-yildan faoliyat ko'rsata boshladilar. Ular Buxoro taraqqiyparvarlarining yetuk namoyandalari (Abdulvohid Burhonov, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Usmon Xo'ja, Abduqodir Muhitdinov, Musojon Sayidjonov va boshqalar) bo'lib, Buxoroni mustabid amir hukmronligidan qutqarib, respublika tuzumini o'rnatishga harakat qildilar. Yosh buxoroliklar Buxoroda yangi usul maktablarini tashkil qildilar. Bu maktablar uchun turli darsliklar va o'quv qo'llanmalari yozildi. «*Buxoroyi sharif*» va «*Turon*» gazetalarini nashr qilindi. Ushbu nashrlar xalqni jaholatdan uyg'otish va ma'rifatga da'vat etish bilan birgalikda milliy-ozodlik va mustaqillik g'oyalari ham ko'tarib chiqdi.

Amir Olimxon islohotlari. Amir Abdulahaddan so'ng Buxoro taxtini uning o'g'li *Sayid Olimxon* (1910 – 1920) egalladi. Uni 1893-yili otasi Peterburgga o'qishga jo'natdi. Bu yerda u 3 yil davomida harbiy ishlar va davlat boshqarish asoslarini o'rgandi. Amirlik taxtiga o'tirgan Sayid Olimxon Buxoroda davlat asoslari va diniy tizimni o'zgartirish taraddudida bo'lmadi. Ammo Rossiyadagi voqealar va amirlikning o'zidagi muxolifatchi harakatlar uni chora-tadbirlar ko'rishga va Yosh buxoroliklarning (jadidlar) mamlakatni demokratlashtirish va islohotlar o'tkazish to'g'risidagi talablariga yon berishga majbur qildi.

1917-yil Rossiyadagi fevral voqealari va u tufayli Buxoro siyosiy hayotidagi jonlanish, siyosiy o'zgarishlarning Buxoro amirligida ham takrorlanishidan saqlanish amirni ayrim islohotlarni amalga oshirishga undadi. 1917-yil martda bosh qozi amir qabulxonasida mamlakatda islohotlar o'tkazish haqida va'da berdi. U amirning mavjud tuzum asoslariga daxl qilmaydigan va xalqning ahvolini ko'p ham o'nglamaydigan farmonini o'qib eshittirdi.

Farmonda odil sudlov, xiroj, zakot va boshqa soliqlarni undirishning barqaror asoslarini yaratish haqida so'z borardi. Sanoat va savdoni rivojlantirishga ham e'tibor qaratilgandi. Amaldorlarga xizmat yuzasidan vazifalarni ijro etish chog'ida qo'shimcha ustama haq olish taqiqlandi. Buning o'rniga davlat tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan maosh ta'sis etildi. «So'ngra biz tomonimizdan, – deyiladi farmonda, – xususan, shariat amri bilan mamlakatda foydali bilimlarni rivojlantirish va rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'riladi».

Shuningdek, amir o'z xazinasidan tashqari alohida davlat xazinasini ta'sis etishga, davlat ehtiyojlaridagi kirimlar va chiqimlarni aniq hisoblab boruvchi byudjet belgilashga ham va'da bergandi. Farmonda bosmaxona ochish, mahbuslarni zindonlardan ozod qilish haqida ham va'dalar berildi. Ana shu maqsadda poytaxtda istiqomat qiluvchi «tiniq fikrli va oqil» odamlardan «*assambleya*» (majlis) tuzuvchi «*millat*»ni saylash ham mo'ljallangan edi. Farmon katta va'dalar asosida tuzilgan bo'lsa-da, jadidlarda u shubha uyg'otdi. Yosh buxoroliklar rahnamolari (farmonni amalga oshirish maqsadida tuzilgan qo'mita Yosh buxoroliklar qo'mitasi deb atalgan) o'zlari-ning islohotlar borasidagi fikr-mulohazalarida yakdillikka erisha olmadilar. *Mahmudxo'ja Behbudiy, Mullaxon o'g'li, Mirzo Gulom* vazmin, bosiq harakatlar bilan farmonni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, radikal harakat tarafdorlari *Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat va Usmon Xo'ja* kabilar yanada chuqur islohotlar o'tkazishni talab qilib o'z tarafdorlarini zudlik bilan namoyish o'tkazishga da'vat etdilar.

1917-yil 8-aprelda jadidlar *Karki va Buxoroda* namoyishlar o'tkazishdi. Buxoroda namoyishga to'plangan 150 kishiga *Fayzulla Xo'jayev* va

Abdurauf Fitrat rahnamolik qilishgan. Shiorlarda «*Yashasin Amir!*» qatori-da «*Hurriyat, Adolat, Musavvat!*» kabi boshqa mazmundagi da'vatlar ham bor edi. Namoyishga chiqqanlar Arkkacha yetib kelishganida amir sarbozlari ularni to'xtatishga buyruq oldi. 200 piyoda va 300 otliq sarbozdan iborat amir qo'shini namoyishga chiqqanlarni tarqatib, hibsga ola boshladi. Bundan tashqari, Ark ostonasini islohotlarga qarshi chiqqan 7 mingdan ziyod ancha uyushgan mullalar guruhi egallab oldi. Mullalar Arkka yaqin kelishga botingan har qanday kishini o'ldirish bilan tahdid qildilar. Namoyishchilarga toshlar yog'dirilib, ularni do'pposlay va haqoratlay boshlashdi. 30 dan ziyod namoyishchi hibsga olindi, ko'plariga tan jarohati yetkazildi. Qutulib qolgan namoyishchilar boshqa shaharlarga qochib jon saqlashdi.

Buxorodagi voqealar jadidlarni sergaklantirdi. Ma'rifatli hukmdor tariqasida namoyon bo'lgan Sayid Olimxonning xalq orasida hurmati qolmadi.

Buxoro amirligining qulashi. Omon qolgan jadidlar 1917-yili bolsheviklar tomonidan egallangan Turkistonga qochishdi. 1920-yil yanvarda Toshkentda o'rnashib olgan Yosh buxoroliklarning so'l qismi Fayzulla Xo'jayev rahbarligida «*Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi*» ni tuzishdi. Ammo bu tashkilot nufuzli siyosiy kuchlarni o'zida mujassam etmagan. Bu tashkilot O'rta Osiyoni butunlay zabt etib, uni bolsheviklar qo'l ostida bo'lgan yangi davlat tarkibiga qo'shib olishga harakat qilgan mustamlakachilarning kurash vositasiga aylandi.

Fayzulla Xo'jayev rahbarlik qilgan Yosh buxoroliklar va bolsheviklarning birgalikdagi harakatlari bilan Buxoroda davlat to'ntarishi tayyorlandi. Amir qo'shinini parokanda qilish bo'yicha ishlar olib borildi. Mahalliy aholi orasida kuchli tashviqot yurita boshlandi. Shu maqsadda «*Tong*» jurnali va «*Uchqun*» gazetasi nashr etildi.

Yosh buxoroliklar amirni taxtdan ag'darishning siyosiy va tashviqiy asoslarini hozirlashga kirishdi. Ularning tashabbusi bilan 1920-yil 29-avgustda *Chorjo'yda* qo'zg'olon uyushtirildi. Bu yerda Muvaqqat inqilobiy qo'mita tuzilib, u Rossiya hukumatidan yordam so'rab iltimosnoma bilan murojaat qildi. Sovet davlati esa yaxshi qurollangan qo'shin va mahalliy aholini dahshatga soluvchi harbiy aviatsiya bilan ta'minlangan yirik harbiy qismlarni Buxoroga tashladi. Amir va uning qo'shinlari deyarli hech qanday qarshilik ko'rsata olmadi. Bunday vaziyatdan chiqa olmagan amir Sayid Olimxon o'z oilasi va devonidagi amaldor-u a'yonlar bilan *Afg'oniston* tomonga qochib o'tdi.

1920-yil 2-sentyabrda bolsheviklar armiyasi qo'shinlari Buxoroga kirdi. 6-oktyabrda *Buxoro Xalq Sovet Respublikasi* va Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi birinchi hukumat – *Xalq Nozirlar Kengashi* tuzilganligi e'lon qilindi.

Tarixiy hujjat

Buxoro amirligi xazinasida

Buxoro amirligining bosh vaziri – qo'shbegi Mirzo Nasrulloning shaxsan o'zi tuzgan ro'yxat bo'yicha: Buxoro tillasi 1148380 dona, rus tillasi 4365100 dona, yombi holidayi Gamburg tillasi 17 dona, kumushi 45 tonna, rus kumushi 22 tonna 160 kg, Buxoro tangasi 62834780 dona, Buxoro mis tangasi 13 tonna, tilla kukuni 1 tonna, yirik brilliantlar 3483 karat, buyumlarga tikilgan brilliantlar 968 karat, qimmatbaho toshlar 8617 karat bo'lgan. Amir Olimxon qo'lidagi rus sanoat banklari aksiyalarining qiymati 33 million so'm edi. Uning xazinasida 100 mln Rossiya imperiyasi pullari bo'lgani ham qayd etilgan.

24.3. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Xonlikning ijtimoiy-siyosiy tuzumi. Xiva xonligi ustidan podsho hukumati o'zining protektorat hududi sifatida qattiq nazorat o'rnatdi. Ichki va tashqi siyosatdagi arzimasi o'zgarishlarni ham Xiva xoni Turkiston general-gubernatori bilan kelishib olishi lozim edi. Xon ustidan nazorat qilish maqsadida 7 kishidan iborat *Kengash* (devon) ta'sis etilib, ularning to'rt nafari podsho hukumati vakillari edi.

Amudaryoning avval Xiva xonligi tasarrufida bo'lgan va Gandimiyon shartnomasiga ko'ra Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tgan o'ng qirg'og'i hududida Turkiston general-gubernatorligining *Amudaryo bo'limi* tashkil qilingan edi. Uning boshlig'i, ayni mahalda, Rossiya imperiyasining Xiva xonligidagi vakili sifatida mamlakatni boshqarishda xonning hamma harakatlari ustidan nazoratni amalga oshirar edi. Xonlik ming yillik tarixga ega va o'zbek xalqining madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynagan turkiy urug' – qo'ng'irotlarga mansub sulola vakillari tomonidan boshqarilayotgan monarxiya edi. Qo'ng'irotlar urug'i siyosiy va ijtimoiy hayotda hamda harbiy sohada xonning suyanchi edi.

Xon cheklanmagan ma'muriy-sudlov va harbiy hokimiyatga ega edi. U mamlakatni qo'ng'irotlar urug'i zodagonlari, saroy a'yonlari va oliy ruhoniylar guruhi madadiga tayanib boshqarardi. Xon hokimiyati o'z xalqi manfaatlaridan ko'ra ko'proq tor doiradagi amaldorlar manfaatidan kelib chiqib ish olib borar edi.

Xiva xonligida qo'shin xalq qarshilik harakatini bostirish va davlat yaxlitligini saqlash uchun kurash vositasi edi. Bu qo'shin yaxshi uyushmagan, harbiy tartib-intizom bo'sh, nihoyatda sodda qurollangandi. Xonning muntazam qo'shini *yasovulboshi* boshqaradigan 1,5 ming kishidan iborat edi. Harbiy harakatlar davrida shahar, qishloq va ovullardan xalq lashkari hamda harbiy harakatlarda turkman otliq sipohilari jamlanardi.

Xonlik ma'muriy jihatdan 18 ta beklik va 2 ta noiblikka bo'lingan edi. Ulardan eng yiriklari *Hazorasp, Urganch, Qiyot, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Qo'ng'iroq* hisoblangan. Ularning har biriga xon tomonidan tayinlangan *bek* yoki *hokim* rahbarlik qilar edi. Xonlikda ikkita kichik viloyatlar ham bo'lib, ularni *xon noiblari* boshqarardi. Xiva shahri va uning tevaragi bevosita xonning tasarrufida bo'lgan. Mavjud boshqaruv apparatidagi mansabdor shaxslar dehqon va hunarmandlardan yig'iladigan soliqlar hisobidan kun kechirar edi.

Mehtar (bosh vazir) va *devonbegi* (devonxona mutasaddisi) xonning oliy amaldorlari va yaqin maslahatchisi bo'lgan. Xonlikdagi sudlov tizimida hokimiyatga qarshi arzimagan qilmish uchun ham o'lim jazosi qo'llanilar edi.

Islom dini ruhoniylari mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotda katta ta'sirga ega edi. Xiva Buxorodan keyingi islom dini markazlaridan biri sanalardi. Shaharda 160 dan ortiq masjid va dindorlarning qadamjosiga aylangan 60 dan ziyod avliyoning dahmasi mavjud bo'lgan. Mamlakatda 1,5 mingga yaqin maktablar faoliyat yuritardi. Bu maktabni bitirgan talabalarning ayrimlari oliy (madrasa) o'quv yurtida o'qishni davom ettirib, 10 yilgacha ta'lim olishardi. Bunda asosiy fanlar sifatida arab grammatikasi, islom huquqi va falsafasi, shuningdek, qo'shimcha ravishda elementar arifmetika va geometriya o'qitilardi. Madrasa talabalari imtihon sinovlari topshirganlaridan so'ng bo'shab qolgan qozilik, imomlik yoki boshqa biror nufuzli lavozimni egallashlari mumkin edi.

Yer egaligi. Yer davlat boyligining birlamchi omilidir. Bu boyluk dehqonlar mehnati evaziga qo'lga kiritiladi. Dehqonlar mehnati yer unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan. Bu borada Xiva xonligi dehqonlari ham mirishkor edilar. Xonlikda g'alla yetishtirish qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib, sholi, jo'xori hamda suli ko'p yetishtirilardi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab Rossiya bilan savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida paxta yetishtirishga ixtisoslashuv ham jadal kechdi.

Xonlikdagi yerlarning asosiy qismi xon va uning amaldorlariga tegishli edi. Amaldor va a'yonlarga haq sifatida Xiva xonlari ularga davlat yerlari hisobidan ehsonlar qilishardi. Bundan tashqari, xon va uning amaldorlari, qarindoshlari soliqlardan ozod etilgandi.

Yer maydonlarining katta qismi diniy muassasalar tasarrufida bo'lib, xonlikdagi jami sug'oriladigan yerlarning 40% masjidlar mulki hisoblangan. Xususan, 64 ta masjid va madrasa XIX asrning oxirgi choragida 205 ming tanobdan ziyod yerga egalik qilgan. Bu xonlarning dindorlarga nisbatan hurmat va izzati ifodasi ham edi. Xususan, vaqf yerlari va XIX asrning oxirida qariyb 4 ming ruhoniylar oilasi barcha soliqlardan ozod etilgandi.

Soliq va majburiyatlar. 1873-yildan so'ng hosildor yerlarning katta qismi Rossiya tasarrufiga o'tishi oqibatida xonlik ma'muriyati sarf-xarajatlarga

bo'lgan ehtiyojlarini yangi soliqlarni joriy etish yoki ilgari mavjud bo'lganlarini oshirish yo'li bilan qoplay boshladi. Xiva xonligida turli majburiyatlar, domiy yoki favqulodda soliqlarning qariyb 25 turi mavjud bo'lgan. Dehqonlar *solg'ut* – yer solig'i, *zakot*, *cho'p puli* – o'tloqlardan foydalanganlik uchun soliq, turarjoylardan *o'tov solig'i* kabilarni to'lashgan.

Bunday soliqlardan tashqari dehqonlar turli-tuman majburiyatlarni ham bajarishgan. Bu majburiyatlar orasida sug'orish tizimini ta'minlash, yangilarini barpo etish eng og'iri edi. Xiva dehqonlari har yili kanallarni tozalashga, ko'tarmalarni qurish va qayta tiklashga, to'g'onlar va ko'priklarni ta'mirlashga chiqardi. Bu ishlarga dehqonlar o'z ish qurollari va oziq-ovqati bilan kelardi. Majburiy ishga chiqmaganlar esa muayyan miqdordagi mablag'ni xazinaga to'lashlari shart bo'lgan. Xon farmonlarini e'lon qiluvchi jarchi o'z foydasiga *afanak puli* yig'gan bo'lsa, ishlar nazoratchisi va mutasaddisi ham o'z ulushini olishga harakat qilgan.

Dehqonlar aholining 90% ga yaqinini tashkil etsalar-da, sug'oriladigan yerlarning atigi 5% ga egalik qilishardi. Yersiz va kam yerli dehqonlar esa yirik zamindorlarning va vaqf yerlarida ijarachi sifatida ishlab berishardi. Dehqonlar ulushbay yoki hosilning teng yarmi hisobiga mehnat qilishgan. Ishlar yakunlanganidan keyin, odatda, yer egasiga hosilning 40 – 50% berilgan. Teng yarmiga ishlovchilar *yarimchilar* deb atalgan. Yeri ham, asbob-uskunalari ham, ish hayvoni ham bo'lmagan dehqonlar esa zamindorlar qo'lida turli shartlarga ko'nib ishlashga majbur edilar. Qarzdor dehqonlar o'z qarzlarini uzish uchun ma'lum vaqt davomida tekin ishlab berishlari lozim edi.

Shu zaylda xonlikda yersiz dehqonlar soni yildan yilga o'sib borardi. Ular xonlar, beklar va ularning amaldorlariga tobora qaram bo'lib borishardi. Bu jarayonlarning barchasi Xiva xonligining umumiy iqtisodiy va ijtimoiy ahvoriga o'z salbiy ta'sirini o'tkazdi.

Sanoatning rivojlanishi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida uy hunarmandchilik ishlab chiqarishi hanuz saqlanib kelayotgan edi. Unda ip yigirish va to'quvchilik, oyoq kiyimlari, gilamlar, kigizlar va hokazolar tayyorlanardi. Har bir dehqon xo'jaligi yordamchi daromad manbai bo'lgan uy hunarmandchiligi bilan shug'ullanar edi. Deyarli har bir qishloqda ko'nchi, etikchi, bo'zchi, bo'yoqchi, juvozchi va boshqalar faoliyat ko'rsatishgan. Hunarmandlar o'z hamqishloqlaridan buyurtmalar olib ishlashar va tayyorlangan buyumlari uchun natura tarzida, mahsulot yoki pul bilan haq olishardi. Ulardan ba'zilari bevosita mahalliy bozorlardagi ustaxonalarda mehnat qilishardi.

O'rta Osiyoning Rossiya, qozoq juzlari, Kavkaz, Eron bilan savdo munosabatlari rivojlanishi ichki savdo-sotiqni jonlantirdi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi tovar-pul munosabatlarining shitob bilan o'sishiga imkoniyat

yaratdi. Shaharlarning qishloqlarga nisbatan jadal rivojlanishi yangi shaharlarni vujudga keltirdi va eskilarining rivojlanish jarayonini tezlashtirdi. Bu mamlakat iqtisodiy hayotida shaharlarning ahamiyati ortishiga olib keldi. XX asr boshlariga kelib *Xiva, Yangi Urganch, Qo'ng'iroq, Toshhovuz, Gurlan* singari shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlarga aylandi. *Bog'ot, Mo'ynoq, Taxta* singari yangi shaharlar vujudga keldi.

Ushbu shaharlarda mahalliy va Rossiya qo'shma korxonalarining idoralari, sanoat korxonalari joylashgan edi. Masalan, Yangi Urganch shahrida o'n bitta paxta tozalash zavodi (ulardan oltitasi mahalliy tadbirkorlarga tegishli edi), ikkita yog' zavodi, sovun va ko'n zavodi, bitta tegirmon bo'lgan. Bundan tashqari, Yangi Urganchda Rossiya – Osiyo va Sibir savdo bankining bo'limlari, pochta-telegraf idorasi, komission va sug'urta jamiyatlarining vakolatxonalari ochilgan edi. Gurlanda ham rossiyaliklarga, ham mahalliy sarmoyadorlarga tegishli kapital jamlangan edi. Bu shaharda asosan paxtani tashib ketish bilan shug'ullangan Rossiya savdogarlarining 10 ta idorasi va mahalliy tadbirkorlar – *aka-uka Rizayevlar, P.A.Manuilov, S.Maxsum, S.Tojniyozov, T.Solijonov* va boshqalarning jami 9 ta paxta tozalash zavodlari joylashgandi. 1909-yilga kelib Xiva xonligida 81 ta sanoat korxonasi ishlayotgan edi. Sanoat shakllanishi 1910 – 1915-yillarda yanada jadallashib, kerosin va neft bilan ishlaydigan 40 ta sanoat korxonasi barpo etildi.

Rossiya bilan savdo aloqalari. Turkiston o'lkasining mustamlakaga aylanishi jarayonida Rossiya imperiyasi va mahalliy kapital hamkorligi vujudga keldi. Mahalliy tadbirkorlar faoliyati, milliy kapital namoyandalarning sarmoyalari daromadi Rossiya bozori mahsulotlariga bevosita bog'langan edi. Ular ikki davlat o'rtasida bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun qo'shma bank uyushmalari tuzishga harakat qilishdi. 1909-yili Rossiya – Osiyo banki va Madiyorov – Baqqolov kapitalini birlashtirgan «*A-Meta*» sindikati tashkil qilindi. Sindikat har yili Rossiyaga qariyb 3 ming tonna paxta xomashyosi eksport qilardi va beda urug'i sotib olish bo'yicha yakkahukmronlikni o'rnatgandi. Rossiya kapitali o'z protektorati bo'lgan Xiva xonligida o'zi uchun zaruriy xomashyo bazasini yaratdi. Bu yerdagi ishchi kuchining arzonligi va 1873-yildagi Gandimiyon shartnomasi bandlariga ko'ra mahalliy bozorda monopol mavqeyi hisobidan ulkan daromad olish faollashdi.

Rossiya kapitali amaliyotlari tufayli O'rta Osiyoda ichki bozor imkoniyatlari ancha kengaydi. Tovar-pul munosabatlari rivojlanib, uning asosida yangi savdo-sanoat markazlari shakllandi. Mayda savdogarlar choy, manufaktura mahsulotlari, shakar, samovar kabi taqchil tovarlarni hatto eng olis qishloqlarga ham olib borib sotardilar. Sanoatning bir yoqlama va sust rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida yetakchi hunarmand-kasanachilik ishlab chiqa-

rishining salmog'i saqlanib qolishiga olib keldi. Mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari mamlakat hududidan tashqarida yuqori baholangan. Chunki bu mahsulotlar qadimiy boy hunarmandchilik ishlab chiqarishi an'analari asosida tayyorlanardi.

Hunarmandchilik va ichki savdo. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayrim tumanlar hunarmandchilik ishlab chiqarishining u yoki bu sohasiga ixtisoslashuvi jarayoni kuzatildi. Metallni qayta ishlovchi asosiy ustaxonalar *Buxoro, Xiva, Yangi Urganch, Chimboy, Hazorasp* shaharlarida joylashgan edi. Bu yerda ketmonlar, omoch tishi, belkuraklar, boltalar, taqalar, idish-tovoqlar va hokazolar yasalardi. Ko'pchilik ishlab chiqarishi esa *Buxoro, Xiva, Xonqa, Yangi Urganch, Xo'jayli* va boshqa markazlarda rivojlangan edi. Qoplar va arqonlar asosan *Yangi Urganch*da tayyorlangan. Gilam va kigizlar *Porsu, Alieli, Ko'hna Urganch, G'azovot* kabi hunarmandchilik maskanlarida ishlab chiqarilardi. Ayni mahalda, O'rta Osiyoning deyarli barcha shaharlarida to'qimachilik, sopol idishlar va zargarlik buyumlari yasash rivojlangan edi.

1885-yili *Kaspiyorti temir yo'lining* qurilishi va 1887-yil oxirlarida *Amudaryo flotilyasining* ta'sis etilishi Rossiyaga qaramlikni yanada kuchaytirdi. Avvallari savdo-sotiq asosan quruqlikdagi karvon yo'llari orqali olib borilgan bo'lsa, endilikda yuklarning katta qismi temir yo'l orqali va paroxodlar bilan Amudaryoning yuqori oqimi bo'ylab tashiladigan bo'ldi. Bu kabi yangiliklar Rossiya imperiyasi foydasiga xizmat qilib, unga mustamlaka bo'lgan davlatning qoloqligiga, qolaversa, hunarmandchilik ishlab chiqarishi bir qator tarmoqlarining inqiroziga olib kelardi.

Iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosati ham hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xonlik va mahalliy hokimiyat hunarmandlarni turli soliqlarga ko'mib tashladi. Hunarmandchilik ustaxonalarining egalari amaldorlarga sovg'alar taqdim etishi, daromadlariga mos kelmaydigan soliqlarni to'lashlari lozim edi. Natijada hunarmandlar o'z ishlab chiqarishini ko'paytirishga va yangi texnologiyalarni joriy qilishga qodir bo'lmay qolar edi.

Kasanachilikda sex birlashmalari o'rta asrlardagi ko'rinishda saqlanib qoldi. Sex birlashmalariga hunarmandlar kasblariga ko'ra uyushgan edilar. Unga usta, xalfa va shogird kirardi. Kredit berib turgan boy sexga rahbarlik qilardi. Hunarmandlar ishlab topgan pullarining anchagina qismini avliyolar va ma'naviy ustozlar sharafiga xayr-ehsonga berishar, xazinaga ko'pdan ko'p soliqlar to'lashardi. Xalfa va shogirdlar ahvoli og'ir bo'lib, ularning ish kuni cheklanmagandi. Xalfa olgan bo'nagi (avans) evaziga ishlab berishga majbur edi. Olgan avansning hammasini to'lamaguncha ustaxonadan keta olmasdi.

Rossiya imperiyasidan arzon narxlardagi sanoat tovarlari kirib kelishining ko'payishi mahalliy korxonalarining buyumlariga talabni pasaytirdi. Mahalliy matolar, iplar, kulolchilik, cho'yan va misdan yasalgan buyumlar ba'zi turlarining ishlab chiqarilishi keskin kamayishiga olib keldi.

24.4. Xiva xonligining tugatilishi

Xalq harakatlarining yetilib borishi. Turli xildagi jabr-zulmlar natijasida dehqonlarning kuchayib borayotgan noroziligi soliqlarni to'lashdan, majburiyatlarni bajarishdan ommaviy bosh tortish, yirik zamindorlar yerlarini egallab olish, soliq yig'uvchilar va xonlik ma'muriyatining boshqa namoyandalari hujum qilish holatlarini ko'paytirdi. Dehqonlarning chiqishlari yer egalari amaldorlarining uylarini vayron qilish, qarz tilxablarini yirtib tashlash va soliq yig'uvchilarni quvib yuborish bilan birga kechgan stixiyali isyonlar tarzida yuz berardi. Vaqt o'tgan sayin xon hokimiyati va mahalliy ma'murlar suiiste'mollari zo'rayishi barobarida dehqonlar chiqishlarining uyushganligi va ommaviyligi ham o'sib bordi. XIX asrning 80-yillarida *Pitnak, Hazorasp, Yangi Urganch, Ko'hna Urganch* tumanlarida dehqon uyushmalari vujudga kelib, kurash keskin tus ola boshladi. Xon ixtiyorida ularga qarshi kurash uchun kuchlar yetarli emasdi. Shu bois u Rossiya podshosi qo'shinlarini yordamga chaqirdi. Isyonlar bostirilib, dehqonlar harakati rahbarlari qatl etildi.

Shunday bo'lsa-da, dehqonlarning g'alayonlari to'xtamadi. 1902-yili *Matyoqub pishiq* rahnamoligida *Xonqa, Hazorasp, Bog'ot* tumanlari dehqonlari qo'zg'olon ko'tarishdi. Xon yana Rossiya podshosi hukumati qo'shinlariga murojaat qildi. Qattiq jazo choralari ko'rib, qo'zg'olon tor-mor etildi. Uning rahbarlari qatl qilindi.

Mustamlakachi hokimiyat va mahalliy amaldorlarning jabr-zulmi, turmush sharoitlarining yomonligi ko'plab xalq g'alayonlarini keltirib chiqardi. Xalq noroziligi ommaviy tus oldi va chuqur tomir otdi. XX asr boshlarida arzimas sabablar bilan qo'zg'olonlar yuz berib turardi. Ba'zi tumanlarda sabr kosasi to'lgan dehqonlar o'z oilalari bilan xonlikdan ommaviy tarzda yoppasiga qocha boshladilar. 1906-yili *Yangi Urganch, Xonqa, Hazorasp*da muhtoj dehqonlar yirik zamindorlar yerlarini egallab ola boshlashdi.

Xiva xonligida 1910 – 1911-yillar qurg'oqchilik va hosilsizlik yili bo'ldi. Xonlik aholisi ocharchilik girdobida qolgandi. Yetkazilgan zararlarni qoplash uchun xon ma'murlari aholidan imkoni bo'lgan hamma narsani tortib ola boshladi. Soliqlar esa oshib bordi. Aholining ommaviy qashshoqlashuvi

rishining salmog'i saqlanib qolishiga olib keldi. Mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari mamlakat hududidan tashqarida yuqori baholangan. Chunki bu mahsulotlar qadimiy boy hunarmandchilik ishlab chiqarishi an'analari asosida tayyorlanardi.

Hunarmandchilik va ichki savdo. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayrim tumanlar hunarmandchilik ishlab chiqarishining u yoki bu sohasiga ixtisoslashuvi jarayoni kuzatildi. Metallni qayta ishlovchi asosiy ustaxonalar *Buxoro, Xiva, Yangi Urganch, Chimboy, Hazorasp* shaharlarida joylashgan edi. Bu yerda ketmonlar, omoch tishi, belkuraklar, boltalar, taqalar, idish-tovoqlar va hokazolar yasaldirdi. Ko'nchilik ishlab chiqarishi esa *Buxoro, Xiva, Xonqa, Yangi Urganch, Xo'jayli* va boshqa markazlarda rivojlangan edi. Qoplar va arqonlar asosan *Yangi Urganchda* tayyorlangan. Gilam va kigizlar *Porsu, Alieli, Ko'hna Urganch, G'azovot* kabi hunarmandchilik maskanlarida ishlab chiqarilardi. Ayni mahalda, O'rta Osiyoning deyarli barcha shaharlarida to'qimachilik, sopol idishlar va zargarlik buyumlari yasash rivojlangan edi.

1885-yili *Kaspiyorti temir yo'lining* qurilishi va 1887-yil oxirlarida *Amudaryo flotiliyasining* ta'sis etilishi Rossiyaga qaramlikni yanada kuchaytirdi. Avvallari savdo-sotiq asosan quruqlikdagi karvon yo'llari orqali olib borilgan bo'lsa, endilikda yuklarning katta qismi temir yo'l orqali va paroxodlar bilan Amudaryoning yuqori oqimi bo'ylab tashiladigan bo'ldi. Bu kabi yangiliklar Rossiya Imperiyasi foydasiga xizmat qilib, unga mustamlaka bo'lgan davlatning qoloqligiga, qolaversa, hunarmandchilik ishlab chiqarishi bir qator tarmoqlarining inqiroziga olib kelardi.

Iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosati ham hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xonlik va mahalliy hokimiyat hunarmandlarni turli soliqlarga ko'mib tashladi. Hunarmandchilik ustaxonalarining egalari amaldorlarga sovg'alar taqdim etishi, daromadlariga mos kelmaydigan soliqlarni to'lashlari lozim edi. Natijada hunarmandlar o'z ishlab chiqarishini ko'paytirishga va yangi texnologiyalarni joriy qilishga qodir bo'lmay qolar edi.

Kasanachilikda sex birlashmalari o'rta asrlardagi ko'rinishda saqlanib qoldi. Sex birlashmalariga hunarmandlar kasblariga ko'ra uyushgan edilar. Unga usta, xalfa va shogird kirardi. Kredit berib turgan boy sexga rahbarlik qilardi. Hunarmandlar ishlab topgan pullarining anchagina qismini avliyolar va ma'naviy ustozlar sharafiga xayr-ehsonga berishar, xazinaga ko'pdan ko'p soliqlar to'lashardi. Xalfa va shogirdlar ahvoli og'ir bo'lib, ularning ish kuni cheklanmagandi. Xalfa olgan bo'nagi (avans) evaziga ishlab berishga majbur edi. Olgan avansning hammasini to'lamaguncha ustaxonadan keta olmasdi.

Rossiya imperiyasidan arzon narxlardagi sanoat tovarlari kirib kelishining ko'payishi mahalliy korxonalarining buyumlariga talabni pasaytirdi. Mahalliy matolar, iplar, kulolchilik, cho'yan va misdan yasalgan buyumlar ba'zi turlarining ishlab chiqarilishi keskin kamayishiga olib keldi.

24.4. Xiva xonligining tugatilishi

Xalq harakatlarining yetilib borishi. Turli xildagi jabr-zulmlar natijasida dehqonlarning kuchayib borayotgan noroziligi soliqlarni to'lashdan, majburiyatlarni bajarishdan ommaviy bosh tortish, yirik zamindorlar yerlarini egallab olish, soliq yig'uvchilar va xonlik ma'muriyatining boshqa namoyandalari hujum qilish holatlarini ko'paytirdi. Dehqonlarning chiqishlari yer egalari amaldorlarining uylarini vayron qilish, qarz tilxatlarini yirtib tashlash va soliq yig'uvchilarni quvib yuborish bilan birga kechgan stixiyali isyonlar tarzida yuz berardi. Vaqt o'tgan sayin xon hokimiyati va mahalliy ma'murlar suiiste'mollari zo'rayishi barobarida dehqonlar chiqishlarining uyushganligi va ommaviyligi ham o'sib bordi. XIX asrning 80-yillarida *Pitnak, Hazorasp, Yangi Urganch, Ko'hna Urganch* tumanlarida dehqon uyushmalari vujudga kelib, kurash keskin tus ola boshladi. Xon ixtiyorida ularga qarshi kurash uchun kuchlar yetarli emasdi. Shu bois u Rossiya podshosi qo'shinlarini yordamga chaqirdi. Isyonlar bostirilib, dehqonlar harakati rahbarlari qatl etildi.

Shunday bo'lsa-da, dehqonlarning g'alayonlari to'xtamadi. 1902-yili *Matyoqub pishiq* rahnamoligida *Xonqa, Hazorasp, Bog'ot* tumanlari dehqonlari qo'zg'olon ko'tarishdi. Xon yana Rossiya podshosi hukumati qo'shinlariga murojaat qildi. Qattiq jazo choralari ko'rilib, qo'zg'olon tor-mor etildi. Uning rahbarlari qatl qilindi.

Mustamlakachi hokimiyat va mahalliy amaldorlarning jabr-zulmi, turmush sharoitlarining yomonligi ko'plab xalq g'alayonlarini keltirib chiqardi. Xalq noroziligi ommaviy tus oldi va chuqur tomir otdi. XX asr boshlarida arzimas sabablar bilan qo'zg'olonlar yuz berib turardi. Ba'zi tumanlarda sabr kosasi to'lgan dehqonlar o'z oilalari bilan xonlikdan ommaviy tarzda yoppasiga qocha boshladilar. 1906-yili *Yangi Urganch, Xonqa, Hazorasp*da muhtoj dehqonlar yirik zamindorlar yerlarini egallab ola boshlashdi.

Xiva xonligida 1910 – 1911-yillar qurg'oqchilik va hosilsizlik yili bo'ldi. Xonlik aholisi ocharchilik girdobida qolgandi. Yetkazilgan zararlarni qoplash uchun xon ma'murlari aholidan imkoni bo'lgan hamma narsani tortib ola boshladi. Soliqlar esa oshib bordi. Aholining ommaviy qashshoqlashuvi

dehqonlarda norozilik tug'dirdi. 1910 – 1917-yillarda dehqonlar g'alayonlari keng tus oldi: insofsiz katta yer egalari va boylarni kaltaklash, ularning imoratlari, xo'jalik inshootlari, omborlarini buzib tashlash kabilar avj oldi.

1912-yildagi *Hazorasp*, *Xonqadagi* qo'zg'olonlar keskin tus oldi. Doimiy qo'zg'olonlar natijasida xalq o'qotar aslahalar bilan qurollanib urush olib borish taktikasini o'rganib olgan edi. Dehqonlar yirik zamindorlar va xonlik amaldorlarining yerlarini egallab ola boshladilar. Asfandiyorxon 1000 kishilik o'zining eng sara qo'shinini qo'zg'olonchilarni bostirishga tashladi. Ammo kutilmaganda *Alieli* va *Toshhovuz* o'rtasida ular qo'zg'olonchilar tomonidan tor-mor etildi. Xonga madadga yetib kelgan podsho hukumati qo'shinlari qo'zg'olonni qiyinchilik bilan bostirdi.

Islahohtlar uchun kurash. Xalq qo'zg'olonlari xonlikda ijtimoiy-siyosiy harakatlar rivojlanishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Mamlakatdagi yalpi noroziliklar ta'siri ostida jadidchilikning Xiva xonligidagi ko'rinishi, Yosh xivaliklar harakati vujudga keldi. Uning Yosh buxoroliklardan farqli jihati harakatda aholining turli qatlamlari – dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, ziyolilar va mayda mulkdorlarning ishtirok etishi edi.

Yosh xivaliklar harakati rahbarlari *Polvonniyoz hoji Yusupov*, *Bobooxun Salimov*, *Bekjon Rahmonov*, *Nazir Sholikorov*, *Jumaniyoz Sultonmurodov* kabi taraqqiyparvarlar bo'lib, ular Xorazmda katta nufuzga ega bo'lishgan. Yosh xivaliklar o'z davrining bilimdon va fozil kishilari bo'lib, Xiva xonligida ma'rifat tarqatish va islohotlar o'tkazish uchun jiddiy harakat qildilar. 1910-yili xon «*Islahotlar loyihasi*»ni qabul qildi. Loyiha boshqaruv tizimini tartibga solishni nazarda tutardi. Xon devoni saqlab qolinib, faqat amaldorlar davlat ta'minotiga o'tkazilishi mo'ljallangan edi. Loyihada, shuningdek, yangicha milliy maktablarni tashkil qilish g'oyasi ham ilgari surilgandi. Takliflar umumiy jihatlari bilan cheklanganligiga qaramay, ular chuqur islohotlar orqali Xiva davlatchiligi mustaqilligini tiklashga qaratilgan edi. Yangicha milliy maktablar ta'lim va madaniyat saviyasini ko'tarish hamda xivalik ziyolilarning yangi avlodini shakllantirish uchun kerak edi. Bu ularda xon hokimiyatining mustabidligiga nisbatan murosasizlik hissini tarbiyalashga xizmat qilardi.

Xiva xonligining tugatilishi. Muhammad Rahimxon II vafot etgach, podsho hukumati yordamida taxtni uning o'g'li *Asfandiyorxon* (1910 – 1918) egallaydi. Petro-Aleksandrovskda turgan Rossiya harbiy kuchlari madadiga ishonib yangi xon islohotlar o'tkazdi, ishni zulmni kuchaytirish va muxolifatni to'liq mahv etishdan boshladi. 1913-yili u islohotchilar rahnamolaridan biri, mamlakat bosh vaziri *Islomxo'jani* davlat mablag'larini o'zlashtirishda ayblab o'ldirtiradi. Xon buyrug'iga ko'ra yerlarni yangidan o'lchash boshlan-

di. Aslida, bu tadbirdam maqsad yangi soliqlarni joriy qilishdan iborat edi. Dehqonlar esa bunga *Mang'it* va *Xo'jaylida* qo'zg'olonlar ko'tarish bilan javob berishdi.

Xonning tayanchi bo'lgan podsho hukumati uni uzoq qo'llay olmad. Rossiyadagi 1917-yilgi fevral voqealaridan keyin Asfandiyorxon asosiy tayanchi – podsho hukumatidan mahrum bo'lib, bir necha muddat yakkalanib qoldi. Yosh xivaliklar qulay vaziyatdan foydalanib qolishga qaror qilishdi va islohotlar uchun ochiqdan ochiq harakatni boshlab yubordilar. 1917-yil 5-aprelda ular Asfandiyorxondan islohotlar o'tkazish to'g'risidagi manifestni imzolashni talab qilishdi. Islohotlar xon hokimiyati saqlangan, ammo *Majlis* (deputatlar palatasi) va *Nozirlar kengashi* (Vazirlar kengashi) bilan cheklangan konstitutsiyaviy monarxiyani tashkil etishni o'z ichiga olgandi. Yosh xivaliklar, shuningdek, davlat mablag'lari sarflanishi ustidan nazorat qilish uchun moliya vazirligi, suv taqsimotini isloh qilish, xonlikning butun hududida yangi usul maktablarini tashkil etish uchun qo'mita tuzishni, temir yo'llar va pochta-telegraf tizimi qurilishini ham talab qilishgandi. Podsho hukumati qo'shinlari madadidan mahrum bo'lgan Asfandiyorxon har qanday yo'l bilan hokimiyatni saqlab qolish va vaqtdan yutish maqsadida islohotlarni amalga oshirish to'g'risidagi manifestga imzo chekdi.

1917-yil 26-apreldagi Majlisning birinchi sessiyasida 30 nafar xivalik deputat va turkmanlardan 7 nafar vakil ishtirok etdi. Majlis Vazirlar kengashini sayladi. Ammo ikki oy o'tmasdan xon boshchiligidagi konservativ kuchlar harbiy to'ntarishni amalga oshirdi va Majlisni tarqatib yubordi. Yosh xivaliklar rahnamolari hibsga olinib, ulardan bir qismi otib tashlandi.

Lekin bu voqealarga yangi bir kuch – turkman urug'laridan birining sardori *Junaidxon* aralashdi. 1918-yil yanvarda 1,5 ming kishilik otliq otryad bilan u Xivani, keyin esa xonlikning boshqa tumanlarini egallab oldi. Asfandiyorxonni nomigagina taxtda qoldirgan Junaidxon xonlikda o'zining yakkahokimligini o'rnatdi. Keyinchalik uning buyrug'iga ko'ra Asfandiyorxon o'ldirilib, o'rniga *Said Abdulla* taxtga o'tqazildi.

Rossiya hukumati Xivada «inqilob» tayyorlay boshladi. Bolsheviklar tomonidan egallab olingan Petro-Aleksandrovskda Kommunistik partiya tuzilib, to'ntarishga tayyorgarlik ko'rilgan. To'ntarish 1920-yil 2-fevralda ro'y berdi va tarixda u «xalq inqilobi» nomini oldi. 27-aprelda sovetlarning birinchi Butun Xiva qurultoyi to'rt asrdan ortiqroq vaqt mavjud bo'lgan Xiva xonligi o'rnida *Xorazm Xalq Sovet Respublikasi* (XXSR) tashkil topganini e'lon qildi.

25-BOB. MUSTAMLAKA SHAROITIDA TURKISTONDA MADANIY HAYOT

25.1. Ta'lim tizimi. Matbuot

An'anaviy ta'lim muassasalari. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasida uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib rivojlangan ta'lim tizimi davom etdi. XIX asrning o'rtalaridan boshlangan iqtisodiy rivojlanish natijasida mustamlakaga aylangan Turkistonda mahalliy aholining an'anaviy ta'lim tizimida o'zgarishlar yuz bera boshladi. O'lkaning boshqa sohalariga singari ta'lim tizimida ham mustamlakachi hukumatning manfaatlarini aks ettiruvchi siyosat yurgizildi. Buni, eng avvalo, mahalliy aholini ruslashtirish maqsadida tashkil qilingan rus-tuzem maktablari ning ochilishi va ular sonining jadal sur'atlarda ko'paytirib borilganligida ko'rishimiz mumkin.

Mustamlaka davrigacha Turkistonda an'anaviy ta'lim tizimi islom dini qoidalari asosida tashkil qilingan bo'lib, maktab va madrasalarda diniy ta'lim bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Boshlang'ich ta'lim maktablari da 5 – 6 yil davomida o'qitilib, arab alifbosi, harflarning o'qilishi, talaffuzi o'rgatilgan. Keyingi bosqichda Qur'on suralari va oyatlaridan iborat bo'lgan «Haftiyak» (ya'ni Qur'oni karimning yettidan biri) kitobi o'qitilgan. So'ng «Chor kitob» (to'rt kitob), undan keyin So'fi Olloyorning «Risolayi aziza», «Sabot ul-ojizin» kitoblari o'qitilgan. Bu kitoblar asosan o'quvchilar tomonidan yod olingan. So'fi Olloyor asari she'riy tarzda yozilgan bo'lib, unda avliyolar, payg'ambarlar hayoti haqidagi ma'lumotlar aks etgan. O'quvchilar fors shoiri Hofizning «Xo'ja Hofiz» devonini ham o'rganishgan.

Oliy ta'lim madrasalarda berilib, unda diniy-huquqiy bilimga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlangan. Madrasalarni bitiruvchilardan islom qoidalari, Qur'oni karim oyatlari va suralarining sharhlarini to'liq o'zlashtirish talab qilingan. Qorixonalarda Qur'oni karim yod olingan. Ayollar alohida o'qitilib, ularga Qur'oni karim, oila masalalari, odob-axloq va tarbiyadan saboq beruvchi otinlar ta'lim berganlar. Mustamlaka davrida eski maktablar saqlanib qolgan, ammo bu maktablar hukumat e'tiboridan chetda qolib, ularga hech qanday mablag' ajratilmagan.

Rus-tuzem maktablari. Rossiya imperiyasining turli guberniyalaridan Turkistonga ko'chirib keltirilganlarning bolalariga ta'lim berish orqali ma'muriyat vakillari bilan mahalliy aholi o'rtasida vositachilik qiladigan tarjimonlarni tayyorlash ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, bu maktablar orqali tub joy aholisi o'rtasida rus madaniyatini keng yoyishga xizmat qiladigan ta'lim tizimini

yaratishga harakat qilindi. Bu vazifani bajarishga Turkiston general-gubernatori *G.Rozenbax* (1884 – 1889) astoydil kirishdi. U boshlang'ich maktablar, rus-tuzem maktablari tarmog'ini yaratish loyihagini ishlab chiqdi. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884-yili Toshkentda *Saidg'ani Saidazimboy* uyida ochildi. Undan o'rnak olib boshqa davlatmand kishilar ham o'z uylarida shunday maktablarni ocha boshladilar. Dastlab bu maktablarga mahalliy savdogar va ishbiarmonlar o'z farzandlarini o'qishga berishgan.

1911-yili bunday maktablarning soni *89 taga* yetadi. Ammo bu maktablardagi o'qitish usullari va darajasi Rossiyaning o'zidagi maktablar bilan taqqoslaganda ancha sayoz bo'lgan. Rus-tuzem maktablarida o'quv kuni ikki qismdan iborat bo'lib, dastlab rus o'qituvchisi (o'quv, yozuv, hisob), ikkinchi qismida esa mashg'ulotlarni mahalliy o'qituvchi olib borar edi. 1896-yili Toshkentda birinchi *gimnaziya* ochilib, unda zamonaviy fanlar va kundalik turmushda zarur bo'ladigan bilimlar o'qitilgan.

Yangi usul maktablari. Bu davrda o'lkadagi mahalliy ziyolilar, jadidchilik harakatining namoyandalari tomonidan milliy madaniyat, diniy e'tiqod, mahalliy an'analar asosidagi yangi maktablar ochilgan edi. Bunday yangi usuldagi jadid maktablarida tarix, matematika, geografiya, ona tili kabi fanlar ham o'qitilgan. Yangi usul maktablarining diniy maktab va madrasalardan yana bir farqi shunda bo'lganki, unda nafaqat islom dini va tarixi, balki mahalliy – turkiy xalqlar tarixi bo'yicha ham ta'lim berilgan. Turkistonda dastlab jadid maktablari *Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Xiva* kabi shaharlarda ochilgan edi.

Yangi usul maktablari jadidchilik harakati, uning namoyandalari faoliyati bilan birga mahalliy aholining umummilliy g'oyalari, o'zbek xalqining milliy-ma'naviy birligini mustahkamlashga xizmat qildi. Jadid maktablarining ta'lim tizimida o'quvchilarga vatanga muhabbat, milliy davlatchilik, milliy madaniyat, xalq birligi oldida mas'uliyatini his qilish, yurt ravnaqi uchun mehnat qilishga va kurashishga chorlovchi g'oyalar singdirildi.

Mustamlakachi hukumatning yangi usul maktablariga qarshi kurashi. Jadidlarning yangi usul maktablaridan zamonasining yetuk olimlari, adabiyotshunoslari, rassomlari, shoirlari, san'atkorlari, maorif sohasi mutaxassislari yetishib chiqdi. Jumladan, shoir akademik *G'afur G'ulom*, shoir va dramaturg *Uyg'un, Oybek* kabi davlat va madaniyat arboblari ko'rsatish mumkin.

Jadidlarning yangi usul maktablaridagi milliy g'oyalarga asoslangan ta'lim berishi hukmron mustamlakachi hukumat tomonidan kuzatuv va nazoratda bo'lgan. Ma'muriyat jadidlarning ta'lim tizimida olib borayotgan faoliyati o'lkada mustamlakachilik siyosatiga jiddiy qarshilik ko'rsata

oladigan harakatlantiruvchi kuch ekanligini angladi va ularning faoliyatiga ochiqdan ochiq qarshilik ko'rsata boshladi.

Jadidlar faoliyati qattiq ta'qibga olindi. Har qanday yo'l bilan bo'lsa ham yangi usul maktablari faoliyatiga zarba berishga harakat qilindi. O'lkada ma'muriyat tomonidan chiqariladigan matbuot sahifalarida yangi usul maktablari tanqid etilib, ularning faoliyatiga noto'g'ri baho berilgan maqolalar e'lon qilindi. Dastlab jadid maktablarida turk va fors adabiyotlaridan foydalanish taqiqlab qo'yildi.

O'quv adabiyotlari nashrlariga senzura joriy qilindi. Mustamlakachi hukumatning jadidlarga qarshi kurashiga mahalliy mutaassib dindor-ruhoniylar ko'maklashdilar. Yangi usul maktablariga, ayniqsa, ma'muriyat vakillari va ayrim din peshvolari qarshi turgan.

Natijada 1911-yili *50 ga yaqin* jadid maktablari yopib qo'yildi. Jadid maktablarini ochish tashabbuskorlari qattiq nazorat ostiga olindi. 1913-yilga kelib Buxoro amirligida barcha jadid maktablari yopildi.

Matbuot va jurnalistika. 1870-yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligining rasmiy nashri – «*Туркестанские ведомости*» va uning o'zbek tilidagi ilovasi – «*Turkiston viloyatining gazetasi*» muntazam chiqib turdi. Uning muharriri mustamlakachilik tuzumining targ'ibotchisi *N.Ostromov* edi.

1906-yili *Ismoil Obidov* muharrirligida ilk bor o'zbek milliy gazetasi «*Taraqqiy*» nashr etildi. Gazetaning birinchi soni chiqqan sana, ya'ni 27-iyun hozirda O'zbekistonda *Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni* sifatida nishonlanadi.

Jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati faqatgina maktablarda emas, balki matbuotchilik faoliyati, jumladan, gazetalarning ko'plab vujudga kelishida ham ko'rindi. 1906-yili *Ismoil Obidov* muharrirligida «*Taraqqiy*», shu yili *Munavvarqori* muharrirligida «*Xurshid*», 1907 – 1908-yillarda *Abdulla Avloniy* muharrirligida «*Shuhrat*», *Ahmadjon Bektemirov* muharrirligida «*Osiyo*» gazetalari chop etildi. Ma'rifatchilikning yangi to'lqinida 1913 – 1915-yillarda «*Samarqand*», «*Sadoyi Turkiston*», «*Sadoyi Farg'ona*», «*El bayrog'i*», «*Kengash*», «*Ulug' Turkiston*», «*Turon*» gazetalari, «*Oyna*» jurnali, 1917-yili esa «*Hurriyat*», «*Farg'ona sahifasi*» kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo'ldi. Bu davrdagi nashrlar orasida «*Sadoyi Turkiston*», «*Sadoyi Farg'ona*» gazetalarining milliy o'zlikni anglashdagi xizmatlari katta bo'ldi. Uning ikki yillik (1914 – 1915) faoliyati davomida milliy ziyolilarning vatanparvar qatlamlari tomonidan millat ozodligi va ravnaqini tarannum etuvchi, eski aqidaparastlikni qoralovchi ko'plab maqolalar e'lon qilindi.

25.2. Turkistonda ilm-fan taraqqiyoti

Tarix fanidagi yutuqlar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilm-fan sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Bunda jadidlarning o'rnini katta bo'ldi. Ular tarbiyaviy maqsadlarda tarix sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantira boshladilar. Jadidlar tarixni xonlar, sultonlar va amirlar almashinuvi sifatida tasvirlash o'rniga xalq tarixining haqiqiy bunyodkori ekanligini o'quvchilarga tushuntira boshlashdi.

Tarixchi va jurnalist Mulla Olim Maxdum hoji «*Tarixi Turkiston*» («Turkiston tarixi») asarini yozdi. Bu asar o'zbek tilida bosmadan chiqdi. Unda qadimgi davrdan to Turkistonning XX asr boshlarigacha bo'lgan voqealari yilnomasi bayon etilgan edi. Bu kitob o'zbek tilidagi ilk tarixiy asar sifatida shuhrat qozondi.

Jadidlar Turkistonda savodxon va bilimdon kishilarni tarbiyalashda tarix fanining ahamiyatini yuqori baholar edilar. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonning barcha aholisiga «hozirgi dunyoda yashash, ziyoli, komil va odil» bo'lish uchun o'z vatani tarixini o'rganish da'vati bilan murojaat qildi. Bu davrning yana bir yirik tarixchi olimi Muhammad Solih edi. U 25 yillik izlanishlaridan keyin «*Tarixi jadidayi Toshkent*» (Toshkentning yangi tarixi) asarini yozgan. Asar Toshkent shahrining XIX asrdagi qiyofasi batafsil yoritilganligi bilan qimmatlidir.

Xorazmlik mashhur olim Muhammad Yusuf Bayoniy ham avlodlarga ikki yirik tarixiy asarini meros qoldirgan. Bular «*Xorazm tarixi*» va «*Shajarayi Xorazmshohiy*» asarlaridir.

Rus tadqiqotchilari ham o'lkadagi tarix fani rivojiga sezilarli hissa qo'shgan. Ulardan biri sharqshunos va arxeolog V.Vyatkin (1869 – 1932) bo'lib, u Samarqandda faoliyat yuritdi. V.Vyatkin mahalliy tarixchilar bilan birgalikda ancha vaqt Ulug'bek rasadxonasi o'rnini izladi. 1908-yili rasadxona binosi qoldiqlarini va rasadxonaga tegishli asbob-uskunalarining bir qismini topishga muvaffaq bo'ldi. U «*Shohizinda*», «*Cho'ponota*», «*Afrosiyob qo'rg'oni*» asarlarini yozdi. Rus va o'zbek tillarini o'rganish bo'yicha qator darsliklar yaratdi.

1895-yili tashkil etilgan *Arxeologiya havaskorlari to'garagining* qatnashchilari o'lkadagi tarixiy yodgorliklarni o'rganishga kirishdi. Garchi qidiruv va qazish ishlari kamdan kam o'tkazilgan bo'lsa-da, ular ayrim arxeologik obyektlarni izlab topish va yodgorliklarni tavsiflash bilan shug'ullanib sohaga muayyan hissa qo'shdilar.

Tabiiy fanlarning rivojlanishi. O'rta Osiyo imperiyaning bir qismiga aylandi deb hisoblagan mustamlakachi hukumat o'lkani faol o'zlashtirish maqsadida ilm-fanni rivojlantirishga ham harakat qildi. Eng avvalo, 1867-

yili mintaqaning *bosh xaritasi* tuzib chiqildi. Hududni xaritalashning iqlimini o'rganish uchun Toshkentda *meteorologiya stansiyasi* tashkil etildi. Mutaxassislar yetishmasligi sababli uzoq vaqt davomida keng talimli ilmiy tadqiqotlarni shakllantirish amalga oshirilmadi. Faqat XIX asrning 90-yillarida va XX asr boshlarida O'rta Osiyoning tabiiy boyliklarini o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlari avj oldi. Mashhur rus zoolog va sayyohi *N.A. Seversov* Pomir tog' tizimini o'rganib chiqdi. U sayohati davomida botanikaga va minerallarga oid namunalar to'pladi. *P.P. Semenov* Tyanshanskiy Tyanshan tog' tizimini o'rganib, muzlik, vulqonlar haqida qiziqarli ma'lumotlar to'pladi. *A.P. Fedchenko* Farg'ona vodiysi va Ohang shuningdek, Zarafshon vodiysi bilan Qizilqumni ham tekshirib chiqdi.

O'lkadagi ilmiy tadqiqotlar imperiya uchun, avvalo, harbiy-siyosiy nuqtai nazardan muhim edi. 1871-yili tashkil etilgan *O'rta Osiyo Olimlar jamiyati* mablag' yo'qligi tufayli 1893-yili o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan.

Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati ancha faol ish boshladi. Jamiyat nashr ettirgan «*Turkistonning qishloq xo'jaligi*» jurnali sohadagi ishni chiqarish, yerlarni sug'orish, dehqonchilik va yerdan foydalanish borasidagi ilg'or usullarni targ'ib qildi. Qishloq xo'jaligi jamiyati mustamlakachilar manfaatidan kelib chiqib paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullandi. Mahalliy iqlim sharoitiga moslashgan o'ziga xos O'rta Osiyo paxta navidagi dastlabki hosil yetishtirildi.

1876-yil Toshkentda *Turkiston muzeyi* (hozirgi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi) tashkil etildi. 1870-yili Toshkentda *Turkiston xalq kutubxonasi* tashkil etilishi ham O'rta Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Undagi kitoblarning aksariyat qismi Turkiston tarixi va tabiatiga oid nodir asarlar bo'lgan.

Adabiyot. Bu davrda bir qator adabiyot namoyandalari yetishib chiqdi. Shulardan biri o'zbek demokratik shoiri *Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiy* bo'lib, u bitgan satirik she'rlarda hukmdorlar va ruhoniylar xatti-harakatlari tanqid qilinadi. Zavqiy erk va ozodlikni tarannum etgan she'rlari uchun zindonga tashlandi.

Sharq adabiyoti uchun an'anaviy bo'lgan janr she'riyat edi. Turkistonda she'riyatning shakl va mazmuni bir-biridan farqlanuvchi, ba'zan bir-biriga zid bo'lgan so'fiylik va tanqidiy-realistik oqim mavjud edi. Shoirlar va yozuvchilar o'z ijodida xalq dardini, davrning dolzarb muammolarini aks ettirishga harakat qilganlar. Ular orasida Muqimiy, Furqat, Zavqiy, shoira Anbar olin, Avaz O'tar o'g'li, Ahmad Donish va boshqalarning ijodini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. She'rlaridagi haqqoniylik va samimiylik ularni mashhur xalq shoirlariga aylantirdi.

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy Qo'qon shahrida tug'ilgan. U «Saylov», «Sohibchilar», «Hapalak qishlog'i ahlining xonga arzi» va boshqa satirik asarlar, «Qo'qondan Farg'onaga», «Qo'qondan Isfaraga» kabi ilk sayohat-nasrlarining muallifidir.

Abbar otin ham Zavqiy kabi erksevar va hurfikr she'rlari bilan shuhrat topgan. Shoir Qo'qon shahrida yashab, ayollarning jamiyat va oiladagi haq-huquqning ahvoli to'g'risida achchiq haqiqatlarni qalamga oldi. Ayollarning erkinligi va eng huquqli bo'lishi uchun kurashga da'vat etgani uchun shahardagi mutaassib kayfiyatdagi kuchlar tomonidan kaltaklandi va ko'p o'tmay hayotdan ko'z yumdi. O'zbek shoirlarining she'riari keng xalq ommasi yuragiga yo'l topdi. Uning she'rlari asosida ko'plab qo'shiqlar yaratildi.

XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida yangi janrlar paydo bo'ldi. Nasrda yaratilgan asarlar ham dunyo yuzini ko'rdi. Ayniqsa, jadid adabiyoti rivojlanib, bu adabiyot mazmunida mamlakatdagi og'ir sharoit va mustamlakachilik kabi illatlari qoralandi.

Jadid adabiyotida *Abdulla Qodiriy* ilk nasriy asarlarini e'lon qildi. Adibning hikoyalari, felyetonlari va pyesalari bilan Turkiston ziyolilari hamda xalq ommasi orasida keng tanildi. Uning «*Juvonboz*» hikoyasi, «*Baxtsiz kuyov*» pyesasi va qator romanlarini xalq sevib o'qiy boshladi.

Nasrda ijod qilish xalq uchun eng ommabop va tushunarli adabiyot shakli edi. Shuning uchun jadidlar o'z g'oyalarini keng xalq ommasiga singdirish maqsadida nasr janridan keng foydalanganliklari bejiz emas edi. Jadidlar xalqqa yaqinlashishning eng samarali yo'li sifatida xalq milliy teatrini yaratishdi. 1911 – 1913-yillarda Turkistonning turli shaharlarida teatrlar tashkil etildi. Adiblar ular uchun pyesalar yozishdi. Sahnada yangragan ona tilidagi nutq va teatr aktyorining harakatlari xalq ommasiga nisbatan qudratli ta'sir vositasiga aylandi.

Jadid teatrlarida 1911 – 1917-yillarda 25 ta pyesa namoyish etildi, ular xalq ommasi orasida eng mashhur asarlarga aylandi. Bu paytda spektakllarning aksariyati ochiq sahnalarda qo'yish, ularga ko'plab tomoshabinlar tushgan. Ilk o'zbek tomoshabinlari uchun jadidlar qo'ygan pyesalar axloqiy tarbiya maktablariga aylandi.

Jadidlar rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan yozilgan mashhur pyesa – «*Padarkush*»da otalar va bolalarni bir-biriga nisbatan shafqatsiz mavjudotlarga aylantirgan ma'naviy qashshoqlik, mol-mulkka ruju qo'yish qattiq qoralangan edi. Unda yot odatlarning kirib kelishi jamiyat uchun muqaddas bo'lgan oilani yemirishi ko'rsatib berildi. Nusratilla Qudratilla qalamiga mansub «*To'y*» asarida oilaviy va shaxsiy fojialar sababchisiga aylangan serchiqim ba'zi urf-odatlar va an'analar tanqid ostiga olindi. Pyesada

oila boshlig'ining serhasham sunnat to'yi uchun puli yetmay qolganida qarz olishga majbur bo'lganligi va ko'p o'tmay to'lovga layoqatsizligi oqibatida qarzdorning qamoqqa olinishi ko'rsatilgan.

Shu kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega, ma'naviy boy adabiyot xalq ongini uyg'otuvchi eng muhim vosita bo'ldi. Uning atoqli namoyandalari esa soha rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

25.3. Teatr va musiqa san'ati

Turkistonda xalq teatri. Qadimiy san'at turlaridan eng sevimlisi hisoblangan xalq teatrining Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida o'ziga xos ko'rinishlari mavjud edi. Jumladan, Buxoro amirligida masxaraboz, qo'g'irchoqboz, raqqos kabi san'at yo'nalishlarining uyushmalari vujudga kelgan edi. Xorazm an'anaviy teatrida esa ikki turkum tomoshalar – kulgili va xatarli o'yin turlari yaxshi shakllandi.

Xalq teatri shakl jihatidan rang-barang va boy bo'lib, xalq orasidan chiqqan komik aktyorlar – qiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, masxarabozlar va boshqalar o'z mahoratini namoyish qilishgan. Ana shu teatrlar va masxarabozlarning tomoshalarida asosan xasis va ochko'z boylar, chalasavod mullalar, amalparast beklarning kirdikorlari fosh etilgan. Ko'proq bu tomoshalar dolzarb voqealar tasvirlangan satirik ko'rinishlardan iborat bo'lgan. Garchi ularda yozma pyesalar bo'lmasa-da, xalq og'zaki ijodi mahsuli sifatida yod olingan mavzular sahnalashtirilgan. Sahna asarlarini, odatda, san'atkorlarning o'zlari ijod qilishgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida bir nechta shaharlarda an'anaviy teatr uyushmalari vujudga keldi. Eng mashhurari Qo'qonda *Zokir eshon*, Buxoroda *To'la masxara* uyushmalari edi. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatrlari omimabop bo'lib, ular mavzusi markazida *Kachal polvon* obrazi turgan.

Turkistonga Yevropa va rus teatrlarining kirib kelishi. O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgach, mustamlakachi hukumat siyosiy maqsadlarni nazarda tutib o'lkaga rus madaniyatini jadal yoyishga kirisha boshladi. Bunda nafaqat ta'lim tizimi, balki teatr sohasi ham muhim o'rin tutgan.

1870-yil Turkiston general-gubernatori tomonidan taklif qilingan *Samara* teatri o'lkada bir necha kunlik dasturlarini namoyish etgan edi. 1910-yili Samarqand va Toshkentga rus aktrisasi *V.F.Komissarjevskaya* truppasining gastrollari uyushtirildi.

Turkistonda namoyish etilgan bunday tomoshalar o'lka mahalliy san'atkorlari ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ilg'or ma'rifatparvarlar va jadidlar yangi-

cha g'oyalarini targ'ib etish uchun dramatik teatrning ulkan imkoniyatlarini lushunib yetdilar.

Tatar va ozarbayjon truppalarning 1910 – 1912-yillarda Turkistonda bo'lib o'tgan gastrollari ham katta madaniy voqeaga aylandi. U.Gajibekovning «Go'ro'g'li», «Layli va Majnun» va «Arshin mol olon» musiqali pyesalari o'zbek jamoatchiligi orasida iliq kutib olindi. Bu, o'z navbatida, mahalliy teatr rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Jadid teatrining vujudga kelishi. O'zbek milliy teatrining shakllanishida jaddilarning o'rni katta edi. Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida: «Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning: «Teatr – bu ibratxonadir», deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir», – deb yozadi.

Turkistonda 1911-yil dastlabki yozma milliy sahna asarlari yaratildi. Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush», A.Samadovning «Mahramlar», Filtratning «Bir farangi bilan buxorolik bir mudarrisning qilgan munozaralari» nomli asarlari shular jumlasidandir. Ular ichida, ayniqsa, o'zbek milliy teatri durdonasiga aylangan Behbudiyning «Padarkush» dramasi g'oyatda muhim voqelik bo'ldi.

Turkistonda birinchi o'zbek milliy teatri Samarqand shahrida Mahmudxo'ja Behbudiy rahbarligida tashkil etildi. Bu truppada namoyish etilgan ilk asar ham uning «Padarkush» pyesasi edi. O'zbek milliy teatri shakllanishi va rivojlanishida ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniy va jaddilar harakatining atoqli namoyandasi Hamza Hakimzoda Niyoziy katta xizmat qildilar. 1914-yil boshlarida Abdulla Avloniy Toshkent shahrida «Turon» nomidagi teatr truppasini tashkil etdi va u sahnalashtirgan birinchi asar ham «Padarkush» pyesasi bo'ldi. 1915-yili teatrning Turkiston shaharlari bo'ylab gastrollari zo'r muvaffaqiyat bilan o'tdi.

1916-yil Qo'qon shahrida Hamza rahbarligida havaskorlar teatri tashkil etildi. Unda namoyish etilgan birinchi spektakl Hamzaning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» pyesasi bo'ldi. Bu pyesa o'zbek teatri shakllanishida ham, o'zbek dramaturgiyasi vujudga kelishida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Teatr chuqur mazmunli, ijtimoiy ahamiyatga molik hodisaga aylandi. 1916-yildan hozirgi Milliy teatr asoschisi Mannon Uyg'ur va o'zbek teatrining birinchi aktrisasi Ma'suma Qoriyeva san'atga ilk qadamini tashladi. Shu tariqa asta-sekin Andijonda, Xivada, Buxoroda ham dastlabki milliy teatrlar tashkil topa boshladi. Buxoro shahridagi teatrning tashkil etilishida Mannon Uyg'urning xizmatlari beqiyos edi.

Teatrlarda katta ijtimoiy va axloqiy muammolarga daxldor mavzular sahnalashtirildi. Ularda adolatsizlik, yovuzlik, zulmni qoralovchi g'oyalar, to-

moshabinlarda e'tiroz va norozilik hissini qo'zg'atuvchi spektakllar namoyish etildi. O'zbek teatri o'zbek milliy madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Teatr spektakllari, o'ziga xos va iste'dodli aktyorlar ijrosi o'zbek xalqining bitmas-tuganmas ijodiy imkoniyatlarini namoyish etdi.

Musiqqa san'ati. An'anaviy xalq og'zaki musiqali asarlari asrlar davomida saqlanib keldi. Xalq musiqqa san'atida terma, qo'shiq, lapar, yalla, ashula keng tarqalgan edi. Qo'shiq, yalla va laparlar hazilomuz raqslar va o'yin jo'rtligida ijro etilardi. Termalar ko'pincha xalq qissago'ylari bo'lmish baxshilar va shoirlar tomonidan ijro etiluvchi ohangdor kuylarni o'zida mujassam etgan edi. Ashula esa keng qamrovli turli kuy-ohangga ega lirik qo'shiq hisoblanardi.

Xalq mumtoz shoirlarining g'azallari va she'rlari ashulalar uchun matn bo'lib xizmat qilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbek xalqi musiqiy ijodiyoti o'zida lirik qahramonlik mazmunidagi epik rivoyatlarni mujassamlashtirgan dostonlar («Go'ro'g'li», «Alpomish», «Kuntug'mish», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Hasan va Dalli», «Rustam va Avaz») alohida o'rin tutgan. Mazkur dostonlar to'rtlik she'r tuzilishiga ega bo'lib, musiqasi nisbatan sodda ohangli edi, bu musiqada nota yozuvi qo'llanilmagan.

Xalq sozandalari mashhur usta-bastakorlar qo'lida ta'lim olishgan. Ko'p asrlar davomida butun Sharqda keng tarqalgan mumtoz maqomlar professional musiqaning og'zaki an'analaridagi bebaho xazinasini tashkil etgan. Maqomlar yirik turkumli og'zaki-cholg'uli (yakkaxon va cholg'uli) asarlardir.

Musiqqa asboblari ham nihoyatda rang-barangligi bilan ajralib turardi. Bu borada torli-kamonchali cholg'u asboblari (g'ijjak, qo'biz, uchtor), torli-noxunli (do'mbira, dutor, tanbur, ud, rubob), torli-zarbli (chang), puflama nayli (nay, surnay), mushtuk-puflamali (karnay), zarbli-membranali (doira, nog'ora, chindovul) kabi cholg'u asboblari keng tarqalgan edi.

Turkistonning o'sha kezlardagi musiqqa madaniyatida yakkaxon ijrochilar ham, ansambl ijrosi ham rivojlandi. Karnay, nog'ora yoki doira, ya'ni qattiq jaranglovchi cholg'u asboblari an'anaviy bayramlarda, to'y-tantanalarda, ommaviy tomoshalarda jo'rovoz bo'lgan; birmuncha past jaranglovchi cholg'u asboblari – surnay, dutor, g'ijjak esa kamer (xonada) yoki konsert (davrada) ijrosiga mo'ljallangan edi.

Xorazm maqom va musiqqa maktabi Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrida yanada rivojlandi. O'z davrining ma'rifatli hukmdori bo'lgan Feruz san'at namoyandalariga katta imkoniyatlar yaratib berib, ular faoliyatiga homiylik qilgan. Bundan tashqari, bevosita musiqqa san'atini rivojlantirishga oid farmonlar ham chiqargan.

25.4. Me'morchilik va tasviriy san'at

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi yalpi iqtisodiy tanazzul, qiziq urushlar, Xiva xonligi va Buxoro amirligining isyonchi guruhlariga qarshi kurashi, shuningdek, Rossiya imperiyasining harbiy yurishlari nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy taraqqiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Uning oqibatlari kelgusidagi o'lka taraqqiyotida og'ir asoratlar qoldirdi. Bu asorat izlari o'zbek me'morchiligini ham chetlab o'tmadi. Shunday bo'lsa-da, bu davr milliy me'morchiligida betakrorlik va rang-baranglik hamda an'anaviy arxitektura saqlanib qoldi.

Me'morchilik maktablari. XIX asrning oxirlarida Buxoro va Xorazm me'morchiligi qadimiy an'analarni saqlagan holda zamon ruhi bilan boyib bordi. *Saroy* majmualari, madrasa, jome masjidleri, kasalxona kabi davlat va jamoat binolari, shuningdek, ulkan minoralar barpo etildi. Ularni bunyod etganlar o'z davrining yetuk me'morlari bo'lib, qadimiy Buxoro va Xivaning tarixiy binolarini vujudga keltirishdek og'ir, lekin sharafli ishga bosh-qosh bo'lgan ajdodlarning binokor avlodlari edilar.

Xorazm me'morchilik maktabi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida nomlari nafaqat Buxoro amirligi, balki Xiva xonligi, Turkiston va Xurosonda ham mashhur bo'lgan *Obloqul* va *Ibrohim Hofizovlar*, *Mo'minjon Solihov*, *Shirin Murodov* kabi ko'plab ustalar yetishib chiqdi. XX asr boshlarida barpo etilgan *Sitorayi Mohi Xosa* qurilishida yuqorida nomlari zikr etilgan me'morlar, ustalar faol qatnashgan edilar. Majmuaning maxsus *Oqsaroy* zaliga pardo berish ishini Usta *Shirin Murodov* boshchiligida bir guruh usta ganchkorlar amalga oshirdilar.

Xorazm me'morchilik maktabining sarkori *Odina-Muhammad Murod* pardo hamda naqshinkor parchinlarni joylashtirishning barcha sir-sinoatlarini mukammal egallagan. Usta kulollar *Nurmuhammad*, *Abdujabbor*, uning o'g'li *So'fimuhammad Niyoz* va *Abdulla* oddiy loydan go'zal san'at asarlari yaratish, tabiatdagi turli g'iyoh va o'simliklardan betakror ranglar kashf etish mumkinligini amalda isbotlab berdilar.

XX asr boshlarida tiklangan *Islomxo'ja* minorasini (1908 – 1910) yaratish tashabbuskori va homiysi *Asfandiyorxonning* bosh vaziri, ma'rifatli inson *Islomxo'ja* edi. U bunyod ettirgan minora Xivaning faxriga aylandi. Qolaversa, *Islomxo'ja* o'z davrining yirik madaniyat va davlat arbobi edi. U Xorazmni dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatorida ko'rishni istagan, vatanini tashqi dunyo bilan bog'lashga intilgan, ilg'or g'oyalar bilan to'lib-toshgan.

Xorazm me'morchiligi maktabining e'tiborli tomoni shundaki, pesh-toqlar, shiplar, burjlar o'ta nozik did va nafosat timsoli – arabiy yozuvlar bilan bezatilardi. Mohir xattotlar bu yozuvlarni o'ta mohirlik bilan bino bezagiga uyg'unlashtirib yubora olardilar. Yog'och o'ymakorligi esa eshik, darvoza va

ustunlarni o'ymakor naqshlar bilan bezab, o'sha binolarning umumiy ko'rinishiga o'ziga xoslik va jilo baxsh etardi.

Farg'ona vodiysida ham o'zbek xalq me'morchiligining o'ziga xos ta'mog'i mavjud edi. XIX asrning ikkinchi yarmida vodiy milliy me'morchiligi Yevropa me'moriy uslubidagi binolarni qurish an'analari kirib keldi. Shu qaramay, XIX asr oxirlarida qurilgan *Andijon jome masjidi* o'z qurilishi bilan yuksak milliy me'morchilik namunasi bo'lib qoldi.

Yevropa uslubidagi binolar qurilishi. Bu davrda o'lkaga Yevropa uslubidagi me'morchilik an'analari ham kirib keldi. Qurilish ishlarida milliy an'anaviy uslublar bilan birga Yevropa me'morchiligiga xos uslublar qo'llanila boshlandi. Jumladan, xalq me'morchiligida an'anaviy paxsa, guvala va xom g'isht qo'llash bilan birga zamonaviy to'rtburchak yuzli g'isht, faner, tunuka, oyna kabi qurilish ashyolaridan keng foydalanildi.

Yevropa me'morchiligiga xos bo'lgan ayrim uslublar o'sha davrda qurilgan Buxoro amirining yozgi saroyi – *Sitorayi Mohi Xosa*, Xiva xon Muhammad Rahimxon II tomonidan qurilgan *Nurullaboy* nomi bilan ataluvchi saroyda (1904 – 1912) ham ko'zga tashlanadi. Bino qurilishida ham G'arb, ham Sharq me'morchiligi an'alaridan foydalanilgan. Turkistonning bosib olingan yirik shaharlari va viloyatlarida harbiy qo'shinlar uchun qal'alar, kazarmalar, harbiy siyosiy amaldorlar, generallar uchun yevropacha ko'rinishdagi qarorgohlar qurila boshlandi. Toshkentning Yangi shahar qismida general-gubernatorlikning ma'muriy va boshqa binolari qad ko'tardi. Ular me'moriy jihatdan g'arb muhiti va uslubida qurilgan binolar edi.

Tasviriy san'at. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tasviriy san'at Samarqand, Qo'qon, Buxoro miniatyurachilari ijodida namoyon bo'ldi (Ahmad Donish, Abdulxoliq maxdum, S.Siddiqov). Ular tasviriy san'atning an'anaviy rivojlangan turlarini saqlab qolishdi.

XX asr boshlarida an'anaviy devoriy naqshlarda ilgari ishlatilmagan manzaralar – suzib borayotgan kema, temir yo'llar va hayvonlar tasvirlanishiga boshlandi. O'zbek xalqi san'atida ramziylikka xos asriy an'analarga boy diniy-falsafiy mazmundagi naqqoshlikdan bevosita real tasviriy san'atga o'tilish holati kuzatildi.

O'zbek rassomlarining iqtidori kulolchilik buyumlarini, kiyimlarni bezashda, materiallar uchun uyg'un bo'yoqlar jilosini yaratishda, kundalik turmush buyumlariga jilo berishda, amaliy san'atda va boshqalarda namoyon bo'ldi. Buyumlardagi yuksak did, nazokat, nafislik rasmlarda yaqqol ko'zga tashlanar edi.

Naqsh amaliy san'ati markazi *Buxoro* edi. Bu shahar ustalari nafaqat asriy san'atini saqlab qolishga, balki rivojlantirishga erishdilar. Buxorolik usta

ning har qanday asari o'z xususiyatlariga ega bo'lib, boshqa shaharlarda yaratilgan buyumlardan ajralib turar edi. Bu asarlarga xos boy tasavvur va mukammal mahorat asosan ranglar va naqshlar uyg'unligida o'z aksini topgan. *Oq rang* baxt-saodat va omad ramzi, *qizil rang* quvonch va salomatlikni anglatar edi. Ranglar va naqshlar ramzi zargarlikda, liboslarda, nodir toshlardan ishlangan zeb-ziynat buyumlarida ustuvorlik qilgan.

26-BOB. TURKISTON O'LKASIDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI HAMDA O'ZBEK XALQINING MUSTAQILLIK UCHUN KURASHI (1917 - 1924-yillar)

26.1. Turkiston o'lkasi 1917-yil fevral - oktyabr oralig'ida

Mustaqillik – Turkiston xalqlarining asriy orzusi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bizning ota-bobolarimiz asrlar davomida o'z oilalari, muqaddas tuproqlari, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari va an'alariga sodiq qolishni ulug'liq deb hisoblashgan. Bu daxlsiz urf-odatlarning buzilmasligi uchun o'zbek xalqining ming-minglab sodiq o'g'lonlari o'z hayotlarini qurbon qilganlar, yurt mustaqilligi uchun bo'lgan janglarda shahid ketganlar. Turkiston mintaqasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan vaqtdan beri to'xtamagan milliy ozodlik harakati xalqning milliy o'zligini anglashida, o'z Vatani va millatining ozodligi va mustaqilligi uchun uning vatanparvarlik intilishlarini mustahkamlashda ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Ma'lumki, Turkiston jadidlari islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni, taraqqiyot va rivojlanishga faqat tinchlik yo'li bilan, parlament orqali erishishni mo'ljallagan edilar.

Biroq 1917-yildagi voqealar jarayoni, jadidchilik harakatining yirik nazeriyotchisi *Abdurauf Fitrat* o'sha paytda yozganidek, «Rusiyada bosh ko'targan yangi bir balo – bolshevik balosi» kuchlar nisbatini butunlay o'zgartirib yubordi. O'zbek xalqining boshqa bir fidoyi farzandi *Mahmudxo'ja Behbudiy* tomonidan o'rtaga tashlangan «Haq olinur, berilmas!» shiori butun millatning jangovar chaqirig'iga aylandi. Mustaqillik va ozodlik uchun, Turkistonda muxtoriyat o'rnatish uchun parlament yo'li orqali kurashgan Turkiston taraqqiyparvarlari va jadidlarining faoliyati oradan 100 yildan ortiq vaqt o'tgan bugungi kunda ham diqqatga sazovor hodisa sanaladi.

Fevral inqilobi va uning Turkiston o'lkasiga ta'siri. Insoniyat tarixida shunday voqealar bo'ladiki, ular butun-butun davlatlar va mamlakatlarda

yashovchi yuzlab xalqlarning keyingi taqdirini butunlay o'zgartirib yubordi. Ana shunday voqealardan biri 1917-yil 27-fevralda (yangi hisob bilan 12-martda)¹ bo'lgan Rossiyadagi Fevral inqilobidir.

Rossiya imperiyasi poytaxti *Petrograd*da bu paytda mitinglar va qo'zg'olonlar boshlanib, u Fevral inqilobi g'alabasi bilan yakunlandi. Fevral inqilobi Rossiya imperiyasi hududida samoderjaviyega barham berdi, imperator (podsho)ning cheksiz hukmronligi tugadi. Rossiya imperatori *Nikolai II* o'z ixtiyori bilan 2-mart kuni taxtdan voz kechdi.

*Petrograd*da Davlat dumasining Muvaqqat komiteti tuzildi. Ishchi va sovet deputatlari Soveti saylandi. 1-mart kuni *Moskvada*, mart oyida butun mamlakatda yangi hokimiyat o'rnatildi. Rossiyadagi Muvaqqat hukumatining a'zolari *Georgiy Lvov* (1917-yil mart – iyul) va *Aleksandr Kerenskiy* (1917-yil iyul-oktyabr) boshchilik qilishdi.

Fevral inqilobi Turkiston o'lkasi musulmon aholisini siyosiy jihatdan uyg'otishda, demokratik o'zgarishlarga boshchilik qilmoqchi bo'lgan yangi kuchlarning siyosat maydoniga chiqishida muhim ahamiyat kasb etdi. Jadidlar vujudga kelayotgan milliy demokratik kuchlarning o'zagi bo'lishdi. Ularning mintaqa tub xalqlarining taraqqiyot va mustaqillik to'g'risidagi o'z g'oyalari Fevral inqilobi g'oyalari bilan bog'lab, o'zlari e'lon qilgan tamoyillarni amalga oshirishga faol kirishdilar.

Rossiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komiteti faoliyati. Toshkentda 1917-yil 2-mart kuni ishchi deputatlari Soveti (Toshkent Soveti) tuzilgan edi. Muvaqqat hukumat o'rnatilgach, Turkiston o'lkasi general-gubernatori va Turkiston harbiy okrugi qo'mondoni general *A.N.Kuropatkin* va uning yordamchilari lavozimlaridan chetlashtirilib, 31-martda uy qamog'iga tashlangan edi.

Muvaqqat hukumat tomonidan 1917-yil 7-aprelda Turkiston o'lkasi boshqarish uchun 9 kishidan iborat Turkiston komiteti tuzildi va *Toshkent*da faoliyat ko'rsatdi.

Turkiston komitetiga kadetlar partiyasi vakili *Nikolay Shchepkin* va eshiklar partiyasidan *Vladimir Nakivkin* raislik qilishdi. Uning tarkibiga yevropaliklardan tashqari turkiy xalqlar vakillaridan *Muhammadjon Tinishboyev*, *Alixon Bukeyxonov*, *Sadri Maqsudiy*, *Abdul Aziz Davletshin* ham kirgan edi. Biroq ularning deyarli barchasi Turkistondagi mahalliy sharoitni yaxshi bilmas, buning ustiga, kuchsiz siyosatchi edilar.

¹ RSFSR (Rossiya) Xalq Komissarlari Soveti raisining 1918-yil 26-yanvardagi maxsus dekreti bilan Rossiya hududida grigorian kalendari joriy qilinib, amalda mavjud bo'lgan 13 kun farq tuzatildi. 1918-yil 31-yanvardan keyin 1-fevralga emas, balki 14-fevralga o'tildi. Bu kalendar Turkiston o'lkasiga ham tatbiq etildi.

Aslini olganda, Muvaqqat hukumat Turkiston o'lkasi general-gubernatorligini Turkiston komitetiga almashtirish bilan mustamlakachilikdan iborat o'lka boshqaruvini mohiyat e'tibori bilan avvalgicha qoldirdi, faqat uning nomini o'zgartirdi, xolos. Bu holat, albatta, sezilmasdan qolmadi va turli holatlarni keltirib chiqardi. Tez orada Turkiston komiteti bilan mahalliy, siyosiy va jamoat tashkilotlari hamda sovetlar (Toshsovet) o'rtasida turli qarama-qarshiliklar vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Turkiston komiteti tarkibiga o'zbek xalqining bitta ham vakili kiritilmagan. Butunturkiston musulmonlari qurultoylari hamda «Sho'royi Islomiya» va «Sho'royi Ulamo» tashkilotlarining faoliyati. 1917-yil 14-martda Toshkent shahrida Turkiston taraqqiyparvarlarining ijtimoiy-siyosiy tashkiloti bo'lgan «Sho'royi Islomiya» («Islom kengashi») tuzildi. Tashkilotga dastlab *Abdulloh Abdurashidqori Abdurauqori o'g'li*, keyinchalik *Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev* (Ubaydulla Xo'jayev) rais qilib saylangan. «Sho'royi Islomiya» faoliyatida Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Mustafo Cho'qay, Ahmad Zaki Validiy, Islom Sulton Shoahmedov, Toshpo'latbek Norbo'tabekov kabi shaxslar muhim rol o'ynashgan.

1917-yil 16 – 23-aprelda *Toshkent* shahrida tashkilot tashabbusi bilan Butunturkiston musulmonlarining I qurultoyi bo'lib o'tdi. Tarixda ilk marta Butunturkiston miqyosida musulmonlar qurultoyi chaqirilib, unda tub xalqlarning muxtoriyat tomon qat'iy intilishi, o'z an'analari, urf-odatlar va turmush tarzini izchil himoya qilishi aytili. Unda Turkiston musulmonlarining Milliy Markazi – Turkiston o'lka musulmonlar kengashi (Kraymussovet) tashkil qilindi. *Mustafo Cho'qay* unga rais, *Munavvarqori Abdurashidxonov* va *Ahmad Zaki Validiy* kotib bo'lishdi. Qurultoyda qabul qilingan tashkilot dasturida o'lka musulmonlari orasida islohotlar o'tkazish g'oyalarini tarqatish, mintaqadagi barcha musulmonlarni yagona maslak va fikr asosida birlashtirib, Turkistonga muxtoriyat maqomini berish uchun kurash vazifasi qo'yilgan. 1917-yil aprel oyidayoq tashkilotning *Samarqand, Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Skobelev (Farg'ona), Marv, Turkiston, Oqmachit (Qizilo'rda), O'sh* va boshqa shaharlarda shu'balari tuzilgan. Toshkentda «*Sho'royi islom*» nomli gazeta ham chiqarilgan.

Biroq taraqqiyparvar ziyolilar (jadidlar) bilan eskilik tarafdorlari bo'lgan ayrim ulamolar (qadimchilar) o'rtasidagi kelishmovchiliklar «Sho'royi Islomiya» tashkiloti safida bo'linish yuz berishiga olib keldi. 1917-yil iyunda tashkilotdan bir guruh ulamolar ajralib chiqib, *Qo'qon* va *Toshkent*da yangi jamiyat – «Sho'royi Ulamo»ga asos solishdi. Jamiyatning *Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Namangan* shaharlaridagi shu'balari faol ish olib borgan. Toshkent shu'basiga *Sherali Lapin* rahbarlik qilgan. Jamiyatning eng yirik Qo'qon

shu'basiga *Mulla Muhiddinxon, Mulla Ulug'xon To'rayev* rais bo'lishgan Jamiyat dasturi va nizomiga ko'ra, ichki siyosiy tuzilmada shariat qonunlariga qat'iy rioya qilish, milliy-diniy qadriyatlarni yuksaltirishga da'vat etilgan va madrasalarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash aytilgan. «Sho'royi Ulamo» tomonidan «*Al-Izoh*» va «*Al-Isloh*» jurnallari nashr qilingan. Ulamochilar tashabbusi bilan 1917-yil sentyabrda *Toshkentda* Turkiston va Qozog'iston musulmonlari qurultoyi o'tkazilgan. Unda ulamochilar va Sho'royi islomchilar o'zaro birlashib, «*Ittifoqi muslimin*» siyosiy partiyasini tuzdilar (1918-yil may oyida bolsheviklar tomonidan «Sho'royi Islomiya» va «Sho'royi Ulamo» tashkilotlari tugatildi).

Shu tariqa Turkistonda Rossiyadagi kabi ikki hokimiyatchilik emas, balki quyidagi uch hokimiyatchilik paydo bo'ldi:

Birinchisi, Rossiya Muvaqqat hukumatining vaqtlil Turkiston komiteti;

Ikkinchisi, Turkistondagi ishchi va askar deputatlarining mahalliy va markaziy Sovetlari;

Uchinchisi, jadidlarning «Sho'royi islomiya» tashkiloti (jamiyati) va uning joylardagi shu'balari, *Toshkentda* Turkiston o'lka musulmonlari soveti (*Kraymussovet*) – Milliy Markaz.

Biroq jadidlar va ulamolar o'rtasidagi ziddiyat va g'oyaviy kurash tobora keskin tus olgan. Bu holat mintaqadagi boshqa siyosiy kuch – bolsheviklar va so'l eserlar partiyalari vakillariga qo'l kelgan.

26.2. Turkistonda sovet hokimiyatining majburiy tarzda o'rnatilishi hamda bolsheviklar diktaturasi

Rossiyadagi Oktyabr to'ntarishi hamda uning Turkiston o'lkasiga ta'siri.

1917-yil avgust oxiri sentyabr boshlarida bolsheviklar *Petrograd* va *Moskva* Sovetlarida ko'pchilikni egalladi hamda hokimiyatni bosib olish uchun qurolli to'ntarishga tayyorgarlik ko'rdi. 24-oktyabrdan 25-oktyabrga o'tar kechasi qurollangan ishchilar, *Petrograd* garnizonining soldatlari va Boltiq flotining matroslari *Qishki saroyga* bostirib kirdi va majlis o'tkazayotgan Muvaqqat hukumat a'zolarini qamoqqa oldi. *Petrograd*da ochilgan Butunrossiya Sovetlarining II syezdida bolsheviklar dastlab so'l eserlar bilan hamkorlikda Muvaqqat hukumat ag'darilganligini qo'llab-quvvatlab, *Tinchlik* va *Yer to'g'risi*da dekretlar e'lon qildilar.

Vladimir Ilich Ulyanov (Lenin) boshchiligidagi hukumat – Xalq Komissarlari Soveti (XKS)ni tuzdilar. Bolsheviklar *Petrograd* va *Moskvada* Muvaqqat hukumatga sodiq kuchlarning qarshiligini shafqatsiz bostirib, Rossiyaning muhim markaziy sanoat shaharlarida tezlik bilan o'z hokimiyatlarini o'rnatishdi.

1917-yil kuzida Turkistonda hokimiyatning bolsheviklar ta'siridagi Sovetlar qo'liga o'tishi uchun obyektiv shart-sharoit yo'q edi, bolsheviklarning omma o'rtasida ta'siri ham oz bo'lgan. Bu yerda asosiy siyosiy kuchlar eserlar va milliy partiyalar edi. Biroq mana shunday murakkab siyosiy sharoitda Turkistondagi milliy siyosiy kuchlar va ularning yetakchilari bolsheviklarning kuchini yetarlicha baholamadi hamda unga qarshi kurashga birlasha olmadi.

Toshkentda sovet hokimiyatining o'rnatilishi hamda Turkiston o'lka Xalq Komissarlari Sovetining tashkil qilinishi. Oktyabr to'ntarishi haqidagi xabar 27-oktyabrda Toshkentga yetib kelgach, bolsheviklar va so'l eserlar hokimiyatni zo'ravonlik yo'li bilan egallash uchun kurash boshladilar. Bolsheviklar rahbarlik qilgan Toshkent Soveti ishchi va soldatlarni qo'zg'olon ko'tarishga da'vat qildi. Lekin Muvaqqat hukumat tomonidan Turkiston o'lkasining bosh komissari qilib tayinlangan general *P.Korovichenkoga* sodiq qolgan qismlar bunga qarshilik ko'rsatdilar. 28-oktyabrdan boshlab Toshkentning yangi shaharida qurolli to'qnashuvlar avj oldi. *To'rt kunlik* janglardan so'ng Toshkentning yangi shahar qismida zo'ravonlik bilan sovet hokimiyati o'rnatildi. Biroq qurolli to'qnashuvda mahalliy aholi deyarli ishtirok etmadi. 1917-yil noyabrda *Samarqand, Skobelev* va boshqa shaharlarda ham sovet hokimiyati o'rnatildi.

Toshkentda 1917-yil 15 – 22-noyabrda bo'lgan Turkiston ishchi va soldat deputatlari Sovetlarining III o'lka syezdida so'l eserlar, bolsheviklar va maksimalistlardan iborat sovet hukumati – Turkiston o'lka Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Hukumatda *8 o'rin* so'l eserlarga, *7 o'rin* bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi hamda u faqat yevropaliklardan iborat qilib tuzildi. Turkiston o'lkasi XKS raisi lavozimini kasbi *chizmachi* bo'lgan bolshevik *Fyodor Kolesov* egalladi, harbiy komissar qilib *izvoshchi Y.Perfilev*, boshqa komissarlik lavozimlariga ham o'rtamiyona ma'lumot olgan kishilar tayinlandi. Hukumat tarkibiga mahalliy xalqlar vakillaridan biror kishi kiritilmadi. Bu tasodifiy hol emas edi.

Xullas, Turkistonda ham bolsheviklar tomonidan zo'ravonlik bilan sovet hokimiyati o'rnatildi. Bolsheviklar hukumati yevropalik ishchilar, qizil gvardiyachilar va boshqa harbiy qismlarga tayanib mintaqada o'z diktaturasini o'rnatdi.

Bolsheviklar va so'l eserlarning Turkiston jadidlariga qarshi kurashi. Turkistonning kelgusi taqdiri hal qilinayotgan ana shu murakkab paytda bolsheviklar va sovet hokimiyatiga munosabat masalasida musulmon aholining asosiy vakillari bo'lgan «Sho'royi Ulamo» hamda taraqqiyparvarlardan iborat Milliy Markaz (Kraymussovet) o'rtasida kurash avjiga chiqib ketdi. «Sho'royi Ulamo» tashkilotining Toshkent shu'basi yetakchilari (Sherali Lapin va b.) hokimiyatni zo'ravonlik bilan egallagan bolsheviklarni qo'llab-quvvatlashdi. Turkiston o'lka musulmonlari Markaziy Kengashi (Milliy Markaz) bolsheviklar bilan hamkorklik qilishga qarshi chiqdilar va noyabr oyi boshlarida

Toshkentdan *Qo'qon* shahriga ko'chib o'tib, Farg'ona vodiysida o'z faoliyatlarini kuchaytirdilar. «Sho'royi Islomiya» tashkiloti ham bu paytda o'z qarorgohini Qo'qonga ko'chirgan edi.

Toshkent shahrida «Sho'royi Ulamo» tashkilotining tashabbusi bilan 1917-yil 12 – 15-noyabrda «turli musulmon guruhlarining birlashgan kengashi» o'tkazilib, unda *Sirdaryo* va *Samarqand* viloyatlaridan kelgan vakillar qatnashdi. Kengash kun tartibida «Turkistonda hokimiyatni tashkil etish» masalasi turar edi. Kengash o'rinlarining yarmi musulmon aholisi vakillari ga beriladigan koalitsion hukumat tuzishni yoqlab chiqdi. Biroq bolsheviklar o'zlari bilan koalitsion hukumat tuzishni orzu qilgan Sherali Lapin boshchiligidagi ulamochilarning fikrlarini qat'iy suratda rad etishdi. Ulamochilarning bu talabini milliy demokratik kuchlar ham qo'llab-quvvatlamadi.

Jadidlar va ularning «Sho'royi Islomiya» hamda Turkiston o'lka musulmonlari Markaziy Kengashi (Milliy Markaz)dagi safdoshlari Butunturkiston musulmonlari qurultoyini chaqirish va unda Turkistonga muxtoriyat maqomini berish taklifi bilan maydonga chiqdilar. Bolsheviklar, eng avvalo, Turkiston taraqqiyparvarlari va jadidlariga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi.

26.3. Turkiston muxtoriyati - tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich

Turkiston Muxtoriyati hukumatining tashkil topishi va faoliyati. 1917-yil 26 – 28-noyabrda Qo'qon shahrida Butunturkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi.

Turkistonni boshqarish shakli to'g'risidagi masala qurultoyning diqqat markazida turdi. Bu masala muhokamasida so'zga chiqqanlarning ko'pchiligi Turkistonning muxtor respublika deb e'lon qilinishi o'lka aholisining ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqqani va unga mos tushishini uqtirdi. Muxtoriyat va mustaqillik e'lon qilish fikrini hamma qo'llab-quvvatladi.

Qurultoyda 27-noyabr kuni kechqurun qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga, muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis Majlisiga havola etadi». Qurultoy Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik huquqlarining muttasil himoya qilinishini tan-tanali ravishda e'lon qildi.

28-noyabrda tarkib topayotgan mazkur hukumatning nomi aniqlanib, *Turkiston Muxtoriyati* deb ataladigan bo'ldi. Qurultoy o'sha kungi yig'ilishda

hufunrossiya Ta'sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Millat) Majlisi qo'lida bo'lishi kerak deb qaror qabul qildi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan 8 nafar kishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Hukumatning Bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib *Muhammadjon Tinishboyev* saylandi. *Islom Sulton Shoahmedov* Bosh vazir o'rinbosari, *Mustafo Cho'qay* tashqi ishlar vaziri, *Ubaydulla Xo'jayev* harbiy vazir, *Hidoyatbek Yurg'uli Agayev* yer va suv boyliklari vaziri, *Obidjon Mahmudov* oziq-ovqat vaziri, *Abdurahmon O'rozayev* ichki ishlar vazirining o'rinbosari, *Solomon Gersfeld* moliya vaziri lavozimlarini egallashdi. Hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o'zgarishlar yuz berdi. *Mustafo Cho'qay* Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi.

Bilimsiz va o'z kasbiga layoqatsiz sovet hokimiyatining bolshevik komissarlaridan farqli ravishda, muxtoriyat hukumati vazirlarining aksariyati oliy ma'lumotli huquqshunos ekanligi ularning bilim darajasining naqadar yuqori ekanidan dalolat beradi.

Qurultoy tugagach, 1-dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a'zolari (8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnoma e'lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi, irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi.

Turkiston xalqlari tomonidan muxtoriyat hukumatining qo'llab-quvvatlanishi. Turkiston Muxtoriyati hukumati mamlakat konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi. «*El bayrog'i*», «*Birlik tug'i*», «*Svobodniy Turkestan*», «*Izvestiya Vremennogo Avtonomnogo Turkestana*» kabi hukumat gazetaları o'zbek, qozoq va rus tillarida nashr qilina boshlandi. Avval chiqayotgan «*Ulug' Turkiston*» gazetasi ham o'z sahifalarida muxtoriyat hukumati faoliyatiga alohida o'rin bera boshladi. Nashr ishlarini yaxshilash uchun *O.Mahmudov*ning bosmaxonasi hukumat ixtiyoriga o'tdi. Muxtoriyat hukumati milliy qo'shinni tashkil qilishga kirishdi. Harbiy vazir *Ubaydulla Xo'jayev* ishtirokida 1918-yil boshlarida o'tkazilgan ko'rik (parad) vaqtida askarlar soni 2000 kishi bo'lgan. Bundan tashqari, Qo'qonda taxminan shuncha mirshab bor edi. Hukumat iqtisodiy sohada 30 million so'm miqdorida ichki zayom chiqarishni yo'lga qo'ydi. Shuningdek, hukumat a'zolari ocharchilik changalida qolgan Turkiston aholisiga *Kavkazdan Orenburg* orqali g'alla keltirish muammosini hal qilish uchun ham amaliy qadamlar tashladi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq o'rtasida katta e'tibor qozondi. *Fitrat*, *Cho'lpon*, *Hamza* singari o'zbek xalqining otashin shoirlari muxtoriyat hukumatini alqab o'tli she'rlar bitishdi. *Fitrat* muxtoriyat e'lon qilingan 27-noyabr tunini «*Milliy laylatulqadrimiz*» deb atadi.

Muxtoriyat hukumati vazirlarining aksariyati oliy ma'lumotli, yuqori ma'lumotli mutaxassislar bo'lgan. Masalan, Muhammadjon Tinishboyev *tehnologiya muhandisi*, Islom Sulton o'g'li Shoahmedov, Mustafxo Cho'qay, Abdulla Xo'jayev, Abdurahmon O'rozayev, Solomon Gersfeldlar *huquqshunoslar*, Hidoyatbek Yurg'uli Agayev *agronom*, Obidjon Mahmudov *to'g'kon xo'jaligi mutaxassisi* bo'lgan.

Turkiston o'lkasining turli shahar va qishloqlarida muxtoriyatni olganlar ko'p ming kishilik namoyishlar bo'lib o'ldi. O'sha davrda chiqqan gazetalarining yozishicha, namoyish qatnashchilarining bayroqlarida «Yashasin Muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!» deb yozilgan so'zlar hilpirab turardi.

Samarqandda bo'lib o'tgan viloyat Sovetlari syezdida yig'ilganlar Turkiston Muxtoriyatiga qo'shilishga qaror qildilar va Millat Majlisi tarkibiga vakil sayladilar.

«Ulug' Turkiston» gazetasining yozishicha, 1917-yil dekabrda Toshkentda 60 000 kishi ishtirok etgan miting o'tkazildi. Munavvarqori rahbarligida uyushtirilgan bu miting qatnashchilari Muxtor Turkiston hukumatini bir ovoz bilan ma'qulladilar va Turkistonda endi ushbu muvaqqat hukumatdan boshqa hech qanday hukumatni tan olmaslikka qaror qilganliklarini e'lon qildilar.

Qizil gvardiyachilar va dashnoqlar tomonidan muxtoriyat hukumatining tor-mor qilinishi. Qo'qondagi ommaviy qirg'inlar. O'lkadagi ilk demokratik va xalqchil hukumat bo'lgan Turkiston Muxtoriyatining faoliyati, afsuski, uzoqqa cho'zilmadi. Bolsheviklar va Toshkent Soveti (rahbari *Ivan Tobolin*) unga katta xavf deb qaradilar hamda zudlik bilan tugatishga harakat qildilar.

Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining faululodda 1918-yil 19 – 26-yanvarda bo'lib o'tgan IV syezdida Turkiston Muxtoriyati hukumatini kuch bilan tugatishga qaror qilishdi. Turkiston o'lka XKS 1918-yil 30-yanvar kuni harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil gvardiyachilardan tashqari armanlarning «*Dashnoqsut yun*» partiyasi a'zolaridan tuzilgan qurolli drujinalardan ham keng foydalandi. 30-yanvar kechqurun Toshkentdan yuborilgan dastlabki harbiy otryadlar Skobelevdan Qo'qonga to'p va pulemyotlar bilan yetib keldi. 31-yanvar tushdan keyin jang harakatlari boshlandi. 15-fevralda esa shaharda yong'inlar bo'ldi.

Dastlabki jangda muxtoriyatning milliy qo'shinidan tashqari qo'qonlik tinch aholi vakillari ham qatnashdi. Asosan bolta, cho'kich, tayoq ko'targan xaloyiqning soni 10 000 kishiga yetdi. Shunga qaramay, qurolsiz bu kishilar sovet hukumati harbiy kuchlarining Qo'qon shahriga qilgan hujumini *uch kun* davomida mardonavor qaytardilar.

Qo'qon shahar mirshablar boshlig'i *Kichik Ergash qo'rboshi* 18-fevraldan boshlab amalda muxtoriyat hukumatining rahbariga aylandi. Turkiston o'lka-

harbiy komissari *Y.Perfilev* boshchiligidagi piyoda, otlıq va artilleriya qoʻshinlaridan iborat 11 *eshelon* bolsheviklarning harbiy kuchlariga madad berish uchun Qoʻqonga keldi. Shahar ustiga uch kun davomida toʻplardan yotqiruvchi snaryadlar otildi. Kimyoviy qurollar ishlatildi. Qizil gvardiyachilar va dushmanlar shaharda bosqinlar uyushtirib, uni talon-toroj qilishga kirishdilar. Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari oqibatida agʻdarib tashlandi. Ammo Qoʻqon va uning atroflaridagi tinch aholini saqlash, oʻldirish avjiga chiqdi. Faqat Qoʻqonning oʻzida 3 kun davomida 10 ming kishi oʻldirildi. Musulmonlar ommaviy ravishda qirgʻin qilindi. Qoʻqon shahri butkul vayronaga aylantirildi.

«*Ulugʻ Turkiston*» gazetasi chuqur qaygʻu bilan xabar berganidek, «20 fevral Xoʻqand (Qoʻqon) tarixining eng dahshatli kuni edi. Armanilar ayri-ayri faoliyat koʻrsatganlar...» Gazetadagi ushbu maqola «*Xoʻqand hozir qirgʻinlar shahri*» degan dahshatli ibora bilan tugaydi.

Nihoyat, 1918-yil 22-fevralda Qoʻqon shahridagi *Rus-Osiyo banki* binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan «tinchlik shartnomasi» imzolandi. Ushbu shartnomaning 2-moddasida: «Aholi oʻlka Xalq Komissarlari Soveti hokimiyati va barcha mahalliy sovet tashkilotlarini tan oladi», – deb yozilgan edi. Ha, oʻqqa tutilgan, oʻldirilgan, talangan va tahqir etilgan qoʻqonliklarning lirik qolgan qismi sovet hokimiyatini tan olishga majbur boʻldi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati atigi 72 kun mavjud boʻlgan boʻlsa ham, u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqloq uchun kurashga daʼvat etdi. Vatan tuygʻusidek muqaddas tuygʻu qalbining toʻridan joy olgan Turkiston ziyolilarining muxtoriyat uchun olib borgan kurashlari izsiz ketmadi. 1918-yilning erta bahorida avval Fargʻona vodiysida, soʻngra butun Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi qurolli istiqloqchilik harakati boshlandi.

26.4. Turkiston oʻlkasida sovet hokimiyati boshqaruv tizimining tuzilishi va iqtisodiyot sohasidagi oʻzgarishlar

Bolsheviklarning oʻlkada yuritgan siyosati hamda Turkiston ASSR va Turkiston Kompartiyasining tashkil topishi. Bolsheviklar va soʻl eserlar musulmon aholining oʻlkani boshqarishga boʻlgan qonuniy huquqini inkor qilib, hokimiyat toʻgʻrisidagi masalani kelishib hal qilish imkoniyatini yoʻqqa chiqardi va shu bilan Turkiston siyosiy hayotida milliy va demokratik kuchlarning kelgusida muxolifatga oʻtishini oldindan muqarrar qilib qoʻydi.

Markazdagi bolsheviklar rahbarlik qilgan sovet hokimiyati chekka oʻlkalari, shu jumladan, Turkistonda ham «*sovet avtonomiyasi*» oʻrnatishga qattiq kirishdi. Bu ishni bajarish uchun sovet Rossiyasi poytaxti *Moskvadan* koʻplab

partiya va sovet xodimlari Turkiston o'lkasiga yuborildi. Sovet hukumati rahbari V.I.Leninning buyrug'i bilan bolshevik *Pyotr Kobozev* O'rta Osiyoda favqulodda komissari qilib jo'natildi.

1918-yil 20-aprel – 1-mayda *Toshkentda* Turkiston ishchi, soldat, kresan, musulmon va dehqon deputatlarining V o'lkasi syezdi bo'lib o'tdi. Syezdi deputatlari sovet Rossiyasi hukumati rahbarlari V.I.Lenin va I.V.Stalin ko'rsatmasi asosida 30-aprelda «*Rossiya Sovet federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi haqidagi Nizom*»ni qabul qildi. Ushbu nizom RSFSR tarkibida Turkistonda avtonom respublika – Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR) tuzilganligini e'lon qildi. Syezdda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti tuzildi va Turkiston ASSR Xalq Komissariati Sovetining yangi tarkibi tasdiqlandi.

1918-yil 17 – 25-iyunda Toshkentda Turkiston bolshevistik tashkilotlarining tashkiliy o'lkasi syezdi bo'lib o'tib, unda Rossiya Kommunistik partiyasi – RKP (b)ning tarkibiy qismi bo'lgan Turkiston Kommunistik partiyasi (TKP) tashkiliy jihatdan rasmiylashtirildi. Syezdda *Ivan Tobolin* raisligida 7 kishidan iborat Markaziy Komitet saylandi. TKP MK tarkibiga mahalliy kommunistlardan *Nizomiddin Xo'jayev* ham kiritildi. Respublika siyosiy hayotida Turkiston Kommunistik partiyasi yetakchilik mavqeyini egalladi.

Markaz vakolatli organlarining Turkistondagi faoliyati hamda ularga qarshi milliy kommunistlar va Musulmonlar byurosining kurashi. Markaz o'z siyosatini amalga oshirish uchun maxsus komissiyalar va byurolar (*Turkkomissiya Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosi* va b.) tashkil qilib, ularni Toshkentga jo'natib hamda ushbu vakolatli organlari orqali Turkiston ASSRni boshqarishga harakat qildi. Markazning bunday shovinistik va mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy kommunistlar va Musulmonlar byurosi faol kurash olib bordi.

1919-yil mart oyida Turkiston Kommunistik partiyasining II konferensiyasida RKP (b) o'lkasi Musulmonlar byurosi (Musbyuro) tashkil qilindi. Musulmonlar byurosi tarkibiga *T.Risqulov* (rais), *N.Xo'jayev*, *A.Muhitdinov*, *Y.Ibragimov*, *Y.Aliyev* va boshqalar kiritildi. Musulmonlar byurosi o'z saflarida milliy kommunistlar va ayrim jadidlarni birlashtirib, sovet rejimining mustamlakachilik siyosatini tanqid qildi. Uning faoliyatida *Munavvarqori* va *Abdulla Avloniy* ham ishtirok etishdi.

Turkistondagi mahalliy kommunistlarning yetakchilari inqiroz va tanglikdan qutulish uchun o'lkaning mustaqil hayot yo'liga chiqishi dasturini ilgari surdilar. 1919-yil yanvarda Turkiston ASSR MIK raisi, o'lkasi Musulmonlar byurosi raisi *T.Risqulov* Turkiston Sovet Respublikasi nomini o'zgartirib, uni *Turk Respublikasi* deb atash, yagona kommunistik partiya – Turkiston turkiy xalqlarining kommunistik partiyasini (qisqacha Turk partiyasi) tuzish taklifi bilan chiqdi.

T.Risqulov bu bilan cheklanmasdan Turkiston ASSR Konstitutsiyasini qayta ko'rib chiqish, musulmonlarning alohida armiyasini tuzish va qizil armiyaning musulmon bo'lmagan barcha qismlarini Turkiston hududidan chiqib ketish, hatto Turkiston komissiyasi (Turkkomissiya) va Turkiston fronti (Turkfront)ni tugatish masalalarini ham kun tartibiga keskin ravishda qo'ygan edi. T.Risqulovning Turkistonni mustaqillik tomon olib boruvchi o'z fikrlariga Turkiston fronti qo'mondoni *M.V.Frunze* va sovet hukumati rahbari *V.I.Lenin* keskin qarshi chiqishgach, bular amalga oshmadi. 1920-yilning yozida T.Risqulov o'z vazifasidan ozod qilinib, *Moskvaga* ishga chaqirib olindi. Biroq tub xalqlarning manfaatlarini himoya qilish, Turkiston mustaqilligi uchun oshkora va pinhona harakatlar muttasil davom etaverdi.

Turkistondagi ocharchilik va uning oqibatlari. Turkistonda 1917-yilning bahorida boshlangan ocharchilik bolsheviklarning qattol siyosati natijasida tobora kuchayib borgan. 1918-yil 20-noyabrda Turkiston ASSRda *T.Risqulov* rahbarligida ocharchilikka qarshi kurash Markaziy komissiyasi tuzilgan. Biroq komissiya ixtiyoriga sovet hukumati tomonidan tegishli miqdorda mablag' ajratilmagan. Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, Farg'ona vodiysida 1917 - 1923-yillarda ocharchilik natijasida *1 mln kishi*, Samarqand viloyatida *200 000 kishi* o'lib ketgan.

Biroq dahshatli ocharchilik va og'ir iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan Turkiston o'lkasidan Markazga oziq-ovqat mahsulotlarini olib chiqib ketish tobora kuchaydi. 1920-yili tashib ketilayotgan non mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat turlarining miqdori bir necha marta ko'paygan. 1921 - 1922-yillarda Turkistondan Rossiyaga *4,4 mln pud* g'alla jo'natilgan.

O'sha paytda don yetishtirishga ixtisoslashmagan Turkiston qishloq xo'jaligi uchun bu katta miqdordagi hosil hisoblangan. Xalq ochlikdan qirilayotgan bir mahalda Turkistondagi ayrim oziq-ovqat zaxiralari bolsheviklar tomonidan frontda harbiy maqsadlar uchun foydalanilgan.

«Harbiy kommunizm» dan yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi. Bolsheviklar sovet hokimiyatining dastlabki davri (1918 - 1920)da yuritgan siyosati «*harbiy kommunizm*» deb nomlangan. Uning mohiyati quyidagicha bo'lgan. Butun sanoat ishlab chiqarishi davlat qo'lida jamlanib, qattiq markazlashtirish asosida boshqarilgan; dehqonlar o'zi yetishtirgan mahsulotning ortiqchasini davlatga topshirgan (oziq-ovqat razvyorstkasi, ya'ni taqsimoti); davlat esa oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini taqsimlashni o'z qo'lga olgan; bozor yo'qotilib, pul muomalasi natura (mahsulotlar) bilan almashtirilgan; mehnatga yaroqli barcha aholi majburiy mehnatga jalb qilingan (mehnat militarizatsiyasi) va b.

«Harbiy kommunizm» siyosati o'z mohiyatiga ko'ra xalqqa qarshi qaratilgan bo'lib, sotsializm qurish usuli sifatida mutlaqo yaroqsiz edi. Sovet hokimiyati

Turkistondagi barcha fabrika-zavodlarni o'z egalari qo'lidan tortib olib, avvalo, mudofaaga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish. Tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelgan jamiyatlar tarqatib yuborildi. Yirik va kichik sanoat korxonalari bilan birgalikda banklar, temir yo'l transporti, bosma matbaa davlat hisobiga o'tkazildi. Xususiy mulk egalari tekinxo'rlar deb e'lon qilindi va fuqarolik huquqlaridan mahrum etildi. Bozor munosabatlari rad etildi.

Og'ir iqtisodiy vaziyat, jumladan, Turkistondagi ahvol iqtisodiyot taraqqiyotlarida, uni boshqarishda tub o'zgarishlar yasash zarurligini ko'rsatdi. 1921-yil ko'klamiga kelib mamlakat iqtisodiy munosabatlarida keskin o'zgarishlar o'tkazish zarurligi ravshan bo'lib qoldi. RKP (b) X syezdi (1921-yil mart) oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solig'i bilan almashtirish to'g'risidagi qarori bilan bu ish boshlanib ketdi. *Yangi iqtisodiy siyosat* (NEP) degan yangi yo'lning mohiyati shundan iborat edi.

Turkiston ASSRda yangi iqtisodiy siyosatga o'tish Turkiston Kompartiyasi VI syezdida (1921-yil avgust) siyosiy jihatdan asoslab berildi, shundan so'ngra Turkiston ASSR Sovetlari X syezdi qarori bilan rasmiylashtirildi. NEPning asosi iqtisodiyot, xalq xo'jaligiga rahbarlik qilishning harbiy-komunistik usullaridan voz kechish, ishlab chiqaruvchiga, avvalo, dehqonlarga bir qadar erkinlik berishdan iborat edi.

O'rta Osiyoda yer-suv islohoti birinchi bosqichining amalga oshirilishi
Sovet hokimiyati tomonidan xususiy mulkni tugatish maqsadida O'rta Osiyoda yer-suv islohoti amalga oshirildi. U 2 bosqichdan iborat bo'lib, 1921 – 1922-yillarda Turkiston ASSR va Qozog'iston ASSRda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar birinchi bosqichni tashkil qiladi.

Islohotni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish 1921-yil bahorida boshlanib, u dastlab *Yettisuv*, *Sirdaryo*, *Farg'ona*, *Samarqand* viloyatlarida amalga oshirildi. Yer-suv islohoti boy-quloq xo'jaliklarini tugatish va ko'chmanch aholini o'troq holatga o'tkazish; katta yer egaligini yo'qotib, yerlarni yersiz va kam yerli dehqonlar, batraklar, chorikorlar o'rtasida mehnat normalari bo'yicha taqsimlash; Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining ayrim sargitlarini tugatishga qaratilgan edi. Vaqf yerlari ham islohot jarayonida tortib olinib boshlandi. Terrorga uchragan islohot qurbonlari qattiq qarshilik ko'rsatishdi. Turkiston ASSRda mulkdor dehqonlarning sovet hokimiyatiga qarshi ko'plab ommaviy g'alayonlari va isyonlari bo'lib o'tib, ayrim hollarda u qo'zg'olon darajasiga o'sib chiqqan. Islohot qishloqdagi siyosiy vaziyatni jiddiy ravishda keskinlashtirdi. Islohotning birinchi bosqichida yer tuzishi jamg'armasiga 1722626 *desyatina* yer qo'shildi. Biroq sovet hokimiyati tomonidan ana shu resurslardan mahalliy aholiga faqat 600000 *desyatina* yer ekin ekish va yaylovlar uchun ajratildi.

26.5. Turkiston ASSRda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning boshlanishi. Turkiston mintaqasida bolsheviklar hukmronligidagi sovet rejimiga qarshi istiqloqchilik harakati 1918-yil fevral oyining so'nggi o'n kunligida dastlab Qo'qon atroflarida boshlandi. Dastlabki guruhlarining tuzilishi Qo'qon atroflaridagi *Bachqir* qishlog'idan bo'lgan *Kichik Ergash* (1885 – 1918) va *Katta Ergash* (1882 – 1921) kabi qo'rboshilarning nomlari bilan bog'liqdir. 27-fevralda bolsheviklarning harbiy kuchlariga qarshi bo'lgan janglarning birida *Kichik Ergash* shahid bo'lgach, uning o'rniga *Katta Ergash* Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi ozodlik bayrog'ini ko'tarib. Qo'qon uyezdidagi harakatning dastlabki tayanch nuqtasi *Bachqir* edi. 1918-yil mart oyining oxiriga kelib *Katta Ergash*ning nomi Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida juda mashhur bo'lib ketdi. *Marg'ilon*da esa militsiyaning sobiq boshlig'i *Madaminbek* – Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li (1892 – 1920) kurash boshladi.

Farg'ona vodiysida 1918-yilning o'rtalariga kelib taxminan 100 ga yaqin qo'rboshi o'z guruhlari bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bordilar. Biroq sovet hokimiyatining rasmiy hujjatlarida milliy ozodlik harakatining mohiyati soxtalashtirilib, u «bosmachilik» harakati, uning qatnashchilari esa «bosmachilar» tarzida noto'g'ri talqin qilindi.

Turkistonda istiqloqchilik harakati vujudga kelishining bosh sababi sovet hokimiyatining o'lkada yuritgan mustamlakachilik va shovinistik siyosati bo'ldi. Bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki sotsialistik tadbirlar (korxonalarining davlat ixtiyoriga o'tkazilishi, xususiy mulkning bekor qilinishi, oziq-ovqat razvyorstkasi va g'alla monopoliyasi, islom dinining cheklanishi va ateizm targ'iboti, masjid, xususiy maktab va qozixonalarining bekitilishi, majburiy mehnatning joriy qilinishi, bozorlarning yopilishi va b.) hamda qizil armiya jangchilarining talonchilik va bosqinchiliklari istiqloqchilik harakatiga alohida keskinlik va ko'lam bag'ishladi, uning tobora kengayishi va rivojlanishiga olib keldi.

Qizil armiyaga qarshi hayot-mamot kurashiga kirishgan vatanparvarlar «bosmachilar» bo'lmay, ular istiqloqchilar edi.

Harakatning mohiyati, maqsadlari va ijtimoiy tarkibi. Istiqloqchilik harakatining o'ziga xos milliy ko'rinishi va Turkistonga mos xususiyatlari bo'lgan. Harakatning boshdan oxirigacha ustuvor bo'lgan fikr butun Turkistonning milliy istiqloli va mustaqilligi g'oyasidir. Istiqloqchilik harakati goh kuchayib, goh pasayib turishiga, unda ishtirok etganlarning tarkibi almashib turganligi va ikkilamchi manfaatlar o'zgarib turishiga, obyektiv va subyektiv omillar

kuchlar muvozanatiga turlicha ta'sir qilishiga qaramay, harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi uchun kurash bo'lib qolaverdi.

Harakatning mohiyatini sovet qo'mondonligi vakillari ham e'tirof etishga majbur bo'ldilar. Turkiston frontining qo'mondoni *M. Frunze*: «Bosqinlikka qarshi kurash tamomila yangi, ayricha xususiyati bo'lgan, o'ziga o'z dushman bilan kurash demakdir», – deb yozgan edi. Uning gapiga katta «Yo'qolsin sovet hokimiyati!» va «Mustaqil bir musulmon davlatini tuzamiz!» iboralari harakatning lo'nda g'oyasini ifodalardi.

Istiqlolchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi *dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va ziyolilar* edi. Turkiston ASSR rahbarlaridan biri *Turor Risqulovning* e'tiroficha, harakatga «asosan dehqonlar va hunarmandlar kelib qo'shildilar». Ularning milliy tarkibi asosan tub yoq aholisi – *o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlardan* iborat edi. O'zbeklarning miqdori ko'pchilikni tashkil qilgan. Bu harakat saffarida ba'zi yevropalik millatlar vakillari, hatto ruslar ham bo'lib, ular sovet rejimiga qarshi kurashganlar. Kurashga qo'zg'algan xalq harakatini uyushtirishda qo'rboshilarning xizmati katta bo'lgan.

Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi istiqloj janglari. Farg'ona vodiysidagi istiqlojchilik harakati 1919-yil yozining oxiri va kuzida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Sentyabr oyining dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari *Jalolobod* va *O'sh* shaharlarini egallashdi. Ular *Eski Marg'ilon* shahrini qizil bosqinchilardan ozod qildilar. Shu bilan birga, vodiydagi eng yirik strategik shahar – *Andijonni* qamal qilishga kirishdilar. Madaminbek boshchiligidagi qo'shinning hujumi Farg'ona vodiysini larzaga keltirdi. 1919-yil 12-oktyabrda Pomirning *Ergashtom* ovulida bo'lgan anjumanda Madaminbek boshchiligida Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga *16 nafar* tub aholi va *8 nafar* ruslar kiritilgan edi. Madaminbek hukumat boshlig'i bo'lish bilan birga qo'shinning Oliy bosh qo'mondoni etib ham tayinlandi.

1919-yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo'l ostida *30 000 nafar*ga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi istiqloj janglarini olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbek qo'l ostida *20 000*, Katta Ergash qo'rboshida *8000 nafar* askar bo'lgan. Ana shu uchta lashkarboshi vodiydagi jangovar harakatlarni yo'naltirib turdilar.

Farg'ona vodiysiga bolsheviklar tomonidan qo'shimcha kuchlarning yuborila boshlashi natijasida 1920-yil yanvar oyining o'rtalariga kelib jangovar tashabbus qizil armiya qo'lga o'tdi.

Katta Ergash qo'rboshining qo'shini mag'lubiyatga uchrach, Shermuhammadbek asosiy kuchlarini olib *Oloy* vohasiga chekindi. Madaminbek

... bilan yutish uchun Farg'ona fronti qo'shinlari qo'mondonligiga yarash harakatlari boshlashni taklif qildi. Natijada Madaminbek bilan 2-Turkiston qizil armiyasi diviziyasining boshlig'i *N.Veryovkin-Roxalskiy* o'rtasida 1920-yil 2-martda *Skobelev* shahrida yarash bitimi imzolandi. Biroq oradan ko'p vaqt o'tmay sovet qo'mondonligi tomonidan qo'rboshilar o'rdasiga yuborilgan Madaminbek noaniq vaziyatda 1920-yil mayda o'ldirildi.

Turkistondagi harakat 1920-yilning yozi va kuzida o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi vatanparvarlar bilan bir qatorda endilikda Buxoro va Xorazmda ham bosqinchi qizil armiyaga qarshi kurash boshlandi. 1920-yil 3-mayda Shermuhammadbek rahbarligida Turkiston turk mustaqil islom jumhuriyati tashkil topdi. Shermuhammadbek istiqlolchilik harakatiga bosh bo'ldi.

Keng miqyosdagi qatag'onlar va qizil armiya tomonidan harbiy harakatlarning kuchaytirilishi ham istiqlolchilarni kurashdan qaytara olmadi. Farg'ona armiya gruppasi shtabining «mutlaqo maxfiy» ma'lumotlariga qaraganda, 1921-yil iyun – sentyabr oylarida viloyatda 200 dan ortiq qo'rboshi guruhlar harakat qilgan.

1921-yil 13-sentyabrda Farg'ona vodiysida favqulodda holat e'lon qilindi. 1921-yil noyabrda Farg'ona viloyatida sovet hokimiyati tomonidan harbiy diktatura o'rnatildi va Turkiston fronti harbiy inqilobiy kengashi a'zosi *P.Baranov* Farg'ona viloyatining harbiy diktatori qilib tayinlandi.

Shermuhammadbek qo'rboshi *Afg'onistonga* o'tib ketgach, 1923 – 1924-yillarda Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilar qo'shiniga *Islom Polvon* va *Yormat Maxsum* kabi qo'rboshilar rahbarlik qildilar. Bu paytda ular kichik-kichik guruhlar tuzib, qizil armiyaga qarshi kurashdilar. Lekin ular kurashning mazkur bosqichida turli sabablar va mahalliy shart-sharoitlar natijasida doim ham bir-birlari bilan kelishib ish ko'rmadilar.

Samarqand viloyatidagi istiqlolchilarga 1918 – 1923-yillarda *Bahrombek* va *Ochilbek* kabi mashhur qo'rboshilar rahbarlik qilgan.

Bahrombek 1918-yildan boshlab 2000 yigit bilan Samarqand viloyatida qizil armiyaga qarshi janglarda faol qatnashdi. Samarqand atrofidagi *Pastqishloq*da tug'ilgan *Hamroqulbek qo'rboshi* uning yaqin yordamchisi bo'lgan. Bahrombek o'z yigitlari bilan 1922-yil yozigacha qizil armiyaga qarshi faol kurashgan. Bolsheviklar chekistlar va josuslar yordamida 1922-yil kuzida Bahrombek va ukasi Shahriyor qo'rboshini qo'lga olishib, *Samarqand* shahrida otib tashlashgan.

Ahmad Zaki Validiyning yozishicha, Ochilbek 1921-yildan boshlab «Turkiston milliy birligi» tashkiloti ko'rsatmalari asosida faoliyat ko'rsatgan. *Kitob* atrofida 1923-yil 10-mayda qizil askarlar bilan bo'lgan janglarning birida

Ochilbek (u xalq o'rtasida jasurligi uchun *Ochildov* sifatida mashhur bo'lgan) mardlaracha halok bo'lgan.

Qo'rboshilar faoliyati hamda qo'rboshilar qurultoylari. Qo'rboshilar istiqloqchilarning harbiy rahbarlari bo'lib, ular xalq o'rtasida o'z jangovarliklari bilan mashhur edi. O'z vaqtida Farg'ona vodiysida Kichik Ergash, Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom Polvon, Samarqand viloyatida Ochilbek, Bahrombek va boshqalar harakatga rahbarlik qildilar. Ularning aksariyati savodli kishilar edi. Farg'ona vodiysida *Shakarxon* va *Muhiddin-bekning onasi*, Buxoroda *Nodira qiz* singari o'zbek xotin-qizlaridan yetishib chiqqan ayol qo'rboshilar Turkistondagi milliy istiqloq kurashi tarixiga shonli sahifalar qo'shdilar.

Madaminbek siyomosida sarkardalik, davlat va siyosiy arbobga xos sifatlar uyg'unlashgan edi. U vodiydagi sovet hokimiyati organlariga muqobil ravishda o'z siyosiy boshqaruv usulini joriy qildi.

Bolshevik maddohlardan birining e'tiroficha, «Madaminbek qo'rboshilar o'rtasida eng kuchlisi bo'lgan bo'lsa, Shermuhammadbek, shubhasiz, eng xavfli edi».

Istiqloqchilik harakatini tashkiliy jihatdan uyushtirishda Farg'ona vodiysi, Buxoro va Xorazmdagi qo'rboshilarning mazkur davrda bo'lib o'tgan *30 dan ortiq* qurultoylarining ahamiyati katta bo'lgan. Ularda rahbarlar saylangan, qo'rboshilar yagona qo'mondonlik qo'l ostiga birlashtirilgan. Ammo bunga doim ham amal qilinmas edi. Shuningdek, qurultoylarda qo'rboshilar guruhlari harakat qiladigan joylar va ularning ta'sir doirasi belgilab olingan.

Qo'rboshilar 1924-yil oxiriga kelib Turkistondagi iqtisodiy inqiroz va qashshoqlik, dahshatli ocharchilik, xalqning og'ir turmushini ko'rmasliklari mumkin emas edi. Tinimsiz davom etgan *yetti yillik* kurashdan ular ham, xalq ham charchagan edi. Shuning uchun tirik qolgan qasoskorlarning ko'pchiligi 1924-yil davomida qarshilikni to'xtatdilar. Xullas, 1924-yil oxirida Turkiston mintaqasida istiqloqchilik harakatining birinchi davri yakunlandi. Lekin hali oldinda kurashning to'liq *o'n yili* turar edi.

26.6. Buxoro amirligida islohotlar uchun kurash hamda qizil armiya tomonidan amir hokimiyatining ag'darilishi. BXSРning tashkil topishi va faoliyati

Buxoro amirligidagi ahvol va Yosh buxoroliklar faoliyati. Rossiyada podsho hokimiyatining ag'darilishi Buxoro amirligida ham ba'zi o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Buxoro hukmdori *Amir Sayid Olimxon* (1881 – 1944) e'tirof etishicha, Muvaqqat hukumat Buxoro davlatining mustaqilligini tan olgan.

Amir hukumati Afg'oniston va boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan. Rossiya – Buxoro munosabatlarida ham o'zgarishlar yuz bergan. Buxoroda ish olib borgan Rossiya imperiyasining siyosiy agentligi *Rossiya hukumati-ning rezidenti* deb ataladigan bo'ldi. Shuningdek, Buxoro amirligi hududidagi rus manzilgohtarlarida ham ishchi va soldat deputatlari Sovetlari paydo bo'lib, siyosiy beqarorlik va tartibsizliklar kelib chiqqan. Bu holat Buxoro amirligidagi siyosiy ahvolga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Yosh buxoroliklar partiyasi dastlab mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimiyatini cheklab qo'yish tarafdori bo'lishgan. Petrogradda 1917-yili bo'lgan Fevral inqilobi Yosh buxoroliklar ichida kuchlar nisbatining qayta guruhlanishini tezlashtirdi. Asta-sekin isloh qilish tarafdorlari bo'lgan eski jadidlarga *Abdulloh Burhonov – Munzim* (1875 – 1934) va *Sadriddin Ayniy* (1878 – 1954) hamda islohot sohasida faol harakatlarni qo'llovchi yosh jadidlarga *Abdurauf Fitrat* (1886 – 1938) va *Fayzulla Xo'jayev* (1896 – 1938) yetakchilik qildi.

Buxoro amiri Sayid Olimxon 1917-yil 7-aprelda Buxoroda turli islohotlar o'tkazish to'g'risidagi farmonni imzoladi. Biroq farmonni quvvatlash maqsadida Yosh buxoroliklar tomonidan poytaxt Buxoro shahrida 8-aprelda bo'lgan namoyish amir tomonidan bostirildi. 14-aprelda farmon bekor qilindi. Yosh buxoroliklar amirlikda ta'qib ostiga olindi.

Kolesovning Buxoroga bosqini va uning oqibatlari. 1917-yil noyabrda Turkiston o'lkasida bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi natijasida sovet Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy vaziyat keskinlashdi. 1917-yil 2-dekabrda *Yangi Buxoro* (hozirgi Kogon)da bo'lib o'tgan amirlik hududidagi rus manzilgohtarlari ishchi va soldat deputatlari Sovetlarining II syezdida Buxoroda amirlik tuzumini ag'darib tashlab, hokimiyatni *Fayzulla Xo'jayev* boshchiligidagi Yosh buxoroliklarga berishga qaror qilindi. Turkiston o'lkasi XKS raisi *Fyodor Kolesov* boshchiligidagi 3500 kishidan iborat harbiy kuchlar 1918-yil 1-martda Yangi Buxoroga yetib keldi.

Fayzulla Xo'jayev raisligida yosh buxoroliklarning 7 kishidan iborat inqilobiy qo'mitasi (revkom) tuzildi. 2-mart kuni Eski Buxoro shahriga hujum boshlandi. Buxoro shahri yaqinidagi *Fathobodda* bo'lgan dastlabki to'qnashuvda Amir Olimxon qo'shinlari yengilsa ham, keyinchalik buxoroliklar Kolesov otryadini qurshab olishdi. *Karmanadan Qorako'lgacha* bo'lgan 170 km masofadagi temir yo'l izlari amir sarbozlari tomonidan buzib tashlandi. Buxoroliklar shahar himoyasiga qo'zg'aldi. F.Kolesov 5-mart kuni kechqurun *Toshkent* tomonga chekinishga buyruq beradi. 17-martda Kolesov otryadi bilan *Samarqandga* yetib keldi.

Bir necha kun davom etgan muzokaralardan keyin 1918-yil 25-martda sovet Turkistoni bilan Buxoro amirligi o'rtasida *Qiziltepa bitimi* imzolandi. Amir nomidan bitimni bosh zakotchi *Mirza Salimbek* imzoladi. Kolesovning tajovuzkorona hujumi sharmandalarcha barbod bo'lsa ham, o'z mustaqilligini himoya qilgan Buxoro amirligi bosqinchi qizil askarlarning o'z hududidagi harbiy harakatlari uchun javobgar deb hisoblandi hamda katta miqdordagi tovon to'lashi belgilandi. Shuningdek, Kolesov otryadi *Buxoro, Karmana va Xatirchida* talon-toroj qilingan katta boylik bilan Toshkentga qaytdi. Bu holi-salar amir hay'atiga boshchilik qilgan taniqli davlat arbobi va mashhur tarixchi *Mirza Salimbekning «Tarixi Salimiy»* asarida o'z aksini topgan.

Qizil armiyaning Buxoroga hujumi hamda amir hokimiyatining ag'darilishi. 1920-yil 12-avgustda Turkiston fronti qo'mondoni *M.V.Frunze* amirlikni tugatish maqsadida Samarqand-Buxoro guruhi (fronti)ni tuzish haqida buyruq bergan. Shu tariqa Buxoro amirligi chegaralariga 7000 piyoda, 2500 otliq askar hamda zamonaviy harbiy texnika shay holatga keltirib qo'yilgan. Amir Olimxon ixtiyorida 15 000 sarboz, 55 ta eski to'p va 12 ta pulemyot bor edi, xolos. Harbiy kuchlar nisbatiga ko'ra Turkiston fronti qo'shinlari zamonaviy qurollarga ega edi.

Sovet hukumati xalqaro huquq normalarini qo'pol ravishda buzib 1920-yil 29-avgustda Buxoro amirligini tugatishga kirishdi. Shu sanadan boshlab Eski Buxoro ham havodan, ham yerdan qattiq bombardimon qilingan.

M.Frunze qo'shinlarini 4 ta zarbdor guruh (*Samarqand, Kattaqo'rg'on, Chorjo'y va Kogon*)ga bo'lgan. Asosiy vazifa *Kogon* guruhi zimmasiga yuklandi. U poytaxt Eski Buxoro shahrini bosib olishi, Amir Olimxonni asirga olib, Arkdagi xazinani egallashi kerak edi.

Buxoroning *Qarshi* darvozasigacha kelgan temir yo'lda turgan bronepoyezd (zirhli poyezd) va *Samarqand, Shayx Jalol, Namozgoh* darvozalari yaqinida joylashtirilgan to'plardan 1 – 2-sentyabr kunlari shaharga 12 000 snaryad tashlangan. Shahar ustida uchib yurgan 11 ta «qora quzg'un» (aeroplan) 3 kun davomida bomba yog'dirgan. Shahar hatto kimyoviy snaryadlardan o'qqa tutilgan. Qulab tushgan darvozalardan qizil askarlar shaharga bostirib kirganlar. Ko'cha janjlari boshlanib ketgan. Amir Olimxon shahar obidalari va aholini omon saqlash maqsadida poytaxtni tashlab Sharqiy Buxoroga chekindi. 1920-yil 2-sentyabrda qizil armiya tomonidan Buxoro shahri egallandi. Buxoroda amir hokimiyati ag'darildi va Yosh buxoroliklar hokimiyat tepasiga kelishdi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi. Shaharni bosib olgan qizil askarlar Arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qo'shbegi va boshqa amaldorlarning boyliklarini musodara qilganlar. Bolsheviklar, qizil armiya qo'mondonlari, oddiy askarlar katta boylik orttirganlar. Hatto katta boylikni

o'margan «qizil qo'mondon» M.V.Frunze 1920-yil sentyabrda Moskvaqa qaytgach qo'lga olingan va bir necha oy uy qamog'ida saqlangan. Sentyabr oyi boshlarida amirlik xazinasi va boshqa boyliklar ortilgan 2 ta eshelon Samarqand va Toshkent orqali Moskvaqa yo'l olgan.

«Buxoroda 3000 ga yaqin hovli, 3000 dan ortiq do'kon, 20 ta saroy, 29 ta masjid, 34 guzar yonib xarob bo'lgan. Shahar qariyb 20 kun yonib turgan. Buxoroning shu darajada xarob bo'lganini hech bir tarix ko'rmagan edi. Buxoroliklar bu kunlarni «kichik qiyomat» deb aytishgan».

Voqealar guvohi bo'lgan tarixchi Muhammad Ali Baljuvoni o'zining «*Tarixi nafoye*» («Foydali tarix») asaridan.

1920-yil 6 – 8-oktyabrda amirning yozgi saroyi – *Sitorayi Mohi Xosada* chaqirilgan Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Yosh buxoroliklar partiyasining yetakchisi *Fayzulla Xo'jayev* yangi hukumat – BXSR Nozirlar Sho'rosining raisi, *Abdulqodir Muhiiddinov* Butunbuxoro Markaziy Inqilobiy Qo'mitasi (Markaziy revkom) raisi bo'ldi. BXSR davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik hokimiyati edi. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida o'rta asrlardan meros qolgan amir Buxorosini demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushdi.

BXSR dastlabki hukumati tarkibiga *Fayzulla Xo'jayev* rais va tashqi ishlar, *Qori Yo'ldosh Po'latov* maorif, *Muxtorjon Saidjonov* ichki ishlar, *Usmon Xo'ja* (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev) moliya, *Najib Husainov* davlat nazorati, *Y.Ibrohimov* favqulodda komissiya raisi, *Mukammal Burhonov* adliya, *Shihobuddinov* harbiy ishlar, *Mirzo Muhiddin Mansurov* savdo va sanoat nozirlari sifatida kiritildi. Butunbuxoro Markaziy Inqilobiy Qo'mitasining a'zolari qilib *Muinjon Aminov*, *Olimjon Akchurin*, *Abdulhamid Oripov*, *Sobir Yusupov*, *Hoji Hasan Ibrohimov*, *Fayzulla Xo'jayev*, *Qulmuhamedov* tayinlandi.

BXSRdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar. 1921-yil 18 – 23-sentyabrda bo'lgan Butunbuxoro xalq vakillarining II qurultoyida demokratik ruhdagi BXSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Markaziy Revkom o'rniga qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi oliy organ – Butunbuxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tashkil qilindi. Taniqli davlat arbobi *Usmon Xo'ja* unga rais bo'ldi. U keyinchalik xorijga chiqib ketgach, 1922 – 1924-yillarda bu lavozimni *Porso Xo'jayev* egalladi.

Biroq BXSR hukumati ichida siyosiy bo'linishlar, bir tomondan, Buxoro Kommunistik partiyasi ichidagi «so'l» va «o'ng» kommunistlarga qarshi g'oyaviy jihatdan kurash olib borishga to'g'ri kelsa, ikkinchi tarafdin, RSFSR va uning favqulodda organlari bo'lgan Turkkomissiya, Turkbyuro, Turkfront, O'rta Osiyo byurosi, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi yosh «mustaqil» davlat

yetakchisining har bir qadamini sergaklik bilan nazorat qilib turar edi. Bunday bo'lishiga qaramay, Fayzulla Xo'jayev, Abdulqodir Muhitdinov, Fitrat Otulla Xo'jayev singari arboblarning hukumatda demokratik yo'l tutib, mo'ljallanish maqomida turdilar.

Buxorodagi demokratik o'zgarishlarga mamlakat tashqarisidan tazyiq tobora kuchayib bordi. 1923-yil yozi va kuzida tashqi kuchlar tazyiqi bilan Fayzulla Xo'jayevning yaqin safdoshlari bo'lgan *Fitrat, Otulla Xo'jayev, Sattor Xo'jayev, Muinjon Aminov, Qori Yo'ldosh Po'latov* va boshqa nozirlar hukumat tarkibidan chiqarildi hamda Buxorodan surgun qilindi. Buxoro hukumati Moskva va Toshkentning «kommunistcha saboq»ni olgan «tajribali sovet xodimlari» bilan to'ldirildi. Hukumatda Turkiston ASSRdan yuborilgan komissarlarning ta'siri tobora kuchayib bordi. Jamiyat tobora siyosiylashib, 1924-yil 18 – 20-sentyabrda bo'lgan Butunbuxoro xalq vakillarining V qurultoyida BXSrning nomi o'zgartirilib, u Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi (BSSR)ga aylantirildi. Xullas, Markaz va Turkiston ASSRdagi bolsheviklar va boshqa kuchlar Buxoroni «sotsialistik» o'zgartirishlar girdobiga tortishdi.

Yosh davlat yetakchisi Fayzulla Xo'jayev murakkab va og'ir sharoitda ishtiroklashga majbur bo'ldi. U dastlabki kunlardan oqib mustaqil siyosat yuritishga, sovet Rossiyasi va xorijiy davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o'rnatishga harakat qildi. 1922-yili u *Berlinga* nemis banklari va chet el savdo kompaniyalari bilan mustaqil shartnoma tuzishga bordi.

26.7. Xiva xonligidagi ahvol hamda xon hokimiyatining ag'darilishi. XXSrning tuzilishi va turli islohotlar

Xiva xonligidagi siyosiy vaziyat va Yosh xivaliklar faoliyati. 1917-yil boshlarida Rossiya markazida yuz bergan voqealar Xiva xonligiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. 1917-yil 5-aprelda Xiva xoni *Asfandiyorxon* (1910 – 1918) Yosh xivaliklar partiyasining islohot to'g'risidagi manifestga imzo chekdi. Yosh xivaliklar partiyasi 1914-yili tashkil topgan edi. Manifestda yangi usul maktablari ochilishi, mamlakatda temir yo'l, pochta, telegraf barpo etilishi zarurligi, davlat xazinasi nazorat ostiga olinishi, barcha amaldorlarning saylanishi va maosh bilan ta'minlanishi, butun aholining shariat oldida tengligi ta'kidlangan edi.

Islohotlar amalga oshirilishini nazorat qilish uchun *30 kishidan iborat Idorayi mashruta* tashkil qilindi. 8-aprel kuni mamlakatni boshqarish uchun Xivada xon huzurida qozikalon Bobo'xun Salimov boshchiligidagi *Majlis* va Husaynbek devonbegi Matmurodov raisligida *Nozirlar Sho'rosi* tashkil topdi. Bu bilan Xiva xonligida qisqa muddatga bo'lsa ham konstitutsion monarxiya

o'ratildi. 1917-yil mayda Yosh xivaliklar partiyasi rahbari *Polvonniyoz Yusufov* boshchiligidagi delegatsiya Muvaqqat hukumat vakillari bilan muzokara o'tkazish uchun *Toshkentga* keldi. Biroq Asfandiyorxon Muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili general *Mirbadalov* boshchiligidagi harbiy kuchlarga xiyaboniy oyida Majlisni tarqatib yubordi. Xon o'ziga ma'qul kishilardan *Ortiq Oxun* va *Is'hoqxo'ja Xo'jayev* boshchiligidagi yangi tarkibdagi Majlis va *Nozirlar Sho'rosini* shakllantirdi.

Yosh xivaliklardan shafqatsiz o'ch olishga kirishildi. *Husaynbek Matmurov* boshchiligidagi Majlisning 17 nafar sobiq a'zosi qamoqqa olindi, keyinchalik qatl etildi. 1917-yil noyabrda Asfandiyorxon rus kazaklari yordamida Majlisni butunlay tugatdi. Xonning istibdod tuzumi bilan kurashda mag'lubiyatga uchragan Yosh xivaliklar mamlakat hududidan chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Xonlikda vaziyatning keskinlashib borishi. Xiva xonligi mustaqilligiga sovet Rossiyasi tomonidan tashqi xavfni his etgan xon mudofaa choralarini ko'rishga intildi. Asfandiyorxon tomonidan 1918-yili *Junaidxon* Xiva xonligi qurolli kuchlari qo'mondoni qilib tayinlandi. Junaidxonning asl ismi *Qurbon Mamed Sardor* bo'lib, u turkmanlarning *yovmut* urug'iga mansub bo'lgan.

Xiva xonligi hududining bir qismida Amudaryo bo'limi (markazi Petro-Aleksandrovsk; hozirgi To'rtko'l) tashkil qilingan bo'lib, u Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan. Fevral inqilobidan keyin To'rtko'lida ham sovet hokimiyati o'ratildi. To'rtko'lida turgan sovet qo'mondonligining harbiy kuchlari doimiy ravishda Xiva xonligi hududiga tajovuz solib turdi. Xonga qarshi muxolifatda turgan Yosh xivaliklarning aksariyat qismi ham shu yerdan boshpana topdi.

1918-yil 30-oktyabrda Xivada bo'lgan saroy fitnasi oqibatida Asfandiyorxon o'ldirildi. Taxtga marhum xonning katta akasi, zamondoshlarining fikricha, bo'shang va irodasiz *Said Abdullaxon* (1918 – 1920) o'tirdi, hukumat boshlig'i *Davlatmurod mahram* bo'ldi. Biroq yangi xon davlat ishlari bilan shug'ullanmas edi. Hokimiyat Junaidxon qo'lida markazlashdi. Junaidxon sovet hokimiyatining ashaddiy dushmani bo'lgan.

Junaidxon qo'shinlari 1918-yil noyabrda Amudaryodan o'tib, To'rtko'lga hujum qildi. Qizil askarlarga qarshi keskin janglar bo'lib, u 1,5 yilcha davom etdi. 1919-yil 9-aprelda Xiva yaqinidagi *Taxta* qishlog'ida Junaidxon bilan sovet hokimiyati vakillari o'rtasida shartnoma imzolandi. Taxta shartnomasi sifatida tarixga kirgan bu bitimda Xiva xonligi mustaqilligi sovet hokimiyati tomonidan tan olindi. Biroq sovet Rossiyasi va Turkistonning bolshevik rahbarlari Xiva xonligidagi barcha muxolif kuchlarni jipslashtirishga zo'r berib intildi.

Qizil armiya tomonidan Xiva xonligining tugatilishi. 1919-yil 4-noyabrda Yosh xivaliklar, To'rtko'lidagi inqilobchi kommunistlar guruhi hamda *Qo'shmamedxon Sapiyev* va *G'ulomalixon Bahodir* boshchiligidagi turkman

qabilalari Xiva xoni Said Abdullaxon va turkman yovmutlarining yetakchisi Junaidxonga qarshi kurash boshlash uchun o'zaro ittifoq tuzib, Xiva shahrini egallash uchun qizil askarlarni yordamga chaqirdi.

1919-yil noyabr – 1920-yil yanvar oylarida Turkiston frontining Amudaryo (Xiva) guruhi qo'shinlari xonlik hududini bosib olish uchun keskin janglar olib bordi. 1920-yil 1-fevralda xonlik poytaxti Xiva bosib olindi. Xiva xoni Said Abdullaxon taxtdan voz kechdi. Junaidxon janglar bilan *Qoraqumga* chekindi. 2-fevralda Muvaqqat inqilobiy qo'mita tuzildi. Hokimiyat Yosh xivaliklar qo'liga o'tdi.

Aslini olganda, Xivada xon, Buxoroda amir hokimiyatlarining ag'darilishi obyektiv qaraganda to'g'ri hodisa bo'ldi. Faqat bu hokimiyat ichki kuchlar tomonidan tinch yo'l bilan emas, balki tashqi kuchlar – sovet Rossiyasi va bolsheviklarning harbiy qismlari tomonidan zo'ravonlik bilan tugatildi. Mintaqadagi 2 mustaqil o'zbek davlati hududiga qizil armiya kiritildi hamda ularni sovetlashtirish jarayoni boshlandi. Shu bilan birga, xonliklarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar chuqur inqirozga uchrab, jamiyatning ilgarilab borishida monarxiya tuzumi jiddiy g'ovga aylangan edi. Yosh xivaliklar ham, Yosh buxoroliklar ham bolsheviklar va sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilishsa-da, Xorazm va Buxoroda demokratik islohotlarni amalga oshirish uchun jiddiy kurashdilar.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil qilinishi hamda undagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar. Xiva shahrida 1920-yil 26 – 30-aprelda bo'lib o'tgan Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilganligi e'lon qilindi.

XXSR Nozirlar Sho'rosining raisi qilib Yosh xivaliklar partiyasining rahbari *Polvonniyoz Yusupov* saylandi. Qurultoyda XXSRning muvaqqat Konstitutsiyasi va dastlabki bayrog'i qabul qilindi. XXSRning yosh hukumati BXS, Turkiston ASSR, RSFSR davlatlaridan tashqari *Finlyandiya, Shvetsiya, Germaniya, Turkiya, Afg'oniston, Eron* kabi xorijiy davlatlar bilan ham mustaqil ravishda savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalarni olib borishga harakat qilgan. Masalan, 1921-yil 24-noyabrda Afg'onistonga qozikalon *Bobooxun Salimov* boshchiligida maxsus elchilik hay'ati jo'natilgan.

Biroq shartnoma va bitimlarda ko'rsatilgan asosiy moddalarni, xususan, XXSRning mustaqilligi va daxlsizligi huquqini sovet Rossiyasi tan olmay, dolmiy ravishda yosh respublikaning ichki ishlariga qo'pol ravishda aralashib turdi, xuddi BXSda bo'lgani singari, Xorazmda ham katta miqdordagi qizil askarlarni saqlab, bu harbiy kuchlar orqali mamlakatni o'zi boshqarishga intildi. 1921-yil 6-martda Xorazmda qizil askarlar uyushtirgan harbiy davlat to'ntarishidan keyin P.Yusupov hukumati ham ag'darib tashlandi. Hukumatning sobiq raisi yashirinishga ulgurdi. Biroq oradan ko'p o'tmay u qamoqqa olindi. Bolsheviklar ko'plab nozirlarni otib tashlashdi. Tirik qolgan ayrim nozirlar Junaidxon safiga

horib qo'shildi. Umuman olganda, XXSR mavjud bo'lgan qariyb 5 yil davomida bolsheviklar tomonidan XXSR MIK raislari va hukumat boshliqlarining har biri 10 martadan o'zgartirildi. Xorazmda o'tkazilgan bunday davlat to'ntarishlari oqibatida o'zbek xalqining ko'plab asl farzandlari qatag'on qilindi.

XXSRda iqtisodiy siyosat va xo'jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Soliqning og'ir yuki savdogarlar, sudxo'rlar va yirik yer egalari uchun zimmasiga to'g'ri keldi. Qishloq xo'jaligida 1922-yil dekabrda yagona soliq tizimi joriy qilindi. 1923-yil iyunda hunarmandchilik va sanoat sohasidagi soliqlar ham bir tizimga solinib, davlat sanoat solig'i joriy qilindi.

XXSR hukumati madaniy-ma'rifiy va sog'liqni saqlash ishlariga ham katta e'tibor qaratdi. 1920-yil bahorida respublikada yangi tipdagi maktablar tashkil qilina boshlandi. 1921-yil sentyabrda Xivada ochilgan xalq dorilfununi respublika madaniy hayotida katta voqea bo'ldi.

1923-yil 17 – 20-oktyabrda bo'lgan Butunxorazm xalq vakillarining IV qurultoyi XXSRni Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR)ga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi. Qabul qilingan yangi Konstitutsiya mamlakatning sotsialistik qurilish yo'liga o'tishini qonun yo'li bilan mustahkamladi. Mavjud yerlar umumxalq mulki deb e'lon qilinib, barcha vaqf mulklari *Maorif nozirligi* ixtiyoriga berildi. Qozixonalar faoliyati taqiqlanib, sovet sudlari tashkil qilindi. Shu tarzda 1923-yil oktyabr oyidan boshlab Xorazmdagi demokratik o'zgarishlarga chek qo'yildi. Xorazmni sovetlashtirish jarayoni o'zining yuqori bosqichiga ko'tarildi. Hukumatning keskin yangi siyosatidan norozi bo'lgan barcha kishilar bunday vaziyatda istiqbolchilar safini to'ldirdilar. Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat Xorazm vohasiga ham keng tarqalgan edi.

Xullas, 1924-yil oxirida Markaz tomonidan mustaqil davlatlar bo'lgan XXSR va BXSRS tugatilib, mintaqada o'zbek xalqi davlatchiligi shakllangan ikki tarixiy markaz yo'qotildi. Bolsheviklar bu bilan o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan muhim siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va madaniy markazlari bo'lgan Buxoro va Xorazmga jiddiy zarba berishdi.

26.8. BXSRS va XXSRda qizil armiyaga qarshi kurash

BXSRS hududida qizil armiyaga qarshi kurash va xalq qo'zg'olonlarining boshlanishi. Qizil armiyaning Buxoro va Xorazm mamlakatlari hududlariga tajovuzkorona bostirib kirishi davomida qilgan talonchiliklari, zo'rliklari, qon to'kishlari ommaviy noroziliklarni keltirib chiqargan asosiy sabablardan bo'ldi. Buxoro va Xorazm aholisi o'z mamlakatlariga bostirib kirgan bosqinchi qizil armiya askarlariga qarshi milliy ozodlik kurashiga qo'zg'aldi. Bu hududlarda vatanparvarlar harakati kengayib, keng quloq otdi. Harakat

saffarida yerli aholining deyarli barcha qatlamlari, birinchi navbatda *shayx qonlar* va *hunarmandlar* faol qatnashdilar. Bu holat qurolli harakat rahbarlariga kelib qo'shilganlarning turli tabaqalarga mansub bo'lgani, qizil armiyaga qarshi shafqatsiz va hayot-mamot kurashiga shaylanganlar doirasining ko'lami nechog'lik keng va shiddatli bo'lganidan dalolat beradi.

Buxoroda amirlik tuzumi ag'darilgach, 1920-yil kuziga kelib qizil armiyaga qarshi kurash olib borgan qo'rboshilar guruhleri, shahar va tumanlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar mamlakatning barcha hududi – g'arbiy, markaziy, sharqiy qismlarida boshlanib, ommaviy tus oldi. 1920-yil sentyabr oyida Sharqiy Buxoroga kelgan sobiq Amir Olimxon katta kuch to'plab, qizil armiyaga qarshi kurashga rahbarlik qildi.

G'arbiy Buxoro hududida *Mulla Abdulqahhor*, Sharqiy Buxoro hududida *Ibrohimbek* va *Davlatmandbek* kabi qo'rboshilar harakatga rahbarlik qilishdi. 1921-yil mart oyida bir qator janglarda mag'lubiyatga uchragan Olimxon Afg'oniston davlati hududiga o'tib ketishga majbur bo'ldi. Biroq bu paytda Sharqiy Buxoroda qizil armiyaga qarshi ommaviy xalq qo'zg'olonlari ko'tarildi.

Buxoro qo'rboshilarining milliy ozodlik kurashi. Qisqa muddat davomida Mulla Abdulqahhor boshchiligida poytaxt Buxoro tumanlarida lashkar to'plandi va qizil armiyaga qarshi jangovar harakatlar olib borildi. Shuningdek, Mulla Abdulqahhor rahbarligida *Buxoro*, *Karmana* va *Nurota* viloyatlarida o'nlab qo'rboshi guruhleri faoliyat ko'rsatdi. Uning qo'l ostida Buxoroning g'arbiy qismida 20 nafar qo'rboshi birlashgan. Ular orasida *Hamro Polvon*, *Hayit Amin*, *O'rmon Polvon*, *Oston Qorovulbegi* kabi shofirkonlik qo'rboshilar ham bo'lgan. Ular asosan *G'ijduvon*, *Shofirkon*, *Vobkent*, *Romitan* tumanlari hamda *Nurota* va *Karmanada* o'z faoliyatlarini kuchaytirganlar.

Mulla Abdulqahhor yigitlari bilan qizil askarlar o'rtasida 1924-yil yozi va kuzida G'ijduvon tumanining G'ishti va Kattag'amxo'r qishloqlarida, Nurota tog'larida, Shofirkon tumaniga tutash Qizilqumning Jilvon qumliklarida, Bog'iafzal va Vardonze qishloqlarida qattiq to'qnashuvlar bo'ldi. Mulla Abdulqahhor qo'rboshi Qizilqumda qizil askarlarga qarshi bo'lgan janglarning birida 1924-yilning oxirida halok bo'ldi.

Ibrohimbek qo'l ostidagi Sharqiy Buxoro hududida o'zining boshqaruv usulini amalga oshirdi. Joylarda yangi Buxoro hukumati tugatilib, uning o'rniga amirlik davridagi boshqaruv usuli joriy qilingan. Bundan Turkistonda ish olib borayotgan markaziy hukumat vakillari tashvishga tushadilar. Shuning uchun ham Turkiston fronti siyosiy boshqarmasi tomonidan Ibrohimbek bilan boshqa qo'rboshi guruhleri o'rtasida nizo chiqarish uchun tavsiyalar beriladi. Ibrohimbek qo'rboshi ko'p yillar davomida Sharqiy Buxoroda qizil armiyaga qarshi fidokorona kurashdi.

Buxorodagi istiqlolchilik harakati rahbarlari o'rtasida Turkiyadan kelgan generallar *Anvar* va *Salim Posho* alohida ajralib turadi. Anvar Posho 1921-yil oktyabrda Kavkazdan Buxoro shahriga kelgach 9-noyabrda Qarshi yaqinidagi *Qiliko'l* atrofida *Mulla Nafis qo'rboshi* bilan uchrashib, maxsus bayonot bilan chiqadi hamda turkistonliklar va buxoroliklarning sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi muqaddas kurashiga qo'shilganligini e'lon qiladi.

Anvar Poshoning sa'y-harakatlari bilan Sharqiy Buxoroda birlashgan jamalar bunyod etildi va u turk zobitlari bilan mustahkamlandi, g'arbcha so'zmondonlik uslubi joriy qilinadi. Anvar Posho 1922-yil avgustda Sharqiy Buxoroning *Baljuvon* atrofidagi *Obidara* qishlog'ida qizil askarlarga qarshi bo'lgan jangda mardlarcha halok bo'ldi. Turkistonning erksevar shoiri Cho'lpon Anvar Posho xotirasiga bag'ishlab «*Baljuvon*» marsiyasini yozdi.

BXSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi *Usmon Xo'ja*, harbiy ishlar noziri *Abdulhamid Oripov* hamda *Muhiddin Maxsum Xo'jayev*, *Ali Rizo Afandi*, *Surayyo Afandi*, *Qulmuhammedov* va boshqa milliy rahbar xodimlar o'z lavozimlarini tark etib, muxolifatdagi qurolli harakat saflariga o'tib ketgani ko'p narsadan dalolat beradi.

Xorazmda Junaidxon boshchiligidagi harakat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Junaidxon rahbarligidagi qurolli guruhlar uzoq yillar davomida qizil armiyaga qarshi kurashdi. Uning qo'shinlari safida turkman va o'zbeklardan tashqari qozoq va qoraqalpoqlar ham ko'pchilik edi.

Ko'hna Urganch, *Ilyali*, *Toshhovuz*, *Mang'it*, *Qo'shko'pir*, *Chimboy*, *Qo'ng'iro't* va *To'rtko'lda* harakat qilgan o'nlab sardorlarning guruhlari qizil askarlarga jiddiy zarba bergan.

Junaidxon tarix sahifalarida murakkab va ziddiyatli shaxs sifatida bitilgan. Uning faoliyati ham shaxsiyatidek keskin va fojiali, zafarli va qayg'uli kechdi. Avval Rossiya imperiyasi va Xiva xonligiga qarshi kurashgan Junaidxon 1918-yil o'rtalaridan e'tiboran qizil askarlarga qarshi mustaqillik uchun jangga kirgan edi.

Ahmad Zaki Validiy o'zining «*Xotiralar*» kitobida Junaidxonni «Rossiya hukmronligi oldida bo'yin egishni xohlamagan davlat qahramoni» sifatida ta'riflagan edi.

1922-yil ko'klamida Junaidxon Xorazmda o'z faoliyatini yanada kuchaytirdi. Bu paytda uning qo'shinlari soni *15000 nafar* yigitdan iborat bo'lib, ular bolsheviklarga qarshi tura oladigan jiddiy kuchga aylangan edi. Masalan, 1922-yil aprel oyida Junaidxon qo'shinlari *Porsu* shahri va uning atroflarini qizil askarlardan ozod qilishdi. *Ko'hna Urganch* yonidagi qishloqlarda ham ular shiddatli janglar olib bordilar.

Markaz Xorazmda «bosmachilik» harakatini tezlik bilan bartaraf qilish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldi. Bu holat, ayniqsa, 1923-yildan boshlab yanada kuchaydi. 1923-yil 12-yanvarda bo'lgan uchinchi chaqiriq XXSR MIK II sessiyasida Xorazmda 4 yildan buyon davom etib kelayotgan «bosmachilik» harakatiga qarshi mavjud hukumatning o'zi kurash olib borishga ojiz ekanligi ochiq aytilib, RSFSR (aslida, SSSR) hukumatidan «shoshilinch harbiy yordam» so'raldi.

Junaidxon 1924-yil 17-iyunda o'zining 20 nafar hamrohi bilan Afg'onistondagi *Hirof* shahriga yetib keldi. Manbalarda aytilishicha, u bu yerda turib o'z qo'shinlari safini to'ldirishga tayyorlangan. Oradan ko'p vaqt o'tmay Junaidxon XXSR hududiga qaytib keldi va istiqloqlchilik harakatiga boshchilik qilishda davom etdi.

«Turkiston marvaridi bo'lgan Farg'ona ikki yildan ortiqroq vaqtdan beri qonli urush maydoni holatidir... Bu yerdagi sovet hokimiyati ilk tuzilish davrida rus va yerli ishchi, dehqon ommalarini o'ziga tortish o'rniga mehnatkash xalqni o'zidan uzoqlashtirish uchun qo'lidan kelganicha harakat qildi... Bu yerda harakat qilgan qizil askar qismlari, inqilobni himoya qilgan ba'zi rahbarlar yerli mehnatkash xalqning tub manfaatlari bilan hisoblashmadi, uning arz-u dodiga quloq solmadi. Bosmachilik harakati shu asosda vujudga keldi. Bosmachilar oddiy qaroqchilar emas. Shunda ularni tez yo'q qilish mumkin bo'lar edi».

M.Frunze

Istiqloqlchilik harakatining mag'lubiyatga uchrash sabablari va kurashi saboqlari. 1924-yil kuzida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi natijasida qurolli kurashning birinchi davri yakunlandi. Uning ikkinchi davri (1925 – 1935-yillar) esa yana 10 yil davom etib, o'zining xarakteri va kuchlar nisbati jihatidan avvalgi davrga nisbatan ancha farq qiladi. Bu davrda asosan Sharqiy Buxoro, Xorazm vohasi va Farg'ona vodiysining ayrim hududlarida janglar davom etdi. 1935-yilga kelib Turkistondagi istiqloqlchilik harakati mag'lubiyatga uchradi. Tirik qolgan kurashchilarning aksariyati xorijiy davlatlarga muhojir bo'lib jo'nab ketishga majbur bo'ldi.

Istiqloqlchilik harakatining eng zaif tomoni uning Turkiston mintaqasida yagona markaz ostida to'liq birlasha olmasligi, harakatning boshidan to oxirigacha mafkuraviy asos bo'lib xizmat qiluvchi yagona milliy dasturning yaratilmaganligi hamda ba'zi yetakchi shaxslar orasidagi kelishmovchilik va nizolar, ayrimlarining tor dunyoqarashi va boshqalar sabab harakat mag'lubiyatga uchradi. Ayrim qo'rboshilar (*Xolxo'ja Eshon, G'ulomalixon Bahodir* va b.) harakatga faqat o'zlari rahbarlik qilishni o'ylab yagona qo'mondonlikka bo'ysunmadi. Shuningdek, istiqloqlchilik harakatiga aloqador bo'lmagan ba'zi jinoyat to'dalar talonchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanib ko'plab begunoh

kishilarni o'ldirishdi. Bundan qizil armiya qo'mondonligi va bolsheviklar ustomonlik bilan foydalanishdi. Ular maxsus xufiya va josuslar, turli ayg'oqchilar va sotqinlar yordamida harakat ichidagi birlikni parchalash, ba'zi guruhlar rahbarlari o'rtasidagi tarqoqlik va o'zaro ixtiloflarni yanada avj oldirishga urindilar. Nihoyat, sovet hokimiyati bir qator islohotlar o'tkazish, xususan, yangi iqtisodiy siyosatni joriy qilish va xalq ta'limi sohasidagi o'zgarishlarni amalga oshirib, xalq uchun biroz yengillik tug'dirganidan so'ng va turli-tuman targ'ibotlar natijasida qurolli harakat qatnashchilarini mehnatkashlar qo'llab-quvvatlashidan qaytara oldi.

26.9. O'rta Osiyo Respublikalarida o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish va uning oqibatlari

Turkiston – mintaqa xalqlarining yagona makoni va umumiy vatani.

Turkiston mintaqasi azaldan turkiy xalqlarning yagona maskani va umumiy vatani bo'lgan. 1918 – 1924-yillarda mavjud bo'lgan Turkiston ASSR, BXSr, XXSRning tub xalqlari asrlar davomida turmush tarzi va an'analari jihatidan bir-birlariga juda yaqin bo'lishgan. Turkistondagi turli davlatlarning har birida turkiy xalqlar: o'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qirg'izlar, shuningdek, tojik xalqi azaldan yashaganligi tarixiy tarkib topgan hodisa edi. Turkiston mintaqasining xalqlari shu tuproqni, Turonzaminni qadimdan o'zlarining asl Vatani deb bilganlar.

Mustabid sovet rejimi va bolsheviklar uchun esa Turkiston o'lkasini bo'lib tashlab idora qilish qulay edi. Xususan, bu jarayon Turkistondagi istiqlolchilik harakati 1924-yilda asosan mag'lubiyatga uchraganidan keyin o'zining so'nggi bosqichiga qadam qo'ydi. 1924-yil fevral – iyun oylarida SSSRdagi markaziy organlar, Turkiston, Buxoro, Xorazm kommunistik partiyalari va RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi milliy chegaralanish masalalari yuzasidan zo'r berib ish olib bordi. Turkiston va Buxoro Kompartiyalari Markaziy Komitetlari huzurida maxsus, keyinchalik hududiy va boshqa alohida komissiyalar tuzildi.

Milliy kommunistlar va Markaz vakillari o'rtasida turli qarashlarning to'qnashuvi. Turkkommissiya va Y.Rudzutak tezislari qarama-qarshi o'laroq, *Turor Risqulov* boshchiligidagi bir guruh milliy kommunistlar 1920-yil yoq turkiy xalqlar yagona bo'lib, ularning tarixiy ildizlari, dinlari, an'analari va madaniyati mushtarakdir, yagona Turkistonni alohida qismlarga ajratib bo'lmaydi degan g'oyani ilgari surgan edilar. Biroq Markaz kommunistlari bu fikrni inkor etib, uni «panturkizm», «panislomizm», «burjua millatchiligi va o'ng og'machiligi» deb noto'g'ri baholagan edilar.

Bir tomondan, 1920-yildan boshlab istiqloqlilik harakatining qayta shiddat bilan rivojlanishi, ikkinchi tomondan, qizil armiya tomonidan xonligi va Buxoro amirligi ag'darib tashlanib, ular o'rnida «mustaqil respublikalar» tashkil qilinganligi bu masalada bolsheviklarning yana 4 yil sabr qilishlariga olib keldi. Xullas, sovet hokimiyati rahbariyati 1924-yil boshlarida ushbu masalani hal qilishga jiddiy kirishdi.

Sovet hokimiyatining chegaralanish siyosatiga dastavval Turkiston ASSR, BXSR va XXSR rahbarlari qarshi bo'lishgan. 1924-yil fevralda Buxoro Kompartiyasi chegaralanish masalasi yuzasidan *Fayzulla Xo'jayev* tomonidan yozilgan tezislarni qabul qildi. Unda RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosining bu sohada qarashlari xato ekanligi tanqid qilingan edi. 1920-yil 10-martda bo'lgan Turkiston ASSR MIK va Turkiston Kompartiyasining birlashgan kengashida *Sultonbek Xo'janov*, *Sanjar Asfandiyorov*, *N.Paskutskiy* kabi atoqli partiya xodimlari Sovet Sotsialistik Respublikalarining O'rta Osiyo federatsiyasini tuzish taklifi bilan chiqdilar. Shu bilan birga, S.Xo'janov Turkiston yagona va butun, uning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emas deb ta'kidladi. Bundan tashqari, 1923-yil dekabrda Farg'ona vodiysi vakillari RSFSR tarkibida Farg'ona muxtor viloyatini tashkil etish to'g'risidagi taklif bilan chiqqan edilar. Xullas, munozaralar tobora qizib bordi.

XXSR rahbarlarida ham alohida qarashlar bo'lgan. 1924-yil 8-mayda bir guruh Xorazm rahbarlari RKP (b) MKga «Xorazmda milliy masalani hal qilish to'g'risida maktub» yuborib, unga Xorazmni chegaralanishga qo'shmaslikni iltimos qildilar. Ular o'zlarining nuqtayi nazarlarini respublikaning olisda joylashganligi, iqtisodiy jihatdan ajralib turganligi bilan asosladilar. Bu nuqtayi nazarni qo'llab-quvvatlagan Xorazm Kompartiyasi Markaziy Komiteti mas'ul kotibi *Qalandar Odinayev* 1924-yil iyulda o'z vazifasidan olib tashlandi. XXSR hududi dastlab chegaralanishga tortilmadi, biroq 1924-yil 26-iyulda Xorazm Kompartiyasining yangi rahbarlari respublikaning chegaralanishiga kiritilishiga o'z roziligini bildirdi.

Markaz tomonidan milliy respublikalar va viloyatlar tuzishga ko'rsatma berilishi hamda uning siyosiy jihatdan asoslanishi. 1924-yil 12-iyunda *I.V.Stalinning* taklifi bilan RKP (b) MK Siyosiy byurosining «O'rta Osiyo respublikalarini milliy-hududiy chegaralash to'g'risida» maxsus qarori qabul qilingan. Bu qaror bilan mazkur jarayon o'zining so'nggi bosqichiga kirdi. 15-iyulda RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi yangi tashkil etiladigan milliy respublikalar va oblastlarning muvaqqat byurosini tashkil etdi. O'zbeklar byurosi tarkibiga *Fayzulla Xo'jayev*, *Rustam Islomov*, *Akmal Ikromov*, *Qori Yo'ldosh Po'latov*, *Muxtorjon Saidjonov*, *Kalugin a'zo* sifatida, *Inoyatov* nomzod sifatida kiritildi. Shuningdek, RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi tashkil etgan Hudu-

komissiyada, uning milliy kichik komissiyalarida janjalli masalalarni hal etish uchun tuzilgan maxsus komissiyalar ham faoliyat ko'rsatgan. Hududiy komissiya tarkibiga *F.Xo'jayev, A.Rahimboyev, S.Xo'janov, Q.Otaboyev, I.Kimov, N.Aytoqov, Y.Abdurahmonov, I.Aydarbekov, I.Vareykis, D.Manjara, I.Mejlauk, X.Saxat-Muratov* va boshqa siyosiy arboblardan iborat edi.

Milliy respublikalar tuzish zarurligi g'oyasining tashabbuskorlari o'z fikrlarini Turkistondagi tub xalqlar hayotida tengsizlik mavjudligi va milliy mojarolar kuchayib borayotgani bilan asosladilar. Ular bu mojarolardan qutulish yo'li sifatida turkmanlar, qirg'izlar va boshqalarning milliy davlatini (aslida, milliy respublikasini) tuzish deb e'lon qildilar, amalda esa bu chora-tadbirlar mintaqada yashovchi xalqlarni bir-biridan ajratib qo'yishdan boshqa narsa emas edi.

Hududlarni qaytadan belgilash va chegaralash tarafdorlari til tafovutlari, milliy tafovutlarga diqqatni ko'proq qaratib, xo'jalikka oid iqtisodiy omillarni, mavjud suv resurslari va sug'orish tizimlarining umumiy ekanligini kamroq hisobga oldilar.

Xullas, siyosiy jihatlarga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, Turkiston ASSR siyosiy rahbariyati orasidagi yevropaliklar bilan tub xalqlar vakillari o'rtasidagi ixtiloflar, ayrim qozoq va tojik kommunistlari hamda boshqalarning guruhbozlik ko'rinishlari mexanik tarzda Turkiston xalqlari o'rtasidagi munosabatlarga ko'chirildi. RKP (b) MK Bosh kotibi I.V.Stalin, RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi raisi Y.Rudzutak va boshqalar O'rta Osiyoda milliy mojarolar mavjudligini ta'kidlashdan charchashmadi. Xullas, milliy masala Markaz tomonidan sun'iy ravishda bo'rttirib yuborildi va bu holat yangi tashkil qilinadigan milliy respublikalar va viloyatlar hududini tubdan qayta belgilash uchun hal qiluvchi asosiy dalil sifatida ilgari surildi.

1924-yil kuzida O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish va uning yakunlari. 1924-yil 16-sentyabrda bo'lgan Turkiston ASSR MKning favqulodda sessiyasida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Xuddi shunday mazmundagi qarorlar 20-sentyabrda Butunbuxoro xalq vakillarining V qurultoyida va 29-oktyabrda Butunxorazm xalq vakillarining V qurultoyida ham qabul qilindi. 20-sentyabr kuni BXSr hukumati raisi Fayzulla Xo'jayev Butunbuxoro xalq vakillarining V qurultoyida «O'rta Osiyoning milliy davlat chegaralanishi to'g'risida» ma'ruza qildi.

Mazkur qarorlarda o'zbek va turkman xalqlariga O'zbekiston SSR va Turkmaniston SSR tuzish huquqi, Turkiston ASSRning qirg'iz (aslida, qozoq) viloyatlarini 1920-yili tashkil qilingan Qirg'iziston ASSR (aslida, Qozog'iston ASSR) bilan birlashtirish maqsadida qirg'iz (aslida, qozoq) xalqiga Turkiston ASSRdan chiqish huquqi, qoraqirg'iz (aslida, qirg'iz) xalqiga Turkiston

ASSRdan chiqish huquqi va Qoraqirg'iz (aslida, qirg'iz) avtonom viloyatini tashkil etish huquqi, tojik xalqiga ham Turkiston ASSRdan chiqib, Tojikiston avtonom viloyatini tashkil etish huquqi berilishi kerakligi ta'kidlandi.

RSFSR (Butunrossiya) Markaziy Ijroiya Komitetining 1924-yil 14-oktyabrda bo'lgan II sessiyasida Turkiston ASSR MIKning milliy-hududiy chegaralanishi to'g'risidagi qarori ayrim tuzatishlar bilan qabul qilindi. Sessiya qarori bilan O'rta Osiyodagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rnida O'zbekiston SSR (O'zSSR) va Turkmaniston SSR, shuningdek, Tojikiston ASSR (O'zSSR tarkibida), Qoraqalpog' va Qoraqirg'iz (aslida, Qirg'iz) avtonom viloyatlari tuzilishi kerak edi.

Nihoyat, 1924-yil 27-oktyabrda Moskvada bo'lgan Butunittifoq (SSSR) Markaziy Ijroiya Qo'mitasining III sessiyasida Turkiston ASSR MIK favqulodda sessiyasi, Butunbuxoro va Butunxorazm xalq vakillarining V qurultoylari qarorlari asosida O'rta Osiyoda milliy respublikalar tuzish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi. Sessiyada BSSR Nozirlar Sho'rosining raisi Fayzulla Xo'jayev O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi to'g'risida nutq so'zladi. 1924-yil sentyabr – oktyabr oylarida O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish O'rta Osiyo respublikalari, RSFSR va SSSRning oliy organlari tomonidan qonuniy kuchga kirdi.

O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'mida *oltita* milliy davlat birlashmalari tashkil etildi: *O'zbekiston SSR; Turkmaniston SSR; O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR (1929-yilgacha)*, RSFSR tarkibida *Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) muxtor viloyati*; RSFSR tarkibida *Qozog'iston ASSR*; Qozog'iston ASSR tarkibida *Qoraqalpog' muxtor viloyati*. Keyinchalik Qoraqalpog'iston ASSR 1936-yildan O'zSSR tarkibiga kirgan.

Bu davrda Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarida amaliy ish boshlab yuborildi. Komissiyalar va kichik komissiyalar bo'lg'usi tuzilmalarning hudud va chegaralari to'g'risidagi masalani ishlab chiqdi. Boshqaruv apparatlari tuzib rejalar, iqtisodiyot, byudjet, yer-suv muammolari, maorif va sog'liqni saqlash sohaslarini tashkil qilish masalalari va boshqalar hal qilindi. Siyosiy tushuntirish ishlari olib borildi. Materiallar matbuotda e'lon qilinib, miting va yig'ilishlar o'tkazildi. Partiya va sovet organlarining topshirig'i bilan O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishini ma'qullab qarorlar qabul qilindi.

Milliy-hududiy chegaralanish jarayonida ko'plab siyosiy xatolarga yo'l qo'yildi. Xususan, o'zbek xalqining manfaatlariga jiddiy zarar yetkazildi. Azaldan o'zbeklar yashab kelayotgan hududlarning katta qismi Markaz buyrug'i bilan qo'shni ittifoqdosh va avtonom respublikalar hamda viloyatlarga berildi.

O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komiteti (Markaziy revkom) faoliyati. 1924-yil 31-oktyabrda taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev raisligida

O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komiteti (Markaziy revkom) tashkil topildi. Uning tarkibiga *Porso Xo'jayev, Rustam Islomov, Abdulla Rahimboyev, Davlat Rizayev, Sulton Qori, Vladimir Ivanov, Inomjon Xidiraliyev, Muxtorjon Saidjonov, Qori Yo'ldosh Po'latov* va boshqalar kiritildi.

1924-yil 18-noyabrda Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSR MIKlari maxsus qo'shma qaror qabul qildi va shu qarorga binoan o'z vakolatlarini O'zbekiston SSR Sovetlarining ta'sis qurultoyiga qadar ish ko'ruvchi O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komitetiga topshirdi. Bu komitet O'zbekiston SSR tuzilishini boshqarib bordi.

27-BOB. SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI (1925 - 1939-yillar)

27.1. O'zbekiston SSRning tashkil topishi

O'zbekiston SSRning tuzilishi, uning hududi va aholisi. 1925-yil 13-fevralda *Buxoroda* maxsus qurilgan Xalq uyida Butuno'zbek (O'zbekiston SSR) Sovetlarining I ta'sis qurultoyi ochildi. Qurultoy faoliyatida Moskvadan maxsus kelgan Butunittifoq (SSSR) Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi *Mixail Kalinin* qatnashdi va nutq so'zladi. Qurultoy qatnashchilari tomonidan 17-fevralda «*O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risida Deklaratsiya*» qabul qilindi. Deklaratsiyada yangi tashkil topgan O'zbekiston SSR tarkibiga *Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Zarafshon* (Buxoro), *Surxondaryo, Xorazm* viloyatlari va *Tojikiston ASSR* kirganligi alohida ta'kidlandi. Qurultoyda respublikaning oliy organlari: O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (O'zSSR MIK) va O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti (O'zSSR XKS) tuzilgan. Taniqli davlat arbobi *Fayzulla Xo'jayev* O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi, «Qo'shchi» uyushmasi faoli *Yo'ldosh Oxunboboyev* O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi lavozimlariga saylanishdi.

Bu paytda O'zbekiston SSR hududi *312 394 km²*, aholisi *3 963 285 kishi* bo'lgan (unga *Tojikiston ASSR* va *Qoraqalpog'iston* avtonom viloyatining hududi va aholisi kirmaydi). 1924-yil oxirida O'rta Osiyo respublikalarida hammasi bo'lib *8 131 062 kishi* yashagan bo'lib, ularning qariyb yarmisi O'zbekistonda istiqomat qilgan. Turkiston ASSRdan *9 ta* uyezd, *133 tuman* va *7 qishloq okrugi*; Buxoro respublikasining *9 ta* viloyati; Xorazm respublikasining *23 ta* tumani. Keyinchalik bu miqdor doimiy ravishda o'zgarib turgan.

Qurultoyda respublikaning oliy organlari: O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (O'zSSR MIQ) va O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Boshqarmasi (O'zSSR XKS) tuzilgan.

O'zbekiston SSR tashkil topgan paytda qisqa muddat (1925-yil 12-yanvar - 1925-yil 12-aprel) davomida *Buxoro* shahri poytaxt bo'ldi. So'ngra 1925-yil 12-aprel - 1930-yil sentyabrgacha *Samarqand* shahri O'zbekiston SSR poytaxti sifatida xizmat ko'rsatgan. Bu paytda Toshkentda Markazning yangi tuzilgan O'rta Osiyo respublikalarini nazorat qilishga mo'ljallangan turli tashkilotlari (VKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi, Turkiston fronti, O'rta Osiyo harbiy okrugi va b.) joylashtirilgan edi. Samarqand respublikaning markazida joylashgan bo'lib, bu holat yangi tashkil qilingan O'zbekiston SSR hududining barcha qismlarini amalda bir butun qilib birlashtirishga hamda sovet tashkilotlari ishini jonlantirishga yordam berdi. Mahalliy hokimiyat organlari mustahkamlanib, ularning markaziy hukumat muassasalari bilan aloqalarini kuchayganidan so'ng O'zbekiston poytaxti 1930-yil 20-sentyabrda respublikaning eng muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi bo'lgan *Toshkent* shahriga ko'chirildi. O'zbekiston SSR hukumatining raisi Fayzulla Xo'jayev bir kechada poytaxtni Samarqanddan Toshkentga ko'chirib keltirgan edi.

O'zbekiston SSRda 1925-yil 29-yanvarda ilk bor ma'muriy-hududiy bo'linish o'tkazildi. Dastlabki 7 viloyat (*Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm*), alohida *Konimex* tumani tashkil topgan. Bu paytda O'zSSR tarkibida 23 ta uyezd va 241 ta volost bo'lgan.

1926-yil 29-sentyabrda O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasi V sessiyasining rayonlashtirish to'g'risida qarori qabul qilindi. Unga muvofiq O'zbekiston SSRda mavjud bo'lgan 7 ta viloyat, 23 ta uyezd, 241 ta volost va 1163 ta qishloq jamoasi o'rniga yangi ma'muriy bo'linish o'tkazilib, 1 ta okrug (*Xorazm, Buxoro, O'rta Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Xo'jan*), 6 ta Qo'qon, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo), alohida qozoq-qoraqalpog'iston Konimex tumani, 87 ta tuman va 1720 ta qishloq sho'rosi tuzildi.

O'zbekiston Kommunistik partiyasining tashkil topishi. O'zSSR tuzilish boshlanish arafasida, 1925-yil 6 - 12-fevralda eski Buxoro shahrida O'zbekiston Kommunistik partiyasining I ta'sis syezdi ham bo'lib o'tdi. Syezd ishida SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi *M.I.Kalinin* qatnashdi va ma'ruza qildi.

Syezdda O'zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi tashkiliy jihatdan rasmiylashtirildi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti mas'ul sekretarlari qilib *Vladimir Ivanov* va *Akmal Ikromov* saylandi. O'zbekiston Kompartiyasi, aslida, Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi (KPSS)ning O'zbekiston SSRdagi filiali hisoblangan. Sovet hokimiyati yillarida respublikaning siyosiy hayotida O'zbekiston Kommunistik partiyasi yetakchi rol o'ynagan.

O'zbek xalqi tarixida XX asrda yuz bergan ko'plab fojiali voqealar kommunistik partiya faoliyati bilan bog'liqdir. O'zbekiston partiya tashkiloti respublika va o'zbek xalqi manfaatlarini hisobga olmasdan Moskvada ishlab chiqilgan qararlarni bajarib keldi.

O'zbekiston SSR – Sovet Ittifoqi tarkibidagi milliy ittifoqdosh respublika.
O'zbekiston SSR Butunittifoq Sovetlarining III syezdida 1925-yil 13-may kuni SSSR tarkibiga qabul qilindi. SSSR 1922-yil 30-dekabrda 4 ta ittifoqdosh sovet respublikasi (RSFSR, Ukraina, Belorusiya, ZSFSR) asosida tashkil topgan edi. 1927-yil 30-martda O'zSSR Sovetlarining II syezdida O'zbekiston sovetlarining birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

O'zbekiston SSR tashkil qilinganidan so'ng respublika davlat boshqaruvi organlari ittifoq organlari tartibida va ulardan andoza olingan holda tuzilgan. Bu ittifoqdosh respublikalarni Markazdan turib boshqarishning eng oson va oddiy, shu bilan birga, mustahkam shakli edi.

Butun ittifoqda bo'lgani singari, O'zbekistonda ham mehnatkashlarning eng ommaviy tashkiloti – kasaba uyushmalari (profsoyuzlar) ham partiya komitetlariga to'la-to'kis qaram bo'lib qoldi. 1925-yil 21-martda bo'lgan O'zbekiston kasaba uyushmalari I ta'sis syezdida unga asos solindi. O'zbekiston kasaba uyushmalari respublika soveti (Uzsoyprof) Butunittifoq Kasaba uyushmalari Markaziy Soveti (VSSPS) rahbarligida ish olib borgan.

Sovet hokimiyati yosh avlodni kommunistik ruhda tarbiyalashga munozam e'tibor qaratgan. Bu ishlar bilan Butunittifoq leninchi kommunistik yoshlar soyuzi (VLKSM)ning O'zbekistondagi organi – O'zbekiston leninchi kommunistik yoshlar soyuzi (O'zLKSM) shug'ullangan. O'zbekiston komso-moliga Samarqand shahrida 1925-yil aprelda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida asos solindi.

O'zbekistondagi dehqonlarni g'oyaviy jihatdan birlashtirib turgan tashkilotlardan biri «Qo'shchi» ittifoqi bo'lgan. U 1920 – 1933-yillarda faoliyat ko'rsatgan. 1925-yili 200 000 kishini o'ziga birlashtirgan bu ittifoq ham asta-sekin bolsheviklarning qishloqdagi zo'ravonlik siyosati asosiy tayanchiga aylantirilgan.

O'zbekiston SSRda 1925-yil 29-yanvarda ilk bor ma'muriy-hududiy bo'linish o'tkazilib, 7 viloyat (Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm) va alohida Konimex tumani tashkil etildi. 1926-yil 29-sentyabrda 10 ta okrug (Xorazm, Buxoro, O'rta Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Xo'jand, Qo'qon, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo) va alohida Konimex tumani tuzildi.

O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSRning tashkil topishi. 1926-yil 1 – 12-dekabrda Dushanbeda bo'lib o'tgan Tojikiston ASSR Sovetlarining I ta'sis syezdida O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Res-

publikasi (Tojikiston ASSR) tuzilganligi haqida deklaratsiya qabul qilingan. Bu paytda Tojikiston ASSR hududi *135 620 km²*, aholisi *739 503 kishi* bo'lgan.

1929-yil 16-oktyabrda Tojikiston ASSR o'rniga Tojikiston SSR tashkil topdi va u O'zbekiston SSR tarkibidan chiqdi. Markazning buyrug'i bilan o'zbeklarning azaliy yurti bo'lgan O'zbekiston SSRning Xo'jand okrugi Tojikiston SSRga berildi.

Qoraqalpog' avtonom viloyatining tuzilishi va Qoraqalpog'iston ASSRning O'zbekiston SSR tarkibiga kiritilishi. 1925-yil 12 – 19-fevralda *To'rtko'lda* dehqon, batrak va qizil askar deputatlari Qoraqalpog' avtonom viloyati Sovetlarining I ta'sis syezdi bo'lib o'tdi. Syezdda Qoraqalpog' avtonom viloyati tuzilganligi va uning Qozog'iston ASSR tarkibiga kirishi qonun yo'li bilan mustahkamlandi.

Qoraqalpog'iston 1925 – 1932-yillarda *Qozog'iston*, 1932 – 1936-yillarda *RSFSR* tarkibida bo'ldi. 1936-yil 5-dekabrda Qoraqalpog'iston ASSR hududi O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Bugungi kunda qoraqalpog' xalqi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasida yashab, bunyodkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqda.

27.2. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish siyosati hamda quloqlarning surgun qilinishi

O'zbekistonda yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilganidan so'ng 1925 – 1929-yillarda yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi amalga oshirildi. Islohotning ikkinchi bosqichi, birinchisidan farqli o'laroq, katta yer egaligini (rasmiy hujjatlarda «quloqlar» – «mushtumzo'rlar» deb yuritilgan) butunlay cheklash va ularni sinf sifatida tugatish masalasini qo'ydi. Agrar inqilobning strategiya va taktikasi O'zbekiston Kompartiyasining II syezdi (1925-yil noyabr)da tasdiqlandi. Bu bosqich O'zbekiston SSR MIKning 1925-yil 2-dekabrda «Suv va suvni natsionalizatsiya qilish to'g'risida» va «Yer-suv islohoti to'g'risida»gi dekretlari bilan boshlandi.

Bu islohot O'zbekistonda joylardagi shart-sharoit va tayyorgarlik darajasiga qarab *uch bosqichda* o'tkazildi.

Bosqichi	Birinchi bosqich	Ikkinchi bosqich	Uchinchi bosqich
Hududi	Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlari	Zarafshon viloyati (Buxoro va O'rta Zarafshon okruglari)	Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglari
Davri	1925 – 1926-yillar	1927-yil	1928 – 1929-yillar

Yer-suv islohotini o'tkazish to'g'risidagi dekretga asosan Farg'ona viloyatida 40 desyatina, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 50 desyatina va undan ortiq sug'oriladigan yeri bor katta yer egalari xojaliklari butunlay tugatilishi, ularning yerlari davlat yer fondiga o'tkazilishi va dehqonlarga bo'lib berilishi nazarda tutilgan edi. Yer bilan birgalikda barcha ishchi hayvonlari (ho'kiz, ot va b.), dehqonchilik asbob-uskunalari ham musodara qilindi.

Chorikor, qarol, yetim kabi kambag'al dehqon tabaqalari asosan boy xojaliklarning yerlarini ijaraga olib, unda ishlagan va tirikchiligini o'tkazgan. «Quloq» xojaliklari, odatda, yerga o'zlari ishlov bergan va ortiqcha yerlarini ijarachilarga topshirgan.

O'zbekistonda boy xojaliklari quyidagi ikki toifaga bo'lingan: 1) 40 – 50 desyatina va undan ortiq sug'oriladigan yeri bor boy xojaliklar; 2) 10 – 40 desyatina gacha yeri bor o'ziga to'q dehqon xojaliklari. Keyinchalik o'ziga to'q dehqon xojaliklari «quloqlar» deb nomlandi.

1925 – 1929-yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasida barcha viloyatlarda 5000 ga yaqin boy xojaliklar tugatildi, 23 000 dan ortiq o'ziga to'q xojaliklarning «ortiqcha» yerlari tortib olindi. Har bir boy va o'ziga to'q xojalik uchun 7 – 10 desyatina gacha bo'lgan yer uning o'ziga qoldirilishi mumkin edi. Biroq o'ziga to'q dehqon xojaliklari haqiqiy dehqonlar bo'lib, ular yerdan samarali foydalanishgan va ishlab chiqarishni kengaytirishga harakat qilishgan. Ular ishbilarmon va uddaburon kishilar bo'lgan.

Kollektivlashtirishning majburiy sur'atda amalga oshirilishi hamda kolxoz va sovxozlarning tashkil qilinishi. Yangi iqtisodiy siyosat tufayli o'z xojaligini tiklab olgan xojaliklarning quloq qilinishi natijasida 1929-yili sovet jamiyatida bozor munosabatlari muhiti barham topdi. 1930-yil 17-fevralda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining «Kollektivlashtirish va quloq xojaliklarini tugatish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. O'zbekistonda 1930-yili yalpi kollektivlashtiriladigan 19 ta tuman Markaz tomonidan belgilab berildi. Mahalliy rahbarlar son orqasidan quvib qonunni buzishgacha bordilar. Kollektivlashtirish mutasaddilari dehqonlarning majlislarida kolxozga kirmaganlar suvdan mahrum etiladi, sanoat mollari bilan ta'minlanmaydi, ularga katta soliq solinadi hamda yashash joyidan surgun qilinadi deb dag'dag'a qilishdi. Natijada ko'pchilik tumanlarda kollektivlashtirish bir necha hafta ichida amalga oshirildi. O'zbekistonda dastlabki kolxozlar (jamoat xojaliklari) va sovxozlar (davlat xojaliklari) tashkil qilindi.

1931-yilning bahoridan boshlab O'zbekistonda yalpi jamoalashtiriladigan tumanlar qaytadan tuzildi. O'zbekiston qishloq xojaligini kollektivlashtirish rasman 1932-yili tugallandi. Shu vaqtga kelib respublikadagi dehqon xojaliklarining 75 foizi umumiy lashtirilgan sektorga, ya'ni kolxoz

va sovxozlarga birlashdi. 1932-yili respublikada 60 dan ziyod sovxoz bor edi. Yakka dehqon xo'jaliklarining bir qismi kolxozlardan tashqarida qoldi, lekin ularga iqtisodiy jihatdan tazyiq o'tkazish yanada kuchaydi. Bunday xo'jaliklarga solinadigan qishloq xo'jalik soliqlari oshirildi, davlatga majburan topshiriladigan mahsulot hajmi ham kolxozlarga nisbatan 50 foizga ko'paytirildi. 1939-yilga kelib O'zbekistonda yakka dehqon xo'jaliklariga butkul barham berildi.

O'zbek qishlog'i fojiasi. O'zbek qishlog'i bu paytda ulkan fojiani boshdan kechirdi. Ko'pgina odamlar o'z xo'jaliklarini qarovsiz tashlab qochib ketdilar, chorva mollarini so'ydilar va sotib yubordilar. Mollarning juda ko'plab so'yilishi jiddiy muammo bo'lib qoldi. Qoramollar miqdori 1930-yili 60 000 boshdan ziyodga kamayib ketdi.

Azaldan tuproqqa mehr qo'ygan, dehqonchilikning barcha sinoatlarini puxta o'zlashtirgan o'zbek dehqonlari sovet hokimiyati tomonidan ayovsiz ravishda qatag'on qilingan. Ko'p holatlarda bobodehqon va uning kattakon xonadoni taqdir izmiga tashlab qo'yilgan. Xonadon boshliqlari surgun qilingan yoki qamoqqa jo'natilgan. Yuz minglab o'zbeklar bu paytda xorijga jo'nab ketishga majbur bo'ldilar.

Bu paytda qishloqlarda uyma-uy yurib g'allani tortib olish oddiy holga aylangan edi. «Osmon uzoq, yer qattiq» degan o'zbek xalq maqoli, ehtimol, shu yillarda to'qilgan bo'lsa kerak. *Shahrisabz* tumani g'alla tayyorlash vakili *Jalilov* bu kompaniyaning murosasizligi bois uni: «G'alla tayyorlash urush degandek gap. G'alla tayyorlovchilar otishi, qamashi va boshqa ishlar qilishi mumkin. Ular hukmbardorlik qiladi», – deb ta'riflaydi.

Dehqonlarga quyidagicha dag'dag'a qilingan: «Agar g'allangiz bo'lmasa, xotinlaringizni soting, aks holda, 5 yildan qamoqda o'tirib chiqasiz».

O'zbekiston Kompartiyasi MK sekretari *Kirpanov* tomonidan «mutlaqo maxfiy» grifi ostida 1930-yili tayyorlangan ma'lumotnomada keltirilishicha, g'alla yig'ishda o'ta kuchli ma'muriyatchilikka yo'l qo'yilgan. Qishloqlarda tayyorlov idorasining vakillari uyma-uy yurib kambag'al dehqonlarning oxirgi misqol g'allasigacha, hatto 20 funt zig'irigacha tortib olganlar. Urug'lik g'allaga tegmaslik haqidagi dekret bo'lishiga qaramay, dehqonlar qismati taqdir hukmiga tashlab qo'yilgan edi. Hattoki g'alla topshirish rejasini bajargan dehqonlar ham bir boshdan tintilib, ularning g'allasi tortib olingan.

O'zbekistonda quloqlashtirish siyosati hamda uning oqibatlari. Mustabid sovet rejimi 1929 – 1935-yillarda badavlat va o'rtahol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosatini olib borgan. Quloq xo'jaliklarini tugatish kampaniyasi O'zbekistonda 1930-yil fevraldan boshlab avj oldi.

VKP (b) MK Siyosiy byurosining 1930-yil 26-yanvardagi «Yoppasiga jamoalashtirish rayonlarida quloq xo'jaliklarini tugatish tadbirlari to'g'risida»gi qarori va VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining «Quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq tadbirlar to'g'risida»gi ko'rsatmalari asosida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti 1930-yil 17-fevralda «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qilgan.

O'zbekistonda quloqlar sifatida ro'yxatga olingan o'ziga to'q xo'jaliklarning mol-mulki to'liq musodara qilinib, ularning oilalari o'zga yurtlar (*Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozog'iston, Uzoq Sharq* va b.)ga surgun qilingan. Shuningdek, respublikaning o'zida quloqlar uchun maxsus konsentration lagerlar va ko'chirib keltirilganlarning 17 ta majburiy mehnat posyolkalari tashkil qilindi. Bu posyolkalar 1931-yildan *Qo'qon, Chust-Pop, Oqdaryo, Ikromov, G'ijduvon, Vobkent, Bauman, Denov, Sariosiyo, Quva, Yangiyo'l* tumanlarida tuzilgan. Masalan, Bauman (hozirgi Shofirkon) tumanidagi *Jilvon* va *Ko'li Odina* qishloq sovetlari hududida ana shunday 2 ta «quloqlar» posyolkasi barpo qilingan. Sovet hokimiyatiga qarshilik qilgan quloqlar esa qamoqqa olingan va otib tashlangan.

Dehqonlarning noroziligi kuchayib, Farg'ona va Zarafshon vodiylari, boshqa hududlarda ommaviy norozilik namoyishlari, sovet tuzumiga qarshi isyonlar va qurolli chiqishlar yuz berdi. Ba'zi isyonlar qurolli qo'zg'olon darajasiga ko'tarilgan. Faqat *Qashqadaryo* okrugida 1930-yil boshlarida dehqonlarning 14 ta norozilik chiqishlari yuz berib, ularda 3700 kishi ishtirok etgan. 1930-yil mart oyida O'zSSRda 240 ta, SSSRda 2000 dan ortiq qurolli chiqishlar qayd etilgan.

Quloqlarga qarshi kurash O'zSSRda kun sayin kengayib borgan. 1931-yil avgustda 3828 ta quloq xo'jaliklari tugatilgan, 3871 xo'jalik «quloq oilasi» sifatida Ukraina, Sibir va Shimoliy Kavkazga surgun qilingan. Rasmiy ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, 1933-yili O'zbekistonda surgun qilingan quloq xo'jaliklari soni 5500 tagacha yetgan.

1942-yili SSSR hududida mehnat surgunida bo'lgan 1152 o'zbekistonlik «quloqlar» harakatdagi armiya safiga chaqirilib, frontga jo'natilgan.

Quloqlashtirish siyosati 1933-yili asosan amalga oshirib bo'lingan. Biroq 1934 – 1937-yillarda ham ko'plab badavlat dehqon xo'jaliklari quloq qilingan. Sovet hokimiyati yillarida quloqlikka tortilib, surgun qilinganlardan tirik qolganlarining erkin fuqarolik maqomini olib, o'z yurtiga qaytish jarayoni og'ir kechib, u taxmiman 20 yildan ko'proq vaqtni, ya'ni 1934 – 1956-yillarni o'z ichiga oladi.

27.3. O'zbekistonda industrilashtirish siyosatining amalga oshirilishi va kadrlar masalasi

Mamlakatda industrilashtirish siyosatiga o'tilishi va besh yillik rejalarining ishlab chiqilishi. Mamlakatda qishloq xo'jaligini zo'ravonlik bilan kollektivlashtirish jarayonida 1928-yili sanoatni industrilashtirish ham amalga oshirildi. Aslini olganda, mamlakatning markaziy organlari tomonidan 1925-yil dekabrda bo'lgan VKP (b) XIV syezdida SSSRda iqtisodiyotni rivojlantirishning hal qiluvchi vositasi sifatida sotsialistik industrilashtirishga o'tish ommaviy tarzda e'ton qilingan edi. Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotli zamonaviy sanoatni vujudga keltirishga bevosita bog'liq edi. Bu maqsadga tez muddatda erishishning aniq yo'llarini ishlab chiqish talab etilardi.

O'zbekiston uchun sanoat qurilishini keng sur'atda jadallashtirish nihoyatda zarur edi. Chunki respublika iqtisodiyoti bu davrda ham agrar xususiyatga egaligicha qolayotgan edi. 1927-yili O'zSSR xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining salmog'i 62,6%, sanoatning salmog'i 37,4% ni tashkil etar, shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining 90 foizi qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlashga asoslangan edi. Iqtisodiyoti xomashyo yo'nalishida bo'lgani sababli respublika sanoati faqat bir tomonlama ixtisoslashtirilayotgan edi. Buning ustiga, industrilashtirish siyosati qishloq hisobidan amalga oshirildi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining xarid narxleri pasaytirildi. Oqibatda dehqonlar qashshoqlashib, mamlakatda oziq-ovqat muammosi keskinlashdi.

1928-yil kuzigacha mamlakat xalq xo'jaligi bir yillik rejalar asosida boshqarib kelindi. O'sha yildan boshlab xo'jalikni boshqarishning besh yillik rejaları joriy bo'ldi. Birinchi besh yillik rejasi 1928-yil oktyabrda boshlanib, 1932-yil dekabrda muddatidan 9 oy oldin yakunlandi.

O'zbekistonda yangi sanoat korxonalarini qurilishi. Birinchi hesh yillik davrida (1928-yil oktyabr – 1932-yil dekabr) O'zbekistonda 289 ta yangi sanoat korxonasi qurildi va ishga tushirildi, 79 ta korxonaga qayta tashkil etildi. Yengil sanoatning ko'pchilik, poyabzal ishlab chiqarish, tikuvchilik sohalari va ip-gazlama ishlab chiqarish sur'atlari oshib bordi. Industrilashtirish O'zbekistonda dastlab sekinlik bilan amalga oshirildi. Ana shu davrda O'rta Osiyo respublikalarida paxtachilik va mashinasozlik sanoatining to'ng'ichi bo'lgan Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodi barpo etildi. Toshkent to'qimachilik kombinati va Chirchiq elektr kimyo kombinati qurilishi tez sur'atlar bilan olib borildi. Elektr stansiyalari quvvati 482 mln kilovatga yetdi. XX asr 30-yillarida Chirchiq-Bo'zsuv GESlar kaskadi barpo etildi.

O'zbekistonda sanoat korxonalarining texnik darajasi haddan tashqari past, muhandislar, texniklar va zamonaviy texnikani biladigan malakali ishchilar yetishmas edi. Biroq sanoat korxonalariga malakali xodimlar va taj-

ribali ishchilar RSFSRning markaziy shaharlaridan olib kelinadigan bo'ldi. Markazning bu usuli O'zbekistonning butun sovet davri tarixida muttasil ravishda davom ettirildi.

Mahalliy millatlar, eng avvalo, o'zbeklardan malakali mutaxassislar tayyorlash o'rniga O'zbekistonga asosan yevropalik aholi ko'chirib keltirildi. Ko'pchiligi slavyan aholiga mansub bo'lgan bunday kishilar poytaxt Toshkent, yangi qurilayotgan shaharlar va viloyat markazlariga joylashtirilib, ular yaxshi maoshli ish, navbatsiz kvartira bilan tahninlandilar. Universitet va institutlarga imtiyozli asoslar bilan o'qishga qabul qilindilar. Qishloqlardan kelgan o'zbek yigit-qizlari esa shaharda muqim joylasha olmay, turli qiyinchiliklar va jiddiy yetishmovchiliklar natijasida asosan «qora ishlar» va maishiy sohada xizmat qilishga majbur bo'lishdi.

Mahalliyashtirish yoki o'zbeklashtirish siyosati. Darhaqiqat, bu davrda eng muhim muammolardan biri kadrlar masalasi edi. Chunki davlat hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlarida milliy kadrlar juda oz bo'lib, ish yuritish ham rus tilida olib borilar edi. Respublika boshqaruv mahkamalarida mas'ul lavozimlarni ruslar egallab olgan edi. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi *Fayzulla Xo'jayev* tub xalqlardan mahalliy kadrlar tayyorlash va ularni yuqori lavozimlarga ko'tarishda jonbozlik ko'rsatdi. Uning tashabbusi bilan O'zSSR MIK huzurida 1925-yil 3-martda *Bobon Mavlonbekov* raisligida «Davlat apparatini mahalliyashtirish Markaziy komissiyasi» tuzildi.

Akmal Ikromov, Rahim Inog'omov va boshqalar unga a'zo bo'lishdi. Markaziy komissiyaning Samarqand, Zarafshon, Toshkent, Farg'ona va boshqa viloyatlarda ham bo'limlari tashkil qilindi.

Mahalliyashtirish komissiyasi rahbariyati zimmasiga O'zbekistondagi o'quv yurtlari, ilmiy va madaniy-oqartuv (xalqning bilim va ongini oshirish) tashkilotlari, sanoat korxonalarini mahalliyashtirish asosiy rejasini ishlab chiqish yuklatildi.

1925-yil 22 – 30-noyabrda *Samarqand* shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Kommunistik partiyasining II syezdida «Partiya, sovet, xo'jalik, kasaba uyushmalari va kooperativ tashkilotlariga mahalliy aholini jalb qilish» masalasi ko'rib chiqildi. Syezdda davlat, xo'jalik, sovet, jamoat va savdo tashkilotlariga mahalliy millat vakillarini ko'proq jalb qilish, shu yo'l orqali shahar va qishloq mehnatkashlarining mamlakatda sotsializm qurilishida faol ishtirokini ta'minlash masalasi muhokama qilindi. Bundan tashqari, boshqaruv va rahbarlik ishlariga ishchi, dehqon va ziyolilardan mahalliy kadrlar tayyorlash zarurligi uqtirildi.

1927-yil 8-yanvarda O'zbekiston SSR MIK huzuridagi «Davlat apparatini mahalliyashtirish Markaziy komissiyasi»ning nomi «Davlat apparati va sanoatni O'zbeklashtirish Markaziy komissiyasi» deb o'zgartirildi. 6-iyunda

O'zbeklashtirish Markaziy komissiyasining Nizomi kuchga kiritildi. Komissiya o'z faoliyatida o'zbek aholisi ko'proq bo'lgan tumanlardagi barcha davlat, jamoat, kooperativ muassasalari va tashkilotlarida ish yuritishni o'zbek tilida olib borishi shart edi.

O'zbekiston Kommunistik partiyasining 1927-yil 16 – 24-noyabrda bo'lgan III syezdida «Davlat apparatini mahalliyashtirish va yerli millat ishchilarini ishlab chiqarishga jalb qilish to'g'risida»gi masala ko'rildi.

1928-yil 18-fevralda O'zbekiston SSR MIK va XKSning «Davlat apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida»gi qo'shma qarori qabul qilindi. 1929-yil o'zbeklashtirish siyosati bo'yicha tashkilotlararo o'zbeklashtirish komissiyasi faoliyat ko'rsatgan. O'zbeklashtirish Markaziy komissiyasi 1930 – 1931-yillarda o'z faoliyatini davom ettirgan.

1927-yil 16 – 24-noyabrdagi syezdda qabul qilingan qarorda davlat apparatini milliyashtirish va o'zbeklashtirish to'g'risida shunday deyilgan edi: «O'zbeklashtirish tushunchasi, aslini olganda, O'zbekiston Respublikasi terri toriyasidagi davlat apparati va ish yuritishni o'zbeklashtirishni ko'zda tutadi, lekin mayda millatlarga o'z ona tillarida xizmat ko'rsatishni aslo istisno qilmaydi, balki, aksincha, taqozo qiladi. Mayda millatlar ko'pchilik yashagan tumanlarda sud organlari, maktablar o'z ishlarini ularning ona tilida olib borishlari shart. Mayda millatlarni mamlakatni idora qilishga, jamiyat hayotiga jalb qilish kerak. Mayda millatlardan kadrlar tayyorlash masalasiga zo'r e'tibor berish lozim».

1931-yil 11-dekabrda SSSR MIKning «O'zSSR apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilinib, unga ko'ra O'zbekiston davlat apparatini O'zbeklashtirish Markaziy komissiyasi faoliyati to'xtatildi. Markaz tomonidan, boshqa ittifoqdosh respublikalarda bo'lgani singari, O'zbekiston SSRda ham mahalliyashtirish jarayoni to'xtatilib, u «burjua millatchiligi» deb e'lon qilindi.

O'zbeklashtirish siyosatiga jiddiy zarba berilib, ruslashtirish jarayoni o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. O'zbekistonda keyingi yillarda jamiyatda rus tilining mavqeyi oshirildi va u barcha sohalarni o'z ichiga qamrab oldi.

27.4. O'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayoni va muammolar

«Hujum» harakatining o'tkazilishi. O'zbek ayollari va qizlarining hayoti asrlar davomida islom dini shariati ko'rsatmalari asosiga qurilgan edi. Sovet hokimiyati o'rnatilgach, Sharq ayollarini «ozodlik»ka chiqarish, eski turmush tarziga hujum qilish, ayollarning chachvon va paranjisini tashlab yangi zamon qurayotganlar safiga tezroq qo'shilishi kabi muammolar kun tartibiga qo'yildi. Bolsheviklar tomonidan O'rta Osiyo respublikalarida, xususan,

O'zbekistonda bu muammo qisqa muddat davomida shoshilinch hal qilindi, natijada katta yo'qotishlar yuz berdi, ko'plab xotin-qizlar eskilik va xurofot tarafdorlarinng qutqusi bilan o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi. O'zbek ayollarini ozodlikka chiqarish va yangi turmushga jalb qilish, darhaqiqat, kerak edi. Biroq bu ish bolsheviklar va sovet hokimiyati vakillari tanlagan tezkor yo'l bilan emas, balki asta-sekin va bosqichma-bosqich amalga oshirilganida, katta qurbonlar va yo'qotishlar bo'lmas edi.

«Hujum» kampaniyasi 1926-yil sentyabrda O'rta Osiyo xotin-qizlari kengashida e'lon qilinib, uni 1927-yil 8-martdan boshlashga qaror qilindi. 1926-yil dekabrda «Hujum» kampaniyasini o'tkazish uchun O'rta Osiyo respublikalari, xususan, O'zbekistonda maxsus komissiyalar tuzildi.

1927-yil 8-martda ommaviy mitinglar boshlandi. Ularda 100 000 dan ortiq xotin-qizlar paranjilarini gulxanda yoqдилar. Lekin bolsheviklar partiyasining o'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarishni tezlashtirish siyosati yomon oqibatlarga olib keldi. «Hujum»ga qarshi bo'lganlar ayollarga nisbatan zulm o'tkaza boshladilar.

«Hujum» harakati eng faol o'tkazilgan 1927 – 1928-yillarda O'zbekistonda 2500 dan ortiq faol xotin-qizlar, tuman va qishloq sho'rolarining a'zolari, xotin-qizlar klublari va kutubxonalar mudiralari, muallimlar yangi hayot yo'lida o'z jonini qurbon qildi. Afsuski, bu fojialarning oldi olinmadi.

Sovet hukumati «Hujum» kampaniyasini o'tkazishdan quyidagi maqsadlarni ko'zlagan edi: birinchidan, o'zbek xalqining tarixan tarkib topgan milliy axloqiy sharqona an'ana va qadriyatlarini yo'qotish va ma'naviyatimizga zarba berish; ikkinchidan, «xotin-qizlarni ozod qilish» bahonasida sanoat korxonalari, kolxoz va sovxozlarda arzon-garov ishlaydigan qo'shimcha ishchi kuchi sifatida ulardan foydalanish, amalda ularni sho'ro qullariga aylantirish.

Xotin-qizlar mehnatining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. Sovet hokimiyati o'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayonida ularni ishlab chiqarishga jalb qilish tadbirlarini ham amalga oshirdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad xalq xo'jaligi muammolarini hal qilish uchun yangi mehnat resurslari bo'lgan ishchi kuchlarini vujudga keltirish edi.

Xotin-qizlar dastlab *hunarmandlik* kooperatsiyasiga jalb qilindi. Xotin-qizlar klublarida ayollar uchun maxsus xonalar ochilib, ular bunday joylarda do'ppi va choyshablar tikishardi. Keyinchalik hunarmandchilik kooperatsiyasi tarkibida maxsus ayollar artellari tashkil qilindi. 1926-yili O'zbekistonda 16 ta yirik ayollar artellari bo'lib, ularda 814 nafar mahalliy xotin-qizlar mehnat qilardi. Ayollar qilgan mehnatlari evaziga maosh olish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

1930-yili respublika hunarmandchilik kooperatsiyasining 50 dan ortiq at-tellarida 5000 nafardan ko'proq mahalliy ayollar ishlardi. Ularning ko'pchiligi tikuvchilik korxonalarida mehnat qilganlar. Xotin-qizlar yirik sanoat korxona-lariga ham jalb qilina boshlandi. Bu ish, umuman olganda, ijobiy jarayon edi. Lekin ko'p hollarda ma'muriyat puxta o'ylab ko'rmay ayollarni og'ir va-zifalarga qo'ydilar. Ayollarni ishga tayinlashda ularning nozik jins vakilasi – o'jiza ekanligi e'tiborga olinmadi. Bu holat ularning sog'lig'iga jiddiy shikast yetkazardi.

Kolxozlar va sovxozlar tashkil qilinganidan so'ng ayollarni ularga mos bo'lmagan kasb – traktorchilikka o'rgatish avj oldi. Faqat 1939-yili 2500 na-far xotin-qizlar traktorhilar kursida o'qishga majburan jalb qilindi. Kursni tugatgan xotin-qizlarning ko'pchiligi traktorchi bo'lib ishlamasdi.

O'zbek ayollarining yangi jamiyatda tutgan mavqeyi hamda ziddiyatli ji-hatlari. O'zbek ayollarini jamiyatning teng huquqli a'zolariga aylantirishda, erksizlikdan qutqarishda ularni madaniy va ijtimoiy hayotga jalb qilish mu-him ahamiyat kasb etadi. Madaniy-tarbiyaviy ishlarni olib borishda ayollar klublari katta rol o'ynadi. Bu klublarda ayollarga vrachlar turti maslahatlar berishardi, bolalar vrach ko'rigidan o'tishardi. Shuningdek, ko'plab kutub-xonalar, bolalar bog'chalari va yasllilar ochildi. Xotin-qizlarni qiziqtirgan va tashvishga solgan mavzular bo'yicha suhbatlar o'tkazib turildi. 1927-yili *Andijondagi Eski shahar ayollar klubida 134 nafar a'zo bo'lgan.*

Bu davrda o'zbek xotin-qizlari rahbarlik lavozimlarida ham ishlash layo-qatini ko'rsatdilar. 1927-yili respublikadagi tuman ijroiya qo'mitalari a'zolari-ning 20 foizi, okrug ijroiya qo'mitalari a'zolarining 17 foizi ayollar edi. *Jahon Obidova* O'zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi raisining o'rinbosari, *Tojixon Shodiyeva* esa Prezidium a'zosi bo'lgan. Biroq keyinchalik bu taniqli o'zbek ayollari sovet hokimiyati tomonidan qatag'on qilindi.

XX asr 30-yillarida ayollar orasidan mashhur olimalar, shoirlalar, yozuv-chilar, muhandislar, shifokorlar, san'atkorlar, muallimlar yetishib chiqq boshladi. O'sha yillarda *Halima Nosirova, Tamaraxonim, Sora Eshonto'raye-va, Mukarrama Turg'unboyeva* kabi o'zbek qizlarining iste'dodi yarq etib ko'zga tashlandi. Bu holatlarning barchasi o'zbek xotin-qizlarining teng huquqli jamiyat a'zosi bo'lish, madaniyat va bilimga intilishlari samarasi edi. Xullas, sovet davlatining ayollar borasidagi siyosati kommunistik mafkura bilan sug'orilgan holatda shoshma-shosharlik bilan amalga oshirilsa ham, o'zbek ayollari qonida asrlar osha to'planib borgan aql-idrok, shijoat va faol-lik kabi fazilatlar tufayli ko'pgina ijobiy ishlarni amalga oshirdilar.

27.5. O'zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat

Sovet hokimiyatining ta'lim va fan sohasidagi ishlari. Yosh avlodni o'qitish, buning uchun shart-sharoitlar yaratish xalq ommasi, uning vakillari uchun dolzarb bo'lib kelgan.

Ma'rifatparvar adib va jamoat arbobi *Abdulla Avloniy* ta'lim va tarbiya haqida shunday yozgan edi: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».

Bolsheviklar tomonidan O'zbekistonda dastlabki yillarda sovet maktablari va texnikumlar ochishga alohida e'tibor qaratildi. Jadid maktablari yopildi. Eski maktablar va vaqf maktablari ham tugatildi. Turkiston davlat universiteti va O'zbekiston davlat universitetidan keyin respublikada ko'plab institutlar tashkil etildi. Biroq universitet va institutlardagi talabalar o'rtasida o'zbeklar kamchilikni tashkil qilgan. Bu oliy o'quv yurtlarida asosan slavyan tillariga mansub kishilar o'qigan. Ularda dars bergan o'qituvchilar orasida ham mahalliy millat vakillari kamchilik bo'lgan.

Bu davrda O'zbekistonda fan taraqqiyoti sohasida muayyan yutuqlarga erishildi. 1932-yil 14-oktyabrda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumining O'zbekiston ilmiy tekshirish muassasalariga rahbarlik qiluvchi O'zbekiston SSR Fanlar komiteti tuzildi. 1934-yili unga *O'tajon Hoshimov* rais qilib saylandi.

1940-yil 9-yanvarda O'zbekiston SSR Fanlar komiteti SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston SSR filiali (*O'zFAN*)ga aylantirildi.

O'rta Osiyoda oliy ta'limning beshigi Turkiston davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) bir qancha oliy o'quv yurtlariga asos bo'ldi, 1940-yili respublikada 30 ta oliy, 100 ga yaqin o'rta maxsus o'quv yurtlari ishlab turdi.

Xalq maorifi va savodsizlikka qarshi kurash. 1934-yil 10 – 17-yanvarda *Toshkentda* bo'lib o'tgan O'zbekiston Kommunistik partiyasining VI syezdida VKP (b) XVII syezdi tomonidan qo'yilgan vazifalarga asosan ikkinchi besh yillik davrida (1933 – 1937-yillar) respublikaning sotsialistik madaniyatini rivojlantirishdagi asosiy yo'llarni belgilab chiqdi. Shu maqsadda O'zbekiston SSR Sovetlarining 1935-yil 10 – 17-yanvarda *Toshkentda* bo'lib o'tgan V qurultoyi O'zSSR Xalq Komissarlari Sovetiga 8 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan hamma bolalarni majburiy yetti yillik ta'limga tortish hamda respublika shahar va qishloqlarida yangi maktab binolari qurish dasturini ishlab chiqishni taklif qildi.

Xalq maorifi ehtiyojlari uchun juda ko'p mablag'lar ajratildi. Birinchi besh yillik davrida 395,5 mln rubl mablag' ajratilgan bo'lsa, ikkinchi besh yillik uchun 1,16 mlrd rubl mablag' sarflandi. Bu yirik mablag'lar ikkinchi besh

yillik davrida 35 000 o'quvchi sig'adigan 539 ta yangi maktab solishga imkon berdi. Shu bilan birga, kichkina maktablar bir-biriga qo'shilib yiriklashtirildi va to'la kompleks darajasiga yetkazildi.

Ikkinchi besh yillik davrida hamma umumiy ta'lim maktablaridagi o'quvchilarning soni tez sur'atlar bilan o'sib, 931 800 nafarga yetdi, ularning 725 mingga yaqini qishloq maktablarida o'qirdi. Respublika maktablarida o'qish 18 tilda olib borilgan. O'zbek tilida o'qitiladigan maktablarning soni o'n yil ichida 10 marta oshgan.

Bu paytda O'zbekistonda savodsizlik va chalasavodlikni tugatish ishlarini oxiriga yetkazish vazifasi ham turar edi. 1937-yili savodsizlikni tugatish maktablarining soni 413 taga yetdi. Bu maktablarda 28 700 kishi ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qib o'z savodini chiqardi.

Xotin-qizlar o'rtasida savodsizlikni tugatish borasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Ular uchun ko'p joylarda maxsus savod maktablari ochildi. 1937-yili 139 000 nafar xotin-qizlar o'qish va yozishni o'rganib oldilar.

Alifboning o'zgartirilishi. Sovet hokimiyatining dastlabki o'n yilliklarida O'zbekistonda imlo 3 marta o'zgartirildi. Bu holat tub aholini savodsiz qilishga, uning asriy qadriyatlaridan mahrum qilib, sovet madaniyati ruhida tarbiyalashga hamda ruslashtirish siyosatini amalga oshirishga mo'ljallangan edi.

Ma'lumki, islom dini mintaqaga kirib kelgach, asrlar davomida yurtimizda yaratilgan asarlar arab alifbosidagi eski o'zbek tilida yozilgan edi. Ahmad Yassaviy, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur singari mashhur shoirlar 500 – 800 yillar oldin o'zbek tilida, biroq arab imlosida o'z asarlarini yozganlar. Bolshheviklar esa bunday adabiyotdan voz kechib, sovet adabiyotini va proletar madaniyatini yaratishga intildilar.

1921 – 1922-yillarda dastlab arab imlosi isloh qilinib, ancha soddalashtirildi. So'ngra o'zbek yozuvini lotinlashtirish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

1929-yil may oyida Samarqandda o'tgan O'zbekiston adiblari, imlochilari va yetakchi ziyolilari konferensiyasida o'zbek yozuvini arab grafikasidan lotin grafikasiga o'tkazish haqida qaror qabul qilindi. Qaror 10-avgustda O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligi hay'ati tomonidan tasdiqlangach, 1-dekabrda O'zbekistonda arab alifbosidan lotin yozuviga o'tildi.

Biroq tez orada yozuvni lotinlashtirish uchun ishlatilgan katta mablag'lar bekor ketib, kirillitsaga o'tkazish to'g'risida yangi qaror qabul qilindi. 1940-yil 8-mayda bo'lgan O'zbekiston SSR Oliy Soveti III sessiyasida matematik olim Toshmuhammad Qori-Niyozovning ma'ruzasi bo'yicha lotin yozuvidan kirill (rus grafikasi) asosidagi o'zbek yozuviga o'tish to'g'risida qaror qabul qilindi. O'zbekistondan tashqari O'rta Osiyo respublikalari va Ozarbayjon ham rus grafikasiga o'tkazildi.

Sovet hokimiyati lotin grafikasiga o'tish orqali arab tilida yaratilgan islom dinining asosi – Qur'oni karim va hadislar hamda boshqa kitoblar ta'sirini yo'qotishni ko'zlagan bo'lsa, kirillitsaga o'tish asnosida turkiy tilli sovet respublikalarini lotin imlosidan foydalanayotgan Turkiya va boshqa davlatlarning ta'siridan saqlab qolmoqchi, o'zbek xalqi bilan qardosh turk xalqi o'rtasidagi aloqalarni yo'qotmoqchi bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston va sovet Sharqidagi respublikalarni ruslashtirish jarayoni o'zining so'nggi bosqichiga qadam qo'ydi.

Yangi turdagi o'zbek adabiyoti va milliy san'atining taraqqiyoti. Ijtimoiy hayotda shiddatli ziddiyatlar hukm surgan bu murakkab davrda adabiyot va san'at milliylik, insonparvarlik, xalqchilik kabi tamoyillarga sodiqligini saqlab qoldi. Bu davr respublikadagi ijodkorlar uchun turli izlanishlar, dunyoqarash jihatidan bir-biridan farq qiluvchi talaygina yo'nalishlarning qattiq to'qnashuvlar bilan to'lib-toshgan hamda ko'plab talafotlar berilgan va fojia bilan tugagan taqdirlar, shu bilan birga, yangi-yangi iste'dodlar dunyoga kelgan va kurtak yozgan davr bo'ldi.

O'zbek yozuvchi va shoirlaridan *Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Sadriddiy Ayniy, Hamza* va boshqalar o'z asarlari bilan milliy qadriyatlarni saqlash va himoya qilishga urindilar. XX asr 30-yillari boshlariga kelib yozuvchi va adiblarning saflari tobora kengayib bordi. Bu davr adabiyot maydoniga *G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya, Abdulla Qahhor, Usmon Nosir, Mirtemir, Oydin Sobirova, Uyg'un, Komil Yashin, G'ayratiy, Sulton Jo'ra, Amin Umariy* kabi bir qator iste'dodli yosh shoirlar, adiblar va dramaturglar qo'shildilar.

O'zbek milliy dramaturgiyasi va musiqasi, teatr va kino, tasviriy va amaliy san'ati ham xalqimiz ma'naviy madaniyatining hayotbaxsh manbai bo'lib qoldi va unga xizmat qildi. O'zbek san'atkorlarining butun bir avlodi bu davrda shakllandi.

O'zbek milliy musiqasini rivojlantirishda o'zbek kompozitorlaridan *To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Mutavakkil Burhonov* katta mehnat qildilar. Ajoyib rejissyorlar va aktyorlar *Mannon Uyg'ur, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva, Razzoq Hamroyev, Olim Xo'jayev, Shukur Burhonov* va boshqalar tufayli o'zbek teatr san'ati gullab-yashnadi. *Komil Yormatov, Nabi G'aniyev, Rahim Pirmuhammedov* singari kinematografiya arboblari yetishib chiqdi. Raqs san'ati va xonandalikda *Halima Nosirova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Lutfixonim Sarimsoqova, Muhiddin Qori Yoqubov, Komiljon Otaniyozov, Karim Zokirov* va boshqalar yuksak mahoratga erishdilar. O'zbek musiqa va vokal san'atining rivojlanishida 1936-yili *Toshkentda* ochilgan davlat konservatoriyasi muhim rol o'ynadi.

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi qatag'onlik siyosati: uning mohiyati va oqibatlari

O'zbekistonda dastlabki qatag'onlarning boshlanishi. Sovet rejimi o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, uning xususiyatlari tobora oshkora namoyon bo'la boshladi. Bu holat, xususan, milliy respublikalardagi rahbar xodimlarga munosabatda yaqqol namoyon bo'ldi. Qaror topgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va uning rahbar o'zagi hisoblangan Butunittifoq kommunistlar (bolsheviklar) partiyasi VKP (b) bu paytga kelib «sotsializm asoslari»ni qurishga jiddiy kirishdi hamda jamiyatning barcha sohalarida hukmronlik mavqeyini egalladi.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillar boshida O'zbekiston SSR-da o'n sakkizlar guruhi (Abdurahim Hojiboyev, Inomjon Xidiraliyev, Muxtorjon Saidjonov va b.), *inog'omovchilik* (O'zSSR maorif xalq komissari Rahim Inog'omov va b.), *qosimovchilik* (O'zSSR Oliy sudi raisi Sa'dulla Qosimov va b.), *badriddinovchilik* (O'zSSR Oliy sudining prokurori Shamsutdin Badriddinov va b.), «*milliy ittihadchilar*» va «*milliy istiqolchilar*» (Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 87 nafar kishi), «*narkompros*» ishi (O'zSSR Maorif xalq komissari Mannon Ramziy, uning o'rinbosari Botu va b.), «*botir gapchilar*» (Qo'qonda Ashurali Zohiriy boshchiligidagi 19 nafar kishi) va boshqa siyosiy ishlar to'qilishi natijasida o'zbek xalqining ko'plab yetuk farzandlari qatag'on qilindi. Bu davrda kommunistik partiya saflarini «tozalash» kampaniyasi natijasida O'zbekiston Kompartiyasi a'zolarining 25,6 foizi firqadan chiqarildi.

Rahbar xodimlarga shubha bilan qarash, «xalq dushmanlari» va «burjua millatchilari»ni aniqlash va hibsga olish, turli «muxolifat» guruhlarini fosh qilish avjiga chiqdi.

O'zbekistonda mavjud tuzumga muxolifatda turganlar va unga qarshilik bildirganlar ta'qib ostiga olindi. Oqibatda ommaviy qatag'onlar va bedodlikning dastlabki kuchli to'liqini O'zbekiston bo'ylab yuz berdi. Ayni shu paytda «o'n sakkizlar guruhi», «inog'omovchilik», «qosimovchilik», «badriddinovchilik», «milliy ittihadchilar» va «milliy istiqolchilar», «narkompros», «botir gapchilar» ishi kabi siyosiy ishlar to'qib chiqarilgan edi. Sovet rejimi 30-yillardan boshlab o'z xalqiga nisbatan ommaviy terror qo'lladi.

Huquq va maorif tizimida qatag'onlikning avj oldirilishi. Milliy rahbar xodimlarni lavozimlaridan chetlatib, ularni «g'oyaviy» jihatdan tor-mor qilayotgan sovet rejimi XX asr 20-yillarining oxiriga kelib jismoniy jihatdan yo'qotishga kirishdi. Bu jihatdan olganda, O'zbekiston huquq va maorif tizimida o'tkazilgan qatag'onlar, ayniqsa, xarakterlidir. Markazning tazyiqi bilan 1929-yil 17-fevral – 2-martda Samarqandda o'tkazilgan O'zbekiston Kommunistik partiyasining IV syezdidan keyin jazo mexanizmi ishga tushirildi.

O'zbekiston SSR Oliy sudining raisi *Sa'dulla Qosimov* 1929-yil mart oyida lavozimidan bo'shatilib, qamoqqa olindi. S.Qosimov va uning 6 nafar safdoshi ustidan SSSR Oliy sudi sayyor sessiyasi 1930-yil *Samarqand* shahrida sud jarayonini o'tkazdi. Markazdan kelgan jazo organlari (sud raisi *Vasilyev Yujin* va prokuror *R.Katanyan*) ishga ataylab siyosiy tus berishdi. S.Qosimov va uning tarafdorlari «bosmachilar»ni qo'llab-quvvatlashda, «aksilingilobchi millatchi tashkilotlar» a'zolari bilan aloqa bog'laganlikda, islom dinini hi-moya qilishda ayblanib, ularga «qosimovchilik» yorlig'i bosildi. Sovet sudi *S.Qosimov*, *B.Sharipov*, *N.Alimov*, *Spiridinovni* otib o'ldirishga, qolgan 3 nafar kishini 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qildi. Ularning butun mol-mulki musodara qilinib, davlat hisobiga o'tkazildi.

Oradan ko'p o'tmay navbatdagi ish – badriddinovchilik o'ylab topildi. 1932-yil 5-may 15-iyunda *Toshkent* shahrida SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi O'zbekiston SSR Oliy sudining sobiq prokurori *Shamsutdin Badriddinov* va uning 5 nafar safdoshi ustidan sud jarayonini o'tkazdi. Bu gal ham prokuror armani *R.Katanyan* bo'lib, u turkiy xalqlarga nisbatan nafrati bilan tanilgan edi. Sh.Badriddinovga «Milliy Ittihad» tashkiloti a'zolari va «bosmachilar» bilan aloqa bog'lagan, Munavvarqori va Sa'dulla Qosimovning yaqin do'sti va hamfikri bo'lgan degan ayblar qo'yildi. Sh.Badriddinov avval otishga hukm qilinib, so'ngra o'lim hukmi 10 yil qamoq jazosi bilan almashtirildi. Uning 5 nafar safdoshi ham uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi.

Sovet rejimi sud organlaridagi milliy rahbar xodimlarni qatag'on qilish bilan birgalikda jazo qilichini maorif sohasidagi ziyolilarga ham ko'targan edi.

1930-yil avgust oyida *Samarqand* shahrida O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligida bir guruh rahbar xodimlar hibsga olindi. «Narkompros» ishida O'zSSR Maorif xalq komissari *Mannon Ramziy* – *Mannon Abdullayev*, uning o'rinbosari *Botu* – *Mahmud Hodiyev*, shuningdek, *Oltoy* – *Bois Qoriyev*, *Nodir Saidov* va boshqalar bor edi. Ular maorif tizimini «millatchilik og'usi» bilan zaharlaganlikda ayblanib, bu holat «maorif frontida qosimovchilikning namoyon bo'lishi» deb qoralandi. Botu va uning tarafdorlari 10 yillik qamoq jazosiga hukm qilindi. Biroq ular keyinchalik qamoqxonada otib tashlandi.

Munavvarqori va safdoshlarining mahv etilishi. 1929-yil 5-noyabrda *Toshkentda* ma'rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 38 nafar kishi qamoqqa olindi. Oradan ko'p o'tmay qamoqqa olinganlar soni 87 kishiga yetdi. Ularga «Milliy Ittihad» va «Milliy Istiqlol» tashkilotlarining a'zolari degan ayb qo'yildi. Tergov jarayoni keyinchalik *Moskvaga* ko'chirildi. Bu holat sovet rejimining jadidlar «millatchiligi»ni fosh qilishga jon-jahdi bilan kirishganligidan dalolat beradi.

1931-yil 25-aprelda Moskvada bo'lib o'tgan sud majlisida Munavvar boshchiligidagi millatning 15 nafar fidoyisi bo'lgan «Milliy Istiqlol» guruhini otib o'ldirishga, qolgan 72 nafar kishi esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi. O'zbek xalqining 15 nafar farzandi Moskva atrofida otib tashlandi. Qamoqdan ham deyarli hech kim Toshkentga qaytib kelmadi.

1936 – 1938-yillardagi katta terror hamda O'zbekistonda davlat arboblari, ziyolilar, ulamolar va harbiylarning qatag'on qilinishi. Bu paytda totalitar rejimda ma'muriy-buyruqbozlik va avtoritar boshqaruvning kuchayishi natijasida qonun buzariq hodisalari oddiy holga aylandi. Sovet mustabid tuzumi, butun mamlakatda bo'lgani singari, O'zbekistonda ham ommaviy qatag'onlarni avj oldirdi. Yirik davlat va jamoat arboblari, partiya va xo'jalik rahbarlari, ziyolilar, ruhoniy va harbiylar bilan birgalikda oddiy kishilar va kolxozchilar ham qatag'on qilindi.

O'zbekistonda siyosiy qatag'onlik 1937-yilning yozida, ayniqsa, avjga chiqdi. O'zbekiston SSR XKS raisi *Fayzulla Xo'jayev*, O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi sekretari *Akmal Ikromov* hamda xalq komissarlari, viloyatlar, shaharlar va tumanlar rahbarlari, ko'plab xo'jalik xodimlari qamoqqa olinib, tergovdan keyin SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining qaroriga ko'ra otib tashlandi.

O'zbekistondagi siyosiy elita «millatchilik va sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borish»da, shuningdek, qurolli qo'zg'olonni tayyorlashda ayblandi. XX asr o'zbek madaniyatining 3 nafar yorqin yulduzlari – *Fitrat*, *Cho'lpon* va *Abdulla Qodiriy* bir kunda – 1938-yil 4-oktyabrda *Toshkent* shahri atrofida otib tashlandi. Qamoqqa olingan ko'plab yurtdoshlarimiz ommaviy ravishda 4-oktyabrda qatl qilingan. Iste'dodli shoir Usmon Nosir qamoqxonada vafot etdi.

«So'zimning oxirida odil sudlardan so'rayman: Garchi men turlik bo'hton, shaxsiyat va soxtalar bilan ham anglashilmovchiliklar orqasida ikkinchi oqlanmaydurg'on bo'lib qoralandim. Loaqal ularning, qoralovchi qora ko'zlarining ko'ngli uchun bo'lsa ham menga eng oliy bo'lg'on jazoni bera ko'ringiz. Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmog'on sodda, go'l yigitga bir qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha, ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim. Endi jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so'rayman. ... Men to'g'rilik orqasida bosh ketsa «eh» deydigan yigit emasman».

Abdulla Qodiriyning sud jarayonidagi nutqidan.

XXSR harbiy ishlar noziri, alohida O'zbek otliq askarlar polkining komandiri va komissari, 19-tog'li otliq O'zbek diviziyasi komandiri lavozimlarida ishlagan *Mirkomil Mirsharopov* sovet rejimi tomonidan *Maykopda* 1937-yil 28-oktyabrda qamoqqa olindi. U O'zbek diviziyasini milliyalashtirish va bu diviziya yordamida O'zbekistonni SSSR tarkibidan ajratib olish va mustaqil

...davlatni barpo etishga urinishda ayblandi. Dastlabki O'zbek diviziyasi tarqatib yuborildi hamda M.Mirsharopov boshchiligida 18 nafar o'zbek harbiy koman-dari va askarlari Toshkent atrofida 1938-yil 10-oktyabrda otib tashlandi.

Xullas, 1937 – 1938-yillarda to'qib chiqarilgan soxta ayblar bo'yicha O'zbekistonda 41000 nafardan ortiq kishi hibsga olinib, ulardan 37000 na-fardan ko'prog'i jazolandi, 6920 nafar kishi esa otib o'ldirishga hukm qilindi. Faqat davlat va jamoat arboblari, yozuvchi, shoir va olimlardan 5758 nafar kishi qamoqqa olinib, ulardan 4811 nafari otib tashlangan edi. Bu ma'lumotlar respublikamiz miqyosida qizil terror qanchalik keng miqyosda shafqatsiz ravishda amalga oshirilganining yaqqol isboti hisoblanadi.

«*Shahidlar xotirasi*» yodgorlik majmuasi hamda «*Qatag'on qurbonlari xotirasi*» muzeyi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin qatag'on qilinganlarning ko'pchiligi huquqiy jihatdan oqlandi. Ularning por-loq nomlari tiklandi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti *Islom Karimov* (1938 – 2016) tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv kanali bo'yida «*Shahidlar xotirasi*» yodgorlik majmuasi barpo etildi.

O'zbekiston Respublikasida 2001-yildan boshlab har yili 31-avgust – mustaqillik e'lon qilingan kun qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida o'tkaziladigan bo'ldi. «*Shahidlar xotirasi*» yodgorlik majmuasida 2002-yil 31-avgustda «*Qatag'on qurbonlari xotirasi*» muzeyi ochildi. Muzey Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati davrida Vatan ozodligi yo'lidagi faoliyati uchun qatag'on etilgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil qilingan. Bu minnatdor avlodlarning o'z ajdodlari xotirasiga ehtiromidir.

28-BOB. O'ZBEKISTON IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA (1939 - 1945-yillar)

28.1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi hamda O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi

Urushning boshlanishi, sabablari va xarakteri. Ikkinchi jahon urushining boshlanishida fashistlar Germaniyasi va militaristik Yaponiyadan tashqari urushdan avvalgi Buyuk Britaniya (Angliya), Fransiya va SSSRning siyosiy yetakchilari zimmasida ham katta javobgarlik bor edi.

1939-yil 23-avgustda I.V.Stalinning taklifi bilan Moskva SSSR va Ger-maniya o'rtasida 10 yil muddatga hujum qilmaslik to'g'risida bitim imzolan-

di. Bu bitim tarixda *Molotov-Ribbentrop pakti* nomi bilan mashhur. Bitimning maxfiy qismida ikkala davlatning bo'lajak chegaralari va ta'sir doirasi belgilab olindi. Polsha, Boltiqbo'yi va Finlyandiyada Sovet Ittifoqining ta'sir doirasi kuchaytirildi.

1939-yil 1-sentyabrda *Adolf Gitler* boshchiligidagi Germaniya davlati *Polshaga* hujum qildi. Bu hujum bilan Ikkinchi jahon urushi boshlandi. 3-sentyabr kuni *Fransiya* va *Angliya* davlatlari Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi.

17-sentyabrda SSSR va Germaniya o'rtasidagi hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimning maxfiy moddalariga muvofiq SSSR qo'shinlari Polsha hududiga bostirib kirdi. Polshani bo'lib olish jarayoni boshlandi. 19-sentyabr kuni qizil armiya qo'shinlari *Vilnyusni* bosib oldi. 22-sentyabrda *Brest-Litovskda* Polshani tor-mor keltirish operatsiyasining tugatilishi sharafiga sovet va nemis qo'shinlarining qo'shma paradi o'tkazildi. 28-sentyabrda SSSR va Germaniya o'rtasida do'stlik va chegaralar to'g'risida shartnoma imzolandi. So'ngra qizil armiya qismlari *G'arbiy Ukraina* va *G'arbiy Belorussiya* hududini bosib oldi va ular rasmiy ravishda SSSRga qo'shib olindi.

1940-yil iyulda qizil armiya *Latviya*, *Litva*, *Estoniya* hududlarini bosib oldi hamda Latviya, Litva va Estoniya respublikalari majburiy ravishda Sovet Ittifoqi tarkibiga kiritildi. Bu paytda Moldaviya ASSRga tutash *Bessarabiya* ham sovet qo'shinlari tomonidan egallandi hamda avgustda SSSR tarkibida *Moldaviya SSR* (mamlakat tarkibidagi 15-ittifoqdosh respublika) tuzildi.

Sovet-fin urushida o'zbekistonliklarning qatnashuvi. 1939-yil 30-noyabr – 1940-yil 12-martda sovet-fin urushi bo'lib o'tdi. Urush SSSRning qo'shni Finlyandiyaga hujumi bilan boshlandi. Bu voqeadan keyin 1939-yil 14-dekabrda Millatlar Ligasi SSSRni agressiyachi mamlakat deb e'lon qilib, uni Liga a'zolidan chiqardi. Urush natijasida SSSR *Viborg* shahri va *Ladoga* ko'li atrofidagi hududlarni qo'lga kiritdi.

Toshkent piyodalar bilim yurti bitiruvchilari bo'lgan diviziya komandiri *A.Tolstov*, diviziya shtabi boshlig'i *V.Russkix*, o'zbekistonlik jangchilar *A.Magalov*, *A.Tupikov*, *F.Uteshev* va boshqalar bu janglarda qatnashdilar.

Bu voqealar o'z davrida sovet tarixshunosligida butunlay boshqacha talqin qilingan. Sovet davlatining bosqinchilik siyosati ataylab yashirilgan. Keyinchalik, Germaniya tomonidan SSSRga to'satdan hujum qilingach, SSSR endi agressor davlatdan fashizmga qarshi kurashayotgan mamlakatlarning biriga, antifashistik koalitsiyasining tashkilotchisi va rahbari bo'lgan davlatga aylandi.

Fashistik Germaniyaning SSSRga hujumi hamda O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi. 1941-yil 22-iyun kuni tong-saharda gitlerchilar Germaniyasi, o'zaro hujum qilmaslik haqidagi shartnoma bo'lishiga qaramay, to'satdan SSSRga bostirib kirdi. Sovet Ittifoqi xalqlari uchun og'ir sinovlardan

iborat urush boshlandi. O'sha kuni mamlakatda harbiy holat joriy etilganligi haqida farmon e'lon qilindi.

Urush butun mamlakat xo'jaligi, uning hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. 1941-yil 30-iyunda SSSR XKS raisi va VKP (b) MK Bosh sekretari *I.V. Stalin* raisligida Davlat Mudofaa Qo'mitasi (DMQ)ning tuzilishi bilan mamlakatdagi butun siyosiy, harbiy va xo'jalik hokimiyati uning qo'lga o'tdi. Bundan tashqari, *I.V. Stalin* 19-iyulda SSSR Mudofaa xalq komissari, 8-avgustda SSSR Qurolli kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni lavozimini egalladi. Urushning dastlabki kunlarida qabul qilingan maxsus qarorlar va ko'rsatmalarda mamlakatning katta xavf ostida qolgani, uni himoya qilish uchun zudlik bilan barcha iqtisodiy-ma'naviy kuchlarni mudofaa manfaatlariga bo'ysundirish, xalq xo'jaligini to'liq harbiy izga solish lozimligi qayd etildi. Uzoq davom etgan urush qiyinchiliklari O'zbekiston mehnatkashlarini ham og'ir ahvolga soldi.

Ikkinchi jahon urushi davrida respublikaga rahbarlik qilgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari *Usmon Yusupov* o'zbekistonliklarni fashizmga qarshi kurashga safarbar qilishga bosh-qosh bo'ldi.

O'zbekiston moddiy va ma'naviy kuchlarining urushga safarbar etilishi.
23 – 24-iyun kunlari Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona, Nukus va respublikaning boshqa shaharlarida ko'p ming kishilik mitinglar bo'lib o'tdi. Har kuni frontga jo'nash istagi bilan harbiy komissarlikka kelib turgan arizalar oqimi o'zbekistonliklar milliy vatanparvarlik ruhi yuksakligining yaqqol namunasi bo'ldi. Mazkur arizalarni turli kasbdagi va har xil millatga mansub kishilar, erkaklar va ayollar, yoshlar va keksalar, partiyali va partiyasizlar berar edilar. Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga ko'ngillilardan *14 mingdan ortiq* ariza tushgan.

O'zbekiston aholisi an'anaviy vatanparvarligining ajoyib namunalaridan biri frontga umumxalq yordami ko'rsatish edi. O'zbekistonliklar urushning dastlabki kunlaridanoq mudofaa jamg'armasini tashkil etish harakatida faol ishtirok etdilar. Mudofaa jamg'armasiga ishchilar, kolxozchilar, ziyolilar bir kunlik ish haqlari, kommunistik shanbaliklarda ishlab topilgan pullar, fuqarolarning shaxsiy jamg'armalari, qimmatbaho boyliklari, davlat zayomlari, buyumlar va oziq-ovqat mahsulotlari topshirilardi. Umuman, urushning dastlabki kunlarida respublika aholisidan *30 mln rubllik* miqdorda pul, obligatsiya va qimmatbaho boyliklar tushdi. O'zbekiston aholisi urush yillarida mudofaa jamg'armasiga jami *649,9 mln rubl* pul, *22 kg* oltin va kumush topshirdi.

Barcha soha vakillari mudofaa fondi uchun imkoniyat doirasida o'z mablag'larini topshirganlar. Masalan, mashhur o'zbek raqqosasi *Tamara-xonim* mudofaa fondiga *50 ming so'm* topshirdi.

Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun! O'zbekiston iqtisodiyoti harbiy vaziyatdan kelib chiqib zudlik bilan front manfaatlariga bo'ysundirildi. Front orqasi tumanlari qatorida O'zbekistonga ham ahamiyat berildi. Urushning dastlabki kunlarida nemis qo'shinlari shahar bilan mamlakat ichkarisiga harakat qilmoqda edi. Front yaqinidagi shahar va qishloqlardan aholi, sanoat korxonalari, muassasalar va boshqa muhim bo'yliklarni Sharqqa ko'chirish boshlandi. Chunonchi, O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalariga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 100 dan ortig'i O'zbekistonga joylashtirildi. Keltirilgan korxonalarni nihoyatda qisqa muddatlarda ishga tushirishga erishildi. 1941-yil oxirigacha shunday korxonalardan 50 tasi ishga tushirildi. Masalan, Moskva viloyati Ximki shahridan ko'chirib keltirilgan zavod asosida 1941-yil oktyabrda Toshkent aviatsiya zavodi barpo etildi. Bu zavod front uchun qiruvchi samolyotlar ishlab chiqargan.

Xalq xo'jaligini qayta qurishga doir tashkiliy ishni respublika rahbarlari boshqardilar. Urush davrining juda mushkul, haddan tashqari keskin sharoitlarida ular javobgarlikdan qo'rqmay eng murakkab vazifalarni tezkorlik bilan va mustaqil ravishda hal qilib bordilar. O'zbekiston rahbariyati Markazning zug'umini yengib xalq komissarliklari va korxonalar direktorlarining huquqlarini kengaytirdilar, boshqaruv apparatini qisqartirdilar.

28.2. O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi front xizmatida

Urush yillarida O'zbekiston sanoati. 1941-yil sentyabr – dekabr oylarida respublika hukumati xalq xo'jaligini harbiy izga solish, qaysi korxonalar qachon ishga tushirilishi to'g'risida, ichki resurslarni to'la safarbar etish to'g'risida aniq vazifalarni belgilab berdi. Kadrlar, sanoat xomashyosi, yoqilg'i, stannoklar, uskunalar keskin yetishmasligiga qaramay, 1941-yil dekabrda kelib Toshkentdagi 63 ta, respublika hududidagi 230 ta sanoat korxonalari mudofoaa mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi. Ko'chirib kelingan zavodlar ham o'z quvvatini oshirib bordi.

1941-yil 14-dekabrda harbiy korxonalar xodimlari urushga safarbar qilinganlar qatoriga qo'shildi va shu korxonalarga birlashtirildi. Mehnat intizomini buzganlar qattiq jazolanadigan bo'ldi. O'zboshimchalik bilan korxonadan ketib qolganlarga 5 yildan 8 yilgacha qamoq jazosi belgilandi.

O'zbekistonda 1942-yili yangi sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 2 baravar ko'paydi. 1943-yili esa sanoatning respublika xalq xo'jaligidagi salmog'i 75 foizgacha ortdi. Harbiy ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib borish zaruriyati sanoat qurilishini tobora ko'paytirishni talab qilar edi.

Urush yillarida O'zbekistonda 7 ta yirik gidroelektr stansiyasi, jumladan, Dargovoy, Qibray, Salor va Farhod GESlari qurildi, yangi ko'mir va neft konlari ochildi, eskilaridan ko'proq foydalaniladigan bo'lindi. 1944-yil martda Bekobodda O'rta Osiyoda dastlabki zamonaviy metallurgiya kombinati – O'zbekiston metallurgiya zavodining birinchi navbati ishga tushirildi.

O'zbekistonning qurol-yarog' aslahaxonasiga aylantirilishi. Urush davrida harakatdagi armiya zarur narsalarning hammasini: texnika, qurol-yarog', yuqori dori, oziq-ovqatlarni uzluksiz olib turdi. O'zbekiston Ittifoqning asosiy jangovar aslahaxonalaridan biri sifatida 2000 dan ortiq samolyot, 22 mln dona minamyot, 500 000 dona snaryad hamda millionlab dona gimnastyorka, sanitar poyezdlar, paxtali ust-bosh, etik va askarlar uchun boshqa kiyimlar va mahsulotlarni frontga yetkazib berdi. Og'ir mehnat yuki asosan ayollar, qariyalar va o'smirlar yelkasiga tushdi. Ammo bu hech kimni to'xtatmadi. Frontni o'z vaqtida ta'minlash muhim bo'lib qolaverdi.

O'zbekistonliklar front orqasining nihoyatda qiyin sharoitlarida Sovet Ittifoqi xalqlari bilan birga dushman ustidan g'alabani fidokorona mehnatlari bilan ta'minlab bordilar va tarixda misli ko'rilmagan xalq jasoratini namoyon qildilar.

Qishloq xo'jaligidagi ahvol. Barcha qiyinchiliklarga qaramay, o'zbek dehqonlari frontni zarur mahsulotlar bilan ta'minlash uchun fidokorona mehnat qildilar. 1941-yili davlatga 1,6 mln tonnadan ziyod paxta topshirildi. Sabzavot va poliz ekinlari, meva, pilla, jun, go'sht topshirish majburiyatlari oshig'i bilan bajarildi. Don va texnik ekinlarni ko'paytirish harakati natijasida 1942-yil bahorida qo'shimcha 220 500 gektar yer o'zlashtirildi. Urush yillarida paxta yetishtirishni oshirish eng muhim vazifa qilib qo'yilgan.

Kolxozchi dehqonlar va butun O'zbekiston mehnatkashlarining kuchlari bilan Yuqori Chirchiq, Shimoliy Farg'ona, So'x-Shohimardon, Uchqo'rg'on kanallari, Kosonsoy va Rudasoy suv omborlari qurildi. Kattaqo'rg'on suv ombori suvga to'ldirila boshlandi. Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida qand lavlagi uchun unumli yerlar ajratilib, 1943-yili 1,5 mln sentnerdan ortiq lavlagi davlatga topshirildi. Qand lavlagini qayta ishlovchi Zirabuloq, Krasnogvardeysk, Qo'qon va Yangiyo'l qand zavodlari qurildi. Urush yillarida O'zbekiston butun mamlakatda ishlab chiqariladigan qandning chorak qismini berar edi.

Shunday qilib, urush yillarida O'zbekiston qishloq xo'jalik ahli eng murakkab va og'ir sharoitlarda mehnat qilib, 4 mln tonnadan ziyod paxta xomashyosi, 82 mln pud don va boshqa mahsulotlarni davlatga yetkazib berdi. Bu fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shilgan munosib hissa edi.

Aholi turmushi va qiyinchiliklar. Urush O'zbekistondagi har bir oila moddiy jihatdan ham qiyin ahvolga solib qo'ydi. Shaharlarda oziq-ovqatga kartochka tizimi tashkil etilib, ishchi va xizmatchilarga kuniga 400 – 500 gramdan, oila a'zolariga 300 – 400 gramdan non berildi. Rahbar xodimlar esa maxsus oziq-ovqat (payok) bilan ta'minlab turildi. Qiyinchiliklar jamiyatning ijtimoiy-ruhiy holatida keskinlikni vujudga keltirdi, biroq fashizm o'zidan qozoniladigan g'alabaga ishonch aslo susaymadi.

Xususan, urush yillarida o'zbek qishloqlarida ahvol og'ir bo'lgan. Kolxozlarda kattalar va 12 yoshdan oshgan bolalar uchun majburiy ish kuni normasi 1,5 marta oshirilgan. Belgilangan mehnat normasini bajara olmagan kolxozchilar shafqatsiz jazolangan. Qishloqlarda turli kasalliklar va ocharchilik natijasida o'n minglab kishilar hayot bilan vidolashgan. Urush yillarida ocharchilik yirik sanoat markazlariga ham tarqalgan.

O'zbek xalqining bag'rikenligi va baynalmilal yordami. Urush yillarida aholi tarkibida harbiy xizmatchilar oilalari, evakuatsiya qilinganlar, urush nogironlari, yetim bolalar deb nomlangan yangi ijtimoiy guruhlar paydo bo'ldi.

O'zbekistonga 1 mln nafardan ortiq kishi, jumladan, 200 000 bola evakuatsiya qilindi. Turli millatga mansub yetim bolalarni o'zbek xalqi o'z farzandiday ardoqlab voyaga yetkazdi. Masalan, toshkentlik oddiy temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning xotini Bahri Akramova oilasi 15 bolani, kattaqo'rg'onlik urush nogironi Hamid Samadov 13 bolani, samarqandlik kolxozchi ayol Fotima Qosimova 10 bolani olib tarbiyaladi. Respublikaga urush davrida 30 dan ortiq harbiy gospital joylashtirildi. Jarohatlanganlarning talaygina qismi jangovar safga qaytarildi. Urush nogironlarining ko'pchiligi ishga joylashtirildi.

Urush yillarida milliy siyosatda kechirib bo'lmaydigan zo'ravonlikka yo'l qo'yildi. Totalitar tuzum rahbarlarining farmoyishi bilan Kavkaz xalqlari (chechenlar, ingushlar, qorachoylar, mesxeti turklari, bolqorlar va b.), qrim tatarlari va Volgabo'yi nemislari 1943 – 1944-yillarda zudlik bilan mamlakatning sharqiy hududlariga ko'chirib yuborildi. Qrimdan 151 604 nafar qrim tatarlari, Gruziyadan 110 000 nafar mesxeti turklari, Shimoliy Kavkazdan 175 000 nafar chechenlar, 20 000 nafardan ortiq ingushlar, 4500 nafar bolqor va greklar O'zSSRga ko'chirildi. Mahalliy aholi jabrdiydalarga xayrixohlik bildirdi va samimiy yordam berdi.

Xullas, urush yillarida o'zbek xalqi o'zining bag'rikenligi, mehmonnavozligi, sabr-toqati va bardoshini yana bir marta namoyish etib dunyo xalqlarini hayratga soldi.

28.3. O'zbekistonliklarning frontdagi jasorati va qahramonliklari

O'zbek diviziyalarining tashkil qilinishi. Urushning birinchi kunlaridanoq O'zbekistonda xalq lashkarlarining otryadlari tuzila boshladi. Keyin bu otryadlar umumiy harbiy ta'lim bo'linmalariga qo'shildi. O'zbekistonda front uchun milliy harbiy qismlar va jangovar rezervlarni tayyorlash ishi boshlanib ketdi.

1941-yil yozida Samarqandda 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasi qayta tuzilib, uning asosida 221-motorlashtirilgan diviziya tashkil qilindi. Diviziya-da bu paytda katta tajribaga ega o'zbek ofitserlaridan polkovnik *Ismoil Bekjonov*, mayor *Sobir Rahimov* va boshqalar bor edi. Diviziya jangchilari 17-mexanizatsiyalashgan korpus saflarida *Yelna* yaqinida dushmanga qarshi janglarda ilk marta qatnashdilar.

1941-yil 13-noyabrda Davlat Mudofaa Komitetining «Milliy harbiy qo'shilmalar tashkil etish to'g'risida»gi qarori chiqib, unda O'zbekistonda 5 ta kavaleriya diviziyasi va 9 ta alohida o'qchilar brigadasi tashkil qilish zarurligi, diviziyalar tarkibi mahalliy xalqlarga mansub 40 yoshdan katta bo'lmagan sog'lom va baquvvat kishilar bilan to'ldirilishi, imkoniyat doirasida rahbariyat tarkibi ham mahalliy millat vakillaridan bo'lishi ta'kidlandi.

Urushning dastlabki bosqichlarida, xususan, 1941 – 1942-yillarda milliy harbiy qismlarda, jumladan, o'zbek diviziyalari va brigadalarida qurol-yarog' va o'q-dori miqdori mutlaqo yetishmagan. O'zbek jangchilarining hammasida ham urushning dastlabki oylarida hatto oddiy miltiq (vintovka) bo'lmagan. Bu holat bolsheviklar va sovet rejimining hatto urush davrida ham mahalliy xalqlarga, xususan, turkiy xalqlar va musulmonlarga nisbatan bo'lgan ishonchsizligi hamda shovinistik siyosatining yana bir dahshatli ko'rinishidir.

Urushning dastlabki kunlaridagi janglar. O'zbekistonlik jangchilar *Brest qal'asi*, *Kiyev*, *Smolensk*, *Odessa*, *Sevastopol*, *Leningrad*, *Moskva* va boshqa ko'pgina shaharlar mudofaasida mardlik va matonat namunalarini ko'rsatdilar. Moskvaning qahramon himoyachilari saflarida O'zbekistonda tuzilgan harbiy qismlar ham bor edi.

Moskvani himoya qilishda o'zbek xalqining shonli qizlari ham mardona jang qildilar. Ular safida 28 nafar fashistni otib o'ldirgan snayperchi *Zebo G'aniyeva* ham bo'lib, u mardligi va jasorati uchun Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlandi. «Moskva mudofaasi uchun» maxsus medali bilan mukofotlanganlar orasida O'zbekiston jangchilaridan 1753 kishi bo'lgan.

1942-yil 27-martda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan 26 nafar ofitser va oddiy askarlarga Sovet Ittifoqi Qahramoni yuksak unvoni berildi. Ular safida birinchi o'zbek qahramoni – andijonlik *Qo'chqor Turdiyev* ham bor edi.

Tub burilish va undan keyingi janglar. *Stalingrad* jangi Ikkinchi jahon urushida tub burilishni boshlab berdi. Kavkaz uchun bo'lgan janglarda Toshkentda tuzilgan *Sobir Rahimov* qo'mondonligidagi diviziya 3 oy davom etgan janglarda dushmanning 8000 nafar askar va ofitserini qilib tashladi. Gvardiyachi general-mayor S.Rahimov 1945-yil 26-mart kuni Polshadagi *Gdansk* (Dansig) shahrini shturm qilish vaqtida halok bo'lgan. O'zbek xalqining shonli farzandiga 1965-yil 9-mayda Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

O'zbekistonliklar Ikkinchi jahon urushi frontlarida olib borilgan ayovsiz janglarda faol qatnashib, qahramonlik va mardlik namunalarini ko'rsatdilar. Eng so'nggi tarixiy tadqiqotlarda keltirilishicha, urush yillarida 1,5 mln nafar o'zbekistonliklar fashizmga qarshi olovli janglarda qatnashgan edi. 1939-yil respublika aholisi 6,5 mln bo'lgan. Demak, har to'rt o'zbekistonlikning bevosita bittasi harakatdagi armiya safida xizmat qilgan. Ulardan 500 000 kishi jang maydonlarida halok bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan.

O'zbekistonlik jangchilar 1943-yil yozida bo'lgan *Kursk* va *Oryol* rayonidagi janglarda, *Dnepr* daryosini kechib o'tishda oldingi saflarda bo'lishdi. Dnepr uchun olib borilgan janglarda qahramonlik ko'rsatgani uchun 26 nafar o'zbek yigitiga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi. Ular safida buxorolik *Sharif Ergashev* va *Xalloq Aminov* bor edi. Belorussiyani ozod qilish uchun bo'lgan janglarning birida 1943-yil noyabrda *Gomel* shahri atrofida iste'dodli o'zbek shoiri *Sulton Jo'ra* 33 yoshida mardlarcha halok bo'ldi.

O'zbekistonlik jangchilar 1944 – 1945-yillarda Belorussiya, Ukraina, Moldaviya, Boltiqbo'yi respublikalari va Rossiya Federatsiyasining g'arbiy viloyatlarini ozod qilishda ishtirok etdilar. O'zbekistonliklar yevropadagi Qarshilik ko'rsatish harakati saflarida, *Polsha, Bolgariya, Vengriya, Ruminiya, Chexoslovakiya, Italiya, Gretsiya, Avstriya, Yugoslaviya, Fransiya* va boshqa davlatlarni fashizmdan ozod etishda faol qatnashdilar, partizan qo'shilmalarida jang qildilar.

1945-yil 9-mayda gitlerchilar Germaniyasi butunlay taslim bo'ldi. Berlinni zabt etgan jangchilar orasida Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan toshkentlik *Botir Boboyev* va *Solih Umarov*, marg'ilonlik *Tojiali Boboyev* ham bo'lgan. O'zbekistonlik jangchilarning 1706 nafari «Berlinni ishg'ol etganligi uchun» jangovar medali bilan taqdirlandi.

Yaponiya militaristlariga qarshi kurashda o'zbekistonliklarning hissasi. Yaponiyaga qarshi urush 1945-yil avgustda sovet qo'shinlarining hujumi bilan boshlandi. O'zbekistonlik jangchilar Kvantun armiyasini tor-mor keltirishga katta hissa qo'shdilar. Ular orasida leytenantlar *N.Latipov, A.Karimov, U.Doniyorov*, yefreytor *U.Asanov* va boshqa jasur o'zbek o'g'lonlari bor edi.

Manchjuriyadagi yapon qo'shinlari sovet armiyasi tomonidan tor-mor qilingach, Yaponiya 1945-yil 2-sentyabrda so'zsiz taslim bo'lganligi haqidagi hujjatga qo'l qo'ydi. Shu tariqa Ikkinchi jahon urushiga yakun yasaldi.

O'zbekiston o'g'lonlari va qizlarining jangovar frontlarda ko'rsatgan mislsiz mardlik va jasorati SSSR va Yevropadagi ko'plab mamlakatlar hukumatlari tomonidan yuksak taqdirlandi. O'zbekistonlik jangchilardan 120 000 nafari turli sovet orden va medallari bilan mukofotlandi. O'zbekistonlik 280 nafar jangchi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi, ulardan 75 nafari o'zbek edi. 52 nafar o'zbekistonlik jangchilar uchala darajadagi «Shuhrat» ordeni bilan taqdirlandilar.

Harbiy asirlar va ularning qismati. Ikkinchi jahon urushida fashistik Germaniya va militaristik Yaponiya ustidan erishilgan buyuk g'alaba taraqqiyparvar insoniyatga juda qimmatga tushdi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, Ikkinchi jahon urushida 50 mln nafardan ziyod kishi halok bo'ldi. Bu urushda eng katta talafotga uchragan SSSR 27 mln kishidan ajraldi.

Vayrongarchilikdan ko'rilgan zarar va urush olib borish uchun sarflangan mablag'lar miqdori 4 trillion dollarni tashkil qildi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, urush yillarida Germaniyaga asirga tushganlarning umumiy soni 6,2 mln kishini tashkil qilgan. Sovet-german urushida 5,7 mln kishidan ortiq sovet askarlari Germaniya konslagerlarida tutqunlikda bo'lishgan. Asir tushishga majbur bo'lgan sovet jangchilari orasida ko'plab turkistonlik asirlar ham bo'lgan. Ana shunday asirlardan biri va sobiq legioner, keyinchalik Germaniyada yashagan namanganlik tarixchi olim *Boymirza Hayit* fikrlariga qaraganda, 1941-yil yozidan to 1942-yil bahorigacha 1,7 mln turkistonlik jangchilar nemislarga asir tushgan hamda ularning ko'pchiligi harbiy asirlar konslagerlarida bo'lishgan. 1942-yil yozida ulardan faqat 400 000 kishi tirik qolgan, xolos. Fashist konslagerlarida harbiy asirlar juda og'ir ahvolda yashagan, ocharchilik va turli kasalliklardan ularning ko'pchiligi halok bo'lgan.

Turkistonlik muhojirlardan *Mustafo Cho'qay* va toshkentlik o'zbek *Vali Qayumxon* tashabbusi bilan 1942-yil martda *Turkiston legioniga* asos solingan. Legionni siyosiy va mafkuraviy jihatdan boshqarish Milliy Turkiston Birligi Qo'mitasiga yuklatilgan. Vali Qayumxon qo'mita prezidenti edi.

Jang harakatlari davrida harbiy asirlikda bo'lganlar, xususan, Turkiston legionni qatnashchilarining taqdiri ham nihoyatda og'ir kechdi. Urush tugagach, ular hamma joyda ta'qib etildi, SSSRga qaytarilgan harbiy asirlarning ko'pchiligi maxsus lagerlarga joylashtirilib, turli qiynoqlarga duchor qilindi.

Bu qiynoqlardan omon qolgan oz sonli kishilargina keyinchalik ozodlikka chiqarildi. Ulardan shofirkonlik *Abdulla Rasulov* singari sanoqli yurtdoshlarimiz nemis va sovet konslagerlaridan omon chiqib, O'zbekistonga qaytdilar.

G'alaba bayramidan Xotira va Qadrlash kunigacha. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, 1995-yili 33 jildlik «Xotira» kitobi (keyinchalik unga qo'shimcha tarzda yana 2 jild chiqqan) va O'zbekiston xalqining urush yillarida front ortidagi jasoratlari bayon qilingan umumlashma maxsus jild o'zbekcha va ruscha nashr etildi.

Toshkentda 1999-yil may oyida Xotira va Qadrlash maydoni barpo etilib, unda «Motamsaro ona» haykali hamda xiyobonning shimoliy va janubiy tomonida qad ko'targan ayvonlar tokchalarida Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonlik barcha jangchilarning ism-sharifi bitilgan metall tokchalar o'rnatildi.

G'alaba bayrami nishonlanadigan 9-may sanasi Xotira va Qadrlash kuni deb e'lon qilinib, Toshkentdan tashqari Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar markazlari va tumanlarda Xotira maydonlari barpo etilib, bu maydonlarda ham «Motamsaro ona» haykali o'lnatildi.

«Buyuk g'alabani 72 yilligi munosabati bilan poytaxtimizda, barcha shahar va qishloqlarimizda ko'plab tadbirlar, urush qatnashchilari bilan uchrashuvlar, xotira marosimlari o'tkazilmoqda ...

Biz «O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak» degan da'vatning mohiyatini chuqur anglagan holda tinchlik uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni unutmasdan, doimo hushyor va ogoh bo'lib yashashimiz kerak».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 9-mayda so'zlagan nutqidan.

28.4. O'zbekiston fani va madaniyati g'alaba uchun xizmatda

O'zbek adabiyoti va san'ati fashizmga qarshi kurashda. Urush yillarida O'zbekiston shoirlari, yozuvchilari, rassomlari, musiqachilari yaratgan asarlarda vatanparvarlik xislatlari asosiy o'rinda turdi. *Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Sadriddiy Ayniy, Maqsud Shayxzoda, Sulton Jo'ra, Amin Umariy, Oydin* va boshqa yozuvchilar hamda shoirlarning she'rlari va dostonlarida, publitsistik asarlarida fashizm kirdikorlari fosh etilib, xalqimizning jangovarlik ruhi qo'llab-quvvatlandi, dushman ustidan g'alaba qozonishga bo'lgan ishonch mustahkamlandi.

Urush yillarida O'zbekiston san'ati ustalari 30 ta konsert brigadalariga bo'linib, frontdagi jangchilarga 35 000 ta va gospitallarda 26 000 ta konsert ko'rsatdilar. Front brigadalari tarkibida *Tamaraxonim, Halima Nosirova, Sora Eshonto'rayeva, Mukarrama Turg'unboyeva, Abror Hidoyatov, Olim Xo'jayev, Gavhar Rahimova, Karim Zokirov, Muhiddin Qoriyoqubov* singari taniqli san'atkorlar bo'lgan.

Teatrlarning repertuarlarida harbiy va tarixiy asarlar ustun bo'lib qoldi. Teatrlar sahnasida Hamid Olimjonning «*Muqanna*», Uyg'un va Izzat Sultonning «*Alisher Navoiy*», Hamid Olimjon, Uyg'un va Sobir Abdullaning «*O'zbekiston qilichi*», Oybekning «*Mahmud Torobiy*», Maqsud Shayxzodaning «*Jaloliddin Manguberdi*» kabi dramatik asarlari namoyish etildi.

O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining tashkil topishi va faoliyati. SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali urushning birinchi kunlaridan boshlab juda muhim xalq xo'jalik va mudofaa muammolarini hal qilishga faol kirishdi. Shu maqsadda institutlarning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muhim o'zgarishlar kiritildi. SSSR Xalq Komissarlari Soveti raisi *I.V.Stalinning* 1943-yil sentyabrdagi qarori asosida SSSR FA O'zbekiston SSR filiali (O'zFAN) negizida 1943-yil 4-noyabrda, Ikkinchi jahon urushining eng qizg'in pallasida, Toshkentda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi (O'zSSR FA) tashkil topdi. Taniqli o'zbek matematik olimi *Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyoziy* (1897 – 1970) akademiyaning prezidenti qilib saylandi. Ilgari mavjud bo'lgan Til, adabiyot va tarix instituti esa O'zbek tili va adabiyoti hamda Tarix va arxeologiya institutlariga ajratilib, yangi tashkil etilgan O'zSSR FA tarkibiga kiritildi.

O'zbekiston olimlari Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zlarining samarali faoliyati bilan mamlakat ilmiy salohiyatini rivojlantirishga, fidokorona mehnati bilan mamlakatning iqtisodiy hamda harbiy qudratini oshirish va mustahkamlashga katta hissa qo'shdilar. Bu ishda ularga urush yillarida O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan RSFSR va boshqa ittifoqdosh respublikalarning olimlari ham ancha-muncha yordam ko'rsatdilar. Faqat Toshkentning o'ziga mamlakatning taniqli ilmiy xodimlaridan *375 nafar* kishi kelgan bo'lib, ular respublika imkoniyatlarini iloji boricha urush ehtiyojlariga ko'proq jalb qilish yo'llarini qidirib topishga, ilmiy muammolarni hal qilishga va mahalliy ilmiy kadrlar tayyorlashga yordam bergan edilar.

O'zbekistonning Rossiya, Belorussiya va Ukraina intellektual elitesini saqlab qolishdagi roli. Bu davrda respublikamizga *Moskva, Leningrad, Kiyev, Minsk, Voronej* va boshqa shaharlardan *31 ta* oliy o'quv yurti va *7 ta* harbiy akademiya evakuatsiya qilindi. Ko'chirib keltirilgan oliy o'quv yurtlari, ko'pgina ilmiy-tadqiqot institutlarining respublikada bo'lishi O'zbekistondagi barcha oliy o'quv yurtlari butun o'quv va ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini Markaz darajasiga yana ham yaqinlashtirish imkonini berdi.

Urush yillari O'zbekiston, xususan, Toshkent shahri minglab fan, adabiyot va san'at namoyandalari uchun najot beshigi bo'lib xizmat qildi. Bu davrda fashistlar bosib olgan hududlardan olimlardan tashqari *200 nafardan ortiq* taniqli yozuvchi va shoirlar, tanqidchilar va adabiyotshunoslardan *Anna*

Axmatova, Aleksey Tolstoy, Vladimir Yan, Aleksandr Deych, Nikita Paganov, Yakub Kolas, Yanka Kupala, Lidiya Bat, Viktor Jirmunskiy va boshqalar tomonidan tuzilgan edi. Ular O'zbekistonning adabiy hayotiga jalb etilib, ijod qilishlari uchun barcha sharoit yaratib berildi. O'zbek shoir va yozuvchilari ular bilan hamkorlikda «*Biz g'alaba qozonamiz*» nomli almanax va «*O'zbekiston shoiri frontga*» nomli antologiya yaratdilar.

Xullas, urush yillarida O'zbekiston xalqi yuksak insonparvarlik namunalari ko'rsatib, vaqtincha bosib olingan hududlardan respublikaga ko'chib keltirilgan aholini, xususan, bolalar va intellektual elitani saqlab qolishda jonbozlik qildi.

29-BOB. O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-IQTISODIY AHVOLI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI (1945 - 1959-yillar)

29.1. O'zbekiston xalq xo'jaligining urushdan keyingi ahvoli

Sanoatni qayta qurish. Ikkinchi jahon urushi tugagan bo'lsa ham, urushning og'ir oqibatlari respublika hayotining hamma sohalarida, shuningdek, sanoatda ham sezilib turardi. O'zbekiston sanoatini tiklash, aholini oziq-ovqat va sanoat mollari bilan ta'minlash uchun yoqilg'i, elektr energiyasi shuningdek, malakali ishchi va muhandis-texnik xodimlarga tanqislik sezilardi. Bu murakkab vazifalarni hal etish uchun O'zbekistonning geografik holati, milliy an'analari, xalq manfaatini hisobga olib uning xalq xo'jaligini rivojlantirishning aniq dasturlarini ishlab chiqish zarur edi. Biroq bunday bo'lmadi. Markazning manfaatlaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirish rejaları tuzildi.

Markazning ulkan rejalarida O'zbekistonga faqat xomashyo yetkazib beruvchi chekka bir o'lka deb qaraldi. Xuddi shu narsa O'zbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanib borishiga olib keldi. Bunda xomashyoni qayta ishlash korxonalari juda oz bo'lib, bu narsa ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga xalaqit berardi.

1945-yil oxiriga kelib O'zbekistonning mashinasozlik sanoati qishloq xo'jaligi va irrigatsiya ehtiyojlari uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarishga o'tkazildi. O'zbekiston metallurgiya zavodida 1946-yili yangi prokatsiya sexi ishga tushirildi. Shu yillarda *Polvontosh* va *Janubiy Olamushuk* neft konlari ochildi va o'zlashtirildi. *Farg'onada* neftni qayta ishlash zavodi foydalanishga topshirildi.

O'zbekistonga faqat xomashyo yetkazib beruvchi o'lka sifatida qaralishi uning iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlanishiga olib keldi. Xususan, respublika ittifoqning asosiy paxta bazasi bo'lib qolaverdi. Xalq xo'jaligi boshqa tashkilotlarining (sanoat, qishloq xo'jaligi va h.k.) taraqqiyoti paxtachilik manfa'atlariga bo'ysundirildi. Besh yillik rejalarni tuzishda sanoatni boshqarishning iqtisodiy usullari inkor etildi.

O'zbekistonda paxta monokulturasini va uning oqibatlari. 1946-yil 5-fevralda SSSR hukumati «1946 – 1953-yillarda O'zbekistonda paxtachilikni kengaytirish va yanada rivojlantirish rejasi va tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qilindi. Bu qaror asosan O'zbekistonda paxta monokulturasini uzil-kesil joriy qilishga qaratilgan edi. Sovet hukumatining ko'rsatmasi bilan oziq-ovqat ekinlarining sug'oriladigan maydonlari chigit ekish uchun ajratildi. Shu tarzda paxta ekin maydonlari ko'paytirildi. 1946-yili O'zSSR uchun paxta ekin maydoni 779 000 gektar qilib belgilab berildi. O'sha yili respublikada 218 000 gektar sug'oriladigan maydon faqat paxta ekish uchun bo'shatildi. Shuning uchun ham paxta yetishtirish yildan yilga o'sib bordi. Biroq paxtaning xarid narxi oshirilmadi. Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish qisqarib, oziq-ovqat muammosi o'tkirlashdi. Ekologiya buzilib, aholi salomatligi yomonlashdi.

1945-yili O'zbekistonda 850 000 tonna paxta yetishtirilgan bo'lsa, 1950-yili uning miqdori 2 222 000 tonnaga yetdi.

1948-yili «Tashselmash» zavodi paxta terish mashinalarining dastlabki partiyasini ishlab chiqardi. Oradan bir yil o'tganidan keyin «Tashavtomash» zavodi ishga tushirilib, traktorlar, paxta terishga moslashtirilgan mashina va traktor pritseplari (tirkagichlari)ni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shu zavod bazasida 1969-yili Toshkent traktor zavodi (TTZ) barpo etildi. Biroq butun texnikaning mashina-traktor stansiyalari (MTS) qo'lida to'planishi salbiy oqibatlarga olib keldi.

Hunarmandchilikning ahvoli. 1947-yil dekabrda mamlakatda oziq-ovqat va sanoat tovarlariga kartochna tizimi bekor qilindi. Har yili keng iste'mol mollarning narxi arzonlashtirib borildi. Biroq xalqning turmush darajasi bu paytda aytarli darajada yaxshilanmagan.

Sovet hokimiyati tomonidan hunarmandlarning haq-huquqlari, erkin faoliyati cheklangan bo'lgan. Ular kooperativ artellarga birlashtirildi. Urushdan keyingi yillarda hunarmandchilik kooperatsiyasi tarkibida bir necha yuz artellar faoliyat ko'rsatardi. Yakka tartibda hunarmandchilik bilan shug'ullanish man etildi.

Mirzacho'l va boshqa hududlarda qo'riq va bo'z yerlarning o'zlashtirilishi. O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish uchun yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya qurilishini kengaytirish, sug'orish sistemalarini takomillashtirish kerak edi.

KPSS MK va SSSR Ministrlar Sovetining 1956-yil 6-avgustda «Paxta yetishtirishni ko'paytirmoq uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRdagi

Mirzacho'lning qo'riq yerlarini sug'orish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Unda paxta ekiladigan maydonlarni O'zbekiston SSRda 200 000, Qozog'iston SSRda 100 000 *gektar* kengaytirish rejalashtirildi. Mirzacho'lni keng miqyosda o'zlashtirish ishlari boshlandi.

Mirzacho'l yerlarini o'zlashtirish ishlariga bevosita rahbarlik qilish uchun maxsus «*Glavgolodnostepstroy*» tashkiloti tuzildi. 1955 – 1959-yillar davomida O'zbekistonda 160 000 *gektardan ziyodroq* yangi yer o'zlashtirildi. 1961-yili Mirzacho'l shaharchasi *Guliston* shahriga aylantirildi.

Shuningdek, 1956-yili O'zbekistonda paxta xarid narxlarini oshirish ustama mukofotlar to'lashning yangi tartibi, MTSlarga to'lanadigan natijalar haqi stavkalarini 40% kamaytirish, suv uchun to'lanadigan haqni bekor qilish, mineral o'g'itlar narxini pasaytirish joriy qilindi.

O'zbekistonda qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish hamda paxta ekinlari maydonini tobora kengaytirish keyingi yillarda ham davom ettirildi.

29.2. Ziyolilarning qatag'on qilinishi va sovet jamiyatida shaxsga sig'inishning fosh qilinishi

O'zbekiston ziyolilari qatag'on qilinishining yangi bosqichi. Urush tugaganidan keyin oradan ko'p o'tmay O'zbekiston SSR bo'ylab yana bir yalpi qatag'on to'loqini yelib o'tdi. XX asr 40-yillari oxiri va 50-yillari boshlaridagi qatag'onlar asosan madaniyat va fan arboblari qatag'onlariga qarshi qaratildi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Markazning yo'l-yo'riqlariga tayangan holda dunyoqarashi va ijodiy kommunistik partiya mafkurasidan farq qiladigan ijodiy ziyolilar vakillariga qarshi hujum boshladi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti byurosi 1950-yil 1-sentyabrda «O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining ishi to'g'risida»gi masalani ko'rib, akademiya olimlaridan sharqshunos va tarixchi *Abdusamad Boboxo'jayev*, adabiyotshunos va faylasuf *Vohid Zohidov*, iqtisodchi *Olim Aminov*, tilshunos *Olim Usmonov* va boshqalarni nohaq ravishda qoraladi.

Nihoyat, 1952-yil fevralda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining mafkuraviy masalalarga bag'ishlangan X plenumi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi sekretari *Amin Niyozov* «Respublikada mafkuraviy ishning ahvoli va uni yaxshilash choralari to'g'risida» ma'ruza qildi. Ma'ruzada O'zbekiston ziyolilaridan bir guruhi (yozuvchilar, olimlar, shoirlar va b.) noto'g'ri ravishda millatchilikda ayblandi. O'zbek xalqining qatag'on qilingan bu vakillarining asarlari va «Alpomish» dostonini o'qish taqiqlandi. Ma'ruzada O'zSSR FA tarkibidagi Tarix va arxeologiya, Sharqshunoslik, O'zbek tili va adabiyoti institutlari olimlari keskin ravishda, biroq

hujjat tanqid qilindi. Mazkur plenum va unda qabul qilingan qarorlar O'zbekistonning ma'naviy hayotiga kuchli zarba bo'lib tushdi.

Ijodkor ziyolilardan *Said Ahmad, Shukrullo, Mirzakalon Ismoiliy, Shuhrat, Maqsud Shayxzoda, Mirkarim Osim, Ne'mat Toshpo'lat, Yong'in Mirzo, Hamid Sulaymonov, Muhiddin Qoriyoqubov* va boshqalar (12 kishi) «sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati» olib borganlikda ayblanib 1951-yilda qamoqqa olindi va 25 yilga ozodlikdan mahrum etildi. Ular «xalqlar otasi» va «xalqlar dohiysi» I.V.Stalin vafot etganidan bir necha yil o'tib, 1955-yili sovet rejimi tomonidan oqlanib, qamoqdan ozod qilindi va O'zbekistonga qaytishdi. O'sha paytda o'zbek xalqining faxri hisoblangan *O'zbek* qatag'oniga uchradi.

Stalinning o'limi va shaxsga sig'inish oqibatlarini tugatish yo'lidagi urinishlar. 1953-yil 5-martda KPSS MK Bosh sekretari va SSSR Ministrlar Sovetining raisi Iosif Stalin vafot etdi. *Georgiy Malenkov* SSSR Ministrlar Sovetining Raisi lavozimiga tayinlandi.

Stalin kommunistik partiya va sovet hukumatiga rahbarlik qilgan 30 yildan ortiq vaqt davomida (1922 – 1953) mamlakatda uning shaxsiga sig'inish avj oldi. Shaxsga sig'inish sharoitida hokimiyat oliy darajadagi qadriyatga aylahadi, uni boshqarayotgan bir yoki bir nechta shaxslar ilohiylashtiriladi.

1956-yil 25-fevralda bo'lgan KPSS XX syezdining yopiq majlisida KPSS MK Birinchi sekretari *Nikita Xrushchyov* shaxsga sig'inish va uning oqibatlari to'g'risida ma'ruza qildi. Ma'ruzada Stalin shaxsiga sig'inish qoralandi va uning oqibatlarini tugatishga kirishildi.

Bu davrda qatag'on qilinganlarni oqlash jarayoni ham boshlandi. O'zbekiston bo'yicha otilgan va qamoqqa olinganlardan 40 000 nafarga yaqin kishi oqlandi. Qatag'on qilinib, qamoqqa tashlangan va surgunga yuborilgan yurtdoshlarimizning bir qismi O'zbekistonga qaytdi. Lekin ularni oqlash ham kommunistik mafkura andozasi ostida amalga oshirildi. Mustabid sovet rejimi o'ziga ma'qul bo'lgan shaxslarnigina grajdan (fuqaro) sifatida oqladi. Shu bilan birga, 1953-yildan keyin ham boshqacha fikrlovchilar ta'qib ostiga olindi hamda ularning «eng o'tkirlari» doimiy ravishda qatag'on qilib borildi.

O'zbekiston siyosiy boshqaruvidagi o'zgarishlar va rahbarlar almashuvi. 1950-yil aprelda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari *Usmon Yusupov* o'z vazifasidan ozod qilinib, Moskvaga SSSR Paxtachilik ministri lavozimiga tayinlandi. Biroq I.V.Stalin o'limidan so'ng bu ministrlilik tugatilib, *Usmon Yusupov* 1953 – 1954-yillarda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisi bo'ldi. Afsuski, KPSS MK Birinchi sekretari *Nikita Xrushchyov* 1954-yili uni asossiz tarzda respublika hukumati raisligidan olib tashlab, *Mirzacho'ldagi «4-Boyovut»* sovxoziga direktor qilib jo'natdi.

«Ichki ishlar xalq komissarlari (NKVD) faoliyatida juda katta kamchilik va qonunbuzarhklarga yo'l qo'yilmoqda. Ommaviy qamoqqa ohshlarga zo'ri berilgan, ko'p holatlarda ular yetarli darajada asoslanmagan. Ichki ishlar xalq komissarligida, uning rayonlardagi bo'limlarida hatto eng ko'p qamoqqa olish uchun musobaqa e'lon qilindi. Bu esa yetarli darajada asoslanmay qamoqqa olish uchun keng yo'l ochdi».

O'zbekiston KP(b) MQ birinchi kotibi Usmon Yusupovning Moskvaga Stalinga yozgan xati.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari lavozimida 1950 – 1955-yillarda *Amin Niyozov*, 1955 – 1957-yillarda *Nuriddin Muhitdinov*, 1957-yil dekabrda 1959-yil mart oyigacha *Sobir Kamolov* (1910 – 1990) faoliyat ko'rsatdi.

Amin Niyozov davrida O'zbekiston ziyolilariga nisbatan qatag'onchilik siyosati olib borildi. U *Marg'ilonda* tug'ilgan bo'lib, o'z hamyurti Yo'ldosh Oxunboboyev vafotidan keyin oradan ko'p o'tmay – 1947 – 1950-yillarda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi Raisi lavozimida ishlagan edi.

Nuriddin Muhitdinov 1951 – 1953- va 1954 – 1955-yillarda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisi hamda 1957 – 1961-yillarda KPSS MK Prezidiumi a'zosi hamda KPSS MK ideologiya sekretari kabi mas'ul lavozimlarda ishlagan edi. U o'zbek ziyolilari oqlanishida tashabbuskorlik ko'rsatdi. Paxta xarid narxini oshirishni Markaz oldiga qo'yib buni uddaladi.

Sobir Kamolov toshkentlik bo'lib, u atigi 15 oy davomida respublika partiya tashkilotini boshqargan. Bu davrda O'zbekistonda kadrlarni mahalliy-lashtirish jarayoni ommaviy ravishda amalga oshirila boshlandi, islom diniga erkinliklar berildi. Bu holat Markaz rahbariyati (N.Xrushchyov, M.Suslov va b.)ga yoqmay, u o'z lavozimidan olib tashlandi.

29.3. O'zbekistonda sanoatning bir tomonlama rivojlanishi

Sanoat sohasidagi ahvol. O'sha davrda SSSR hududining tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston SSR Markazda ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosatni so'zsiz amalga oshirishga majbur edi. Urushdan keyingi besh yilliklarda (1946 – 1950-yillardagi to'rtinchi va 1951 – 1955-yillardagi beshinchi besh yillik davrida) davlat sanoatni o'stirish uchun katta miqdorda kapital mablag'lar ajratdi. Lekin ularning aksariyati og'ir sanoatga sarflandi.

O'zbekistonda og'ir sanoat asosan paxtachilikni rivojlantirishga, ya'ni Markaz manfaatlarini uchun xizmat qilgan. Shu bilan birga, sanoat qurilishida avvalgi ko'rsatmalar saqlanib qolavergan. Bu holat rivojlangan mamlakatlar-

da ishlab chiqarishga keng qo'llaniladigan yangi texnologiyalar, fan va texnika yutuqlaridan foydalanishni ko'zda tutmas edi.

O'zbekistonda ko'plab yirik kimyo korxonalarining qurilishi foydadan ko'ra ko'proq salbiy oqibatlarga olib keldi. Ko'pgina korxonalar (Chirchiq elektrkimyo kombinati, Navoiy kimyo kombinati va boshq.), Yangiyo'l biokimyo zavodi aholi qalin yashaydigan joylarda bo'lib, ular atrof-muhitni ifloslantirdi va ekologik vaziyatni murakkablashtirdi. Atmosferaga zararli moddalar chiqarilishi oqibatida tabiatga, o'simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetkazdi. Eng katta zararni esa bu yerda yashovchi insonlar ko'rdi.

Yengil sanoatda ham turli nomutanosiblik hollari va ziddiyatlar bor edi. Yengil sanoatda ishlab chiqarish rejaları bajarilmas, aholining iste'mol mollari bilan ta'minlash darajasi Ittifoqqa nisbatan bir necha marta kam bo'lgan.

Transport va undagi muammolar. O'zbekiston sanoatining o'sishi bilan bir qatorda transport ham rivojlanib bordi. Transport tarmog'i orqali barcha sanoat markazlari yagona majmuaga birlashtirildi.

1947-yili 600 km dan iborat Chorjo'y – Qo'ng'iro't temir yo'li qurildi. O'sha yili Toshkentda ilk marta trolleybuslar qatnay boshladi. Keyinchalik Qo'ng'iro't – Beynov temir yo'li qurilishi keng miqyosda olib borildi. Bu temir yo'l magistrali Qoraqalpog'istonni Qozog'iston bilan to'g'ri bog'lab, O'rta Osiyodan Markazga olib boradigan ikkinchi poyezd yo'lini vujudga keltirdi.

Bu davrda avtomobil transporti ham rivojlandi. Eski yo'llar ta'mirlandi, yangi asfalt va beton yotqizilgan yo'llar qurildi. Avtomobil baza va parklari zamonaviy yangi mashinalar hisobiga ko'paydi. 1959 – 1968-yillarda Toshkent katta halqa avtomobil yo'li loyihalashtirildi va qurildi.

O'zbekiston havo yo'llarida XX asr 50-yillari o'rtalaridan boshlab yuksak tezliklar va parvozlarni ochib bergan TU-104 rusumli yo'lovchi tashuvchi samolyotlar paydo bo'ldi. Havo transporti xodimlari keyingi yillarda yangi samolyotlarning ko'pchiligini o'zlashtirdilar. Ayrim shaharlarda zamonaviy aeroportlar qurildi. Bu O'zbekiston shaharlarini o'zaro bog'ladi, shuningdek, mamlakat poytaxti Moskva, boshqa respublikalar va mamlakatlar poytaxtlari o'rtasida muntazam parvozlarni yo'lga qo'yildi.

Biroq transport sohasida ham talay muammolar bo'lgan. Temir yo'llar va avtomobil yo'llari qurilishi boshqa respublikalar, jumladan, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog'iston hududlaridan o'tkazilib, iqtisodiy jihatdan ular Markazga qaram qilib qo'yildi. Bunday siyosatning halokatli ekani SSSR parchalanib, mintaqada mustaqil davlatlar tashkil topganidan so'ng, ayniqsa, sezilmoqda.

Bundan tashqari, temir yo'llar tarmog'ini elektrlashtirish, yuk va yo'lovchilar tashishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish ishlari sekinlik bilan olib borildi. Shuningdek, transportning barcha turlarida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish borasida jiddiy kamchiliklar mavjud bo'lgan.

Kadrlarni tayyorlash masalalari va ruslashtirish siyosati. Markazning milliy siyosatida kadrlar masalasi muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi sekretarlari, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisi hamda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi Raisining birinchi o'rinbosarlari, Davlat xavfsizlik komiteti va muhim ministrlar rahbarlari, viloyat va shahar partiya tashkilotlarining ikkinchi sekretarlari Moskvadan yuborilgan vakillar (asosan slavyan va armanlar) dan iborat bo'lib, ular katta huquq va imtiyozlarga ega edi, respublikadagi kadrlar taqdirini o'z ixtiyorlari bilan hal qilishgan. Bundan tashqari, Markazga bo'ysunadigan lavozimlar ham mavjud edi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Birinchi sekretari, respublika hukumati va davlat organlarining rahbarlari, viloyatlar partiya komitetlarining birinchi sekretarlari va viloyat ijroiya qo'mitalari raislari asosan mahalliy millat vakillaridan tayinlansa ham, bu nomzodlarni Kremli tavsiya qilar edi. Sirtidan qaraganda O'zbekistonni o'zbeklar boshqarayotgandek ko'rinardi, aslida, hokimiyatni idora qilish tizimini Moskvaning qo'lida edi. Bu holat sovet hokimiyatining dastlabki yillarida joriy qilingan bo'lib, unga sovet tuzumi inqirozga uchragan davrgacha amal qilindi.

Bunday siyosat mahalliy aholining manfaatlariga ziyon yetkazar edi. Yetakchi sanoat sohalari uchun mutaxassislar Markazdan taklif qilingan. 1959-yili respublika aholisi tarkibida o'zbeklarning salmog'i *62 foizdan ortiq* bo'lsa ham, undagi o'zbek ishchilarining miqdori atigi *43 foizni* tashkil etgan. Ittifoqqa bo'ysunadigan korxonalar asosan Rossiya va boshqa respublikalardan taklif etilgan mutaxassislar va ishchilar bilan ta'minlanardi. Bunday korxonalarda ish haqi mahalliy sanoat korxonalaridagiga qaraganda 2-3 marta va undan ham ko'proq bo'lgan. Kadrlar siyosafidagi bunday holatlar va ruslashtirish siyosati mahalliy aholining moddiy va ma'naviy imkoniyatlariga zarar keltirib, respublikada ijtimoiy vaziyat keskinlashuvi hamda millatlararo munosabatlarning murakkablashuviga zamin yaratdi.

30-BOB. O'ZBEKISTON BARQAROR RIVOJLANISH DAVRIDA (1959 - 1983-yillar)

30.1. O'zbekistonning siyosiy hayotidagi o'zgarishlar hamda sovetlarning partiya organlariga qaramligi

O'zbekistonda siyosiy rahbariyatning o'zgarishi. O'sha davrda sovet jamiyatining siyosiy tizimiga partiya, turli darajadagi sovet organlari, kasaba uyushmalari, komsomol (yoshlar tashkilotlari) kirardi. Tizimning asosiy ustuni partiya hisoblangan. U o'zini rahbarlik qiluvchi va yo'naltiruvchi kuch hisoblab sovetlar va jamoat tashkilotlariga o'z irodasini amalda zo'rlik bilan o'tkazib kelardi.

1959-yil 15-martda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari lavozimiga *Sharof Rashidov* (1917 - 1983) saylandi. U bu lavozimda umrining oxirigacha samarali faoliyat ko'rsatdi.

Sharof Rashidov atoqli davlat, siyosat va jamoat arbobi hamda mashhur yozuvchi bo'lgan. 1917-yil 7-noyabrda *Jizzaxda* tug'ilgan. U 1950 - 1959-yillarda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining Raisi sifatida o'zidan yaxshi taassurot qoldirdi.

U iste'dodli tashkilotchi va mohir rahbar edi. Sh.Rashidov rahbarligida O'zbekiston iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishda muayyan muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Paxtachilikni rivojlantirish, yangi yerlarni o'zlashtirish, 1966-yildagi zilziladan so'ng Toshkentni qayta tiklash ishiga u ko'p kuch-quvvat va g'ayratini sarfladi. Toshkent metropoliteni qurilishi uning tashabbusi bilan boshlangan. Metropolitenning birinchi navbati (9 ta bekat) 1977-yil noyabrda ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 27-martda «Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida» qaror qabul qilindi.

1959 - 1970-yillarda *Yodgor Nasriddinova*, 1970 - 1978-yillarda *Nazar Matchonov*, 1978 - 1983-yillarda *Inomjon Usmonxo'jayev* O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi Raisi lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

1959 - 1961-yillarda *Orif Alimov*, 1961 - 1971-yillarda *Rahmonqul Qurbonov*, 1971 - 1984-yillarda *Normuhammad Xudoyberdiyev* O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Raisi lavozimida mehnat qildilar.

Yodgor Nasriddinova *Qo'qonda* tug'ilgan bo'lib, komsomol va partiya organlarida rahbar lavozimlarida ishlagan. U nafaqat O'zbekistonda yoki SSSRda, balki butun Sharqda parlament raisi bo'lgan birinchi ayoldir. Y.Nas-

riddinova 1970 – 1974-yillarda SSSR Oliy Soveti Millatlar Sovetining Raisi lavozimida ham faoliyat ko'rsatgan.

Xalqning moddiy ahvolidagi ijobiy siliishlar. XX asrning 60 – 80-yillarida avvalgi davrlarga nisbatan xalqning turmush darajasi nisbatan yaxshilandi, uning moddiy ahvolidagi ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Shahar va qishloq aholisi, xususan, qishloqlarda yashovchi o'zbek oilalari yangi uy-joylar qurib, Xonadonlarda televizor, muzlatkich, kir yuvish mashinalari hamda yangi avtomobillar paydo bo'lgan. Yashash zerikarli bo'lmay, hayotdan zavqlanish va lazzat olish paydo bo'ldi. O'zbek xalqining to'y-hashamlari ham dabdabali o'ta boshladi. Biroq bu davrda ham ma'naviyatga kuchli zarar yetkazilgan. Ayniqsa, O'zbekiston iqtisodiyoti Markaz manfaatlariga to'la bo'ysundirilgan.

SSSR Konstitutsiyasining 6-moddasida KPSSning sovet davlatidagi yetakchilik roli qonuniy mustahkamlab qo'yilgan edi. Ushbu moddada kommunistik partiya jamiyatning rahbarlik qiluvchi va yo'naltiruvchi kuchi deb yozilgan edi. Konstitutsiyaning bu moddasi jamiyatda partiyaning yetakchilik rolini ta'minlab berdi, uning sovet va jamoat tashkilotlari ustidan hukmronlik qilishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Bu davrda O'zbekistonda turli sanoat korxonalarini qurilgan, yangi shahar va posyolkalarga asos solingan. Mirzacho'l, Surxon-Sherobod va Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi natijasida ekin maydonlari kengaygan.

KPSSning rahbarlik roli va hokimiyatning joylardagi siyosiy organlari. Sovet jamiyatida davlat boshqaruvi organlari turli darajadagi sovetlar bo'lgan. Oliy Sovetdan boshlab qishloq sovetlarigacha bo'lgan organlar mehnatkashlar manfaatlarini himoya qilishlari kerak edi. Aslida esa bunday bo'lmagan.

1977-yil 7-oktyabrda qabul qilingan SSSRning yangi Konstitutsiyasi milliy respublikalar huquqini rasmiy chekladi va Markazga keng vakolatlar olib berdi. Bu konstitutsiya KPSS MK Bosh sekretari va SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi *Leonid Ilich Brejnev* (1906 – 1982) rahbarligida tayyorlandi va mamlakatda rivojlangan sotsialistik jamiyat qurish nazariyasini ilgari surdi.

Sovetlar va jamoat tashkilotlari huquqlarining cheklanganligi. O'zbekistonda ham, xuddi butun Ittifoqda bo'lgani singari, mehnatkashlar deputatlari tuman, shahar, viloyat sovetlari hamda respublika Oliy Soveti ikkinchi darajali masalalarni ham partiya komitetlaridan ruxsat olmasdan hal qila olmas edi. Xo'jalik rahbarlari o'z muammolari bilan sovetlarning ijroiya komitetlarini chetlab o'tib partiya organlariga murojaat qilar edi. Aholining ijtimoiy-maishiy masalarga doir shikoyat va takliflari ham partiya komitetlari tomonidan ko'rib chiqilardi.

Partiya organlari komsomol va boshqa jamoat tashkilotlariga ham qonunga xilof ravishda tazyiq o'tkazib kelgan. O'z navbatida, komsomol va

boshqa tashkilotlar partiya idoralarining ko'rsatmalarini bajarishga majbur bo'lgan. Buyruqlarni bajarmagan rahbarlar o'z lavozimidan ozod etilgan.

Sovet hokimiyati davrida *partiya nomenklaturasi* (partiya organlari bilan kelishib tayinlanadigan lavozimlar) deb atalgan tartib-qoida mavjud bo'lgan. Bu qoidaga ko'ra, mas'ul lavozimlarga faqat partiya a'zolari, ya'ni kommunistlar tayinlangan. Shu bilan birga, turli darajadagi sovetlar, kom-somol hamda jamoat tashkilotlari rahbarlari kommunistik partiya rahbariyati (Markaziy Komitet, viloyat, shahar va tuman partiya komitetlari) tarkibiga kiritilgan. Shu tariqa partiya organlari bu tashkilotlar bilan qo'shilib, ularni o'ziga bo'ysundirib olgan.

30.2. O'zbekistonda yoqilg'i va tog'-kon sanoatining vujudga keltirilishi hamda aholi milliy tarkibidagi o'zgarishlar

O'zbekiston qazilma boyliklarining Markaz manfaatlariga xizmat qildirilishi. O'zbekiston mineral xomashyo turlariga nihoyatda boy hudud hisoblangan. Respublikada ko'pgina foydali qazilmalar: oltin, uran, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, tabiiy gaz, neft, toshko'mir va boshqa konlar topilib, ishga tushirildi. Afsuski, bu konlarda qazib olingan foydali qazilmalar, xususan, oltin va uran, tabiiy gaz Markaz manfaatlariga xizmat qildi. Bu boyliklardan haqiqiy sohibi bo'lgan o'zbek xalqi deyarli foydalanmadi.

O'zbekistonning yerosti boyliklaridan qimmatbaho resurslarni so'rib olgan Ittifoq korxonalari olingan foydaning atigi *1 foizini* mahalliy byudjetga o'tkazgan.

Bu talonchilik mexanizmi iqtisodiyotni tag-tugi bilan quritib, o'zbek xalqi manfaatlariga mutlaqo zid bo'lgan. Oltin, uran, nodir rangli metallar, tabiiy gaz va boshqa strategik xomashyo favqulodda maxfiylik niqobi ostida O'zbekistondan tashqariga amalda tekinga olib ketilardi.

Tabiiy gaz konlarining ochilishi. O'zbekistonning tabiiy gaz mavjud bo'lgan tumanlarida faol geologik-qidiruv ishlari olib borishga XX asr 50-yillari boshlaridayoq kirishilgan edi. O'sha davrda *Jarqo'rg'on, Qorovulbozor, Sariqtosh* tabiiy gaz konlari ochilgan. Buxoro-Xiva geologik mintaqalarida *Gazli va Jarqoq, Shimoliy va Janubiy Muborak, Uchqir, O'rtabuloq va Kultak* kabi yirik tabiiy gaz konlarining, shuningdek, Hisor tog'larining janubi-g'arbiy tumanlarida *Odamtosh* kondensat koni, Ustyurtda istiqbolli gaz qatlamlarining topilishi ahvolni keskin o'zgartirib, O'zbekistonni jahondagi eng yirik gaz zaxiralari mavjud mintaqalardan biriga aylantirdi.

1956-yili Buxoro viloyatida dunyoda eng yirik va ulkan Gazli neft-gaz konining topilishi O'zbekistonda tabiiy gaz qazib chiqarishning tez sur'at-

larda rivojlanishiga asos bo'ldi. Jahondagi eng yirik gaz konlaridan biri hisoblangan bu konning umumiy zaxirasi 500 mlrd m^3 gaz bo'lgan. Bu yirik «zangori olov» bunyodkorlari – gazchilar yashaydigan *Gazli* shahriga zamonaviy bilan asos solindi. Tabiiy gaz qazib olish sur'atlari misli ko'rilmagan darajada oshirildi. 1960-yili 0,4 mlrd m^3 tabiiy gaz ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1975-yilga kelib bu ko'rsatkich 33,7 mlrd m^3 ga yetdi. Ittifoq hukumatining O'zbekistonda gaz ishlab chiqarishni oshirishdan maqsadi uni RSFSRning sanoat markazlariga ko'proq tashib ketish edi.

Butunittifoq gaz qazib chiqarishda O'zbekistonning ulushi 1960-yildagi 1 foizdan 1975-yili 20 foizga ko'tarildi. Bu nisbat keyinchalik ham doim ko'payib bordi.

Biroq O'zSSRda uy-joy fondini gazlashtirish salmog'i nihoyatda past edi. Bu hol, ayniqsa, respublikaning aksariyat aholisi yashaydigan qishloq joylarda yaqqol ko'zga tashlangan. Hatto Sovet Ittifoqining yevropa qismiga va sotsialistik mamlakatlarga gaz yetkazib beradigan Buxoro viloyatining o'zida ham ahvol nihoyatda achinarli bo'lgan. O'zbekiston gazi asosan respublikadan tashqariga jo'natilardi.

Qizilqumda oltin va uran konlarini o'zlashtirish. XX asr 50 – 60-yillarida O'zbekistonda oltin ishlab chiqarish sanoati ancha rivojlandi. Oltin va uran ajratib oluvchi komplekslar, fabrikalar, oltin ruda kombinatlari, shuningdek, mis rudasini qayta ishlovchi kombinatlar ishga tushirildi.

Bepoyon Qizilqum sahrosi markaziy tumanlarining sanoat jihatidan o'zlashtirilishi oltin va uran qazib olish sanoatining paydo bo'lishini taqozo etdi. 1958-yil 3-sentyabrda Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga poydevor qo'yilishi bilan *Navoiy* shahriga asos solindi. Kombinat O'zbekistonning 5 ta viloyatida joylashgan 5 ta kon boshqarmasi va ular negizida qurilgan *Navoiy*, *Sovetobod* (hozirgi Nurobod), *Zarafshon*, *Uchquduq* shaharlari, *Muruntov*, 1958-yil sentyabrda *Navoiy* shahriga asos solindi. 1982-yil aprelda maxsus *Navoiy viloyati* tashkil qilindi.

O'zSSR oltin va uran qazib olishda dunyoning yetakchi o'rinlaridan birini egalladi. XX asr 70 – 80-yillarida respublikada har yili taxminan 50 tonna atrofida sof oltin quymasi tayyorlangan. O'zSSR oltin yetkazib berish bo'yicha mamlakat oltinining yarmidan ko'pini bergan. Eng so'nggi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu davrda har yili O'zbekistonda yerosti konlaridan taxminan 5,5 mlrd dollar bahosida foydali qazilmalar olingan. Bu paytda oltin zaxiralari bo'yicha yurtimiz dunyoda *yettinchi* o'rinni egallagan.

Yangi sanoat shaharlariga asos solinishi hamda demografik jarayonlardagi o'zgarishlar. O'zbekistonda zamonaviy kon-metallurgiya sanoatiga asos solinishi uning industrial qiyofasini o'zgartirib yubordi. Ko'plab

yangi shaharlar va posyolkalar (shaharchalar) qurildi. Ayniqsa, Ittifoqqa bo'ysunuvchi va «yopiq shaharlar» deb ataluvchi *Navoiy, Zarafshon* va *Ishqadug* kabi shaharlarga boshqa mintaqalardan ishchi kuchi jadallik bilan olib kelindi. Yopiq shaharlar mahalliy hokimiyatga bo'ysunmagan. Bu joylarda maxfiy korxonalar joylashgan bo'lib, ular faqat Markazga hisob berardi. Ishlab chiqarishda band bo'lgan butun aholi, odatda, kelgindilardan tashkil topib, mahalliy aholi yopiq shaharlardan turli bahonalar bilan chiqarib yuborilgan.

Ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishini yopiq shaharlar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bu yerga Markazdan ko'chirib keltirilgan kadrlar navbatsiz uy-joy va turli imtiyozlar bilan ta'minlangan. Holbuki, qishloqlardan kelgan o'zbek yigit-qizlari uy-joyga ega bo'lish uchun eng qora ishlarni bajarishga majbur bo'lishar va ko'p yillar mobaynida uy-joy olish uchun navbatda turishardi. Shuningdek, mahalliy yoshlar doimo kamsitilgan.

O'zbekistonda asrlar mobaynida shakllangan va mintaqaning tub yerli xalqlari vakillaridan iborat bo'lgan aholining ko'p millatli tarkibi sovet hokimiyati yillarida, xususan, XX asr 60 – 80-yillarida yevropalik turli xalqlar va boshqalar hisobiga yanada kengayib bordi. Bu paytda O'zbekistonda 127 ta millat va elatlar yashagan. Bu yerda mahalliy aholidan tashqari turli mintaqalardan ko'chib kelgan ruslar, tatarlar, ukrainlar, koreyslar va boshqa xalqlar yashardi. Yirik sanoat korxonalarida ishlovchi o'zbeklar soni bu paytda nihoyatda kamayib ketdi.

30.3. O'zbekistonda ekologik vaziyatning og'irlashishi va Orol fojiasi

Ekologik muvozanatning buzilishi. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi asosan inson faoliyati natijasida, ya'ni insonning tabiiy jarayonlarga aralashuvi kengayib va o'huqurlashib borishi sababli paydo bo'ladi. XX asr 60 – 80-yillarida bu muammo bashariyat uchun katta xavf tug'dirdi. Insonning xo'jalik faoliyati yildan yilga kuchayib bordi, qo'riq yerlar o'zlashtirildi, elektr stansiyalari va zavod-fabrikalar qurildi, yangi shaharlar soni ko'paydi. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, transport faoliyatining nazoratdan chetga chiqib ketishi esa tabiatda mavjud muvozanatni buzib, noxush ekologik vaziyatni vujudga keltirdi.

Olimlar butun dunyoda ekologik muvozanat buzilgan, buning xavf-xatari yadro urushi xavfidan qolishmaydi deb turgan bir paytda sovet hokimiyati va kommunistik partiya bizning mamlakatimizda ekologiya muammosi yo'q deb

bu tahdidning oldini olish uchun hech qanday chora ko'rmadi. O'zbekiston olimlari va keng jamoatchilikka bu xavf to'g'risida gapirishga yo'l qo'yilmadi.

O'zbekistondagi barcha yirik og'ir sanoat tarmoqlari: metallurgiya, neft-gaz, energetika, kimyo korxonalari Ittifoq vazirliklari va mahkamalari qaramog'ida bo'lgan. Ekologiyani asosan o'sha tarmoqlarning korxonalari buzib keldi. Biroq Markaz idoralari respublika aholisi salomatligini emas, balki kam sarf qilib, ko'p daromad olishni o'ylardi.

Yirik sanoat shaharlaridagi korxonalar atrof-muhitni zaharli gazlar va chiqindilar bilan ifloslantirgan. Ayniqsa, kimyo zavodlari va kombinatlari ekologik vaziyatga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu zavodlarning xavfli tomoni shunda ediki, O'zbekiston aholi zich yashaydigan mintaqalardan hisoblanardi. Kimyo zavodlari asosan aholisi ko'p bo'lgan *Navoiy, Chirchiq, Farg'ona* shaharlarida qurilgan edi. *Zarafshon, Uchquduq, Olmaliq, Bekobod* va poytaxt *Toshkent* shahrining ham ekologik holati yomon bo'lgan.

Markaz ko'rsatmasi bilan O'zbekiston paxtazorlarida g'o'za zararkundalari va kasalliklarga qarshi kurashda o'ta zaharli kimyoviy moddalar ishlatildi. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublikada 90 000 tonna pestitsidlar qishloq xo'jaligida qo'llanildi. Zaharli moddalar bilan ishlov berish maydonlarning taxminan yarmida samolyotlarda bajarildi. Bu holat havo va suvni zaharlab, aholi salomatligi hamda tabiat va hayvonot dunyosiga katta zarar yetkazdi.

Zaharlilik darajasi yuqori bo'lgan kimyoviy modda – *butifos* g'o'zani defoliatsiya qilish (bargini to'kish) uchun O'zbekistonda 20 yil davomida ishlatildi. Defoliatsiya asosan samolyotlarda bajarilar edi. Ko'p hollarda butifos har gektar paxta maydoniga belgilangan me'yordan 2 – 3 baravar ko'p ishlatilgan. Zaharli butifosning defoliatsiyada keng qo'llanilishi atrof-muhit va odamlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston rahbariyati 1981-yili respublikada bu kimyoviy moddadan foydalanishni taqiqlasa ham, ayrim xo'jaliklar mazkur usuldan keyinchalik ham foydalandilar.

Orol dengizining qurishi va uning dahshatli oqibatlari. XX asrning 60-yillaridan sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida dengizga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildan yilga kamaya bordi. Oqibatda Orol dengizida suv sathi jadal sur'atlarda pasayib, u quriy boshladi. Dengiz suvining sho'rlanishi kuchayib, baliq va boshqa suv jonivorlari keskin kamayib ketdi.

Orol dengizining qurib borishi Markaziy Osiyo mintaqasi hamda qo'shni davlatlar ekologiyasiga misli ko'rilmagan darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Orolbo'yi mintaqasida og'ir vaziyatning yuzaga kelishi. Orolbo'yi (Quy Amudaryo) mintaqasi ma'muriy jihatdan O'zbekiston va Qozog'iston hudud-

laridan iborat bo'lib, Orol dengizining qurishi natijasida bu yerda og'ir ekologik vaziyat yuzaga keldi. Amudaryoning quyi oqimida baliqchilik, mo'ynachilik, ovchilik xo'jaliklari yo'q bo'lib ketdi. Paxtachilik va chorvachilik 1980 – 1985-yillarda har yili *30 mln rubldan ortiqroq* zarar ko'rdi.

Orolbo'yi mintaqasida vujudga kelgan og'ir vaziyat yerli xalq ahvolini nihoyatda tang qilib qo'ydi. Bu yerda turli xil kasalliklar ko'paydi. Yosh bolalar o'limi ortib bordi. Majruh tug'ilgan bolalar soni ham ortib, bir yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim har ming bolaga nisbatan 1980-yildagi *46,5 nafardan* 1986-yilda *72 nafarga* yetdi. Ayollarning *60 foizi* kamqonlik kasalligiga chalingan edi. Orolbo'yida qorin tifi kasalligi *30 marta*, yuqumli sariq kasalligi *7 marta* ortdi, ayniqsa, saraton (rak) kasalligi ko'payib ketdi.

Orolbo'yi mintaqasida vujudga kelgan og'ir ekologik vaziyatda, ayniqsa, dengizga yaqin bo'lgan *Mo'ynoq, Qo'ng'iroq, Chimboy* shaharlari va atrofidagi ovullar aholisi ko'p aziyat chekdi. Baliqchilik bilan nom chiqargan mo'ynoqliklarning ko'pchiligi 10 – 15 yil ichida ishsiz va nochor ahvolga tushdi. Qiyinchiliklarga qaramay, o'z yerida qolgan mahalliy xalq murakkab muammolar iskanjasida qoldi.

Hozirgi vaqtda Orol dengizi 3 bo'lakka bo'lingan: birinchisi kichik va sayoz shimoliy qismi; ikkinchisi nisbatan kattaroq maydonga ega bo'lgan va sayoz sharqiy qismi; uchinchisi eng chuqur hisoblangan g'arbiy qismi.

Orolqum – dunyodagi eng yosh cho'l. Orol cho'li (Orolqum) O'rta Osiyoda sug'orishning tez sur'atlarda rivojlanishi munosabati bilan Orol dengiziga quyilayotgan Amudaryo va Sirdaryo suv hajmining kamayib borishi va tabiiy bug'lanishning yuqoriligi tufayli Orol dengizining *40 000 km²* dan ziyod qismi quruqlikka aylanishi natijasida XX asr oxirida vujudga keldi. Quruqlik tipik qum-sho'rxokli cho'l xususiyatiga ega.

SSSR parchalangach, yangi tashkil topgan O'zbekiston va Qozog'iston davlatlari rahbarlari bir necha marta uchrashib, mavjud muammoni hal qilishga kirishdilar.

«Markaziy Osiyoning hududi bo'ylab sug'orish tizimlarini jadal sur'atda qurish ko'plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko'lamdagi fojia – Orol halok bo'lishining sababiga ham aylandi. Yaqin-yaqinlargacha cho'l-u sahrolardan tortib olingan va sug'orilgan yangi yerlar haqida dabdaba bilan so'zlanardi. Ayni chog'da, ana shu suv Oroidan tortib olinganligi, uning «jonsizlantirib qo'yilganligi» xayolga kelmasdi. Endilikda Orolbo'yi ekologik kulfat hududiga aylandi».

***O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti
Islom Karimov nutqidan.***

31-BOB. O'ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING INQIROZI VA MUSTAQILLIK UCHUN HARAKATLAR (1984 - 1991-yillar)

31.1. O'zbekistonda paxta ishi va uning oqibatlari

SSSR va O'zbekiston SSR siyosiy rahbariyatidagi o'zgarishlar. Mamlakat siyosiy hayotida 1982 - 1985-yillarda ko'plab o'zgarishlar yuz berdi. Siyosiy rahbariyatdagi bunday o'zgarishlar O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi.

1982-yil noyabrda KPSS MK Bosh sekretari, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Raisi *Leonid Brejnev* vafot etdi. U mamlakat va partiyani 18 yil davomida boshqargan edi. 1982 - 1984-yillarda *Yuriy Andropov*, 1984 - 1985-yillarda *Konstantin Chernenko* Sovet Ittifoqiga rahbarlik qildi. 1985-yil 11-martda *Mixail Gorbachyov* KPSS MK Bosh sekretari, 2-iyulda *Andrey Gromiko* SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Raisi lavozimlariga saylandi. 1985-yildan mamlakatda qayta qurish siyosati boshlandi.

1983-yil oktyabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari *Sharof Rashidov* vafot etdi. U respublikani qariyb chorak asr davomida boshqargan edi. 1983 - 1988-yillarda *Inomjon Usmonxo'jayev*, 1988 - 1989-yillarda *Rafiq Nishonov* O'zbekistonga rahbarlik qildi.

XX asrning 80-yillariga kelganda sovet rejimi, uning siyosiy tizimi va xo'jalik yuritish usullari o'zining rivojlanish imkoniyatlarini tugata boshladi. O'zbekiston iqtisodiyoti katta xomashyo va tabiiy boyliklar zaxirasiga ega bo'lishiga qaramay, SSSRning markaziy hududlaridan ancha ortda qola boshlagan. Ana shunday sharoitda O'zbekistonning o'sha paytdagi siyosiy rahbariyatida iroda, qat'iy jur'at, Sovet Ittifoqi doirasida respublika tutgan mavqeyini ochiq-oydin aytib o'tish uchun mardlik yetishmadi. Bu rahbarlar Markaz topshiriqlarini tezroq «uddalash», respublikaning SSSRga boqimandada ekanligi to'g'risidagi uydirmalarni takrorlashdan nariga o'tishmadi.

Paxta ishi - sovet rejimining O'zbekistondagi so'nggi qatag'on siyosati. O'zbekiston SSRning ijtimoiy-siyosiy hayotida 1984-yil 23-iyunda bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumi mash'um rol o'ynadi. Moskva tashabbusi va ko'rsatmasi bilan tashkil qilingan bu plenumda qabul qilingan hujjatlar O'zbekistonda o'zbek xalqini asossiz badnom qilish kampaniyasini boshlab berdi. Plenumda Moskvadan maxsus yuborilgan KPSS MK sekretari *Y.K.Ligachyov* va boshqalar qatnashib, Kreml ko'rsatmalarini izchillik bilan bajarilishini talab qilishgan.

Aynan ushbu plenum qarorlari bilan Markaz tomonidan O'zbekistonda «paxta ishi» deb atalgan siyosiy qatag'onlar boshlandi. Keyinchalik bu qata-

1983 yil boshida O'zbekiston SSRning o'sha paytdagi sobiq va birinchi rahbarlarini qatag'on qilishni o'z ichiga olib, qatag'on qilishni o'z ichiga olib o'tmadi.

SSSR Bosh prokurori huzurida alohida muhim ishlar bo'yicha maxsus tergovchilar guruhi «Paxta ishi» sud majlisi tuzilib, ularning dastlabkisi 1983 yil boshlarida O'zbekistonga yuborilgan edi. Ana shunday maxsus tergov guruhlarining asosiylaridan biri *T.X.Gdlyan* va *N.V.Ivanov* rahbarligida 1983 yil aprelda tuzilgan edi. Ular keyinchalik Markazdan respublikaga kelgan «desantchilar»ga O'zbekistonda navbatdagi qatag'onni amalga oshirdi.

1983 – 1987-yillarda Moskva, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) va SSSRning boshqa shaharlaridan *1000 nafarga yaqin* «desantchi» O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy-xo'jalik organlariga yuqori rahbarlik lavozimlariga ishga yuborilgan edi. O'sha paytda «desantchilar» va 3000 nafardan ortiq tergovchilarga mahalliy rahbarlar va respublika huquq-tartibot organlarining ko'plab xodimlari katta yordam bergan.

1985 – 1990-yillarda O'zbekistonda «paxta ishi» degan uydirma bo'yicha jami *40 000 kishi* tergov qilindi, ularning aksariyati tergov izolyatorlarida prokuror sanksiyasiz o'tirdi, *5000 nafar* kishi esa soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi. Tergov jarayonida inson huquqlari toptalib, tutqunlarga jismoniy va ruhiy tazyiq o'tkazildi. Ularning oila a'zolari va qarindosh-urug'lari ham qamoqqa tashlandi. Kadrlarni almashtirish siyosati ayanchli tus oldi.

«Paxta ishi»ning «o'zbeklar ishi»ga aylantirilishi va mohiyati. Markaziy matbuotda e'lon qilingan maqolalarda o'zbek xalqi badnom etilib, paxta ishiga ataylab siyosiy tus berildi va u «o'zbeklar ishi»ga aylantirildi. Bu siyosiy kampaniyani O'zbekistonning o'sha paytdagi rahbarlari qo'llab-quvvatlashdi.

Markazdan yuborilgan kommunistik amallar O'zbekistonning partiya va hokimiyat tizimida asosiy o'rinlarni egallab, o'zbek xalqiga qarshi qatag'onni avj oldirdilar. Qatag'on qilichi, eng avvalo, O'zbekistonning sobiq rahbari, marhum Sharof Rashidov xotirasiga qarshi ko'tarildi. «Sharof Rashidovchilik» degan sun'iy ibora o'ylab topilib, undan Sh.Rashidovni o'limidan so'ng badnom qilish va shuhratini yerga urishda foydalanildi.

Xullas, sovet rejimining paxta ishi oqibatida O'zbekistonda minglab kishilar nohaq ravishda jazolandi. Xalq xo'jaligi sohalarida qo'shib yozish, poraxo'rlik va korrupsiyaga aloqador jinoyatlar SSSRning deyarli barcha hududlarida yuz bergan bo'lsa ham, «tajriba maydoni» sifatida O'zbekiston tanlandi hamda jinoiy ishga aloqador kishilardan tashqari ko'plab odamlar aybsiz jazoga tortildi. Kommunistik mafkuraning qatag'on qilichi bu bilan cheklanmasdan, «paxta ishi»ni «o'zbeklar ishi»ga aylantirishga urindi. Qatag'on siyosatini amalga oshirishda Markaz rahbariyati va vakillaridan tashqari O'zbekistonning o'sha paytdagi siyosiy rahbariyati, xalqimiz orasidan

chiqqan hamda tergovchilar bilan hamkorlik qilgan va ularning g'arazli ishlariga ko'maklashgan ayrim qo'rqqoq va xoinlar ham faollik ko'rsatdi. Bu tarixning achchiq haqiqati.

31.2. Qayta qurish siyosati va uning inqirozi. Farg'ona fojialari

Qayta qurish va uning bosqichlari. KPSS MK aprel (1985-yil) plenumi sovet jamiyati hayotining barcha sohalarini chuqur isloh qilish yo'lini e'lon qildi. Qayta qurishning asosiy tarkibiy qismlari deb ijtimoiy hayotni demokratlashtirish va tub iqtisodiy islohot o'tkazish belgilandi.

Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi mamlakatda to'planib qolgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy sohalaridagi muammolarni «qayta qurish» yo'li bilan hal etishdan iborat bo'lgan.

Qayta qurishning *birinchi bosqichi* (1985 – 1986-yillar) ma'muriy tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borilishi bilan izohlanadi. Mazkur bosqichda ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning asnosida inson omilini faollashtirish mo'ljallangan edi.

Qayta qurishning *ikkinchi bosqichi* (1987 – 1989-yillar) jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Xususan, 1987-yil yanvar va 1988-yil iyunda bu vazifalar yanada konkretlashtirildi, uning asosiy maqsadi sovet jamiyatini to'liq demokratlashtirishdan iborat ekanligi ta'kidlandi.

Qayta qurish oshkorlik, demokratiya va fikrlar xilma-xilligining ma'lum ma'noda kuchayishiga imkoniyat yaratdi. Ammo mamlakatda tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazish mumkin bo'lmadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy inqirozning keskinlashuvi. Ana shunday sharoitda O'zbekistonning o'sha paytdagi rahbariyati Markaz oldida o'zining no'noq va noshudligini ko'rsatdi. Respublika rahbariyati Markazdan qochish va uni inkor etish siyosati o'rniga ko'proq unga yaqinlashish va mustahkam birlashish yo'lini tanladi.

O'sha paytdagi O'zbekiston siyosiy rahbariyati ijtimoiy-ma'naviy sohada milliylikning har bir ko'rinishi «internatsionalizm» mohiyatiga yot ekanligini isbotlashga urindi. Bu narsa o'zbek tili, islom dini, milliy urf-odat va an'analar, marosimlar, Navro'z bayramiga munosabatda yaqqol ko'rindi.

Qayta qurish siyosatining barbod bo'lishi. Mamlakatda bo'lgan qayta qurish jamiyatning ijtimoiy va siyosiy tuzilishida bir qator o'zgarishlarni kel-

irib chiqardi. KPSSning sovet jamiyatidagi rahbarlik va yetakchilik mavqeyiga putur yetdi, saylov tizimini o'zgartirish to'g'risida qonun qabul qilindi.

Qayta qurish pirovardida siyosiy jihatdan safsataboqlikka aylanib, tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish va boshlangan islohotlarni oxirigacha yetkazish imkoniyatini bermay mag'lubiyatga uchradi. Bu holatning sabablari quyidagicha edi:

Birinchidan, qayta qurishning aniq va izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan dasturi yo'q edi. Demokratiya va oshkoralik kabi shiorlar haqida ko'p gapirilsa ham, amalda partiya siyosiy rahbariyati eski qarashlar girdobida bo'lib, rahbarlikning demokratiyaga zid bo'lgan ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan foydalanish davom etardi.

Ikkinchidan, mamlakatdagi partokratik rahbariyat «nomenklatura»ni saqlab qolishdan manfaatdor edi. Chunki mamlakatni eskicha usulda boshqarish oson edi.

Uchinchidan, qayta qurishda milliy respublikalarning suvereniteti haqida gapirilsa ham, Ittifoqni yangilangan holatda saqlab qolish ko'zda tutilgan edi. Kreml ittifoqdosh respublikalarning SSSRdan ajralib, mustaqil davlat tuzishlariga qarshi jon-jahdi bilan qattiq turdi.

To'rtinchidan, M.S.Gorbachyov g'oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirish mumkin emas edi. Chunki sotsializm doirasidagi mulkiy munosabatlar, ijtimoiy sohadagi siyosat, milliy va diniy siyosat, yakkapartiyaviy rahbarlik va mustabid boshqaruv usuli hech qachon demokratiya va oshkoralik bilan kelisha olmagan.

Farg'ona fojiasi va uning mohiyati. Markaz jilovni qo'ldan bermaslik uchun butun imkoniyatlarni ishga solayotgan bir sharoitda 1989-yil may – iyun oylarida *Quvasoyda* yoshlar o'rtasida bo'lgan bezorilik vodiya millatlararo to'qnashuvni (mesxeti turklari bilan mahalliy yoshlar o'rtasida) keltirib chiqardi. U Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatiga tarqalib, xavfli tus oldi.

1989-yil 7 – 8-iyunda *Qo'qon* shahrida mahalliy aholi qatnashgan tinch namoyish harbiy qism askarlari tomonidan o'qqa tutilishi natijasida *50 dan ziyod* namoyishchilar halok bo'ldi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 1989-yil 3 – 12-iyunda Farg'ona viloyatida bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar va namoyishchilarning harbiylar tomonidan o'qqa tutilishi natijasida *103 nafar* kishi halok bo'lgan, *1011 nafar* kishi jarohatlangan va *757 xonadonga* o't qo'yilib, vayron etilgan.

Farg'ona fojialaridan keyin O'zbekistonning *Islom Karimov* boshchiligidagi yangi siyosiy rahbariyati bu masalada prinsipial mavqeni egalladi. O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni o'rganib, unga to'g'ri baho berar ekan,

Islom Karimov matbuot konferensiyalarining birida: «O'zbekiston yana bir Farg'onaga chidab tura olmaydi», – deb ta'kidladi.

«Huquqni muhofaza etish organlari o'z noqobilliklarini ko'rsatdi. Ular ommaviy tartibsizliklarning oldini olish u yoqda tursin, ko'pincha shu tartibsizliklarga o'zlari yo'l ochib berdilar. Keyinchalik esa, yana vaziyat barqarorlashib tergov boshlangach, ular ishni yuzaki yuritishni afzal ko'rdilar. Oqibatda fojia ning bosh tashkilotchilari va asosiy sababchilari panada qolib ketdi».

Islom Karimov

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi. 1989-yil 21-oktyabrda respublika Oliy Sovetining XI sessiyasi «O'zbekiston SSR davlat tili haqida» Qonunni qabul qilib, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berdi. Qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqi va respublikada yashovchi boshqa xalqlarning madaniy, ma'naviy va siyosiy hayotida ro'y bergan muhim voqea edi.

Qonun o'zbek tili va madaniyatining rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Shu bilan birga, unda respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning tillarini rivojlantirish imkoniyatlari ham belgilab berildi.

1990-yil iyunda Farg'ona vodiysining *O'sh* va *O'zgan* shaharlarida (qo'shni Qirg'iziston hududida) qirg'izlar bilan o'zbeklar o'rtasida etnik mojaro kelib chiqdi. Bu mojaro (O'sh qirg'ini) natijasida minglab gunohsiz o'zbeklar halok bo'ldi. Markaz murakkab etnik vaziyatdan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga intildi, azaliy qon-qardosh hisoblangan turkiy xalqlarni bir-biriga qarshi qo'ydi. Ana shunday murakkab bir sharoitda o'zbek xalqi asrlar davomida sinovdan o'tgan o'zining sabr-toqati va bardoshini, bag'rikengligini namoyish qildi, turli siyosiy kuchlar va g'alamislarning ig'volariga uchmadi. O'zbekiston hukumati ham bu masalada izchil siyosat olib bordi, butun mintaqada tinchlikni saqlashda muhim rol o'ynadi.

31.3. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida

O'zbekiston SSR siyosiy rahbariyatidagi yangi o'zgarishlar. 1989-yil 23-iyunda tajribali iqtisodchi va partiya xodimi *Islom Karimov* O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari etib saylandi. U o'zi saylangan plenumda so'zlagan nutqida O'zbekistonning ittifoqda tutgan o'rni va rolini aniq va ravshan belgilab berdi, madaniy merosni va tarix haqiqatini tiklash, milliy urf-odatlar va an'analarni rivojlantirish obyektiv zaruriyat ekanligini ta'kidladi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetiga 1989 – 1990-yillarda *Mirahmad Mirqosimov* va 1990-yil mart – oktyabr oylarida *Shukurulla Mirsaidov* raislik qildi.

«Birlik» xalq harakati va «Erk» demokratik partiyasining ijtimoiy cheklanganligi va xatolari. Bu davr O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy

uzgarishlar, ayniqsa, jamoat tashkilotlarining faollashuvi va siyosiy madaniyatning keskin ko'tarilishi yuz berdi. 1988-yil noyabrda «Birlik» xalq harakati (rahbari professor *Abdurahim Po'latov*) jamoat tashkiloti sifatida tashkil topdi. Shuningdek, harakat huzurida O'zbekiston yoshlarining erkin uyushmasi (1988-yil noyabrda asos solingan) hamda «To'maris» ayollar harakati ham faoliyat ko'rsatdi. Ular XX asr 80-yillari oxiri va 90-yillari boshlarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynadi. Harakatning «Birlik», «To'maris» va boshqa gazetolari yarimochiq holatda nashr etildi hamda O'zbekiston aholisi o'rtasida tarqatildi.

«Birlik» xalq harakati faollarining bir guruhi keyinchalik modern shoir *Muhammad Solih* (Saloy Madaminov) boshchiligida siyosiy partiya tuzish uchun harakat boshladilar. 1990-yil 30-aprelda «Erk» demokratik partiyasining ta'sis qurultoyida uning dasturi va nizomi qabul qilindi. Partiya tomonidan 1990 – 1992-yillarda nashr etilgan «Erk» gazetasi O'zbekiston aholisi o'rtasida juda mashhur bo'lib ketdi.

Bu harakat va partiyalar (keyinchalik O'zbekistonda demokratik ruh-dagi boshqa siyosiy partiyalar va harakatlar ham tashkil topdi) oshkoralikni kengaytirish, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni faollashtirish, o'zbek xalqi milliy qadriyatlari, xususan, an'ana va marosimlarni qayta tiklash, shuningdek, respublika hayotida Markaz hukmronligiga barham berish hamda O'zbekistonning tom ma'nodagi siyosiy va iqtisodiy mustaqilligiga erishish talablari bilan chiqdi. Biroq bu harakat va partiyalarning rahbarlari keyingi yillarda O'zbekiston Prezidenti va O'zbekiston Oliy Kengashi siyosatiga muxoliflik yo'lga o'tdilarki, bu narsa jamiyatdagi fuqarolar totuvligi va hamjihatligiga putur yetkaza boshladi. Shundan keyin 1992-yildan «Birlik» va «Erk» O'zbekiston hududida o'z siyosiy faoliyatini to'xtatdi.

O'zbekiston SSRda prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi. 1990-yil martda bo'lgan O'zbekiston SSR Oliy Sovetining o'n ikkinchi chaqiriq I sessiyasida O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi ta'sis etildi va O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi *Islom Karimov* O'zbekiston SSR Prezidenti qilib saylandi. Ittifoqdosh respublikalar o'rtasida birinchi bo'lib O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi joriy qilindi.

Prezidentlik boshqaruvining paydo bo'lishi va taraqqiyoti respublikada quyidagi bosqichlardan iborat bo'ldi:

1990-yil 12 – 15-martda *Moskvada* bo'lgan SSSR Xalq deputatlarining navbatdan tashqari III syezdida SSSR Prezidenti lavozimi ta'sis etilib, bu lavozimga KPSS MK Bosh sekretari, SSSR Oliy Sovetining raisi *Mixail Sergeyevich Gorbachyov* saylangan edi.

Birinchi bosqich 1990-yil mart – oktyabr oylarini tashkil qiladi. Unda 1990-yili mart oyida O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda «O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, O'zbekiston SSRning birinchi Prezidenti saylandi. 1990-yil iyun oyida O'zbekistonning Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi.

Ikkinchi bosqich 1990-yil noyabr – 1991-yil avgust oylarini o'z ichiga oladi. 1990-yil 1-noyabrda «O'zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni, 1978-yil qabul qilingan)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Qonunga ko'ra, O'zbekistonda prezidentlik hokimiyati bilan Ministrlar Sovetining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborildi. O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. O'zbekiston SSR Prezidenti Islom Karimov ayni bir vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi bo'ldi. Islom Karimov ayni bir vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi lavozimida 2005-yil yanvar oyigacha ishladi.

Uchinchi bosqich 1991-yil sentyabr – 1992-yil yanvar oylaridan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin 1991-yil 29-dekabrda birinchi marta yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilgan to'g'ridan to'g'ri, umumiy va muqobil asosdagi prezidentlik saylovida Islom Karimov 5 yil muddatga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qilib saylandi. Bu bosqich 1992-yil 4-yanvarda «O'zbekiston Respublikasining vitse-prezidenti lavozimini tugatish hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimini ta'sis etish va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirish kiritish to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishi bilan yakunlandi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati. O'zbekistonda, keyinchalik boshqa ittifoqdosh respublikalarda prezidentlik lavozimining joriy qilinishi Markaz uchun kuchli zarba bo'ldi. Shunga qaramay, Moskva va uning respublikalardagi yugurdaklari butun imkoniyatlarini ishga solib Ittifoqni saqlab qolish yo'lidan bordi.

1990-yil 20-iyunda bo'lgan O'zbekiston SSR Oliy Soveti o'n ikkinchi chaqiriq II sessiyasida Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi. Aynan Mustaqillik Deklaratsiyasi O'zbekistonning mustaqilligi sari tashlangan juda muhim va zalvorli qadam bo'ldi. Xullas, Mustaqillik Deklaratsiyasi O'zbekiston milliy davlat mustaqilligining huquqiy va siyosiy asoslarini yaratish uchun katta xizmat qildi. 14-dekabrda O'zbekiston SSR tarkibidagi Qoraqalpog'iston ASSR suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi.

Yangi Ittifoq shartnomasi va GKChP. O'zbekistondagi bunday voqealar hamda Sovet Ittifoqi tarkibidan 1990-yil mart – may oylarida *Litva, Latviya* va *Estoniyaning* chiqib ketishi SSSRning davlat butunligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. 1990-yili SSSRda kommunistik partiyaning hukmronligidan voz kechildi va milliy harakat kuchaydi. Boltiqbo'yi mamlakatlari o'z mustaqilliklarini e'lon qildi. Hatto 1990-yil 12-iyunda RSFSRning davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi. 1991-yil 17-martda birinchi marta SSSRda umumxalq referendumini o'tkazilib, Markaz tomonidan Ittifoqni saqlab qolish uchun jiddiy harakat qilindi.

1991-yil 23-aprelda Moskva yaqinidagi *Novo-Ogaryovoda* SSSR Prezidenti M.Gorbachyov hamda 9 ta ittifoqdosh respublikalar: RSFSR, Ukraina, Belorussiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston davlat oliy idoralari rahbarlarining uchrashuvida «Mamlakatdagi ahvolni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida qo'shma bayonot» qabul qilindi. Bayonotda yangi Ittifoq shartnomasi hujjati loyahasini tayyorlash ishini yaqin vaqt ichida tugallash ta'kidlandi. Qo'shma bayonot «9 + 1» (to'qqiz respublika + Markaz) degan nomni oldi. Jarayonlar murakkab kechdi, tortishuvlar uzoq davom etdi. «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risida shartnoma» loyihasi O'zbekiston matbuotida 28-iyun va 16-avgust kunlari e'lon qilindi. 20-avgustda yangi Ittifoq shartnomasi imzolanishi kerak edi.

Moskvada 1991-yil 19 – 21-avgustda yuz bergan voqealar, KPSS MK Bosh kotibi va SSSR Prezidenti M.S.Gorbachyovning hokimiyatdan chetlashtirilib, vitse-prezident *Gennadiy Yanayev* boshchiligidagi oliy eshelon rahbarlari tomonidan Favqulodda Holat Davlat Komiteti (GKChP) tuzilgani, biroq tez orada uning RSFSR prezidenti *Boris Yelsin* rahbarligidagi demokratik kuchlar tomonidan bostirilishi SSSRning kelajagi yo'qligidan dalolat berardi.

Isyon barbod bo'lgach, SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublikalar o'z mustaqilligini e'lon qildi. KPSS va SSSR tanazzulga uchradi. KPSS siyosiy partiya sifatida 1991-yil 29-avgustda o'z faoliyatini to'xtatdi. 1991-yil dekabrda SSSR davlati ham xalqaro huquq subyekti sifatida barham topdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi. O'zbekiston hali Ittifoq tarkibida bo'lib, SSSRning konfederativ davlatga aylanishiga ko'pchilik umid qilib turgan mahalda muhim siyosiy voqea yuz berdi. O'zbekiston o'zini SSSRdan mustaqil deb e'lon qildi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risida prezident I.A.Karimovning ma'ruzasi tinglandi. Sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

Mazkur qonun 17 moddadan iborat bo'lib, unda suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilari aniqlab berildi.

Shunday qilib, xalqimizning mustaqillikka erishishdek asrly orzusi ro'yobga chiqdi. Rossiya imperiyasi va SSSRning 125 yil davom etgan mustamlakachilik davriga chek qo'yildi. O'zbek xalqining muqaddas va tarixiy orzusi ushalib, O'zbekiston Respublikasi tinch parlament yo'li bilan o'zining mustaqil davlatchiligiga qayta erishdi. Bu nodir voqea kamida 3500 yillik o'tmishga ega o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixiga zarhal sahifalar bo'lib yozildi. Mustaqillik xalqimizning XX asrda erishgan eng yuksak yutuqi, «dodlarimiz to'kkan qutlug' va tabarruk qonning mahsuli hisoblanadi.

32-BOB. MUSTAQILLIKNING E'LON QILINISHI VA O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-SIYOSIY ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo'lga kiritilishi

Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi. 1990-yil 20-iyun kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining II sessiyasida O'zbekiston SSRning Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi.

Mustaqillik Deklaratsiyasidagi «O'zbekistonni kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umum-bashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib O'zbekiston SSRning davlat mustaqilligini e'lon qiladi» degan satrlar mustaqillik uchun tashlangan dastlabki qadamni anglatar edi. Ushbu Deklaratsiyaning qabul qilinishi O'zbekistonning mustaqillik uchun kurashining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan Deklaratsiyani qabul qilishda respublika Oliy Kengashi deputatlari faollik ko'rsatdilar. «Mustaqillik Deklaratsiyasi»da har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi qayta-qayta ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olinishi uqtirildi.

«Mustaqillik Deklaratsiyasi» kirish qismiga quyidagicha yozib qo'yildi: «O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va

demokratiya prinsiplariga asoslanib O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi».

Mustaqillik uchun harakatlarning faollashishi. 1991-yilning 19 – 21-avgustida Sovet Ittifoqida davlat to'ntarishi sodir etildi. Mamlakatda mavjud siyosiy hokimiyat ag'darilib, favqulodda holat joriy etildi va hokimiyat Favqulodda holat davlat komiteti (GKChP – государственный комитет по чрезвычайному положению) qo'liga o'tdi. Ularning maqsadi Ittifoq hududida yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikni qo'lga kiritishlariga yo'l qo'ymaslik edi. Ana shunday vaziyatda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining Rayosati, O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi 1991-yil 21-avgustda qo'shma majlis o'tkazib, unda «SSSR GKChPning O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi va qonunlariga zid hujjatlari O'zbekiston hududida amal qilmaydi» degan qaror qabul qildi.

1991-yil 25-avgust kuni esa O'zbekiston SSR Prezidenti mamlakatimizning to'la mustaqilligi yo'lida tamal toshini qo'ygan yana bir muhim farmonni e'lon qildi. Farmonda jumladan, shunday deyiladi:

«Mamlakatda vujudga kelgan ahvolni e'tiborga olib va respublika manfaatlarini himoya qilish maqsadida Respublika Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olinsin. Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirilsin.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etish taklif qilinsin».

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991-yil 26-avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31-avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va Markaziy nazorat qo'mitasining 28-avgustda bo'lgan qo'shma Plenumi Respublika Kompartiyasining KPSS MQ bilan har qanday aloqasini to'xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

Ana shunday vaziyatda XII chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o'z ishini boshladi.

Unda «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi masala kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi. Sessiyada O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda

so'nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar oqibatlarini tahlil qilish uchun ular O'zbekiston taqdiriga bevosita daxldor ekanligini asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi va uni Mustaqillik asoslari to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif qildi. Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamada so'ng «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi» Qonunni qabul qildilar. So'ngra «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti» qabul qilindi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi» Qonun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lib, bu qonun asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. *17 moddadan* iborat ushbu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi.

5-sentyabrda imzolangan Toshkent shahridagi Lenin nomidagi maydonni *Mustaqillik maydoni* deb nomlash to'g'risidagi, 6-sentyabr kuni imzolangan «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risidagi» Prezident farmonlari e'lon qilindi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risidagi» Oliy Kengash qarorida: Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash bayonoti tasdiqlansin va respublika bundan buyon O'zbekiston Respublikasi deb atalsin; 1-sentyabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va davlat olish kuni deb e'lon qilinsin deb belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi. O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritgach, tabiiy ravishda davlat mustaqilligi va suverenitetini Konstitutsiya asosida mustahkamlash zarurati yuzaga keldi. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini tayyorlash g'oyasi dastlab Islom Karimov tomonidan 1990-yilning mart oyida ilgari surildi. 1990-yil 20-iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim degan xulosaga kelindi. Sessiya O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida *64 kishidan* iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo'jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi.

Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini yaratish ustida *2,5 yil* ishladi. Loyihaning dastlabki varianti 1991-yilning oktyabr-noyabrigacha tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'lim va *71 moddadan* iborat edi. Bu loyiha hali mukammal emasligi bois uning ustida yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash zarur edi. 1992-yil bahorida e

loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. 1992-yilning kuz oylarida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun 2-marta matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi.

1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo'ldi. Unda mamalakatning Asosiy Qonunini qabul qilish masalasi muhokama qilindi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e'lon qilish to'g'risida»gi Qonunlarni qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. U «Mustaqillik Deklaratsiyasi», «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtirdi.

Davlat ramzlarining qabul qilinishi. 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi «O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida» maxsus qaror qabul qildi. Qarorda shunday deyiladi: «Mustaqillik to'g'risidagi Deklaratsiyaga amal qilib O'zbekiston SSR Oliy Kengashi qaror qiladi: O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning yangi loyihasini tayyorlovchi komissiyaga O'zbekiston SSRning Davlat bayrog'i, gerbi va madhiyasiga doir takliflar hamda ular to'g'risida Nizomlar tayyorlash topshirilsin. Komissiya respublika jamoatchiligi va deputatlarning fikrlariga tayanib ish ko'rsin».

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kunning o'zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga Davlat bayrog'ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo'mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog'i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrda bo'lib o'tgan VIII sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonunni qabul qildi.

1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir *Abdulla Oripov* (1941 – 2016) va bastakor *Mutal Burhonov* (1916 – 2002) tomonidan tayyorlangan madhiya varianti tasdiqlandi.

Turkiya Respublikasida Davlat madhiyasini yozgan shoirga nisbatan «Milliy shoir» maqomi berilgan.

32.2. O'zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi

Prezidentlik institutining shakllanishi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi Prezidentlik boshqaruvi shaklini rivojlantirishga kirishildi.

Bugungi kunda BMTga a'zo bo'lgan 193 ta davlatdan 143 tasida Prezident lavozimi ta'sis etilgan.

1990-yil 24-martda O'zbekiston Respublikasida prezidentlik institutining vujudga kelishi mamlakatimiz milliy davlatchiligining rivojlanishida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. 1990-yil 1-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni bilan davlat boshqaruvining uyg'un tizimini yaratish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini bir-biridan qat'iy farqlab qo'yish muhim ekanligini hisobga olib prezidentlik hokimiyati bilan Ministrlar Sovetining ijroiya-boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborildi. O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Soveti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi *Vazirlar Mahkamasiga* aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, ayni vaqtda, Vazirlar Mahkamasining Raisi bo'lishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining apparati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi bitta apparatga birlashtirishi belgilandi.

Mazkur qonun mamlakatimizda davlat boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasiga asoslanishini mustahkamlab qo'ydi. Prezidentlik instituti ta'sis etilganidan so'ng davlatimizda keng qamrovli islohotlar boshlandi. 1991-yil 18-noyabrda mamlakatimizda prezidentlik saylovlarini tartibga soluvchi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Shu asosda 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida saylov bo'lib o'tdi.

Oliy lavozimga ikki nomzod O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi nomzodi *Islom Karimov* va «Erk» demokratik partiyasi vakili *Saloy Madaminov* (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi. Saylovlar yakuniga ko'ra ovoz berishda qatnashganlarning *86 foizi* Islom Karimov nomzodini, *12,3%* esa Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. 1995-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish masalasi bo'yicha umumxalq referendumi bo'lib o'tdi. 2000-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkazildi. Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida o'tkazilgan saylovda O'zbekiston Prezidenti etib saylandi. 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendumda prezidentlik lavozimi vakolati *5 yildan 7 yilga* uzaytirildi. 2007-yil 23-dekabrda bo'lib o'tgan saylovda *88,1 foiz* ovoz bilan Islom Karimov 7 yilga saylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 2015-yil dekabrda tugashi munosabati bilan Prezidentlik lavozimiga saylov o'tkazildi. 2015-yil 29-mart kungi prezident saylovida Islom Karimov *90,39 foiz* ovoz bilan g'alaba qildi.

2016-yil 2-sentyabrda Islom Karimov og'ir xastalik tufayli vafot etdi. Shu munosabat bilan navbatdan tashqari umumxalq prezidentlik saylovlari o'tkazildi. 2016-yil 4-dekabrda O'zbekiston Konstitutsiyasi va «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq muqobillik va sog'lom raqobat asosida Prezidentlik saylovi o'tkazildi. Unda *88,61%* ovoz bilan Bosh vazir *Shavkat Mirziyoyev* prezident etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardayoq O'zbekistonda demokratiyani taraqqiy toptirish uchun hozirgi zamon jahon standartlariga javob bera oladigan samarali va ishchan parlamentni shakllantirish zarurati yuzaga keldi.

Demokratik tamoyillar va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining *uchinchi* tamoyili davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linishi nuqtayi nazaridan O'zbekiston davlat hokimiyati tizimi *qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi* va *sud* hokimiyatlariga bo'linishi qonunlashtirildi.

Uch hokimiyatdan har biri faoliyatda mustaqil bo'lib, ayni vaqtda, bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Prezident har uchala hokimiyat faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mustaqil organ hisoblanadi.

Parlamentarizmning rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshirib borildi. O'zbek parlamentarizmi tarixiga nazar solsak, 1990 – 1994-yillarda mamlakatimiz parlamenti *Oliy Kengash* nomi bilan atalib, *150* deputatdan iborat edi. 1995 – 2004-yillarda *Oliy Majlis* nomi bilan atalgan *250* deputatdan iborat bir palatali parlament shakllantirildi. Bir mandatli hududiy saylov okruglaridan

saylangan deputatlar tarkibida Xalq demokratik partiyasidan, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan, «Milliy tiklanish» partiyasidan deputatlar bo'lib, ilk bor parlament fraksiyalari tashkil etildi.

2005-yildan boshlab mamlakatimiz tarixida ilk bor O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi. Bu 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum va shu asosda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunlar asosida amalga oshirildi.

Parlamentda 250 kishi, jumladan, Qonunchilik palatasida 150 deputat, Senatda 100 nafar senator faoliyat ko'rsatadi. Senatga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 6 nafardan, jami 84 kishi saylanadi. Prezident tomonidan tayinlanadigan 16 nafar el-yurtda obro'-e'tibor qozongan kishilar Senatning a'zosi bo'lishadi.

Mamlakat parlamentining bosib o'tgan yo'lini tarixiy nuqtayi nazardan tahlil etar ekanmiz, uni shartli ravishda uchta asosiy davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr 1991 – 1994-yillar, ikkinchi davr 1995 – 2004-yillar, uchinchi davr 2005-yildan hozirgi paytgacha.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, uning strukturasi va funksiyalari. 1990-yil 15-noyabrda O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq O'zbekiston Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, Prezident uning Raisi bo'ldi. Respublikada vitse-prezident lavozimi ta'sis etilib, uning zimmasiga Vazirlar Mahkamasi-ga rahbarlik qilish va uning ishini uyushtirish vazifasi yuklandi. 1992-yil 4-yanvarda vitse-prezident lavozimi tugatildi va O'zbekiston Respublikasi-ning Bosh vaziri lavozimi ta'sis etildi. Bosh vazir zimmasiga vitse-prezident vakolatlari berildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining XX bobida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, uning tashkil etilishi, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va vakolatlari belgilab qo'yildi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi-ning 1993-yili qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi (yangi tahriri 2003-yil) Qonuni asosida olib boradi. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati, Oliy Majlisning qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati faoliyat ko'rsatadi. 2003-yili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 89-moddasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, ayni vaqtda, Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi» degan ikkinchi qismi olib tashlandi. O'zbekiston hukumati Vazirlar Mahkamasiga Bosh vazir rahbarlik qiladi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibida Rais lavozimi bo'lmaydigan bo'ldi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari nomzodlari avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi hamda tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari esa Bosh vazirning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Hozirda Vazirlar Mahkamasining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlari, davlat qo'mitalarining raislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi kiradi.

O'zbekistonda Bosh vazir maqomiga teng vitse-prezidentlik lavozimida *Shukrullo Mirsaidov* (1990 – 1992), Bosh vazir lavozimida *Abdulhoshim Mutalov* (1992 – 1995), *O'tkir Sultonov* (1995 – 2003), *Shavkat Mirziyoyev* (2003 – 2016) faoliyat yuritgan. 2016-yil 14-dekabrda *Abdulla Aripov* Bosh vazir etib tasdiqlangan.

Sud hokimiyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sud hokimiyati sohasida ham islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 2000-yili qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahrirda) sud islohotlarining huquqiy asosidir.

Sud tizimidagi islohotlarni ikki davrga bo'lish mumkin: 1) 1991 – 2016-yillar; 2) 2017-yildan keyingi davr. Dastlabki davrda O'zbekiston Respublikasi sud tizimiga besh yil muddatga saylanadigan quyidagi sudlar kirgan: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi; O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi; O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi; Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi; fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari; fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari; viloyatlar va Toshkent shahrining xo'jalik sudlari; harbiy sudlar.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.

Sudlarning alohida hokimiyat sifatida belgilanishidan maqsad O'zbekiston Respublikasida shaxs huquqi va erkinliklarining xolis organ sifatida faqat sud orqali ta'minlanishiga erishish va sudni avvalgi jazolovchi organdan shaxs huquq va erkinliklarini to'laqonli himoya qila oladigan organga aylantirishdir.

Sudlar sud qarorini ijro etish kabi o'zlariga tegishli bo'lmagan vazifalardan ozod etildi. 2008-yil 1-yanvardan mamlakatda *o'lim jazosi* bekor qilindi, fuqarolarni qamoqqa olishga *sanksiya berish* huquqi prokuraturadan sudlarga o'tkazildi. Mamlakatimizda jinoiy jazolashning insonparvar huquqiy tizimi tashkil etildi.

Islohotlar ikkinchi davrining asosiy xususiyati Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 21-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni asosida amalga oshirilmoqda.

2017-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan *2 ming 700 nafar* mahkumni, shu jumladan, jazoni ijro etish koloniyalaridan *956 nafar* turli sharoitlar tufayli jinoyat sodir etgan, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan, yashash joyi va jazoni ijro etish muassasasida ijobiy tavsiflangan shaxslarni mamlakatimiz tarixida ilk marotaba afv etish to'g'risida farmon qabul qilindi.

Mazkur farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvchi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlar shtat birliklari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimiga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra, sudyalik lavozimiga tayinlash (saylash) muddatlariga qat'iy aniqlik kiritildi. Ya'ni sudyalik lavozimiga birinchi marotaba tayinlash *besh yilga*, ikkinchi marotaba *o'n yil*, keyingisida *muddatsiz* tayinlanish (saylanish) imkoni yaratildi. Bu sudyalarning yoshi, malakasi, kasb mahoratini inobatga olgan holda uzoqroq muddatga faoliyat ko'rsatishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari. Mamlakatimiz istiqloлга erishgan kundanoq O'zbekiston milliy davlatchiligi, uning hududiy yaxlitligi,

aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash davlat siyosatining bosh masalalaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi.

1991-yil 19 – 21-avgust kunlari sobiq ittifoq poytaxti Moskva shahrida ro'y bergan davlat to'ntarishi sababli mamlakat halokat girdobiga kelib qoldi. Shunday sharoitda mamlakat hududiy yaxlitligi, aholi tinchligi va osoyishtaligini qurolli himoya qilish yo'lida yangi qadamlar qo'yildi. O'zbekiston Prezidentining 1991-yil 25-avgustdagi farmoni asosida O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizligi komitetining respublika tasarrufiga o'tishi, SSSR Ichki ishlar vazirligining yurtimizdagi qo'shinlari O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirilishi birinchi qadamlardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentyabrdagi farmoniga asosan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1992-yil 10-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining harbiy qismlari va o'quv muassasalarini O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olish to'g'risida» va 14-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida»gi qarorlarni qabul qildi. Ushbu qarorlarga muvofiq sobiq SSSR Qurolli Kuchlarining respublika hududida joylashgan qismlari, qo'shilmalari, birlashmalari, harbiy o'quv yurtlari, tashkilotlari va boshqa harbiy tuzilmalari qonuniy asosda O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga olindi. Mazkur qaror qabul qilingan kun – 14-yanvar O'zbekiston Respublikasining 1993-yildagi qonuniga muvofiq «Vatan himoyachilari kuni» deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining quyidagi harbiy okruglari tashkil topdi: Shimoli-g'arbiy harbiy okrug (*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati*); Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug (*Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari*); Markaziy harbiy okrug (*Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari*); Toshkent harbiy okrugi (*Toshkent shahri va Toshkent viloyati*); Sharqiy harbiy okrug (*Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari*).

1992-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Milliy xavfsizlik xizmati tasarrufida Chegara qo'shinlari boshqarmasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq Prezident mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni hisoblanadi.

1995-yilning may oyida davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Xavfsizlik kengashi tuzildi. Xavfsizlik Kengashi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahatlashuv organidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga ko'ra ushbu Kengashning raisi hisoblanadi. Xavfsizlik Kengashi o'zining majlislariga muvaqqat ravishda O'zbekiston Respublikasidagi har qanday mansabdor shaxsni taklif etishi mumkin. Kengash majlisi davomida bildiril-

gan taklif va mulohazalar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va mamlakat Prezidenti tegishli qarorni tasdiqlaganidan so'ng kuchga kiradi.

2018-yil 10-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining ilk bor kengaytirilgan, ochiq, videokonferensiya yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar holatga shayligi ilgari 5 kundan bugungi kunda 3 soatga yetkazilgani ta'kidlandi.

Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 9-yanvar «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Qonun globallashuv sharoitida xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlar kengayib borayotgan vaziyatda geosiyosiy qarama-qarshilik, kuch ishlatish, shu jumladan, ommaviy qirg'in qurolini qo'llash ehtimoli oshganligi, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashganligi, axborot makonida o'zaro kurash kuchayganligiga qarshi munosib tura olish masalalarini kafolatlaydi.

33-BOB. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

33.1. Fuqarolik jamiyati g'oyasining rivojlanish tarixi

Mahalliy davlat hokimiyati organlari. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida ko'plab vazifalar belgilangan edi. Eng muhim vazifalardan biri respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi. Hozirgi amalda bo'lgan mahalliy vakillik organlari yangi organlar bo'lmasdan, xalq deputatlari sovetlari negizida tashkil qilingan.

1992-yil 4-yanvarda «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralari qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi – vakillik va ijro organlari tizimiga boshchilik qiladigan hokimlik va hokimlar lavozimi joriy etildi.

1992-yili ilk bor *Toshkent* shahrida va 12 ta viloyatda, 163 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati – hokimiyatlar tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, vazifalari, tuzilish tartibi mustahkamlandi. Konstitutsiyaga ko'ra, avvalgi mahalliy vakillik organlarining nomi Kengashlar deb o'zgartirildi. Ularning samarali ishlashini ta'minlash uchun viloyat, tuman va shahar Xalq deputatlari Kengashlari vujudga keltirildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinguncha mahalliy vakillik organlarining uch bo'g'inli tizimi mavjud bo'lib, ular: viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari (Sovetlari) yuqori bo'g'in; tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari o'rta bo'g'in; qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari quyi bo'g'in.

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimini mustahkamladi, ya'ni quyi bo'g'in olib tashlandi. Ular o'rniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladigan bo'ldi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati, hokimiyat organlari ikki mustaqil organlarga – vakillik va ijroiya hokimiyatiga bo'lindi.

Mahalliy vakillik organlariga xalq deputatlari Kengashlari kiradi. Ular o'z faoliyatini *jamoaviy* (kollegial) asosda olib boradi. Xalq deputatlari Kengashlari ishining asosiy tashkiliy huquqiy shakli *sessiya* hisoblanadi.

«Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonunda vakillik organlariga *21 yoshga* to'lgan fuqarolar saylanadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga *60 tadan* ko'p bo'lmagan, tuman va shahar Kengashlariga esa *30 tadan* ko'p bo'lmagan deputatlar *5 yil* muddatga saylanadi.

Ijroiya hokimiyatiga hokim va uning ijroiya apparati kiradi. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining *101-moddasiga* ko'ra, hokimlarning vakolat muddati *besh yil*.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumamlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta'sis etildi, ularning apparati hokimiyat tashkil etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyat organlari sud hokimiyati organlari, prokuratura, ichki ishlar organlari, adliya singari huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib boradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari. O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgach, O'zbekistonga xos va mos fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vujudga keldi. Xususan, hozirda deyarli jahonning barcha mamlakatlarida bu institut mahalliy o'zini o'zi boshqarish deb atalsa, O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingach, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimining huquqiy zamini mustahkamlandi. Konstitutsiyaning *105-moddasiga* ko'ra, «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi».

1999-yili «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida», 2004-yili esa «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari qabul qilindi. 2017-yili O'zbekiston Prezidenti «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni imzoladi.

Shunday qilib, fuqarolar yig'ini ma'lum muddatda to'planib ish yuritadigan o'zini o'zi boshqarish vositasi bo'lsa, rais, uning maslahatchilari doimiy faoliyat ko'rsatuvchi tuzilmadir.

Prezidentning 2017-yildagi farmoni asosida fuqarolar yig'inlarining uyushmasi sifatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilishi belgilandi. Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari, shuningdek, Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlari joriy etildi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi.

Saylov tizimi. O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos saylov tizimi barpo etilishida xalqaro huquq andozalari va talablariga, ilg'or chet el tajribasiga mos saylov qonunchiligi yaratilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Dastlab saylov tizimini yo'lga qo'yish maqsadida «O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida» (1991-yil 18-noyabr) Qonun qabul qilindi. XX asr 90-yillarining boshida saylovlar, saylov o'tkazish tartiblari to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga

«saylov to'g'risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi va «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunlar shular jumlasidandir.

Saylovlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tashkil etiladi, komissiya 1998-yildan e'tiboran mustaqil muvaqqat organ sifatida faoliyat boshlagan bo'lsa, 2014-yildan doimiy organ sifatida tashkil etildi. Markaziy saylov komissiyasi va uning a'zolari o'z faoliyatini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylash huquqiga ega ekanligi, O'zbekiston Prezidenti saylovi, Oliy Majlis saylovi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi mustahkamlab qo'yilgan.

Har bir fuqaro saylovchi bir ovozga ega. 35 yoshdan kam bo'lmagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to'lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to'lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat etib saylanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, mamlakat Prezident saylovi, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishlicha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – dekabr oyi 3-o'n kunligining 1-yakshanbasida o'tkaziladi.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining yuzaga kelishi. Ko'ppartiyaviylik – jamiyat hayotida ikki yoki undan ortiq partiyaning faoliyat yuritishi. Bu holat demokratik yo'lga kirgan davlat va jamiyatlarga xos hisoblanib, jamiyat taraqqiyoti fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi. Jamiyatda siyosiy partiyalarning erkin faoliyat ko'rsatishi demokratik huquqiy davlat barpo etishning asosiy garovidir.

Hozirgi davr jahondagi demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishidir. Mustaqillik davrida tashkil topgan ilk siyosiy partiya O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidir. Partiyaga 1991-yilning noyabrida asos solindi. Uning maqsadi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Mazkur partiya tashkil etilganidan hozirgi kunga qadar *besh marotaba* Prezident saylovlari da hamda parlament saylovlari da ishtirok etib, parlamentda o'z fraksiyasini tashkil qilishga erishdi.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylikning rivojlanish tarixida o'z o'rniga ega partiyalardan yana biri O'zbekiston «Vatan taraqqiyoti» partiyasi bo'ldi. Ushbu partiya 1992-yili tashkil topgan. Lekin besh yillik faoliyati o'z vazifalari

doirasida faoliyat yuritilgan bo'lmadi deb topildi. 2000-yil aprelda «Vatan taraqqiyoti» partiyasi va «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasining qo'shma qurultoyi bo'lib, unda har ikki partiya harakati, faoliyat dasturi yakdilligi muhokama qilindi, ularning birlashib ishlashlari maqsadga muvofiq degan xulosa asosida ikkita partiya birlashdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidir. 1995-yil fevralda tuzilgan O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi O'zbekistonda shakllangan sotsial-demokratik partiyadir. Sotsial-demokratik partiyalarning asosiy maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan. Partiya shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlardagi sotsial-demokratik yo'nalishdagi partiyalar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishga va xalqaro sotsial-demokratik harakatlarda faol ishtirok etishga intilmoqda. O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi o'rta sinf va ehtiyojmand aholi tabaqasiga tayanadi, ularning siyosiy va ijtimoiy irodalarini ifodalashga intiladi.

Mustaqillik yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasidir. Ushbu partiya 1995-yil iyunda tuzilgan. O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasining asosiy maqsad-vazifasi milliy an'analarni va qadriyatlarni saqlashdan iborat. 2008-yil iyunda O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi va O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo'lib, unda asosiy masala O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi va «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasini birlashtirish to'g'risidagi masala ko'rildi. Qurultoyda partiyalarning maqsadli dasturiy vazifalari mazmun-mohiyatiga ko'ra bir-biriga yaqinligi ta'kidlandi va ular birlashtirildi.

O'zbekiston siyosiy tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib ulgurgan O'zbekiston Liberal-Demokratik partiyasi (O'zLiDeP) 2003-yil noyabrda tashkil topgan. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi umummilliy siyosiy tashkilot sifatida mulkdorlar qatlami, kichik biznes, fermerlik va dehqon xo'jaliklari vakillari, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassisleri va boshqaruv xodimlari, ishbiarmonlar manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning o'tgan yillar davomidagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratilganini ko'ramiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi Qonunlar hamda «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun shular jumlasidandir. Tabiiyki, siyosiy partiyalarning jamiyatda qanchalik mavqega ega

kanlligini belgilovchi asosiy mezon ularning davlat hokimiyati vakillik organlariga bo'ladigan saylovlarda qanday natijalarga erishganligi hisoblanadi.

O'zbekiston ekologik harakati. 2008-yili O'zbekiston Respublikasining «Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga *besh yil* muddatga 135 deputat saylanib, Qonunchilik palatasining 15 deputati O'zbekiston ekologik harakatidan, o'z ichki qurultoyidan saylanishi belgilandi. Ushbu qonun asosida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi deputatlarining soni 150 deputatdan iborat bo'ldi.

O'zbekiston ekologik harakati 2008-yil avgustda tashkil topgan. O'zbekiston ekologik harakati o'z faoliyatini fuqarolarning hozirgi va kelgusi avlodi qulay atrof-muhit sharoitida yashash, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish huquqlarini hamda ularga so'zsiz roya etilishini ta'minlashga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga qaratgan.

2017-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi e'lon qilindi. Mazkur Murojaatnomada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi 15 ta deputatlik o'rni belgilab qo'yilmasdan, Ekologik harakat boshqa partiyalar bilan teng raqobatga kirishgan holda, saylovlar orqali deputatlik o'rniga erishishi lozimligi taklif etildi.

33.2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy bosqichlari va istiqbollari

Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. 2000-yildan bugungi kunga qadar davrni qamrab olgan bosqichda mamlakatda faol demokratik yangilanish va modernizatsiyalash jarayonlari kuzatildi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi qilib milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish masalasi qo'yildi. Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlari chuqurlashdi, inson haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil sud tizimi mustahkamlandi, fuqarolik jamiyati asoslari rivojlandi, fuqarolarning iqtisodiy va siyosiy faolligi ortib bordi. Islom Karimov tomonidan mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu bosqich davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, axborotlashtirish sohasini isloh etish, so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini

takomillashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

2002-yili bo'lib o'tgan Oliy Majlisning IX sessiyasida mamlakatning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ayni ana shu ko'p qirrali islohotlarni amalga oshirishning yangi tamoyillarini o'rtaga tashladi. Unda islohotlarga doir *yo'l xaritasi* masala, ustuvor yo'nalish belgilab berildi.

Ustuvor yo'nalishlardan biri jamiyat hayotida nodavlat va notijorat tashkilotlarning o'rni va rolini oshirish orqali fuqarolik jamiyatini barpo etish va rayonlarini chuqurlashtirish, «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» tamoyilini amalga oshirish hisoblanadi.

Davlat siyosatining bosh yo'li huquqiy-demokratik davlatni vujudga keltirish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash, «fuqaro – jamiyat – davlat» prinsipini joriy etish, ana shu yo'l bilan fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish bo'ldi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» mavzuyida qilgan ma'ruzasi amalga oshirilgan islohotlarni sarhisob qilish hamda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini yanada rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu konsepsiyada mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish borasida amalga oshirilgan ishlar mufassal tahlil etilib, bu yo'nalishdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va izchil davom ettirish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Konsepsiya *olti qismdan* iborat bo'lib, unda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini, saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, bozor iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish borasidagi muhim vazifalar belgilangan.

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga asosan Konstitutsiyaning 78-, 89-, 93-, 96-, 98-moddalariga o'zgartirishlar kiritilib, unga asosan Bosh vazir nomzodi saylovlarda (Oliy Majlis) eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdorda ko'p o'rin olgan siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi, Prezident taqdim etilgan nomzodni ko'rib chiqib 10 kun muddat ichida Oliy Majlis palatalari tomonidan ko'rib chiqish va tasdiqlashi uchun taklif etadigan bo'ldi.

Sud-huquq tizimini isloh qilish sohasida advokatura instituti takomillashtirildi va uning mustaqilligi yanada mustahkamlandi. Jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan jinoyatlar tasnifi o'zgartirildi. Sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazildi.

Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash sohasida mamlakatda ushbu sohaga oid *10 ga yaqin* qonun hujjatlari qabul qilindi. «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida», «Teleradioeshittirishlar to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida»gi Qonunlarni qabul qilish belgilandi.

O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish sohasida saylov qonunchiligi takomillashtirilib, saylov tizimi izchil va bosqichma-bosqich liberallashtirib borildi. Muddatidan oldin ovoz berish muammosini hal etish, uchastka saylov komissiyalari faoliyatining oshkoraligini ta'minlash borasida amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish belgilandi.

Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasidagi bir qator qonunlarga o'zgartirish kiritish, O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi hamda «Ekologik nazorat to'g'risida»gi Qonunlar loyihasini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Xalq bilan muloqotning yo'lga qo'yilishi. 2016-yili ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to'g'ridan to'g'ri muloqoti yo'lga qo'yildi. Shu yilning sentyabr oyida Bosh vazirning (*pm.gov.uz* manzilida) virtual qabulxonasi ochildi. 2017-yilning «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e'lon qilinishi bu sohadagi ishlarni faollashtirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga binoan Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Uning xodimlari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining xodimlari hisoblanishi belgilab qo'yildi. 2017-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda ma'ruzasida Xalq qabulxonalari negizida Prezident huzurida alohida tuzilma – Tezkor davlat xizmatlari agentligini tashkil etish g'oyasini ilgari surdi.

Bir yil davomida sinovdan o'tib, tobora takomillashtirib borilgan ushbu mexanizm dunyo hamjamiyatiga chinakam demokratiya yo'lidagi muvaffaqiyatlarimizdan biri sifatida namoyish etildi. Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni

global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha *bir milliondan ortiq* fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta'kidlab o'tdi.

2017 – 2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi.

Ayni vaqtda, mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining tahlili, bugungi kunda jahon bozori talabi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuvni ishlab chiqishni taqozo etdi. Mamlakatning 2016-yili saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning *beshta* ustuvor yo'nalishi bo'yicha *Harakatlar strategiyasi* tasdiqlandi.

Strategiya dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan.

Harakatlar strategiyasi *5 bosqich*da amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida *bir yillik* davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Prezident rahbarlik qiladigan *14 kishilik* Milliy komissiya tuzilib, u mazkur hujjatda belgilangan vazifalarning o'z vaqtida, sifatli bajarilishini nazorat qiladigan bo'ldi.

Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning *5 ta* ustuvor yo'nalishi keltirilgan: Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish (Moviy havorang osmon va toza suv ramzi, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi); Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish (Siyohrang qonun ustuvorligi va or-nomuslilik ramzi); Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish (Tillarang iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi); Ijtimoiy

aholani rivojlantirish (Qizil rang hayot va aholining munosib turmush tarzini ta'minlash ramzi); Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat (Oq rang tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va sofflik ramzi).

34-BOB. O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR VA IJTIMOY SIYOSAT

34.1. O'zbek modelining ishlab chiqilishi. Iqtisodiy islohotlarning boshlanishi

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li, taraqqiyotning «O'zbek modeli». O'zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol o'ta murakkab edi. Mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston sovet tuzumi davridagi iqtisodiyot asosini tashkil etgan rejalashtiruvchi siyosatdan voz kechdi va bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladi. Jahon tajribasi ko'rsatishicha, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan bir xil taraqqiyot yo'li, bir xil andoza bo'lishi mumkin emas. Har bir davlat o'zining tarixiy taraqqiyot an'analari, milliy o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z yo'li, o'z modelini ishlab chiqishi lozim. O'zbekiston ham ana shu umumiy dastur va umumiy qonuniyat mezonlari asosida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishga imkoniyat beradigan o'z yo'lini tanlab oldi.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'lga doir Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan *besh tamoyil*: 1. Iqtisodning siyosatdan ustunligi, uni mafkuradan xoli etish. 2. Davlat bosh islohotchi va iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori. 3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning tengligi. 4. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi. 5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, izchil ravishda o'tish kabilar asos qilib olindi.

Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki davridan respublika hukumati va Prezidenti tomonidan bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan nogironlarni ijtimoiy himoya qilish, davlat pensiya ta'minoti, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning sog'lig'ini saqlash haqida va boshqa shu kabi respublika qonunlari, hukumat qarorlari va Prezident farmonlari qabul qilindi.

Iqtisodiy islohotlarni boshqarish tizimining barpo etilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy strategik maqsadi, avvalo, kishilar turmushi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni

ta'minlaydigan, kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizimni barpo etishdir. Bozor munosabatlariga o'tish davrining birinchi bosqichi mustaqillik kunidan milliy valyutani muomalaga kiritishgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda ikkita asosiy vazifa hal qilindi. Birinchidan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlari yengib o'tildi, tanglikka barham berildi va iqtisodiyot barqarorlashtirildi. Ikkinchidan, bozor munosabatlarining huquqiy negizlari shakllantirildi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatning huquqiy-iqtisodiy negizlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Islohotlarning birinchi bosqichida Oliy Kengash tomonidan iqtisodiyotga old *100 dan ortiq* qonunlar qabul qilindi. Shu bilan birga, xususiylashtirish chog'ida imtiyozlar tizimi yaratildi. Xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasi ning xodimlariga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotib olish imkoniyati berildi. Eskirgan asosiy fondlar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari yangi mulkdorga tekinga topshirildi. Qishloq xo'jaligi davlat xo'jaliklarining mol-mulki, fermalar, bog'lar va uzumzorlar imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirildi.

Davlat mulkini xususiylashtirish zaruriyati bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatni barpo etishning asosiy shartidir. O'zbekistonda *chek* vositasi bilan xususiylashtirish g'oyasidan voz kechildi, davlat mol-mulki yangi mulkdorga faqat *sotish* yo'li bilan mulkchilikning boshqa shakliga aylantirila boshlandi. O'zbekiston Oliy Kengashi 1991-yil 18-noyabrda «Mulki davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonun qabul qildi. Dastlabki bosqich xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini qamrab oldi. O'zbekiston Respublikasida xususiylashtirish jarayonini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish maqsadida 1992-yil fevralda Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish davlat qo'mitasi ta'sis qilindi. 1994-yilda u Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga aylantirildi. Kichik xususiylashtirish 1994-yil yoq tugallandi. Mulki davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga doir *20 dan ortiq* me'yoriy hujjat qabul qilindi. 1995-yili xalq xo'jaligida ommaviy xususiylashtirishlar davri bo'ldi. 1998-yilga kelib xususiylashtirilgan korxonalar tarmog'i keskin ko'payganligi bilan xarakterlanadi. Davlat mulkini xususiylashtirish yuzasidan mamlakatimizda olib borilgan katta ko'lamdagi amaliy ishlar natijasida mamlakatda ko'p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar sinfi vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi bu davrda o'z valyutasiga ega emasligi, muomalada esa 1961 – 1992-yillarda chiqarilgan rublning bo'lganligi, ayrim oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga o'zining tannarxiga qaraganda arzon narx belgilanganligi uchun ularni respublikadan tashqariga olib chiqib ketish

avj ola boshladi va mamlakatimizda aholini asosiy iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga keldi.

Milliy valyutaning qabul qilinishi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritib o'zining milliy valyutasini muomalaga kiritishga kirishdi. Biroq bu jarayon uchun ma'lum vaqt, tajriba kerak edi. Shu boisdan O'zbekiston 1991 – 1993-yillarda sobiq Ittifoqdan qolgan rubl zonasida bo'lib turdi. Ammo sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi. O'zbekiston muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1992-yiliy oq muomalaga chiqarishga mo'ljallangan *so'm kupon* nusxalari tayyorlanadi va 1993-yil 1-noyabrda O'zbekistonda so'm kupon muomalaga kiritildi. Uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan *rubl*ga tenglashtirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati so'm kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, 1994-yil 1-iyulidan boshlab respublika hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi sifatida milliy valyuta – *so'm* muomalaga chiqarilgan.

Muomalaga 1994-yili 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'mlik, 1997-yildan 200 so'mlik, 2000-yildan 500 so'mlik, 2001-yildan 1000 so'mlik, 2013-yildan 5000 so'mlik, 2017-yildan 10000 va 50000 so'mlik banknotlar chiqarildi.

Zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimining shakllanishi. Respublika mustaqillikka erishganidan keyin transportning iqtisodiyotga va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilash va soha boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi (1992-yil), «O'zbekiston avtomobil transporti» («O'zavtotrans») davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi (1993-yil, 1998-yildan O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi), «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik kompaniyasi (1994-yil) va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakatda transport korxonalari davlat ishtirokidagi aksiyadorlik kompaniyalari, korporatsiyalari, ochiq turdagi aksiyadorlik va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalqaro talablarga javob beradigan avtomobil yo'llarini qurish, mavjudlarini xalqaro andozalarga moslashtirish rejalashtirildi. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda tutgan o'rni, sanoat va boshqa sohalarning taraqqiyoti, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni jadal rivojlantirish maqsadida 1996-yildan *Toshkent – Andijon – O'sh* magistralining 100 km dan ortiq tog'li uchastkalarida qurilish ishlari boshlandi. *Qamchiq* va *Rezak* tunnelli foydalanishga topshirildi. *Almati – Bishkek – Toshkent – Termiz* va *Samarqand – Buxoro – Ashxobod – Turkmanboshi*

avtomobil yo'li, Yevropani Kavkaz orqali Osiyo bilan bog'laydigan avtomobil yo'li (*Yevropa – Kavkaz – Osiyo* transport yo'lagi bir qismi)ning respublika hududidan o'tadigan qismini ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. O'zbekistonni Qozog'iston orqali Rossiya Federatsiyasi bilan bog'laydigan *340 kilometrli Qo'ng'iroq – Beynov* avtomobil yo'li qurilishining birinchi bosqichi yakunlandi.

O'zbekistonning yagona temir yo'l tarmog'ini vujudga keltirish bo'yicha 1994-2001-yillarda uzunligi *700 kilometr*ga yaqin *Navoiy – Uchquduq – Nukus* temir yo'li qurib bitkazildi.

Respublika hududida barcha transport turlarining yuk va yo'lovchilar tashish ishlarini maqbul holga keltirish, kommunikatsiyalarni jadal rivojlantirish, transportda yuk va yo'lovchilarni tashish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda transmilliy transport yo'laklarini rivojlantirish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish maqsadida 2004-yili «O'zbekiston transport va transport kommunikatsiyalari uyushmasi» tashkil etildi. Uyushma tarkibiga «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi, O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, «O'zavtoyo'l» kompaniyasi, transport kommunikatsiyalarini qurilishi bilan shug'ullanuvchi respublika loyiha va qurilish tashkilotlari kiritildi.

Bu davrda «O'zbekiston havo yo'llari» belgisi bilan parvoz qilayotgan samolyotlar turli davlatlarda joylashgan *40 dan ziyod* aeroportga muntazam qatnay boshladi. Aviatsiya sohasida amalga oshirilgan chuqur o'zgarishlar mamlakatimiz iqtisodiyotini mustahkamlashda, uning dunyo miqyosidagi obro'-e'tiborini yanada oshirishda o'ziga xos omil bo'ldi.

Temir yo'llar qurilishida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. 2001-yili *341 km* bo'lgan *Navoiy – Uchquduq – Sultonzoda* yo'nalishi, 2007-yili uzunligi *220 km* bo'lgan *G'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on* yo'nalishi qurilishi tamomlangan. O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi savdo-sotiq, tranzit aloqalarining rivojlanishi va O'zbekistonni dengiz transportiga olib chiqadigan eng yaqin yo'l Afg'oniston orqali o'tishini hisobga olgan holda bir qator yangi temir yo'l qurish loyihalari ishlab chiqildi. 2010-yili O'zbekiston Afg'oniston uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihani amalga oshirdi, ya'ni *Hayraton – Mozori Sharif* temir yo'lining *75 kilometrini* qurib berdi. Bu kabi tranzit loyihalarining amalga oshirilishi O'zbekiston tashqi savdo geografiyasining kengayishiga asos bo'ladi.

2016-yil iyunda *Angren – Pop* temir yo'li va *Qamchiq* tunneli ochildi. Qamchiq dovoni orqali o'tuvchi *Angren – Pop* tarmog'ining qurilishi Farg'ona vodiysini O'zbekistonning boshqa hududlari bilan bog'lashga imkon tug'dirdi. Bundan tashqari, temir yo'lining uzunligi *123,1 kilometr*ni tashkil etib, ushbu loyiha doirasida uzunligi *19,2 kilometr*dan iborat bo'lgan temir yo'l tunneli qurildi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati yo'lovchi tashish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish uchun *Toshkent – Samarqand* yo'nalishi bo'ylab tezyurar yo'lovchi tashishni tashkil qildi. Yangi tezyurar poyezd nomi *Afrosiyob* Samarqand viloyatida joylashgan qadimiy shahar sharafiga qo'yildi. 2011-yilning oktyabridan boshlab undan tijorat maqsadida foydalanish yo'lga qo'yildi. O'sha yili ikkinchi poyezd ham keltirilib, 2012-yilning mayidan o'z qatnovini boshladi.

Ushbu eng zamonaviy tezyurar yo'nalish 2015-yili *Qarshi* shahrigacha, 2016-yili esa *Toshkent – Buxoro* yo'nalishi, 2018-yili *Toshkent – Xiva* yo'nalishi ishga tushirildi. Poyezd maksimal tezlikni soatiga 250 kilometrgacha oshirishi mumkin.

Mustaqillik yillarida Toshkent metrosi qurilishi ham jadal sur'atda o'sdi. 2001-yil avgustda *Yunusobod* yo'nalishining 6 ta bekatdan iborat birinchi qismi foydalanishga topshirilib, yo'lovchi tashish yo'lga qo'yildi.

2016-yil Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 7,1 kilometr bo'lgan Toshkent metropolitenining *Sergeli* liniyasi qurilishi olib borilmoqda. Mazkur qarorga ko'ra yangi liniyani 2020-yilga qadar qurib foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan. Sergeli metro liniyasi bugungi kungacha Markaziy Osiyoda qo'llanilmagan butunlay yangicha *estakada usulida* bunyod etilmoqda. Ya'ni mazkur yo'l ko'priksimon tarzda quriladi, poyezdlar yer ustida harakatlanadi.

O'zbekiston dengizga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoni cheklangan 34 ta davlatdan biri hisoblanadi. Shu sababli havo yo'llari transporti respublika iqtisodiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. 2012-yilga kelib aviakompaniya zamonaviy havo kemalari bilan ta'minlandi. «O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasi dunyoning 25 dan ortiq mamlakatiga parvozlarni amalga oshirib, yiliga qariyb 75 ming tranzit yo'nalishning havo harakatini boshqarmoqda. Shuningdek, aviakompaniya tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan so'nggi avlod aviatsiya texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan markazning xizmatlaridan 320 ta xorijiy aviakompaniya samolyotlariga aeronavigatsiya xizmati ko'rsatila boshlandi. O'zbekiston Milliy Aviakompaniyasi *Boeing 757/767*, *A-320* samolyotlari, vatanimizda ishlab chiqarilgan *Il-114-100* zamonaviy laynerlari, *Boeing 767-300 ER* yuk tashuvchi samolyotlarga ega bo'ldi. 2016-yili yangi avlod samolyotlari *Boeing 787 Dreamliner* keltirildi. Xalqaro parvozlarni xaritasiga e'tibor bersak, O'zbekiston MDHning barcha yirik shaharlari va jahonning AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Singapur singari *ellikka yaqin* mamlakatlari bilan bevosita havo yo'llari orqali bog'landi.

«O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasi tarkibida 11 ta (Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Namangan, Andijon, Farg'ona, Navoiy) zamonaviy aeroportlar jahon andozalari darajasida modernizatsiya qilindi. 2017-yili *Islom Karimov* nomi berilgan Toshkent xalqaro aeroporti Markaziy Osiyodagi yirik xalqaro aeroportlardan biri hisoblanadi. Buxoro, Samarqand va Urganch aeroportlari xalqaro aeroport maqomini oldi.

Milliy avtomobilsozlik sanoatiga asos solinishi. 1992-yil avgustda Toshkentda Janubiy Koreyaning «DAEWOMotors» korporatsiyasi va O'zbekistonning «Avtoqishxo'jmarsh» davlat konserni o'rtasida Andijon viloyatining Asaka shahrida avtomobil ishlab chiqaradigan «O'zDAEWOOavto» qo'shma korxonasini qurish to'g'risida shartnoma imzolandi. Uning ta'sischilari etib «DAEWOMotors» korporatsiyasi va «O'zavtosanoat» uyushmasi, har ikki tarafning qo'shma korxonadagi ulushi teng miqdorda 50% dan iborat qilib belgilandi. Korxonada qurilishiga ilg'or texnologiyalar, tajribali muhandislar, o'zbekistonlik yoshlar jalb qilindi. 1000 dan ortiq o'zbekistonlik yoshlar Janubiy Koreyaga borib «DAEWOO» kompaniyasida ishlab, avtomobil ishlab chiqarish tajribalarini o'rganib qaytdilar. 1996-yil iyulda «O'zDAEWOOavto» qo'shma korxonasi ochildi.

Bugungi kunda «O'zavtosanoat» AK tizimiga kiruvchi «GM Uzbekistan» AJ (2007-yil), «SamAuto» (Samarqand avtomobil zavodi, 1999-yil), «MAN Auto Uzbekistan» (2009), «GM Powertrain Uzbekistan» QK asosiy ishlab chiqarish kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston avtomobil sanoatida mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish samarali yo'lga qo'yilishi natijasida «O'zavtosanoat» AK tarkibida 75 dan ortiq korxonalar ishlab turibdi.

1996-yil Andijon viloyati Asaka shahrida Markaziy Osiyo hududidagi birinchi avtomobil zavodi ishga tushirildi. Shu yildan boshlab bir qancha rusumdagi avtomobillar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi: 1996-yil *Damas*, *Tico*, *Nexia*; 2001-yil *Matiz*; 2002-yil *Nexia DOHC*; 2003-yil *Chevrolet Lasetti*; 2004-yil *Matiz Best*; 2006-yil yangilangan *Damas*; 2007-yil *Chevrolet Captiva*, *Epica*, *Tacuma*; 2008-yil yangilangan *Nexia*; 2010-yil *Shevrolet Spark*; 2012-yil *Chevrolet Malibu*, *Chevrolet Cobalt*; 2013-yil *Lasetti II* (*Gentra*); 2014-yil *Chevrolet Orlando*. 2015-yili esa «O'zavtosanoat» AJ tomonidan «Ravon» milliy markasi ostida *Nexia 3* modelining taqdimotini amalga oshirdi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil iyundagi «Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi «Uzbekistan Peugeot Citroen Automotive» korxonasini tashkil etish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, «Jizzax» erkin iqtisodiy zonasida «O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi Fransiyaning «Pejo Citroen» guruhi bilan hamkorlikda «Peugeot» va «Citroyen» brendlari ostida yo'lovchi

va yuk tashishga mo'ljallangan yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtiriladi. U yerda 2019-yildan boshlab har yili ichki va tashqi bozor uchun yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqaruvchi korxonalar quriladi.

Agrar islohotlar. Milliy istiqloq yillarida mamlakat hukumati tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida mamlakat qishloq xo'jaligida agrar islohotlar amalga oshirildi. Qishloqda amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida mamlakatda ko'p ukladli xo'jaliklar shakllantirildi. 1990-yili aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan g'allaning 82%, kartoshka, go'sht va go'sht mahsulotlarining 50%, sut va sut mahsulotlarining 60% chetdan keltirilar edi. 1991 – 2000-yillarda qishloqda amalga oshirilgan tub agrar islohotlar O'zbekiston qishloq hayotini yangi shakl va tizimga o'zgartirib yubordi. Mamlakatda suv tanqisligi hisobga olinib 1998-yildan boshlab paxtachilikda *Isroil* texnologiyalari asosida tomchilatib sug'orish usuli, *andijonlik* paxtakorlar tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi. Shuningdek, O'zbekiston kanop, tamaki yetishtirish sohasida ham dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi. Chorvachilik sohasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yildagi «Chorvachilikda xususiyashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» qarori qabul qilindi. Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go'sht va sutning 75% ni xususiy sektor bera boshladi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fermer xo'jaliklarining tashkil topishi agrar islohotlarning asosiy mazmunini tashkil etdi. 1992-yili «Dehqon (fermer) xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi uning dastlabki bosqichini belgilab berdi. 1998-yili «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi mazkur sohaning to'laqonli rivojlanishi uchun huquqiy asos bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan rahbariyat oziq-ovqat muammosini o'z imkoniyatlarimiz hisobidan hal qilish, ayniqsa, don mustaqilligini ta'minlash masalasini kun tartibiga qat'iy vazifa qilib qo'ydi. Mamlakatda paxta yakkahokimligiga barham berildi. Natijada oziq-ovqat xavfsizligi, g'alla mustaqilligi ta'minlandi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida yerlarning suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha 2003 – 2009-yillarda 801,5 ming AQSh dollari qiymatidagi 21 ta loyiha amalga oshirildi. Amalga oshirilgan bunday tadbirlar natijasida qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi birmuncha oshdi, fermer xo'jaliklarining daromadini ko'paytirish imkoniyati kengaydi.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida bu sohada zamonaviy sug'orish tizimlari va energiyani tejaydigan texnologiyalardan foydalanishga, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqildi. 2008 – 2012-yillar-

da mamlakatimizda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi doirasida umumiy uzunligi 10 ming 500 kilometrdan ziyod xo'jaliklararo va xo'jalik ichidagi kollektor-drenaj tarmoqlarida jami 60 milliard so'mga yaqin ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi. 2008-yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yerosti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash mazkur soha tarmoqlarining samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. 2010-yili respublika rahbarining tashabbusi bilan Ukraina va Polsha davlatlaridan olib kelingan, intensiv texnologiyalar asosida parvarishlanadigan pakana va yarimpakana olma, nok, olxo'ri, gilos, shaftoli ko'chatlari asosan Toshkent va Samarqand viloyatlarining fermer xo'jaliklari maydonlariga ekildi. Bunday bog'larni yildan yilga kengaytirish, ularni dehqon fermer xo'jaliklarida barpo etish maqsadida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. 2017-yil holatiga ko'ra, Respublikamiz hududida jami 5,5 ming gektardan ortiq maydonda mana shunday intensiv bog'lar barpo qilingan. Hozirda yetishtirilayotgan mevalar nafaqat qo'shni mamlakatlarga, balki Yevropa mamlakatlariga ham eksport qilinmoqda.

34.2. Mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining oshirilishi va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish. 2000-yili boshlangan iqtisodiy islohotlarning keyingi bosqichida iqtisodiyotga davlat aralashuvi darajasining pasayishi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati kafolatlarini kuchaytirish va ularni nazorat qiluvchi organlarning noqonuniy aralashuvidan himoya qilish masalalariga asosiy e'tibor qaratildi. 2002-yildan import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi amalga oshirila boshlandi. Bunda eksport tarkibini diversifikatsiyalash va xomashyo mahsulotlari hamda materiallarini eksport qilishdan qochib, qo'shilgan qiymat ulushi ko'proq bo'lgan tayyor mahsulotlar chiqarish, yangi texnologiyalar olib kelish va mamlakat eksport salohiyatini oshirishga ko'maklashadigan chet el investorlari ishtirokida qo'shma korxonalar qurish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shuningdek, import o'rnini bosadigan tovarlar siyosatini, ya'ni tovarlar import qilish o'rniga mashinalar va sanoat hamda qishloq xo'jaligi uchun uskunalar import qilishga ko'proq e'tibor qaratildi. Eksportda tovar tarkibini diversifikatsiya qilish natijasida

mamlakatimiz paxta yakkahokimligi oqibati bo'lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xalos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yildagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy «og'lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish tadbirlari va bankrot korxonalarini tijorat banklariga sotish yoki to'g'ridan to'g'ri balansiga berish mexanizmi tavsiya etildi. Mazkur korxonalarini modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirish uchun to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish maqsadida xususiylashtirilgan obyektlarga narx belgilashning samarali mexanizmi joriy etildi.

Tadbirkorlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, ularni rag'batlantiradigan mexanizmning yaratilishi. 2001-yildan boshlab xususiy tadbirkorlikni, ayniqsa, kichik va o'rta biznes korxonalarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish amalga oshirildi. 2000-yili qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun kichik va xususiy tadbirkorlikning rivoji uchun yanada keng imkoniyatlarni ochib berdi. Bu xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasiga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotish, yangi mulkdorga eskirgan asosiy fondlar hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini bepul topshirish, davlat korxonalarining mol-mulki, fermalar, bog'lar va shu kabilarni imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirish hamda soliq to'lashda ayrim imtiyozlar berish kabi holatlarda o'z ifodasini topdi. Respublikada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog'ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlarni yaratildi va ta'minlandi.

2002-yili «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi va Prezident farmoni asosida 2002-yil fevraldan boshlab sug'urta tashkilotlarining 3 yil muddatga daromad solig'idan ozod qilinishi mamlakatimizda sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishi. Mustaqillikning qo'lga kiritilishi O'zbekistonning tadrijiy taraqqiyot yo'lga qaytishiga imkoniyat yaratdi. «O'zbek modeli» konsepsiyasi asosida boshlangan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar respublikada tadbirkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bir necha bosqichlarda olib borildi.

Birinchi bosqich 1991 – 1996-yillar. Bu bosqich mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish hamda bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosi bo'lgan kichik mulkdorlar sinfining shakllantirilishidan boshlandi.

Shu bilan birga, bu bosqichda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit, xususiy mulkni himoya qilishning konstitutsiyaviy huquqlari va kafolatlarini ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi.

Ikkinchi bosqich 1996 – 2000-yillar. Ushbu bosqichda keng qamrovli xususiylashtirish amalga oshirildi, iqtisodiyot sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish imkoniyatlari kengaytirildi, dastlabki xususiy tijorat banklari va bankdan tashqari moliya institutlari (kredit uyushmalari) o'z faoliyatini boshladi. 1996-yili xalqaro iqtisodiy makonda yuz bergan paxta inqirozi uning narxi pasayib ketishiga, ayni vaqtda, respublika iqtisodiga valyuta tushumini ta'minlab turgan ushbu xomashyoning eksportidan tushadigan daromad shu yilning o'zida 15% qisqarishiga sabab bo'ldi. Boz ustiga, 1998 – 1999-yillardagi noqulay ob-havo sharoiti paxta hosildorligiga jiddiy zarar yetkazdi, natijada uning eksporti 25% ga qisqardi. Bunga javoban mamlakat hukumati e'tibori import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va bu davrda katta qiyinchilik bilan topilayotgan valyuta zaxirasini saqlab turishga, undan unumiroq foydalanishga qaratildi.

Uchinchi bosqich 2000 – 2016-yillar. Mazkur bosqichda xususiy tadbirkorlikni keng ko'lamda rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va uni kafolatlashga qaratilgan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2000-yili qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun bilan tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish mexanizmi soddalashtirildi, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar taqdim etildi, tadbirkorlarning imtiyozli kredit olish uchun huquqlari mustahkamlandi.

2008-yili jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan kichik biznes subyektlarining tijorat banklari kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi, ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi yanada pasaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011 – 2015-yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish choralari to'g'risida»gi va «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» davlat dasturi to'g'risida»gi qarorlariga muvofiq iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va modernizatsiyalash hamda mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

To'rtinchi bosqich 2016-yildan boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 5-oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlantirishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha cho-

tadbirlar to'g'risida»gi farmoniga muvofiq tadbirkorlikni yanada jadal rivojlantirishga e'tibor kuchaytirildi. 2018-yili tasdiqlangan «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalari va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili davlat tadbiri»da tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga ikki yil muddatga moratoriy (to'xtab turish) e'lon qilindi.

Erkin va maxsus iqtisodiy zonalar yaratilishi hamda ularning ahamiyati.

1996-yili O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Qonunga binoan, erkin iqtisodiy zona muayyan mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir. Prezidentimizning 2008-yilgi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil qilish to'g'risida»gi Farmoni asosida «Navoiy» xalqaro intermodal logistika markazi bunyod etildi. 2013-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi va «Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi Farmonlari qabul qilindi. Mazkur farmonlar raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish, bu borada qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga, ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Iqtisodiy zonalar kiritiladigan investitsiya miqdoridan kelib chiqqan holda 3 yildan 7 yilgacha muddatga bojxona va soliq to'lovlaridan ozod etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil oktyabrdagi «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida», 2017-yilgi «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlari asosida bugungi kunda (2018) mamlakatimizda 10 hududda 14 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. «Navoiy», «Angren», «Jizzax», «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarida 62 loyiha amalga oshirilgan, 4 ming 600 dan ortiq ish o'rni yaratilgan. Farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo'stonliq-farm», «Parkent-farm» singari 7 yangi erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Prezidentning 2016-yildagi farmoniga ko'ra «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Angren» va «Jizzax» maxsus industrial zonalarini nomini birlashtirish maqsadida ular bundan buyon «Navoiy», «Angren» va «Jizzax» erkin iqtisodiy zonalarini deb yuritiladigan bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 2-sentyabrdagi qaroriga ko'ra, O'zbekistonda 5-sentyabrdan yuridik va jismoniy shaxslar xorijiy valyutani hech qanday cheklolvsiz almashtirishni boshladi. Bu so'mni konvertatsiyalash borasida juda muhim qadam bo'ldi.

Tadbirkorlik yo'lidagi har qanday to'siqlarni olib tashlash davlat rahbari sifatida mening eng katta vazifamdir. Tadbirkor yo'lga to'siq bo'lish davlatga xiyonat sifatida qaraladi.

Shavkat Mirziyoyev. 2017-yil 7-dekabr

Soliq tizimi. 1991-yil avgustda O'zbekistonda eng zamonaviy shaklda, yangi tipdagi soliq tizimi yuzaga keldi. O'zbekiston soliq organlari 1991-yili qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonun, 2008-yili yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi asosida ish yuritmoqda.

Tibbiyot, ta'lim va sport obyektlarini saqlash xarajatlari korxonalarining soliqqa tortiladigan bazasidan chiqarildi, savdoda ilgari to'lab kelingan uchta to'lov o'rniga esa yagona soliq to'lov joriy etildi. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida fuqarolarning yillik daromadlarini Deklaratsiya qilish tartibi joriy qilindi.

2008-yildan keyingi davrda ham mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi barqaror rivojlandi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq yukini yanada kamaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining 10 foizdan 8 foizga, 2009-yili 7 foizga, keyinchalik 5 foizga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining kamaytirilishi, ayni paytda, uni hisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi omillar yaratdi.

2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek, soliq ma'muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligini oshirish maqsadida 2017-yil 18-iyulda Prezidentning «Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. 2018-yil 1-yanvardan boshlab soliq organlari va halol soliq to'lovchilar o'rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal etishda har tomonlama ko'maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini ta'minlaydigan soliq nazoratining zamonaviy shakli soliq monitoringini joriy etish belgilandi.

34.3. Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari

Mustaqillik arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyat. XX asrda 70 yildan ko'proq vaqt hukmron bo'lgan, dunyo xaritasida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi degan nom bilan katta hududni egallagan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan yirik mamlakatdagi to'g'ri bo'lmagan, samarasiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosat 1980-yillarning oxiriga kelib barcha ittifoqdosh respublikalar qatorida O'zbekiston aholisining ham yashash sharoitlarini og'irlashtirib, uni ko'plab muammolar iskanjasiga solib qo'ydi. Bu muammolarning barchasi 1980-yillarning oxiri – 1990-yillarning boshlarida O'zbekistonda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo'ldi. Xususan, respublikada demografik vaziyat murakkablashdi.

Bu davrda aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati *2,8 foizni* tashkil qilgan. 1991-yilga kelib mamlakatda aholi soni *20,7 million* kishidan ortib, 1990-yilga nisbatan *386,0 ming* kishiga o'sgan. Bu esa O'zbekistonda aholining o'sish sur'atlari Ittifoq sur'atlariga qaraganda *uch barobardan ziyod* yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

Biroq aholining bunday o'sishi uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko'paytirish hamda aholining hayot ta'minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining og'irlashuvi, ishsizlar sonining ko'payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keldi. Respublikadagi ijtimoiy ahvol, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish qoniqarsiz darajada edi. Ayniqsa, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta'minlanishi atigi *5 foizni*, ichimlik suv bilan ta'minlanishi salkam *50 foizni*, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi *17 foizni* tashkil etar edi. Aholini uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat obyektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va hokazolar bilan ta'minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholonki, aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilar edi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar O'zbekiston aholisi daromadlari va turmush darajasining keskin pasayishiga olib keldi.

Ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim muassasalari juda og'ir ahvolda bo'lib, maktab va kasalxonalarining *60 foizi* nobop binolarda joylashtirilgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi.

2018-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisi 32,65 million kishini tashkil qiladi. Bu 2017-yilga nisbatan 1,7% ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni jami aholining 50,6% ni, qishloq aholisi 49,4% ni tashkil qiladi. Aholisi soni 3 million kishidan oshgan hududlar soni 4 ta bo'lib, ular Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari hisoblanadi. O'zbekistonda O'rta Osiyodagi jami aholining 1/3 qismidan ko'prog'i yashaydi.

Ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi. Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash davlat siyosatining bosh yo'nalishi hisoblanadi. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilning muhim qismi aholini ijtimoiy himoyalash ekanligi ham shu bilan bog'liqdir. O'zbekiston hukumati ana shu besh tamoyil asosida o'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur choralar ko'rdi. Bu choralar odamlarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi.

Mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo qilishda davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib borildi. Ijtimoiy siyosat O'zbekiston o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi. Respublikada ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi. Ijtimoiy himoya tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topdi. Mamlakatda daromad olishning kafolatlanishi amalga oshirildi.

Eng kam ish haqi va boshqa to'lovlar, odatda, oldindan ko'paytirib kelinadi, narx-navo o'zgarishi bilan bog'lab olib borildi, bu esa aholining to'lov qobiliyati saqlanib qolishini ta'minladi va turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymadi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo'nalishi ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va noziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'ldi. Bunga erishishda muhim mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to'lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo'nalishi aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash borasida chora-tadbirlar o'tkazilganligi bo'ldi. Bu yo'nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari: pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi.

1992 – 2017-yillar mobaynida ish haqi va pensiyalarning, oliy o'quv yurtlari talabalarining, aspirantlarining, doktorantlarining stipendiyalari miqdori bir

necha bor oshirildi. Pensionerlarning ijtimoiy ahvolini e'tiborga olib eng kam pensiyaning mutlaq miqdori ish haqining eng kam miqdoridan oshiqroq bo'lishi muttasil ta'minlab kelindi. Bu yo'l ijtimoiy adolat tamoyillariga mos kelar edi.

1994-yili O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan o'zgartirildi. Ijtimoiy ko'mak berishning mutlaqo yangi ilg'or tizimi shakllantirildi. Bu tizimning mohiyati shundan iboratki, bolalar va kam daromadli oilalar bu yordamdan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar bo'lib qoldi.

1994-yilning sentyabridan boshlab barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi. Bunday yordam odamlarga yaqin turadigan mahalla yig'inlarida amalga oshiriladigan bo'ldi.

1996-yil dekabrda bolali oilalarga ijtimoiy yordam berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida» Farmon qabul qilindi. Unda 1997-yildan boshlab yordamga muhtoj, bolali oilalarga bolalarning soniga qarab eng kam ish haqining 50 foizidan 175 foizigacha nafaqalar beriladigan bo'ldi. Nogiron bolalarni sog'lomlashtirish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi, «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi tashabbusi bilan xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda tug'ma nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalarni murakkab jarrohlik yo'li bilan davolash ishlari amalga oshirildi.

1996-yildan boshlab 16 yoshgacha bolalari bo'lgan barcha oilalarga beriladigan har oylik nafaqalar ko'paytirilib, bu nafaqalar bolalarning soniga qarab quyidagi miqdorda belgilandi: bir bolali oilalarga eng kam ish haqining 30%; ikki bolali oilalarga eng kam ish haqining 60%; uch bolali oilalarga eng kam ish haqining 80%; to'rt bolali oilalarga eng kam ish haqining 100%; besh va undan ko'proq bolali oilalarga eng kam ish haqining 120%.

1997-yildan har yili 1-sinf o'quvchilariga bepul o'quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi, kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo'lga qo'yildi.

Keksalarni himoya qilish. Mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qismini, shu jumladan, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2005-yil «Sihat-salomatlik yili»da 2 mingga yaqin yolg'iz nuroniyning uy-joyi ta'mirdan chiqarildi, kam ta'minlangan oilalar va keksa fuqarolarga moddiy yordamlar ko'rsatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yildagi «2007 – 2010-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbir-

lari dasturi to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, «Nuroniylar» jamg'armasi hisobidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga, faxriylarning davolash maskanlariga, «Saxovat» va «Muruvvat» uylariga dori-darmon vositalari yetkazib berildi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hamda Sog'liqni saqlash vazirliklarining hududiy bo'limlari bilan hamkorlikda nuroniylar to'liq dispanser ko'rigidan o'tkazildi.

Toshkent shahrida faxriylarimizga barcha qulayliklarga ega 150 o'rinli «Nuroniylar» shifoxonasi xizmat qilmoqda. Viloyat shifoxonalari qoshidagi kasalxonalarda jamg'armaning viloyat bo'limlari hamda mahalliy hokimliklarning amaliy yordami tufayli tashkil etilgan yolg'iz keksalar va nogironlarni bepul davolovchi «Nuroniylar xonalari» faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikamizdagi barcha «Saxovat» va «Muruvvat», «Mehribonlik» uylari hamda maxsus maktab-internatlarga homiylar tomonidan har yili moddiy yordam berib boriladi. 2015-yili ham Keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, yoshi ulug' insonlar, ayniqsa, 1941 – 1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylariga ijtimoiy, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish maqsadida 2015-yil «Keksalarni e'zozlash yili» deb e'lon qilindi. Har yili urush qatnashchilari va front ortida mehnat qilganlarga bepul tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda, ular sanatoriy, kurortlarda davolanmoqda, boshqa zarur vositalar bilan ta'minlanmoqda.

Har yili 9-may – «Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan urush qatnashchilari mukofotlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-apreldagi farmoniga ko'ra ikkinchi jahon urushi qatnashchilari 2 mln so'mdan mukofotlandilar. Urush qatnashchilarining ayrimlariga to'la jihozlangan uylar, Haj ziyoratiga bepul borish va navbatsiz avtomobil sotib olish imtiyozlari berildi.

Mamlakatimizda 2007-yilning «Ijtimoiy himoya yili» deb e'lon qilinishi aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, uning turmush va farovonlik darajasini izchil oshirishga qaratilgan keng ko'lamli davlat siyosatining amaliy ifodasi bo'ldi. Shu ma'noda, 2007-yil ehtiyojmand oilalarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmlarini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rioya etishi lozim bo'lgan asosiy tamoyillar yanada takomillashtirildi.

Onalar va bolalar salomatligi muhofazasi. Respublikada onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda. «Bolalikdan nogironlar tug'ilishining oldini olish uchun yangi tug'ilgan chaqaloqlarni hamda homilador ayollarda tug'ma va boshqa patologiyani barvaqt aniqlash bo'yicha «Ona va bola skriningi» davlat tizimini tashkil etish to'g'risida» Vazirlar Mahkamasi-ning maxsus qarori qabul qilinganligi bu soha rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

2015-yilga kelib, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda tug'ilayotgan bolalarning *92 foizi* mutlaq sog'lom. «Bolalarni *asraylik*» xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida O'zbekiston bolalar salomatligini mustahkamlash borasida katta g'amxo'rlik ko'rsatayotgan eng ilg'or yetakchi *o'nta* mamlakat qatoriga kirdi.

2009-yil iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2009 – 2013-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida» qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish va shu sohada sifat o'zgarishlarini amalga oshirishni ta'minlash borasidagi ishlar davom ettirildi. Bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi emlash darajasi qariyb *100 foizni* tashkil etdi.

Barcha viloyatlar markazlarida kattalar va bolalar uchun ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, har bir tumanda eng zamonaviy meditsina asbob-uskunalari bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda respublikamizda *3000 ga yaqin* Qishloq vrachlik punkti (QVP) faoliyat ko'rsatmoqda.

2016-yil O'zbekistonda «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilindi. 2016-yili chekka qishloq tumanlarida yashayotgan aholi, birinchi navbatda, xotin-qizlar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy sharoitlar yaratish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish borasidagi ishlar izchil davom ettirildi.

O'tgan yillar mobaynida yurtimizda aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi ham sezilarli ravishda ortib bordi. Bu boradagi umumiy ko'rsatkich 1990-yili *67 yoshni* tashkil etgan bo'lsa, 2015-yili *74 yoshni* tashkil etdi.

Jumladan, erkaklar o'rtasidagi o'rtacha umr ko'rish *66 yoshdan 70 yoshga*, ayollar o'rtasida esa *72 yoshdan 76 yoshga* uzaygani odamlar salomatligini muhofaza qilish va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning aniq va yaqqol natijasi sifatida baholash o'rinli bo'ladi.

Uy-joylar qurilishi. Istiqloq arafasida, hali mustabid tuzum hukmronlik qilib turgan bir paytda, Birinchi Prezident Islom Karimov yuksak jasorat bilan aholini uy-joyli qilish masalasining yechimini topdi. Natijada 1989 – 1990-yillarda *bir yarim milliondan ko'proq* oilaga qo'shimcha yer ajratildi, *700 ming* oilaga tomorqa yerlari berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 3-avgustdagi «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bilan boshlangan qishloq infratuzilmasini yangilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlari bugun qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy

arxitektura asosida tubdan o'zgartirishga xizmat qilyapti. Xususan, 2009 – 2016-yillarda qishloq joylarda 69557 ta shinam namunaviy uy-joy bunyod etildi. Pirovardida 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 21-oktyabrdagi «2017 – 2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida»gi qarori mazkur yo'nalishdagi keng ko'lamli islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, qishloq qurilishida yangi bosqichni boshlab berdi. Ayni paytda, qishloq aholisining zamonaviy va arzon uylarga o'sib borayotgan ehtiyojlaridan kelib chiqib imtiyozli kredit berishning yuqori darajadagi shartlari joriy etildi. Shuningdek, energiyani tejaydigan materiallar va asbob-uskunalarining yangi turlaridan foydalanishning yanada kengaytirilishi barpo etilayotgan uylarning tannarxi pasayishi hamda aholining barcha qatlamlari uchun maqbul narxlar belgilanishiga xizmat qildi. Qarorga ko'ra, qishloq joylarda mavjud namunaviy loyihalarga qo'shimcha ravishda xo'jalik imoratlari va obod hovllilari bo'lgan ikki, uch qavatli ko'p kvartirali (2, 3 xonali) hamda aholi zich joylashgan tumanlarda hovlidagi imoratlari bilan birgalikda maydoni 0,02 gektar bo'lgan yer uchastkalarida joylashtiriladigan bir qavatli 2 va 3 xonali, shu bilan birga, maydoni 0,04 gektar bo'lgan yer uchastkalarida joylashtiriladigan ikki qavatli 4 xonali birlashtirilgan arzon uylarning yangi namunalari joriy etildi.

Bundan tashqari, 2017-yildan boshlab mamlakat poytaxti va viloyatlarda uy-joyga ega bo'lmaganlar, harbiy xizmatchilar, yosh olimlar va ichki ishlar xodimlari uchun arzon turarjoylar qurilib, egalariга topshirilmogda.

35-BOB. O'ZBEKISTONDA ETNIK VA KONFESSIYALARARO MUNOSABATLAR

35.1. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik

Millatlararo totuvlik g'oyasi. Millatlararo totuvlik g'oyasi Yer yuzida yashayotgan barcha etnik guruhlarining tenghuquqlilik, o'zaro hurmat va hamkorlik asosida tinch-totuv yashash g'oyasidir. Millatlararo totuvlik g'oyasi millatparvarlik g'oyasidir. U barcha millat va elatlarni tili, urf-odati, an'analari, bayramlari rivojlanishini talab etadi. Millatchilik, fashizm, milliy va etnik ko'rinishdagi urushlarga qarshi turadigan yagona ma'rifiy g'oyadir. Ayniqsa, bugun neofashizm bosh ko'tarayotgan sivilizatsiyalararo to'qnashuvlar sodir bo'layotgan sharoitda millatlararo totuvlik g'oyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi» degan muhim qoida belgilab qo'yilgan.

Bugun O'zbekistonda 138 ta milliy-madaniy markazlar millatlararo totuvlik g'oyasini hayotga tatbiq etmoqda.

Ruslarning «Maslennitsa», tatar-boshqirdlarning «Sabanto'y», uyg'urlarning «Sayil» bayramlari, xitoylarning «Chunuze» yangi yili, koreyslarning «Soller» va «Ovol – tano» bayramlari nishonlanmoqda. Har yili respublikamiz miqyosida «Biz yagona oila farzandlarimiz», «Vatan yagonadir, Vatan bittadir», «O'zbekiston – umumiy uyimiz» shiori ostidagi festivallar o'tkazilmoqda.

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar. O'zbekiston hududida o'z madaniyati va o'z an'alariga ega bo'lgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ular ham mamlakatning barcha fuqarolari qatori bir xil huquq va majburiyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

O'zbekiston aholisining 80% ni o'zbek, 4,9% ni tojik, 3,8% ni rus, 3,6% ni qozoq va 7,7% ni boshqa turli millatlarga mansub kishilar tashkil etadi.

Ko'pmillatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni shakllantirish bo'lishi zarur. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq milliy siyosatning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildiki, ayni shu siyosat milliy bag'rikenglikning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

O'zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritadi. Dastlabki milliy-madaniy markazlar *koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar* tomonidan respublika viloyatlarida 1989-yili tashkil etilgan. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. Bu davrda ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada ularning soni yil sayin ortib bordi.

Agar 1992-yili 10 ta milliy-madaniy markazlar ish olib borgan bo'lsa, hozirga kelib mamlakatda 138 ta milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarining respublika ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do'stlik, hamkorlik, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish va hamdo'stlik aloqalarini rivojlantirish, Respublika Baynalmilal madaniyat markazi, turli davlat

va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish milliy-madaniy markazlarning asosiy vazifalaridir. 1992-yil tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi esa ushbu milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirib, ularga tashkiliy va ustuliy yordam ko'rsatib keldi.

Baynalmilal madaniyat markazi tomonidan har yili *ikki marta* til bayrami o'tkazilib kelindi. Bular YUNESKO Bosh konferensiyasi *30-sessiyasida* (1999-yil) 21-fevral Xalqaro ona tili kuni deb e'lon qilingan va 2000-yildan *195 ta* a'zo davlatlarda nishonlanib kelinayotgan «Xalqaro ona tili kuni» hamda O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun hisoblanadi. Ayni munosabat bilan har yili an'anaviy tarzda o'zbek tili bo'yicha notiqlik san'ati tanlovi tashkil etib kelinadi.

Bugungi kunda ham xalqlar va dinlar orasidagi bag'rikenglik, tolerantlik g'oyasi dunyoda eng dolzarb muammolardan biridir. Shu munosabat bilan YUNESKO 1995-yil *Parijda* «Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»ni qabul qildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti esa har yilning 16-noyabrini «Xalqaro bag'rikenglik kuni» deb e'lon qildi.

O'zbekistonda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadigan «Mustaqillik» va «Navro'z» bayramlari, 8-dekabr – Konstitutsiya qabul qilingan kun, 8-mart – Xotin-qizlar kuni, 9-may – Xotira va qadrlash kuni kabi bayram tadbirlarida turli millat va elat vakillari ham faol qatnashadilar.

Bugungi kunda respublikadagi barcha oliy o'quv yurtlarida turli millatga mansub talabalar tahsil oladi. Dunyoning kamdan kam mamlakatlarida kuzatiladigan yana bir holat shuki, O'zbekistonda ta'lim *7 tilda* olib boriladi. Bular sirasiga *o'zbek va qoraqalpoq* tillaridan tashqari *rus, qozoq, turkman, tojik va qirg'iz* tillarini kiritish mumkin. Teleradio ko'rsatuv va eshittirishlar *12 tilda* efiyrga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar *10 dan ortiq* tillarda chop etilmoqda. Bu O'zbekistonda millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Millatlararo munosabatlarda yangi davr. Bugun respublika hududida yashovchi 130 dan ortiq millat va elat vakillari uchun O'zbekiston Konstitutsiyasi millatlararo totuvlikni mustahkamlash, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda tinchlikni yanada mustahkamlash, millatlararo barqarorlikni yuksaltirish maqsadida 2017-yil 19-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

«Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq Baynalmilal madaniyat markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy-madaniy markazlar hamda do'stlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishida davlat idoralari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirishda mustahkam tayanch bo'ladi.

2017-yili Toshkentdagi «Bobur» bog'iga «Do'stlik» bog'i nomi berilib, bog'ning markaziga Ikkinchi jahon urushi yillarida turli millatga mansub yetim bolalarni asrab olgan mashhur Shomahmudovlar oilasi haykali ko'chirib keltirildi. 2018-yili mazkur haykal «Xalqlar do'stligi» maydoniga qaytarildi.

35.2. O'zbekistonda konfessiyalararo munosabatlar

Dinlararo bag'rikenglikning shakllanishi. SSSR davrida O'zbekistonda 89 ta masjid, 2 ta madrasa bo'lgan, 2017-yilga qadar esa 2033 ta masjid, Islom universiteti, Islom instituti, 16 ta diniy konfessiyalar faoliyat yuritib keldi. O'zbekiston aholisining 88 foizi islom diniga, 10 foizidan ziyodi boshqa dinlarga e'tiqod qiladi, 1,8 foizi hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti respublika miqyosida nishonlanyapti, diniy jurnal va gazetalar nashr etilib, televideniye va radioda diniy mavzularda maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar olib borilyapti. O'zbekistonda din davlatdan, siyosatdan ajratilgan, ammo xalqdan ajratilgan emas. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita dindorlar ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashib kelmoqda. 2007-yili Islom Hamkorligi Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi AYSESKO tomonidan «Toshkent – Islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qilindi. Bu O'zbekiston davlatining dinga bo'lgan munosabatining natijasidir.

Aholisi ko'p millatli bo'lgan O'zbekistonda islomdan tashqari xristianlik, yahudiylik, buddaviylik va boshqa konfessiyalarga e'tiqod qiluvchi kishilar ham bor. Ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatda millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan izchil davlat siyosati turli millat hamda barcha diniy konfessiya vakillarining emin-erkin yashashlari uchun mustahkam asos yaratdi.

1991-yili davlatning vijdon erkinligi va dinga oid siyosatini belgilab beruvchi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Uning qabul qilinishi islom diniga va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchi fuqarolarning hayotida muhim o'rin egalladi.

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 31-moddasi

1992-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Qo'mita tarkibida diniy konfessiyalar bilan ishlash uchun maxsus tashkil etilgan shu bo'lim ish boshlaganidan so'ng respublika hududida joylashgan va diniy faoliyat yuritayotgan barcha tashkilotlar haqida ma'lumotlar to'plana boshlandi.

1998-yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur qonunda fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligi bilan bog'liq huquq hamda burchlari aniq-ravshan belgilab qo'yildi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, «Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (*prozelitizm*), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar».

O'zbekiston kabi ko'p konfessiyali davlatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Zero, diniy bag'rikenglik mamlakatda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, 16 diniy konfessiya o'zaro totuvlikda faoliyat ko'rsatmoqda.

Diniy bag'rikenglik tamoyillari. O'zbekistonda qaror topgan diniy bag'rikenglik quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, respublikada istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari hamda turli diniy konfessiyalar faoliyatida o'zaro hurmat, sabr-toqat, bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishda amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ikkinchidan, milliy va diniy bag'rikenglik o'zbek madaniyati hamda mentalitetining ajralmas qismidir. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik borasida olib borilayotgan siyosat demokratik o'zgarishlarni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishga, boshqa millatlar, dinlar va madaniyatlarga hurmatsizlik hollaridan, ekstremizm shakllaridan xoli haqiqiy demokratik jamiyatni qurish omiliga aylanishiga, jamiyatda millatlararo va dinlararo ahillikning saqlanishiga imkon tug'dirmoqda.

Uchinchidan, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlardagi uyg'unlik xalqlarning ma'naviy boyligi manbai hisoblanadi, davlatlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli madaniyat va din

vakillari o'rtasidagi muloqotlar kelishuv va o'zaro ishonchga erishish yo'llaridan biri sanaladi.

To'rtinchidan, mutaxassislar fikricha, bir-biridan farq qiladigan 2 xil bag'rikenglik tushunchasi mavjud: *formal* – tashqi ko'rinishdagi bag'rikenglik va ichki *pozitiv* bag'rikenglik. Formal ravishdagisi boshqa kishining diniy e'tiqodiga nisbatan toqatlilikni, unga qarshi kurashmaslikni anglatrsa, ichki ijobiyi esa boshqa dinlarni yaxshi bilishni ham taqozo etadi. Bugungi O'zbekistonda har ikkala ko'rinishdagi bag'rikenglik amalda o'zining to'liq ifodasini topgan.

Turli din vakillariga munosabat. Ilmiy manbalar o'lkamizda qadim zamonlardananoq zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi murakkab ideologik tizimga ega dinlar tinch-totuv faoliyat olib borganligidan dalolat beradi. Bunday holatni hozirgi O'zbekistondagi islom, xristian, yahudiy dinlari va boshqa konfessiyalarning o'zaro munosabatlari misolida ham ko'rish mumkin.

Umuman, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan noislomik konfessiyalari turli e'tiqodda bo'lgan fuqarolar o'rtasida totuvlik va do'stlik rishtalarini mustahkamlashda muayyan mavqega ega.

Ayni paytda O'zbekistonda islom dini bilan bir qatorda pravoslavlar, baptistlar, yahudiyilar, adventistlar, katoliklar, lyuteranlar, krishnaitlar, bud-distlar, pyatidesyatniklar, lyegova xudosi shohidlari, yangi havoriylar, xristian-nresvitorianlar singari bir qancha din va mazhablar mavjud. Ulardan har birining o'ziga xos mafkurasi, talab va ehtiyojlari mavjud.

O'rta Osiyodagi musulmon va boshqa konfessiyalarga mansublar o'rtasidagi munosabatlar ham siyosiy, ham maishiy darajada ikki asosiy xususiyatga asoslangan, bular o'zaro hurmat va bag'rikenglikdir. Bu munosabat har xil dinlar vakillarining murakkab tarixiy jarayonlar sinovlarini mardonavor yengib o'tishlari natijasida shakllangan. Mamlakatda tinchlik, taraqqiyot va farovonlik bo'lishidan barcha din vakillari manfaatdor bo'lib, ba'zi konfessiyalar vakillari O'zbekistonda va xorijda tashkil etilayotgan ma'naviy va ma'rifiy tadbirlardagi ma'ruzalarida respublikada diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashlarini bildirmoqdalar. Bunday munosabat davlat tomonidan ham taqdirlanmoqda. Mitropolit *Vladimirning* «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlangani buning yorqin dalilidir.

Respublikada diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda konfessiyalarning ham muayyan o'rni bor. Birinchidan, ular o'z faoliyatlari davomida aholida diniy bag'rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo'lida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etib keladilar. Ikkinchidan, mamlakatda dinlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash hamda turli nizo va murakkabliklarni

keltirib chiqaruvchi missionerlik kabi xatti-harakatlarga qarshi amalga oshirilayotgan tadbirlarda faol qatnashadilar.

Islom dini va diniy ta'limga e'tibor. Bugun respublikada 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2238 ta diniy tashkilot, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurti, pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat olib bormoqda. Ularda talabalar diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni olish imkoniyatiga ham ega.

Toshkentda 2013-yili qurilishi boshlangan *Minor masjidi* 2014-yilning 1-oktyabrida, katta – Qurbon hayiti bayramida ochildi. Masjid binosi an'anaviy sharq va o'zbek uslubida qurilgan, ikki minorasi va osmonrang bir gumbaz bor. Masjid 2400 dan ortiq odam uchun mo'ljallangan.

1999-yili O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Toshkent islom universitetiga asos solindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo va butun dunyoda hamjihatlikka erishish, dinlararo totuvlik, tinchlikni saqlash yo'lida muhim dasturilamal bo'layotganini, bu jihatlar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham o'z aksini topganini e'tirof etdi.

Prezidentning 2017-yil 27-martdagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq Samarqandda ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Uning tarkibida hadisshunoslik oliy maktabi, hadis, kalom va qiroat ilmini o'rganishga mo'ljallangan xonalar, qo'lyozmalar kutubxonasi, muzey tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida Toshkentda Islom madaniyati markazi hamda Prezidentning 2017-yil 15-dekabrda farmoni asosida O'zbekiston Islom akademiyasi tashkil etildi.

«Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror top-tirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan».

Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidan.

36-BOB. TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI VA KADRLAR TAYYORLASH

36.1. Umumiy, o'rta, o'rta maxsus ta'lim tizimi

Mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim tizimi. Madaniy-ma'naviy rivojlanishning eng muhim poydevori ta'lim tizimidir. Chunki zamon talablariga javob beradigan, ilg'or fan-texnika, texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni yetishtirmasdan jamiyatni yuksaltirib bo'lmaydi. O'zbekistonda 1992-yil 2-iyulda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Bu dasturiy hujjatda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi, uning boshqaruv tarkibi, pedagog xodimlarning burch va mas'uliyatlari aniq belgilab berildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida *10 mingdan ortiq* xalq ta'limi xodimiga davlat uylari, *22 mingdan ortiq* xodimga esa tashkilot va muassasalar tasarrufidagi uylar bepul xususiylashtirilib berildi. *50 mingdan ortiq* pedagog xodimga shaxsiy qurilish uchun yer maydonlari ajratildi. Qishloqlarda istiqomat qiladigan pedagog xodimlarning hammasi kommunal xizmat uchun to'lovlardan ozod etilgan bo'lsalar, shaharliklar uning *50 foizi* miqdorida to'lab bordilar. Keyinchalik kommunal xizmat bo'yicha bu imtiyozlar oylik maoshlariga qo'shib beriladigan kompensatsiya bilan almashtirildi.

1992-yildagi qonun asosida umumiy ta'lim quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshirila boshlandi: I bosqich boshlang'ich ta'lim (*1 – 4-sinflar*); II bosqich asosiy (tayanch) maktab (*4 – 9-sinflar*); III bosqich yuqori o'rta maktab (*10 – 11-sinflar*).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil dekabrda qabul qilgan qarori bilan 1-oktyabr «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» deb belgilandi hamda bu kun bayram sifatida dam olish kuni deb e'lon qilindi. 1997-yildan boshlab har yili 1-oktyabr «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» sifatida nishonlanib kelmoqda.

O'zbekistonda, jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlandi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekistonning ta'lim sohasidagi siyosati 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topdi.

1996/1997-o'quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinflarida o'qish yangi alifboda olib borildi. Yangi imlo, alifboda o'qitish uchun zarur dastur, qo'llanma va darsliklar yaratildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi *3 bosqich*dagi islohotlar asosida amalga oshirildi. *I bosqich* 1997 – 2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur

bo'lgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Buning uchun davlat tomonidan qo'shimcha ravishda *65 milliard so'm* mablag' sarf qilindi. *II bosqich* 2001 – 2005-yillarni o'z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. *III bosqich* 2005-yildan bugungi kungacha. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to'plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta'lim tizimi takomillashtirib borildi. 2009-yildan boshlab yurtimizda to'liq *12 yillik* majburiy ta'lim joriy etildi.

Ta'lim tizimi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni asosida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim shakllaridan iborat.

9 yillik umumiy o'rta ta'lim savodxonlik asoslarini, umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Bolalar birinchi sinfga *6 – 7 yosh*dan qabul qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim kerakli bilimlar hajmiga asos soladi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki kasbiy yo'nalish va navbatdagi ta'lim bosqichini tanlashga zamin yaratadi.

Prezidentning 2004-yildagi farmoni asosida 2004 – 2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi qabul qilindi. Dastur doirasida yangi maktablar qurildi, boshqalari kapital ta'mirlandi; aniq va tabiiy fanlardan o'quv laboratoriyalar zarur uskunalar bilan jihozlandi.

Umumiy o'rta, umuman, ta'limning barcha bosqichlarida yangi o'quv dasturlari, davlat ta'lim standartlari yaratildi. Maktab darsliklari tamomila yangilandi hamda fan va amaliyot yutuqlari bilan boyitish bo'yicha takomillashtirib borildi. Multimedia o'quv adabiyotlari ham yaratilishi yo'lga qo'yildi. Respublikada *10 mingga yaqin* maktablar ishlab turibdi. Ularning moddiy-texnik ta'minoti ham davlat hisobidan amalga oshiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimining tashkil etilishi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq umumiy o'rta ta'limning *to'qqiz yillik* etib belgilanishi munosabati bilan to'qqiz yillik maktabni tugatgan barcha o'quvchilar o'rta maxsus yoki kasb-hunar kollejlarda ta'lim olishni davom ettirdilar. Bu yangi ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 1-bosqichi (1997 – 2001) doirasida amalga oshirildi. Shu davr mobaynida *300 ga yaqin* yangi turdagi ta'lim muassasalari ochildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida *46 ta* litsey tashkil etildi, *800 ga yaqin* o'quvchi chet ellarda ta'lim oldi, ko'pgina o'qituvchilar xoriy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish maqsadida chet mamlakatlarga borib qaytdi. O'rta maxsus ta'lim sohasida viloyatlarda, joylarda biznes mak-

tabi, kichik va o'rta maktab uchun kasb-hunar kurslarining ochilishi, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda yangi mutaxassisliklar (fermer, soliq va bojxona xodimi, audit va hokazo) kiritildi. Unga binoan yurtimizda 1997-yildan boshlab hozirga qadar *1400 dan ortiq* kasb-hunar kolleji, *200 ga yaqin* akademik litsey bunyod etildi. Ular sohalar bo'yicha mutasaddi tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalariga ham birlashtirilishi tufayli bu bosqichda o'quv jarayoni samarali tashkil etilib, kollej bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratilganiga qaramay, bu borada qoniqarli natijaga erishilmadi.

2017-yilgi islohotlar. 2017-yil umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida tub islohotlar yili bo'ldi. Xalq qabulxonalari va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalaridan kelib chiqib Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9 + 3, ya'ni *12 yillik* majburiy ta'limdan *11 yillik* ta'limga qaytildi.

2017-yilning o'zida 10-sinf o'quvchilari uchun *9 mln nusxa* darsliklar chop etildi va *10 mingga yaqin* umumta'lim maktabida 11 yillik ta'limga o'tilgan holda o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi.

11 yillik ta'limga o'tish bo'yicha so'rovnomalar natijasi ota-onalarning *70 foizidan ortiq* qismi 11 yillik ta'lim qayta tashkil etilishi tarafdori ekanini ko'rsatdi.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Maktabgacha ta'lim 6 – 7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislarining ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning *70 foizini 5 yoshgacha* bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-sentyabrda «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni imzoladi. Unga ko'ra, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Yangi vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahri maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlarning maktabgacha ta'lim boshqarmalari hamda ularning shahar va tumanlardagi bo'limlari kiradi.

2017-yilga kelib O'zbekistonda *4916 ta* maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Oxirgi *20 yil* davomida bog'chalar soni *45%* ga kamaygan. Ayni damda bog'chaga borayotgan bolalar umumiy bolalar sonining *30%* ni tashkil qiladi.

36.2. Oliy ta'lim va undan keyingi ta'limning takomillashtirilishi

Oliy ta'lim tizimi. 1992-yil martda viloyatlardagi pedagogika institutlari negizida Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Termiz davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti tashkil qilindi. Prezidentning 1992-yil fevraldagi farmoni bilan yana *sakkizta* viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi.

Eng zamonaviy ixtisosliklar bo'yicha alohida universitet va institutlar, jumladan, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Navoiy kon-metallurgiya instituti, Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi kabi o'nlab yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. Toshkent davlat elektrotexnika va aloqa texnikumi institutga aylantirildi. 1993-yili «O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmon asosida talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilandi. Mamlakat qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan va zamonaviy bilimlar sohibi bo'lgan yuqori malakali oliy va o'rta maxsus ta'lim olgan mutaxassis kadrlarni Toshkent davlat agrar universiteti, Andijon, Samarqand qishloq xo'jaligi, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti ish boshladi. Mamlakat viloyatlarida oliy universal ta'limni joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasiga suyanib ish tutildi.

1992-yili dastlab respublikamizning *6 ta* oliy ta'lim muassasasida test sinovi asosida o'qishga qabul qilish tajribadan o'tkazilgan edi. 1993-yili esa *46 ta* oliy ta'lim muassasalarining *19 tasida* tajriba tariqasida test sinovlari o'tkazildi. 1994-yili Davlat test markazi tashkil etilib, shu yildan boshlab oliy ta'lim muassasalariga test orqali qabul joriy qilindi. 1996-yildan ta'lim olishda kontrakt-shartnoma to'lovi joriy etildi. 1997-yilgi «Talim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq *5 yillik* oliy ta'limdan *4 yillik* bakalavriat va *2 yillik* magistratura bosqichlaridan iborat ikki pog'onali tizimga o'tildi.

Shuningdek, Prezidentning 2013-yildagi «Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq yuridik institut universitet maqomida qayta tashkil etildi, 2014-yildagi qarori asosida Toshkent davlat stomatologiya instituti ta'sis qilindi.

Malaka oshirish tizimi ham tubdan isloh qilindi. Xalq va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari qatorida oliy ta'lim, tarmoq sohalarida kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari tamomila yangi bosqichga ko'tarildi.

2017-yilga kelib mamlakatimizda *80 dan ortiq* oliy o'quv yurti, jumladan, *19 ta* universitet, *37 ta* institutlar, *6 ta* akademiya, *1 ta* konservatoriya, *1 ta* raqs va xoreografiya oliy maktabi, *13 ta* OTMLlar filiallari, *6 ta* xorijiy davlatlar OTMLarining filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Prezidentning 2015-yildagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga asosan *15* yetakchi oliy ta'lim muassasalari tayanch oliy o'quv yurtlari sifatida belgilandi.

Oliy ta'limda xalqaro hamkorlik. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda nisbatan qisqa muddatlar-da dunyoning yetakchi davlatlarida ta'lim sohasida erishilgan ilg'or yutuqlarni, milliy an'analarni o'z ichiga olgan prinsip jihatidan yangi modeli tashkil qilindi.

Mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimida olib borilgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda bir qator chet el universitetlarining filiallari ochildi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, Toshkent shahrida M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Italiyaning Turin politexnika universiteti filiallari ish boshladi. Shuningdek, Toshkentda G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi va Janubiy Koreyaning Inha universiteti filiallari ham o'zbek yoshlariga o'z ta'lim sirlarini o'rgatmoqda.

Yurtimiz va xorijdagi o'quv maskanlarida yuzlab iqtidorli yoshlar ta'lim olmoqda va o'z masalakasini oshirmoqda. Bunda xorijiy ta'lim muassasalari bilan ikki tomonlama tajriba almashish yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga chiqdi. Yoshlarni jahon fani va bilimlari xazinasidan bahramand qilishga katta e'tibor berilmoqda. Respublika o'quv yurtlarining chet ellardagi o'quv markazlari bilan aloqalari ancha mustahkamlandi. Chet ellik o'qituvchilar va mutaxassislarni xorijiy tilda mashg'ulot olib borish uchun taklif qilish, shuningdek, chet el o'quv va ilmiy markazlarida xodimlarning malaka oshirishi va talabalarning o'qishi kengayib bormoqda. Ayni vaqtda, jahonning ko'plab mamlakatlaridan kelgan xorijiy fuqarolar O'zbekistonda ta'lim olmoqda.

2017-yilgi tub islohotlar. 2017-yil *10 yildan ortiq* vaqt mobaynidagi tanaffusdan keyin davlat va jamiyatdagi malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar inobatga olinib O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sirtqi ta'lim tizimi tiklandi, maxsus sirtqi ta'lim takomillashtirildi.

2017-yil 16-noyabrda O'zbekiston Prezidentining «Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, 2018/2019-o'quv yilidan alohida iqtidor talab etiladigan madaniyat, san'at, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, musiqiy ta'lim, san'atshunoslik, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta'lim yo'nalishlarida test sinovlari bo'lmaydi. Masalan, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va alohida iqtidor talab etadigan ta'lim yo'nalishlariga faqat ijodiy imtihonlar orqali qabul qilish yo'lga qo'yiladi. Tibbiyotga oid oliy ta'lim tizimida ham bir qato islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, tibbiyot sohasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qish muddati 7 yildan 6 yil va tibbiy profilaktika yo'nalishida 6 yildan 5 yilga tushirildi.

Test sinovlari shaffof va haqqoniy o'tishini ta'minlash maqsadida ushbu tizimni takomillashtirish hamda abituriyentlar, ota-onalarga yengilliklar tug'dirish maqsadida mavjud tizimni isloh qilish talab etildi. 2018/2019-o'quv yilidan boshlab test jarayonini bir kunda emas, 15 kun davomida o'tkazish, natijasini esa imtihonning ertasiga e'lon qilish vazifalari qo'yilgan.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim. 2012-yilga qadar aspirantura (3 yil) va doktorantura (3 yil)dan iborat bo'lib, 2012 – 2017-yillarda bir bosqichli doktorantura faoliyat olib bordi. 2013 – 2017-yillar oralig'ida faqat 360 ga yaqin tadqiqotchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu esa respublikadagi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari uchun oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondira olmadi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hamda bir qator ilg'or xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotini o'rgangan holda 2017-yilning 1-iyulidan boshlab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi. Birinchisi dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (*PhD*) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura, ikkinchisi dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha fan doktori (*Doctor of Science*) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimidir.

37-BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA ILM-FAN VA SPORTNING RIVOJLANISHI

37.1. O'zbekistonda ilm-fan

Mustaqillikning dastlabki yillarida ilm-fan. Yuzaga kelgan yangi tarixiy shart-sharoit ilm-fan sohasini tub islohot qilishni taqozo etdi. Zero, dolzarb ilmiy-texnik muammolar hal qilinishi respublikaning rivojlanishini ta'minlar edi.

Avvalo, Prezidentning 1992-yil martdagi farmoni bilan ilmiy kadrlar tayyorlanishini tashkil etuvchi vakolatli organ – Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tashkil etildi.

Prezidentning 1992-yil iyuldagi «Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni asosida respublika olimlari xorijiy mamlakatlarga tajriba oshirishga yuborilishi yo'lga qo'yildi. Fanlar akademiyasi tarkibida ilmiy natijalarni ichki va tashqi bozorga olib chiqish bilan shug'ullanuvchi Respublika ilmiy ishlanmalar innovatsiya tijorat markazi tashkil etildi.

1997-yili Xorazm Ma'mun akademiyasi qayta tiklanib, Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'linmasi sifatida tashkil etildi.

2000-yili Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondi dunyoning eng boy qo'lyozmalar xazinasidan biri sifatida YUNESKO madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi.

Prezidentning 2006-yil avgustdagi «Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tashkil etildi (bugungi kunda vazirlik). Qo'mitaga fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, akademik va oliy ta'lim muassasalari fani integratsiyalashuviga, ilmiy sohadagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

2008-yildan buyon Toshkentda innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasi o'tkazib kelinmoqda. 2008 – 2015-yillar davomida o'tkazilgan I – VIII yarmarkalar doirasida jami 4000 dan ortiq ishlanmalar taqdim etildi. 2008-yildan buyon umumiy qiymati 113 mlrd so'mdan ortiq bo'lgan 3000 dan ziyod shartnomalar tuzildi.

O'zbekiston olimlari demokratik va huquqiy jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy rivojlanishini tadqiq qilish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, energetika va energiya, xomashyoni tejash, axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya, kimyo, bio- va nanotexnologiyalarni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi,

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tibbiyot, farmakologiya, geologiya, geofizika, seysmologiya bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishib kelmoqda.

Arxeologiya fani sohasida ham ma'lum siljishlar bo'ldi. Jumladan, 2002-yildan «O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar» yillik to'plamlari nashr etilib, ularda respublikamiz hududida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarning umumlashma ilmiy xulosalari berib boriladi. 2010-yildan esa «O'zbekiston *arxeologiyasi*» ilmiy jurnali chop etila boshlandi.

Fanning boshqa yo'nalishlaridagi olimlar ham yirik natijalarni qo'lga kiritishmoqda. Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti tomonidan tayyorlangan *10 jildlik* «Tabiiy birikmalar (O'simlik zaxiralari, tuzilishi va xossalari)» nomli noyob ma'lumotnoma ingliz tilida *Londonda* chop etildi. Bu ilmfan sohasida xalqaro hamkorlik rivojlanayotganidan ham dalolat beradi.

Mustaqillikning dastlabki yillari birgina Fanlar akademiyasining ilmiy mahsulot eksporti *8,2 martaga* ko'paydi.

Ilm-fan va ta'lim integratsiyasi. O'zbekiston fani va ta'limi integratsiyasini ta'minlash borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon 2012-yilga qadar Fanlar akademiyasi tizimida ilmiy-o'quv markazlari tashkil etilishi orqali amalga oshirildi. Jumladan, 2011-yili Fanlar akademiyasining Fizika-texnika institutida «Qayta tiklanadigan energiya manbalari» ilmiy-o'quv markazi, 2012-yili Immunologiya institutida «Biotibbiyot» ilmiy-ta'lim innovatsion markazi ish boshladi.

2012-yildan esa oliy ta'lim tizimida ilmiy sektor rivojini ta'minlash maqsadida Fanlar akademiyasining *5 ta* ilmiy-tadqiqot instituti, *4 ta* mintaqaviy ilmiy markazlar ilmiy bo'linma tarzida qayta tashkil etilib, yo'nalishi va ixtisosliklariga ko'ra ular tegishli oliy ta'lim muassasalariga o'tkazildi.

Fanlar akademiyasi tuzilmalarini qisqartirish va akademik fan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish maqsadida 2014-yili *2 ta* institut va *1 ta* bo'linma oliy ta'lim muassasalari qoshidagi ilmiy-tadqiqot markazlari sifatida tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yildagi «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab dissertatsiya himoya qilish va fan doktori ilmiy darajasini berish bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimi joriy qilindi. Lekin bu tizim mavjud xalqaro ilm-fan standartlariga to'la mos kelmaganligi, respublikadagi mavjud ilmiy salohiyatning tushib ketganligi sababli 2017-yil fevraldan Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan xalqaro standartlariga mos keluvchi, falsafa doktori va fan doktori darajalarini beruvchi ikki bosqichli tizimga o'tildi.

Ilm-fandagi tub islohotlar. 2016 – 2017-yillar O'zbekiston ilm-fanida tom ma'noda tub islohotlar davri bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni ilk bor mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashdi. Uchrashuv natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ilm-fanga e'tibor yanada kuchayishi belgilandi. Prezidentning 2017-yil 17-fevraldagi «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida 9 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarildi, qator ilmiy tashkilotlar qayta tashkil etildi, Fanlar akademiyasining fan yo'nalishlari bo'yicha 3 ta bo'limi va Navoiy bo'limi tashkil etildi, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Prezidentining 2017-yili imzolangan «Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida» qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlikning davlat va jamiyat qurilishiga, iqtisodiyot tarmoqlariga, qishloq xo'jaligiga, ijtimoiy rivojlanishga, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish tizimiga innovatsiyalarni joriy etish hamda ilg'or texnologiyalar joriy etilishini tashabbus qilish, muvofiqlashtirish va rag'batlantirish sohasidagi asosiy vazifalari belgilab berildi.

Fanlar akademiyasi haqiqiy a'ziligiga oxirgi saylovlar 1995-yili o'tkazilgan edi. O'tgan yillar mobaynida akademiklarning soni ikki martadan ko'proqqa qisqardi va 2017-yilga kelib akademiyaning atigi 63 nafar haqiqiy a'zosi qolgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabr-dagi «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni bilan 22 yillik uzoq tanaffusdan so'ng Fanlar akademiyasining 32 nafar yangi haqiqiy a'zolari tasdiqlandi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchi 400 ta muassasa ro'yxatga olingan bo'lib, fan sohasida 36 ming mutaxassis, jumladan, 2 mingdan ortiq fan doktori va 9 mingdan ortiq fan nomzodi faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda tarix fani sohasida 4 ta akademik: Ahmadali Asqarov, Edvard Rtveladze, Anatoliy Sagdullayev va Dilorom Yusupova faoliyat olib bormoqda.

37.2. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi

Jismoniy tarbiya va sportni qo'llab-quvvatlovchi tizimning yaratilishi. O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, madaniyat, ta'lim, ilm-fan bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sport ishlariga katta e'tibor qaratildi. Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'ning muttasil ortib borishi ham

mamlakatda jismoniy tarbiya va sport sohasiga davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralgani, sohaga bo'lgan katta e'tibor ko'rsatkichidir. Darhaqiqat, nufuzli xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sportchilarining muvaffaqiyatli ishtirok etishlarining eng asosiy sabablaridan biri ham ushbu sohaning davlat tomonidan muntazam ravishda qo'llab-quvvatlanganligidir.

1992-yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» Qonun qabul qilinishi va unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, 2015-yili yangi tahriri tasdiqlanishi sport sohasining yanada rivojlanishiga xizmat qildi.

Respublikada yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan 536 ta bolalar-o'smirlar sport maktablari, 5 ta olimpiya zaxiralari kollejlari, 8 ta respublika oliy sport mahorati maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 10-avgustda «O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Unga muvofiq, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutini Toshkent viloyati Chirchiq shahriga ko'chirildi. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida 2017/2018-o'quv yilidan boshlab ta'limning sirtqi bo'limi tashkil etildi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, *Toshkent, Namangan, Jizzax, Farg'ona, Buxoro, Xorazm, Andijon, Samarqand, Guliston* va boshqa shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan qator sport majmualari qurildi. *Toshkent* shahridagi «Yunusobod», «Jar», «Bunyodkor», *Namangan* shahridagi «Pahlavon», *Jizzax* shahridagi olimpiya zaxiralari kolleji sport majmualari va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Prezidentining 2017-yil fevraldagi farmoniga muvofiq O'zbekistonda Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilib, uning negizida Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi.

Uch bosqichli sport o'yinlari. Mustaqillik yillarida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirishda alohida davr bo'ldi. Bu borada Bolalar sportini rivojlantirish respublika jamg'armasining tashkil qilinishi, 2000-yildan boshlab oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida «Universiada», o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari talabalari o'rtasida «Barkamol avlod», umumta'lim maktablar o'quvchilari o'rtasida «Umid nihollari» sport musobaqalarining uyushtirilishi muhim ahamiyatga ega voqealardir. Uch bosqichli sport turnirlari tashkil etilishidan asosiy maqsad yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda xalqaro musobaqalar uchun mamlakat terma jamoasiga nomzodlarni tayyorlashdan iborat.

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan xotin-qizlar sportini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilib, ayniqsa, sportning badiiy gimnastika va sinxron suzish turlari rivojlantirilmoqda. Buni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar xotin-qizlar sonining muntazam ortib borishi ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida sport maktablari va turli jamoalarda mahalliy millat qizlarining qiziqib, faollik bilan shug'ullanishlari ko'paydi. Masalan, 1996-yili 1180 xotin-qizlar sport bilan shug'ullangan bo'lsa, 2016-yilga kelib ularning soni 3 milliondan ortdi.

Mustaqillik yillarida nafaqat sportning xalq o'rtasidagi ommaviyligini ta'minlash, balki ayrim sport turlarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Jumladan, o'zbekcha kurash, tennis, shaxmat, boks bo'yicha O'zbekiston sporti jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'ldi. Tennis bo'yicha *Iroda To'laganovaning*, boks bo'yicha *Ruslan Chagayev*, *Artur Grigoryan* va *Muhammaqodir Abdullayevning* dunyo sport arenalaridagi yutuqlari O'zbekiston sportchilarining dastlabki natijalari edi.

Kurash. Mustaqillik sharofati bilan milliy sport turlarining qayta tiklanishiga va ularning sport turi sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga imkoniyat yaratildi. 1992-yiliyoq *Termiz* va *Shahrisabz* shaharlarida milliy kurash bo'yicha ilk xalqaro musobaqa o'tkazildi. 1992-yili O'zbekistonda kurash federatsiyasi, 2001-yili belbog'li kurash federatsiyasi tuzildi. Prezidentning maxsus farmoni bilan 1998-yili sentyabr oyida *Toshkentda* Osiyo, Afrika va Yevropa qit'asidan kelgan 28 davlat vakillari ishtirokida Xalqaro kurash Assotsiatsiyasi tuzildi.

2000-yili esa Turkiyaning *Anqara* shahrida kurash bo'yicha 2-jahon chempionati bo'lib o'tdi. O'zbek kurashi jahonga yuz tutishi bilan yanada baynalmilal xususiyat kasb etdi. 2016-yilga kelib Xalqaro kurash Assotsiatsiyasining jahonning barcha qit'alarida 120 dan ortiq kurash federatsiyalari tashkil etildi. Milliy sport turimizning xalqaro maydonda keng tan olinishi ham mamlakatimiz xalqaro aloqalari yanada kengayishiga, uning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

2003-yili Osiyo Olimpiya kengashining *Quvaytda* o'tgan XXII Bosh asambleyasida o'zbek kurashi Osiyo o'yinlari dasturiga kiritildi.

Olimpiada. 1993-yilning sentyabrida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 101-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo'mitasi to'lato'kis tan olindi. Qo'mita xalqaro sport va olimpiya harakatining rivojlanishiga yordam bermoqda. U O'zbekistonda olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish, Olimpiya o'yinlarida respublika vakillari ishtirokini ta'minlash, jahon sportchilari bilan do'stona aloqalar o'rnatish va rivojlantirish vazifalari bilan shug'ullanmoqda.

1996-yil yanvarda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining qaroriga muvofiq jahon sportini rivojlantirishdagi xizmatlari va olimpiya g'oyalariga sadoqati uchun O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov *Olimpiya Oltin ordeni* bilan mukofotlandi.

Toshkentda 1996-yil avgustda Olimpiya shon-shuhrati muzeyi tashkil etildi. 2000 – 2016-yillar oralig'idagi yozgi Olimpiya va Osiyo o'yinlarida mamlakatimiz sportchilari muvaffaqiyat bilan ishtirok etishdi. *A.Taymazov*, *M.Ibragimov* (erkin kurash), *A.Doktorashvili* (yunon-rum kurashi), *R.Sobirov* (dzyudo), *O'.Haydarov*, *A.Atoyev*, *B.Sultonov* (boks), *A.Fokin* (sport gimnastikasi), *Yekaterina Xilko* (trampolin) kabi sportchilarimiz mamlakatimiz sport shuhratining xalqaro maydonda yanada oshishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Xususan, erkin kurashchi Artur Taymazov bir necha karra Olimpiya chempioni unvoniga sazovor bo'lgan yagona sportchi bo'ldi.

2016-yilgi *Rio-de-Janeyro* shahrida (Braziliya) bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiada mamlakatimiz tarixidagi eng sermahsul musobaqa bo'ldi. Ushbu Olimpiadada eng ko'p medalni bokschilarimiz qo'lga kiritishdi. Charm qo'lqop ustalarimizning 7 nafari Riodan medal bilan qaytishga muvaffaq bo'ldilar. Ular: *Hasanboy Do'stmatov*, *Shahobiddin Zoirov*, *Fazliddin G'oyibnazarov* (oltin), *Shahram G'iyosov*, *Bektemir Meliqo'ziyev* (kumush), *Rustam To'laganov* (bronza), *Murodjon Ahmadaliyev* (bronza). Ushbu natija Olimpiadadagi boks musobaqalaridagi eng yuqori natijadir. Sportning ushbu turida medal jamg'arish bo'yicha ular Kuba, Qozog'iston va Rossiyadan tashrif buyurgan raqiblarini ortda qoldirib, mazkur sport turida birinchilikka erishdilar. Og'ir atletikachimiz *Ruslan Nuriddinov* Olimpiada rekordini qayd etgan holda oltin medal sohibiga aylandi.

Futbol. Mustaqillik yillarida sportning eng ommaviy turi – futbolga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Vazirlar Mahkamasi O'zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida 1993-yili «O'zbekiston Respublikasi futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1996-yili «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2006-yili «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Dunyoga O'zbekiston sportchilarining salohiyati va qudratini namoyon etayotgan o'zbek hakami *Ravshan Ermatov* O'zbekiston futbol federatsiyasining xalqaro toifadagi hakami, 2003-yildan FIFA hakami statusini olgan. 2008-, 2009-, 2010-, 2011- va 2014-yillarda besh marotaba Osiyoning eng yaxshi hakami deb e'tirof etildi. Xalqaro futbol uyushmalari federatsiyasi uni 2011-yili «Dunyoning eng yaxshi hakami» sifatida tan oldi. U o'z faoliyati davomida futbol bo'yicha jahon chempionatlari final bosqichida eng ko'p – 9 uchrashuvni boshqarib (2014-yilga qadar) dunyo rekordini o'rnatdi. Ravshan Ermatov Prezident farmonlariga muvofiq 2010-yili «O'zbekiston iftixori» fax-

riy unvoni, 2014-yili «El-yurt hurmati» ordeni, shuningdek, 2015-yili «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni hamda «Malibu» avtomobili bilan mukofotlandi.

2018-yil Xitoyda 23 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning topshirig'i bilan Osiyo chempionatida zafar quchgan O'zbekiston olimpiya terma jamoasi a'zolarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Qit'a chempionlarining har biriga Prezident sovg'asi – bittadan yangi *Chevrolet Malibu* avtomobili topshirildi.

O'zbekiston futbol terma jamoasi xalqaro turnirlarda *uch marta* bosh mukofotni qo'lga kiritgan. Birinchisi 1994-yilgi Osiyo o'yinlarida olimpiya terma jamoasi, 2012-yili 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlar Osiyo chempionati g'olibi, 2018-yili 23 yoshgacha bo'lgan olimpiya terma jamoasi Osiyo chempioni unvoniga sazovor bo'ldi.

37.3. O'zbekistonda yoshlar siyosati

Yoshlar tashkiloti. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin mamlakat yoshlarini birlashtirish uchun «Yoshlar ittifoqi» tashkiloti tuzildi. Tashkilot yoshlarni o'z plenumi va konferensiyalari qarorlarini bajarishga safarbar qilishga urinishi, qararlarda yoshlarning manfaatlari va ehtiyojlari to'la aks etmaganligi natijasida 1996-yili «Yoshlar ittifoqi» tashkiloti tugatilib, O'zbekiston Respublikasi yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi tuzildi. «Kamolot» jamg'armasining vazifasi yoshlarning manfaat va ehtiyojlarini o'rganish, ularni qondirish yuzasidan dasturlar tuzish va davlat ko'magida hayotga tatbiq etishdan iborat edi. Ammo «Kamolot» yoshlar jamg'armasi bunday vazifalarni bajara olmadi, yoshlarning haqiqiy ma'nodagi yetakchisiga aylana olmadi deb topildi.

2001-yili Toshkentda bo'lgan yoshlar qurultoyida o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat notijorat tashkilot – O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish, jamiyatda munosib o'rin egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanchi va suyanchi bo'lishdan iboratdir. Harakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar bo'limlari, ta'lim muassasalari, harbiy qismlar, huquq-tartibot organlarida boshlang'ich tashkilotlari tuzildi. Ular *14 yoshdan 28 yoshgacha* bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini o'z saflarida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan holda faoliyat ko'rsatdi.

2017-yil 30-iyun kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati (YIH) qurultoyi bo'lib o'tdi. Bu

qurultoyda «Kamolot» YIH tashkilot tugatilganligi va «O'zbekiston Yoshlar ittifoqi» tashkil etilganligi e'lon qilindi. Yoshlarning muammolari hamda ta'shabuslari O'zbekiston Prezidentining to'g'ridan to'g'ri e'tiborida bo'lishini ta'minlash maqsadida «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» raisi bir paytning o'zida Prezidentning Davlat maslahatchisi lavozimida bo'lishi ham belgilab qo'yildi.

Yoshlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Millat kelajagi ham ma'nan, ham jismonan baqquvat yoshlar qo'lida. O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrdanoq yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, salomatligiga katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu dolzarb masala davlat siyosatining eng muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta'lim sohasidagi jahon andozalariga mos islohotlar, aholi salomatligini saqlashga qaratilgan beqiyos ishlarning zamirida ham ana shunday mushtarak maqsadlar mujas'sam. 1991-yil noyabrda «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. 1997-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chek ellarga o'qishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha «Umid-jamg'armasini tashkil etish to'g'risida farmoni e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yildagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Ushbu qaror ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni, jumladan, qizlarni intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun yanada keng sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Mustaqillik yillarida yosh iqtidorli qizlarning adabiyot, madaniyat, san'at, fan va ta'lim yo'nalishlarida o'z iste'dodini, salohiyat va qobiliyatlarini namoyon etishlariga imkoniyat yaratib bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yilda qabul qilingan «Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni jamiyat hayotida yetuk mutaxassislar, yetakchi va iqtidorli qizlarning shakllanishiga zamin yaratdi.

80 nafarga yaqin xotin-qizlarning mumtoz qo'shiqchilik, akademik ijro, estrada, opera, balet, cholg'u ijrochiligi, an'anaviy ijrochilik, raqs yo'nalishlarida «Nihol» mukofoti bilan taqdirlangani tom ma'noda ularga ko'rsatila-yotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir.

2017-yilga kelib 14 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan qizlardan iborat «Zulfiya» mukofoti sovrindorilarning soni 200 dan oshdi.

Harbiy xizmatning yoshlar uchun mustahkam hayotiy prinsiplar, harbiy xizmatni tugatayotgan yoshlarni rag'batlantirishning ahamiyatini, ularning o'qishni davom ettirishi va mamlakat oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishi uchun imtiyoz va sharoitlar yaratishni e'tiborga olib 2005-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolar uchun respublika oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda test sinovlarida to'planadigan eng ko'p balning 25 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyoz berish belgilandi.

Istiqloq yillarida yoshlarning har tomonlama yetuk, barkamol voyaga yetishi uchun mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Xususan, 23 ta qonun va 100 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Bundan tashqari, yillarga nom berishda ham yoshlarning manfaatlarini alohida e'tiborga olindi. Xususan, 2000-yil «Sog'lom avlod yili», 2001-yil «Onalar va bolalar yili», 2008-yil «Yoshlar yili», 2010-yil «Barkamol avlod yili», 2014-yil «Sog'lom bola yili», 2016-yil «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinib, yaxlit chora-tadbirlar dasturlari amalga oshirilgani fikrimiz tasdig'idir.

Yoshlarga e'tiborning kuchayishi. 2016-yili «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, 30 yoshgacha bo'lgan barcha toifadagi shaxslar yoshlar ekanligi qayd etilgan. «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar mas'uliyatini kuchaytirishga, ushbu sohada sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning 2017-yil iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq mamlakatimizdagi barcha harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berildi. Yoshlarni yanada rag'batlantirish maqsadida «Mard o'g'lon» mukofoti ta'sis etildi. Shu yil sentyabrda o'quvchilarning aniq fanlarning yuksak marralarini zabt etishiga ko'maklashish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi iqtidorlarini aniqlash hamda qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tasarrufida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab (*Al-Xorazmiy maktabi*)

tashkil etildi. Ushbu maktabga o'quvchilar 5-sinfdan boshlab yozma va og'zaki sinov natijalariga ko'ra tanlov asosida qabul qilinadi.

«Bugungi dunyo yoshlari son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi».

Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidani.

38-BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MA'NAViy VA MADANIY TARAQQIYOT

38.1. O'zbekistonda ma'naviy va tarixiy merosning tiklanishi

Tarixiy xotiraning tiklanishi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi dolzarb muammolardan biri yangi tarixiy sharoitda jamiyatga munosib kishilarni tarbiyalash edi. O'zbekiston suveren davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ma'naviy yangilanish jarayonini amalga oshirmasdan mustaqillikni har tomonlama mustahkamlab bo'lmagligini hayotning o'zi ko'rsatdi. Shuning uchun ham mamlakat rahbariyati istiqloqlning dastlabki paytidanoq bu borada zarur choralar ko'rdi.

Tarixiy tafakkurning rivojlanishi ma'rifat asosida, ma'rifatli bo'lish negizida sodir bo'ladi. 1991-yili Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Bu to'yga respublikada katta tayyorgarlik ko'rildi va u xalqning katta madaniyat bayramiga aylandi. Uning *yigirma jildlik* mukammal asarlar to'plami nashr etila boshlandi. Yubiley oldidan Alisher Navoiyning buyuk siymosi ifoda etilgan sahna asarlari, kinofilmlar yaratildi. Alisher Navoiy nomida Davlat mukofoti ta'sis etildi. Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Mamlakat poytaxti Toshkentda ulug' bobomizning muhtasham haykali qo'yildiki, bu joy xalqning muqaddas ziyoratgohiga aylandi. Navoiy haykali Komsomol ko'li deb

nomlangan istirohat bog'iga o'rnatildi va bog' Alisher Navoiy nomidagi milliy bog' deb ataladigan bo'ldi. 1994-yilning hukumat qarori bilan *Ulug'bek yili* deb e'lon qilinishi, uning 600 yilligi O'zbekistonda va jahon miqyosida, xususan, YUNESKO qarorgohi *Parijda* keng nishonlanishi ham buyuk allomalar qoldirgan meros umuminsoniy qadriyatga aylanganligi nishonasidir. 1996-yili Amir Temur tavalludining 660 yilligi ham keng miqyosda nishonlandi. Islom Karimov 1996-yilni «*Amir Temur yili*» deb atash to'g'risida farmon qabul qildi. «Temur tuzuklari» bir necha tilda chop etildi. O'sha davr tarixiy-madaniy yodgorliklari tiklanib, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Juda qisqa fursatda Toshkentda bobokalonimizning dunyoviy sha'ni va shavkatiga mos keladigan Amir Temur va temuriylar davri tarixi muzeyi qurildi.

Hukumatning maxsus qaroriga binoan 1999-yil dekabrda Xorazmda Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 190 yilligi, Nukusda Ajiniyoz Qosiboy o'g'li tavalludining 175 yilligi, 1998-yil oktyabrda esa Farg'onada Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi. Islom olamining zabardast allomalari: Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Muin Nasafiy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Imom Moturidiy va boshqalarning ilmiy merosi o'rganilib, ko'plab nusxalarda chop etilmoqda. Imom Ismoil Buxoriy, Imom Abu Iso Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandiyning 675 yilligi, Xoja Ahror Valiyning 600 yilligi va boshqa allomalarning yubileyleri keng nishonlandi.

1993-yili *Toshkentda*, 1996-yili *Samarqand* va *Shahrisabzda* Amir Temur haykali ochildi. Shu yili Samarqand va Shahrisabz shaharlari «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlandi.

Inson xotirasi bogiy. Prezident Shavkat Mirziyoyevning e'tibori bilan el-u yurtga mehnati singgan insonlarning hurmatini joyiga qo'yish an'anasini davom ettirilmoqda. 2017-yilning o'zida bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Toshkent va Samarqandda *Islom Karimov* (2018-yil Qarshida), Namangan viloyatida *Is'hoqxon Ibrat*, Xorazm viloyatida *Komiljon Otaniyozov*, Qoraqalpog'istonda *Ibroyim Yusupov*, Farg'onada *Erkin Vohidov*, Qashqadaryoda *Abdulla Oripov*, Andijonda *Muhammad Yusuf* xotiralarini abadiylashtirish bo'yicha yirik tadbirlar o'tkazildi. Ularning nomi bilan ataladigan markazlar, ijodiy maktablar tashkil etildi. Jizzax shahrida *Hamid Olimjon* va *Zulfiya* xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuasi ochildi.

Yurtimiz taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan, milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi nishonlanishi xalqimizni quvontirdi.

O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 27-martdagi «Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarori asosida 2017-yil 6-noyabr Sharof Rashidov tug'ilgan kuni Jizzaxda tantanali tadbirlar bo'lib o'tdi. Jizzax shahridagi tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so'zledi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida»gi qaroriga ko'ra Islom Karimov haykallari O'zbekiston poytaxti *Toshkent* shahriga, Islom Karimov tug'ilib o'sgan *Samarqand* shahriga va Islom Karimov birinchi rahbar bo'lib ishlagan Qashqadaryo viloyatining *Qarshi* shahriga o'rnatildi. Bundan tashqari, 2018-yili Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va rahnamoligida Samarqand shahrida Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasi barpo etildi. Islom Karimov ko'p yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi *Oqsaroy* qarorgohida Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasi tashkil etildi. Shuningdek, bir qator ko'chalar va yirik obyektlarga Islom Karimov nomi berildi. Prezident farmoni bilan 2018-yil 30-yanvarda Islom Karimov tavalludining *80 yilligi* keng nishonlandi, 24-martda esa Samarqandda xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning tiklanishi. Xalq turmush tarzi va ma'naviyatining tarkibiy qismini uning azaliy udumlari, odat, marosim va bayramlari tashkil qiladi. Shu bois mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ma'naviy tiklanish haqida gapirganda xalqning azaliy qadriyatlarini tiklash borasida olib borilgan ishlarni ham alohida ta'kidlash lozim. Istiqloq sharofati bilan xalqimizning milliy-ma'naviy merosini tiklash va yangilash hamda ular ongiga yetkazish va turmushiga singdirish muhim vazifalardan biri sifatida kun tartibiga ko'ndalang qo'yildi.

Respublika rahbarligiga Islom Karimov kelgach, Sharof Rashidov shaxsiga barcha tuhmat va ta'qiblar to'xtadi. Uning pok nomi oqlandi. 1992-yili Sharof Rashidov tavalludining *75 yilligi* keng nishonlandi. 2016-yili Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan *Jizzax* tumaniga Sharof Rashidov nomi berildi.

O'zbekistonda rasman *3 ta* xotira kuni mavjud: 1) 1999-yildan boshlab 9-may – «Xotira va qadrlash kuni»; 2) 2001-yildan e'tiboran 31-avgust – «Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni»; 3) 2017-yildan boshlab 2-sentyabr – O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasi kuni.

Milliy-ma'naviy merosga yangicha munosabat davlat miqyosida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida amalga oshirila boshlandi. Eng avvalo, milliy ma'naviyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobolarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband,

Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari jahonda va mamlakatimizda nishonlanib, ruhlari shod etildi, asarlari nashr etildi hamda qadamjolari obod qilindi. Islom olami allomalarining diniy qarashlari, ijodiy faoliyatlari o'rganilib, tavallud topgan kunlari bayram qilindi. Ularga yodgorlik maydonlari yaratilib, haykallar o'rnatildi.

Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish «Navro'z» bayramini xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi. 1991-yildan boshlab mamlakatda Prezident farmoniga ko'ra 21-mart Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Qadimiy xalq bayrami Navro'zning tiklanishini respublikamizning butun aholisi mamnuniyat bilan ma'qullab, ko'tarinki ruhda kutib oldi va hozir ham ardoqli bayram sifatida nishonlamoqda.

O'zbekiston hali sovetlar qaramog'ida turgan og'ir kunlarda Islom Karimov xalq xohish-irodasiga quloq tutib unutilmas tarixiy hujjatga imzo chekdi. 1990-yil 2-iyun kuni «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida»gi Farmonni e'lon qildi.

2016-yili o'zbek palovi YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro'y-xatiga kiritildi.

Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko'rildi. Jumladan, 1992-yili O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi.

1992-yil 27-martda O'zbekiston Prezidentining «Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida» Farmoniga ko'ra musulmonlar hayotidagi qutlug' sanalar – Qurbon va Ramazon hayit kunlarini doimiy ravishda bayram qilish va ularning dam olish kunlari deb e'lon qilinishi ham aynan xalqimiz ko'nglidagi ish bo'ldi.

Mustaqillik sharofati bilan «Islom nuri» haftanomasi, «Hidoyat» jurnali dunyoga keldi, ko'plab diniy-axloqiy adabiyotlar chop etila boshlandi. Jumladan, Imom Buxoriyning *to'rt jild*dan iborat, Imom Termiziyning *bir jildlik* hadis kitoblari, boshqa allomalarning qator asarlari yuz minglab nusxalarda chop etildi. Qur'oni karim *sakkiz marta*, jami *bir million* nusxada nashr etildi. Bu muqaddas kitob yurtimizda ilk bor 1992-yili *Alouddin Mansur* tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va *uch marta*, jami *300 ming* nusxada bosmadan chiqarildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan aholi sonining va so'nggi yillarda haj ziyoratiga borish istagini bildirganlar sonining oshib borayotgani e'tiborga olinib 2017-yildan o'zbekistonlik fuqarolar uchun haj kvotasi soni 5200 dan 7200 nafarga ko'paytirildi.

2004-yili esa Toshkent Islom universitetida Qur'oni karimning shayx *Abdulaziz Mansur* tarjimasida izohli nashri tayyorlandi hamda chop etildi.

O'zbekiston musulmonlari erkinlik va imkoniyatlarga ega bo'lmoqdalar. Ular bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas haj va umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishdilar. Agar sovet davrida mamlakatimiz fuqarolaridan 3-4 kishigina haj safarini ado etgan bo'lsa, 2016-yilga qadar har yili *5000 dan ortiq* fuqarolarimiz hoji bo'lib qaytishdi.

Tabiiyki, ma'naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarining tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishni talab etadi. «Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida»gi, «Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining hijriy sana bo'yicha 910 yilligini nishonlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari fikrimizning yaqqol isbotidir. 2003-yili esa naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining *900 yilligi* keng nishonlandi.

1997-yili Xiva va Byxoro shaharlarining *2500 yillik* yubileyi nishonlandi. 2002-yili Termiz shahrining *2500 yillik* yubileyi nishonlandi. 2002-yili Shahrisabz shahrining *2700 yilligi* nishonlandi. 2003 yil Nukus shahrining *70 yilligi* nishonlandi va shahar «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlandi. 2006-yili Qarshi shahrining *2700 yilligi* nishonlandi. 2006-yili Xorazm Ma'mun akademiyasining *1000 yilligi* nishonlandi. 2007-yili Samarqand shahrining *2750 yillik* yubileyi o'tkazildi. 2007-yili Marg'ilon shahrining *2000 yillik* yubileyi o'tkazildi. 2009-yili O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining *2200 yilligiga* bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi.

38.2. O'zbekistonda madaniyat va san'at

Ma'naviyat maskanlari. Teatr. Mustaqillik yillarida madaniy hayotda ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu, avvalo, teatr san'ati rivojlanishida yaqqol sezila boshladi, yangi teatr dargohlari qurib ishga tushirildi. 1991-yili *Farg'ona*, 1993-yili *Xorazmda* davlat qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi, 1994-yili *Qashqadaryo* va *Namangan* viloyat teatrlari qoshida qo'g'irchoq guruhlar, 2001-yili *Surxondaryo* viloyat qo'g'irchoq teatri ochildi.

O'zbek davlat akademik drama (2001-yil), O'zbekiston akademik rus drama teatri (1999-yil) kabi poytaxt hamda viloyat teatr jamoalariga yangi binolar qurildi, ta'mirlandi. 2015-yilning oktyabrida rekonstruksiya qilingan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Nafaqat mahalliy teatr va tomosha guruhlarining chiqishlariga, balki xorij mamlakatlardan tashrif buyuradigan jamoalar, atoqli artistlarning chiqishlariga ham mo'ljallangan «Turkiston» saroyi 1993-yilning sentyabrida ish boshladi.

2009-yili «O'zbekiston» xalqaro forumlar saroyi, 2011-yili Simpoziumlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasidan tashkil topgan Ma'rifat markazi majmuasi, 2014-yili Farg'ona viloyatida Teatr-konsert saroyi kabi ma'naviyat maskanlari ochildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni (1998-yil) sahna ijodiyotida alohida o'rin tutib, unga muvofiq ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda teatr arboblarning faol ishtirokini ta'minlash, milliy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna asarlari yaratish kabi maqsadlarda «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. 2017-yil faoliyati tanqidiy o'rganilib, «O'zbekteatr» birlashmasi tugatilib, uning funksiyalari Madaniyat vazirligiga o'tkazildi.

2001-yili O'zbek davlat akademik drama teatriga Prezident farmoni bilan «Milliy teatr» maqomi berildi. 2014-yili Prezident «O'zbek milliy akademik drama teatrining 100 yilligini nishonlash to'g'risida» qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq teatr ta'mirlandi va yubiley tadbiri bo'lib o'tdi.

Umuman, mustaqillik o'zbek teatrlari va san'atkorlarining dunyo sahnasiga chiqishi uchun keng yo'l ochdi.

Poytaxtdagi respublika teatrlari qatorida viloyat jamoalari ham xalqaro madaniy munosabatlarda qatnashib kelmoqda. Bu borada O'zbekiston Yoshlar teatri, Ilhom teatri va Qashqadaryodagi «Eski masjid» teatr-studiyasi faol bo'ldi.

1993-yilning 23 – 30-oktyabr kunlari Toshkentda o'tkazilgan «Teatr: Sharq va G'arb» xalqaro festivali O'zbekistonda dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan sahna san'atkorlari qatnashgan birinchi yirik tadbir ekanligi bilan ahamiyatli bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq teatr jamoalari Amir Temur mavzusiga murojaat qilishdi. Dastlab Qashqadaryo viloyat musiqali drama va komediya hamda O'zbek davlat akademik drama teatrlarida sohibqiron hayoti haqidagi tarixiy dramalar sahnaga qo'yildi. Bu jamiyatda milliy iftixor o'sishi, tarixiy xotiraning tiklanishi borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan hamohang bo'lib, sahna ijodiyotida Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, jadidlar siymolarining faoliyatiga oid asarlar ham yaratildi.

Milliy mumtoz adabiyot namunalari, Alisher Navoiy dostonlari sahna lashtirildi. Folklor-etnografik manbalar asosidagi pyesalar dramaturgiyaning alohida yo'nalishini tashkil qildi.

Musiq va raqs san'ati. Mustaqillik yillarida musiqa san'atida tub buri-lish asliga qaytish, an'anaviy ohanglardan bahramandlik va ta'sirlanishda

namoyon bo'ldi. Buning uchun, eng avvalo, xalqqa yaqinlashish, el orasida yurish, eng noyob xalq iste'dodlarini izlab topish zarur edi.

Shu maqsadda 1992-yili bir qancha ko'rik-tanlovlar o'tkazildi. Jumladan, Toshkent shahrida mart oyida milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar», aprel oyida mashhur san'atkorlar asarlari ijrochilarining «Boqiy ovozlari», Xorazm viloyatida may oyida folklor jamoalarining, iyun oyida Qo'qon shahrida askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, avgust oyida Toshkent shahrida lapar, yalla ijrochilarining ko'rik-tanlovlari tashkil etildi. Ular bir necha o'nlab iste'dodlarni kashf qildi. Bu kabi tadbirlar, festivallar o'tkazilishi an'anaga aylanib, xalqaro miqyosda nomoddiy madaniy merosni asrash yuzasidan olib borilayotgan harakatlar bilan uyg'unlashib ketdi.

Mustaqillik davrida professional musiqa va raqsni rivojlantirish ishlariga ham e'tibor qaratildi. 1996-yili «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 1997-yili Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi «O'zbekraqs» milliy raqs birlashmasi hamda Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi tuzildi. 2001-yili «O'zbeknavo» estrada birlashmasi, Milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi ish boshladi.

Istiqloq davrida tamomila yangi ko'rik-tanlovlar, festivallar yuzaga keldi. 1995-yili Vazirlar Mahkamasi «O'zbekiston – Vatanim manim» mavzuyida ko'rik-tanlov o'tkazish yuzasidan qaror qabul qildi. 1996-yil mart oyidan o'tkazib kelinayotgan «O'zbekiston – Vatanim manim» mavzuyidagi ko'rik-tanlovi mustaqillikni, Vatanni anglash, uni ulug'lash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Shuning uchun ham 1996-yil 27-avgust kuni maxsus farmon qabul qilindi. Unda har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb e'lon qilindi. Tanlov mustaqillikni madh etuvchi yuzlab qo'shiqlar yaratilishiga turtki bo'ldi.

Vazirlar Mahkamasining 1997-yildagi qarori bilan har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahrida «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali o'tkazila boshlandi. Birinchi festivalda dunyoning 31 mamlakatidan vakillar ishtirok etishdi. Festivalning hudud qamrovi ham tobora kengayib bormoqda. 2015-yili X festivalda 66 mamlakatdan vakillar qatnashdi.

YUNESKO tomonidan yuritiladigan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatidan *Shashmaqom* (2008), *Boysun madaniy muhiti* (2008), *Navro'z* (2009), *Katta ashula* (2009), *Askiya* (2014) o'rin oldi. 2017-yili Prezident qarori bilan O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etildi. 2018-yildan boshlab *Shahrisabz* shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati festivalini o'tkazish belgilandi.

1998-yili mamlakatimizda birinchi marta simfonik musiqa festivali o'tkazildi. Mazkur festivalda dunyoning 20 ga yaqin mamlakatidan ijrochilar ishtirok etishdi.

Mustaqillik yillari musiqa san'atining akademik, an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlarda rivojlanishiga zarur shart-sharoitlar yaratish qatorida ta'limiga ham e'tibor berildi. 2002-yili Toshkent davlat konservatoriyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasiga aylantirildi. Konservatoriyaning yangi binosi qurildi.

Prezidentning qarori bilan qabul qilingan Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha davlat dasturi ham muhim o'rin tutib, uning doirasida 2009 – 2014-yillarda hududlarda 278 ta musiqa va san'at maktabi foydalanishga topshirildi, ular 30 mingdan ortiq yangi musiqa asboblari, 61 ming nusxada o'quv qo'llanma, milliy va jahon musiqasi notalari bilan ta'minlandi.

«Nihol», «Zulfiya» nomidagi davlat mukofotlari ta'xis etilishi, «Kamalak yulduzlari» respublika bolalar ijodiyoti festivali, «Sozlar navosi» yosh musiqa ijrochilar va boshqa ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelinayotgani yangi iste'dodlarni ro'yobga chiqarish va qo'llab-quvvatlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at. Tasviriy san'at uchun mustaqillik keng imkoniyatlar yaratib berdi. Avvalo, 1997-yili O'zbekistonda birinchi bor Badiiy akademiya tashkil etildi. 2002-yili Toshkent foto uyi, 2004-yili O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi, 2005-yili O'zbek liboslari galereyasi, 2006-yili Madaniyat va san'at ko'rgazmasi ish boshladi.

Prezidentning 1997-yilgi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida amaliy bezak san'ati ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan badiiy buyumlarni tayyorlashga davlat tomonidan madad berish choralari belgilandi. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi» faxriy unvoni ta'xis etildi, «Hunarmand» uyushmasi tashkil qilindi. Hunarmandlar daromad solig'idan ozod etildi. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirish maqsadida soliq imtiyozlarining muddati uzaytirilmoqda.

Bu tadbirlar badiiy kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, zardo'zlik, kash-tachilik, gilamdo'zlik, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, lakli miniatyura kabi san'at turlarining rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratmoqda.

Kino. Mustaqillik yillarida milliy kino san'atini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Dastlabki davrdagi moliyaviy qo'llab-quvvatlashlar 2004-yili «O'zbekkino» milliy agentligi tashkil etilganidan keyin yangi bosqichga ko'tarildi. 2005-yildan boshlab davlat tomonidan yillik ishlab chiqarish hajmlarining istiqbolli ko'rsatkichlari belgilandi (15 ta to'la metrajli badiiy kino-

film, 20 ta hujjatli va ilmiy-ommabop, 10 ta multiplikatsion kinofilm va 60 soatlik ma'naviy-ma'rifiy, o'quv-uslubiy videofilmlar).

Kino san'ati ustalari ham mustabidlik va mustaqillik davrlarining mohiyatini badiiyat vositasi bilan ochib berish yo'lida tinmay izlanib, xalqimizga o'zlarining yangi-yangi asarlarini taqdim etdi. «Abdullajon», «O'tkan kunlar», «Yozning yolg'iz yodgori», «Voiz», «Osmondagi bolalar», «Chashma», «Yo'l bo'lsin», «Vatan», «O'tov», «Parizod», «Unutma meni», «Aldangan ayol», «Tubanlik», «Qo'rg'oshin», «Baron» kabi badiiy filmlar tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

Mustaqillik yillarida ishlangan «To'maris», «Bulbul», «Kulol» singari multfilmlar jahonning nufuzli festivallarida ham e'tirof etildi.

Badiiy adabiyot. Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqidalar hukmronligi illatlaridan ozod bo'ldi.

Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi. *Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov, Xurshid Davron* kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobo-kalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi.

Mustaqillik davri adabiyotining bayroqdorlari: O'zbekiston Qahramonlari *Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov*, O'zbekiston xalq shoiri *Muhammad Yusuf* ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Milliy istiqlol davridagi o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda *O.Sharafiddinov, B.Qosimov, N.Karimov*ning asarlari alohida o'rin egallaydi. *T.Malik* romanlari, *O.Matjon, O.Hojiyeva, A.Suyun, Y.Eshbek, H.Do'stmuhammad, Sh.Salimova* singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari o'zbek milliy istiqlol adabiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Umuman, adabiyotga e'tibor madaniyatning muhim yo'nalishi bo'lib qoldi. Yozuvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2010-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida «Ijod» fondi tashkil etilib, 2011-yildan yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari davlat hisobidan chop qilina boshlandi.

Muzey. Millatimizning o'zligini anglashda, milliy, tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o'rin tutadi. Muzeylar orqali o'tmishni, tarixni ko'rish, eslash, sezish, o'rganish mumkin. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi. 1996-yili *Toshkentda* Temuriylar tarixi, Olimpiya shon-shuhrati, 2002-yili Qatag'on qurbonlari xotirasi, Surxondaryo viloyatining markazi *Termiz* shahrida Arxeologiya muzeyi ish boshladi.

O'zbekiston Prezidentining 1998-yildagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berdi. Muzeylar davlat muhofazasiga olinadi, ularni ta'mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat byudjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998-yili «O'zbekmuzey» respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi va u 1999-yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. Yoshlar ma'naviyatida muzeylarning ahamiyati hisobga olinib 2014-yili Vazirlar Mahkamasining qarori bilan haftaning *seshanba* va *juma* kunlari bolalar va ularning ota-onalariga bepul xizmat ko'rsatish, har yili 2 – 8-sentyabr kunlari «Muzeylar haftaligi»ni tashkil etish belgilandi.

1991 – 1994-yillarda 73 ta muzey mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017-yili 450 ga yaqin muzey faoliyat olib bormoqda.

Shunday qilib, davlat madaniy hayotning ko'p qirrali xususiyatini saqlagan holda rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratishga e'tibor qaratib kelmoqda. Shuningdek, madaniyat O'zbekiston aholisining asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlarga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

39-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATI VA IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARI

39.1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining shakllanishi va uning ustuvor yo'nalishlari

O'zbekistonning geosiyosiy holati. O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos geografik tuzilishi bilan Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida alohida ajralib turadi. Bunday geografik joylashuvning qulay va noqulay tomonlari mavjud bo'lib, ular respublikaning geosiyosiy vaziyati va geostrategik manfaatlari, uning ichki va tashqi siyosatini tanlash va belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil O'zbekistonning qulay geosiyosiy imkoniyatlari quyidagicha: uzoq o'tmishdan Sharq va G'arb o'rtasidagi qadimgi savdo-sotiq, madaniy ilmiy va diplomatik aloqalar yo'li bo'lgan Buyuk ipak yo'li O'zbekiston hududidan o'tgan. Hozirda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo – Tinch okean mintaqasiga olib boradigan yo'llar Markaziy Osiyodan, uning markazida joylashgan O'zbekistondan o'tadi; Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston

o'zining geografik holatidan kelib chiqib, mazkur mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, iqtisodiy integratsiya jarayonini rivojlantirish, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega. O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'tab kelmoqda. O'zbekiston o'zining joylashuviga ko'ra Markaziy Osiyoning transport, energetika, kommunikatsiya, suv tizimi markazida joylashgan. Tabiiy iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral xomashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan o'zini ta'minlashga qodir. O'zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta'minlabgina qolmay, ularni eksport qilish imkoniyatiga ega. O'zbekiston Respublikasining yer ostida amaldagi Mendeleev davriy tizimining barcha elementlari mavjud.

Mazkur imkoniyatlar orqali O'zbekiston geosiyosiy joylashuvini noqulayliklardan mustasno deb bo'lmaydi. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasiga qiyinchiliklar tug'diruvchi quyidagi omillar ham mavjud:

O'zbekiston Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarimhalqaning strategik markazida joylashgan. Shuning uchun bu hududda butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida ko'pgina davlatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari o'zaro to'qnashmoqda. Dunyodagi kuchli davlatlar mazkur mintaqada o'z manfaatlarini izlamogda. Shu bilan birga, O'zbekiston mintaqadagi etnik murossasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirib kelinayotgan, ichki mojarolar hali ham tugatilmagan Afg'oniston kabi davlat bilan chegaradoshdir. O'zbekiston bevosita dengizga chiqa olmaydigan, buning ustiga, dengiz portlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat hisoblanadi. Qora dengiz, Boltiq dengizi, Yapon dengizi va Shimoliy dengizga olib chiquvchi eng qisqa temir yo'l qariyb *3 ming kilometrni* tashkil etadi. Mustaqil O'zbekistonning hamma daryolari hamda respublika hududini kesib o'tadigan, uzunligi *150* va undan ko'p kilometrli daryolar *50 tadan* oshiq bo'lishiga qaramay, uning suv resurslari cheklangan va ekologik muammolari ham bor. Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulaylik omilidir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi. Hozirda xalqaro hamjamiyat mustaqil O'zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari, Markaziy Osiyodagi mavqeyi, mintaqaxavfsizligini ta'minlashdagi o'rnini alohida ekanini tan olmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatining ma'naviy yo'nalishi insonparvarlik, oshkoralik, qadr-qimmat, o'z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o'z taraqqiyot yo'lga ega bo'lishdir. Shu bois istiqbol yillarida mamlakatimiz *133* davlat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan, Toshkentda *45 ta* xorijiy davlatning

elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini faoliyat olib bormoqda.

Mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq edi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosat tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil may oyidagi «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi qarori va 1994-yil mart oyida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori asosida shakllantirildi. 1996-yili «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

2012-yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasining «Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi» e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi davlat tashqi siyosatining prinsiplari va strategik ustuvor yo'nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, istiqbolda O'zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimidir.

«O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 17-modda.

Mazkur konsepsiyada Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e'tibor qaratilgan va «O'zbekistonning hayotiy muhim manfaatlarini shu mintaqada bilan bog'liq» ekanligi rasman e'tirof etilgan. Unda Markaziy Osiyo o'zining muhim geosiyosiy joylashuvi va mineral xomashyo resurslarining ulkan zaxiralariga ega ekanligi tufayli jahon miqyosida kuchli e'tibor obyektiga, yirik davlatlarning strategik manfaatlarini to'qnashadigan hududga aylanib borayotgani ta'kidlangan. Shuningdek, dunyoning yirik davlatlari tomonidan mintaqada olib borilayotgan o'zaro raqobat inobatga olinib «Markaziy Osiyo muammolari tashqi kuchlarning aralashuvisiz, mintaqadagi davlatlarning o'zlari tomonidan yechilmog'i zarur» degan fikr bayon etilgan. Konsepsiyada O'zbekistonning tinchliksevar siyosat yuritishi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qolishi ta'kidlandi.

Konsepsiyada quyidagi qoidalar muhrlab qo'yildi: «O'zbekiston o'zining qo'shni davlatlardagi qurolli ziddiyatlarga tortilishining oldini olish maqsadida tegishli choralarni ko'radi; o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy baza-

lari va obyektlari joylashtirilishiga yo'l qo'ymaydi; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmaydi».

Tashqi siyosat tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar, hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo'l bilan hal etish; kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash; ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi; davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik; davlatlararo aloqalarda tenghuquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

39.2. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro hamkorligi

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston tashqi siyosatining yetakchi yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan do'stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Mintaqadagi beshta davlat o'rtasida o'xshash jihatlar ko'p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakatlar xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir.

Yangi tarixiy sharoitlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, ularning tarixi, o'ziga xos turmush tarzi va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni taqozo eta boshladi. 1993-yilning yanvarida Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining *Toshkent* uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari Hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintaqa xalqlari zo'r mamnuniyat bilan qarshi oldilar va qo'llab-quvvatladilar.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari 1993-yili Qozog'iston Respublikasining *Qizil O'rda* shahrida, 1994-yil *Nukus* shahrida, 1995-yil Turkmaniston

Respublikasining *Toshhovuz* shahrida, 1995-yil yana *Nukus* shahrida Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazdilar va bu borada amaliy ishlar olib bora boshladilar. 1999-yili Turkmaniston Prezidentining saroyida Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasining majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda ekologik falokat mintaqasidagi vaziyatni barqarorlashtirish borasida hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Davlat rahbarlari o'zaro hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro miqyosdagi masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning dastlabki vaqtlaridanoq o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, tojik, turkman va mintaqada yashovchi barcha xalqlar o'rtasidagi ana shu qadimiy aloqalarni yangi sharoitda mustahkamlashni nazarda tutib «Turkiston – umumiy uyimiz» degan g'oyani ilgari surgan edi.

2017-yili O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatida yangi davr boshlandi. Shu yilning o'zida Qozog'iston, Turkmaniston va Qirg'iziston davlatlariga O'zbekiston Prezidentining rasmiy tashriflari amalga oshirildi. 2018-yil mart oyida esa Tojikistonda oliy darajadagi uchrashuv amalga oshirildi. Bundan tashqari, 2017-yil *Samarqandda* BMT homiyligida «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzuyida anjuman bo'ldi. Unda 500 nafar xorijiy ishtirokchilar qatnashdi.

O'zbekiston – Qozog'iston. O'zbekistonning Qozog'iston bilan ikki tomonlama munosabatlari 1992-yil iyunda *Turkiston* shahrida O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga rasmiy davlat tashrifi paytida N.Nazarboyev bilan I.Karimov tomonidan imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma asosida mustahkamlanib bordi. Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyev 1994-yil yanvarda rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Ikki Prezident O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini ta'minlash to'g'risida shartnomani imzoladilar. 1998-yil oktyabrda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida abadiy do'stlik shartnomasi imzolandi. O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining *Toshkentda* 2000-yili bo'lgan uchrashuvida ikki davlat chegaralarini aniq belgilab olishga bag'ishlangan uchrashuvi bo'ldi. Muzokaralar yakunida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qozog'iston Respublikasi Prezidentining qo'shma bayonoti» imzolandi.

2001-yili O'zbekiston Prezidenti I.Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog'istonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari O'zbekiston – Qozog'iston davlat chegarasi

to'g'risida Shartnomani imzoladilar. 2440 km uzunlikdagi chegaraning 96% belgilab olindi. Qolgan qismini kelishuv asosida delimitatsiya qilishga kelishildi.

2002-yili Islom Karimov *Ostona* shahriga tashrif buyurdi. «O'zbekiston – Qozog'iston davlat chegaralarining alohida uchastkalari to'g'risida bitim» imzolandi va ikki mamlakat o'rtasidagi chegaraga oid dolzarb masalalar huquqiy jihatdan o'z yechimini topdi. Qozog'iston O'zbekiston uchun Markaziy Osiyodagi muhim hamkorlardan biri hisoblanadi. 2013-yili imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma ham o'ta muhim hujjatlar sirasiga kiradi. 2014-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog'iston Respublikasida bo'ldi.

2017-yil iyunda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining *Ostona* sammiti munosabati bilan Sh.Mirziyoyev Qozog'istonda bo'ldi. 2017-yil sentyabrda Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. O'zbekiston va Qozog'iston prezidentlari uchrashuvi yakunlari bo'yicha qator hujjatlar imzolandi. Shavkat Mirziyoyev Nursulton Nazarboyevni «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirladi.

Hozirda Qozog'istonda 550 mingga yaqin o'zbek, O'zbekistonda esa bir millionga yaqin qozoq istiqomat qilayotganligi uchun ham madaniy aloqalarga katta e'tibor berildi. 2017-yili Qozog'iston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi paytida 2018-yili Qozog'istonda O'zbekiston yili va 2019-yili O'zbekistonda Qozog'iston yili o'tkazilishi belgilandi.

O'zbekiston – Qirg'iziston. O'zbekistonning Qirg'iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqida shartnoma asosida yo'lga qo'yildi va rivojlantirilmogda. Bu shartnoma *Toshkentda* 1992-yili Qirg'iziston Prezidenti Askar Akayevning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida imzolangan edi. Islom Karimovning 1993-yili Qirg'izistonga qilgan rasmiy davlat tashrifi paytida *O'sh* shahrida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida 1994 – 2000-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to'g'risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatdan unumli foydalanishga qaratilgan edi. 1994-yil yanvarda O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Qirg'izistonda bo'ldi. Rasmiy tashrif yakunida ikki davlat Prezidentlari tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurishini, o'zaro kelishilgan kredit hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladilar.

2010-yil iyulda Qirg'izistonda obro'-e'tiborini yo'qotgan Prezident hokimiyatining ag'darilishi, ekstermistik kuchlar tomonidan uyushtirilgan millatlararo qonli voqealar sharoitida O'zbekiston 100 mingga ortiq qochqinlar,

bolalar, xotin-qizlar, qariyalarni O'zbekiston hududiga qabul qildi, joylashtirdi va barcha zarur narsalar bilan ta'minladi. Shunday vaziyatda mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar susaydi.

2017-yili O'zbekiston va Qirg'iziston munosabatlarida yangi sahifa ochdi. Shu yil sentyabr oyida Qirg'iziston Prezidenti Almazbek Atambayev taklifiga binoan Prezident Shavkat Mirziyoyev *Bishkek*da bo'ldi. O'zbekiston va Qirg'iziston prezidentlari o'z ichiga 85 foiz masofani qamrab olgan chegara to'g'risidagi bitimni imzolashdi. Shu munosabat bilan aholining o'tib-qaytishi uchun ikki davlat o'rtasidagi 7 yil davomida yopib qo'yilgan chegara postlar ochildi. 2017-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg'iziston Respublikasining yangi saylangan Prezidenti Sooranbay Jeenbekov rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

O'zbekiston – Tojikiston. 1992 – 1996-yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etdi, uning qo'shni mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta'sir etdi.

1997-yili *Moskvada* Tojikistonning rasmiy hokimiyati bilan muxolifat kuchlar o'rtasida tuzilgan milliy murosa haqidagi shartnomaga erishilgach, Tojikistonning qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari yana tiklandi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998-yil yanvarda Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon O'zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo'yicha qo'shma axborot imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo'yicha o'zaro hisob-kitob to'g'risidagi bitimlar ham imzolandi. O'zbekiston Tojikiston hududidan o'tgan transport kommunikatsiyalaridan foydalanmoqda. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi ham yil sayin ortib bordi.

2017-yili O'zbekiston va Tojikiston munosabatlarida ham yangi sahifa ochildi. Shu yil may oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti *Ar-Riyod* shahrida bo'lib o'tgan AQSh va arab-musulmon davlatlari sammitida ishtiroki doirasida Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon bilan ilk bor uchrashdi. Uchrashuv chog'ida ko'plab manfaatli kelishuvlarga erishildi. 2017-yilning aprelida 25 yillik tanaffusdan so'ng Dushanbe va Toshkent o'rtasidagi aviaqatnov yana tiklandi.

2017-yil aprelda *Dushanbeda* ikki tomonlama munosabatlar tarixida ilk bor O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning keng ko'lamli ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. May oyining boshida esa tojik-o'zbek munosabatlari tarixida ilk bor Tojikistonda O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazildi.

O'zbekiston – Turkmaniston. 1991-yili O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Res-

publikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolangan. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1996-yil yanvarda amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. *Chorjo'y* shahrida S.Niyozov bilan I.Karimov o'rtasida va ikki mamlakat delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar bo'ldi. Prezidentlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomani, O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida davlat chegarasini qo'riqlashda hamkorlik qilish to'g'risidagi va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha qator bitimlar imzolandi. 1991-yildan 2016-yilga qadar ikki mamlakat rahbarlarining *11 marta* oliy darajadagi tashriflari amalga oshirildi. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi keng ko'lamli hamkorlikka old dolzarb yo'nalishlarni qamrab olgan davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajada imzolangan *150 dan* ortiq xalqaro shartnomalar ikki mamlakat munosabatlarining mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

2017-yil 6 – 7-mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. Bu Sh.Mirziyoyevning Prezident sifatida xorijiy mamlakatlarga ilk rasmiy tashrifi hisoblanadi.

Yurtimizda 2001-yili tashkil etilgan Respublika turkman madaniyat markazi faoliyat olib borayotir. Bugungi kunda O'zbekistonning turli viloyatlarida turkman millatiga mansub qariyb *170 ming* aholi yashab, *70 ta* maktabda turkman tili o'qitilmoqda. Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning 2014-yil may oyida mamlakatimizga rasmiy tashrifi chog'ida O'zbekiston – Turkmaniston hamkorligini yanada rivojlantirish masalasida qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

2017-yili Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov taklifi bilan *ikki marta* (mart, may) Turkmanistonga tashrif buyurdi. Tashriflar davomida bir qator kelishuvlarga erishildi. 2017-yil mart oyidagi muzokaralar yakunida prezidentlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Ikki mamlakat vazirlik va idoralari o'rtasida iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi va kimyo sanoati, temir yo'l transporti, madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni, hududlararo aloqalarni rivojlantirishga doir qator hujjatlar imzolandi.

39.3. O'zbekiston Respublikasining Rossiya, Xitoy va AQSh bilan o'zaro munosabatlari

O'zbekiston – Rossiya. O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan o'zaro hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratdi. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlar va hamkorlik 1992-yili imzolangan Davlatlararo munosabatlar, Do'stlik asoslari to'g'risida-

gi shartnoma, 1998-yili imzolangan 1998 – 2007-yillar uchun iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi shartnomalar asosida rivojlanib bordi.

Keyingi yillarda O'zbekiston – Rossiya munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilishida 2004-yili imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma muhim ahamiyat kasb etdi. 2005-yili *Moskvada* imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma, shuningdek, 2012-yili *Toshkentda* bo'lib o'tgan uchrashuv yakuniga ko'ra qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya» ikki davlat o'zaro munosabatlarida alohida voqea bo'ldi. Ikki mamlakat o'zaro munosabatlari va hamkorligining yanada rivojlanishi va chuqurlashtirishiga 2013-yil aprelda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov va Rossiya Prezidenti V.V.Putin o'rtasidagi *Moskva* uchrashuvi yangi turtki berdi. Ushbu uchrashuv chog'ida davlatlarning keng qamrovli o'zaro munosabatlaridagi hamkorlikni rivojlantirish holati va istiqboli ko'rib chiqildi. Har ikki davlat mustaqillikka erishganidan keyingi davr ichida O'zbekiston va Rossiya o'rtasida *160 dan ortiq* xalqaro shartnoma va *40 dan ziyod* boshqa hujjatlar imzolandi.

2017-yil aprelda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Rossiyada bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi yakunlari bo'yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, harbiy-texnikaviy, migratsiya sohalari, shuningdek, mintaqalararo hamkorlik, turizm va sog'liqni saqlashga oid umumiy qiymati *16 milliard dollar* bo'lgan *55* hujjat imzolandi.

O'zbekiston – Xitoy. Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. 1992-yil yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida an'anaviy do'stlik munosabatlari o'rnatilgan. Bular ikki mamlakatga har ikki tomonni qiziqtiruvchi ko'plab masalalar bo'yicha o'zaro manfaatli va samarali hamkorlik olib borish imkonini beradi. XXR Raisining 2010-yildagi O'zbekistonga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil iyunda Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Uchrashuvlar davomida hamkorlikning istiqbollari belgilandi. Buning yaqqol dalili sifatida O'zbekiston rahbarining Xitoyga tashrifi chog'ida davlatlar rahbarlari tomonidan «Strategik sheriklik munosabatlari o'rnatish to'g'risidagi qo'shma bayonot» imzolanganini ko'rsatish mumkin.

O'zaro manfaatli hamkorlikning huquqiy bazasini 2005-yili imzolangan Do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma, 2010-yilgi Do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlarini har tomonlama chuqurlashtirish

va rivojlantirish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya, 2012-yilgi Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya, 2013-yilgi Ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi Qo'shma deklaratsiya, 2014 – 2018-yillarga mo'ljallangan Strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish dasturi hamda 2016-yili imzolangan Qo'shma bayonot tashkil qiladi. Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi uzoq muddatli istiqbolda mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2017-yilning o'zida xorijiy mamlakatlar bilan *60 mlrd dollarlik* shartnomalar imzolangan bo'lsa, shuning *35 foizi*, ya'ni *23 mlrd dollari* Xitoy ulushiga to'g'ri keladi.

2017-yil 11 – 13-may kunlari Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi O'zbekiston – Xitoy munosabatlarini yangi bosqichga ko'tardi. Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpin O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi Qo'shma bayonotni imzoladilar. Shavkat Mirziyoyev Xitoyga bo'lgan tashrifi davomida umumiy qiymati *23 mlrd dollar* bo'lgan *105 ta* ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston – AQSh. O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992-yil fevralda AQSh davlat kotibi O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992-yil martda Toshkentda birinchi bo'lib AQShning elchixonasi ochildi. O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning 1996-yil iyunda AQShda bo'lishi O'zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog'onaga ko'tardi. Islom Karimov AQSh Prezidenti *Bill Klinton* bilan uchrashdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish, tomonlar manfaatiga daxldor bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik masalalari muhokama etildi. Bill Klinton AQSh ma'muriyati Markaziy Osiyo mamlakatlarning mustaqilligi, barqarorligi va ravnaqidan manfaatdor ekanini, O'zbekiston bilan qalin munosabatlar o'rnatishni istayotganini, O'zbekistonning tezroq dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi yo'lida yordam berajagini ta'kidladi.

1996-yili O'zbekistonning AQShdagi elchixonasi ochildi. O'zbekiston Prezidenti boshliq davlat delegatsiyasining AQShda bo'lishi chet el sarmoyasi uchun respublikada yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risidagi axborot taqchilligini bartaraf etdi.

2002-yil mart oyida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy davlat tashrifi bilan AQShda bo'ldi. AQShni sinovli damlarda qo'llab-quvvatlagani uchun 2002-yil Islom Karimov Amerika jamoatchiligi tomonidan «Xalqaro miqyosdagi lider» mukofoti bilan taqdirlandi.

2017-yil may oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti *Ar-Riyod* shahrida bo'lib o'tgan AQSh va arab-musulmon

davlatlari sammitida ishtirok etdi. Sammit doirasida Shavkat Mirziyoyev va AQSh prezidenti Donald Tramp ilk bor uchrashdi. Donald Tramp davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jaryonini yuqori baholadi.

Shu yil sentyabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BM Tning 72-sessiyasi munosabati bilan Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'ldi va u yerda istiqomat qilayotgan bir guruh o'zbekistonliklar bilan uchrashdi.

Vatandoshlar ilm-fan, ta'lim, texnologiya, investitsiya va boshqa sohalarni rivojlantirish, O'zbekiston va AQSh muassasalari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bayon etdi. Shavkat Mirziyoyev ularga murojaat qilar ekan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga daxldor bo'lish, zamonaviy bilim va tajribalarini mamlakat rivojiga yo'naltirishga da'vat etdi. Bugungi kunda O'zbekiston va AQSh strategik hamkor va sherik mamlakatlardir.

39.4. O'zbekistonning Yaponiya, Koreya Respublikasi va Hindiston bilan ikki tomonlama aloqalari rivojlanishi

O'zbekiston – Yaponiya. O'zbekiston o'zining sharqiy yo'nalishdagi tashqi siyosatida Osiyo qit'asining Yaponiya, Hindiston va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar va manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga alohida e'tibor berdi.

1992-yil yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi, 1994-yil may, 2002-yil iyul va 2011-yil fevralda Yaponiyada hamda 2006-yil avgustda O'zbekistonda bo'lib o'tgan davlat rahbarlari o'rtasidagi oliy darajadagi uchrashuvlar ikki mamlakat o'rtasidagi manfaatli va do'stona aloqalarga yangicha ma'no-mazmun bag'ishladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Yaponiyaga tashrifi doirasida o'zaro do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonot imzolandi. Ushbu bayonot tomonlarning hozirgi zamon xalqaro munosabatlardagi ko'plab muammolar bo'yicha qarashlari va munosabatlari o'xshashligi, shuningdek, ularning ikki mamlakat ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirishga intilishlarini tasdiqlovchi rasmiy hujjat bo'lib qoldi. 2004-yili *Toki*odagi *Soka* universiteti hududida buyuk o'zbek mutafakkiri *Alisher Navoiy*ga haykal o'rnatildi.

O'zbekiston Prezidentining 2011-yil fevralda Yaponiyaga qilgan navbatdagi rasmiy tashrifi davomida yuqori texnologiyalar sohasida ixtisoslashgan yirik kompaniyalar bilan yapon texnologiyalari va investitsiyalarini O'zbekistonning neft-gaz, kimyo, energetika, mashinasozlik va to'qimachilik sanoati kabi tez rivojlanayotgan sohaslariga jalb etishga qaratilgan qator bitimlar tuzishga erishildi.

2015-yil oktyabrda Yaponiya bosh vaziri *Sindzo Abening* O'zbekistonga tashrifi doirasida O'zbekiston va Yaponiya umumiy qiymati *8,5 mlrd dollardan ko'proqni* tashkil qiladigan qo'shma loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

O'zbekiston – Hindiston. Hindiston O'zbekistonning yirik strategik hamkoridir. 1992-yil martda *Toshkentda* O'zbekiston va Hindiston o'rtasida diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi to'g'risidagi bayonnoma imzolandi. 2016-yilga qadar O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Hindistonga *beshtin marotaba* tashrif buyurgan va birinchi rasmiy tashrif 1991-yilning avgustida amalga oshirilgan edi. 1993-yil mayda Hindiston Bosh vaziri *Narasimxa Rao* davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Safar kunlarida «O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida» shartnoma va savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida va boshqa bitimlar imzolandi. O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 1993-yilgi Hindistonga rasmiy tashrifi chog'ida ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida qator bitimlar imzolandi. 2006-yili Hindiston Bosh vaziri *M.Singxning* O'zbekistonga rasmiy tashrifi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil may oyida Hindistonga qilgan davlat tashrifi va 2015-yil iyunda Hindiston Bosh vaziri *Narendra Modining* O'zbekistonga rasmiy tashrifi hamkorlik munosabatlarini yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. O'zbekiston va Hindiston o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarga xizmat qiluvchi *40 ga yaqin* hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularning orasida eng muhimi ikki davlat munosabatlarini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishga qaratilgan Strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma Bayonotidir. Hozirgi kunda O'zbekiston hududida Hindiston sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan *60 dan ortiq* korxonalar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston – Koreya Respublikasi. O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasida hamkorlik munosabatlarining rivojiga 1991-yil dekabrda O'zbekiston mustaqilligi tan olingan va ular o'rtasida 1992-yil yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatilgan kunda asos solingan edi. Bu tarixiy sanalar ikki davlat o'zaro munosabatlarida faol siyosiy muloqot olib borish va har tomonlama o'zaro manfaatli hamkorlikning shakllanishi uchun yo'l ochdi.

Diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon o'tgan davr ichida O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasida *12 marotaba* oliy darajadagi uchrashuvlar bo'lib o'tdi.

O'zbek-koreys o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari ravnaqiga O'zbekiston rahbarining Koreya Respublikasiga 2012-yil sentyabrdagi tashrifi yangi turtki berdi. Uchrashuv yakunlariga ko'ra Qo'shma bayonot qabul qilinib, unda tomonlarning ko'p tarafdin hamkorligi holatiga baho berildi

va har tarafdin munosabatlarning istiqboldagi ustuvor yo'nalishlari belgilandi. 2014-yil iyunda Koreya Respublikasining Prezidenti *Park Geunhening* O'zbekistonga rasmiy tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida Strategik sherikchilikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risida qo'shma deklaratsiya va moliya, investitsiya, muqobil energetika va madaniyat sohaslarida o'zbek-koreys hamkorligini yanada chuqurlashtirish maqsadida qator hujjatlar imzolandi. O'zbekistonda Koreya investitsiyasi ishtiroki bilan *400 dan ortiq* korxonalar faoliyat olib bormoqda.

1992-yildan beri *Toshkentda* Koreya ta'lim markazi faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat jahon tillari institutida Koreys tili va madaniyati markazlari ish olib bormoqda.

2017-yili Koreya Respublikasida Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimidagi faoliyatining birinchi yili haqida koreys tilida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *Shavkat Mirziyoyev*» nomli kitob chop etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti *Mun Chje Inning* taklifiga binoan 2017-yilning noyabrda Koreya Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bordi. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga tarixiy burilish yasovchi davlat tashrifi bo'ldi. Oliy darajadagi muzokaralarda o'zaro hamkorlikning keng ko'lamli masalalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi davlatlararo aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan bitimlar imzolandi.

O'zbekiston tashqi siyosatida yangi industrial rivojlanayotgan mamlakatlar bilan yaqin munosabatlar va hamkorlik o'rnatish hamda rivojlantirishga ham katta e'tibor berilayotir. Bunday davlatlar toifasiga to'la ma'noda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini kiritish mumkin. Janubi-Sharqiy Osiyoning O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatidagi o'ziga xos o'rni shu bilan belgilanadiki, bu mintaqada o'nta rivojlanayotgan mamlakatni o'z ichiga oladi. Ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasi va rivojlanish sur'atlari bo'yicha *Indoneziya, Malayziya, Singapur va Tayland* kabi mamlakatlar ajralib turadi. Ularning mustamlaka muteligidan qutulganidan so'ng to'plagan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar borasidagi tajribasi yangi mustaqil mamlakatlar uchun asqotishi mumkin.

O'tgan davr mobaynida davlat va hukumat rahbarlari o'rtasida bo'lib o'tgan rasmiy uchrashuvlar natijasi o'laroq o'zaro anglashuv, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma va bitimlarga erishilib, ular davlatlararo munosabatlarga mustahkam poydevor yaratdi. Bularning bari O'zbekiston Respublikasi va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik muvaffaqiyat bilan ravnaq topishiga xizmat qildi.

40-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI

40.1. O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi faoliyati va tinchlikparvar tashqi siyosati

O'zbekiston va BMT. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda BMT-ga qabul qilindi va mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'ldi. O'zbekiston davlat rahbari I.Karimov tomonidan BMT minbarida ilgari surilgan takliflar butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish, yadro quroli tarqalishining oldini olish yo'lida jahon hamjamiyatini birlashtirishga intilayotgan BMT va keng jahon hamjamiyati tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Jumladan, 1993-yil 28-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Prezident Islom Karimov ilk bor ma'ruza qildi. Unda Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zona deb e'lon qilish, Orol muammosi bo'yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish kabi bir qator muhim takliflar ilgari surildi. 1993-yil oktyabrda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ish boshladi. O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995-yil sentyabrda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent kengash-seminari tashkil etildi. 1995-yil 24-oktyabrda Nyu-Yorkda BMT ning 50 yilligi munosabati bilan Prezident I.A.Karimov nutq so'zlab, Afg'onistondagi keskinlikni hal etish kaliti, eng avvalo, tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etishdir degan taklifni kiritdi. 2000-yili BMT Bosh Assambleyasining 55-sessiyasi «Mingyillik sammit»ida Islom Karimov BMT minbaridan BMTning mintaqaviy va global muammolarni hal etishdagi o'rni va ahamiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinishi zarurligini ta'kidlab, Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari tarkibiga Germaniya va Yaponiyani kiritishni, global va mintaqaviy tahdidlarga munosabat bildirishda tezkorlikni oshirish uchun Bosh kotib vakolatlarini kengaytirish lozimligini qayd etdi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001-yili BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus qo'mitasi ta'sis etildi. Prezident Islom Karimov 2010-yili BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasidagi o'z nutqida jahon mamlakatlari e'tiborini yana Markaziy Osiyodagi murakkab muammolarni hal etish yo'llariga qaratdi. 2002-yil oktyabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofe Ananning, 2010-yil aprel oyida BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning O'zbekistonga tashriflari ham mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatdagi o'rni mustahkamlanib, obro'-e'tibori ortib borayotganining dalilidir. 2017-yil iyunda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish O'zbekistonga tashrif buyurdi. Samarqandda u Prezident

Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdi. Guterrish Islom Karimov qabrini ziyorat qilib, keyin Orolbo'yi hududidagi vaziyat bilan tanishdi.

O'zbekiston BMTning bir qator ixtisoslashtirilgan muassasalari, jumladan, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon savdo tashkiloti (JST), BMTning Yevropa bo'yicha iqtisodiy komissiyasi (EIK), BMT savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi guruhi kabilar bilan keng ko'lamli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (YUNISEF), Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning ham a'zosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlashdi. Unda bir qator masalalar, jumladan, BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish va Bosh Assambleyaning «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish, Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish, Orol dengizi qurishi muammosi, qo'shni mamlakatlardan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash masalalari, Afg'onistonda tinchlikka erishishning ma'rifiy yo'llari masalalariga alohida to'xtaldi.

O'zbekiston va YUNESKO. O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 29-oktyabrda YUNESKoning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YUNESKOga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni *Ulug'bek* tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994-yil oktyabrda Parijda *Ulug'bek* haftaligi tantana bilan o'tdi. *Xiva* va *Buxoro* YUNESKoning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta obyekt bor. YUNESKO qaroriga binoan *Samarqandda* Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori *Federiko Mayorning* O'zbekistondagi rasmiy tashrifi chog'ida, 1995-yil iyul oyida mazkur institut ochildi. YUNESKO buyuk bobokalonimiz *Amir Temur* tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996-yil oktyabrda *Parijda* Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Amir Temur tavallud topgan *Shahrisabz* shahri YUNESKoning madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. 1997-yili jahon madaniyatining durdonalaridan hisoblangan *Buxoro* va *Xiva* shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari *Parijda* keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. Keyingi yillarda bu hamkorlik doirasi yanada kengayib bordi. Jumladan, YUNESKO xalqimizning

Shashmaqom, Katta Ashula, Navro'z kabi ko'pgina ming yillik qadriyatlarini saqlab qolish va targ'ib etishda keng ko'lamlı ish olib bormoqda.

2017-yili O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning xalqaro hamkorligi doirasida 21 ta oliy darajadagi tashrif, 60 ta davlat va xalqaro tashkilotlar bilan uchrashuv, 400 dan ortiq kelishuv va 60 mlrd AQSh dollari hajmidagi kelishuvlarga erishildi.

Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish masalasi. 1997-yili Prezident Islom Karimov Afg'oniston bilan qo'shni olti mamlakat: Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, shuningdek, AQSh va Rossiya davlatlari ishtirokida BMT shafeligi ostida afg'on muammosini muzokaralar yo'li bilan yechishga qaratilgan «6 + 2» muloqot guruhini tuzish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu tashabbusni amalga oshirish maqsadida qator siyosiy-diplomatik chora-tadbirlar ko'rildi. *Toshkent, Nyu-York* va *Afg'onistonda* mazkur mamlakatda davom etayotgan qurolli to'qnashuvlarning ishtirokchilari bilan maxsus muzokaralar olib borildi va 1999-yilga kelib O'zbekistonda BMT shafeligida «6 + 2» muloqot guruhining Afg'oniston muammosi yechimiga bag'ishlangan xalqaro anjumanini o'tkazishga erishildi. *Toshkent* shahrida bo'lib o'tgan ushbu tadbirda birinchi bor Afg'onistonda o'zaro nifoqlashayotgan kuchlar vakillarini umumiy muzokaralar davrasida jamlashga muvaffaq bo'lindi. Bu o'zbek diplomatiyasining muhim yutuqlaridan biri edi.

Eng muhimi, O'zbekiston o'zining taklif va g'oyalarini amaliy ishlar bilan mustahkamlab bordi. Chunonchi, mamlakatimiz Afg'onistonda yo'llar, temir yo'llar, ko'priklar qurilishida faol ishtirok etdi. Afg'oniston tarixida eng birinchi zamonaviy temir yo'l aynan O'zbekiston tomonidan *Termiz – Hayraton – Mozori Sharif* yo'nalishida qurib bitkazildi va 2010-yili ishga tushirildi. Qo'shni mamlakat poytaxti *Kobul* shahrini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlay boshlagan mamlakatlardan biri ham aynan O'zbekiston bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti *Muhammad Ashraf G'ani* 2017-yil 4-dekabr kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Mamlakatlar o'rtasida turli sohalardagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan 16 hujjat imzolandi.

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 13-oktyabrda o'rnatilgan. Ikki tomonlama hamkorlik 2016-yilga kelib izchil rivojlana boshladi. 2017-yil yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili tayinlangani mamlakatimizning ikki tomonlama munosabatlarida alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

«Afg'oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo'lishi lozim. Xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg'onis-

tondagi o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilmog'i kerak. Aminmizki, Afg'onistonda tinchlikka erishishning yagona yo'li markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o'rtasida oldindan hech qanday shart qo'ymasdan, to'g'ridan to'g'ri muloqot olib borishdir. Muzokaralar afg'onistonliklarning o'zlari hal qiluvchi o'rin tutadigan holda Afg'oniston hududida va BMT shafeligida o'tishi lozim. Donishmand afg'on xalqi o'z taqdirini o'zi hal qilishga haqlidir».

Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqidan. Ekologik muammolar. Transchegaraviy daryolar. 1990-yillardan boshlab Orol fojiasining halokatini boshidan kechirayotgan barcha mamlakatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, shuningdek, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilot minbarlaridan jahon hamjamiyatining diqqat-e'tiborini ushbu muammoga, uning mintaqaviy va global xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq ekanligiga jalb etib kelishmoqda. Orol fojiasi va uni bartaraf etish choralarini qidirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1993-yil sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida va 1995-yil oktyabrdagi 50-sessiyasida so'zlagan nutqlarida jahon hamjamiyatini Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik halokat bo'lgan Orol va Orolbo'yini qutqarishda ko'mak berishga chaqirdi. Mazkur global muammoni BMT shafeligida xalqaro moliyaviy tuzilmalar, rivojlangan davlatlar ko'magisiz amalga oshirish mumkin emasligiga BMTning e'tiborini qaratdi. 1993-yili Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston ta'sischiligidagi Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OQXJ) tashkil etildi. 2010-yili «O'rta Osiyoning transchegaraviy ekologik muammolari: ularni hal etishda xalqaro huquq mexanizmlarini qo'llash» mavzuyida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Islom Karimov transchegaraviy daryolar va ulardan foydalanishda adolat tamoyiliga rioya etish zarurligi, aks holda, mintaqaning ekoolamiga ulkan fojialarni keltirishi mumkinligi haqida yana bir bor ommaga ma'lum qildi.

2013-yili Orolbo'yi uchun Amudaryo deltasidagi kichik suv havzalarini tashkil etish, sho'rsizlantiradigan qurilmaga ega suv chiqarish inshootlarini qurish, himoya o'rmonini tashkil etish kabi loyiha va tadbirlarni moliyalashtirishga mablag'lar ajratish rejasi tasdiqlangan. 2013-yili O'zbekiston Respublikasi va OQXJning o'sha paytdagi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 68-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida «Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo'yi ekotizimi halokatining oldini olish tadbirlari Dasturi» ilgari surildi.

Global miqyosda va mintaqamizda ekologik vaziyatning tobora yomonlashuvi va chuchuk suv taqchilligi sharoitida Markaziy Osiyoda suv resurs-

laridan oqilona foydalanishni ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, Markaziy Osiyoning ikki asosiy transchegaraviy daryolari – Amudaryo va Sirdaryo tarixan mintaqa xalqlarining umumiy boyligi va hayot manbai bo'lib kelgan. Aynan ushbu daryolarning quyilishi hisobiga Orol dengizi havzasi suv bilan ta'minlagan. Shularni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari tomonidan jahon miqyosida yirik andozadagi to'g'onlar, Amudaryo yuqori qismida balandligi 350 metrni tashkil etadigan *Rog'un* va Sirdaryo yuqori qismida *Qambarota* GESlarini qurish bo'yicha olib borayotgan harakatlarga befarq qarab tura olmadi. O'zbekiston Amudaryo va Sirdaryoning tabiiy oqimiga, atrof-muhitga, hayvonot va o'simlik dunyosiga qanday ta'sir etishi mumkinligini aniqlash maqsadida BMT shafeligida xolis xalqaro tekshiruvdan o'tkazilishi kerak deb hisobladi.

Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar transchegaraviy daryolarni boshqarish sohasidagi hamkorlikning yo'qligi tufayli hamon murakkab bo'lib qolmoqda. O'zbekiston I.Karimov davrida Rog'un GESning qurilishiga qat'iy qarshi chiqqan. Mamlakat ushbu GESning qurilishi bilan daryolar suvi kamayib ketishini ma'lum qilgan, shuningdek, GES to'g'oni buziladigan bo'lsa, ekologik falokat xavfi bilan ogohlantirgan.

Sh.Mirziyoyev prezident lavozimiga kirishgach, O'zbekistonning Rog'un-ga nisbatan pozitsiyasi biroz o'zgardi. 2017-yilning yozida O'zbekiston Rog'un GES qurilishiga qarshi emasligi, faqat bu jarayonda O'zbekiston milliy manfaatlari ham hisobga olinishi lozimligini ma'lum qildi.

40.2. O'zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar doirasida ko'p tomonlama hamkorligi

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi. 1991-yil 8-dekabrda Belarus, Rossiya va Ukraina rahbarlari *Minsk*da uchrashib Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos soldilar. 1991-yil 21-dekabrda Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va Ukraina davlatlari boshliqlari *Almatida* uchrashib Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lib kirdilar. Shu tariqa XX asrning muhim voqealaridan biri sodir bo'ldi: MDH ixtiyoriy iqtisodiy uyushmasi yuzaga keldi. Shundan buyon MDHning bir necha yig'ilishlari o'tkazildi, ko'p hujjatlar qabul qilindi. Ularning bari uzoq yillar bir davlat bo'lib kelgan mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa aloqalarni yangi sharoitlarda mustaqil davlatlararo munosabatlar tarzida davom ettirishga qaratildi.

1993-yil yanvarda *Minsk*da MDH Davlatlari boshliqlarining navbatdagi Kengashida MDHning Nizomi qabul qilindi. 1993-yil dekabrda *Ashxobod*

shahrida MDH davlatlari boshliqlarining Kengashi bo'lib, unda *Gruziya* MDHga a'zolikka qabul qilindi. Shu munosabat bilan MDHning tarkibi 12 davlatga yetdi. 1994-yil oktyabrda *Moskvada* o'tkazilgan MDH davlat boshliqlarining Kengashida Davlatlararo iqtisodiy qo'mita (DIQ) tuzildi. DIQning shtab-kvartirasi *Moskva* shahri deb belgilandi. 1996-yili MDHning bayrog'i qabul qilindi. MDHning raisi lovozimi navbat bilan bir davlat rahbaridan keyingi davlat rahbariga o'tadi. MDHning asosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun hamdo'stlik davlatlari o'zaro munosabatlarida davlat suverenitetini o'zaro tan olish va hurmat qilish, tenghuquqlilik va bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik, iqtisodiy kuch yoki boshqa tazyiq uslublarini qo'llashdan voz kechish kabi qoidalarga rioya qilish majburiyatlarini olgan. 2004-yil sentyabr oyida Qozog'iston poytaxti *Ostonada* bo'lib o'tgan MDH sammitida terrorizmga qarshi kurash bo'yicha MDHning «Xavfsizlik Kengashi»ni tuzishga qaror qilindi. 2005-yil avgustda *Turkmaniston* MDHning rasmiy a'zosi darajasidan chiqib, hamdo'stlikning tashkiliy a'zosi – kuzatuvchi maqomini oladi. 2008-yilning avgust oyida *Gruziya* Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan chiqish haqidagi istagini bildirdi va 2009-yilning avgust oyidan Gruziyaning MDHga a'zolik ma'qomini to'xtatish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Bugungi kunda MDHning tarkibiga 10 ta a'zo davlat: Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldaviya va bitta kuzatuvchi – Turkmaniston kiradi.

O'zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan aloqalari. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti submintaqaviy xalqaro tashkilot bo'lib, Yevroosiyo hududining 61% ni egallaydi. ShHTning rasmiy tili *rus* va *xitoy* tili, ramzi esa *oq bayroq* bo'lib, uning markazida tashkilotning gerbi joylashgan. Tashkilotning shtab kvartirasi *Pekinda* joylashgan. 1996-yili *Shanxayda* Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammitida chegara hududlari bo'yicha harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash bilan bog'liq shartnoma (1996-yil 26-aprel) imzolanishi natijasida «Shanxay beshligi» vujudga kelgan edi. 1997 – 1999-yillarda *Moskva, Almati, Bishkekda* bo'lib o'tgan sammitlarda «Shanxay beshligi»ning holati yanada mustahkamlanib, o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. 2000-yil *Dushanbeda* O'zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2001-yili Xitoyda navbatdagi *Shanxay* sammiti bo'ldi. Unda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etib, O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida»gi Bayonotni imzoladi. O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan uning nomi Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – ShHT deb o'zgartirildi. Sammit yakunida «ShHTni tuzish to'g'risida»gi deklaratsiya

hamda «Terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida Shanxay konvensiyasi» imzolandi. 2002-yili ShHTga a'zo mamlakatlar rahbarlarining navbatdagi *Sankt-Peterburg* sammitida uchta hujjat: ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining deklaratsiyasi, ShHT Xartiyasi, ShHTga a'zo davlatlar o'rtasida Mintaqaviy antiterror tuzilmasi (MATT) haqidagi bitim imzolangan. 2003-yili *Moskvada* bo'lib o'tgan sammitda ShHT oliy organlari haqidagi Nizomlar tasdiqlandi va tashkilotning gerbi, bayrog'i qabul qilinadi. 2003-yili ShHTning *Pekin* sammitida «ShHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi» qabul qilindi. 2004-yili ShHTning *Toshkent* sammitida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi. 2005-yili mamlakat rahbarlari kengashib, uchta Osiyo mamlakati – *Hindiston*, *Eron* va *Pokistonga* kuzatuvchi maqomi berilishi to'g'risida qaror qabul qilindi. Tashkilot geografik jihatdan kengaydi va bu ShHTning xalqaro mavqeyini yanada yuksaltirdi. Bundan tashqari, *Afg'oniston* va *Mo'g'uliston* mamlakatlari ham kuzatuvchi maqomiga ega bo'lishdi, *Turkiya* esa muloqot bo'yicha sherikka aylandi.

ShHTning oliy organlari: «Davlat boshliqlari Kengashi»; «Hukumat boshliqlari Kengashi (Bosh vazirlar)»; «Tashqi ishlar vazirlari Kengashi» (2002-yil birinchi majlisi bo'lib o'tgan); «Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi»; «Vazirlar va (yoki) idoralar rahbarlari Yig'ilishi» (2000-yil birinchi uchrashuvi amalga oshirilgan); 2002-yili tuzilgan «Mintaqaviy Antiterror tuzilmasi (MATT)»; 2004-yil yanvar oyidan ish boshlagan Kotibiyat va boshqalar.

2007-yil 1-yanvaridan ShHTning bosh kotibi lavozimi joriy etildi va bu lavozimni Qozog'iston Respublikasi vakili *Bulat Nurgaliyev* egalladi. Bu lavozimda 2016-yildan Tojikiston vakili *Rashid Alimov* faoliyat ko'rsatmoqda.

Tashkilotning 2016-yilgi *Toshkent* sammitida Hindiston va Pokistonning ShHTga a'zo davlat maqomini olish yo'lidagi majburiyatlari to'g'risidagi memorandumlar imzolandi hamda 2017-yil *Ostonadagi* sammitda Hindiston va Pokiston tashkilotga a'zo sifatida qabul qilindi.

2017-yilning iyun oyida tashkilotga a'zo davlat rahbarlarining *Ostonada* bo'lgan sammitida O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev nutq so'zlab, unda sammit ishtirokchilari e'tiborini Afg'onistondagi vaziyatni yaxshilash, yoshlarni turli yot g'oyalardan asrash, ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya olishi, komil inson bo'lib voyaga yetishida davlatlararo hamkorlikka qaratdi. Tartibga ko'ra, Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislik Xitoy Xalq Respublikasiga o'tdi.

ILOVALAR

- Mil. av. VII asr Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlari
 Mil. av. VI – IV asrlar Ahamoniylar hukmronligi
 Mil. av. 329 – 312-yillar Makedoniyalik Aleksandr imperiyasi tarkibida
 Mil. av. 312 – 250-yillar Salavkiylar davlati tarkibida
 Mil. av. 250 – 140 – 130-yillar Yunon-Baqtriya davlati
 Mil. av. III asr – milodiy III asr Qang' davlati
 Mil. av. III asr – milodiy II asr Dovon davlati

Kushon shohlari

1-variant (L.A.Borovkova tavsiyasi)

20 – 80	Kujula Kadfiz (Kadfiz I)	
80 – 103	Vima Kadfiz (Kushonning birinchi Buyuk imperatori)	
103 – 125	Kanishka	
125 – 131	Vasishka	
131 – 162	Xuvishka	
166 – 200	Vasudeva (oxirgi Buyuk imperator)	

2-variant:

30 – 80	Kadfis I	143 – ?	Kanishka II
80 – 103	Kadfis II	? – 166	Xuvishka II
103 – 126	Kanishka I	166 – 200	Vasudeva I
126 – 130	Vasishka	200 – 222	Kanishka III
130 – 143	Xuvishka I	222 – 244	Vasudeva II

3-variant:

1 – 30	Geray	155 – 187	Xuvishka
30 – 80	Kujula Kadfis (Kadfis I)	191 – 225	Vasudeva I (oxirgi Buyuk imperator)
80 – 105	Vima Takto (Birinchi qutqaruvchi (Soter Megas)	226 – 240	Kanishka II
		240 – 250	Vasishka
105 – 127	Vima Kadfis (Ku- shonning birinchi Buyuk imperatori)	255 – 275	Kanishka III
		290 – 310	Vasudeva II
		310 – 325	Chxu
127 – 147	Kanishka I	325 – 345	Shaka I
151 – 155	Vasishka	350 – 375	Kipunada

4-variant (Robert Bresi tavsiya etgan):

Mil. av. 30 – mil.10 Sanab	230 – 250	Kanishka III
10 – 60 Kujala Kadfiz	250 – 260	Vasudeva II va Vasishka
60 – 80 Vima Takto	260 – 300	Vasudeva II
80 – 115 Vima Kadfiz	300 – 330	Shaka
115 – 137 Kanishka I	320 – 350	Gadaxara
137 – 155 Xuvishka	335 – 336	Ksandesh
155 – 163 Vasishka I	330 – 360	Kipanada
163 – 180 Kanishka II	360 – 380	Kidara
180 – 233 Vasishka II (Vasudeva)	III asr/IV asr – ?	Yaxudeya

Turk xoqonlari

542 – 553 Bumin xoqon	587 – 588	Chollig' Jabg'u-
553 – 554 Qora Issiq xon		Bag'a xon
572 – 581 Muqon xoqon	588 – 599	Yun-Ulug'
581 Amrak	599 – 603	Qora Churin Turk
581 – 587 Bag'a Ishbar xon		

G'arbiy turk xoqonligi hukmdorlari

603 – 604 Nili xon	631 – 633	Si Jabg'u xon
604 Basil tegin	633 – 634	Nishu Dulu xon
604 – 612 Taman xon	634 – 639	Ishbara Tolisshod xon
612 – 618 Sheguy xon	653 – 657	Xallik Ishbara Jabg'u xon
618 – 630 Tun Jabg'u xon	676 – 679	Ashina Duchji xon
630 – 631 Kuluk Sibir xon	693 – 704	Ashina Xushelo shod

Xulafoyi roshidin

632 – 634 Abu Bakr	644 – 656	Usmon ibn Affon
634 – 644 Umar ibn Xattob	656 – 661	Ali ibn Abu Tolib

Umaviy xalifalar

661 – 680 Mu'aviya I ibn Abu Sufyon	717 – 720	Umar ibn Abdulaziz
680 – 683 Yazid I	720 – 724	Yazid II
683 – 684 Mu'aviya II	724 – 743	Hishom
684 – 685 Marvon I ibn Hakam	743 – 744	Al-Valid II
685 – 705 Abdulmalik	744	Yazid III
705 – 715 Al-Valid I	744	Ibrohim
715 – 717 Sulaymon	744 – 750	Marvon II Himor

Abbosiy xalifalar

749 – 754	As-Saffoh	932 – 934	Al-Qohir
754 – 775	Al-Mansur	934 – 940	Ar-Roziy
775 – 785	Al-Mahdiy	940 – 944	Al-Muttaqiy
785 – 786	Al-Hodiy	944 – 946	Al-Mustaqfiy
786 – 809	Horun ar-Rashid	946 – 974	Al-Muti
809 – 813	Al-Amin	974 – 991	At-Toyi
813 – 833	Al-Ma'mun	991 – 1031	Al-Qodir
817 – 819	Ibrohim ibnu-l-Mahdiy (Bag'dodda)	1031 – 1075	Al-Qoyim
833 – 842	Al-Mu'tasim	1075 – 1094	Al-Muqtadiy
842 – 847	Al-Vasiq	1094 – 1118	Al-Muztazhir
847 – 861	Al-Mutavakkil	1118 – 1135	Al-Mustarshid
861 – 862	Al-Muntasir	1135 – 1136	Ar-Rashid
862 – 866	Al-Musta'in	1136 – 1160	Al-Muqtadiy
866 – 869	Al-Mu'tazz	1160 – 1170	Al-Mustanjid
869 – 870	Al-Muhtadiy	1170 – 1180	Al-Mustaziy
870 – 892	Al-Mu'tamid	1180 – 1225	An-Nosir
892 – 902	Al-Mu'tazid	1225 – 1226	Az-Zohir
902 – 908	Al-Muqtafiy	1226 – 1242	Al-Mustansir
908 – 932	Al-Muqtadir	1242 – 1258	Al-Musta'sim

Tohiriylar

821 – 822	Tohir I ibn al-Husayn	828 – 845	Abdulloh
822 – 828	Talha	845 – 862	Tohir II
		862 – 873	Muhammad

Somoniylar

819 – 864	Ahmad I ibn Asad ibn Somon, Farg'ona hukmdori
864 – 907	Nasr I ibn Ahmad, dastlab Samarqand hukmdori
907	Ismoil I ibn Ahmad
907 – 943	Ahmad II ibn Ismoil
943	Al-Amir as-Sa'id Nasr II
943 – 954	Al-Amir al-Hamid Nuh I
954 – 961	Al-Amir al-Mu'vayyad Abdulmalik I
961 – 976	Al-Amir as-Sa'id Mansur I
976 – 997	Al-Amir ar-Rizo Nuh II
997 – 999	Mansur II

999 – 1000	Abdulmalik II
1000 – 1005	Ismoil II al-Muntasir

G'aznaviylar

962 – 963	Alptegin
977 – 997	Sobuqtegin
997 – 998	Ismoil
998 – 1030	Mahmud G'aznaviy
1030	Muhammad
1030 – 1041	Mas'ud
1041	Muhammad (ikkinchi marta)
1041 – 1048	Mavdid
1049 – 1051	Mas'ud II, Ali abul Hasan
1051 – 1099	Abdurashid
1099 – 1115	Mas'ud III
1117 – 1153	Sherzod, Arslon, Bahromshoh
1153 – 1160	Xusravshoh
1160 – 1186	Xusrav Malik

Qoraxoniylar

Yagona xoqonlikning ulug' xoqonlari

?	Ali ibn Muso
998 – 1015	Ahmad I Arslon Qoraxon (yoki To'g'onxon)
1015 – 1024	Mansur Arslonxon
1024 – 1026	Ahmad II To'g'onxon
1026 – 1032	Yusuf I Qodirxon

G'arbiy xoqonlikning ulug' xoqonlari (Movarounnahr, Buxoro, Samarqand va Farg'onaning g'arbiy qismini qo'shgan holda)

1041 – 1052	Muhammad Ayn ud-davla
1052 – 1068	Ibrohim I Bo'ri tegin Tamg'achxon
1068 – 1080	Nasr I
1080 – 1081	Xizr
1081 – 1089	Ahmad I
1089 – 1095	Ya'qub
1095 – 1097	Mas'ud I
1097	Sulaymon
1097 – 1099	Mahmud I

1099 – 1102	Jibroyil
1102 – 1129	Muhammad II
1129	Nasr II
1129 – 1130	Ahmad II
1130 – 1132	Hasan
1132	Ibrohim II
1132 – 1141	Mahmud II (keyinchalik Saljuqiy Sanjardan so'ng Xuroson hukmdori)
1141 – 1156	Ibrohim III
1156 – 1204	Aliy
1204 – 1211	Usmon

Anushtegin xorazmshohlar

1077 – 1097	Anushtegin G'archaiy
1097	Turkiy noib Ekinchi ibn Qo'chqor
1097 – 1127	Qutbiddin Muhammad
1127 – 1172	Alouddin Otsiz
1172	El Arslon
1172	Alouddin Takash
1172 – 1193	<i>Sultonshoh ibn El Arslon, Shimoliy Xurosonda taxt talashgan hukmdor</i>
1200 – 1220	Alouddin Muhammad
1220 – 1231	Jaloliddin Manguberdi

Chig'atoylar

1227 – 1241	Chig'atoy
1241 – 1247	Qora Hulogu
1247 – 1252	Esu Mo'ngka
1252	Qora Hulogu (ikkinchi marta)
1252 – 1261	O'rqina xotun
1261 – 1266	Alugu
1266	Muborakshoh
1266 – 1271	Baroq
1271 – 1272	Negubey (Nikpoy)
1272 – 1291	Tuka Temur
1291 – 1306	Duvo
1306 – 1308	Ko'nchak
1308 – 1309	Toliq
1309	Kebek (Kopak)

- 1309 – 1318 Esan Buqa I
- 1318 – 1326 Kebek (ikkinchi marta)
- 1326 Eljigiday
- 1326 Duvo Temur
- 1326 – 1334 Alouddin Tarmashirin
- 1334 Changshi
- 1334 – 1338 Buzan
- 1338 – 1342 Esun Temur
- 1342 – 1343 Muhammad
- 1343 – 1346 Qazon
- 1346 – 1348 Donishmanji
- 1348 – 1359 Sayan quli
- 1359 Shoh Temur
- 1396 – 1370 Tug'luq Temur

Temuriylar

- 1370 – 1405 Amir Temur
- 1409 – 1447 Shohrux ibn Temur
- 1447 – 1449 Ulug'bek ibn Shohrux
- 1451 – 1469 Abu Said ibn Sulton Muhammad

Movarounnahrda:

- 1405 – 1409 Halil sulton
- 1409 – 1449 Ulug'bek
- 1449 – 1450 Abdullatif
- 1450 – 1451 Abdulloh mirzo
- 1451 – 1469 Abu Said ibn Sulton Muhammad
- 1469 – 1494 Sulton Ahmad ibn Abu Said
- 1494 – 1497 Sulton Mahmud ibn Said
- 1497 – 1498 Zahiriddin Bobur
- 1498 – 1500 Sulton Ali ibn Sulton Mahmud

Xurosonda:

- 1396 – 1447 Shohrux
- 1447 – 1449 Ulug'bek
- 1449 – 1457 Abulqosim Bobur
- 1457 – 1469 Abu Said ibn Sulton Muhammad
- 1469 – 1506 Sulton Husayn ibn Mirzo Mansur ibn Mirzo Boyqaro
- 1506 – 1507 Badiuzzamon ibn Sulton Husayn

Shayboniylar

1500 – 1510	Muhammad Shayboniy	1540 – 1552	Abdullatif
1510 – 1531	Ko'chkunju	1552 – 1556	Navro'z Ahmad
1531 – 1534	Muzaffaruddin Abu Sa'id	1556 – 1561	Pir Muhammad I
1534 – 1539	Abulg'oziy	1561 – 1583	Iskandar
1539 – 1540	Abdulloh I	1583 – 1598	Abdulloh II
		1598	Abdulmo'min
		1598	Pirmuhammad II

Boburiylar

1526 – 1530	Zahiriddin Muhammad Bobur
1530 – 1540	Nosiruddin Humoyun
1540 – 1555	Dehlining Suriy sultonlari
1555 – 1556	Humoyun (ikkinchi marta)
1556 – 1605	Jaloluddin Akbar I
1605 – 1627	Nuruddin Jahongir
1627 – 1628	Dovar Baxsh
1628 – 1657	Hishobuddin Shoh Jahon I
1657	Murod Baxsh (Gujarotda)
1657 – 1667	Shoh Shujo (Bengaliyada 1660-yilgacha)
1667 – 1707	Muhyinuddin Avrangzeb Olamgir I
1707	A'zamshoh
1707	Kom Baxsh (Dakanda)
1707 – 1712	Shoh Olam I Bahodirshoh I
1712	Azim ush-Shon
1712 – 1713	Mu'izuddin Jahondor
1713 – 1719	Farrux Siyar
1719	Shamsuddin Rafi ud-Darajot
1719	Rafi ud-davla Shoh Jahon II
1719	Nigu Siyar
1719 – 1748	Nosiruddin Muhammad
1748 – 1754	Ahmadshoh Bahodur
1754 – 1760	Azizuddin Olamgir II
1760	Shoh Jahon III
1760 – 1788	Jaloluddin Aliy Javhar Shoh Olam II
1788	Bidorbaxt
1788 – 1806	Shoh Olam II (ikkinchi marta)
1806 – 1837	Mu'inuddin Akbar II
1837 – 1858	Sirojuddin Bahodurshoh II

Ashtarxoniyalar

1601 – 1605	Boqi Muhammad ibn Jonibek sulton
1605 – 1611	Vali Muhammad ibn Jonibek sulton
1611 – 1642	Imomqulixon ibn Boqi Muhammadxon
1642 – 1645	Nodir Muhammad ibn Dinmuhammad
1645 – 1681	Abdulaziz ibn Nodir Muhammad
1681 – 1702	Subhonqulixon ibn Nodir Muhammad
1702 – 1711	Ubaydullaxon ibn Subhonqulixon
1711 – 1747	Abulfayzxon ibn Subhonqulixon
1747 – 1748	Abdulmo'min ibn Abulfayzxon
1748 – 1756	Ubaydulla ibn Abulfayzxon

Mang'itlar

1756 – 1758	Muhammad Rahimxon ibn Hakimbiy
1758 – 1785	Doniyoibiy otaliq ibn Xudoyorbiy
1785 – 1800	amir Shohmurod ibn amir Doniyoibiy
1800 – 1826	amir Haydar ibn amir Shohmurod
1826 – 1860	amir Nasrullo ibn amir Haydar
1860 – 1885	amir Muzaffar ibn amir Nasrullo
1885 – 1910	amir Abdulahadxon ibn Muzaffar
1910 – 1920	amir Olimxon ibn amir Abdulahadxon

Xiva shayboniyalari

1511 – 1516	Elbarsxon
1516 – 1522	Sifiyonxon
1522 – 1526	Bujakxon
1526 – 1538	Avaneshxon
1538 – 1547	Alixon
1547 – 1556	Akashoyxon
1556 – 1557	Yunusxon
1557 – 1558	Do'stxon
1558 – 1602	Hoji Muhammadxon (Hojimxon)
1602 – 1621	Arab Muhammadxon
1621 – 1623	Habash sulton va Elbars sulton
1623 – 1643	Asfandiyorxon
1644 – 1663	Abulg'ozil Bahodirxon
1663 – 1686	Anushaxon
1686 – 1688	Xudoyorxon

1688 – 1690	O'zbekxon – Arnakxon
1694 – 1697	Juchi sulton
1697 – 1699	Valixon
1699 – 1702	Shohniyozxon
1702 – 1703	Shohbaxtxon
1703 – 1705	Sayid Alixon
1705 – 1706	Musaxon
1706 – 1713	Yodgorxon
1714 – 1728	Sherg'ozixon
1728 – 1739	Elbarsxon
1739 – 1740	Tohirxon
1740 – 1742	Nuralixon
1742 – 1746	Abulg'ozixon (Abu Muhammad) II
1746 – 1756	G'oyib ibn Botir
1756 – 1757	Qoraboyxon
1757 – 1764	Temurg'ozixon
1764 – 1765	Xudoydodxon
1768	Nuralixon
1769	Jahongirxon
1770	Bulakayxon
1776 – 1777	Shohg'ozixon
1777	Abulg'ozixon

Xiva qo'ng'irotlari

1770 – 1790	Muhammad Amin
1790 – 1804	Avaz Muhammad inoq
1804 – 1806	Eltuzarxon
1806 – 1825	Muhammad Rahimxon
1825 – 1842	Oллоhqulixon
1842 – 1845	Rahimqulixon
1845 – 1855	Muhammad Aminxon
1855 – 1856	Abdullaxon
1856	Qutlug'murodxon
1856 – 1864	Sayid Muhammadxon
1864 – 1910	Muhammad Rahimxon II
1910 – 1918	Asfandiyorxon
1918 – 1920	Sayid Abdullaxon

Qo'qon xonlari

1709 – 1721	Shohruxbiy
1721 – 1733	Abdurahimbiy
1733 – 1750	Abdulkarimbiy
1750	Abdurahmon
1751 – 1752	Erdona
1752 – 1753	Bobobek
1753 – 1762	Erdona (ikkinchi marta)
1762 – 1763	Sulaymon
1763 – 1798	Norbo'tabiy
1798 – 1810	Olimxon
1810 – 1822	amir Umarxon
1822 – 1842	Muhammad Alixon
1842 – 1844	Sheralixon
1844	Murodxon
1845 – 1858, 1862 – 1863, 1865 – 1875	Xudoyorxon
1858 – 1862	Mallaxon
1863	Sulton Sa'idxon
1875	Nasriddinbek

Turkiston general-gubernatorlari

1867 – 1881	K.P.Kaufman	1905 – 1906	D.I.Subbotich
1881 – 1882	G.A.Kolpakovskiy	1906 – 1908	N.I.Grodekov
1882 – 1884	M.G.Chernyayev	1908 – 1909	I.Meshchenko
1884 – 1889	N.O.Rozenbax	1909 – 1913	A.V.Samsonov
1889 – 1898	A.B.Vrevskiy	1913 – 1915	N.Flug
1898 – 1901	V.M.Duxovskiy	1915 – 1916	F.Martson
1901 – 1904	N.I.Ivanov	1916 – 1917	A.N.Kuropatkin
1904 – 1905	P.N.Tevyashov		

Qisqacha izohli lug'at

Aeronavigatsiya (lot. – kemada suzish) – uchish apparatlarini tegishli asbob va vositalar yordamida belgilangan yo'ldan olib borish haqidagi fan; havonavigatsiyasi.

Avf etish – sud hukmi bilan jazo tayinlangan biror shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish yoki berilgan jazoni yengillashtirish. Odatda, avf davlat boshlig'ining qarori bilan amalga kiritiladi.

Agressiya – bosqinchilikdan iborat bo'lgan, tajovuzkorlikka asoslangan harakat.

Alg'ut – bir yo'la to'lanadigan soliq.

Amid ul-mulk – davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.

Amir – hukmdor, davlat boshlig'i.

Amiri shikor – xonlarning ovini tashkil etuvchi amaldor.

Amir ul-umaro – lashkarboshi, sarkarda.

Amlok – davlat yertari.

Animizm – insonni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga ishonish.

Ark – shaharning hokim qasri joylashgan qismi.

Arkon – dindagi eng muhim vazifa.

Artel (ital. hunarmand) – kasb-hunar egalarining birgalashib, jamoa bo'lib ishlash uchun tuzilgan uyushmasi shakllaridan biri.

Bakalavr (lot. baccalaureus) – oliy ta'lim dasturining birinchi bosqichini tugallagan talabalarning ilmiy darajasi.

Bakovul – Buxoro amirligida saroy oshxonasini boshqargan amaldor.

Baynalmilal (arabcha, millatlar o'rtasidagi, millatlararo) – xalqaro, umuminsoniy, umumxalqiy mazmunlarida qo'llaniladi.

Biy, bek – qabila, viloyat boshlig'i.

Bolshevik (ruscha, bolshoy, bolshe – katta; ko'p) – Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasining 1903-yilgi II syezdida partiya a'zolarining ko'pchiligi asosida tashkil topgan guruhi bolsheviklar, kamchiligi esa mensheviklarga ajraldi.

«**Bosmachilik**» – Turkistonda 1918 – 1925-yillarda keng xalq ommasi va-killarining bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan qurolli harakatiga sho'ro hukumati davrida buyuk davlat shovinistlari tomonidan berilgan rasmiy nom.

Budun – chorvador aholi.

Darbon – amir qarorgohi eshigida turuvchi soqchi.

Dasturxonchi – xon huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor.

Dashnoqlar (armancha) – arman millatchilarining «Dashnoqsutyun» (itti-fiq) partiyasi a'zolari.

Degrez – cho'yandan qozon quyuvchi.

Dehqon – ilk o'rta asrlarda mulkdor tabaqa, keyinchalik qishloqning oddiy mehnatkash aholisi.

Deklaratsiya (ma'lum qilaman) – hukumatning, biror tashkilotning muhim bir hujjatni, qonunni, voqeani ko'pchilik e'tiboriga yetkazuvchi bayonoti.

Delimitatsiya (lot. chegaralamoq, ajratmoq) – davlat chegaralarini tuzilgan shartnomaga muvofiq tavsiflash va xaritalashtirish asosida belgilash; belgilangan chegaralarni qayta ko'rib chiqish.

Deputat (lot. deputatus – vakil qilingan, yuborilgan) – vakolatli davlat organiga saylangan kishi, vakil.

Desyatina (ruscha, desyat – o'n) – metrik sistema qabul qilingunga qadar Rossiyada qo'llangan, 1,09 gektarga teng yer maydoni o'ldi.

Devonbegi – davlatning moliya-xazina ishlarini boshqaruvchi amaldor.

Devorzan – paxsakash, g'ishtdan devor uruvchi.

Dinor – 4,235 g vazndagi oltin tanga.

Diversifikatsiya (lot. diversificatio o'zgarish, xilma-xil) – ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy bankrotlikning oldini olish maqsadida ishlab chiqariladigan mahsulot assortimentining kengaytirilishi, mahsulot sotiladigan bozorlarni o'zgartirish yoki yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashish.

Dishon (tish – tashqari) – tashqi qal'a, shahriston.

Dodxoh – fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi hamda hal qiluvchi amaldor.

Doktrina (lotincha, ta'limot; o'qimishlilik) – ilmiy yoki falsafiy ta'limot, nazariya; asosiy nazariy yoki siyosiy nuqtayi nazar.

Dorug'a – shahar va tuman hokimi, mudofaa mutasaddisi.

Dotatsiya (lot. – tuhfa) – ma'lum xarajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotning bir subyekti tomonidan ikkinchisiga qaytarib bermaslik sharti bilan pul mablag'i berilishi.

Eloqxon – el-yurt hokimi.

Eserlar – S (es) sotsial, R (er) revolyutsion (inqilobiy), ya'ni sotsial revolyutsionerlar nomidan olingan bo'lib, ular sovetlar ichida dehqonlar manfaatini himoya qiluvchi guruh bo'lgan.

Etnogenez – biror-bir xalqning tarkib topish jarayoni, kelib chiqish ildizi.

Evakuatsiya (lot. bo'shatmoq, xoli qilmoq) – odamlar, tashkilot, korxonalar, badiiy va boshqa qadriyatlarini urush, tabiiy ofat kabilar xavfidan saqlash maqsadida bir joydan boshqa joyga ko'chirish.

Eshelon (fr. zina, zinapoya) – maxsus yuk, texnika, artilleriya, tank va qo'shinlar ortilgan poyezd yoki avtokolonna.

Farmon – qonun kuchiga ega bo'lgan buyruq.

Festival (ital. bayramona, shod, quvnoq) – san'atning musiqa, kino, teatr va boshqa sohalarida erishilgan eng yaxshi yutuqlar bo'yicha o'tkaziladigan tanlov, ko'rikdan iborat ommaviy bayram, tantana, sayil.

Fiqh – ilohiyotshunoslik, shariat qonun-qoidalari haqidagi fan.

Firqa (arab. guruh, to'da; partiya) – maqsadi, g'oyasi, dunyoqarashining mushtarakligi jihatidan birlashgan kishilar guruhi.

Fulus – mayda mis chaqa pul.

Funt – og'irlik o'lchov birligi, 1 funt 410 g ga teng bo'lgan.

Galereya (fr. peshayvon) – binoning ikki qismini birlashtiruvchi usti yopiq uzun yo'lak; tomosha zalida eng yuqorigi yarus.

GESlar kaskadi (gidroelektrostansiya kaskadi) – bir daryo oqimida bir-biridan ma'lum masofada joylashgan, umumiy suv xo'jalik rejimi bilan o'zaro bog'langan bir nechta gidroelektrostansiya.

Gimnastyorka – tik yoki qaytarma yoqali, ustidan kamar bog'lanadigan ust ko'ylak (rasmiy harbiy kiyim).

Hasham – hukmdorga yaqin kishilar.

Hojib – harbiy boshliq.

Hudaychi – Buxoro amirligida har xil tadbirlarni uyushtiruvchi amaldor.

Immunologiya (yun. tushuncha, ta'limot) – organizmning kimyoviy xususiyatlari, uning immuniteti haqidagi fan.

Industriallashtirish – xalq xo'jaligining barcha sohalarida yirik mashina ishlab chiqarish jarayonini keltirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini mashina texnikasi asosiga o'tkazish.

Infratuzilma – ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan me'yoriy sharoitni ta'minlashga xizmat qiladigan turli-tuman yordamchi xizmat ko'rsatuvchi sohalar majmuyi.

Innovatsiya (ingl. kiritilgan yangilik, ixtiro) – ilg'or texnologiya, boshqarish va boshqa sohalaridagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanishi.

Integratsiya (lot. tiklash, to'ldirish) – ayrim qismlarni, elementlarni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni.

Internatsionalizm – xalqlar va ijtimoiy guruhlarining millatlar ozodligi, mustaqilligi, huquqiy tengligiga asoslangan birdamlik va o'zaro hamkorlik tamoyili.

Inoqlar – qabila boshliqlaridan iborat xonning maslahatchilari hamda xon farmonlarini o'z tobelariga yetkazuvchilar.

Islohot – biror sohani tubdan qayta tashkil etish, o'zgartirish.

Islom («bo'ysunish», «itoat etish») – dunyo dinlaridan biri.

Ixshid – viloyat hokimi.

Izolyator (ajratmoq, yakkalamoq) – kazarma, lager, yuqumli kasal saqlanadigan va shu kabi vaqtincha ajratib qo'yiladigan alohida xona, joy.

Ichkilar – xonning maxsus ishonchli xizmatchilari.

Jirov – o‘lan, doston aytuvchi, baxshi.

Jizya – islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan soliq.

Juftigov – qo‘sh ho‘kiz yordamida bir kunda haydaladigan yer (8 – 9 gektarga yaqin).

Jul – Buxoro amirligida urush uchun olinadigan soliq.

Jo‘ybon – suv taqsimlovchi mirob.

Kadetlar – «konstitutsion demokratlar» birikmasining bosh harflaridan olingan. Rossiyada 1905-yili tashkil topgan, konstitutsion-demokratik partiya deb ataluvchi partiyaning a‘zolari.

Kadivar – qishloqning dehqonlarga qaram bo‘lib qolgan ahli.

Kalom – islom diniy ta‘limotini asoslab beruvchi diniy ilm.

Kalon – hosilning 1/10 qismi hajmida olingan soliq.

Kanaxona – zindon, yer osti turmasi.

Kavaleriya – otliq qo‘shin.

Kashovarz – ziroatchi oddiy qo‘shchilar.

Ka‘ba – Makka shahridagi muqaddas ibodatxona.

Koalitsion hukumat – umumiy maqsadga erishish uchun tashkil etilgan ko‘ngilli birlashma, bir nechta partiya tomonidan hukumatni ittifoq bo‘lib boshqarish.

Kollektivlashtirish – mayda-mayda dehqon xo‘jaliklaridan ommaviy tarzda yirik kollektiv xo‘jaliklar (kolxozlar)ni tashkil qilish.

Konfessiya (lot. tan olish, e‘tirof etish) – diniy ishonch, e‘tiqod; shu bilan birga, mazhab mazmuniga ega tushuncha.

Konsentratsion lager (lot. biror narsaning to‘planishi) – bir joyga to‘plash, yig‘ish. Konsentratsion lager siyosiy mahbuslar qamaladigan maxsus lagerdir.

Konsepsiya – biror sohani rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli loyiha yoki qarashlar majmuyi.

Konservatoriya (ital. boshpana) – maxsus musiqa o‘quv yurti. Dastlab Italiyada yetim va qarovsiz bolalarga mo‘ljallangan boshpana. Unda turli hunarlar qatori musiqa ham o‘qitilgan.

Konvertatsiya (lot. convertatio – o‘zgartirish, aylantirish) – milliy valyutaning amaldagi kurs bo‘yicha boshqa xorijiy valyutalarga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi.

Kooperatsiya (lot. sheriklik, hamkorlik) – o‘zaro bog‘langan ishlab chiqarish jarayonida kishilarning yoki tashkilotlarning hamkorlik asosida ishlashini tashkil etish shakli.

Kudungar – matoga ohor beruvchi.

Kuren – lager, qo‘sh.

Ko‘kaldosh – xonning eng ishonchli kishisi, maslahatgo‘yi.

Logistika (yun. Logistike – hisoblash, muhokama san’ati) – inson faoliyatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta’minlashni boshqarish tizimi.

Magistr (lot. boshliq, ustoz) – ayrim mamlakatlarda bakalavr va fan doktori o’rtasidagi ilmiy daraja. Tayanch oliy ta’lim kursidan so’ng qo’shimcha dastur bajargan, maxsus imtihonlarni topshirgan va muayyan ilmiy ishni himoya qilgan shaxslarga beriladi.

Magistral (lot. – bosh, asosiy) – asosiy yo’l. Qatnov yo’li, umuman, tarmoqlangan sistemalarning asosiy qismi.

Maksimalistlar – mavjud davlat tuzumini tanqid ostiga olib, radikal o’zgarishlar va islohotlar o’tkazishni talab etuvchi siyosiy oqim.

Mentalitet (nem. aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o’ziga xos an’analari, rasm-rusumlari, urfodatlarini, diniy e’tiqod va irimlarini qamrab oladi.

Minomyot (rus. irg’itmoq, otmoq) – mina otadigan qurol.

Mirobboshi – suv ta’minoti boshlig’i.

Miroxo’r – xon otxonasi boshlig’i.

Mirshab – tungi qorovul boshlig’i.

Mingboshi – Qo’qon xonligida bosh vazir va qo’shinlar qo’mondoni.

Modernizatsiya (modern zamonaviy) – yangilanish, zamonaviy; davlat, jamiyat, iqtisodiyot, texnologiya va boshqa sohalarning yangilanishi, yangi uslublar, ixtirolarning qo’llanishi asosidagi o’zgarishlar.

Monokultura – almashlab ekishga amal qilmagan holda dalada faqat bir xil ekinni muttasil yetishtirish.

Mudarris – madrasa muallimi.

Muftiy – diniy-huquqiy masalalarda fatvo (qaror) chiqaruvchi mansabdor. Hozirda diniy idora boshlig’i.

Muhtasib – aholi tomonidan shariat qoida, tartiblarining bajarilishini nazorat qiluvchi.

Muhassil – soliq undiruvchi.

Mulk – xususiy yerlar.

Muqanna – niqobli kishi.

Murid – eshon, ma’naviy pining izdoshi, shogirdi.

Muxtoriyat – biron-bir hududning davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi.

Muzoriy – ekin maydonlariga ishlov beruvchi yollanma ziroatchi.

Mushrif – xon in’om etgan buyumlarni, harbiy anjomlarni ro’yxatga oluvchi, soliq tizimlarini qayd etuvchi amaldor.

Madrasa – oliy islom diniy ta’lim muassasasi.

Mardikor – yollanma mehnatchi.

Matriarxat – eng qadimgi tuzum rivojida bir bosqich. Bunda qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilanib, urug' va oila boshlig'i ayol kishi bo'lgan.

Metafizika – sezgilar vositasida anglab olish mumkin bo'lmagan obyektlarni (sifat, mazmun, mohiyat, hodisa) tadqiq etuvchi fan.

Moli omon – o'rta asrlarda mag'lub shahar talon-toroj qilingan yoki uning evaziga moli omon (tovon) olingan.

Movarounnahr – arabcha «daryoning narigi tomoni».

Natsionalizatsiya (ingl. millat, xalq) – ayrim shaxs yoki birlashmalarning xususiy mulki bo'lgan yer, ishlab chiqarish korxonalari, transport va boshqalarni davlat ixtiyoriga olish.

Najjorlik – duradgorlik.

Otaliq – shahzodalarga murabbiy etib tayinlangan shaxs.

Oshlig' solig'i – urush paytida yig'iladigan soliq.

Pandus – maxsus ko'tarma.

Paranji – ko'pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko'rinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to'n shaklidagi, soxta yengli yoping'ich.

Parvonachi – biror lavozimga tayinlangan kishiga uning shu lavozimga tayinlanganini yetkazuvchi amaldor.

Partiya (lot. partio – bo'lak, qism) – g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari bir bo'lgan kishilar guruhidan iborat, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamlarning manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy tashkilot.

Partokratik – partiya hukmronligiga asoslangan.

Patriarxat – insoniyat rivojining bir bosqichi. Bunda erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqega ega bo'lib, qarindoshlik munosabatlari ota tomonga qarab belgilangan.

Poykor – kichik mirob.

Prokat sexi – aylanuvchi ikki jo'va (val) orasidan siqib o'tkazish yo'li bilan turli shakldagi metall mahsulotlar ishlab chiqarish, prokat hosil qilish.

Proletar (lot. kambag'al, qashshoq fuqaro) – yashash manbai o'z ishchi kuchini ishlab chiqarish vositalari egalariga sotishdan iborat bo'lgan yollanma ishchilar sinfi.

Pud – 16,38 kg ga teng og'irlik o'lchov birligi.

Qam-shomon – Ko'k tangriga sig'inuvchi yakkaxudolik dini.

Qopchur – chorva mollari bosh sonining 1% miqdorida solinadigan soliq.

Qoraqozoqlar – oddiy ko'chmanchi xalq.

Qoraxon – ulug' xon.

Qozi – shariat qonunlari bo'yicha hukm (qaror) chiqaruvchi, sudya.

Qozikalon – davlatning sud ishlarini bajaruvchi amaldor.

«**Quloqlar**» (rus. kulachestvo – mushtumzo'r) – mustabid sovet rejimining badavlat va o'rtaol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosati.

Qo'rboshi – o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklari qurol-yarog' ombori (qo'r) mutasaddisi hamda qurol-aslaha, turli yarog'lar va to'p yasash korxonalari (qo'rxona) boshlig'i bo'lib, Turkiston o'lkasida Oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davrda mahalliy politsiya boshligi hamda keyinchalik Turkistonda sovet rejimiga qarshi istiqloolchilik harakati rahbarlarining unvoniga aylangan.

Qo'sh – harbiy yurishlar paytidagi hukmdor qarorgohi, o'rdu, lager.

Qo'shbegi – bosh vazir.

«**Qo'shchi**» – qo'sh haydovchi kishi, dehqon. «Qo'shchi» dehqonlarni g'oyaviy jihatdan birlashtirib turgan ittifoq bo'lganligi uchun shunday nomlangan. Referendum (lot. xabar berilishi zarur bo'lgan narsa) – davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalalar bo'yicha o'tkaziladigan va ba'zan qonunlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan umumxalq so'rovi, ovoz berish yo'li bilan xalq fikrini aniqlash.

Rabod – shaharning tashqi mavzesi.

Referendum (lotincha, ma'lum qilinishi zarur bo'lgan narsa) – davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalalar bo'yicha o'tkaziladigan va ba'zan qonun qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan umumxalq so'rovi, ovoz berish yo'li bilan xalq fikrini aniqlash.

Sadr – in'om etilgan vaqf mulklarini boshqaruvchi.

Sahhofilik – muqovasozlik.

Salg'ut – yer solig'ining bir turi.

Sammit (ingl. tepa, yuqori, cho'qqi; yuksak daraja) – ikki yoki bir necha davlat boshliqlarining muhim xalqaro masalalar bo'yicha uchrashuvi; oliy darajadagi kengash.

Sanad – shahodatnoma.

Sanitar poyezd – tibbiy xizmat ko'rsatish xodimlari va uskunalari bilan ta'minlangan poyezd.

Sanksiya – huquqshunoslikda huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan va uning uchun muayyan oqibatlar keltiruvchi chora.

Sanksiya (lot. qat'iy, o'ta jiddiy qaror) – hujjat, qarorlarning oliy organ tomonidan tasdiqlanishi, shunday tasdiq natijasida hujjat, qarorning qonuniy kuchga ega bo'lishi.

Sarbadorlar – boshini dorga tikkanlar. Mo'g'ullar zulmiga qarshi xalq qo'zg'oloni qatnashchilari.

Sarhang – kichik lashkarboshi.

Sarrof – pul bo'yicha mutaxassis. U pul almashtirib berish bilan shug'ullangan.

Sarrojlik – egar-jabduq yasash.

MUNDARIJA

1-bob. Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari	3
1.1. Qadimgi tarix – sivilizatsiyaning boshlanishi	3
1.2. Eng qadimgi odamlar rivojining ilk bosqichlari	5
1.3. Urug'chilik jamiyati	7
1.4. Eneolit va bronza asri ziroatchilari	9
1.5. Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi	10
2-bob. Qadimgi O'rta Osiyo	11
2.1. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar	11
2.2. Zardushtiylik	13
3-bob. Mil. avv. VI – milodiy III asrlarda O'rta Osiyo	15
3.1. O'rta Osiyoga ahamoniyning bosqinchilik yurishlari	15
3.2. O'rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi	18
3.3. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi	20
3.4. Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlatlari	22
3.5. Kushon podsholigi	24
3.6. Buyuk ipak yo'li	26
4-bob. O'rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi	28
4.1. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar	28
4.2. Ilk o'rta asrlar davlatlari	30
4.3. Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot	33
4.4. O'rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida	35
4.5. G'arbiy turk xoqonligi	36
4.6. Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi	38
4.7. VI – VII asrlarda madaniy hayot	40
5-bob. O'rta Osiyoning Arab xalifaligi tomonidan fath etilishi. Xalq qo'zg'onlari	42
5.1. Islom dini va Arab xalifaligi	42
5.2. Movarounnahr fath etilishining iqtisodiy va ma'naviy oqibatlari	44
5.3. Xalifalikka qarshi xalq harakatlari	45
5.4. Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahr. Abu Muslim qo'zg'oloni	47
5.5. «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni	49
6-bob. Movarounnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi	50
6.1. Xalifalikning zaiflashuvi, mustaqil davlatlarning shakllana boshlashi	50
6.2. Somoniylar	53
6.3. Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot	54
6.4. IX – X asrlarda yer-mulk munosabatlari. Somoniylar sulolasining inqirozi. G'aznaviylar davlati	56
6.5. Qoraxoniylar davlati va Movarounnahr	59
6.6. XI – XII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayot	61
6.7. Xorazm davlati va uning yuksalishi	62
6.8. O'rta osiyolik mutafakkirlari. Ilm-fan ravnaqi	64
6.9. Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX – XIII asr boshlari)	67

6.10. Me'morchilik, san'at, musiqa va diniy e'tiqod.....	69
6.11. Etnik jarayonlar va o'zbek xalqining shakllanishi.....	72
7-bob. Vatanimiz xalqlarining Chingizxon istilosi va zulmiga qarshi ozodlik kurashi	74
7.1. Xorazmshohlar saltanati bilan Mo'g'ullar davlati o'rtasidagi munosabatlar.....	74
7.2. Chingizxon bosqini.....	76
7.3. Xorazmshohlar davlatining halokati.....	79
7.4. Chig'atoy ulusining tashkil topishi.....	82
7.5. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning jonlanishi.....	84
8-bob. Amir Temur va Temuriylar davlati.....	87
8.1. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi.....	87
8.2. Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi.....	90
8.3. Amir Temurning harbiy yurishlari.....	91
8.4. Amir Temur saltanatining ma'muriy va harbiy tuzilishi.....	94
8.5. Mamlakat obodonchiligi yo'lida.....	96
8.6. G'arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqalar.....	98
8.7. Amir Temur vorislari o'rtasida taxt uchun kurash va uning oqibatlari.....	101
8.8. Ulug'bek – ma'rifatparvar davlat arbobi.....	102
8.9. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi.....	105
8.10. Dehqonchilik, yer egaligi munosabatlari.....	107
8.11. Hunarmandchilik va savdo aloqalari.....	109
8.12. Ilm-fan ravnaqi.....	111
8.13. Madaniy hayot.....	113
9-bob. Movarounnahr shayboniylar hukmronligi davrida.....	116
9.1. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Xuroson va Movarounnahrda siyosiy vaziyat.....	116
9.2. Dashti Qipchoqdagi siyosiy ahvol. Muhammad Shayboniyxon.....	118
9.3. Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hokimiyatining o'rnatilishi.....	120
9.4. Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi va mutafakkir.....	122
9.5. Buxoro xonligi.....	125
9.6. XVI asrda Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.....	127
9.7. Buxoro xonligining tashqi siyosati.....	130
9.8. XVI asrda Buxoro xonligida madaniy hayot.....	133
10-bob. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi.....	136
10.1. Ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi.....	136
10.2. XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida siyosiy tarqoqlikning kuchayishi va uning oqibatlari.....	138
10.3. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.....	140
10.4. Ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayot.....	143
11-bob. Buxoro amirligi.....	146
11.1. Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi.....	146
11.2. Amirlik davlat tuzumi va uning ma'muriy boshqaruvi.....	148
11.3. Amirlikning xo'jalik hayoti.....	150
11.4. Amirlik shaharlari hayoti va savdo-sotiq ishlari.....	153
11.5. Buxoro amirligi XIX asrning birinchi yarmida.....	155
11.6. Buxoro amirligida madaniy hayot.....	157

12-bob. Xiva xonligining tashkil topishi. XVI – XVIII asrning birinchi yarmida xonlikning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti	159
12.1. Xiva xonligining tashkil topishi.....	159
12.2. XVII – XVIII asrning birinchi yarmida Xiva xonligidagi siyosiy ahvol.....	161
12.3. Xiva xonligining iqtisodiy va madaniy hayoti.....	163
13-bob. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi.....	166
13.1. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi.....	166
13.2. XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligining tashqi siyosati.....	168
13.3. Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....	171
13.4. Xiva xonligida shaharlar hayoti.....	173
13.5. Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar.....	175
14-bob. XVI – XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar	178
14.1. Qoraqalpoq xalqining shakllanishi va siyosiy hayoti.....	178
14.2. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....	180
14.3. Qoraqalpoq xalqi madaniyati.....	183
14.4. XVIII – XIX asrlarda qoraqalpoq adabiyoti ravnaqi.....	185
15-bob. XVIII – XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi	186
15.1. Qo'qon xonligining tashkil topishi.....	186
15.2. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Toshkent.....	188
15.3. XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli.....	190
15.4. Qo'qon xonligida iqtisodiy hayot.....	193
15.5. Qo'qon xonligi shaharlari.....	195
15.6. Qo'qon xonligida madaniy hayot.....	197
15.7. Tarixnavislik, san'at va me'morchilik.....	199
16-bob. Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlari.....	201
16.1. XVI – XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar.....	201
16.2. O'zbek xonliklari va Rossiya imperiyasi munosabatlari.....	204
16.3. XIX asr birinchi yarmida Markaziy Osiyo uchun Buyuk Britaniya – Rossiya raqobatchiligi.....	206
16.4. O'zbek xonliklarining taraqqiyotda orqada qolish sabablari va oqibatlari.....	209
17-bob. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.....	211
17.1. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi.....	211
17.2. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi.....	213
17.3. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....	214
17.4. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo aholisining madaniy hayoti.....	216
18-bob. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi.....	219
18.1. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi.....	219
18.2. Toshkentning bosib olinishi.....	222
18.3. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi.....	224
18.4. Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning boshlanishi.....	225
18.5. Buxoro amirligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi.....	227
18.6. Xiva xonligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi.....	230
18.7. Qo'qon xonligining bosib olinishi.....	232

19-bob. Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati.....	235
19.1. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-ma'muriy boshqaruv tizimi.....	235
19.2. Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining yer-suv siyosati.....	238
19.3. Turkistonda sud tizimi va harbiy politsiya tartibotining o'rnatilishi.....	240
19.4. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol.....	243
20-bob. XIX asr oxirida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari.....	246
20.1. Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining boshlanishi va uning sabablari.....	246
20.2. Toshkentda «Vabo isyoni».....	248
20.3. Andijon qo'zg'oloni.....	250
20.4. Milliy-ozodlik harakatlarining ahamiyati.....	254
21-bob. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar.....	255
21.1. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti.....	255
21.2. Soliq va majburiyatlilar. Xalq qo'zg'olonlari.....	258
21.3. Qoraqalpoqlar Turkiston general-gubernatorligi tarkibida.....	259
21.4. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar madaniyati.....	261
22-bob. Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati.....	263
22.1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi.....	263
22.2. Jadidlarning dasturiy maqsad va vazifalari.....	266
22.3. Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati.....	267
22.4. Jadidchilik harakatining Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga ta'siri.....	269
23-bob. Turkiston va Birinchi jahon urushi.....	271
23.1. Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta'siri.....	271
23.2. Turkistonda 1916-yilgi qo'zg'olonning boshlanishi.....	273
23.3. Jizzax qo'zg'oloni.....	275
23.4. Turkistonda 1916-yilgi voqealarning oqibatlari va ahamiyati.....	276
24-bob. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi.....	278
24.1. Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....	278
24.2. Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi.....	281
24.3. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.....	284
24.4. Xiva xonligining tugatilishi.....	289
25-bob. Mustamlaka sharoitida Turkistonda madaniy hayot.....	292
25.1. Ta'lim tizimi. Matbuot.....	292
25.2. Turkistonda ilm-fan taraqqiyoti.....	295
25.3. Teatr va musiqa san'ati.....	298
25.4. Me'morchilik va tasviriy san'at.....	301
26-bob. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatining o'rnatilishi hamda o'zbek xalqining mustaqillik uchun kurashi (1917 – 1924-yillar).....	303
26.1. Turkiston o'lkasi 1917-yil fevral – oktyabr oralig'ida.....	303
26.2. Turkistonda sovet hokimiyatining majburiy tarzda o'rnatilishi hamda bolsheviklar diktaturasi.....	306
26.3. Turkiston muxtoriyati – tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich.....	308

26.4. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati boshqaruv tizimining tuzilishi va iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlar	311
26.5. Turkiston ASSRda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar	316
26.6. Buxoro amirligida islohotlar uchun kurash hamda qizil armiya tomonidan amir hokimiyatining ag'darilishi. BXSrning tashkil topishi va faoliyati.....	318
26.7. Xiva xonligidagi ahvol hamda xon hokimiyatining ag'darilishi. XXSrning tuzilishi va turli islohotlar.....	322
26.8. BXSr va XXSRda qizil armiyaga qarshi kurash	326
O'rta Osiyo Respublikalarida o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish va uning oqibatlari.....	329
27-bob. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan siyosati (1925 – 1939-yillar) ...	333
27.1. O'zbekiston SSRning tashkil topishi.....	333
27.2. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish siyosati hamda quloqlarning surgun qilinishi.....	336
27.3. O'zbekistonda industrilashtirish siyosatining amalga oshirilishi va kadrlar masalasi	340
27.4. O'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayoni va muammolar	342
27.5. O'zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat.....	345
27.6. Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi qatag'onlik siyosati: uning mohiyati va oqibatlari.....	348
28-bob. O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi yillarida (1939 – 1945-yillar)	351
28.1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi hamda O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi	351
28.2. O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi front xizmatida	354
28.3. O'zbekistonliklarning frontdagi jasorati va qahramonliklari.....	357
28.4. O'zbekiston fani va madaniyati g'alaba uchun xizmatda	360
29-bob. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va rivojlanish muammolari (1945 – 1959-yillar)	362
29.1. O'zbekiston xalq xo'jaligining urushdan keyingi ahvoli.....	362
29.2. Ziyolilarning qatag'on qilinishi va sovet jamiyatida shaxsga sig'inishning fosh qilinishi.....	364
29.3. O'zbekistonda sanoatning bir tomonlama rivojlanishi	366
30-bob. O'zbekiston barqaror rivojlanish davrida (1959 – 1983-yillar)	369
30.1. O'zbekistonning siyosiy hayotidagi o'zgarishlar hamda sovetlarning partiya organlariga qaramligi.....	369
30.2. O'zbekistonda yoqilg'i va tog'-kon sanoatining vujudga keltirilishi hamda aholi milliy tarkibidagi o'zgarishlar	371
30.3. O'zbekistonda ekologik vaziyatning og'irlashishi va orol fojiasi	373
31-bob. O'zbekistonda sovet hokimiyatining inqirozi va mustaqillik uchun harakatlar (1984 – 1991-yillar)	376
31.1. O'zbekistonda paxta ishi va uning oqibatlari	376
31.2. Qayta qurish siyosati va uning inqirozi. Farg'ona fojialari.....	378
31.3. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida	380
32-bob. Mustaqillikning e'lon qilinishi va O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning boshlanishi.....	384
32.1. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo'lga kiritilishi	384

32.2. O'zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi	388
33-bob. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi	394
33.1. Fuqarolik jamiyati g'oyasining rivojlanish tarixi	394
33.2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy bosqichlari va istiqbollari	399
34-bob. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy siyosat	403
34.1. O'zbek modelining ishlab chiqilishi. Iqtisodiy islohotlarning boshlanishi	403
34.2. Mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining oshirilishi va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi	410
34.3. Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari	415
35-bob. O'zbekistonda etnik va konfessiyalararo munosabatlar	420
35.1. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik	420
35.2. O'zbekistonda konfessiyalararo munosabatlar	423
36-bob. Ta'lim tizimi islohotlari va kadrlar tayyorlash	427
36.1. Umumiy, o'rta, o'rta maxsus ta'lim tizimi	427
36.2. Oliy ta'lim va undan keyingi ta'limning takomillashtirilishi	430
37-bob. Mustaqillik yillarida ilm-fan va sportning rivojlanishi	433
37.1. O'zbekistonda ilm-fan	433
37.2. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi	435
37.3. O'zbekistonda yoshlar siyosati	439
38-bob. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ma'naviy va madaniy taraqqiyot	442
38.1. O'zbekistonda ma'naviy va tarixiy merosning tiklanishi	442
38.2. O'zbekistonda madaniyat va san'at	446
39-bob. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va ikki tomonlama munosabatlari	451
39.1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining shakllanishi va uning ustuvor yo'nalishlari	451
39.2. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro hamkorligi	454
39.3. O'zbekiston Respublikasining Rossiya, Xitoy va AQSh bilan o'zaro munosabatlari	458
39.4. O'zbekistonning Yaponiya, Koreya Respublikasi va Hindiston bilan ikki tomonlama aloqalari rivojlanishi	461
40-bob. O'zbekiston Respublikasining ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarining rivojlanishi	464
40.1. O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi faoliyati va tinchlikparvar tashqi siyosati	464
40.2. O'zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar doirasida ko'p tomonlama hamkorligi	468
Ilovalar	471
Qisqacha izohli lug'at	481

**O'ZBEKISTON TARIXIDAN
UNIVERSAL QO'LLANMA**

Muharrir: Elbek JUMANOV
Badiiy muharrir: Bahriiddin BOZOROV
Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV
Sahifalovchi: Inomjon O'SAROV
Musahhih: Otabek BOQIYEV

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009
Terishga berildi: 28.07.2017-y.
Bosishga ruxsat etildi: 18.01.2019-y.
Gazeta qog'ozl. Qog'oz bichimi: 84x108^{1/32}
HeliosCond garniturasl. Ofset bosma.
Hisob-nashriyot t.: 23,01. Shartli b.t.: 26,04.
Adadi: 3000 nusxa.
Buyurtma № 10/084.

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi va muqovalandi,
100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^a-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77
e-mail: info@akademnashr.uz
web: www.akademnashr.uz

«PRINT LINE GROUP» XK bosmaxonasida chop etildi.
100096, Toshkent shahri Bunyodkor shohko'chasi 44-uy.



ISBN 978-9943-4823-5-7



9 789943 482357